ДИСКРЕТ ТАРМОҚЛАНИШ ЖАРАЁНИ УЧУН ЛИМИТ ТЕОРЕМА

Ибрагимов Рискинбой

Наманган давлат университети Математик анализ кафедраси профессори

Тел: +998 99 721 29 26

Мащраббоев Ахмадали

Наманган давлат университети Математик анализ кафедраси дотценти

Тел: +998 91 358 41 77

Маматбоев Дониер

Наманган давлат университети Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика йўналиши магистранти

Тел: +998 97 594 46 96

Аннотация: Ишда маълум даврда дискрет тармоқланиш жараёнидан бошланган тармоқланиш жараёни учун лимит теорема исботланган.

Калит сўзлари: Тармоқланиш жараёни, тасодифий сондан бошланадиган жараён, ҳосил қилувчи функция, характеристик функция, оммавий хизмат назарияси, демографик жараён, энергия миқдори.

Тармоқланиш жараёни тўғрисидаги маълумотлар рефератив кўринишда [1] адабиётда баён этилган.

Маълумки [2] ишда тасодифий сондан бошланган тасодифий миқдорлар йиғиндиси учун лимит теоремалар келтирилган.

Бу ишда маълум даврда дискрет тармоқланиш жараёни учун лимит теорема қаралган.

Фараз қилайлик, μ_n ва x_n ўзаро боғлиқ бўлган дискрет тармоқланиш жараёни бўлсин.

Қуйидаги белгилашларни қараймиз:

$$z_{n, x_n} = \mu_n^{(1)} + \mu_n^{(2)} + \dots + \mu_n^{(x_n)}, \quad p(x_n = 0) = 0,$$

$$i = \overline{1, x_n}, \quad Mx_1 = a, \quad Mx_1^2 - Mx_1 = b, \quad M\mu_1 = A, \quad M\mu_1^2 - M\mu_1 = B.$$

Ҳосил қилувчи функцияларни киритамиз:

$$MS^{\mu_n^i} = F_n(S) = \sum_{k=0}^{\infty} P(\mu_n^1 = k) S^k, \quad \varphi_n(S) = MS^{x_n} = \sum_{k=0}^{\infty} P(x_n = k) S^k.$$

Ишонч ҳосил қилиш мумкинки

$$MS^{z_n, x_n} = \varphi_n(F_n(S)).$$

Бу ифодани биринчи ва иккинчи ҳосиласини ҳисоблаб, $S = 1$ қийматди



$$Mz_{n,x_n} = a^n A^n, \sigma_n^2 = Mz_{n,x_n}^2 - Mz_{n,x_n} = a^n A^n \left(\frac{A^n (a^n - 1)}{a^2 - a} b + \frac{(A^n - 1) B^n}{A^2 - A} \right), a \neq 1, A \neq 1$$

бўлади.

Қуйидаги тасодифий жараёнини кўрамыз:

$$\eta_{n,x_n} = \frac{z_{n,x_n} - Mz_{n,x_n}}{\sqrt{\sigma_n^2}} \cdot \sqrt{K_n},$$

бу ерда

$$K_n = 1 + \frac{A^n a^n (A - A^2) b}{(a^2 - a) B}$$

η_{n,x_n} учун қуйидаги теорема ўринли:

Теорема: Агар $a > 1, A < 1, b, B < +\infty, n \rightarrow \infty$ да ва x_n a^n атрофида жойлашган бўлса, у ҳолда

$$P(\eta_{n,x_n} < x) = \Phi(x) + o(1)$$

бўлади, бу ерда

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{u^2}{2}} du.$$

Бу теоремани исботи учун қуйидаги леммани келтирамыз:

Лемма. Теоремада келтирилган шартлар бажарилса, η_{n,x_n} нинг $\psi_n(S)$ характеристик функцияси $|S| < T, T \in R^+$ да $\lim_{n \rightarrow \infty} \psi_n(S) = \exp\left(-\frac{S^2}{2}\right)$ ўринлидир.

Лемма исботи.

Маълумки,

$$\psi_n(S) = \sum_{k=1}^{\infty} P(x_n = k) e^{-\frac{ia^n A^n S}{\sigma_n} \sqrt{K_n}} \left(F_n \left(e^{\frac{iS}{\sigma_n} \sqrt{K_n}} \right) \right)^k$$

Буни қуйидагича кўринишда ёзиш мумкин.

$$\psi_n(S) = \sum_{k=1}^{\infty} P(x_n = k) e^{\frac{i(k-a^n)}{\sigma_n} \sqrt{K_n} \cdot A^n S} \cdot \left(e^{-\frac{iSA^n}{\sigma_n} \sqrt{K_n}} F \left(e^{\frac{iS}{\sigma_n} \sqrt{K_n}} \right) \right)^k \quad (1)$$

Қуйидаги қўшимча характеристик функцияни киритамиз:

$$\overline{\psi}_n(S) = \sum_{k=1}^{\infty} P(x_n = k) e^{-\frac{i(k-a^n)}{\sigma_n} \sqrt{K_n} \cdot A^n S} \cdot \left(e^{\frac{iSA^n}{\sigma_n} \sqrt{K_n}} F \left(e^{\frac{iS}{\sigma_n} \sqrt{K_n}} \right) \right)^{a^n} \quad (2)$$

(1) ва (2) лардан



$$\begin{aligned}
 |\psi_n(S) - \overline{\psi}_n(S)| &= \sum_{k=1}^{\infty} P(x_n = k) \left| e^{\frac{i(k-a^n)\sqrt{K_n}A^n S}{\sigma_n}} \right| \times \\
 &\times \left| \left(e^{-\frac{iSA^n\sqrt{K_n}}{\sigma_n}} F_n \left(e^{\frac{iS}{\sigma_n}\sqrt{K_n}} \right) \right)^k - \left(e^{-\frac{iSA^n\sqrt{K_n}}{\sigma_n}} F_n \left(e^{\frac{iS}{\sigma_n}\sqrt{K_n}} \right) \right)^{a^n} \right| = \\
 &= \sum_{k=0}^{\infty} P(x_n = k) L_1^{(n)} \cdot L_2^{(n)} \quad (3)
 \end{aligned}$$

([3], 10 бет) га асосан $n \rightarrow \infty$ да $L_1^{(n)} = 1$, $L_2 = 0(D\mu_n)$, демак $n \rightarrow \infty$ $L_2 \rightarrow 0$. Бундан

$$\psi_n(S) = \overline{\psi}_n(S) + o(1) \quad (4)$$

бўлади, энди $\overline{\psi}_n(S)$ ни ўрганамиз. Тейлор қаторига ёйиб,

$$\begin{aligned}
 e^{-\frac{iSA^n\sqrt{K_n}}{\sigma_n}} F_n \left(e^{\frac{iS}{\sigma_n}\sqrt{K_n}} \right) &= \left(1 - \frac{iSA^n}{\sigma_n} \sqrt{K_n} - \frac{S^2}{2} \frac{A^{2n}}{\sigma_n^2} K_n + o(A^{2n}) \right) \times \\
 &\times \left(1 + \frac{iSA^n}{\sigma_n} \sqrt{K_n} - \frac{S^2}{2\sigma_n^2} K_n \cdot F_n''(1) + o(F_n''(1)) \right) = \\
 &= 1 - \frac{S^2 K_n}{2\sigma_n^2} (F_n''(1) - A^{2n}) + o(A^n) = e^{-\frac{S^2 K_n}{2\sigma_n^2} (F_n''(1) - A^{2n})} + o(A^n)
 \end{aligned}$$

Бундан

$$\left[e^{-\frac{iSA^n\sqrt{K_n}}{\sigma_n}} F_n \left(e^{\frac{iS}{\sigma_n}\sqrt{K_n}} \right) \right]^{a^n} = e^{-\frac{S^2}{2} (1 + o(1))} \quad (5)$$

Иккинчи томондан x_n a^n атрофида йиғилган бўлса,

$$\sum_{k=1}^{\infty} P(x_n = k) \cdot e^{\frac{i(k-a^n)\sqrt{K_n}}{\sigma_n}} \rightarrow 1 + o(1), \quad n \rightarrow \infty \quad (6)$$

Демак, (4) ва (5) дан

$$\psi_n(S) = e^{-\frac{S^2}{2}} + o(1).$$

Лемма исботланди.

Теореманинг исботи леммадан келиб чиқади.

Бу теорема оммавий хизмат кўрсатиш назариясида, демографик жараёнда, энергия миқдорини ҳисоблаш, биологияда, химияда муҳим роль ўйнайди.

Адабиётлар

- [1] Вагугин В.А., Зубков А.М. Вегвяхшихся процессы 1. «Итоги науки» Техники, Теория вероятностей. Математическая статистика кибернетика. 28. ВИНТИ, М., 1985., 3-67.
 [2] Robbins Н. The asymptotic distribution of the sum of a random number of random variables. Bulletin of the American Math. Soc. 54, 12-(1948) 1151 – 1161.



[3] Ибрагимов Р. Атакузиев Д., Мащраббоев А. О предельный теореме для ветвящихся процессии начинающих со случайного числа частим. Ж. «Случайные процессы и математическая статистика», часть II., Ташкент, 1982.

НОПАРАБОЛИК ДИСПЕРЦИЯЛИ ИККИ ЎЛЧАМЛИ ЭЛЕКТРОН ГАЗ ХИМИЯВИЙ ПОТЕНЦИАЛИНИНГ ТАБИАТИ

Тоҳиржонов Маҳмуджон Собитжон ўғли¹, Маҳмудов Азамат Сатторович², Юнусов Одилжон Маҳмуджон ўғли³, Халматов Алишер Илхомжонович³, Маҳмудова Дилрабо Моҳиржон қизи³

¹Наманган давлат университети таянч докторанти

²Наманган давлат университети Физика ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси

³Наманган давлат университети магистри

Тел: +998934046258; +998949022277; e-mail: tmahmudjon1992@mail.ru,
mahmudov7353@mail.ru

Аннотация: *Квази икки ўлчовли электрон газининг химиявий потенциалининг температура бўйича ўзгариш тезлиги ($d\mu/dT$) – дисперсияни нопараболиклигини ҳисобга олган ҳолда сонли ва аналитик таҳлил этилади. $d\mu/dT$ нинг резонанс ва ундан узоқда жойлашган нуқталарида газнинг химиявий потенциалига боғлиқлиги кўрсатилади. Паст температураларда зонанинги нопараболиклиги $d\mu/dT$ га кичик тузатма беради. Бу тузатма резонанс нуқтасида ва ундан узоқда $\sim \alpha T$ га пропорционал эканлиги олинган ифодалар ёрдамида тушунтирилади.*

Калит сўзлар: *квант ўра, нопараболик дисперсия, химиявий потенциал, энтропия, Кейн модели, Ферми сатҳи, минизоналар*

ПРИРОДА НЕПАРАБОЛОГИЧЕСКОЙ ДИСПЕРСИИ ДВУМЕРНОГО ЭЛЕКТРОННОГО ГАЗО ХИМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА

Тоҳиржонов Маҳмуджон Собитжон ўғли¹, Маҳмудов Азамат Сатторович², Юнусов Одилжон Маҳмуджон ўғли³, Халматов Алишер Илхомжонович³, Маҳмудова Дилрабо Моҳиржон қизи³

¹Базовый докторант Наманганского государственного университета

²Преподаватель кафедры методики преподавания физики Наманганского государственного университета.

³ Магистр Наманганского государственного университета

Тел: +998934046258; +998949022277; e-mail: tmahmudjon1992@mail.ru, mahmudov7353@mail.ru

Аннотация: *Скорость изменения температуры ($d\mu/dT$) химического потенциала квазидвумерного электронного газа анализируется количественно и аналитически с учетом непараболической природы дисперсии. Показано, что резонанс и расстояния $d\mu/dT$ зависят от химического потенциала газа. При низких температурах непараболичность зоны дает небольшую поправку к $d\mu/dT$. Эта поправка объясняется полученными выражениями, что она пропорциональна $\sim \alpha T$ в точке резонанса и в точке резонанса.*

Ключевые слова: *Квантовая яма, Непараболическая дисперсия, химический потенциал, энтропия, модель Кейна, уровень Ферми, минизоны,*

NATURE OF NON-PARABOLOGICAL DISPERSION OF TWO-DIMENSIONAL ELECTRONIC GAS OF CHEMICAL POTENTIAL

Tokhirjonov Makhmudjon Sobitjon ugli¹, Makhmudov Azamat Sattorovich², Yununusov Odiljon Makhmudjon ugli³, Khalmatov Alisher Ilkhomjonovich³, Makhmudova Dilrabo Mokhirjon qizi³

¹ Basic doctoral student of Namangan State University



² Lecturer at the Department of Physics Teaching Methods, Namangan State University

³ Master of Namangan State University

Tel: +998934046258; +998949022277; e-mail: tmahmudjon1992@mail.ru,
mahmudov7353@mail.ru

Abstract: The rate of change in temperature ($d\mu/dT$) of the chemical potential of a quasi-two-dimensional electron gas is analyzed quantitatively and analytically, taking into account the nonparabolic nature of the dispersion. It is shown that the resonance and the distance $d\mu/dT$ depend on the chemical potential of the gas. At low temperatures, the nonparabolicity of the band gives a small correction to $d\mu/dT$. This correction is explained by the obtained expressions that it is proportional to $\sim \alpha T$ at the resonance point

Keywords: Quantum Well, , Nonparabolic dispersion, chemical potential, entropy, Kane model , Fermi level, Subbands

Кириш

Паст ўлчамли яримўтказгич қатламли тузилмалар микроэлектрониканинг муҳим объекти ҳисобланади. Бугунги кунда ушбу соҳага бўлган қизиқиш кундан кунга ортиб бормоқда [1]. Фазовий квантланиш эффеќлари - тажрибаларда кузатилиши мумкин бўлган қатор термодинамик катталикларда (химиявий потенциал, энтропия, иссиқлик сифими, ўтказувчанлик ва хоказо) намоён бўлади [2-8]. Бу асосан газнинг энергия ҳолатлар зичлигини поғонасимон сакраб ўзгариши сабаблидир. Поғонасимон сакрашлар эса, резонанс нуќталарда, яъни газнинг μ ни фазовий квантланиш энергия сатхи E_n га тенглашганда пайдо бўлади. μ ёки энергия сатхи E_n ни ўзгартириш учун амалда газ концентрацияси n ёки квант ўра кенлиги L ни ўзгартириб эришиш мумкин.

$d\mu/dT$ - ни тўла энтропиянинг тўла консентрацияси бўйича олинган ҳосиласи (битта заррага тўғри келувчи энтропия), иккинчи томондан эса химиявий потенциалдан температура бўйича олинган ҳосиласига тенг. $d\mu/dT$ нинг μ га боғланиши параболик дисперсия учун ўрганилган ва параболик дисперсия учун идеал газ моделида, паст температураларда $d\mu/dT$ ни энергетик зоналар номери (N)га боғланишининг содда ифодаси топилган [5].

$$-\left(\frac{d\mu}{dT}\right)_{E_F} = \frac{\ln(2)}{N-1/2}.$$

[5] да газ μ нинг фазовий квантланиш энергия сатхи (E_n)га тенглашганда пайдо бўлувчи максимумлари куйи энергетик сатҳларда анча сезиларли даражада бўлиши, юқори энергетик сатҳларга ўтганда эса камайиб бориши кўрсатилган бўлиб, электронларнинг ўзаро таъсирини, зонанинг нопараболиклигини, ташқи магнит майдон таъсирини ҳисобга олмаган ҳолда, чексиз чуқур потенциал ўра мисолида ўрганилган.

Параболик зонада температурага мос равишда μ нинг ўзгариши таҳлил қилинган[2-8]. Ушбу назарий таҳлилларда идеал газ модели иштирилган бўлиб, квант ўрадаги электрон спектри - соддалик учун оддий моделларда ва параболик дисперсияда олинган. Бунда, Ферми энергияси ортиб боришида, μ ни температурага боғланиши – резонанс нуќталарда чизиқли қонун бўйича, резонанс нуќталардан узоқлашганда (масалан, сатҳлар ўртасида) экспоненциал секин ўзгариши кўрсатилган [8].

Бу ишда $d\mu/dT$ ни μ га боғланишида электроннинг нопараболик дисперсияси Кейннинг икки зонали моделидан фойдаланиб таҳлил қилинди. Электронларнинг ўзаро ёки дефектлар билан тўқнашиш жараёни, иссиқлик туфайли электронларнинг тўсиқ соҳадаги локал сатҳларга ёки ўтказувчанлик зонасига ўтиши, валент зона таъсири, ташқи магнит майдон таъсири в.х бошқа факторлар ҳисобга олинмади. Олинган натижаларнинг сонли ва аналитик таҳлили ўтказилди. Натижаларнинг кўрсатишича, зонанинг нопараболиклиги ҳосил бўлувчи максимумларга таъсир ўтказиб, паст температураларда αT тузатма бериши кўрсатилди.



Асосий муносабатлар

$d\mu/dT$ ни μ га боғланишини таҳлил қилиш учун ўрадаги электронлар энергия спектрини ёзамиз. Бунда Кейннинг икки зонали моделидан фойдаланамиз.

$$E(1 + \alpha E) = \frac{\hbar^2(k_x^2 + k_y^2 + k_z^2)}{2m_n} = \frac{\hbar^2 k^2}{2m_n} + \frac{\hbar^2 \pi^2 i^2}{2m_n L^2} = \frac{\hbar^2 k^2}{2m_n} + E_1 i^2 \quad (1)$$

$$k = 0 \text{ да } E_i (1 + \alpha E_i) = E_1 i^2 \quad (1.1)$$

(1.1) ни ҳисобга олсак,

$$E(1 + \alpha E) = \frac{\hbar^2 k^2}{2m_n} + E_i (1 + \alpha E_i) \quad (2)$$

Бунда, $E_i = \frac{\sqrt{4\alpha E_1 i^2 + 1} - 1}{2\alpha}$

Икки ўлчамли системада зарралар концентрацияси:

$$n_s = g_0 \sum_{i=1}^{\infty} \int_0^{\infty} dE (1 + 2\alpha E) f(E) \theta(E - E_i) = \int_0^{\infty} dE g(E) f(E) \quad (3)$$

Бунда, $g_0 = \frac{m_n}{\pi \hbar^2}$; $g(E) = g_0 (1 + 2\alpha E) \sum_{i=1}^{\infty} \theta(E - E_i)$; $f(E) = \frac{1}{e^{\frac{E-\mu}{T}} + 1}$

Квант ўрадаги зарралар сони ўзгармас сақланади ($n = const$). Шунга кўра, концентрацияси яъни температура бўйича ҳосил олиб уни нолга тенглаб, $d\mu/dT$ ни μ га боғланиши учун қуйидагича ифода оламиз:

$$\frac{d\mu}{dT} = \frac{1}{T} \left(\mu - \frac{\sum_{n=1}^M \int_{E_n}^{\infty} E \cdot (1 + 2\alpha E) \frac{\partial f(E)}{\partial E} dE}{\sum_{n=1}^M \int_{E_n}^{\infty} (1 + 2\alpha E) \frac{\partial f(E)}{\partial E} dE} \right) \quad (4)$$

(4) келтирилган ифода ёрдамида $d\mu/dT$ ни μ га боғланишини сонли ва аналитик усулда таҳлил қилиш мумкин.

Анализ

(4) ифодани бир нечта математик соддалаштиришлар бажариб анча қулай кўринишда ёзиб олиш мумкин.

1 холда. Дастлаб $\mu = E_N$ яъни, резонанс нуқтаси учун таҳлил қилиб кўрайлик. Бунда, $T \ll E_{n+1} - E_n$, $N < M$ деб оламиз.

(4) ифода резонанс нуқта учун қуйидагича содда кўринишни олади:

$$\frac{\partial \mu}{\partial T} = - \frac{\frac{\ln 2}{N-1/2} + 2\alpha T \frac{\pi^2}{3(1+2\alpha E_N)}}{1 + 2\alpha T \frac{\ln 2}{(1+2\alpha E_N)(N-1/2)}} \quad (5)$$

(5) ифодада

$$T \rightarrow 0, \alpha \rightarrow 0 \text{ интилса, } \frac{\partial \mu}{\partial T} = - \frac{\ln 2}{N-1/2} \quad (6)$$

кўринишга келади. Бу [5] даги ифода билан айнан бир хилдир. Бу (5) ифода нопараболик зона учун ўринли эканлигини кўрсатади.

2 холда (4) ифодани μ ни резонанс нуқталардан узокроқ нуқталарда яъни: $E_{N-1} < \mu < E_N$ бўлган ҳолат учун таҳлил қилайлик. Бунда, $T \ll E_{n+1} - E_n, N < M$

Юқоридагиларни ҳисобга олсак, ифода куйидагича кўринишда бўлади:


$$\frac{\partial \mu}{\partial T} = - \frac{8\alpha T \cdot (N-1) \frac{\pi^2}{6}}{(1+2\alpha\mu) \cdot 2(N-1)} = - \frac{2\alpha T \pi^2}{(1+2\alpha\mu) \cdot 3} \quad (7)$$

(5) ва (7) ифодалардан кўринадики, зонанинг нопараболиклиги αT тузатма берар экан. Температура ортганда бу тузатманинг таъсири яна ҳам сезилиб боради.

Графикда тасвирланиши

Бевосита $d\mu/dT$ ни μ га боғланишини турли температураларда ва α нинг турли қийматларида графикда тасвирланишини кўрайлик.


1-расмдан кўринадики температуранинг жуда паст қийматларида ($T=3.5 \text{ K}$) зонанинг параболик ($\alpha=0$) ва нопараболиклигида ($\alpha=2$) ҳосил бўлувчи максимумлар баландлиги бир сатҳга мос келади. Лекин улар бир-биридан силжиган ҳолда бўлади.



1-расм. Паст температурада ($T = 3.5 \text{ K}$) $d\mu/dT$ ни μ га боғланиши


Агар температура кўтарилса, α нинг турли қийматлари учун ҳосил бўладиган максимумларда ва минимумларда фарқ пайдо бўлади. Минимумларнинг нол қийматдан кўтарилишига зонанинг нопараболиклиги спектрида энергетик ҳолатлар зичлигининг сатҳлар оралиғида экспоненциал равишда ўзгариб бориши сабаб бўлади.

Қуйида 2-расмда $T=35 \text{ K}$ температурада α нинг $\alpha=0$ ва $\alpha=2$ қийматлари учун $d\mu/dT$ ни μ га боғланиши келтирилган.




2-расм. T= 35 К температурада $d\mu/dT$ ни μ га боғланиши

Бундан ташқари, температуранинг қиймати максимумлар кенглигини ҳам ўзгартиради. 3-расмда $\alpha=0$ учун $T=3.5$ К ва $T=35$ К температураларда ҳосил бўлувчи максимумлар кўрсатишган. Графикдан кўринадики, Максимумлар баландлиги $\alpha=0$ да температурага боғлиқ бўлмай қолади. Лекин уларнинг кенлиги температуранинг кўтарилишига мос равишда ортиб боради.



3-расм. Турли температураларда ва $\alpha=0$ да $d\mu/dT$ ни μ га боғланиши

$\alpha=2$ учун $T=3.5$ К ва $T=35$ К температураларда ҳосил бўлувчи максимумлар бири-биридан ҳам баландлиги жиҳатидан, ҳам кенлиги жиҳатидан фарқ қилади. Бундан кўринадики, температуранинг кўтарилиши $\alpha=0$ да максимумлар фақат кенлигини ўзгартирса, $\alpha=2$ да кенлиги билан бир вақтда баландлигини ҳам ўзгартиради(4-расм).



4-расм. Турли температураларда ва $\alpha=2$ да $d\mu/dT$ ни μ га боғланиши

Хулоса

Демак таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, ушбу ишда зонанинг нопараболиклигини ҳисобга олган ҳолда $d\mu/dT$ ни μ га боғланишини ифодаловчи содда аналитик ифода олинди. Бу ифодадан кўриш мумкинки, паст температураларда зонанинг нопараболиклиги αT тузатма берар экан. Графиклардан кўришимиз мумкинки температура ва α нинг турли қийматлари $d\mu/dT$ ни μ га боғланиш максимумларга ва минимумларга сезиларли таъсир қилар экан. Паст температураларда α нинг аҳамияти сезилмайди. Лекин температуранинг кўтарилиши максимумлар баландлигидан ташқари, унинг кенглигини ҳам ўзгартиришини тушунтиришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

- [1] Шик А.Я., Бакуева Л.Г., Мусихин С.Ф., Рыков С.А. Физика низкоразмерных систем / Под ред. А.Я. Шика. –СПб.: Наука, 2001. 160 с.
- [2] Zawadzki W., Thermodynamics of Two-dimensional Electron Gas in a Magnetic Field. Springer Series in Solid-State Sciences. 53, 1984, 79-85 p.
- [3] Ramos A.C.A., Farias G.A., Almeida N.S. Thermodynamics of a Quasi-two Dimensional Electron Gas: Effects of Magnetic Fields, Temperature and Finite Width. Physic E: Low-Dimensional Systems and Nanostructures. 43, 2011. 1878-1881 p .
- [4]. A.Yu. Kuntsevich, I.V. Tupikov, V.M. Pudalov, и Y.S. Burmistrov. *Strongly correlated two-dimensional plasma explored from entropy measurements* // Nat. Commun. 6, 7298 (2015).
- [5] A. A. Varlamov, A.V. Kavokin and Y.M. Galperin. Quantization of entropy in a quasi-two-dimensional electron gas. Phys.Rev. B 93, 155404 (2016). doi: 10.1103/PhysRevB.93.155404
- [6] Кукушкин И.В, Мешков С.В, Тимофеев В.Ф. Плотность состояний двумерных электронов в поперечном магнитном поле. УФН. 1988. Т.155, вып. 2. С. 219–264.
- [7] Cristine Villagonzalo , Rayda Gammag, The Intrinsic Features of the Specific Heat at Half-Filled Landau Levels of Two-Dimensional Electron Systems, J Low Temp Phys (2011) 163: pp.43–52, doi 10.1007/s10909-010-0259-3



[8] P.J.Baymatov, A.G.Gulyamov, B.T.Abdulazizov, Kh. Yu. Mavlyanov and M.S.Tokhirjonov //Features of the chemical potential of a quasi-two-dimensional electron gas at low-temperatures// International Journal of Modern Physics B 2150070 (13 pages)

Р-Н ЎТИШ ДИФФЕРЕНЦИАЛ ЎТКАЗУВЧАНЛИГИ ВА ДИФФУЗИЯ СИГИМИГА КУЧЛИ ЭЛЕКТРОМАГНИТ МАЙДОН ВА ДЕФОРМАЦИЯНИНГ ТАЪСИРИ

Гафур Гулямов

Наманган муҳандислик - қурилиш институти
Физика – математика фанлари доктори, профессор

Мухаммаджон Дадамирзаев Гуломкодирович

Наманган муҳандислик - қурилиш институти
Физика – математика фанлари доктори, профессор

*E-mail: dadamirzaev70@umail.uz

Мамура Косимова Одилжонова

Наманган муҳандислик - қурилиш институти

Стажёр тадқиқотчи

*E-mail: mamuraqosimova@umail.uz

Ёқубжонова Мафтуна Рўзали қизи

Наманган Давлат Университети магистри

Аннотация. Ушбу ишда р-н ўтиши дифференциал ўтказувчанлиги ва диффузия сизимига кучли ўта юқори частотали (ЎЮЧ) электромагнит майдон ва деформациянинг таъсири ўрганилган. Кучли электромагнит майдон ва деформация таъсирида р-н ўтиши дифференциал ўтказувчанлиги ва диффузия сизими ортиши келтирилган.

Калит сўзлар: р-н ўтиши, кучли электромагнит майдон, деформация, дифференциал ўтказувчанлик, диффузион сизим.

ВЛИЯНИЕ СИЛЬНОГО ЭЛЕКТРОМАГНИТНОГО ПОЛЯ И ДЕФОРМАЦИИ НА ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЕ ПРОВОДИМОСТЬ И ДИФФУЗИОННУЮ ЕМКОСТЬ Р-Н- ПЕРЕХОДА

Гафур Гулямов

Наманганский инженерно-строительный институт
Профессор, доктор физика – математических наук

Мухаммаджон Дадамирзаев Гуломкодирович

Наманганский инженерно-строительный институт
Профессор, доктор физика – математических наук

*E-mail: dadamirzaev70@umail.uz

Мамура Косимова Одилжонова

Наманганский инженерно-строительный институт

Старший преподаватель

*E-mail: mamuraqosimova@umail.uz

Яқубжонова Мафтуна Розали қизи

Наманганского государственного университета, магистр



Аннотация. В этом исследовании изучалось влияние сильного электромагнитного поля сверхвысокой частоты (СВЧ) и деформации на дифференциальную проводимость p-n-перехода и диффузионную емкость. Показано увеличение дифференциальной проводимости и диффузионной емкости p-n-перехода под действием сильного электромагнитного поля и деформации.

Ключевые слова: p-n-переход, сильное электромагнитное поле, деформация дифференциальная проводимость, диффузионная емкость

.INFLUENCE OF A STRONG ELECTROMAGNETIC FIELD AND DEFORMATION ON THE DIFFERENTIAL CONDUCTIVITY AND DIFFUSION CAPACITY OF A P-N-JUNCTION

GafurGulyamov

Namangan engineering-construction institute

Doctor of science (DSc) in physical and mathematical sciences, associate professor,

Muxammadjon Dadamirzayev Gulomkodirovich

Namangan engineering-construction institute

Doctor of science (DSc) in physical and mathematical sciences, associate professor,

Mamura Kosimova Odiljonovna

Namangan engineering-construction institute

senior teacher

Yokubjonova Maftuna Ruzali kizi

Namangan State University, magistr

Abstract: This study examined the effect of a strong microwave electromagnetic field and deformation on the differential conductance of the p-n-junction and the diffusion capacity. An increase in the differential conductivity and diffusion capacity of the p-n-junction under the action of a strong electromagnetic field and deformation is shown.

Keywords: p-n junction, strong electromagnetic field, deformation, light, differential conductivity, diffusion capacity.

Кириш

Яримўтказгичли асбобларнинг асосини p-n-ўтиш ташкили этиб, унинг назариясини чуқур ўрганиш яримўтказгичли асбоблар физикасининг ривожига ҳал қилувчи рол ўйнайди. p-n-ўтиш характеристикаларини ўрганишда ҳозирга қадар кўплаб тадқиқотлар ўтказилган [1-16]. [7] ишда p-n-ўтиш кучли электромагнит майдон таъсирида потенциал тўсиқ баланглиги ғалаёнланиши ва рекомбинация токининг кўпайиши, шунингдек, фотозарралар ёрдамида ёритилганда, вольт-ампер характеристикасининг паст ток қийматларига силжишига олиб келиши кўрсатилган. Кучли электромагнит майдон таъсирида p-n-ўтишда уюрмали тоқлар хосил бўлиши ва у намунадаги генерацияланадиган тоқларга таъсир қилиши [8] ишда батафсил кўриб чиқилган. Бир вақтда ёруғлик ва кучли электромагнит майдон таъсир қилганда p-n-ўтиш вольт-ампер характеристикаси ноидеаллик коэффициенти ўзгаришининг сезгирлиги ортади. Бунда кучли электромагнит майдон ва ёруғлик таъсирида p-n-ўтишда рекомбинацион ва генерацион жараёнлар пайдо бўлиши ва уларнинг ноидеаллик коэффициентига кучли таъсир қилиши [9] ишда аниқланган. Ўзгарувчан



майдондаги диоддан ташқарига чиқаётган ток факат конвекция токи билан аниқланиб, силжиш токининг ўртача қиймати эса хар доим нолга тенг бўлиб, диоддан чиқаётган ўртача токка хеч қандай таъсир қилмаслиги ва бу электромагнит майдондаги турли диодларда генерацияланадиган токларнинг юзага келиши [10] ишда кўрсатилган. Паст частоталарда р-п-ўтиш токи фақат электрон-ковак ўтишнинг актив қаршиликлари ҳамда яримўтказгичнинг р ва п-соҳаларининг қаршилиги билан ва юқори частоталарда р-п-ўтишнинг инерцияси унинг сиғими билан аниқланиши [11] ишда кўрсатилган. р-п-ўтиш ВАХ га ташқи таъсирлар [12] ва [13] ишларда назарий ўрганилган. [5] ишда фотоелектрик қурилмаларни ишлаб чиқаришда яримўтказгичларнинг волт-фарада характеристикасини ўрганиш уларнинг самарадорлигини оширишини эксперимент натижалари кўрсатиб турибди. А.И.Вейнгернинг [5,6] тажрибаларидаги типик наъмуналарнинг $R \sim 10^2 \sim 10^4 \text{ Ом}$, $C = 10^2 \text{ Пф}$, $\nu = 10^{10} \text{ Гц}$ параметрларидан фойдаланиб [17] ишда силжиш токи конвекция токига нисбатан минг мартадан бир неча юз минг мартагача катта бўлиши кўрсатилган ва бу экспериментал фактга асосланиб диоднинг сиғими - C унинг дифференциал қаршилиги - R ни тўла шунтлайди деб ҳисобланган. Ҳақиқатдан ҳам, $\nu = 10^{10}$ Герц частоталарда ўзгарувчан ток сиғим орқали ўтиб кетаверади, деб ҳисоблаш мумкин. Бошқача қилиб айтганда, диоднинг сиғим токи p - n -ўтишдаги конвекция токидан жуда кўп марта катта бўлади. Бу ҳолда p - n -ўтишнинг актив ўтказувчанлиги диоднинг сиғими билан ниҳоятда кучли шунтланади ва намуна тўғрилаш хусусиятини деярли тўла йўқотишини кўриш мумкин. Диодларни ишлаш самарадорлигини оширишда ташқи таъсирларнинг аҳамияти катта. Бироқ ҳозиргача мавжуд адабиётлардаги келтирилган ишларда p - n -ўтиш дифференциал ўтказувчанлигига ва диффузия сиғимига турли ташқи таъсирлар назарий жиҳатдан етарли даражада ўрганилмаган. Шунинг учун бу ишда турли ташқи таъсирларни, хусусан, кучли электромагнит майдон ва деформациянинг p - n -ўтиш дифференциал ўтказувчанлиги ва диффузия сиғимига таъсирини назарий тадқиқ қилиш асосий мақсад қилиб олинган.

р-п-ўтиш дифференциал ўтказувчанлигига кучли электромагнит майдон ва деформациянинг таъсири

p - n -ўтишнинг дифференциал ўтказувчанлиги G қуйидаги қуйидаги муносабат билан аниқланади [18]:

$$G = \frac{dI}{dU} = \frac{eI_s}{kT} \exp\left(\frac{eU}{kT}\right) \quad (1)$$

Бу ерда I – ток кучи, U – кучланиш, e – электрон заряди, k – Больцман доимийси, I_s – тўйиниш токи, T – панжара ҳарорати, $G_0 = \frac{eI_s}{kT}$

Кучли электромагнит майдон таъсирида p - n ўтишдаги электрон ва коваклар қизиган ва потенциал тўсиқ баландлиги ғалаёнланган ($T_e \neq T_h > T$; $U_B \neq 0$) да деформациянинг p - n -ўтиш токига таъсири ифодасидан [13]:



$$\begin{aligned}
 \bar{j} = & \sqrt{\frac{ekT_e}{\tau_e} \cdot T^{3,4} \cdot 10^9 \cdot \frac{3 \cdot 10^{33} \cdot e^{-\frac{\varepsilon_g(0)+\Delta\varepsilon}{kT}}}{p_p}} \times \\
 & \times \left\{ \left(\frac{T_e}{T}\right)^{\frac{1}{2}} \exp\left(\frac{e\varphi_0}{kT} - \frac{e(\varphi_0-U)}{kT_e}\right) \int_0^{2\pi} \exp\left(-\frac{eU_B \cos(\omega t)}{kT_e}\right) \frac{d(\omega t)}{2\pi} - 1 \right\} + \quad (2) \\
 & + \sqrt{\frac{ekT_h}{\tau_h} \cdot T^{3,7} \cdot 2,5 \cdot 10^8 \cdot \frac{1,5 \cdot 10^{33} \cdot e^{-\frac{\varepsilon_g(0)+\Delta\varepsilon}{kT}}}{n_n}} \times \\
 & \times \left\{ \left(\frac{T_h}{T}\right)^{\frac{1}{2}} \exp\left(\frac{e\varphi_0}{kT} - \frac{e(\varphi_0-U)}{kT_h}\right) \int_0^{2\pi} \exp\left(-\frac{eU_B \cos(\omega t)}{kT_h}\right) \frac{d(\omega t)}{2\pi} - 1 \right\}.
 \end{aligned}$$


(бу ерда, J – ток зичлиги, U – кучланиш, e – электрон заряди, k – Больцман доимийси, T_e – электрон температураси, τ_e – электроннинг яшаш вақти, T – панжара температураси, ε_g – тақиқланган зона, Δ -деформация потенциали, ε – нисбий деформация, φ_0 – электромагнит тўлқин таъсири бўлмаганда р-н-ўтишнинг потенциал тўсиқ баландлиги, T_h – ковак температураси, τ_h – электроннинг яшаш вақти, p_p – ковак концентрацияси, n_n – электрон концентрацияси) ва қуйидаги

$$e^{-\frac{eU_1}{kT}} = \frac{1}{2\pi} \int_0^{2\pi} \exp\left(-\frac{eU_B \cos(\omega t)}{kT_e}\right) d(\omega t), \quad e^{-\frac{eU_2}{kT}} = \frac{1}{2\pi} \int_0^{2\pi} \exp\left(-\frac{eU_B \cos(\omega t)}{kT_h}\right) d(\omega t)$$


тенгликларни ҳисобга олиб р-н-ўтиш дифференциал ўтказувчанлиги учун қуйидаги ифодага эга бўламиз:

$$\begin{aligned}
 G = \frac{dI}{dU} = & \left[\sqrt{\frac{ekT_e}{\tau_e} \cdot T^{3,4} \cdot 10^9 \cdot \frac{3 \cdot 10^{33} \cdot e^{-\frac{\varepsilon_g(0)+\Delta\varepsilon}{kT}}}{p_p}} \left(\frac{T_e}{T}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{e}{kT_e} e^{\left(\frac{e\varphi_0}{kT} - \frac{e(\varphi_0-U-U_1)}{kT_e}\right)} \right] + \\
 & + \sqrt{\frac{ekT_h}{\tau_h} \cdot T^{3,7} \cdot 2,5 \cdot 10^8 \cdot \frac{1,5 \cdot 10^{33} \cdot e^{-\frac{\varepsilon_g(0)+\Delta\varepsilon}{kT}}}{n_n}} \left[\left(\frac{T_h}{T}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{e}{kT_h} e^{\left(\frac{e\varphi_0}{kT} - \frac{e(\varphi_0-U-U_2)}{kT_h}\right)} \right] \quad (3)
 \end{aligned}$$

Ушбу ифодадан фойдаланиб, дифференциал ўтказувчанликнинг қўйилган кучланишга боғлиқлик графигини икки ва уч ўлчамли координаталарда олиш мумкин (1- ва 2- расмлар).



1-расм. p-n ўтиш дифференциал ўтказувчанлигининг кучланишга боғлиқлиги



2-расм. p-n ўтиш дифференциал ўтказувчанлигининг уч ўлчовли фазо (R,U,ε) даги кўриниши ($T_e \neq T_h > T$; $U_B \neq 0$)

Ушбу графиклардан кўринадикки, кучли электромагнит майдон ва деформация таъсирида p-n ўтиш дифференциал ўтказувчанлиги ортиб боради.

p-n ўтиш диффузия сиғимига кучли электромагнит майдон ва деформациянинг таъсири


p- ва n- соҳалардаги номувозанат ноасосий заряд ташувчилар – диффузия сиғимини вужудга келтиради. p-n-ўтишнинг диффузион сиғим катталиги асосий бўлмаган заряд ташувчиларнинг яшаш вақтига пропорционал [18]:

$$C = \frac{1}{2} G \tau \quad (4)$$


Электрон ва коваларнинг яшаш вақтларини тенг, яъни $\tau_n = \tau_p = \tau$ деб ҳисоблаб (4) ифодага (3) ни қўйсак диффузион сғимм C келиб чиқади:

$$C = \frac{1}{2} G \tau = \left\{ \begin{aligned} & \left[\sqrt{\frac{ekT_e}{\tau_e}} \cdot T^{3,4} \cdot 10^9 \cdot \frac{3 \cdot 10^{33} \cdot e^{-\frac{\varepsilon_g(0)+\Delta\varepsilon}{kT}}}{p_p} \left(\frac{T_e}{T}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{e}{kT_e} e^{\left(\frac{e\varphi_0 - e(\varphi_0 - U - U_1)}{kT_e}\right)} \right] + \\ & \left[\sqrt{\frac{ekT_h}{\tau_h}} \cdot T^{3,7} \cdot 2,5 \cdot 10^8 \cdot \frac{1,5 \cdot 10^{33} \cdot e^{-\frac{\varepsilon_g(0)+\Delta\varepsilon}{kT}}}{n_n} \left(\frac{T_h}{T}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{e}{kT_h} e^{\left(\frac{e\varphi_0 - e(\varphi_0 - U - U_2)}{kT_h}\right)} \right] \end{aligned} \right\} \frac{\tau}{2} \quad (5)$$

Ушбу ифодадан фойдаланиб, диффузион сғиммининг қўйилган кучланишга боғлиқлик графитини икки ва уч ўлчамли координаталарда олиш мумкин (3- ва 4- расмлар).



3-расм. p-n ўтиш диффузия сғиммининг кучланишга боғлиқлиги



4-расм. p-n ўтиш диффузия сифимининг уч ўлчовли фазо (R, U, ϵ) даги кўриниши ($T_e \neq T_h > T; U_B \neq 0$)

Юқорида олинган натижалардан кўринадики, кучли электромагнит майдон ва деформация таъсирида p-n-ўтиш диффузия сифими ортар экан.

Хулоса

Олиб борилган назарий тадқиқот натижаларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, кучли электромагнит майдон ва деформация p-n-ўтиш дифференциал ўтказувчанлигини ва диффузия сифимини орттиради.

Адабиётлар

- 1, Sah C.T., Noyce R.N., Shockly W. 1957 Carrier Generation and Recombination in p-n-junction characteristics. Proc. IRE, , v.45, N9, p.1228-1240.
2. Ашмонтас С.П., Олекас А.П., Ширмулис Э.И. 1985. Vliyaniya razogreva nositelej zaryada na vid VAN p-n perekhoda germaniya. ФТП, т.19,вып.5,с.807-809
3. Вейнгер А.И., Парицкий Л.Г., Акоюян Э.А., Дадамирзаев Г. 1975, Vliyaniya razogreva nositelej zaryada na vid VAN p-n perekhoda germaniya.. ФТП, т.9, вып.10, с.216-224.
4. Вейнгер А.И. 1978, p-n-perekhod s goryachimi nositelyami zaryada kak kontakt s otricatel'noj defferencial'noj emkost'yu. ФТП, т.12, вып.10,с.1986-1990.
5. Аблязимова Н.А., Вейнгер А.И., Питанов В. 1988, Elektricheskie svojstva kremnievyyh r-r-perekhodov v sil'nyh SVCH polyah. ФТП, т.88,вып.11, с.2001-2007.
6. Аблязимова Н.А., Вейнгер А.И., Питанов В.С. 1992, Vliyanie sil'nogo SVCH polya na fotoelektricheskie harakteristiki kremnievyyh r-p-perekhodov. ФТП, т.26,вып.6, с.1041-1047.
7. Gulyamov G., Dadamirzaev M.G., Kosimova M., Uktamova M. 2020, "Thermophotomf of hot charge carriers at p-n-junctions under exposure to a microwave field and light,"



- Scientific-technical journal: Vol. 24: Iss. 5, Article13. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/ferpi/vol24/iss5/13>
8. Dadamirzaev M. G., Qosimova M. O. 2018, The effect of the variation of the electric field of the uhf waves on the cvc of the asymmetric p-n-junction //Theoretical & Applied Science. – USA, 10.15863/TAS. 401-405.
 9. Гулямов Г., Дадамирзаев М.Г., Қосимова М. 2019, “O’YUCH maydonda yorug’lik ta’siridagi p-n-o’tish VАН noideallik koefitsienti” [Nonideality coefficient of current-voltage characteristic of p-n junctions in strong microwave field and when illuminated by light] // Наманган Давлат Университети илмий ахбороти, Наманган, 10-сон, Б.42-49
 10. Gulyamov G., Dadamirzaev G. Dadamirzaev M.G., Kosimova M. 2020, "The influence of the microwave field on the characteristics of the p-n junction," Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering: Vol. 2: Iss. 4, Article7. <https://uzjournals.edu.uz/semiconductors/vol2/iss4/7>
 11. Dadamirzaev M. 2011, “p-n Junction in a Microwave Field” // Semiconductors. –USA, - vol. 45, No.3, pp. 288–291. (№11. Springer, IF=0.705)
 12. Gulyamov G., Dadamirzaev M.G., Mavlyanov H.Yu. 2015, “The Nonideality Coefficient of Current-Voltage Characteristics for Asymmetric p-n-Junctions in a Microwave Field” // Journal of Applied Mathematics and Physics, 3, 1679-1683 Published Online December 2015 in SciRes. <http://www.scirp.org/journal/jamp> <http://dx.doi.org/10.4236/jamp.2015.312193>
 13. Dadamirzaev M.G. 2015, Influence of Deformation on CVC p-n-Junction in a Strong Microwave Field // Journal of Modern Physics–USA, - Vol. 6, No.2, pp. 176-180. (№24, Scientific Research Publishing Inc IF=0.78).
 14. G.Gulyamov, M.G.Dadamirzaev, M.O. Kosimova, “Kuchli elektromagnit maydondagi p-n o’tish differensial qarshiligi va diffuzion sig’imiga deformatsiya va yorug’likning ta’siri” // Namangan Davlat Universiteti ilmiy axboroti, Namangan, 2021 6-son, B.23-29
 15. Gulyamov G., Dadamirzaev M.G., Kosimova M., 2019, Gulomkodirov B. “The nonideality coefficient of IVC p-n-junction in a strong microwave field when illuminated by light” //Journal of Scientific and Engineering Research, 6(7):241-246
 16. [SHamirzaev S.H.], Dadamirzaev M.G., Qosimova M.O. Bir jinsli bo’lmagan yarim’okkazgichli strukturalarning o’ta yuqori chastotali maydondagi volt-amper harakteristikasi // Buhoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti,- Buhoro, 2018, 4-son, B. 6-10.
 17. Dadamirzaev M.G. 2001y. Nomzodlik dissertatsiyasi. “O’ta yuqori chastotali elektromagnit maydonning p-n- o’tish rekombinatsiya toklariga ta’siri” [Influence of a very high frequency electromagnetic field on p-n-junction recombination currents] Toshkent
 18. Смит Р. “Полупроводники” Москва “Мир”. 1982й. 241-247 бет



ЭЛЕКТРОНЛАР ҚИЗИШИНИНГ ТУННЕЛ ДИОДИ ХАРАКТЕРИСТИКАЛАРИГА ТАЪСИРИ

Г.Гуляммов^{1, а}, М.Г. Дадамйрзаев^{1, б}, К.М.Ўктамова^{2, с}, Ҳ.А.Абдувахобова^{3, д}.

¹Наманган муҳандислик қурулиш институти. И.Каримов кўчаси, 12, Наманган,
Ўзбекистон, 160103.

²ЎзМУ ҳузуридаги яримўтказгичлар физикаси ва микроэлектроника илмий тадқиқот
институти, Тошкент, Ўзбекистон, 100057.

³Наманган давлат университети, Наманган, Ўзбекистон, 160136.

^аgulyamov1949@mail.ru

^бdadamirzaev@mail.ru

^сumk939l@gmail.com

^дabdxusnida94@gmail.com

Аннотация. Ушбу ишда ўта юқори частотали (ҶЮЧ) электромагнит майдоннинг туннел диодлари ВАХга, электр ўтказувчанлигига ва дифференциаль қаршилигига таъсири ўрганилган. Кучли электромагнит майдон таъсири натижасида туннель диоднинг ВАХда ҳосил бўладиган чуқурликдаги ва чўққидаги туннел токлари нисбатининг кучли электромагнит майдон таъсири бўлмаган ҳолдаги энг юқори ва энг қуйи нуқтадаги туннел токлари қийматлари ўзгариши, дифференциаль қаршилиги эса кучсиз электромагнит майдонга қараганда кучли электромагнит майдон таъсир остида ортгани кузатилди. Бунда албатта туннел диодида ҳосил бўлган термоэмиссия токиннинг таъсири ҳам кўриб чиқилди.

Калит сўзлар: Кучли электромагнит майдон, дифференциаль қаршилик, туннел диоди, энг юқоридаги ва энг паст нуқтадаги туннел токи.

1.Кириш

p-n-ўтишли диодларда кучли электромагнит майдон, деформация ва фототокнинг таъсири натижасида p-n диодлардаги рекомбинацион ва генерацион токларининг ўзгариши [1] ишда кузатилган. Кучли электромагнит майдон таъсирида қизиган электронни туннел диоди характеристикаларига боғлиқлигини ўрганиш айнан бутунги кундаги туннел диодларида юқори ток қийматини олиш учун зарур бўлган предметлардан бири ҳисобланади. Қизиган электрон туннел диоднинг ВАХга, дифференциал қаршилигига ва туннел диоднинг релаксация вақтига ҳамда электр ўтказувчанлигига бевосита таъсирини ўрганиш долзарб ҳисобланади. Шунингдек, мавжуд адабиётлардан маълумки туннел диодларининг вольт-ампер характеристикаси, туннел диоднинг жуда юқори ҳароратларда ҳам ишлай олиш қобилияти, туннел диоднинг ички структураларига боғлиқлиги яъни гетроструктура усули билан турли кимёвий элементлар билан тайёрланишларини ўрганиш жуда муҳимдир. Масалан, АҚШдаги Огая университети профессори Поль Бергернинг ишларида туннел диоднинг жуда қисқа вақт оралиғида ишлаб кетиши туннел диоднинг энг муҳим жиҳати экани айтиб ўтилган ва бир неча амалий тажрибалар ёрдамида текширилиб муҳим натижалар олинган. Огая университети профессори Ян Ян ўзининг илмий тадқиқот ишларида Si элементи асосида тайёрланган туннел диоди ёрдамида ҳарорати 300K бўлганда энг юқори нуқтадаги туннел токиннинг зичлиги учун



$J=2.7 \left[\frac{kA}{cm^2} \right]$ қийматни олишга эришди ва энг юқоридаги ва энг паст нуқтадаги туннел токининг зичликлари нисбати 2.23 бўлганини тажрибалар ёрдамида аниқлади [2]. Эпитаксия усули билан олинган Si элементи асосидаги туннел диоди ёрдамида 320°C-550°C харорат оралиғида 3минут вақт ичида туннел диодининг энг юқори нуқтадаги ток зичлиги $J = 2.6 \frac{kA}{cm^2}$ га, шунингдек энг қуйи ва юқори нуқтадаги туннел токининг зичликлари нисбати 1.7 қийматга тенглиги [3] ишда аниқланди. Si/SiGe элементи асосида тайёрланган туннел диодида эса энг юқори нуқтадаги ток зичлиги $J = 151 \frac{kA}{cm^2}$ га, энг қуйи ва юқори нуқтадаги туннел токининг зичликлари нисбати 2 қийматга тенглиги [4] ишда кўрсатиб ўтилди. GaN/AlN асосидаги резонанс туннел диодида эса энг юқори нуқтадаги ток зичлиги $J = 431 \frac{kA}{cm^2}$ га, энг қуйи ва юқори нуқтадаги туннел токининг зичликлари нисбати 1.2-1.6 оралиқда бўлгани [5] кўриди. GaN/AlN асосидаги икки барерли резонанс туннел диодининг харорат 827 °C бўлганда энг юқори нуқтадаги ток зичлиги $J = 637 - 930 \frac{kA}{cm^2}$ орлиғида, кучланиш эса 8 вольтгача бориши [6] ишда кузатилди. Туннел диодларнинг ишлаш самарадорлигини оширишда жуда қисқа вақт ичида туннел токининг зичлиги энг қуйи нуқтадаги қийматидан энг юқори нуқтага кўтарила олиши ва бу қийматнинг юқори бўлиши жуда катта аҳамиятга эга. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда ушбу ишда туннел диодларининг энг юқори ва энг қуйи нуқтадаги туннел токининг ўзгаришида қизиган электронларнинг таъсирини назарий жиҳатдан тадқиқ қилиш асосий мақсад қилиб олинган.

2. Электрон қизишининг туннел диодининг ВАХ сига ва дифференциал қаршилигига таъсири

$I = I_t + I_x + I_d$ туннел диодида ҳосил бўладиган умумий ток туннел токи – I_t , ортиқча ток $-I_x$, ва I_d - диффузион тоқлар йиғиндисига тенг бўлади [3]:

$$I = I_p \cdot \left(\frac{V}{V_p} \right) \cdot \exp \left(1 - \left(\frac{V}{V_p} \right) + I_V \cdot \exp(A_2 \cdot (V - V_V)) + J_s \cdot \left(e^{\frac{e \cdot \varphi}{k \cdot T}} - 1 \right) \right) \quad (1)$$


$$I_d = J_s \cdot \left(e^{\frac{e \cdot \varphi}{k \cdot T}} - 1 \right) \text{ - диффузион ток}$$

$$I = I_p \cdot \left(\frac{V}{V_p} \right) \cdot \exp \left(1 - \left(\frac{V}{V_p} \right) + I_V \cdot \exp(A_2 \cdot (V - V_V)) + \left(I_s \cdot \left(\frac{T}{T_0} \right)^3 \right) \cdot \exp \left(\frac{E_g \cdot e}{k \cdot T_0} \left(1 - \frac{T_0}{T} \right) \right) \cdot \left(e^{\frac{e \cdot \varphi}{k \cdot T} - \frac{e \cdot (\varphi - V)}{k \cdot T_e}} - 1 \right) \right) \quad (2)$$


$$I_d = \left(I_s \cdot \left(\frac{T}{T_0} \right)^3 \right) \cdot \exp \left(\frac{E_g \cdot e}{k \cdot T_0} \left(1 - \frac{T_0}{T} \right) \right) \cdot \left(e^{\frac{e \cdot \varphi}{k \cdot T} - \frac{e \cdot (\varphi - V)}{k \cdot T_e}} - 1 \right) \text{ - электрон ва ковакларнинг қизиши}$$

диффузия токини ўзгаришига олиб келди.

Юқоридаги ифодадан фойдаланган ҳолда туннел диодининг ВАХни кучли электр майдон таъсир этган. Ушбу ишимизда қизиш фақат термотоқларга таъсир қилган ҳолни кўриб чиқамиз. Туннел токи ва тақиқланган зона локал ҳолатлари орқали ўтувчи қўшимча тоқларнинг хароратга боғлиқлигини эътиборга олмаймиз.



1-расм. Туннел диоднинг (1) ифода асосида турли температураларда олинган вольт-ампер харакеристикаси.




2-расм. Ge асосли Esaki туннел диоди (TD266) ёрдамида олинган туннел диоднинг вольт-ампер харакеристикаси. [2]

Туннел диоднинг дифференциал қаршилиги (1) ифодадан V бўйича олинган ҳосиласининг тескари қийматига тенг.

$$R = \left(I_p \cdot e^{-\frac{1-V}{V_p}} \cdot \frac{1}{V_p} - \frac{I_p \cdot V \cdot e^{-\frac{1-V}{V_p}}}{V_p^2} + \frac{4 \cdot I_v \cdot \sqrt{\frac{m_x \cdot \varepsilon}{N}} \cdot e^{\frac{4 \cdot \sqrt{m_x \cdot e}}{\sqrt{N}}(V-V_v)}}{3} + \frac{I_s \cdot e \cdot T^3 \cdot e^{\frac{E_g \cdot e \left(1 - \frac{T_0}{T}\right)}{k \cdot T_0}} \cdot e^{\frac{e\phi}{kT}} \cdot e^{\frac{e(\phi-V)}{k \cdot T_e}}}{T_0^3 \cdot k \cdot T_e} \right)^{-1} \quad (2) \text{ Ушбу}$$

ифодадан фойдаланиб, туннел диоднинг дифференциал қаршилигини қўйилган кучланишга боғлиқлик графигини олиш мумкин. 3-расмда 2-ифодадан фойдаланиб

олинган дифференциал қаршилигининг турли ҳароратлар учун қучланишга боғлиқлик графиклари келтирилган.




3-расм. Туннел диоди дифференциал қаршилигини қучланишга боғлиқлиги.
1) $T=300\text{K}$, ўта юқори частотали тўлқин таъсир этмаган. 2) $T=500\text{K}$, $T=700\text{K}$ ўта юқори частотали тўлқин таъсир этган.

Микротўлқин ўта юқори частотали (ЎЮЧ) p-n ўтишда таъсир қилганда электрон ва ковакларнинг тартибсиз ҳаракати иссиқлик энергияларини орттиради. Бунинг натижасида уларнинг тақсимот функциялари электрон температуралари Ферми-Дирак функциясига айланади. Электромагнит тўлқин таъсирида p-n ўтиш потенциал тўсиғининг даврий равишда ўзгариб туриши микротўлқин таъсирида юзага келувчи ЎЮЧ тоқларининг қисман тўғриланиши ва бунинг натижасида диодди қўшимча электр юрутувчи куч вужудга келади. [9]. Бу эса диодда юзага келувчи диффузия тоқларига кучли таъсир кўрсатади. Хусусан, заряд ташувчиларнинг қизиши диоднинг манфий дифференциал қаршилигининг катталигига ва манфий қаршилиқларга тўғри келувчи қучланишнинг юқори чегарасига таъсир қилади. Электронлар ҳароратининг ортиши манфий дифференциал қаршилиқ абсолют қийматларининг камайишига ва манфий қаршилиқка мос келувчи қучланишлар соҳасининг юқори чегарасини кичик қучланишлар соҳасига силжишига сабаб бўлар экан.

Дифференциал қаршилиқ электр ўтказувчанликка тесқари пропорциональ эканини билган ҳолда туннел диоди электр ўтказувчанлигини қучланишга боғлиқлик

графиини чизамиз:
$$G = \frac{1}{R} \quad (3)$$



4-

расм. Туннел диоди дифференциал ўтказувчанлигининг кучланишга боғлиқлиги
1)Ўта юқори частотали тўлқин таъсир этмаган хол учун. $T=300\text{K}$. 2)Ўта юқори частотали
тўлқин таъсир этган хол учун. $T=500\text{K}$, $T=700\text{K}$.

Бу чизилга 4-расм ҳам дифференциал ўтказувчанликнинг ҳароратга боғлиқлиги катта кучланишларда кузатилишни кўриш мумкин. Ҳароратнинг ортиши билан дифференциал ўтказувчанликнинг ишорасини ўзгарувчи кучланиш қийматини камайиши кузатилади.

3. Хулоса

Электронларнинг ҳароратининг ортиши туннел диодининг диффузия тоқларининг кучли ортишига ва бунинг натижасидати туннел диоди вольт-ампер характеристикасининг минимумидаги ток кучини орттишига I_V ва минимумга тўғри келувчи кучланиш V_V қийматининг камайишига олиб келди. Электронлар ҳароратининг кескин ортиши туннел диодининг вольт-ампер характеристикасига кучли таъсир қилиб, катта ҳароратларда вольт-ампер характеристикасидаги манфий дифференциал қаршиликли соҳанинг камайишига ва ўта юқори ҳароратларда диоднинг манфий дифференциал қаршилигининг умуман йўқолиб кетишига сабаб бўлади.

References

1. Gulyamov, G., Gulyamov, A.G. On the tensosensitivity of a p-n junction under illumination. *Semiconductors* 49, 819–822(2015).
<https://doi.org/10.1134/S1063782615060111>.
2. Yan Yan, Silicon-based tunnel diode technology. *Silicon-Based Tunnel Diode Technology (researchgate.net)*, 22-23(2008).
3. P.E. Thompson, K.D. Hobart, M.E. Twigg, S.L. Rommel, N. Jin, P.R. Berger, R. Lake, A.C. Seabaugh, P.H. Chi, D.S. Simon. Epitaxial Si-based tunnel diodes. *Thin Solid Films* 380, 145–150(2000).
4. Niu Jin, Sung-Yong Chung, Anthony T. Rice, and Paul R. Berger. **151 kA/cm²** peak current densities in Si/SiGe resonant interband tunneling diodes for high-power mixed-signal applications. *Applied physics letters* 83, 3308–3310(2003).



5. Tyler A. Growden, Weidong Zhang, Elliott R. Brown, David F. Storm, Katurah Hansen, Parastou Fakhimi, David J. Meyer and Paul R. Berger. **431 kA/cm²** peak tunneling current density in GaN/AlN resonant tunneling diodes. Applied physics letters **112**, 033508 (2018); doi: [10.1063/1.5010794](https://doi.org/10.1063/1.5010794).
6. Tyler A. Growden, Evan M. Cornuelle, David F. Storm, Weidong Zhang, Elliott R. Brown, Logan M. Whitaker, Jeffrey W. Daulton, Richard Molnar, David J. Meyer and Paul R. Berger. **930 kA/cm²** peak tunneling current density in GaN/AlN resonant tunneling diodes grown on MOCVD GaN-on-sapphire template. Cite as: Appl. Phys. Lett. **114**, 203503 (2019); doi: [10.1063/1.5095056](https://doi.org/10.1063/1.5095056).
7. С.Зи.Физика полупроводниковых приборов.110-116.(1973)
8. С.Зи.Физика полупроводниковых приборов.110-116.(1973)
9. Gulyamov G., Dadamirzaev M.G., Kosimova M., Uktamova M. "Thermophotomf of hot charge carriers at p-n-junctions under exposure to a microwave field and light," Scientific-technical journal: 2020, Vol. 24: Iss. 5, Article13. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/ferpi/vol24/iss5/13>
10. Аблязимова Н.А., Вейнгер А.И., Питанов В.С. Влияние сильного СВЧ поля на фотоэлектрические характеристики кремниевых р-п-переходов. ФТП,1992, т.26,вып.6, с.1041-1047.



02.00.00

КИМЁ ФАНЛАРИ
ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ
CHEMICAL SCIENCES

**PAST VA O`RTACHA MOLEKULAR OG`IRLIKKA EGA BO`LGAN XITOZAN
MODDASINI QOG`OZ SIFATIGA TA`SIRINI O`RGANISH.**

E.A. Egamberdiyev, Y.T. Ergashev, X.H. Xaydullayev, G'.A.Normatov,
G'.R. Rahmonberdiyev

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Sellyuloza va yog`ochsozlik texnologiyasi kafedrası
email: el.0919@mail.ru

Аннотация. Tadqiqot ishida past molekulyar og`irlik va o`rta molekulyar og`irlikga ega bo`lgan xitozandan foydalanib, qog`ozning suvni yutish xususiyatining pasayishiga ta`sir qilishi va qog`ozning mustahkamligi hamda qog`ozning silliqiligini oshirishi o`rganilgan.

Kalit so`zlar: Xitozan, qog`oz, sellyuloza, suvni singdirish, mustahkamlik, silliqlik.

**ИЗУЧИТЬ ВЛИЯНИЕ НИЗКО- И СРЕДНЕМОЛЕКУЛЯРНОГО ХИТОЗАНА НА
КАЧЕСТВО БУМАГИ.**

Э.А. Эгамбердиев, Ю.Т. Эргашев, Х.Х. Хайдуллаев, Г.А.Норматов,
Г.Р. Рахмонбердиев

Ташкентского химико-технологического институт
Технология целлюлозы и деревообработки
email: el.0919@mail.ru

Аннотация. В исследовании изучалось использование низкомолекулярного и среднемолекулярного хитозана для снижения водопоглощающих свойств бумаги и повышения ее прочности и гладкости.

Ключевые слова: хитозан, бумага, целлюлоза, водопоглощение, прочность, гладкость.

**STUDY THE INFLUENCE OF LOW- AND MEDIUM-MOLECULAR CHITOSAN ON
PAPER QUALITY.**

E.A. Egamberdiev, Yu.T. Ergashev, Kh.Kh. Khaidullaev, G.A. Normatov,
G.R. Rakhmonberdiev

Tashkent chemistry-technology institute
Department of the technology of cellulose and woodworking
email: el.0919@mail.ru

Annotation. The study examined the use of low and medium molecular weight chitosan to reduce the water-absorbing properties of paper and increase its strength and smoothness.

Key words: chitosan, paper, cellulose, water absorption, strength, smoothness.

Xitozan qog`oz ishlab chiqarish va qog`oz xususiyatlarini yaxshilash uchun qog`oz sanoatida ham keng qo`llaniladi. Darhaqiqat, xitozanning molekulyar tuzilishi sellyulozaga



o'xshaydi, bu esa kuchli birikma hosil bo'lishiga yordam beradi. Xitinda (-NHCOCH₃) xitozanda (-NH₂) funksional guruhlari mavjudligi tufayli bu guruhlar suvda erimaydi, ammo deatsetillanish darajasi 60% dan yuqori bo'lgan xitozan kislotasi eritmasida eriydi. Aksincha, xitin erimaydi. Xitin va xitozan odatdagi sharoitda ishqor va organik eritmalarda erimaydi. Umuman olganda, xitozandagi amin (NH₂) ning yuqori foizi deatsetillanish darajasini (DD) aniqlaydi. DD eruvchanlik, kimyoviy faollik va biologik parchalanish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi muhim parametrdir.

Xitozan turli molekulyar og'irlikda va deatsetillanish darajasida namoyon bo'ladi. Molekulyar og'irlik va deatsetillanish darajasi zarracha hajmi, zarracha shakllanishi va agregatsiyasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardir. Bu omillar qog'oz sanoatida muhim sanaladi. Qog'oz xususiyatlarini yaxshilash uchun xitozan qog'ozga qo'shiladi va uning hosilalarini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Ikkala holatda ham xitozan asosan qog'oz varaqlarning mustahkamligini yaxshilaydi. Xitozan va uning hosilalarini qog'oz sanoatida qo'llash orqali bir qator sifat ko'rsatgichlarini yaxshilashga erishildi. Jumladan, eskirgan qog'oz varaqlarining mustahkamlik xususiyatlarini yaxshilashga olib kelishi ko'rsatildi. Xitozan va uning hosilalarini sellyuloza massasiga qo'shilganda olingan tolalarning uzilish uzunligi bir necha barobar oshgan. Xitozan va uning hosilalari eritmalariga qog'ozni botirilganda esa aksincha, yirtilish faktoriga teskari tendensiya kuzatildi. Umuman olganda, xitozanni qog'oz ishlab chiqarishda qo'llash orqali mexanik xususiyatlar yaxshilanganligi ko'rsatildi. Xitozan va uning hosilalari, shuningdek, qog'ozning elektr, bosma, to'siq va antibakterial xususiyatlarini yaxshilaydi.

Hozirgi kunda qog'oz va qog'oz mahsulotlari ko'p hollarda turli xil buyumlar va mahsulotlarni qadoqlash uchun ishlatib kelinmoqda. Shu sababli, quruq va nam holatdagi yuqori quvvat, suvning kam shimishi va yirtilishga qarshilik xususiyati yuqori bo'lgan xossalarga ega qog'ozlarni olish bugungi kunda muhim hisoblanadi.

Ishdan maqsad turli molekulyar og'irlikka ega bo'lgan xitozanni qog'oz tarkibiga kiritish orqali uning sifat ko'rsatgichlariga ta'sirini o'rganishdan iboratdir. Dastlab ikki xil molekulyar og'irlikdagi xitozanni sifat ko'rsatgichlarini aniqlab tahlil qilindi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

A large proportion of agricultural land that has negatively affected by high salinity is expanding worldwide, due to natural causes and agricultural practices [1]. These problems have been aggravated by the development of more recent agricultural practices such as irrigation. Approximately 20% of the world's cultivated lands and more than half of all irrigated lands are affected by salinity [2]. High salt concentrations in the soil cause various events that negatively impact agricultural production, such as delays in plant growth and development, inhibition of enzymatic activities and reductions in photosynthetic rates [3]. Therefore, before attempts can be made to introduce genetic and environmental factors to alleviated salt stress, it is critical to elucidate the morphological and physiological responses of particular crops and cultivars to salinity. Moreover, salinity is the accumulation of dissolved salts in soil water and a major limiting factor for crop yield in poorly drained soils [4]. Low precipitation and high evapotranspiration are responsible for inadequate leaching and accumulation of salts in the root zone which hinders plant growth. Estimates vary for instance, approximately 800 million hectares or 7% of the total land surface of the earth is affected by salinity and sodicity [5]. The problem is especially critical in semi-arid and arid regions like Pakistan, India and Africa where hot climate with intensive irrigation using poor quality ground water alongside lack of drainage system is affecting just over 30 percent of cultivated land of the country and causing heavy losses in crop yields. The reasons mentioned above causes decreasing significantly not only morpho-biological traits of cotton but also its fiber quality and quantity. Fiber quality traits generally include fiber length, fiber uniformity, fiber strength, fiber elongation, and micronaire value. Modern high-speed textile industries around the world require long, strong and fine cotton fibers [6]. In particular, cotton fiber strength and length are considered as the most important properties affecting yarn quality [7]. The micronaire value, a measure of fiber fineness and fiber maturity, influences the fiber processing and dyeing consistency [8]. In general, cotton is the world's leading cash crop and the upland cotton (*G. hirsutum*) is the most cultivated, accounting for about 95 % of the total world production [9]. One of the main objectives of cotton breeding programs worldwide is to improve Upland cotton (*G. hirsutum*) fiber quality close to Pima cotton (*G. barbadense*), bringing more income for farmers. However, improvement of Upland cotton fiber quality through inter-species genetic hybridization with Pima cottons is challenging due to wide genetic segregation and genetic distortion of consequent hybrid

generations that has a minimal success. To overcome this genetic obstacle, one of the best alternative approaches is to investigate the genetic potential of conserved cotton germplasm resources that would help to improve fiber quality characteristics of cotton that meets the global fiber market needs. Besides, targeting fiber quality improvement in Upland cotton is vital because historically cultivar development has focused more on yield than fiber quality. Fiber quality has become a major issue because of: 1) the technological changes in the textile industry's demand for high quality fibers for maximizing production efficiency and quality, and 2) the occurrence of price discount for unfavorable fiber quality [10]. Therefore, our colleagues have introduced the marker-assisted selection (MAS) technology in the cotton breeding program using DNA markers, which associated with important fiber quality traits in previous research [11]. These DNA markers enable cotton breeders to select individuals on the basis of genotype rather than phenotype. Application of this type of molecular markers for crops improvement programs may revolutionize the process of elite cultivar development reducing field tests in early crop breeding and cutting the requisite time of the long-term selection processes to less than half.

The main objective of this study is a comparative analysis of fiber quality traits in parental genotypes of the cotton NAM population under natural saline land and optimal conditions.

We used the following 20 Upland cotton genotypes, namely, Namangan-77, KK-1796, KK-1795, L-1000, C-9006, KK-1086, Catamarca 811, C-9008, L-N1, L-141, Hapicala 19, 0-030, C-4769, L-45, Zangi Ota, Saenr Pena 85, C-2025, KK-602, SAD-35-11 and C-417 for investigating fiber quality traits in different environments. Local cotton variety Namangan-77 was used as a common maternal genotype in the development of the NAM population. This variety is valued for its high lint percentage and therefore, it has been a widely cultivated variety for more than three decades. The rest of the parental genotypes were used as donor lines for the development of the population. The experiments were conducted in two different soil conditions area, such as saline condition field in the Sirdarya region and optimal soil in the Tashkent region. Morpho-biological and agronomical traits were studied, including the number of monopodial and sympodial branches, branching type, the number of bolls, boll weight, height of the first sympodial (Hs), 1000 seed weight, and lint percentage and fiber staple length in the laboratory. All collected data were analyzed using Microsoft Office EXCEL.

The genomic DNA was extracted from fresh leaf tissues using modified CTAB method. The quality and quantity of genomic DNA was identified in 0,9% agarose gel. PCR analyses were conducted with salt-tolerance associated DNA markers BNL-3140 and BNL-3594 in cotton. Genotyping analysis of parental lines showed big diversity among them.

The fiber quality traits such as fiber length (UHM), strength (STR), micronaire (MIC), elongation (ELO), uniformity (UI) of parental genotypes were analysed using High Volume Instrumentation (HVI) at the fiber testing center "SIFAT", Tashkent, Uzbekistan. Initial analysis of phenotypic and genotypic data was performed using Microsoft® Office EXCEL 2013 program.

According to comparative analysis of micronaire among NAM founders grown in two environments showed that micronaire values were increased under saline condition in cotton lines KK-1796, KK-1795, L-1000, KK-1086, L-N1, L-141, Hapicala 19, 0-030, and Saenr Pena 85, while C-9006, C-9008, C-4769, Zangi Ota, SAD-35-11, and cotton variety Namangan-77

showed lower or equal micronaire value in both conditions (Fig. 1). Cotton lines with high micronaire value were adversely affected by saline condition and on the contrary, micronaire value decreased ones might be from adaptation to saline soil.




Fig. 1. Comparison of fiber micronaire parameter in studied cotton genotypes in Tashkent and Sirdarya environments.

We may interpret the decline of micronaire value due to depressing activities of metabolic enzymes and alkaline invertase led to fiber quality deterioration in salinity [12]. Particularly, as the soil salinity increased, the fiber fineness increased, but the fiber maturity and fiber strength decreased [13]. According to Sharif, fiber quality is an inherited trait but it is also affected by the unfavorable environment [12]. Particularly, salinity stress reduced the fiber length, strength and maturity while fiber fineness showed increase. With the increase in the sodium ions percentage, fiber length, strength and micronaire values were reduced significantly [14].

A high value of fiber strength is considered stronger fiber. The results of fiber strength analysis showed that this value significantly increased in cotton lines C-9006 and L-0-030 in saline soil while the value was slightly declined in L-N1. Interestingly, fiber strength value is almost the same in eight samples and had slightly higher value fiber strength in nine samples out of 20 parental genotypes. This is indicated that this trait is more stable or adaptive to saline soil conditions.




Fig. 2. Comparison of fiber length parameters in studied cotton genotypes in Tashkent and Sirdarya environments.

Sirdarya environments.

Uniformity index expresses the ratio between mean length and upper-half-mean length (UHML). It expresses as a percentage. Uniformity index affects yarn strength and evenness. It also affects the efficiency of the spinning process. Cotton with a low length uniformity index has a high variance in fiber length, which can make processing difficult and ultimately result in lower-quality yarn. The comparative analysis of fiber uniformity index (UI) showed that the value of this trait was significantly and slightly higher in 14 genotypes in saline soil land while cotton line L-N1 grown in normal soil condition had the highest value in both conditions and among all genotypes (Fig. 3).

The value of UI was significantly lower in cotton lines Namangan-77, KK-1796, KK-1795, 0-030, Saenr pena 85, and C-2025 in optimal conditions. The range of UI is more stable in saline soil land than the optimal one. Particularly, the range of UI values in saline soil land was between 82-84%, and this value consists of between 78-85% in optimal conditions.




Fig. 3. Comparison of fiber uniformity index in studied cotton genotypes in Tashkent and Sirdarya environments.

UHML is the mean length by the number of fibers in the largest half by weight of fibers in a cotton sample, usually measured from the fibrogram.




Fig. 4. Comparison of fiber upper half mean length index in studied cotton genotypes in Tashkent and Sirdarya environments.

UHML is normally equivalent to the staple length. The UHML value was sharply different between both conditions on cotton lines C-9006, L-N1, and O-030 (Figure 4). There were eleven samples that had higher UHML value in saline soil land than the optimal condition. The ranges of UHML value were almost the same as in the UI value in both conditions. The UHML values ranged between 26,7-34,1 and 19,6-37,7 in saline soil and optimal conditions, respectively.

The amount of extension or stretch of a fibre at breaks is referred as elongation. It express in percentage. According to Benzina et al. (2007), the cotton fibers with low elongation can not resist the stresses that occurred during ginning and mechanical processing stages which results in fiber breakage [15]. The degree of elongation is important in the modern textile industry. The high value of cotton fiber elongation is of great importance in spinning quality yarn. A two-year study performed by Peng J and his team (2016) found that soil salinity did not adversely affect fiber elongation [16]. Here, only three cotton genotypes, including KK-1795, C-4769, and L-45 had significantly contrast elongation values between both conditions saline soil and optimal environment. The values were decreased in saline soil conditions and increased in normal soil conditions (Fig. 5).




Fig. 5. Comparison of fiber elongation index in studied cotton genotypes in Tashkent and Sirdarya environments.

Six cotton lines elongation value slightly increased in saline soil condition than the optimal environment and the remaining ones were the same in both conditions, except L-N1 and KK-1086 which the value of these lines slightly decreased.

As conclusion we might say that fiber quality traits were affected by saline soil condition. Particularly, micronaire had more adversely affected than other traits. Fiber strength was more stable or adaptive to saline soil conditions. Uniformity index and UHML were increased in more than half parental genotypes in saline soil land and these traits even better than the normal condition. In addition, elongation also was slightly affected by the saline soil environment. Despite unfavorable conditions, donor lines with high indicators of fiber quality will be used as a valuable material in breeding programs.

References

1. Munns R, Tester M (2008) Mechanisms of salinity tolerance. *Annu Rev Plant Biol* 59: 651–681.
2. Arzani A (2008) Improving salinity tolerance in crop plants: a biotechnological view. *In Vitro Cell Dev Biol Anim* 44: 373–383.
3. Gaber MA (2010) Antioxidative defense under salt stress. *Plant Signaling&Behaviour* 5: 369–374.
4. Khan, M.A., M.U. Shirazi, M. Ali, S. Mumtaz, A. Shereen and M.Y. Ashraf. 2006. Comparative Performance of some wheat genotypes growing under saline water. *Pak. J. Bot.*, 38(5): 1633-1639.
5. Munns, R., R.A. Hare, R.A. James and G.J. Rebetzke. 2000. Genetic variation for improving the salt tolerance of durum wheat. *Aust. J. Agric. Res.*, 51: 69-74.
6. Munns, R. 2002. Comparative physiology of salt and water stress. *Plant Cell Environ.*, 25: 239-250.
7. Yang, X., Wang, Y., Zhang, G., Wang, X., Wu, L., et al. (2016). Detection and validation of one stable fiber strength QTL on c9 in tetraploid cotton. *Mol. Genet. Genom.* 291, 1625–1638. doi: 10.1007/s00438-016-1206-z
8. Rodgers, J., Zumba, J., Fortier, C. (2017). Measurement comparison of cotton fiber micronaire and its components by portable near infrared spectroscopy instruments. *Text. Res. J.* 87, 57–69. doi: 10.1177/0040517515622153
9. Zhang T, Qian N, Zhu X, Chen H, Wang S, Mei H, Zhang Y (2013) Variations and transmission of QTL alleles for yield and fiber qualities in upland cotton cultivars developed in China. *PLoS One* 8: e57220
10. Abdurakhmonov IY, Kohel RJ, Yu JZ, Pepper AE, Abdullaev AA, Kushanov FN, Salakhutdinov IB, Buriev ZT, Saha S, Scheffler BE, Jenkins JN, Abdugarimov A (2008) Molecular diversity and association mapping of fiber quality traits in exotic *G. hirsutum* L. germplasm. *Genomics* 92:478–487.
11. Abdurakhmonov I.Y., S. Saha, J.N. Jenkins, Z.T. Buriev, S.E. Shermatov, B.E. Scheffler, A.E. Pepper, J.Z. Yu, R.J. Kohel, and A. Abdugarimov. 2009. Linkage disequilibrium based association mapping of fiber quality traits in *G. hirsutum* L. variety germplasm. *Genetica* 136:401-417.
12. Iram Sharif, Saba Aleem, Jehanzeb Farooq, Muhammad Rizwan, Abia Younas, Ghulam Sarwar, Shahid Munir Chohan. Salinity stress in cotton: effects, mechanism of tolerance and its management strategies. *Physiol Mol Biol Plants*. 2019 Jul; 25(4): 807–820. Published online 2019 Jun 20. doi: 10.1007/s12298-019-00676-2
13. Ashraf M, Ahmad S. Genetic effects for yield components and fiber characteristics in upland cotton (*Gossypium hirsutum* L.) cultivated under salinized (NaCl) conditions. *Agronomie*. 2000; 20: 917–926.
14. Longenecker D. The influence of high sodium in soils upon fruiting and shedding, boll characteristics, fiber properties, and yields of two cotton species. *Soil Sci.* 1974;118:387–396.
15. Benzina, H., Hequet, E., Abidi, N., Gannaway, J., Drean, J.-Y., Harzallah, O., 2007. Using fiber elongation to improve genetic screening in cotton breeding programs. *Text. Res. J.* 77, 770–778.
16. Peng J, Zhang L, Liu J, Luo J, Zhao X, Dong H, et al. (2016) Effects of Soil Salinity on Sucrose Metabolism in Cotton Fiber. *PLoS ONE* 11(5): e0156398.



<https://doi.org/10.1371/journal.pone.0156398>

УДК: 576.895.1: 597.6

ФАУНИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЕЛЬМИНТОВ АМФИБИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Икромов Элмурод Эркинович
Базовый докторант, АН РУз Институт зоологии
Икромов Эркин Файзуллаевич
к.б.н., доцент Биотехнологии Наманганского государственного университета
Амиров Ойбек Олимжонович
(PhD), стар.науч.сот, АН РУз Институт зоологии
E-mail: hanssem@list.ru Тел:+998991472441

Аннотация: В данном исследовании проведен фаунистический анализ видового состава гельминтов земноводных, обнаруженных в Ферганской долине в 2019-2021 гг. Исследования показали, что у озерной лягушки более высокий уровень заражения гельминтами и видового разнообразия, чем у зеленой жабы.

Ключевые слова: Ферганская долина, *Rana ridibunda*, *Bufo viridis*, цестода, трематода, акантоцефал, нематода.

UDC: 576.895.1: 597.6

FAUNISTIC ANALYSIS OF AMPHIBIAN HELMINTHS OF THE FERGHANA VALLEY

Ikromov Elmurod Erkinovich
Basic doctoral student, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Institute of
Zoology
Ikromov Erkin Faizullaevich
Ph.D., Associate Professor of Biotechnology, Namangan State University
Amirov Oybek Olimzhonovich
(PhD), old scientific hundred, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Institute of
Zoology
E-mail: hanssem@list.ru Тел:+998991472441

Annotation: This study carried out a faunistic analysis of the species composition of amphibian helminths found in the Fergana Valley in 2019-2021. Research has shown that the marsh frog has a higher rate of helminth infestation and species diversity than the green toad.

Key words: Fergana valley, *Rana ridibunda*, *Bufo viridis*, cestoda, trematoda, acanthocephalus, nematoda.

УДК: 576.895.1: 597.6

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АМФИБИЯЛАРИ ГЕЛЬМИНТЛАРИНИНГ ФАУНИСТИК ТАҲЛИЛИ

Икромов Элмурод Эркинович
ЎзР ФА Зоологии институти таянч-докторанти
Икромов Эркин Файзуллаевич
б.ф.н., Наманган давлат университети Биотехнология факультети доценти
Амиров Ойбек Олимжонович
(PhD), ЎзР ФА Зоологии институти катта илмий ходими



E-mail: hansem@list.ru Тел: +998991472441

Аннотация: Ушбу тадқиқот 2019-2021 йилда Фарғона водийси ҳудудларида учрайдиган амфибия гельминтларининг тур таркиби, фаунистик таҳлили келтирилган. Тадқиқотларга кўра, кўл бақасининг гельминтлар билан зарарланганлик кўрсаткичи ва турлар ҳилма хиллиги яшил қурбақага нисбатан юқори эканлиги қайд этилди.

Калит сўзлар: Фарғона водийси, *Rana ridibunda*, *Bufo viridis*, цестода, трематода, акантоцефал, нематода.

КИРИШ

Амфибиялар табиий ва антропоген ландшафтларни таркибий қисмларидан бири бўлиб, гельминтлар онтогенезида асосий, оралик, қўшимча ва резервуар ҳўжайин сифатида иштирок этади. Ҳар бир биоценоздаги амфибияларнинг гельминтофаунасини ўрганиш билан одам ва ҳўжалик аҳамиятига эга бўлган фойдали ёввойи ҳайвонлар ўртасида тарқалган ўта патоген гельминтозларга қарши профилактик чора-тадбирлар ва қарши кураш тизимини тўғри белгилашда катта аҳамиятга эга.

Илмий адабиётларда келтирилишича, Ўзбекистон ҳудуди бўйлаб 2000-2014 йиллар давомида яшил қурбақанинг- *Bufo viridis* Laur гельминтофаунасининг таксономик ва экологик хусусиятлари ўрганилган. Ўтказилган тадқиқотлар натижасида 5 синфга мансуб, 39 тур гельминт ва гельминт личинкалари аниқланган. Антропоген таъсир юқори бўлган айрим биотопларда уларни гельминтлар билан зарарланиши нисбатан юқорилиги келтирилган [1].

Фарғона водийси ҳудудида кўл бақаси - *Rana ridibunda* (Pallas,1771) ни ички органларида паразитлик қилувчи гельминтларнинг моно-полиинвазив хусусиятлари ўрганилган [2].

Кейинги тадқиқотларда Фарғона водийси кўл бақасидан 8 оилага тегишли 14 тур нематодалар аниқланган. Улардан *Strongyloides sp.1* Андижон вилояти Пахтаобод туманидан, *Strongyloides sp.2* Фарғона вилояти Бувайда туманидан, *Subulascaris sp.* Наманган вилояти Тўрақўрғон туманидаги шопипоя ва кўлмақларидан, *Thelandros sp.* тури эса Андижон вилояти Олтинкўл туманидан аниқланиб, ушбу нематода турлари Ўзбекистон гельминтофаунаси учун илк бор қайд қилинган [3].

Юқорида қайд этилган илмий тадқиқот натижаларига кўра, келтирилган маълумотлар Фарғона водийси амфибиялари гельминтлари тўғрисидаги замонавий маълумотлар етарли даражада деб бўлмайти. Атроф-муҳитда содир бўлаётган кескин ўзгаришлар амфибиялар гельминтофаунасида ҳам муҳим фаунистик ўзгаришлар содир бўлган бўлиши табиий. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, кучли антропоген таъсир остида қолган Фарғона водийси амфибиялари гельминтларининг биологик хилма-хиллиги ва уларни экологик-паразитологик хусусиятларини ўрганиш бўйича алоҳида тадқиқот ўтказишни тақозо этади.

Тадқиқот мақсади: Фарғона водийси ҳудудида учрайдиган *Rana ridibunda* ва *Bufo viridis* ларни замонавий ҳолати бўйича гельминтофаунасини фаунистик таҳлил қилишдан иборат.

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА УСЛУБЛАРИ

Мазкур иш учун материал 2019-2021 йиллар мобайнида Наманган вилоятининг Наманган, Мингбулоқ, Поп, Чуст, Учқўрғон, Косонсой, Янгиқўрғон, Чортоқ ва Тўрақўрғон туманлари, Фарғона вилоятининг Олтиариқ ва Данғара туманлари, Андижон вилоятининг Балиқчи, Улўғнор ва Бўз туманларида тарқалган амфибиялардан йиғилди (1-расм).

Йиғилган 351 та қўл бақаси-*Rana ridibunda* (Pallas, 1771) ва 173 та яшил қурбақа-*Bufo viridis* (Laurenti, 1768) ларни гельминтологик зарарланиши акад. К.И.Скрябиннинг тўлиқ ва тўлиқ бўлмаган гельминтологик ёриб кўриш усулида аниқланди [8].


Инвазиянинг экстенсивлиги ва интенсивлиги қўйидаги формула орқали аниқланди.

Инвазиянинг экстенсивлиги (ИЭ):

бу ерда, Par – топилган паразитлар сони; N_p – паразитлар билан зарарланган ҳайвон. $IN = \frac{Par}{N_p}$ интенсивлиги (ИИ):
Инвазия

бу ерда, N_p – зарарланган ҳайвонлар сони; n – умумий текширилган ҳайвонлар сони.

1-расм. Тадқиқот олиб борилган ҳудудлар. $P = \frac{N_p}{n} \times 100\%$



Гельминтларнинг морфо-анатомик ва метрик хусусиятларидан келиб чиқиб, уларни таксономик жиҳатдан қайси турга мансублигини аниқлашда К.М.Рыжиковнинг монографиясидан фойдаланилди [7].



Тадқиқот давомида гельминтологик, морфометрик, экологик тадқиқот усуллари ва Biostat 2007, Microsoft Office Excel 2003 компьютер дастурларидан фойдаланилди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Амфибиялар гельминтофаунасини таркибий тузилишини ўрганиш натижаларига кўра, Фарғона водийси ҳудудидан йиғилган кўл бақасидан жами 29 турга, яшил қурбақадан эса 20 та мансуб гельминт ва гельминт личинкалари қайд этилди. Уларнинг 24 (75%) тури вояга етган ва 8 (25%) тури эса личинка босқичидаги паразитлардир. Айгиш ўринлики, амфибияларда кўплаб гельминт личинкаларини учраши уларни бошқа умуртқали ҳайвонлар гельминтларини биологик циркуляциясида ҳам фаол иштирок этишини кўрсатади. Ушбу ужараёнда улар гельминтлар учун оралик, қўшимча ва резервуар хўжайинлар сифатида қатнашади.

Амфибиялар гельминтофаунасини таркибий қисмларини маъмурий ҳудудлар бўйича таҳлил қилганимизда қўйдаги натижаларни кўришимиз мумкин. Кўл бақаси бўйича юқори биологик хилма-хиллик Наманган вилоятига-29 тур, камроқ кўрсаткич Фарғона вилоятига-21 тур тўғри келди. Яшил қурбақа бўйича ҳам юқори хилма-хиллик Наманган вилоятига 20 тур ва кам кўрсаткич Андижон вилоятига 15 тур тўғри келди.

Амфибиялар гельминтофаунасини таркибий тузилишини ўрганиш натижасига кўра, кўл бақасида юқори хилма-хиллик трематода синфига тегишли бўлиб, улар 7 оила 10 авлод 16 турни, энг кам миқдорни цестода синфи 1 оила 1 авлод 1 турни ташкил этади. Яшил қурбақада эса юқори кўрсаткич нематодалар синфига тегишли бўлиб, улар 6 оила 7 авлод 10 турни, кам миқдорда акантоцефал синфи 1 оила 1 авлод 2 турни ташкил этиши аниқланди.

Фарғона водийси ҳудудида олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра, *R. ridibunda* ва *B. viridis* дан жами 32 тур, 23 авлод 18 оила ва 4 синфга мансуб гельминтлар қайд этилди (1-жадвал).

1-жадвал

Фарғона водийси амфибиялари гельминтларининг фаунистик таҳлили

№	Аниқланган турлар	<i>Rana ridibunda</i> (Pallas, 1771) (n=351) ИЭ%/ИИ			<i>Bufo viridis</i> (Laurenti, 1768) (n=173) ИЭ%/ ИИ. Нусха		
		Фарғона n=108	Андижон n=117	Наманган n=126	Фарғона n=57	Андижон n=52	Наманган n=64
Цестода							
1	<i>Spirometra erinacei-europaei, larvae</i>	-	-	7,9/1-2	-	-	-
Трематода							
2	<i>Gorgodera cygnoides</i>	18,7/1-3	10,2/2-8	15,8/1-8	15,7/2-6	9,6/2-3	7,8/1-4
3	<i>G. asiatica</i>	10,4/2-3	11,1/1-4	11,9/2-6	-	-	-
4	<i>G. dollfusi</i>	2,0/2-4	5,1/2-4	7,1/2-4	-	-	-
5	<i>G. media</i>	-	5,9/3-6	4,2/2-6	-	-	-
6	<i>G. pagenstecheri</i>	8,3/1-3	-	8,7/1-3	12,2/2-6	-	12,5/2-3
7	<i>Gorgoderina orientalis</i>	9,3/2-5	7,6/1-2	7,6/2-8	-	-	-
8	<i>G. vitelliloba</i>	11,1/1-6	-	8,7/2-4	-	-	-
9	<i>Diplodiscus</i>	6,4/2-6	7,6/2-8	7,6/ 1-6	7,0/1-3	1,7/1-4	3,1/2-8



	<i>subclavatus</i>						
10	<i>Haplometra sp.</i>	-	1,7/1-3	6,3/2-4	-	-	-
11	<i>Opisthioglype ranae</i>	28,7/2-35	27,2/1-22	30,1/1-26	24,5/2-20	11,5/2-12	17,1/1-16
12	<i>O. koisarensis</i>	-	3,3/1-3	8,7/2-10	-	-	-
13	<i>Pneumonoeces variegatus</i>	20,3/1-8	15,7/2-6	22,2/1-6	17,5/2-4	9,6/2-5	18,7/1-3
14	<i>Pleurogenoides medians</i>	-	-	4,7/2-4	7,0/1-6	3,8/2-8	9,3/2-6
15	<i>Codonocephalus urnigerus, larvae</i>	8,3/1-28	8,2/1-12	4,7/2-15	-	-	1,5/1-2
16	<i>Tylodelphys excavata larvae</i>	-	-	12,6/2-32	-	-	-
17	<i>Alaria alata, larvae</i>	-	12,8/1-18	15,0/2-16	5,2/1-4	1,7/2-6	14,0/2-5
Акантоцефал							
18	<i>Centrorhynchus aluconis, larvae.</i>	6,4/2-12	5,1/1-3	5,5/2-14	5,2/2-10	-	10,9/2-8
19	<i>Sphaerirostris teres, larvae</i>	3,7/1-3	4,2/2-4	8,7/2-8	8,7/1-4	14,0/2-6	12,5/2-3
Нематода							
20	<i>Rhabdias bufonis</i>	21,2/2-10	11,9/2-16	21,4/1-8	19,2/1-20	19,2/2-8	26,5/2-16
21	<i>Rh. rebrovenosus</i>	2,7/1	1,7/1-3	6,3/1-6	7,0/1-3	6,2/2-3	7,8/1-6
22	<i>Strongyloides spiralis</i>	14,0/2-3	7,6/2-3	4,7/1-4	17,5/2-8	9,6/1-4	4,6/2-4
23	<i>Strongyloides sp.1</i>	4,6/1-3	2,5/1-2	8,7/2-6	-	-	-
24	<i>Subulascaris sp.</i>	1,8/1-4	-	1,5/1-2	-	-	-
25	<i>Aplectana acuminata</i>	-	-	-	10,5/1-4	6,2/2-4	12,5/2-6
26	<i>A. multipapillosa</i>	-	-	-	14,0/2-4	-	15,6/1-4
27	<i>Cosmocerca commutata</i>	-	13,1/2-6	12,6/1-8	19,2/1-8	9,6/1-3	12,5/2-3
28	<i>C. ornata</i>	5,5/2-22	5,9/2-16	15,0/2-32	15,7/2-24	14,0/1-12	14,0/2-16
29	<i>Thelandros tba</i>	3,7/2-5	2,5/1-5	2,3/1-6	8,7/2-6	1,7/1-2	12,5/2-5
30	<i>Spirocerca lupi</i>	6,4/1-3	5,1/1-3	4,7/2-3	7,0/2-4	-	6,2/1-6
31	<i>Gongyлонema pulchrum, larvae</i>	-	-	-	5,2/1-3	1,7/1-2	4,6/1-3
32	<i>Agamospirura magna, larvae</i>	14,8/1-8	-	4,7/1-4	-	-	-

Жадвалдан (1 жадвал) кўриниб турибдики, цестода синфига мансуб кўл бақасидан топилган *Spirometra erinacei-europaei* (Rud., 1819), *larvae* ИЭ юқори бўлиб, ИЭ - 7,9% ни, ИИ - 1-2 нусхани ташкил қилди. Яшил қурбақада цестода синфи вакиллари қайд қилинмади.

Трематода синфи вакилларида кўл бақасида ИЭ юқори бўлган тур Наманган вилоятида аниқланган бўлиб, *Opisthioglype ranae* (Froelich, 1791) турининг ИЭ -30,1% ни, ИИ - 1-26 нусхани ташкил қилган бўлса, кам зарарланиш Андижон вилоятига ИЭ -



27,2% ни, ИИ - 2-22 нусхани ташкил қилади. Ушбу трематода билан яшил қурбақани зарарланишини юқори кўрсаткичи Фарғона вилоятига ИЭ -24,5% ни, ИИ - 2-20 нусхани, паст кўрсаткич эса Андижон вилоятига ИЭ -11,5% ни, ИИ - 2-12 нусхани ташкил қилади.

Кўл бақасининг трематодалар билан кучли зарарланганлигига қарамай айрим гельминтлар билан зарарланиши жуда паст даражани кўрсатди. Хусусан, Фарғона вилоятида кўл бақасини трематода *G. dollfusi* (Pigulevsky, 1945) билан зарарланишининг ИЭ - 2% ни, ИИ -2-4 нусхани, Андижон вилоятида *Haplometra sp.* билан зарарланиш ИЭ - 1,7% ни, ИИ -1-3 нусхани, Наманган вилоятида эса трематода *G. media* (Strom, 1940) билан зарарланиш ИЭ -4,2% ни, ИИ - 2-6 нусхани ташкил этиши аниқланди.

Амфибияларни акантоцефаллар билан зарарланишида ҳам худудий фарқларни кўриш мумкин. Масалан, яшил қурбақани *Sphaerirostris teres* (Rud., 1819) личинкаси билан юқори зарарланиш (ИЭ -14,0%, ИИ - 2-6 нусха) Андижон вилоятига тўғри келса, паст кўрсаткич (ИЭ-5,2%, ИИ - 1-10 нусха) Фарғона вилоятига тўғри келади.

Кўл бақасида ушбу тур паразит билан энг юқори зарарланиш кўрсаткичи Наманган вилоятига (ИЭ -8,7 %, ИИ - 2-8 нусха), паст даражадаги кўрсаткич (ИЭ -3,7%, ИИ - 1-3 нусха) Фарғона вилоятига тўғри келиши қайд қилинди.

Нематода синфи вакилларида *Rhabdias bufonis* (Schrank,1788) тури билан Фарғона ва Наманган вилоятларида юқори-ИЭ -21%, ИИ - 2-10 нусха, Андижон вилоятида - ИЭ -11,9%, ИИ - 2-16 нусхани ташкил этади. Яшил қурбақани зарарланиши Наманган вилоятига - ИЭ -26,5%, ИИ - 2-16 нусхани, Фарғона ва Андижон вилоятларига- ИЭ -19,2%, ИИ - 1-20 нусха тенглиги аниқланди.

Шуни алоҳида таъкидлаш жойизки, Фарғона водийсида тарқалган амфибияларни гельминт ва уларнинг личинкалари билан зарарланиш кўрсаткичларининг хилма-хиллиги ушбу худудларда абиотик, биотик ва антропоген (аҳоли зичлиги, атроф-муҳитни ифлосланиши) омилларнинг амфибия ва уларнинг паразитлари бўлган гельминтлар фаунасини шаклланишига таъсирини юқорилигини кўрсатади.

Хулоса. Кўп йиллик тадқиқотларга асосан, Фарғона водийси худудида тарқалган амфибияларда паразитлик қилувчи гельминт ва уларнинг личинкаларининг тур таркиби аниқланди. Амфибияларни турларини гельминтлар билан зарарланишини ва гельминтларни Фарғона водийсининг маъмурий худудлари фаунистик таҳлили ўрганилди. Фарғона водийси амфибияларидан топилган цестодалар синфига мансуб *Spirometra erinacei-europaei* (Rudolphi,1819) ва трематода *Alaria alata* (Goeze, 1782) трематодалари муҳим эпидемиологик ва эпизоотологик аҳамиятга эга. Цестода *S.erinacei-europaei* ва трематода *A.alata* уй ва ёввойи ҳайвонларда ва ҳатто одамларда хавфли трематодоз касалликларни келтириб чиқариши мумкин. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, айгиш ўринлики ушбу тадқиқотларни давом эттириш ветеринария ва тиббиёт соҳаси учун назарий ва амалий аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Икромов Э.Ф., Амиров О.О., Икромов Э.Э., Камбарова Д. Гельминтофауна зеленой жабы- *Bufo viridis* Лаур Узбекистана // Биоразнообразие, сохранение и рациональное использование генофонда растений и животных.Ташкент, 2014.С.327-328).



2. Икромов Э.Ф., Икромов Э.Э. О межвидовых ассоциации гельминтов во внутренних органах озерной лягушки – *Rana ridibunda* (Pallas, 1771) // Биоразнообразие Ферганской долины: актуальные проблемы и пути их решения. Андижан, 2017. С. 88-90.
3. Икромов Э.Ф., Икромов Э.Э. Нематоды озерной лягушки (Amphibia, Anura) Ферганской долины//Экологические вопросы сохранения, восстановления и охраны биологического разнообразия Южного Приаралья.-Нукус, 2018, часть 1.-С.97-100
4. Икромов Э.Ф., и др. Гельминтофауна озерной лягушки - *Rana ridibunda* (Pallas,1771) Наманганской области // Естественные науки и также некоторые проблемы экологии. Наманган. (11-часть). Наманган. Изд НамГУ, 2016. С.334-337.
5. И.В. Чихляев., и др. Обзор гельминтов земноводных (amphibia) Самарской области // Общая биология. 2018.С 385-400
6. Аниканова В.С., и др. Методы сбора и изучения гельминтов мелких позвоночных. Уч. пособие -Петрозаводск. 2007. 146 с
7. Рыжиков К. М.,. Гельминты амфибий фауны СССР. — М: Наука, 1980. 279 с.
8. Скрябин К. И. 1928. Метод полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая человека. М.: Изд-во МГУ. 45 с.

NEUROPEPTIDLAR VA ULARNING BIOLOGIK VAZIFALARI

Qodirova Zulfiya Kobilovna
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Neuropeptidlar va ularning olimlar tomonidan aniqlangan kimyoviy formulalari, shuningdek biologik vazifalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Neuropeptidlar, Enkefalinlar va endorfinlar, Opioid peptidlar, Oksitotsin, vazopressin, Adrenokortikotrop gormon (AKTG).

НЕЙРОПЕПТИДЫ И ИХ БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ

Кодирова Зулфия Кобилевна
Бухарский государственный университет

Аннотация. В данной статье приведены информация о нейропептидах и их химических формулах определенными учеными, а также об их биологических ролях.

Ключевые слова. Нейропептиды, энкефалины и эндорфины, опиоидные пептиды, окситоцин, вазопрессин, адренокортикотропный гормон (АКТГ).

NEUROPEPTIDES AND THEIR BIOLOGICAL FUNCTIONS

Kodirova Zulfiya Kobilovna
Bukhara State University

Annotation. This article provides information on neuropeptides and their chemical formulas identified by scientists, as well as their biological functions.

Keywords: Neuropeptides, Enkephalins and endorphins, Opioid peptides, Oxytocin, vasopressin, Adrenocorticotrop hormone (ACTG).



Oliy ta'lim muassasalarining kimyo ta'lim yo'nalishi bakalavr talabalari uchun Bioorganik kimyo kursida "Peptidlarning biologik vazifalari" mavzusi o'rin olgan. Ushbu mavzuga kiritilgan peptidlardan biri Neuropeptidlar hisoblanadi. Lekin o'zbek tilida mavjud bo'lgan adabiyotlarda yetarli miqdorda ma'lumotlarni topish qiyin. Mazkur maqolada Biz ana shu Neuropeptidlar haqida imkon qadar ma'lumotlar berishga harakat qildik.

Neuropeptidlar - markaziy va periferik asab sistemasida hosil bo'ladigan va odam hamda hayvonlar organizmining fiziologik funksiyalarini boshqaruvchi peptidlardir. Neuropeptidlar 2 tadan 40-50 tagacha aminokislota qoldiqlaridan iborat moddalardir. Ularning ko'pchiligi chiziqli tuzilishga ega, lekin halqasimon tuzilishli peptidlar ham ular orasida uchraydi.

Bosh miyada aniqlangan peptidlarga neuropeptidlar deb atash qabul qilindi. Ular markaziy nerv sistemasi vazifalariga ta'sir etish qobiliyatiga ega. Bu guruhga yuqori biologik ta'sir spektrlariga ega bo'lgan gipotalamus va gipofiz peptidlari ham kiradi. Shak-shubhasiz neuropeptidlar soni ancha, ammo ulardan ayrimlarigina to'liq o'rganilgan. Ko'pchilik neuropeptidlar nerv hujayralari orqali sintezlanadi.[1-6].

Enkefalinlar va endorfinlar. Enkefalinlar va endorfinlar - opinoid fermentlarning namunalari bo'lib, ular bosh miyaning morfin (opiat) retseptorlariga ta'sir qiladi. Ushbu birikmalar morfinga o'xshab og'riqsizlantirish qobiliyatiga ega va *eyforiya* (kayfiyatni ko'tarish) holatini keltirib chiqaradi.

Morfin va uning sintetik analoglarining sistematik tadqiqoti 1973 yilda opiat retseptorlarining kashf qilinishiga olib keldi. Cho'chqa miyasidan olingan ikkita enkefalinlarning tuzilishi aniqlandi.

Tyr - Gly - Gly - Phe - Met Met-enkefalin

Tyr - Gly - Gly - Phe - Leu Leu-enkefalin

Shu guruhga tegishli boshqa peptidlar ajratib olindi va tavsiflandi. α -, β -, γ - va δ -endorfinlar (endogen morfinlar) (Ch. Li, R.Gillemin, 1975 - 1976):

α Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu - Val - Thr

β Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu - Val - Thr
- Leu - Phe - Lys - Asn - Ile - Lys - Asn - Ala - His - Lys - Lys - Gly - Gln

γ Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu

δ Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu - Phe - Lys

Bir oz keyinroq yana bir qator opinoid peptidlar, aynan *dinorfin* (1 - 17) cho'chqa gipofizidan (A.Goldshteyn, 1979), hamda α - va β -*neoendorfinlar* (G.Matsuo, 1980) aniqlandi.

Tyr - Gly - Gly - Phe - Leu - Arg - Arg - Ile - Pro - Lys - Leu - Lys - Trp - Asp - Gln

Dinorfin

Tyr - Gly - Phe - Leu - Arg - Lys - Tyr - Pro - Lys

α -Neoenderfin

Tyr - Gly - Gly - Phe - Leu - Arg - Lys - Tyr - Pro

β -Neoenderfin

Opioid faolligi aniq ifodalangan peptidlar boshqa manbalardan ham ajratib olindi: β -kazomorfin (kazein gidrolizatidan) hamda A va B dermofinlar (janubiy amerika qurbaqasining terisidan):

Tyr - Pro - Phe - Pro - Gly - Pro - Ile

β -Kazomorfin

Tyr - D-Ala - Phe - Gly - Tyr - Pro - Ser - NH₂

Demorfin A

Tyr - D-Ala - Phe - Gly - Tyr - HyPro - Ser - NH₂

Demorfin B

Opioid peptidlarning biologik ta'siri - og'riq sezuvchanligini boshqarish (analgeziya), jo'shqin xulq-atvor, xotira va o'rganib qolishga bog'liq bo'ladi. Bu peptidlar o'simliklardagi analoglariga o'xshab, narkotiklar uchun xarakterli bo'lgan hodisalarni keltirib chiqaradi, ya'ni o'rganib qolish, jismoniy mutelik, nafas olishning qiyinlashishi va yurak faoliyatining yomonlashishi. Opioidlarning ta'sir mexanizmi miya neyromediatorlari - dofamin, atsetilxolin, noradrenalin va boshqalarning sekretiya jarayonida ishtirok etishiga asoslangan. Opioidlarning barcha biologik effektlari bitta antagonist - nalokson bilan so'ndiriladi.


Opioid peptidlarning xususan enkefalin va dinorfinning bir necha yuz analoglari sintez qilinib, ular yuqori faollikka ega bo'lib, amaliyotga ko'p qo'llaniladi. Bu guruh neuropeptidlarining ko'pchiligi eritmalarda harakatchan konformatsiyalarga ega bo'ladi va ularning retseptorlar bilan o'zaro ta'siri "dinamik farmokofor" (ligand va retseptorning o'zaro mos kelishi) konsepsiyasiga asoslanadi.[1].

Oksitotsin va vazopressin - asab (nerv) to'qimasidan ajratib olingan ilk biofaol peptidlardir (Dj. Abel, 1924). Bu neyrogormonlarning tuzilishi kimyoviy sintez yo'li bilan (V. Dyu. Vino, 1953) - tabiiy peptidlarni birinchi marta to'liq sintezlash orqali tasdiqlandi.[1].


Vazopressin va oksitotsin gipotalamusda ishlab chiqariladi, aksonlar orqali gipofizning orqa qismiga tushadi va qonga o'tadi. Ular ko'nikish, jinsiy intilish, ota-onalik hissiyotlari kabi xulqiy reaksiyalarning shakllanishiga ta'sir etadi. Vazopressin va oksitotsin stressda himoya reaksiyalarining yaratilishida ishtirok qiladi. Bundan tashqari bu gormonlar arterial qon bosimiga, silliq mushaklarning qisqarishiga va modda almashinuviga ham ta'sir o'tkazadi.

Vazopressin (antidiuretik gormon) 9 ta aminokislota qoldig'idan tuzilgan: *Cys-Tyr-Phe-Gln-Asn-Cys-Pro-(Arg ëku Lys)-Gly*. Uning asosiy funksiyasi organizmda suyuqlikni saqlab turish va qon tomirlarini toraytirishdan iborat.

Vazopressin organizmda reabsorbsiyani oshirib (peshobning konsentratsiyasini oshirib, hajmini kamaytirib) suv miqdorining saqlanishini nazorat qiladi. [3,4]



Vazopressin



Oksitotsin

Oksitotsinning eritmadagi konformatsiyasi YaMR - spektroskopiya asosida aniqlandi (R.Uolter, D.Urri) va u yetarlicha qattiqligi bilan ajralib turadi (ayniqsa, ichkimolekulyar —S— —S— bog' hisobidan). Bunday konformatsiyada β - struktura kuzatiladi (1-rasm).[1,2].



funksiyalardan tashqari neyromediator rovida chiqishi, miya po'stlog'ining xotira, diqqat, o'rganish kabi oliy funksiyalarida ham ishtirok qilishi mumkin [1,4].

Ser - Tyr - Ser - Met - Gli - His - Phe - Arg - Trp - Gly - Lys - Pro - Val - Gly - Lys - Lys - Arg - Arg - Pro - Val - Lys - Val - Tyr - Pro - Asn - Gly - Ala - Gly - Asp - Glu - Ser - Ala - Glu - Ala - Phe - Pro - Leu - Glu - Phe

Adrenokortikotrop gormon

Xulosa qilib aytganda neuropeptidlar - markaziy va periferik asab sistemasida hosil bo'ladigan va odam hamda hayvonlar organizmining fiziologik funksiyalarini boshqaruvchi peptidlar bo'lib, ular asosan aminokislota qoldiqlaridan iborat moddalardir. Tabiatda peptidlar analoglarini sintez yo'li bilan olish ularning hujayra darajasida ta'sir qilish mexanizmini aniqlashda, peptidlar faolligi bilan ularning fazoviy tuzilishi orasidagi bog'liqlikni aniqlashga yangi dorivor vositalar yaratishga imkon beradi. Ushbu ma'lumotlarni talaba-yoshlarga yetkazish biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Овчинников Ю.А. Биоорганическая химия / М.: Просвещение. - 1987. - 815С.
2. Н.А. Тюкавкина, Ю.И.Бауков. Биоорганическая химия. 3-е издание. Москва. 2004.
3. Филиппович Ю.Б. Основы биохимии. - 4-е изд. - М.: Агар. - 1999. - С.15-22.
4. Долимова Г.Н., Маулянов С.А.. Оксилларнинг тuzилиши ва биологик функциялари. - Тошкент. - 2019. - 222 б.
5. Ergashov M.Y., Qodirova Z.Q. Biokimyodan laboratoriya mashg'ulotlari - Toshkent: Muharrir, 2018. - 180 b.
6. Oripov E.O., Nasrullayev A.O. Bioorganik kimyo. -T.: Fan va texnologiya, 2012. 272 b.

UDK 581. 4. 682. 6. (571. 1.)

SHOTARA(*FUMARIA VAILLANTII LOISEL.*)NING GULLASH BIOLOGIYASI

Qarshiboyeva Nasiba Haydarovna¹, Mamirova Xurshida To'lqin qizi².

A.Qodiriy nomli Jizzax davlar pedagogika instituti
(biologiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi¹, magistr²)

nasiba_q@jspi.uz

Annotatsiya: Shotara - *F. vaillantii Loisel.*ning gullash biologiyasi – mavsumiy va sutkalik gullash biologiyasi, urug' mahsuldorligi o'rganildi. Shotara kunduzgi gullaydigan, eng ko'p gullaydigan vaqti soat 12 – 16 ekanligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: shotara, sutkalik gullash, mavsumiy gullash, urug' mahsuldorligi, dorivor.

БИОЛОГИЯ ЦВЕТЕНИЯ *FUMARIA VAILLANTII LOISEL.*- ДЫМЯНКИ

Каршибаева Насиба Хайдаровна¹, Мамирова Хуршида Тулкиновна²

Джизакский педагогический институт имени А.Кадырий
(кандидат биологических наук, ст.преподаватель¹, магистр²)

nasiba_q@jspi.uz

Аннотация: Биология цветения *F. vaillantii Loisel.* – дымянки. Биология сезонного и суточного цветения, семенную продуктивность. Дымянка цветёт днём. Изучилось, что 12 – 16 часов.



Ключевые слова: Дымянка, суточного цветения, сезонного цветения, семенную продуктивность, лекарственный.

FLOWERING BIOLOGY *FUMARIA VAILLANTII LOISEL.*-DYMYANKI
Karshiboyeva Nasiba Haydarovna¹, Mamirova Khurshida To'likin daughter².

Jizzakh state pedagogical Institute named after A.Kodiriy
(candidate of biological sciences¹, master²)

nasiba_q@jspi.uz

Annotation: *Biology of flowering F. vaillantii Loisel. – dymyanki. Seasonal and circadian biology of flowering, seed production. Dymyanki blooms in the afternoon. By studying the time bloom 12 – 16 hours.*

Keywords: *dymyanki, daily flowering, seasonal flowering, seed productivity, medicinal, spice.*

Dorivor o'simliklarning jigar va yurak xastaliklarini davolashda tutgan o'rni benihoya kattadir. Shu boisdan olimlarning oldidagi asosiy vazifalaridan biri yangi dorivor o'simliklarni topib, ulardan turli kasalliklarning oldini olishda foydalanishdan iborat.

"Protopin gidroxlorid" preparatini sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun uning asosiy xomashyosi bo'lgan vayyan shotarasining barqaror, ishonchli tabiiy xomashyo zahiralari aniqlash va uning bioekologik xususiyatlarini o'rganish, dolzarb muammolar yechimini topish zarurdir.

Shotara – *Fumaria vaillantii* Loisel. Shotaradoshlar oilasiga mansub bir yillik, bahorikor efemer o'simlik. Biz Turkiston tog' tizmasida tarqalgan shotara o'simligining gullash biologiyasini kuzatganimizda, uning vegetatsiyasi 32 kunni, gullash mavsumi 22 kun davom etganligi kuzatildi.

Mavsumiy gullash maromi. Gullarining ochilishi aprel oyining boshidan to may oyining 1-dekadasigacha kuzatildi. 1 shingilda 5 tadan 17 tagacha gullar hosil bo'ladi. Shingildagi gullar poya asosidan boshlab, uning yuqorisidagiga qarab, ya'ni akropital tarzda gullaydi. Keyingi kuni ochilishi kerak bo'lgan g'unchalar boshqalariga nisbatan ancha kattaligi bilan farq qiladi (2mm dan 6mm gacha). O'simlik rivojangan sari shingillarning uzunligi orta boradi. Dastlab paydo bo'lgan shingil 1sm bo'lsa, 6 kundan keyin 2sm bo'ladi. *F.vaillantii*da mavsumiy gullash (13.04.13-4.05.) fazasi kuzatilib, eng ko'p gullagan kunlari (22.04-24.04) da 25-28ta gul ochilishida esa eng ko'p gullagan kunlar (13.04-16.04) da 35-40ta gul ochilishi kuzatildi. Zomin tumanida o'g'it solingan yerlarda o'simliklarning gullashi 14.04 da boshlanib 16.05 gacha davom etdi. Gulning eng ko'p ochilgan kunlari 24.04 dan – 2.05 ga to'g'ri kelib, bunda 1 soatda 20-25 tagacha ochilgan gullar hisobga olindi.

1 gul 3 kun davomida ochilib keyin meva tugishga o'tadi. Har bir shingildagi guillarning umumiy ochilishi 6 kun davom etadi, va avvalgi ochilgan gullar shingilning pastidan yuqorisiga qarab ketma-ket mevalay boshlaydi.

Shunday qilib, tajriba dalalarida gullash muddati *F.vaillantii* da 22 kun davom etishi aniqlandi.

Sutkalik gullash maromi. Gullash jarayoni gullashning boshlanishi, yoppasiga gullashi va gullashning tugashi bosqichlarga bo'lib kuzatiladi. *F.vaillantii* da sutkalik gullash maromi gullashning boshlanishi – 18 aprelda, yoppasiga gullashi 28-aprel va gullashning oxirgi davri 4-may (2013) kunlari kuzatildi. Shotara kunduzi gullovchi o'simliklar toifasiga kiradi. Gullar asosan ertalab soat 8.00 dan to soat 18.00 ga qadar ochiladi. Gullar ochiq obi havoda ko'proq ochilib, bulutli, yomg'irli, harorat 15-18°C dan past bo'lgan kunlari ochilmaydi. *F.vaillantii* da klestogam deb ataladigan gullar mavjudligi o'rganildi. *F.vaillantii* 1 kunda gullashning boshlanish fazasida (18.04) 103 guldandan soat 12-14 da 24-36 (23.3-35.0%) tasi ochildi, (harorat 22-25°C, namlik 48-51%, yorug'lik 75000-80000 lyuks) gullashning oxirgi fazasida (4.05.13) 50 ta guldandan 16 tasi (soat 14.00) 32.4% ochildi (harorat 34°C, namlik 52 %, yorug'lik 80000 lyuks). Shunday qilib, *F.vaillantii*da bir sutkada ochilgan



gullarning eng ko'pi soat 12-14 larga to'g'ri bo'lib, bu umumiy ochilgan gullarning 35,0-37%ni tashkil etadi. Gullarning ochilishi harorat ko'tarilganda tezlashib borishi aniqlandi.

Generativ organlarining tuzilishi. Fumarianing vegetativ va generativ organlarining tuzulishi va rivojlanishi haqidagi dalillar ayrim adabiyotlarda uchraydi.

O'rganilgan manba F .vaillantii gul tuzulishi, shingili, meva va urug'ida umumiy o'xshashliklar bilan birga turlarning o'ziga xos morfologik belgilari ham borligini aniqlandi. Ularning to'pgullari oddiy , kam gulli, siyrak, shingil. F. vaillantii ning shingillari qisqa , nisbatan tig'iz,uzun bandli ,monotel asosiy o'q gul bilan tugab,o'sishi chegaralangan. Gullari asosiy o'qda spiralsimon shaklda joylashgan bo'lib, gullarining uzunligi 1.5-2.0mm ga teng. Har bir gul bandi 0.8-2.5mm uzunlikdagi gul oldi bargchalariga ega. Tabiiy sharoitda o'sgan bir tup F.vaillantii da 10-14tadan shingil hosil bo'lib yaxshi ishlov berilgan,o'g'itlangan tajriba maydonlarida (Zomin tumani) esa ularning soni 18-38 gacha ko'payishi aniqlandi. Urug'lash fazasida shingili uzayib bir muncha siyraklashadi.

Shotaraning gul tuzulishi morfologik jihatdan o'rganilganda gullari ikki jinsli, zigomorf, 4 gultojibargli. Gultojibarglari ikki diora tashkil qilib joylashgan: tashqi gultojibarg tumshuqchali, yuqorigi va pastki gultojibargdan iborat.Ichkisi esa ikkita gultojibarg hosil qiladi.Ichki doirada joylashgan ikkita yon gultojibarg o'zaro yuqori uchlari bilan birlashgan bo'lib, uchki qismining orqa tomonida yaqqol ko'rinib turuvchi siqilgan tumshuqchalari mavjud.Yuqori gultojibarg F.vaillantii da botiq bo'lib, yon gultojibargning birlashgan yeri to'q qizil rangda.

Gullash davrida shu ikkita yopishgan yon gultojibarglarning ajralishi kuzatilmadi, buni changchi va urug'chining yomg'ir va boshqa tabiiy noqulay sharoitdan saqlashga moslashish mexanizmi deb tushunish mumkin. Shotara va uning ekoformasiga avtogamiya (kleystogamiya) va ksenogamiya tipidagi changlanish xosligi aniqlandi.

Shotaraning gullarida ham nektarlar mavjud bo'lib, u urug'chining asos qismida joylashgan N.S.Morozovaning (1980) fikricha Fumaria L. turlarining nektarlari murakkablashgan bo'lib tashqi gultojibarglarning pixsimon o'simtasida to'planadi. Nektar be'zlarining mavjudligi gullarning hashoratlar yordamida changlanishga moslashganligidan dalolat beradi. Shotaraning gullari asosan asalarilar, tukli ari va boshqa pardaqaqnotlilar vakillari yordamida changlanadi. F.vaillantii ning mevasi ochilmaydigan yong'oqcha, ekoforma mevasining tumshuqchasi uchliroq bo'ladi.

Shotara guli zigomorf tipda bo'lib, gultojibarglari ikki doirada (ichki 2 ta va tashqi 2 ta) joylashgan. Shotaraning 2 ta yon gultojibarglarning birlashgan yeri to'q qizil rangda bo'ladi. Gullash davrida ikkita yon gultojibarglarning ajralishi kuzatilmaydi, bu esa changlarning shudring va yog'in suvlarida yuvilib ketishidan saqlaydi.

Shunday qilib, generativ organlarini o'rganish natijalari gultojibarglarning yuqori qismi va tutashgan yeri F.vaillantii da to'q qizil rangda bo'lishi aniqlangan.

Ildiz tizimini kuzatganimizda yer qatlamidagi suvning miqdoriga va tuproqning namligiga bog'liq ekanligi o'rganildi. Tajriba maydonlarida o'stirilgan o'simliklar ontogenezing yuvenil holatida asosiy o'q ildiz 6sm gacha yetdi,o'q ildizdan yer yuzasidan 2-2.5sm chuqurlikda birinchi yon ildizlar paydo bo'lishi kuzatilgan. Yon ildizlarining uzunligi F.vaillantii da 1-2.5sm gacha o'sishi aniqlandi. Immaturo holatga o'tganda asosiy ildiz F.vaillantii da 9-9.5sm gacha o'sadi.Yon ildizlari 5.6-6.0sm uzunlikda gorizontol holatda o'sadi.Shunday qilib, F.vaillantii ni madaniylashtirish maqsadida ekilganda tuproqning namlik va unumdorlik holatiga e'tibor berish kerak. Bu esa o'simlikning yer ustki vegetativ va generativ organlarining yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

Urug' mahsuldorligi. Urug' mahsuldorligi hisoblangan har bir daladagi o'simlik o'ziga xos morfologik xususiyatlarga ega. Shoxlanishiga qarab shingillar (to'p mevalar)soni va ularning uzunligi har xil bo'ladi.1-maydonda F.vaillantii da 78+2.95 2-3 maydonda 21+0,93-30+1,10 shingil paydo bo'lsa , har bir shingilda 7-18 ta meva hosil bo'ladi. 4- dalada o'simlik tabiiy sharoitda o'sganligi uchun uning shingillari va to'pmevalar biroz kamroq bo'ladi, ya'ni u 10+0.36 shingil, har bir shingilda 5-13tagacha meva hosil qildi.



Zomin tumanida *F.vaillantii* ekoformasining umumiy shingillari soni 9-14tagacha yetib, har bir shingilda 5-13tadan meva tugildi. Yalpi gullash davrida *F.vaillantii* da 1 maydonda o'rtacha 820+47.69:2-3 maydonlarda 262+10.33-344+13.21; 4 maydonda 94+_3,61ta gul paydo bo'ldi. Gullashning oxirigacha ko'pchilik gullar asta sekin to'kilib, qolgan gullardan 1 maydonda 497+34.83; 2-3 maydonlarda 146+8.53 -195=11.96; 4 maydonda 52+2.80 va *F.vaillantii*ning ekoformasida esa o'rtacha 64+3.40 ta urug'li meva tugish aniqlandi. Yetilgan meva va urug'larning soni mo'him ko'rsatgich bo'lib, haqiqiy urug' mahsuldorligi (XUM) belgilovchi mezondir. U potensial mahsuldorlikdan (PUM) past bo'ladi (Ashurmetov va b. 1995) bu xususiyat bizning tajribalarimizda ham tasdiqlanadi. Ko'p gullar ochilgandan keyin ob-havoning ta'siridan to'kilib ketadi. Urug' hosildorlik darajasi 1- chi tajriba maydonida o'rtacha 60%, 2-3-chi tajriba maydonlarida 56%, 4-chi maydonda 53% tashkil qildi.

Adabiyotlar

1. Исраилов И.А. Изохинолиновые алкалоиды //Итоги исследования алкалоидоносных растений. Т.Фан. 1993. с. 132.
2. Морозова Н.С. *Fumaria L.* //Жизнь растений. М. Просвещения. 1980. т. 5. с. 217.
3. Юнусов С.Ю. "Алколоиды" Т. Фан. 1981. с. 418.
4. Qarshiboyeva N.H. Shotara yangi dorivor o'simlik //Узб. биол. журн. Т. 1999. 51-54 bet.
5. Qarshiboyeva N.H. "O'zbekistonda tarqalgan shotara (*Fumaria vaillantii* Loisel.) ning bioekologik xususiyatlari". Avtoreferat T.2002.

Rezyume

Shotara - *F. vaillantii* Loisel.ning gullash biologiyasi – mavsumiy va sutkalik gullash biologiyasi, urug' mahsuldorligi o'rganildi. Shotara kunduzgi gullaydigan, eng ko'p gullaydigan vaqti soat 12 – 16 ekanligi o'rganildi.

Биология цветения *F. vaillantii* Loisel. – дымянки. Биология сезонного и суточного цветения, семенную продуктивность. Дымянка цветёт днём. Изучилось, что 12 – 16 часов.

Biology of flowering *F. vaillantii* Loisel. – dymyanki. Seasonal and circadian biology of flowering, seed production. Dymyanki blooms in the afternoon. By studying the time bloom 12 – 16 hours.

ФАРГОНА ВОДИЙСИ ШИМОЛИЙ АДИРЛАРИДА ТАРҚАЛГАН AMARANTHACEAE ОИЛАСИНИНГ ТАКСОНОМИК ТАҲЛИЛИ

Хошимов Хушбахт Рустамжон ўғли¹, Батошов Авазбек Рискулович², Шарипов Илёсбек Қодирали ўғли³

¹Наманган давлат университети, таянч докторанти

Джизакский государственный педагогический институт, учитель

sherzod_aka92@mail.ru

Аннотация: Все чаще поднимаются вопросы угрозы экологии, связанной с использованием пестицидов, в том числе и гербицидов. При этом совершенно не учитываются достижения современной химии и современные строгие требования экологии (Захаренко, Мельников и др., 1995). Современные пестициды малотоксичны, так как способны избирательно действовать на определенные ферменты в сорных растениях, которые отсутствуют в организме человека и животных. [1]

Ключевые слова: Морфогенетические реакции, гербицид, мягкой пшеницы, структура морфологической изменчивости, морфогенетик, Онтогенетические тактики, химический стресс, Пивот-арт, пшеницы, горметическим эффектом.

MORPHOGENETIC REACTIONS AND LIFE STRATEGIES OF SOFT WHEAT UNDER THE EXPOSURE OF HERBICIDES

Abstract: More and more often, the issues of environmental threats associated with the use of pesticides, including herbicides, are being raised. At the same time, the achievements of modern



chemistry and modern strict environmental requirements are completely ignored (Zakharenko, Melnikov et al., 1995). Modern pesticides are low-toxic, as they are capable of selectively acting on certain enzymes in weeds that are absent in humans and animals. [1]

Tayanch soʻzlar: Morphogenetic reactions, herbicide, common wheat, structure of morphological variability, morphogenetic, Ontogenetic tactics, chemical stress, Pivot-art, wheat, hormetic effect.

YUMSHOQ BUG'DOYNING GERBITSIDLAR TA'SIRIDA MORFOGENETIK REAKTSIYALAR VA HAYOT STRATEGIYASI

Annotatsiya: Pestitsidlarni, shu jumladan gerbitsidlarni qo'llash bilan bog'liq ekologik tahdidlar masalalari tobora ko'proq ko'tarilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy kimyo yutuqlari va zamonaviy qat'iy ekologik talablar butunlay e'tiborga olinmaydi (Zaxarenko, Melnikov va boshqalar, 1995). Zamonaviy pestitsidlar kam zaharli hisoblanadi, chunki ular odamlar va hayvonlarda mavjud bo'lmagan begona o'tlardagi ma'lum fermentlarga tanlab ta'sir ko'rsatishga qodir. [1]

Key words: Morfogenetik reaksiyalar, gerbitsid, oddiy bug'doy, morfologik o'zgaruvchanlikning tuzilishi, morfogenetik, Ontogenetik taktika, kimyoviy stress, Pivot-art, bug'doy.

Введение: Применение гербицидов считается одним из главных условий для повышения урожайности сельскохозяйственных культур. Подавляющее большинство исследователей считают, что основной причиной повышения продуктивности культурных растений при этом является снижение засоренности и улучшение через это светового режима, водного и минерального питания растительностью.[2] В связи с этим, целевыми объектами применения гербицидов считают сорные растения и главным показателем эффективности гербицидов принято считать снижение засоренности. Воздействие на культурное растение оценивается чаще всего по поражающему влиянию, что решается через подбор типа гербицида, дозы и режима внесения. Хотя имеется немало исследований показывающих желаемые результаты применения гербицидов. Например, повышение содержание белка в зерне пшеницы или повышение сахаристости сахарного тростника. Работ, посвященных оценки влияния гербицидов на морфогенез культурных растений и, через это, на повышение урожайности крайне мало. В связи с этим развитие подхода, в котором гербициды рассматриваются как химический стрессор, раскрывающий стратегический защитный потенциал и повышающий семенную продуктивность культурных растений, считаем актуальным.

Методология и методы исследований.

Работа основана на системном, подходе изучения влияния гербицидов на морфогенез и проявление стратегий жизни культурных растений. Планирование работы, экспериментальные исследования и анализ результатов основаны на общенаучной методологии и системном подходе.

Теоретико-методологическую основу исследований составили лабораторные и полевые исследования с использованием общепринятых морфологических, популяционных, экологических и статистических методов. Лабораторные исследования выполнялись в соответствии с общепринятыми методиками и

указаниями. Обработка данных проводилась методами математической статистики с использованием компьютерной программы Statistica Microsoft Excel.

Метод на рулонах. Эксперименты по определению функциональной активности роста яровой пшеницы проводили на семидневных проростках исследуемых культур. Семена высаживались рулонным методом.[3] Семена замачивали водой в течение 3 суток при 25°C в термостате. Проросшие зерна переносили в рулоны из фильтровальной бумаги и помещали в вегетационные сосуды (350 мл) с дистиллированной водой (контроль) и с исследуемыми растворами. Спустя 7 суток рулоны разворачивали и проводили измерения линейных размеров у 30 проростков путём измерения линейкой с точностью до 1 мм и ширины листовых пластинок с точностью до 0,1 мм. Сырую массу побегов и корней определяли взвешиванием на электронных лабораторных весах с точностью до 0,001 гр.

Метод выращивания в чашках Петри. Семена раскладывали на двух-трех слоях увлажненной фильтровальной бумаги в чашках Петри. Посуду перед употреблением дезинфицировали спиртом. Ежедневно на несколько секунд приоткрывали крышки чашек Петри для проветривания семян, при необходимости дополнительно увлажняли фильтровальную бумагу. Измерения проводили на 10-дневных проростках.

Результаты и их обсуждение.

Испытание влияния гербицидов на морфогенез, рост и развитие на ранних этапах онтогенеза проводили с применением гербицида Пивот-арт.

Последовательным двойным разведением гербицида в дозе 0,2 мл/л получили ряд испытуемых доз (мл/л): 0 (контроль) – 0,0125 – 0,025 – 0,05 – 0,1 – 0,2. В качестве контроля была взята чистая вода без гербицида.

Была оценена изменчивость параметров проростка в контроле. Большинство признаков показали повышенный и высокий уровень изменчивости (Зайцев, 1973). И только число корешков имело средний уровень изменчивости (табл. 1). Вероятно, что относительно высокие показатели варьирования определяются определяемым генетически размахом характерной для сорта модификационной изменчивости. Наибольшую генетическую детерминированность имеет признак число корешков.

Таблица 1.

Статистические показатели признаков 5-дневных проростков мягкой пшеницы сорта Санзар в контроле

Статистические показатели	Общая длина проростка (см)	Длина побега (см)	Длина корневой системы (см)	Масса проростка (г)	Число корешков (шт.)	Длина побега / длина корневой системы
Среднее значение	16,1	8,6	7,5	0,1	5,5	1,3
Стандартная ошибка	0,96	0,61	0,56	0,00	0,19	0,11
CV (%)	27,2	32,6	34,6	26,9	16,0	41,1

Наиболее явным проявлением действия гербицида было влияние на всхожесть семян (рис. 1). С ростом концентрации гербицида всхожесть семян закономерно

понижалась от 84% до 40%. Однако при концентрации 0,05 мл/л отмечается повышение всхожести на 12% относительно предшествующей концентрации. Вероятно, что это является проявлением гормезиса – стимулирующего действия умеренной дозы стрессора.




Рисунок 1. Динамика всхожести семян мягкой пшеницы сорта Санзар в условиях нарастания гербицидного стресса (гербицид пивот-арт).

При нарастании концентрации закономерно снижаются параметры таких признаков, как общая длина проростка, длина побега, длина корневой системы и масса проростка (рис. 2). В изменении признаков «длина корневой системы» при средних концентрациях и «масса проростка» при низких концентрациях проявляется горметический эффект. В наибольшей степени этот эффект проявляется при средних концентрациях гербицида для признака «число корешков».




Рисунок 2. Изменение средних значений параметров 5-дневных проростков мягкой пшеницы сорта Санзар при нарастании гербицидного стресса.

В целом в условиях гербицидного стресса проявляется общая для всех растений, в т.ч. пшеницы, закономерность – увеличение доли корней в соотношении надземных и подземных частей растения. В наших экспериментах это проявилось в увеличении числа корешков, их длины и доли в структуре побег-корень.

В структуре морфологической изменчивости (контроль) выявлено четыре группы индикаторных признаков: генотипические (число корешков, масса проростка), экологические (отношение линейных размеров надземной и подземной частей проростка), биологические (общая длина проростка), системные или эколого-биологические (длина побега и длина корневой системы) (Рис. 3.).

Таким образом, можно полагать, что отношение линейных размеров надземной и подземной частей проростка зависит от внешних условий, а состояние системы можно оценивать по линейным размерам побега и корневой системы.





Рисунок 3. Структура морфологической изменчивости 5-дневных проростков мягкой пшеницы сорта Санзар - соотношение общей (CV,%) и согласованной (r^2_m) изменчивости.

Примечание: 1 – общая длина проростка, 2 – длина побега, 3 – длина корневой системы, 4 – масса проростка, 5 – число корешков, 6 - отношение линейных размеров надземной и подземной частей проростка. Здесь и далее на иллюстрациях структуры морфологической изменчивости: по оси абсцисс – согласованная изменчивость (усредненный показатель коэффициента детерминации признака с прочими признаками морфологической структуры - r^2_{ch}), по оси ординат – изменчивость признака (коэффициент вариации - CV,%).

При нарастании гербицидного стресса происходит изменение индикаторной роли признаков проростка. В целом для линейных признаков (общая длина и длина надземной части) наблюдается во всех вариантах с гербицидом нарастание общей и согласованной изменчивости – т.е. усиливается роль этих признаков, как системных

индикаторов, определяющих состояние проростка. И только для длины корневой системы выявлено, при общей для линейных признаков тенденции, возврат признака при самой высокой концентрации в 0,2 мл/л в область генотипических индикаторов. В этом проявляется исчерпывание возможностей морфогенетической адаптации признака «число корешков» и возврат к жесткому генетическому контролю за развитием признака, также ведет себя признак «масса проростка» (Рис. 4).



А

Б

Рисунок 4. Изменение индикаторной роли признаков «длина побега» (А) и «масса проростка» (Б) – при нарастании гербицидного стресса.

Примечание: К-1-2-3-4-5 – последовательное увеличение дозы гербицида.

Онтогенетическую стратегию мягкой пшеницы в целом можно оценить как защитно-стрессовую, соответствующую конкурентной стратегии по Грайму (рис. 10). Однако, так как самые малые дозы гербицида приводят к сильному снижению морфологической целостности, проявление этой стратегии на отрезке от малых до средних доз (0,025-0,20 мл/л) можно считать гормональным эффектом (подтверждается статистически значимыми различиями показателя при разных дозах гербицида, рис. 10). Гормезис проявляется в стимулировании умеренным химическим стрессом морфологической интеграции растения. Максимальные адаптивные морфогенетические реакции проявились при концентрации 0,10 мл/л. дальнейшее увеличение концентрации приводит к дисбалансу в обеспечении целостности морфологической структуры 10-дневных проростков мягкой пшеницы.

Онтогенетические стратегии всех отдельных признаков повторяют общую закономерность (рис. 11). И только максимум морфологической интеграции, в отличие от прочих признаков, приходится на меньшую концентрацию гербицида – 0,05 мл/л.






Рисунок 5. Тренд онтогенетической стратегии 10-дневных проростков мягкой пшеницы сорта Санзар.

Примечание: по оси абсцисс – концентрация гербицида (мл/л), по оси ординат – Усредненный показатель детерминации всех признаков морфологической структуры. * - $\alpha \leq 0,05$ (отличие от контроля); ** - $\alpha \leq 0,1$ (отличие от максимального для варианта 0,10 мл/л значения); *** - $\alpha \leq 0,01$ (отличие от минимального для варианта 0,025 мл/л значения).

Тренды онтогенетических тактик, кроме признака «число корешков» (чистая конвергентно-дивергентная тактика), повторяют конфигурацию тренда онтогенетической стратегии (рис. 11, А). Всегда максимум морфологической интеграции приходится на максимальное варьирование признака. Вероятнее всего, что это проявления адаптивных реакций на индивидуальном уровне. Для числа корешков максимальный уровень интеграции признака приходится на одно из минимальных значений варьирования. Это результат проявления адаптивной реакции в морфогенезе растения на групповом (популяционном, видовом) уровне – проявляется высокая согласованная изменчивость признака в развитии морфологической структуры при минимальном его варьировании.



А

Б

Рисунок 6. Тренды онтогенетических тактик (сплошная линия, левая ось) и стратегий (пунктирная линия, правая ось) для признаков «масса проростка» (А) и «числ* корешков» (Б).

Таким образом, в адаптации 10-дневных проростков к нарастающему гербицидному стрессу происходит смена механизмов адаптации. При низких концентрациях гербицида главную роль в выработке механизмов защиты играет корневая система. Увеличивается среднее число корешков (рис. 12) и усиливается взаимообусловленность в развитии с другими признаками (рис. 11, Б). И все это проявляется на групповом уровне. При возрастании концентрации гербицидов до средних доз главная роль в выработке устойчивости к стрессу переходит к надземным органам, что проявляется уже на индивидуальном уровне.




Рисунок 7. Динамика средних значений признака «число корешков» у 10-дневных проростков мягкой пшеницы при нарастании гербицидного стресса.

Выводы. Изменчивость является общим свойством всех живых организмов.[4] В изучении морфологической адаптации растений основным было исследование модификационной изменчивости, определяемой на генетическом уровне организма. Размах модификационной изменчивости признака является показателем его адаптивной значимости. Уровень генетической детерминации размаха варьирования указывает на степень зависимости изменчивости признака от генотипа (высокая детерминация) или внешних условий (низкая детерминация).

Изучение изменчивости параметров культурных растений, особенно признаков структуры урожая, является необходимым элементом исследований в селекции, испытании и районировании сортов, в оценке зависимости культурных растений от почвенно-климатических условий, агротехнических и агрохимических технологий, в том числе применения гербицидов.

Список литературы



1. Карпун, Н. Н., and Э. Б. Янушевская. "Использование биологически активных веществ для улучшения экологического состояния садовых агроценозов." *Субтропическое и декоративное садоводство* 48 (2013): 220-227.
2. Алимов, А., & Богуцкая, Н. (Eds.). (2018). *Биологические инвазии в водных и наземных экосистемах*. Litres.
3. Журбицкий З.И., 1968. Теория и практика вегетационного метода. –М.: Наука. 1968. -226с
4. Грибанова, С. В., Павленко, В. Б., & Махин, С. А. (2002). Особенности восприятия времени больными различными психическими заболеваниями. *Ученые записки Таврич. национ. ун-та им. ВИ Вернадского*, 15(54), 36-40.
5. Злобин Ю.А. Ценопопуляционная диагностика экотопа // *Экология*. - 1980. - №2. - С. 22-30.



09.00.00

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ
ОМИЛЛАРИ**

Аббосова ФарДУ ўқитувчиси

Аннотация: Жамият барқарорлигининг объектив ва субъектив омили сифатида ижтимоий тараққиётда давлатнинг ислохотчилик ролининг асослаш илмий аҳамияти очиб берилган. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида шахс тафаккурининг ўзгариши билан янги ҳаёт учун зарур бўлган кўникмалар эканлиги ўрганилган. Жамият ва давлат барқарорлиги учун муҳим аҳамиятга эга бўлган гоъвий тарбия эканлиги илмий асосланган.

Калит сўзлар: Жамият барқарорлиги, жамият тараққиёти, объектив ва субъектив омиллар, миллий гоъ, миллий қадрият, умуминсоний қадрият, ёшлар салоҳияти, гоъвий-мафкуравий тарбия.

**ОБЪЕКТИВНЫЕ И СУБЪЕКТИВНЫЕ ФАКТОРЫ УСТОЙЧИВОСТИ
ОБЩЕСТВА**

Аннотации: Раскрывается научная значимость обоснования реформистской роли государства в общественном развитии как объективного и субъективного фактора социальной стабильности. На новом этапе развития Узбекистана было изучено, что с изменением индивидуального мышления появляются навыки, необходимые для новой жизни. Научно обосновано, что именно идеологическое воспитание важно для стабильности общества и государства.

Ключевые слова: устойчивость общества, развитие общества, объективные и субъективные факторы, национальная идея, национальная ценность, общечеловеческая ценность, молодежный потенциал, идеологическое воспитание.

OBJECTIVE AND SUBJECTIVE FACTORS OF SOCIETY SUSTAINABILITY

Annotation: The scientific significance of substantiating the reformist role of the state in social development as an objective and subjective factor of social stability is revealed. At a new stage of development of Uzbekistan, it has been studied that with the change of individual thinking are the skills necessary for a new life. It is scientifically based that it is an ideological upbringing that is important for the stability of society and the state.

Keywords: stability of society, development of society, objective and subjective factors, national idea, national value, universal value, youth potential, ideological and ideological education.

Глобаллашув даврдаги жараёнларни тадқиқ қилишга янги тафаккурни изчилик билан қўллаш дунёнинг чинакам илмий манзарасини яратишга, давлатнинг ва жамиятнинг ўзаро ижобий, бунёдкор ҳамкорлигини йўлга қўйишга имкон бермоқда. Инсониятнинг жамиятга бўлган муносабати замонавий жамиятга



мослашиш жараёни эски андозалардан халос бўлмоқда. Яъни шахс дунёқарашида янги тафаккур нафақат тафовутларда, балки янги ҳаёт учун зарур бўлган кўникмаларда ҳам намоён бўлмоқда. Жамият барқарорлигининг асоси миллий кадриятларни умуминсоний кадриятларга йўналтириш барча ижтимоий гуруҳлар ва жамоалардан ўз манфаатлар фаолиятларини халқаро муносабатларга инсонпарварлик руҳини сингдириш йўли билан қаратишни тақозо этади.

XX асрнинг иккинчи ярми тарихий воқеликни ўзида яхлит тарзи сифатида цивилизацияни, ўз-ўзини инкор этиш имкониятига эга эмас. Инсониятга мангу мавжудот сифатида қаралар ва унинг ўзини сақлаш тўғрисида ғамхўрлик қилишга ўткир эҳтиёж йўқ эди. XXI асрда эса инсоният умумийликдан хусусийликка сари интилиши шахслараро муносабатни фаол юзага келтирди. Жамиятда аҳоли, айниқса, ёшларнинг маънавий ва маърифий савиясини доимий юксалтириш – биринчи даражали аҳамиятга эгадир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “Мураккаб геосиёсий ва мафкуравий жараёнларнинг салбий таъсири ортиб, одамларнинг онги ва қалби учун кураш кучайиб бораётган бугунги кунда юртимиз сарҳадлари ва мамлакатимиз ҳаётининг барча соҳаларини ғоявий ҳимоялаш ишлари замон талаблари, ислоҳот ва янгиланишлар суръатидан ортда қолмоқда” [1.293]. Зотан, жамият тараққиёти ва миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу – миллий ғоядир. Миллий ғоянинг жамиятдаги энг муҳим вазифаси ёш авлоднинг келажаги ва ватан тақдири билан чамбарчас боғлиқ бўлган жараённинг ривожланишидир.

Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида миллий ғояни ривожлантириш Концепцияси” лойиҳасида таъкидлаганидек, миллий ғоя соғлом фикрлайдиган ҳар бир шахс ва фуқарода миллий ғурур-ифтихор, ор-номусни уйғотадиган, ўзликни англадиган, халқнинг мақсади ва орзу умидлари рўёбга чиқишига куч-қудрат берадиган, миллатни ҳаракатга келтирадиган қудратли омилдир. Бу эса, ёшлар дунёқарашини шакллантиришга қаратилган тизимли жараённинг янги босқичини бошлаб беради. Ёш авлодни ва уларнинг маънавий қиёфасини бугунги муаммоларни олдини олишга қаратилган илмий тадқиқотларни амалга оширишда устувор аҳамият касб этади. Шу нуқтаи-назардан қараганда, ёш авлодни ғоявий-мафкуравий жиҳатдан тарбиялаш жамият тараққиёти самарадорлиги билан бевосита боғлиқ ҳолда ривожланади. Жамиятнинг маънавий юксалиши тараққиётимизни янги босқичида оширилиши лозим бўлган стратегик мақсадларга асос бўлади. Шу боис, “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” деган дастурий ғоя асосида, ёшларни она юртга садоқат руҳида тарбиялаш, уларда ташаббускорлик, фидойилик, ахлоқий фазилатларни шакллантириш – ўта шарафли вазифадир [2.28]. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида шахс ҳаётини фаровонлаштиришга бўлган муносабат миллий юксалишга боғлиқдир. Шу сабабли аҳолига ғамхўрлик қилиш объектив равишда кишилиқ борлигининг маънан ва жисман мавжудлигини сақлаб қолиш воситаларига бўлган азалий эҳтиёжларини биринчи заруриятига айлантиради.

Жамият юксалиши объектив ва субъектив омилларнинг тараққиёт натижасида амалий фаолият ва жамиятни ислоҳ қилишни ривожлантириш мақсади ҳисобланади. Шунингдек, ўзгаришларни ҳис этиш учун инсон маънавиятини шахс сифатида ривожланишига боғлиқ бўлади. Бир тизимдан иккинчи тизимга ўтиш даврида ўзликни англашнинг ўзига хос



кўринишларини англамасдан жамият барқарорлигининг даражасини аниқлаб бўлмайди. Чунки юксак ривожланган жамият ўзлигини англаган шахслардан таркиб топади. Инсон ижтимоий мавжудот сифатида талқин этилганда, унинг мустақил тафаккурга, эътиқодга, бунёдкорлик қудратига, ўзгалар ва бутун борлиқ олдидаги масъулият туйғусига эга эканлиги назарда тутилади [3.151]. Дарҳақиқат, шахс маънавиятни шакллантиришнинг муҳим босқичи, зарурий шартининг ўз-ўзини англашдан бошланади. Зеро, инсоннинг ўз маънавиятини ривожлантиришга бўлган эҳтиёжи чексиздир. У инсоннинг бутун онгли фаолияти давомида шаклланади, ривожланади. Бу эса, жамият маънавиятини юксалтиришда тарихий хотира, аждодлар тарихини билишнинг, миллий ва ахлоқий қадрият ҳамда анъаналарнинг, муқаддас диннинг ўрни жуда катта аҳамиятга эга. Бирон бир халқ ўз тарихини билмай, асрлар оша яратилган меросга таянмай ва уни янада юксалтирмай туриб, ўз келажагини тасаввур эта олмайди. Зеро, ўзликни англаш тарихий бурилишда фаол фуқаролик позициясини кўрсатиш билан белгиланади.

Ўзликни англаш ғояси узоқ тарихий илдизга эга бўлиб, уни биз қадимги юнон донишмандларининг маънавий меросидан ҳам билишимиз мумкин. Масалан, файласуф Сукротнинг фикрича, ўзини англаган инсон ўзи учун нима фойдали ва нималарга қодир эканлигини яхши тушунади. У қўлидан келадиган иш билан шуғулланиш асносида ўз эҳтиёжини қондиради ва саодатга эришади. Ҳар қандай хато ва бахтсизликлардан ҳоли бўлади. Бунинг натижаси ўлароқ, у ўзга одамларни қадрлай олади ва улардан эзгулик йўлида фойдалана билади. Оқибатда ўзини қулфатлардан асрайди [4.63]. Бу қараш жамиятда объектив ва субъектив эҳтиёжнинг муҳим омили ҳисобланган ўзликни англаш эканлигини англади. Бу эса, тасаввуф таълимотидаги қаноат ва саховат, ҳиммат ва ботиний факрлик билан инсон ўзининг улуғлигини энг катта душмани нафс эканлигини ҳам англади.

Дарҳақиқат, ўзликни англаш тарихни билишдан бошланар экан, тарих эса халқнинг миллий-маънавий бойлиги, фахри ва ғуруридир. Янги даврга Ғарб мутафаккирлари Шарқ файласуфлари томонидан ривожлантирилган «Ўзликни англаш» ғоясига таянган ҳолда, ўзларининг фикрларини илгари суришган. Масалан, XVIII асрларда яшаб ижод этган файласуф Г.С.Сковорода бу ҳақида шундай дейди, «Сен фақат бир нарсага: ўзингни англашга интил. Ўзингни англамай, ўзликни топа олмайсан [4.321]. Бу эса, шахс, миллат ёки жамиятнинг ички салоҳияти билан боғлиқ бўлган ҳақиқат ўзликни англаш ҳисобланади. Яъни шахс, миллат ёки жамиятнинг ички салоҳияти мустаҳкам, заминлари чуқур бўлиши жамият ривожланишининг асосини ташкил қилади. Агар ички салоҳият ночор бўлса, шахс баркамоллик даражасига, миллатнинг ўз бир бутунлигини сақлашга ва айни пайтда жамиятнинг юксак тараққиёт поғонасига эришишига салбий таъсир қилади. Шунингдек, ички салоҳият таянч ва объектив заруриятдир. Ички салоҳиятнинг даражалари эса объектив ва субъектив омиллар билан боғлиқ бўлади. Унинг ривожланиши уларнинг уйғун ҳолатда бўлишини тақазо этади.

Тараққиётнинг янги босқичида мамлакатнинг тарихий ривожланиш жараёни халқимизнинг маънавий бойлигини сақлаб, тўплаб авлодларга етказиб келгани, халқимизда бирдамлик, ватанпарварлик ва миллий ғурур ҳиссини тарбиялаганини эътироф этган ҳолда, маданиятнинг устуворлигига урғу бериш, жамият ҳаёти сифатининг янада юқори даражасини таъминлаш, унда фуқароларнинг ҳамжиҳат бўлишига эришиш, маънавиятли, масъулиятли, мустақил фикрловчи ижодкор шахсни шакллантириш [5.] асосий мазмунини ташкил этади. Жамият ва давлат фаровонлиги баркамол авлодни вояга етказиш билан кафолатланади. Жамият ичидан етишиб



чиқадиган етук, баркамол шахслар миллий юксалишнинг пойдеворини қўяди. Бу эса, ахлоқий-маънавий таълим-тарбия жараёнида камолга эришган шахсдир. Демак, миллий юксалишни амалга оширишнинг объектив ва субъектив омилларининг ўзига хослиги таълим-тарбия жараёни босқичларига боғлиқдир. Жамият барқарор тараққиёти шахсларнинг ўз иқтидори, истеъдоди, салоҳияти ва қобилиятини англаши, ўз ҳақ-хуқуқини билиш билан ўз замондошларидан сезиларли даражада фарқ қилади. Билим ва бойликка эга бўлиш одамнинг саъй-ҳаракатига боғлиқ, одам қанча кўп ғайрат қилса, шунча билими ва мол-мулки ортиб боради. Инсоннинг камолга эришиши ҳамда ахлоққа эга бўлиши ва ўз-ўзини таниш билан амалга ошади. Ҳар бир миллатнинг вояга етган онгли аъзоси ўзи мансуб бўлган миллатнинг олдида маъсулиятли бўлади. Миллатнинг миқдорий, иқтисодий, маданий, ахлоқий, маърифий, маънавий тараққий этиб бориши, ер юзидаги бошқа халқлардан орқада қолиб кетмаслик учун биринчи навбатда шу халққа мансуб кишилар жавобгарлик туйғусини туйиши лозим. Оила ва жамиятдаги ҳар бир ҳаракатида, босган ҳар бир қадамида шу миллатнинг манфаатларини ҳам унутмаслиги керак[6.165]. Жамият тараққиёти таълим-тарбиянинг ривожини билан уйғун ҳолда инсонпарварлик ғояларини акс эттирувчи шахс ҳаёт ва фаолиятида ўз-ўзини назорат қилиш, ўз-ўзини баҳолаш, ўз-ўзига буйруқ бериш, ўз-ўзини ифодалай олиш, ўз-ўзини камол топтириш, ўз-ўзини кашф қилиш имкониятларига эга бўлиши кераклигини билдиради. Шунингдек, таълим-тарбия билан ҳамоҳанг шахснинг камолоти негизи сифатида оила, мактаб, ижтимоий муҳит, ишлаб чиқариш ўз мавқеини сақлаб қолаверади.

Жамият барқарорлигининг объектив ва субъектив омил сифатида ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтишда давлатнинг ислоҳотчилик ролининг объектив асоси бўлиб ҳам миллий иқтисодиёт даражасида, ҳам халқаро миқёсда ижтимоий меҳнат тақсимотининг ривожланиши негизида ишлаб чиқаришнинг умумлашуви жараёни хизмат қилади. Субъектив-объектив жараён шаклидаги инсонларнинг ижтимоий фаоллиги жамият соҳаларида акс эттираётган қонун-қоидалар субъективлигини ҳам ўзида мужассамлаштиради.

Бизнингча, Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида жамият барқарорлигининг объективлик билан субъективлик муносабатлари қуйидагича талқин қилинади. Инсоннинг ўз эҳтиёжи ва манфаатидан келиб чиқиб ижтимоий борлиқни ўзлаштириши ва ўзгартириши, яъни, моддийлашуви эса унинг объектлашишни ислоҳ қилиш узлуксиз объективликнинг субъектлашиш жараёнини билдиради. Бу эса, миллий ва умуминсоний кадриятларнинг бир-бири билан чамбарчас боғланиб кетганини иқтисодий, маънавий ва сиёсий соҳаларда содир бўлаётган жараёнларда яққол кўришимиз мумкин. Айни вақтда инсон фаолияти натижаларининг объектив реалликка айланиши жараёнини ҳам исботлади. Объективлик билан субъективлик ўртасидаги ўзаро ижтимоий-маданий муносабатларга киришиш ва уларга нисбатан диалектик нуқтаи назаридан ёндашиш, бизнингча, тўғри бўлади, чунки тараққиётда улар фақат ўзаро алоқадорликда бўлиб қолмасдан, балки ҳар бири аниқ ҳолатда бир-биридан нисбий мустақил ҳамдирлар. Миллий юксалиш фаолиятининг у ёки бу тури амалга ошиш вақти ва жойига қараб ҳам объектив, ҳам субъектив шаклда намоён бўлиши мумкин. Шунга кўра, объективликнинг субъективликдан фарқи бўлади, лекин бу фарқ доимо ўзининг нисбий чегарасига эга бўлавермаслигини кузатамиз.



Демак, шу нуқтаи назардан жамиятни миллий юксалишининг субъекти билан унинг объектлари ўртасидаги диалектик алоқадорликни тадқиқ қилиш ижтимоий муносабатларни билишнинг асосий ва муҳим категорияларидан биридир. Жамиятни ижтимоий-маданий эҳтиёжлари тарихий тараққиёт босқичларида мазкур муносабатларни илмий билиш ва инсоннинг бутун ижтимоий фаолиятидаги ўрнига боғлиқ. Чунки айнан шу эҳтиёжларда объектнинг субъектлашуви ва субъектнинг объектлашуви жараёни тўлиқ мужассамлашган бўлади. Жамиятни ҳаракатга келтирувчи куч, аввало, кишиларнинг реал фаолияти бўлиб, унинг сабаблари муайян жамиятга хос зиддият ва қарама-қаршиликлар билан боғлиқ. У ёки бу жамиятга, хос бўлган муносабатлар табиатидан келиб чиқиб, баъзан турли хил ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ўзаро зид келиши сабабли амалга ошса, баъзан эса, аксинча, ижтимоий гуруҳлар асосий манфаатларининг ўзаро мос келиши асосида амалга ошади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Ўзбекистон. Тошкент. 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси Ўзбекистон. 2020.
3. Эргашев И. Миллий истиқдол ғояси. Тошкент. Академия. 2005.
4. Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф.-Тошкент. Янги аср авлоди. 2002.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш Концепцияси» ПҚ-4038-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 30.11.2018.
6. Иброҳимов А. Биз ким ўзбеклар. Тошкент. Шарқ, 2011.

ЖАМИЯТ МУҲИТИНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ.

И. Нурматова ФарДУ мустақил изланувчи

Аннотация: Мазкур мақолада ахлоқ жамият ривожини ва инсон камолотини учун муҳим фалсафий категория эканлигини илмий аҳамиятини очиқ берилган. Ахлоқ меъёрларининг илмий-назарий жиҳатлари ўрганилган. Жамият муҳитини юксалтириш ахлоқ меъёрларига асосланиши илмий асосланган.

Калит сўзлар: Жамият, ахлоқ, ахлоқ меъёрлари, ахлоқий тафаккур, ҳуқуқ, ҳуқуқий онг, маънавият, маърифат.

ОСНОВЫ ЭТИЧЕСКОЙ НОРМАЛИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ.

И. Нурматова ФарДУ - независимый исследователь

Аннотация: В статье раскрывается научное значение того факта, что мораль является важной философской категорией для развития общества и совершенствования человека. Изучены научно-теоретические аспекты этики. Улучшение социальной среды научно основано на этических стандартах.

Ключевые слова: общество, мораль, этические нормы, моральное мышление, право, правовое сознание, духовность, просвещение.



FUNDAMENTALS OF ETHICAL NORMALIZATION OF THE SOCIAL ENVIRONMENT.

I.Nurmatova FarDU is an independent researcher

Annotation: This article reveals the scientific significance of the fact that morality is an important philosophical category for the development of society and human perfection. The scientific and theoretical aspects of ethics have been studied. The improvement of the social environment is scientifically based on ethical norms.

Keywords: Society, morality, ethical norms, moral thinking, law, legal consciousness, spirituality, enlightenment.

Жамият тараққиётининг асоси ҳисобланган янгилинишлар ўз даврининг етук мутафаккирларининг қарашларидан маълум бўладики, ҳаётга муносабат, ахлоқийлик, адолатлилик, маънавият ва маърифат ҳамда комилик фалсафасига қурилади. Бунга асосан инсониятни бахт ва саодатга интилиши, эзгулик тамойиллари замида ҳаёт кечириши лозим бўлган эҳтиёжи устуворлик қилади. Чунки унда бошқа жонзотлардан фарқ қиладиган, улардан юксакроқ турадиган борлиқни англаш, тушуниш қобилияти мавжуд. Шарқда шаклланган бой маънавият ва маърифат инсоният тарихининг турли даврларида, турли минтақаларида кескин бурилишга сабаб бўлган тараққиётга пойдевор яратилгани кузатиш мумкин. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида "...мустақил фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш"[1.] каби вазифалар белгиланган. Барча даврларда бўлгани каби маънавий баркамол, маърифатли, жисмоний соғлом, ўзининг ҳаётдаги ўрни, бугунини англавчи инсонларни тарбиялаш умумдавлат аҳамиятидаги доимий вазифа ҳисобланади.

Янги демократик жамиятни барпо этиш, келажак пойдеворини қуриш, ҳеч шубҳасиз, ҳар биримиздан қатъиятли ва омилкор бўлишни, янгича фикр юришти, янгича ишлашни талаб этмоқда. Халқимиз ахлоқий тафаккур бобида бой меросга эга ҳисобланади. Ахлоққа оид фикрлар "Авесто"да, қадимий туркий тош битиклар ва бошқа ёзма манбаларда ўз ифодасини топган. Бундан ташқари, халқимиз орасида кенг тарқалган панднома ва одобномаларда, халқ педагогикасида, диний-фалсафий рисоалар ҳамда алломалар меросида ахлоқ масалаларига кенг ўрин берилган.

Қадимги юнон файласуфи Сукротнинг "Ўзгаларни ўзгартирмоқчи бўлган инсон, аввало, ўзини ўзгартириши лозим. Бунинг учун эса, аниқ мақсад, толмас ирода ва доимий изланиш керак" деган ҳикматли ибораси бу борада ҳаммамиз учун асосий мезон бўлиши лозим.

Буюк аждодларимизга хос азму шижоат, халқимизнинг метин иродаси, тобора улғайиб келаётган баркамол авлодимизга таяниб, жамиятимиз ҳаётини тубдан янгилаш йўлини изчил давом эттириш – энг долзарб вазифамиздир[2. 9.]. Дунёдаги ҳар қандай илмнинг назарий методологик асосларини ўрганмасдан янги илм босқичларига эришиб бўлмайди. Зеро, ахлоқий тафаккурнинг вужудга келиши ҳамда унинг тараққиёти қонунларини ўрганади, маънавий мероснинг улкан қисми бўлмиш ахлоқий таълимотлар, панд-насихатларни замонавий жамият ҳаётига татбиқ этиш эҳтиёжи вужудга келади. Инсоният тарафидан яратилган ҳар қандай ахлоқий

концепция маълум бир мутафаккир мулоҳазалари ва илмий фаолиятининг натижаси бўлса-да, у, моҳиятан, муайян тарих даврининг босқичи талабларидан келиб чиқади. Айни вақтда, одоб ва ахлоқ қоидаларини ўз ичига оладиган ахлоқий тарғибот масаласи, ахлоқий панд-насиҳатлар ва муомала меъёрлар талабларини бажариш - ахлоқни меъёрлаштириш тушунчасини мазмунини очиб беришга хизмат қилади. Бу ахлоқнинг жамиятдаги шахсларнинг амалий ахлоқи ва унинг маърифий асосларини ташкил этади. Шунинг учун ҳам файласуф олим М.С.Каган ахлоқий фаолликни “инсон фаоллиги ҳайвонлардан фарқли равишда нафақат унинг биологик, балки унинг ижтимоий ҳаётини таъминлаш вазифасини бажаради” [3.205.] деб ҳисоблайди. Бу эса, бизнингча инсон фаолиятини ахлоқий меъёрлаштириш масалаласи ижтимоий фанларнинг муҳим тадқиқот объектига айланмоқда.

Бу ҳақда фикр юритганда, бизнинг улуғ аждодларимиз ўз даврида комил инсон ҳақида бутун бир ахлоқий мезонлар мажмуини, замонавий тилда айтганда, шарқона ахлоқ кодексини ишлаб чиққанликларини эслаш ўринли, деб биламан. Отабоболаримизнинг онгу тафаккурида асрлар, минг йиллар давомида шаклланиб, сайқал тошган ор-номус, уят ва андиша, шарму ҳаё, ибодат ва ифбат каби юксак ахлоқий туйғу ва тушунчалар бу кодекснинг асосий маъно-мазмунини ташкил этади, десак, ўйлайманки, хато қилмаган бўламиз [4.117-118.]. Бу эса, жамиятда ахлоқ тушунчаси борасида ҳаётий тажрибаси мавжуд эканлигини англатади.

Тадқиқотчи файласуф олимларни қарашларига кўра ахлоқ тузилмаси, одатда, уч омидан иборат бўлади. Булар ахлоқий онг, ахлоқий (ахлоқий ҳис этиш) ахлоқий муносабатлар (ахлоқий хатти-ҳаракатлар). Баъзи мутахассислар ахлоқнинг асосий тушунчаларини (категорияларини), ахлоқий меъёрлар ва тамойилларни ахлоқ - одобнинг бир бутун қон томири сифатида [5.45.] тақдим этади. Шундай қилиб, ахлоқни инсон шахс характерига ва жамият табиатига муносабатининг ҳис этиш ва ахлоқий англашсиз юзага чиқиши, яъни мавжуд бўлиши мумкин эмаслиги ойдинлашади. Жамиятдаги мавжуд ахлоқ меъёрларига амал қилиниши инсониятнинг қандай яшаши кераклигини билдиради.

Жамият муҳитини ахлоқий меъёрлаштиришнинг назарий асосларини ташкил этувчи “ахлоқ” тушунчасининг мазмун-моҳиятини фалсафий талқини борасида бир неча қарашларни таҳлил қилиш натижасида қуйидаги ижтимоий фикрларга ва қарашларга дуч келамиз. Жумладан, машҳур пандномаларда ахлоқий ва эстетик маданият талқини, “Қутадғу билик”, “Қобуснома”, “Баҳористон”, “Гулистон”, “Маҳбуб ул-қулуб”, “Туркий гулустон ёхуд ахлоқ” каби асарларда ўз ифодасини топган. Шунингдек, мутафаккирларнинг ахлоқий ва эстетик маданиятга доир қарашлари натижасида Ўрта асрларда шаклланган ахлоқий ва эстетик маданиятнинг такомиллашув босқичларини босиб ўтган. Жаҳид мутафаккирлари миллий ахлоқий қарашлари нафақат ўз даври учун балки, тараққиёт босқичининг ҳозирги даври учун ҳам бирдек аҳамиятга эга ҳисобланди. Шу ўринда ахлоқ арабча хулқ сўзининг кўплиги – кишилар орасида муносабатларни тартибга солишнинг ўзига хос тартиб, қоидалари йиғиндиси. Кишилар ўртасидаги муносабатларни тартибга солишнинг муайян ижтимоий-ташкилий тузилмалар фаолиятига асосланган (хуқуқий, диний) шаклларида фарқли равишда, ахлоқ кишилар хулқ-атворлари, мулоқотлари, муносабатларининг ёзилмаган, лекин жамият томонидан қабул қилинган ҳамда қўллаб-қувватланадиган “олтин қоидалар”ни ифодалайди [6.35.], дейилади. Оддий

урф-одатлардан фарқли равишда ахлоқий меъёрлар эзгулик ва ёвузлик, бурч, адолат ва шу каби ахлоқий идеаллар кўринишидаги маънавий асосларга таянади. Қонун нормаларидан фарқли равишда инсонларнинг ахлоқ қоидалари ва талабларига амал қилишларини таъминлашда фақатгина маънавий-руҳий шаклдаги чоралар (масалан, жамоатчилик фикри, виждон олдида жавобгарлик, ота-она олдидаги бурч) сифатида қўлланилади[7.755.].

Ўзбек илмий адабиётларида ахлоқ арабчадан олинганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд бўлиб, унга кўра “ахлоқ” хулқ одоб, атвор, феъл деган маъноларни англатади. Рус тилида ишлатиладиган «мораль» сўзи «мочья» сўзидан олинган бўлиб, у ҳам ахлоқ маъносида ёки юнонча “ethos” сўзидан олинган одат, одоб, расм-русум, феъл (характер) маъноларини билдиради[8.173.], дейилган. Маънавий ҳаёт ҳодисаси, ижтимоий онг шакллари билан бири, маънавият соҳасига оид тушунчасидир. Кишиларнинг тарихан таркиб топган хулқ-атвори, юриш-туриши, ижтимоий ва шахсий ҳаётдаги ўзаро, шунингдек, жамиятга бўлган муносабатларини тартибга солиб турадиган барқарор, муайян норма ва қоидалар йиғиндиси шаклида ҳам учрайди. Арастуни “Ахлоқи Кабир” асарида ахлоқнинг синоними сифатида ишлатилган “Одоб” ни, яъни хулқ-атвори, юриш-туриш маданиятининг ташқи ва ички жиҳатларни ифодаладиган тушунча сифатида қарашларини кузатишимиз мумкин. Бизнингча, ахлоқ кишиларнинг хатти-ҳаракатида меъёр ва инсоний кўрсаткич сифатида ўзаро муносабатнинг намоён бўлидир. Буюк муҳаддис имом Бухорий “Одоб барча яхши ва эзгу хислатларни ўз ичига олади. “Адаб” - чақирмок маъносида бўлиб, кишиларни яхшиликка даъват қилгани, ёмонликдан қайтаргани учун шу хислат “одоб”, деб аталган[9.18.], дейилади. Аллома Воиз Кошифий эса “Инсоннинг қадр-қиммати, унинг мол-мулки ёки ижтимоий келиб чиқиши билан эмас, балки маънавий қиёфаси, ахлоқий сифатлари билан ўлчанади”[10.102.], деб таъкидлайди. Воиз Кошифий қарашларида етакчи ҳоя бу ахлоқ таълимоти ҳисобланади. У салбий ахлоқий хизлатларни қоралайди. Салбий ахлоқий сифатлар инсон ҳаёти ва жамият учун катта зарар келтириши ҳақида баён қилади. Абу Наср Форобий эса, “Ахлоқ” тушунчасини кенг маънода талқин қилиб, дини, эътиқоди, ирқи, тилидан қатъи назар, барча инсонларни ҳамжиҳатлик ва ҳамкорликка чақиради. Дунёда ягона ва бир бутун инсон жамоасини шакллантириши, унинг ва барча фуқароларнинг манфаатларини кўзлаб фаолият кўрсатишини орзу қилади. Жадидчи Абдулла Авлоний таъбири билан айтганда “Ахлоқ-инсонларни яхшиликка чақирувчи, ёмонликдан қайтарувчи бир илмдир”[11.41.], яъни инсонларни инсонийлик сифатларини шакллантирувчи фан эканлигига урғу беради. Киши қалбида халоллик, адолатлилик каби ахлоқий талабларга амал қилиниши орқали шахс лафзини сақлайди, бировнинг ҳақиқа хийнат қилмайди, садоқатли бўлади, ватани учун жонини фидо этишга ҳам ўзини аямайди. Немис файласуфи И.Кант томонидан ҳам илгари сурилган қарашга кўра ахлоқий бурчни ахлоқий қонун шаклида таърифлайди. Унинг маъноси шуки, ҳар бир инсон шундай хатти-ҳаракат қилиши лозимки, бу бошқалар учун ҳам қоидага айлансин. Кант виждонни ахлоқий ҳакам деб таърифлайди[12.226.]. Бу ғоялар бутунги кунда ҳам нақадар муҳим аҳамиятга эга. Бизнинг фикримизча, ахлоқий фазилатларга эга бўлган шахслар жамияти ривожланаётган ҳар қандай давлат ўз фуқароларини, шак-шубҳасиз, бахту саодат йўлига олиб чиқувчи кучга айланади. Инсон билимли ва намунали ахлоқ эгаси бўлсагина жамият аъзоларига ижобий фазилатлар билан ўрнак бўла олади.



Хулоса қилиб, ахлоқнинг турли соҳаларига таъсири ҳақида бир бутун тизимини ишлаб чиқиш, унинг вазифа, йўналиш ва нормаларини ишлаб чиқиш зарурати асосланади. Уни амалга ошириш учун қуйидаги муаммоларни ечиш зарурлигини ойдинлашади. Булар *биринчидан*, ахлоқий онгнинг норма бирлиги сифатидаги аҳамияти, *иккинчидан*, ахлоқни ривожлантиришда шахс тарбиясининг ўрни муҳим эканлиги, *учинчидан*, ахлоқий нормаларни ҳаётга тадбиқ этишда жамият ҳаётини ҳаракатдаги хусусиятларини ҳисобга олиш, *тўртинчидан*, жамиятда ахлоқ ва ҳуқуқнинг ўзаро узвий алоқадорлиги ахлоқ меъёрини муҳим элементларига амал қилиш зарурлигига намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. 2021.
3. Каган М.С. Философская теория ценностей - СПб., ТОО ТК «Петрополис», 1997.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. Тошкент. Маънавият. 2008.
5. Титаренко А. И. Мораль и политика. Москва. 1969.
6. Фалсафа: энциклопедик луғат . Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2010.
7. Большой энциклопедический словарь / 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1997.
8. Маънавият: асосий тушунчалар луғати – Тошкент. “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти. 2009.
9. Imom Ismoil al-Buxoriy Al-adab al-Mufrad. – В 18. www.ziyouz.com kutubxonasi.
10. Хусайин Воиз Кошифий. Ахлоқий муҳсиний. Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2011.
11. М.Бехбудий ва бошқалар. Одоб-ахлоқ китоби. Тошкент. Янги аср авлоди. 2020.
12. Кант Иммануил. Основы метафизики нравственности. (С рецензией на книгу И. Шульца. 1783) // Сочинения в шести томах. — Москва. «Мысль».



ИБН АЛ-АРАБИЙНИНГ ИМОМ ҒАЗЗОЛИЙ ТЎҒРИСИДАГИ ФИКРЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ-ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ

Музаффаров Фируз Давронович
БухДУмиллий ғоя, маънавият асослари
ва ҳуқуқ таълими кафедраси мудир,
фалсафа доктори (PhD), доцент

Аннотация: Мақолада кўпчилик иҳлосмандлар, шу жумладан, тадқиқотчилар ҳам Ибн Арабийнинг Ғаззолийга берган мазкур баъҳо, таърифни салбий, бир мунча киноя маънода тушинган, талқин этганлар. Ҳолбуки, аслида Ибн Арабий, Имом Ғаззолийнинг фалсафа, мантиқ илмларига нақадар чуқур кириб бора олганлигини таъкидлаш баробарида, унинг ислом илоҳиётчилари ўртасида илк бор юксак мантиқий тафаккур даража, маданиятни, айниқса, софистик, скептик методларни пухта эгаллаганлиги, баҳс-мунозара (полемика) санъатида беназир бўлганлиги, енгилмас, толмас, собит курашчи бўлганлигини муносиб эътироф этганлиги таҳлилига қаратилган

Калит сўзлар: Имом Ғаззолий, фалсафий-мантиқий тафаккур, силлогистик исбот, риёзат, ижтиҳод, ирфоний илм, гностик, ақлий зако, калом, таълимий-ботинийлар.

ФИЛОСОФСКО-ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЫСЛЕЙ ИБН АЛЬ-АРАБИ ОБ ИМАМЕ ГАЗАЛИ

Аннотация: В статье многие энтузиасты, в том числе исследователи, интерпретировали оценку Ибн Араби Газали негативно, несколько иронично. Однако на самом деле Ибн Араби, подчеркивая глубину познания Имама аль-Газали в философии и логике, был первым среди исламских богословов, обладающим высокой степенью логического мышления, глубоким знанием культуры, особенно софистических, скептических методов. и искусство дискуссии. сосредоточился на анализе того, что он был непобедимым, неутомимым, стойким борцом.

Ключевые слова: имам аль-Газали, философско-логическое мышление, силлогистическое доказательство, математика, иджтихад, мистическое знание, гностик, интеллектуальный интеллект, теология, внутреннее воспитание.

THE PHILOSOPHICAL AND HISTORICAL IMPORTANCE OF IBN AL-ARABI'S THOUGHTS ABOUT IMAM GHAZALI

Annotation: many followers, including the researchers in the article, have understood and interpreted the definition of this undeniable, negative, somewhat cynical meaning that Ibn Arabi gave to the Ghazali. Whereas, in fact, Ibn Arabi, emphasizing how deeply the Imam Gazzali was able to penetrate into the science of philosophy and logic, focuses on the analysis that for the first time among the Islamic theologians, for the first time, he has a high degree of logical thinking, has adequately recognized the culture, especially the sophist, sceptic techniques, which are unique in the art of.

Key words: Imam Ghazali, philosophical-logical thinking, proof of sillogist, mathematics, Ijtihad, irfaniy ilm, ostikostic, rational zako, word, educational-botinids



“Шайх-ул-Акбар”, “Муҳийаддин” ва бошқа фахрли, беҳад улуғловчи унвонлар билан тилга олинувчи Ибн Арабий ҳам жуда фалсафий, гностик яъни, ирфоний илмлар ҳикматларида бенасиб бўлмади, Имом Ғаззолийнинг илмий-фалсафий риёзат-ижтиҳодларга ана шундай, жуда ўзига хос, кўп маъноли, холис баъҳо, таъриф берган эдилар. Яъни, “Бизнинг шайх Абу Ҳомид Файласуфларнинг ошқозонига кириб борди, кейин у ердан чиқишни хоҳлаган эди, аммо, чиқа олмади”.

Ғаззолийнинг ўзи илм-фан, фалсафий тафаккурнинг юксак уфқларига кўтарила олганлиги, унда ҳатто муҳолифлари ҳам тасаввур қила олмайдиган ҳақиқатларни кашф этганлиги, улар етиши қийин, мураккаб бўлган муаммоларни ечиб бера олганлиги ва демак, илмий, фалсафий тафаккур қудратини англаб етганлиги, идрок эта олганлиги, фалсафий, мантиқий тафаккур, силлогистик исбот (аподейктик) усули, принципларида етиб бўлмас юқори тафаккур салоҳияти мавжудлигини эътироф этиб, ана шу - даражада тафаккур юригиш афзаллиги, устунлиги, зарурлигини Калом илоҳиётчиси – мутакаллимлардан биринчилардан бўлиб, тан олганлигини мамнуният билан таъкидлаган эди холос.

Профессор Г.М.Керимовнинг “Ғаззолий ва тасаввуф” деб номланган китобида келтирилган Ибн Арабийнинг юқоридаги таъриф, талқин дарҳақиқат ўта нодир, диққатга сазовор, айниқса ўрта аср араб-мусулмон диний, фалсафий ва ирфоний тафаккури ҳодисаси, тараққиётга нисбатан мўъжизавий, ҳалол ва холис эътирофни англатади.

Гарчи, кўпчилик Имом Ғаззолийни фақат расмий сунний ислом, шарият уламоларининг пешқадами деб билсаларда, аслида у зоти бобаракот илм-фан, фалсафа, бидъат мазҳаблар ва тасаввуф талимотларида ҳам беҳад кучли салоҳият соҳиби бўлганлигини жуда яхши билишган албатта.

Бу ҳолат шу даражада бўлганки, Ибн Арабий асосиз таъкидламаганидек, Имом Ғаззолий илм-фан, фалсафанинг барча асосий соҳалари, муаммолари қаърига шу қадар чуқур кириб бора олган эдики, табиатшунослар, файласуфлар қарашлари, хулосаларини шу қадар асосли кўрсатиб бера олган ва ўз таърифларини бера олган эдики, у ўз замондошлари назарида, илм-фан, фалсафа дарғаларидан ҳам қатъийроқ, етакчироқ бўлиб кўринар, буни ҳар қадамда, бунинг устига, энг муҳим назарий-методологик муаммоларни ҳал қилишда кўрсатар, ўзининг устунлигини исботлай олар эдики, ўзининг ҳозиржавоблиги, ақлининг қиличдек ўткирлиги билан ҳаммани ҳайратга солар, лол қолдирар эди. Шунинг учун ҳам, нафақат унинг ўз замонида кўплаб мутафаккирлар, ҳатто Ғарбий Европада Янги даврнинг илғор мутафаккирлари, Имом Ғаззолийни Петр Абелъяр, У.Оккам, Иммануэл Кант, И.Лейбниц, Рене Декартлар илгари сурган билиш скептицизм, агностицизм, ғайбий илмларга оид қарашлари, принциплари, назариялари ибгидосида туришидан баҳс-мунозара қилсалар, машҳур Гегель мантиқ ва метафизика илмлари, диалектик тафаккурда беқиёс бўлганлигини алоҳида қайд этган эди.

Ибн Арабийнинг Имом Ғаззолийга берган таъриф, баъҳоларининг фалсафий-тарихий изланишлар учун фавқуллодалиги – бу Ғаззолийнинг умуман илм-фан, фалсафа, айниқса, метафизика, логикага жуда чуқур, кенг миқёсда кириб бора олганлиги, унинг ўз асарлари манбаавий шоҳидликлари асосида, бунинг устига, Ғаззолийнинг илмий-фалсафий, метафизика ва мантиқ илмларида ҳар қандай мутафаккирга қиёсан эмас, балки мазкур соҳаларининг асосчилари, қурувчилар бўлган



– Афлотун, Арасту, Форобий, Ибн Синолар ақлий закоси, асарларини қиёслаш асосида кўрсатиб исботлаб берилганлигида кўзга ташланади. Агар, биз озгина беғараз, холис бўла олсак, кўрамузми бундай юксак баъҳо, эътирофга ҳамма мутафаккирлар ҳам эришавермаганлиги, бундай мужда насиб этмаганлиги аниқ аёндыр.

Қолаверса, Имом Ғаззолий ўз даврининг барча илмлари, бидъат таълимотлари вакилларида ўзининг устунлигини намоён этиш ёки худо сақласин!, мақтаниш учун эмас, балки ҳар қандай фарздан ташқари бўлган ва ҳалокатли бухрон тусини олаётган бу балоларни баратараф қилмаса бўлмаслигини чуқур англаб етгани, мусулмон Уммасини умумий фалокатдан қутқариш виждон – иймон иши бурчи, вазифаси деб билганлиги учун майдонга чиқишга мажбур бўлган эди.

Аmmo, Имом Ғаззолийнинг билиш назарияси мантиқий тафаккурдаги йўли, аввало, соф файласуф мантиқшунос йўли эмас, аниқ ифодаланган, олий эзгу мақсад деб қаралган фалсафий тафаккур, мутахассис йўли эмас эди. Бошқа томондан эса, Ғаззолий бу йўлга, айни фалсафанинг энг изчил билиш назарияси, мантиқ илми, силлогизмлар назарияси, улардан муқаррар келиб чиқиши тақозо этиладиган Олам ва унинг объектив қонунларининг азалий ва абадий эканлиги тўғрисидаги, ислом, шарият асосларини емиришга олиб борувчи даҳриёна хулосаларни қатъий рад этиш, маҳв этиш учун кураш зарурияти билан кириб келган эди. Яъни, Ғаззолийнинг мақсади, аввалдан соф илмий, фалсафий ниятларни кўзламаган, балки, у онгли тарзда, назарий-методологик ва эътиқодий, ақидавий-мафкуравий жиҳатдан фалсафа, илм-фан тарафида эмас, балки дин, шарият, тасаввуф, Калом мавқеида турган ва унинг охириги мақсади бундан бошқача бўлиши ҳам мумкин эмас эди.

Қолаверса, Имом Ғаззолий маълум социал буюртмани бажаришга, ислом, шариятини ҳимоя қилишга, илм-фан, фалсафа ва ижтимоий тараққиёт таъсирида туғилган бухрондан ҳимоя қилиш, қутқаришга, бутун араб-мусулмон жамиятига янгидан куч-қудрат, ҳаётга чанқоқлик, ҳаётбахшлик, саъий-ғайрат бахш этиши - яъни, уни лоқайдлик бефарқлик, иродасизликдан халос этиши, қутқариши, амалда эса, қайтадан “тирилтириши” салтанат ҳукмдори, бош вазир Низом ул-мулклар томонидан даъват этилган, буюрилган ҳам эди.

Ана шу маънода, Ғаззолий илмий, фалсафий ва эътиқодий-мафкуравий муаммолар билан шуғулланишига тўғри келганлиги учун, ҳамда, ўзи учун ҳам мазкур муаммолар айни иймон, виждон амри тақозоси бўлганлиги учун, бу шарафли миссияни бажаришга бутун вужуди, бор куч-ғайрати, салоҳиятини ишга солиб, катта завқ-шуқуҳ, жиддий, холис ният билан киришган эди.

Бунинг устига, у зоти бобарокотнинг муқаддас вужудлари тубида, онги, қалби қаърида, ўзининг Етти юз йилликда ислом, шариятни янгиловчилик вазифаси буюрилганлигига аминлиги – интиқ, эзгу орзуси-нияти ҳам ҳақиқатлиги аён эди.

Бундай улуғ, шарафли вазифани муносиб бажара олиш учун зарур бўлган барча фалсафий-тарихий зарур бўлган ишларни илм-фан, фалсафа асосчилари, қурувчилари бўлмиш Афлотун, Арасту, Форобий, Ибн Синолар ким бўлганлару, улар қандай шахслар, мутафаккирлар бўлгани, қандай илмий, фалсафий, мантиқий ғоя, таълимотларни илгари сурганлари, уларни қандай ҳал қилганлару, қандай хулосалар чиқарганлари, қандай асарлар яратганлари, кимларнинг шогирдлари, давомчилари бўлганликлари, қайси оқим, мактаблар, мазҳабларга мансуб бўлганликлари, қандай ихлосманд шогирдлар қолдирганликлари, уларнинг ҳар бирларининг илм-фан,



фалсафий ва сиёсий тафаккурдаги жамият тараққиётидаги ўринлари, уларга берилган баъҳо ва эътирофларни чуқур, аниқ билиш, ўзининг баъҳосини бера олиш зарурлиги талаб этилишини яхши билар эди.

Қолаверса, Ғаззолий, буюк илм-фан, фалсафа дарғалари очиқ баҳс-мунозаралар, асарларида муқобил қарашлар, таълимотлар вакиллари билан баҳс-мунозараларда билишлари, қўллай олишлари зарур бўлган исломий, шаръий ақидалару, фарз, арконларни, баҳс мунозара олиб бориш Усули (методология), методлари ва воситаларини пухта эгаллаш зарурлигини жуда яхши билар эди, ана шу илмий-фалсафий мабдаалар – Усул (Методология), воситаларни чуқур, махсус билиш, ўрганиш учун мутафаккиримиз ўзининг икки йилга яқин умрини сарфлаган эди. Бу прецедентнинг фалсафий тарихий тафсилоти шундай бўлган эдики, Имом Ғаззолий бутун сунний Салжуқийлар давлати (империясси)нинг кўзга кўринган назарийгачиси фақиҳи - “ишонган тоғи”, таянчи бўлган уламози эканлигига қарамай, улуғ ёшли ва нуфузли шахсияти бўла туриб, оғир интеллектуал заҳмат-риёзатлар, ҳатто маънавий-руҳоний бўҳронга дучор бўлиш(сурункали оғир касал бўлиш, тилдан қолиш ва х.к.) азобларига қарамай, эндигина илм йўлига кираётган “Толиби илмлар” каби, илм-фан фалсафани энг ибтидоий асосларидан охиригача дунёни бузиб юборувчи даҳриёна хулосаларигача бирламчи манбааларидан ўрганишга киришган ва бу нодир, мустақил таълим-таҳсилни муваффақиятли якунлаган эди. Фақат шундан сўнггина ўзининг жаҳонга машҳур “Мақосид ал-фалосифа”, “Таҳофут ал-фалосифа”, “Мунқид мин аз-залол” ва бошқа фалсафий мангикий асарларини, шиддатли баҳс-мунозаралар, бидъат мазҳабларга қарши кескин кураш шароитларида ёзишга киришди ва порлоқ ғалабаларга эришган эди.

“Ғаззолий феномени” нинг нодирлиги, ҳайратомузлиги шундаки, унча мунча илм фан, фалсафа, маънавият вакили осонликча чиқиб кета олмаслиги муқаррар бўлган мазкур маънавий-руҳоний бўҳрондан, аввал бошдан иймони, виждони бутун, собиту саломат нодир инсон, шахсият сифатида кета олди, ғолбуки, мазкур бўҳроннинг сурункалилиги шунчалик эдики ундан чиқиб кетишга ҳеч бир умид йўқдек, бирон бир томондан нажот йўли кўринмас эди.

Мутафаккир яшаган даврдаги ўта сўл диний-мазҳабий ҳаракатлардан бири юқорида бир неча бор тилга олинган исломдаги шийъа оқими исмоилийя ҳаракатининг илгариги даврдаги шийъа-зайдийлар (Али ибн Абу Толиб-р.а! – шахсини илоҳийлаштирувчилар) ҳамда “Исна ал-ашъарийя” (12 масъум имомлар) бидъат мазҳабининг бевосита давоми Имом Ғаззолий кескин мурасасиз танқид, раддиялар ўтига олган Таълимийя-ботинийя мазҳаби илгари сурган масъум имомларга ва улар олиб келадиган Охират – Йавм-ал-Қийама арафасида бу дунёга осмондан тушиб худо адолатини ўрнатиш, ҳақсизлик, зулмга чек қўйиши ҳақидаги ақидалари-таълимотига кайҳоний зарурият бор эди деб қаралар эди. Бу шийъа бидъат мазҳабларининг энг сўл, қирпичоқ ва жаҳолатпарастлик ғояларидан туғилган оқимга Шайх-ул-Жабол Ҳасан ас-Саббоҳ асос солган, аниқроғи “Даъвати жадида”(янги даъват таълимот) даври билан боғлиқ эди.

Бу оқим ҳақида Шўро фалсафа тарихида ёзилган нашрлар амалга оширилган, номзодлик ва докторлик тадқиқотлари яхши маълум ва машҳур бўлганлиги учун уларга ҳавола қилиш билан кифояланиб, биз ушбу мақоламизда Имом Ғаззолийнинг



таълимий-ботинийларга муносабати, танқидлари хусусида хулосалар чиқаришга уринамиз.

Мана Имом Ғаззолий ўз “Ал-Мунқиз...” асарида таълимийлар-ботинийлар ҳаракати, уларнинг ғоялари, ақидалари, масъум имомлар ва улар таълимотига бўлган зарурат, уларнинг сўнги, охириги мақсадлари, ниятлари қанчалик ёвуз, жамият, давлат, оила ва шахс учун нақадар ҳалокатли оқибатларга олиб келиши муқаррарлиги, нафақат қадимги ўтмишда, балки биз яшаётган ҳозирги кунимизда бундай ақидапарастлик ва қирпичоқ жаҳолатпарастлик ғоя, амалиёти нималардан иборатлиги ҳақида ёзиб қолдирганлари: “... Масъум Имом воситасида ақидавий таълимотлар (яъни исмоилийлар таълимоти) га кўра нарсалар маъно-моҳиятини билиб олиш мумкинлиги ҳақида гап-сўзлар кўпайиб кетди..уларнинг ўз китобларидаги айтганлари...ҳаммининг оғзида, амалларидалиги кўриниб турибди.

Таълимийлар таълимотининг бирор бир тарзда, қандайдир даражада ҳақиқатни аниқлашга ожизлигини улар бўйнига қўйган Имом Ғаззолий, биз дейди уларнинг иккиланиш-тарадудларига жавобан, биз улар жавобида ожиз қолган саволлар ҳақиқатини аниқлаш имконини берадиган бешта меъзон ёрдамида тортиб кўрдик, тарозилар тўғри – улар нимани тортиб кўриб, нимадан иборат эканлигини кўрсатувчи тўғри меъзонлар, кўзи кўр бўлмаган ҳар бир одам эътироф этади..Мен буларни барчасини 20-вароқда ёритилган “Қистос ал-Мустақийм”(Тўғри меъзонлар) – деган жавобни бериб, ўшанга қараб олсак дея қўшиб қўяди.

“Ушбу ўринда, - деб сўзини давом эттирган эди мутафаккир, - улар (Таълимийлар) таълимотининг ботиллигини исботлаш мақсади қўйилгани йўқ. Бу ҳақда аллақачонлар, биринчидан “Мустазҳирий”да, иккинчидан “Ҳақиқатнинг исботи”(бизнинг олдимизга Бағдодда қўндаланг қўйилган уларнинг фикрларига жавоблардан иборат) китобда, учинчидан “Баҳс – мунозарада ҳакамлик қилувчи”(ўн икки бобдан иборат) китобда (бу бизнинг олдимизга Ҳамадонда баён этилган фикрларга жавоблардан иборат), тўртинчидан, ал-Жаводил ёзилган “Йўл” (бу бизнинг олдимизда баён этилган Тусдаги бенаво саволлар жавоби) китобида, бешинчидан. “Қистой ул-Мустақийм” (бу китоб ўз-ўзича тамомил мустақидир. У илмлар меъзонларини тушунтириб беришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган ва ҳатто Масъум Имомларни эътироф этувчилар ҳам беъмалол, (усиз, яъни “Имомлар таълимоти”, яширин билимларсиз ҳам) иш кўришлари мумкинлигини кўрсатувчи китоб) ларда баён этилган.

Бизнинг мақсадимиз қуйидагилардан иборат, дер экан Имом Ғаззолий ёзадики, “Таълимийлар” таълим ва таҳсилида аслида ботил ғоялар, адашишлар қаъридан олиб чиқиб кетиш имкони берадиган бирор-бир билимнинг ўзи ҳам, улардан даволаниш усул-воситаси ҳам йўқ. Улар ўз Имомларига таъриф беришда далолатлар келтиришдаги ожиз, ночорликлари қаршисида биз уларнинг бир таълимотга ва Масъум Имом-Устозга зарурият бор деган фикрларига, ҳатто уларнинг таърифларига ҳам қўшилган эдик. Кейин биз улардан – мазкур Масъум Имомдан олган билим ҳақида ва улар олдига бу борадаги жуда қийин бўлган саволларни сўраддик. Улар мазкур саволларга жавоб беришдан ожиз қолишиб, барча нарсани ўша яширин Имом номига юклай бердилар ва унга мурожаат қилиш, ундан сўраш лозим”, дедилар. Ҳайротоғмуз томони шундаки, улар бутун ҳаётларини мазкур-Устозни қидириб



топишга сарфлайдилар ва уни топганлари борасида мақтанишга тушадилар ва айна пайтда ундан ҳеч нарсани ўрганмаганлар....”

Ана шуларга қарамай, ўша билимга эгалик даъвосини қилувчилар “бирор бир нарсаларни билишларини айтдилар. Бироқ, улар айтадиган гаплар, моҳиятан энг қадимги мутафаккирлардан бири бўлмиш Пифагор фалсафаси парчаларидан иборатдир. Унинг таълимоти – файласуфлар таълимотларидан энг қашшоғи-бенавосидир ва Арасту нафақат уни рад этган, балки унинг фикр-мулоҳазаларининг ҳеч нарсага арзимаслиги ва ботиллигини кўрсатиб ҳам берган. Бу ўша “Ихвон ус-сафо” китобида тилган олинган одамдир ва гапнинг индаллоси айтиладиган бўлса, улар файласуфлар орасида энг бенавосидирлар.

Энг аҳамиятли жиҳати шундаки, деб ўз таҳлилини давом эттирган эди мутафаккир, бу одамлар ўзларининг бутун умрларини ана шундай “билим”ни қидириб топишга сарфлайдилар, ўзларини адоий-тамом қилишгача етадилару, сўнгра эса, ўша қабилдаги бенаво, қуруқ сафсатадан иборат “илм” билан кифояланадилар. Бироқ, шу билан бирга улар илмнинг энг олий, юксак уфқларига эришдик, деб даъво қиладилар. Бизнинг ана шундай кишилар билан ҳам “иш кўриш тажрибамиз” бор.

Умуман олганда Имом Ғаззолий “Ал Мунқиз....”да Таълимийлар ақидалари ва амалиётини тегишли икки ўринда Ибоҳийлар ақидалари ва амалиёти билан боғлиқлигига ишоралар қилади.

Шундай қилиб, Имом Ғаззолий Таълимий-ботинийлар билан бир умр мурасасиз, шиддатли курашган, ўзи кўрсатиб ўтганидек улар ғоя, ақидаларини рад этиш учун юқорида кўрсатилган 5 та асарини ёзиб қолдирган. Аммо, у Ибоҳийларга ҳам қарши кескин кураш олиб борган кўринади. Чунки, “Ал-Мунқиз....”да ўзи эътироф этиб, таъкидлаб кўрсатгандек, уларнинг даъволари раддиясини 7 кўринишда таҳқиқ этиб, ўзининг “Кимиёи саодат” асарида махсус ёритган, ўз раддияларини исботлаб беришга уринган.

Хулоса қилиб айтганда, Имом Ғаззолийнинг Таълимий-ботинийларга, уларга яқин Ибоҳий ва бошқа бидъат мазҳабларга қарши бир умр шиддатли, мурасасиз кураш олиб бориш – объектив тарихий, ижтимоий-сиёсий, диний-мафкуравий сабаблар ва субъектив омиллари бир томондан улар таълимоти, ҳаётининг тобора кучайиб, шахс, жамият, оила, давлат ҳаётига жиддий хавф-хатар вужудга келтираётганлик таҳдиди билан боғлиқ бўлса, бошқа томондан эса, бу жуда жўн, ёлғон таълимотлиги очиқ кўриниб турганлиги, баргараф этиш жуда енгил кечиши аниқ, равшан кўриниб турган бир шароитда ислом, шариат сохта дўстлари-ҳимоячиларининг ваҳима, васваса кўтариб уларга қарши гўё жуда жонбозлик кўрсатганликлари, лекин, далил, ҳужжатларининг заифлиги, ночорлиги, хўжакўрсин учун ва тақлиддан бошқа эмаслиги субъектив омил бўлган бўлса, уларнинг Масъум Имомлар ҳақидаги таълимот, тарғиботлари “Комил инсон”, баркамол шахс, унинг Расулulloҳ авлодлари эканлигидан иборат миллий-этник, мантиқий-психологик жиҳатлар оддий одамларни ўз томонига тортар, айниқса ҳаётдан норози, муҳолифат кайфиятидаги одамлар учун орзу-умидларининг ушалиши, ҳаётда юзага чиқиши бўлиб кўринар, уларни оҳанграбодек ўзига тортар, осонгина улар ортидан кетиб, бидъатчига айланишлари эса асосий амалий жиҳатлар сифатида рол ўйнар эди албатта.



Адабиётлар рўйхати:

1. Абу Хамид Газали. Избавляющий от заблуждения. Перевод с арабского. А.В.Сагадеева. См. Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII - XII вв. Москва: Наука, 1960. – С. 211-266.
2. Х. Додихудоев. Очерки философии исмоилизма. (Общая характеристика философской доктрина X-XIV вв). Душанбе: Дониш, 1976. – С. 142.

ДИНИЙ ВА ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОИЙ-ДЕСТРУКТИВ ҲОЛАТЛАР ТАЛҚИНИ

Г.Бекмуродова, ф.ф.н., доц. ҚарДУ

Аннотация: Мақолада таъкидланишича, янги аср бошларига келиб, кишилик жамияти ўз тараққиётининг сифатан янги босқичига қадам қўйди. Бу босқичда вужудга келадиган ижтимоий муаммолар ва негатив ҳолатлар ўзининг ўта мураккаб табиати, оқибатлари кўлами билан жиддий таъшиш тугдирмоқда. Шу муносабат билан деструктив ҳолатларнинг шаклланиши қонуниятларини аниқлаш, бунинг учун эса мазкур жараёнларнинг моҳияти ва сабабларига доир мулоҳазаларни умумлаштириш зарурияти юзага келмоқда. Мақолада бугунги кундаги регресс ва таназзулга элтувчи жараён ва омилларни, негативлик ва вайронкорлик ҳолатларини тизимли таҳлил қилишда табиат, жамият ва инсон борлигидаги деструктив жараёнларнинг моҳиятига доир диний ва фалсафий қарашлар, Г.В.Ф.Гегель, Ф.Ницше, З.Фрейд, М. Хоркхаймер, Т.Адорно, Г. Маркузе ва Э. Фромм назарий хулосалари ишончли назарий-методологик асос вазифасини ўташи таъкидланади.

Калит сўзлар: деструкция, ижтимоий деструкция, зардуштийликда деструктив ҳолатлар талқи-ни, христианликда деструктив ҳолатлар талқини, исломда деструктив ҳолатлар талқини, даосизмда деструкция, идеалистик диалектика ва диалектик материализмда деструкция, Г.Гегелда деструкциянинг онто-логик асоси, Ф.Ницшеда деструкциянинг антропологик асоси, З.Фрейдда деструкциянинг психологик асоси, Франкфурт мактаби ижтимоий деструкция концепцияси.

В РЕЛИГИОЗНЫХ И ФИЛОСОФСКИХ УЧЕНИЯХ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ И РАЗРУШИТЕЛЬНЫХ СИТУАЦИЙ

Г.Бекмуродова, п.н., доц. ҚарДУ

В статье утверждается, что к началу нового века человеческое общество вступило в качественно новый этап своего развития. Возникающие на этом этапе социальные проблемы и негативные процессы вызывают серьёзную озабоченность своей сложностью и масштабом последствий. В связи с этим возникает необходимость обобщения размышлений о сущности и причинах деструктивных ситуаций для определения закономерностей данных процессов. В статье утверждается, что религиозные и философские взгляды о сущности деструктивных процессов в бытие природы, общества и человека, теоретические умозаключения Г.В.Ф.Гегеля, Ф.Ницше, З.Фрейда, М. Хоркхаймера, Т.Адорно, Г. Маркузе и Э. Фромма могут послужить надёжной теоретико-методологической основой системного анализа современных регрессивных и кризисных процессов и факторов, негативных и разрушительных явлений.



Ключевые слова: деструкция, социальная деструкция, интерпретация деструктивных процессов в зороастризме, интерпретация деструктивных процессов в христианстве, интерпретация деструктивных процессов в исламе, деструкция в даосизме, деструкция в идеалистической диалектике и диалектическом материализме, онтологическая основа деструкции у Гегеля, антропологическая основа деструкции у Ницше, психологическая основа деструкции у Фрейда, концепция социальной деструкции Франкфуртской школы.

IN RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL TEACHINGS INTERPRETATION OF SOCIAL AND DESTRUCTIVE SITUATIONS

G.Bekmurodova, Ph.D., Associate Professor

Annotation: *The article states that by the beginning of the new century, human society has entered a qualitatively new stage of its development. The social problems and negative processes that arise at this stage cause serious concern about their complexity and the scale of the consequences. In this regard, there is a need to generalize reflections on the essence and causes of destructive situations in order to determine the patterns of these processes. The article asserts that religious and philosophical views on the essence of destructive processes in the being of nature, society and man, the theoretical conclusions of G.V.F.Hegel, F.Nietzsche, Z.Freud, M. Horkheimer, T. Adorno, G. Marcuse and E. Fromm can serve as a reliable theoretical and methodological basis for a systematic analysis of today's regressive and crisis processes and factors, negative and destructive phenomena.*

Keywords: *destruction, social destruction, interpretation of destructive processes in Zoroastrianism, interpretation of destructive processes in Christianity, interpretation of destructive processes in Islam, destruction in Taoism, destruction in idealistic dialectics and dialectical materialism, ontological basis of destruction in Hegel, anthropological basis of destruction in Nietzsche, psychological basis of destruction in Freud, the concept of social destruction of the Frankfurt school.*

Янги аср бошларига келиб, кишилик жамияти ўз тараққиётининг сифа-тан янги босқичига қадам қўйди. Бу босқичда вужудга келаётган ижтимоий муаммолар ва негатив ҳолатлар ўзининг ўта мураккаб табиати, оқибатлари кўлами билан жиддий ташвиш туғдирмоқда. Шу муносабат билан деструктив ҳолатларнинг шаклланиши қонуниятларини аниқлаш, бунинг учун эса мазкур жараёнларнинг моҳияти ва сабабларига доир мулоҳазаларни умумлаштириш зарурияти юзага келмоқда.

Инсоният бутун тарихи давомида турли деструктив ҳолатларнинг гуво-ҳи бўлар экан, бу ҳолатларнинг муайян мантқиққа, қонуниятга эгаллигини чуқур ҳис этган. Бу туйғулар ва тасаввурлар аввал турли афсоналарда, эртакларда, насиҳатларда, мақолларда ўз ифодасини топган. “Биров тузар – биров бузар”, “Ёмоннинг яхшиси бор”, “Ўт билан сув келишмас”, “Зулм хўрланганларни бирлаштирар” каби мақолларнинг пайдо бўлгани ҳам шундан. Аста-секинлик билан табиат ва жамиятдаги деструктив ҳолатлар, таназзулга элтувчи жараён-лар, айрим кишилардаги вайронкорликка мойилликка доир амалий тажриба-лар маълум бир тизимга эга хулосаларга айланди.

Табиат, жамият ва инсон борлигидаги деструктив ҳолатлар тўғрисидаги илк ғояларни диний манбаларда учратиш мумкин. Масалан, зардуштийликда олам



тараққиёти, умуман олганда, эзгулик ва яхшиликка бўлган интилиш сифатида тасаввур қилинади: қачондир эзгулик худоси Ахурамазданинг мутлақ ҳукмронлиги таъминланиши, эзгулик ва адолат қарор топиши аниқ. Лекин эз-гуликнинг илк шакллари (осойишта ҳаёт, бунёдкорлик, ободончилик ва ш. к.) вужудга келгани заҳоти унга қарама-қарши ўлароқ ёвузлик шакллари (қур-ғоқчилик, қурбонликлар, урушлар, касалликлар ва ш.к.) ҳам пайдо бўлади.¹ Зардўштиликда барча деструктив ҳолатларнинг муаллифи мавжуд – бу руҳ-лангирувчи куч Аҳриман образи билан боғланади. Аҳриман барча ёвуз куч-ларнинг манбаи, илҳомчиси ҳисобланади: у гоҳо одамларни ёвузлик бандиси-га айлантиради (Заҳҳокни тахтга ўтқизгани каби), гоҳо уларни тўғри йўлдан чалғитади (Жамшидни йўлдан ургани каби).

Христианлик динида деструктив ҳолатлар мустақил субстанция сифатида эмас, турли жараёнларнинг бузилиши тарзида тасаввур қилинади. Худо материяни яратди, уни турли шаклларга солди, турфа хусусиятлар билан тўл-дирди. Унинг барча яратувчанлик ҳаракатлари эзгулик билан йўғрилган, би-нобарин, унинг томонидан бунёд этилган борлиқнинг ўзи ҳам эзгуликдир. Бироқ ушбу эзгуликни емирувчи, вайрон қилувчи ҳолатлар, жараёнлар мав-жуд. Айнан ана шу ҳолат ва жараёнлар ёвузлик сифатида талқин қилинмоғи даркор. Ёвузлик ибтидодан яратилган мустақил воқелик эмас, у Худо томо-нидан бунёд этилган нарсаларнинг бузилиши, вайрон қилинишидир. Маса-лан, Худо одамни ўз қиёфасига кўра эркин мавжудот қилиб яратди, уни эзгу ишларга ошно қилди. Лекин одам боласи гуноҳга боғиб, Худодан юз ўгирди, ёвузлик сари юз тутди. Шу ондан бошлаб, христиан дини талқинига кўра, унинг барча қилмишлари деструктив характер касб қилмоқда.

Исломда ёвузлик кўпроқ инсоннинг салбий ҳатти-ҳаракатлари билан боғлаб талқин қилинади. Ислом дини ақидаларига кўра, инсон ҳаётининг мақсади Аллоҳга ишониш, Уни билиш, Унга меҳр қўйиш ва ибодат қилиш орқали маънавий юксакликка эришиш билан боғлиқ. Одам боласини ана шу йўлда муқим сақловчи ҳар қандай манба эзгулик, йўлдан оздирувчи ҳар қан-дай ҳолат эса ёвузликдир. Ёвузлик моҳиятини билиш бирмунча мураккаб, унга ёлғиз Аллоҳгина қодир. Шу боис Қуръони Каримнинг “Бақара” сурасида: “Балким, сизлар ёқтирмаган нарса (аслида) ўзларингиз учун яхши, ёқтирган нарсангиз эса (аслида) сизлар учун ёмон бўлиб чиқар. Аллоҳ билур, сизлар эса билмайсизлар”, -деб таъкидланади. Кўринадики, ислом талқинида, инсонни Аллоҳни танишга элтувчи нохушлик (масалан, касаллик – агар инсон уни сабр билан енгса) эзгуликка, яхшилик бўлиб кўринган ҳолат (масалан, бойлик – агар у инсонни гуноҳга етакласа) ёвузликка хизмат қилади.

Деструктив ҳолатларнинг сабаб ва оқибатларини талқин қилиб беришга интилган фалсафий таълимотлар ҳам талайгина. Уларнинг айримларини тил-га олиб ўтиш билан чекланамиз. Деструктив ҳолатлар моҳияти ва мантиғини фалсафий позициядан тавсифлашга бўлган илк интилишлардан бирини дао-сизмда кўриш мумкин. Унинг асослари Лао-цзининг “Дао Дэ цзин” номли асарида ўз ифодасини топган. Мутафаккирнинг тушунтиришича, дао борлиқ-нинг универсал бирлиги, яхлитлигини таъминлаб турган қонундир. Унга зид бўлган ҳар қандай саъй-ҳаракат охир-оқибатда вайронкорлик ва таназзулга олиб келади. Деструкцияни бундай тушуниш ҳиндуизм ортодоксал мактаб-ларидан бири бўлган веданта фалсафасининг ўзига хос талқини – адвайта-веданта таълимотида ҳам учрайди. Унга кўра, фақат



Брахман воқедир, бутун дунё эса саробдан ўзга нарса эмас. Брахман – соф моҳиятдир, унга зид бўлган ҳар қандай жараён таназзул билан интиҳо топади.

Деструкциянинг мазмунини очиб беришда XIX асрда ривож топган идеалистик диалектика ва диалектик материализмнинг аҳамияти катта бўлди. Ушбу таълимотлар борлиқдаги универсал алоқадорлик хусусиятларини, та-раққиётнинг ўзига хос қонунларини ифодалаб беришга интилар экан, ривож-ланиш ва таназзул, прогресс ва регресс, бунёдкорлик ва вайронкорлик диа-лектикасини очиб беришга муваффақ бўлди. Айниқса, бу таълимотлар вакил-лари томонидан ифодалаб берилган қарама-қаршиликлар бирлиги ва кураши қонуни деструктив жараёнларнинг моҳиятига янгича назар ташлаш имкони-ни берди. Унга кўра, борлиқдаги ҳар қандай жараён ўзининг ўзаро қарама-қарши бўлган жиҳатларига эга, улардан бирининг мавжудлиги иккинчиси-нинг ҳам мавжуд бўлишини тақозо этади. Тараққиётни таназзулсиз, прогрессни регрессиз, бунёдкорликни вайронкорликсиз англаб бўлмайди. Кейин-чалик идеалистик диалектика ва диалектик материализм тарафдорлари ушбу қонуннинг турли соҳаларда намоён бўлишини кўплаб мисоллар билан исбот-лаб бердилар.

Деструктив жараёнларнинг онтологик асосларини очиб беришда буюк немис файласуфи Г.В.Ф. Гегелнинг хизматлари катта бўлди. Файласуф тарақ-қиётни рухнинг ривожини сифатида тасаввур қилар экан, унинг амбивалент хусусиятга эгаллигини таъкидлайди. Рух ўз моҳиятига кўра иккилама жиҳатга эга: унда ҳам ижобий, ҳам салбий атрибутлар ўз ифодасини топган. Рух ам-бивалент хусусиятга эга бўлгани боис, бир томондан, позитив маҳсулларни, иккинчи томондан, негатив маҳсулларни дунёга келтиради. Позитивлик му-қим, негативлик эса муваққатдир. Боз устига, айнан негативликнинг мувақ-қатлиги позитивликнинг муқимлигини таъминлайди. Гегелнинг мулоҳаза-ларидан кўринадики, воқелиқдаги конструктив жараёнлар нақадар зарурий характерга эга бўлса, деструктив жараёнлар ҳам шу қадар зарурий ва қону-нийат билан боғлиқдир. Айнан ана шу қарама-қаршиликлар (деструктивлик ва конструктивлик, бунёдкорлик ва вайронкорлик, прогресс ва регресс) бирлиги ва кураши оламнинг яхлитлигини таъминлайди.

Г.Гегелдан фарқли ўлароқ немис файласуфи Ф. Ницше деструктив жараёнларнинг антропологик асосларига диққатни қаратади. Ницше ҳам Гегель каби “деструктивлик” тушунчасини қўлламайди. Бироқ унинг мулоҳазалари деструктив жараёнларнинг моҳияти ва мантисини англаб олишга ва тушунти-риб беришга қаратилган. У деструктивликни ваҳшийлик билан боғлайди ва уни инсон ҳаётининг муҳим атрибути сифатида талқин қилади. Ницше асар-ларида ваҳшийликнинг объективлиги, амбивалентлиги ва мақсадга мувофиқ-лиги очиб берилади. Хусусан, ўзининг “Ахлоқнинг генеалогиясига доир” деб номланган асарида у ваҳшийликнинг объектив характерга эгаллигини таъкид-лайди. “Ҳаётнинг ўзи моҳиятан, ўз асосий функцияларига кўра, ҳақоратлар, зўравонликлар, босқинчиликлар ва вайронкорликлар билан йўғрилгандир”,- деб ёзади у. Ваҳшийликнинг амбивалентлигини (яъни икки томонлама хусусиятга эгаллигини) тавсифлар экан, файласуф бунёдкорлик ва вайронкор-ликнинг ўзаро боғлиқлигини, бири иккинчисини тақозо қилишини, биридан иккинчиси келиб чиқишини очиб беради. Яратувчанликнинг абадий лаззати вайронкорлик қувончини ҳам ўз ичига олади”,- деб уқдиради Ницше. Ниҳо-ят, файласуф бутуннинг ривожини айрим бўлақларнинг



таназзулини тақозо эти-шини таъкидлар экан, деструкциянинг мақсадга мувофиқ жиҳатлари ҳам мав-жудлигини исботлайди.

З.Фрейд эса деструктив жараёнларнинг психологик аспектларини очиб беришга муваффақ бўлди. Олим инсон хулқ-атворининг ижобий ва салбий жиҳатларини очиб бериш учун Эрос ва Танатос тушунчаларига мурожаат қи-лади. Эрос инсон ҳаётининг асосий инстинктидир. У инсонни ўз ҳаётини да-вом эттиришга, сақлашга, бунёдкорликка чорлаб туради. Бундай хулқ-атвор-нинг манбаини олим либидо деб атайди. Ундан фарқли равишда Танатос инсонни ўлимга етакловчи қудратдир. Танатоснинг вайронкорликка, агрес-сияга етакловчи энергиясини Фрейд деструкция деб атайди. Инсон ҳаёти Эроснинг Танатосга қарши туриши жараёнидир.

Мазкур манбалар ижтимоий деструкция тўғрисидаги яхлит концепция-ни шакллантириш учун мустаҳкам назарий-методологик асос яратди. Бу ва-зифани Франкфурт мактабининг атоқли намоёндалари уддаладилар. Улар мав-зуга доир кўп асрлик назарий мулоҳазаларга асосланиб, ижтимоий деструкция концепцияларининг турли вариантларини яратдилар. Макс Хоркхаймер ва Теодор Адорно, Герберт Маркузе ва Эрих Фромм концепцияларида ижтимоий деструкция кишилик жамиятининг ўзига хос атрибуту сифатида талқин қи-линди. Бироқ М.Хоркхаймер ва Т.Адорнони фалсафий мулоҳазалар тушкун-лик кайфияти билан йўғрилган хулосаларга олиб келган бўлса, Г. Маркузе ва Э. Фромм ижтимоий-деструктив ҳолатларни нейтраллаштириш ёхуд лоақал унинг таъсирини камайтириш имкониятлари мавжудлигидан умид қилади.

Хулоса қиладиган бўлсақ, бугунги кундаги регресс ва таназзулга элтув-чи жараён ва омилларни, негативлик ва вайронкорлик ҳолатларини тизимли таҳлил қилишда табиат, жамият ва инсон борлигидаги деструктив жараёнлар-нинг моҳиятига доир диний ва фалсафий қарашлар, Г.В.Ф.Гегель, Ф.Ницше, З.Фрейд, М. Хоркхаймер, Т.Адорно, Г. Маркузе ва Э. Фромм назарий хулоса-лари ишончли назарий-методологик асос вазифасини ўтайди.

ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ИММАНЕНТ ҚОНУНЛАРИ (ИЖТИМОЙ – ФАЛСАФИЙ ЁНДОШУВ)

Дилноза Саданова Алимбаевна –

Урганч Давлат университети, “Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси”,
кафедраси катта ўқитувчиси, (PhD)

тел: +998973632271, e-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

***Аннотация:** Мақолада жамият тараққиётининг имманент қонунлари нима деган саволга жавоб изланади. Ушбу қонунларининг этномаданий, тарихий ва этносоциал тажрибалар ифодаси экани очиб берилади.*

***Калит сўзлар:** Жамият, тараққиёт, имманент, цивилизация, ижтимоий ҳаёт, халқ, миллат, тажриба, урф-одатлар, маданий бойлик.*

ИММАНЕНТНЫЕ ЗАКОНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД)

Дильноза Саданова Алимбаевна –



Ургенчский государственный университет, «Теория построения демократического общества в Узбекистане», Старший преподаватель (PhD).

тел: +998973632271, e-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

Аннотация: В статье автор стремится найти ответ на вопрос – что такое имманентные законы развитие общества. Раскрываются особенности их проявления в этнокультуре, истории и этносоциальных отношениях.

Ключевые слова: Общество, прогресс, имманент, цивилизация, общественная жизнь, народ, нация, опыт, традиции, культурное богатство.

IMMANENT LAWS OF SOCIAL DEVELOPMENT (SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH)

Dilnoza Sadanova Alimbaevna –

Senior Lecturer (PhD), Urgench State University, Department of “Theory of building a democratic society in Uzbekistan”

тел: +998973632271, e-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

Annotation: The article seeks to answer the question of what are the immanent laws of social development. It is revealed that these laws are the expression of ethnocultural, historical and ethnosocial experiences.

Key words: Society, development, immanent, civilization, social life, people, nation, experience, customs, cultural wealth. Faith, faith, worship, sect, mysticism, perfect man, just society, humanity.

Жамият онгли инсонларнинг ўзаро муносабатлари, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ва маънавий ҳаётдаги алоқаларнинг консентуал бирлик атрофида ўзига хос тарзда ифодасидир. Тарихий – ижтимоий босқичлар жамиятдаги ушбу муносабатлар ва бирлик ҳаётига турлича таъсир этиб келган, бироқ улар гоҳ позитив гоҳ негатив роль ўйнаган. Тинчлик, осайишталик, савдо-сотик, хунармандчилик ривожланган пайтларда улар позитив, урушлар, инқирозлар, харбий тўқнашувлар пайтида негатив роль ўйнаган. Шунинг учун ҳам жамият тараққиёти флюктуацион, яъни тўлқинсимон нотекис кечган, аммо нималардadir позитив ўзгариш бўлган. Масалан, уруш харбий тўқнашувлар кишиларни осойишта, синхрон алоқаларни кенгайтириб, маданий – маънавий қадриятларни, бойликларни яратиб яшашга ўргатган. Инсоният цивилизацияси ана шундай пайдо бўлган. [1. 2] Хўш, ушбу тараққиётнинг имманент қонунлари нимадан иборат? Уларнинг ижтимоий борлиқдаги алоқаси нимадан иборат? Биз уларни англай оламизми? Апория яъни мантиқий зиддиятлар жамият тараққиётини тўғри англашга ҳалақит бермайдими?

Ҳар бир жамиятнинг ички ва ташқи омилар таъсирида кечадиган ҳаёт соҳалари, муносабатлари бўлади. Баъзи тадқиқотчилари масалан, машхур тарихчи ва файласуф А. Тойнби Шарқ жамиятларга традиционализм, Ғарб жамиятларига ўз мероси ва қадриятларини бошқа халқларга сингдиришга қаратилган “агрессивлик” хос деб кўрсатади. [3. 401] Тинмай ўзгаришлар, янги – янги тизимлар, воситалар, муносабатларни кашф этиш Ғарб жамиятига хосдир. Унинг айнан ушбу хусусияти “XX асрнинг буюк воқеилиги сифатида”, “эркак, аёл, болалар қалбига таъсир этиб,



хамма нарсани ағдар –тўнтар қилиб юборди, кетидан сон – саноқсиз қурбонлар қолдирди, кишилар дунёқарашини, туйғу ва этиқодларини ўзгартириб юборди.”[3. 400] Айнан А.Тойнби ўтган асрнинг ўрталарда Шарқ ва Ғарб цивилизациялари ўртасида фарқлар, имманент хусусиятлар бирлигини, шунингдек, улар ўртасида тўқнашувлар келишини башорат қилган эди. Бу ғоя кейинчалик Хатингтон [4], Тарик Али [5] каби тадқиқотчилар томонидан кенгайтирилади. Аслида бу тўқнашувларнинг ҳар бири жамияга хос бўлган “имманент қонунлар тўқнашуви” деб аташ ўринлидир.

Мутахассисларнинг фикрича, жамиятнинг имманент қонунлари:

- барқарор ижтимоий алоқалар ва муносабатлар;
- урф - одатлар, анъаналар;
- тарихий - маданий бойликлар;
- сиёсий - ижтимоий birlik, институтлар;
- табиий - жўғрофик макон, муҳит таъсирида шаклланган хўжалик типларида намоён бўлади.[6. 7] Айнан ушбу воқеаликлар жамият тараққиётининг К.Ясперс ибораси билан айтганда, “ўқ чизиги” ҳисобланади.[8. 52]

Барқарор ижтимоий алоқалар ва муносабатлар жамият тараққиётининг асосини ташкил қилади, уларсиз ижтимоий тараққиёт йўқ. Тўғри, муқимлик, турғунлик баъзан барқарорлик кўрсаткичи, белгиси сифатида тасаввур этилади. Аммо бу ўринда барқарорлик деганда ижтимоий ҳаётда ҳамма, жамият амал қиладиган тартиблар, муносабатлар назарда тутилмоқда. Жамият тарққий этиши учун, ҳатто ўзининг мавжудлигини асраб қолиши учун барқарор тартиблар ва муносабатларга эга бўлиши лозим. Таниқли футуролог, файласуф Э.Тоффлер жамият тараққиётини ибтидоий ҳаёт тарзи, аграр муносабатлар, индустриал жамият, постиндустриал цивилизация кабиларга ажратиб қараганида ушбу тарихий – ижтимоий босқичларининг ўзига хос, имманент қонунлар бўлганини қайд этади [9]. Демак, ҳар бир тарихий – ижтимоий босқич ва жамият ўзининг барқарор алоқаларга, муносабатларига эга бўлган. Аммо бу алоқалар ва муносабатлар “тўлқинсимон” (Э.Тоффлер ибораси) кечган, цивилизация шакллантирган. Қандай бўлмасин, жамият тараққиёти барқарор алоқалар ва муносабатлар орқали кечган, ҳатто тинмай янгиликка, ўзгаришларга интилувчи Ғарб жамияти ҳам насроний таъсиридаги қадриятларга асосланган, ҳозир ҳам таянади. Урф-одатлар, анъаналар халқ, миллат ҳаёт тарзининг иродасидир. Халқнинг, миллатнинг мавжудлиги аввало улар урф-одатлар, анъаналарда намоён бўлади. Жамият тараққиёти ҳам уларнинг таъсиридан чеккада рўй бермайди. Масалан, ўзбек халқига хос бўлган қариндошлар-уруғлар билан иноқ, иттифоқ бўлиб яшаш анъанасини узок тарихимиздан кузатсак бўлади. “Алпомиш” достонида Бойбўри ва Бойсари ўртасида келиб чиққан низони эсланг. Профессор Қ.Йўлдошев унинг ижтимоий боисини қуйидагича очиб беради: “Минглаб қуйларини, бировга бахшида этишдан кўрқмайдиган, ўзга юртда бегоналарга “Жизъят тўлаб” юришга ҳам ҳозир Бойсари ўз юртида, ўз акасига “бир...улоқ”ни закот учун бергиси келмайди. Ўзбек қонунни, тартибни эмас, ўзи ҳаёл қилган, ўзи ясаб олган маънавий мезонларни, анъаналарни ҳақ деб билади. Ўзига яқин кишини тан олишдан, унга бўйсунитдан кўра, бегонага сиғинди бўлишни афзал деб билади. Ўзбекка хос руҳият –бу”[10. 20]. Ўзбек халқига хос этноанъаналарни махсус тадқиқ этган фалсафа фанлари доктори, профессор О.Нишонованинг қайд этишича, “анъаналар шунчаки муносабатлар эмас, улар кишиларни, этносни иноқ, иттифоқ ва олижаноб мақсадлар,

умумий тартиблар билан яшашга интилишларининг ифодасидир”. [11. 31] Қариндош-уруғчилик анъаналари ўзбек халқи тараққиётида мудом муҳим ўрин тутиб келган, хатто тоталитар тузум, коммунистик мафкура уларни консерватизм, қолоқлик ифодаси, деб атаганида ҳам халқимиз уни асради, эъзозлади. Ҳозирги миллий демократик тараққиёт ҳамуларга таянади, уларни миллий қадрият сифатида асрайди.

Жамият тараққиёти қонунларидан бири тарихий - маданий бойликларни асраш ва уларни қўпайтиришдир. Бу қонуниятнинг ички хусусиятлари:

- диахрон алоқаларни барқарорлаштириш;
- вориыйлик талабларидан келиб чиқиш;
- маънавий қадриятларни жамият ҳаётига жорий этиш, айниқса ёшларда уларга нисбатан позитив қарашларни шакллантириш;
- тарихий тажрибалардаги тараққийпарвар нарсаларни ўзлаштириш ва қўпайтириш;
- маданий ижодий муҳит яратиш, жамиядаги муносабатларни бойитиш, креатив фаолликни қўллаб-қувватлаш кабиларда акс этади.

Инсон тарихий-маданий бойликларни тайёр ҳолда топади, уларни ўрганиш ва ўзлаштириш жараёнида ўзида яратишга иштиёқни шакллантиради. Тарихий – маданий бойлик – улкан тажриба. Бу тажриба обидалар, халқ ижоди, анъаналар, мерос, диахрон алоқалар, этнопедогогика, этноэстетика кабиларни ўз ичига олади. Инсонга ушбу тажрибага таяниб, ундан ўрнак, сабоқ олиб яшаш имкони берилган. Жамият ҳам шундай қилганида деструктив кучлар таъсирга тушиб қолмайди, радикализмга берилмайди.

Сиёсий - ижтимоий бирлик, институтлар нафақат этносни иттифоқ қилиб, жамиятни асраб туради, шунингдек, илғор, етакчи куч сифатида кишиларни, халқни келажакка етаклайди. Жамият тараққиётини келажак моделини ана шу институтлар яратмоқда. Сиёсий - ижтимоий бирлик барча муносабатларнинг ядросини ташкил этади. Бу ядронинг бузилиш, жамият тараққиётига, социум ҳаётига салбий таъсир этади. Бу ўринда совет давлатининг, сиёсий институтининг инкирози 80 - 90- йилларда қандай оқибатларга олиб келганини, баъзи республикаларда урушини келтириб чиқарганини унутиб бўлмайди. Жамият тараққиёти стратегияси ана шу ядро тафаккурининг маҳсули ҳисобланади. Шунинг учун сиёсий – ижтимоий институтларнинг, бирликнинг креатив фаоллиги, интеллектуал ва бошқариш салоҳияти мудом жамият ҳаётига таъсир этиб туради. Жамият тараққиётининг имманент қонунлари тўғрисида гап кетганда, аввало сиёсий – ижтимоий институт, халқ, миллат ўзининг сиёсий – ижтимоий бирлик эканини асраб тараққиётига асос, кафолат яратади. Табиий – жўғрофий макон этноснинг бирлигига, унинг турмуш тарзи, менталитети ва тасаввурларининг шаклланишига бевосита таъсир этувчи омидир. Биз атрофимизни ўраб турган табиий - жўғрофий муҳитдан узок кетолмаймиз. Хатто у халқнинг миллатнинг тарих саҳнасида ўзлигини намоён қилади. Бу ўринда Л.Н. Гумилевнинг “пассионарлик” назариясини эслаш мумкин. Демак, этнос ва жамият тарққиёти ушбу табиий – жўғрофий муҳит имкониятларидан фойдаланиш орқалигина рўй беради. Ишлаб чиқариш, моддий неъматлар, шаҳарлар, транспорт – коммуникация воситалари, уй – ховлилар ана шу муҳит имкониятлари туфайлидир. Жамият тараққиётига турлича – фармацевт, маданий – цивилизациявий, теологик,



футурологик, космологик ёндошувлар мавжуд, аммо уларнинг ҳеч бири хар бир жамиятнинг ўзига ҳос имманент қонунлари борлигини рад этмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Тойнби А. Постижиние истории. - Москва; Прогресс, 1991.
2. Яковец Ю.В. История цивилизации. - Москва; Гуманитар.изд.центр. ВЛАДОС,1997
3. Тойнби А. Цивилизация перед судом истории. – Москва; Рольф, 2002.
4. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – Москва; АСТ, 2006.
5. Тарик Али. Столкновение цивилизации: крестовые походы, джиход и современность. - Москва; АСТ. Астрель. 2006.
6. Пушкаева В.Г. Общества. // Основы социологии, Часть 2. - Москва: Наука, 1994.
7. Осипов Г.В. Природа и общество // Социология. Основы общей теории. - Москва: АСТ. 1996.
8. Ясперс К. Смысл и назначение истории. Москва: Республика, 1991.
9. Тоффлер Э. Метаморфозы власти. - Москва: АСТ. 2004.
10. Йўлдошев Қ. Алпомиш талқинлари. - Тошкент: Маънавият. 2002.
11. Нишонов О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. –Тошкент: Фан. 2013.

ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТНИНГ АЙРИМ ФАЛСАФИЙ-ВАЛЕОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ

Саидназаров Улуғбек Ахмеджанович –
Урганч Давлат университети мустақил изланувчиси.
тел: +998973632271, e-mail: saurov.ravshonbek@gmail.com

Аннотация: Мақолада жисмоний маданиятнинг айрим этимологик ва ижтимоий-фалсафий, валеологик масалалари муҳокама қилинади. Жисмоний маданиятнинг шахс ҳаёти, турмуш тарзи, ижтимоий фаолияти билан боғлиқ асосий жиҳатлари очиқ берилган.

Калит сўзлар: жисмоний маданият, шахс, саломатлик, соғлиқ, организм, вужуд, меҳнат, дам олиш, умр, ёшлик, стресс

НЕКОТОРЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ И ВАЛЕОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Саидназаров Улуғбек Ахмеджанович -
Независимым исследователем в Ургенчском государственном университете.
тел: +998973632271, e-mail: saurov.ravshonbek@gmail.com

Аннотация: В статье обсуждаются некоторые этимологические и социально-философские, валеологические вопросы физической культуры. Раскрыты основные черты физической культуры в жизни личности, образе жизни, общественной деятельности.

Ключевые слова: физическая культура, личность, здоровье, организм, тело, труд, отдых, жизнь, молодость, стресс

SOME PHILOSOPHICAL AND VALEOLOGICAL ISSUES OF PHYSICAL CULTURE

Saidnazarov Ulugbek Axmedjanovich -
an independent researcher at Urgench State University.



phone: +998973632271, e-mail: saurov.ravshonbek@gmail.com

Annotation: *The article discusses some etymological and socio-philosophical, valeological issues of physical culture. The main features of physical culture in the life of an individual, lifestyle, social activities are revealed.*

Key words: *physical culture, personality, health, organism, body, labor, rest, life, youth, stress*

Although the term "physical culture" is used in scientific, socio-philosophical and pedagogical research, it is not defined comprehensively. This suggests that the term "physical culture" is understandable even without an etymological-scientific interpretation. In fact, "physical culture" needs etymological-scientific and philosophical-valeological approaches.

From the etymological point of view, the term "physical culture" is derived from the words "body", "physical", "physicality" and "culture", "ethnicity", and implies physical appearance. [1]

Biology, physiology, medical sciences are of the same conclusion. Thus, the term "physical" refers to the human body, the organism, and their state. However, for philosophy it is also important that the relationship of this organism with the social being manifests its functional aspects. These functional aspects require a valeological approach in the first place.

There are more than 500 scientifically recognized interpretations of the word "culture". [2. 5-6] If the first etymological interpretation meant "plowing the land", "leading the child", then it became a social reality, a phenomenon associated with all aspects of human activity. [3. 6-7]. This broad approach has made it possible to apply the phenomenon of culture to the processes associated with the physical, that is, the organism, the body. "Physical culture" has become a concept related to the preservation, formation and upbringing of the organism.

Physical culture has long existed as a problem related to ontological and morphophysiological processes related to human genesis. The first people knew very well that the protection of the body is the protection of man, his life. M. Mid, who studied the life of the tribes living in the ancient period, notes that they come in the form of health, wellness, hardening of the body, adaptation to changes in nature, the performance of certain physical ritual exercises. [4. 108-134] Such an instinctive attitude was a natural need in man, for he had to overcome its negative influences while living in the bosom of the wild, and save his own life. This instinctive and vital need has been transformed into a reality that is understood by the passage of time, influenced by civilization, organized in a specially organized, educational way.

Physical training became an integral, necessary part of civilization, in the new era based on the teachings of Y.A. Comensskiy, A. Disterverg, later P.F. Lesgaft, M. Sechenov, I. Pavlov, physical education has become a separate direction. From the second half of the twentieth century it was formed as a science of valeology, health, healthy lifestyle, physical maturity. [5; 6]

When it comes to physical culture, the following questions arise:

In what aspects or functions is it a separate reality, what are its philosophical and valeological foundations? Is physical culture an experience (exercise, training) or a theoretical teaching? Which of them is important in the maturity of the person?

The special reality of physical culture is reflected in its functions. They can be classified as follows:



- is a special technology to keep the body fresh and energetic;
- has the ability to turn health into a way of life;
- aimed at physical training of each person;
- is a popular, inexpensive and effective method of education;
- promotes the formation of a socially active person;
- promotes the formation of an international image;
- develops the qualities of altruism, courage and bravery;
- cultivates social and intellectual qualities in accordance with the principle of "healthy mind in a healthy body".

Each of these areas can be studied as a separate topic, an effective direction in the formation of physical culture. At the center of them is the formation of a healthy lifestyle, keeping the body alert, ready to perform social tasks. If moral culture in a person is socio-ethical, political culture is related to the management of society and state affairs, economic culture cultivates qualities that require interests, benefits, growth processes in economic life and relations, physical culture is a special reality that teaches walking, energy management technology. Health, vitality, vigor, nurturing the body, a healthy lifestyle are its main areas.

The philosophical and valeological foundations of physical culture correspond to these functions. However, they do not consist only of repetition of functions, they generalize functions, give them social essence and scientific orientation. It is good to define the functions of the object, which allows you to fully understand and cover the features of the subject and its properties. However, the scientific approach calls for attention to their socio-philosophical problems. The philosophical-valeological approach is noteworthy in this respect.

"The rest of the body is in health, the rest of the mind is in knowledge," said Fales [7. 244] The rest of the body and the rest of the mind are referred to as closely related realities. The basis of rest, happiness, contentment is health. According to the philosopher, a healthy body knows that life is a pleasure. True, a healthy person does not think that life is a pleasure, he begins to feel it when his health is in danger. In fact, the philosophical-valeological approach seeks to convey that health is rest when it is healthy. Health is always in danger because any accident casts doubt on health. No one is protected from such coincidences.

Aristotle's idea that "action is the source of life" is often quoted in the scientific literature. [8; 9] This idea is also noted as a basis for health because it has a broad interpretation. At the same time, Aristotle has ideas about the change of shapes, movements in space, and even gymnastic exercises. He respects the Spartan experience. [10. 431-442] Sparta developed the technology of training boys with exercise, hence the term "Spartan" or "Spartan method of upbringing" is used. Most importantly, physical education has become a reality that is rationally organized, built on special exercises, thanks to the Spartan experience.

Ancient thinkers correctly understood that health is first and foremost a person's own business. Teaching physical culture is a noble task, but in this task a person should take an active part, knowing that it is his duty to take care of health. "If a man," says Socrates, "takes care of his own health, no one but him can cure him" [11. 34] This idea is repeated in modern medicine. [12. 12-41] From a philosophical-valeological point of view, healthy living is the existential essence of human life. These insignificant human actions, types of activities,



research lose their value. In the process of healthy walking, as academician M.N. Amosov said, there is a force that gives life "tone", motivates a person to activity, and it is this power that fills life with new meanings. [12. 108-112] Healthy walking is a priceless blessing, but it is a more beautiful quality to adorn it with social activity that complements its existential essence.

Regarding the philosophical and valeological foundations of physical culture, our great compatriot Abu Ali ibn Sino widely substantiated the effect of exercise on the human body in terms of medicine, axology, physiology, dietetics, education. According to him, exercise is a condition of health. [13. 98-99] Here he follows the principle of his great teacher Hippocrates that "action, work is the source of health." [14. 406-408] Ibn Sina's thoughts on eating, drinking, indulging in pleasure, and even keeping one's temper in anger are still valuable. The health of the body is in the hands of man, labor and rest, hunger and nutrition, enjoyment of fresh air and natural blessings are the topics that Ibn Sina explored, both positive and negative. [15]

The objective necessity of healthy walking is an axiom. But this axiom changes under internal and external influences, sometimes it is forgotten. Internal factors include a person's attitude to his health, medical physiological views, desire to live a healthy life, rational organization of work and leisure, the choice of ideals and norms that encourage longevity, in short, to devote the active stages of life to creativity, research, healthy living. External factors include the performance of labor and social duties, and the efforts associated with it. Work activity is an external factor that has a serious impact on health. Labor activities that require a lot of time and attention have the power to absolutely change a person's perception of health. According to experts who have studied the impact of work activities on human life, well-being and health, the majority of modern people see their happiness and health in social work (67%). But this figure varies at different levels.[16] This is natural, because social work has different effects on people's psyche and health. But it is clear that physical culture relieves stress in the process of work, builds self-confidence, helps to concentrate psychophysiological capabilities, teaches to concentrate, to accumulate. J. Locke writes : "Gymnastics exercises prolongs a person's youth" [17. 368]. "Prolonging youth" means long-term vitality, endurance and health.

References

1. Encyclopedia of Health. Tashkent. State scientific edition of the Uzbek national encyclopedia. 1999
2. Philosophical Culture. St. Petersburg. Lan. 1998
3. Boboev H, Hamroev T, Alimasov V Cultural Studies. Tashkent. A new generation. 2000
4. Culture and children. Moscow. 1989
5. Popov V.S. Valeology. Moscow. High school. 1999
6. Xalmatov N. Basics of valeology. Tashkent. A new generation. 2004
7. Fragments of ancient Greek philosophers. Moscow. The science. 1974
8. Ovrutskiy N.O Winged Latin sayings in literature. Moscow. Enlightenment. 1989
9. Aphorisms. Minsk. Modern lit-op. 1999
10. Aristotle. Works in 4 volumes. Volume 2. Moscow. Thought 1976
11. The wisdom of a healthy life. Moscow. Medicine. 1986
12. Amosov M.N. Thinking about health. Moscow. Like. guard. 1971



13. Abu Ali Ibn Sino. Wise words. Tashkent. 2019
14. Hippocrates. Works. Moscow. Eksmo. 2016
15. Abu Ali Ibn Sino. Medical sayings. Tashkent. Medicine. 1983
16. Amizyuv N.Kh. Work and health of leaders. Moscow. Publishing house "GEOLARMED" 2002
17. Lock.J. Selected Works. Volume 2, Moscow. Glavpolitizdat, 1958

ЭРКИН ШАХСДАН ЭРКИН ЖАМИЯТ САРИ!

Муродулла Мирзаев

Тошкент давлат шарқшунослик университети доценти,
фалсафа фанлари доктори

***Аннотация:** Демократик давлат ва фуқаролик жамиятини ривожлантиришда либерализм гояларининг аҳамияти катта. Либерал гоялар - фикр эркинлиги ва ижтимоий тараққиётни таъминловчи маънавий эҳтиёждир. Ҳуқуқий давлатнинг асосий шартини бўлган қонун устуворлиги ва ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлашда давлат бошқарувини демократлаштириш муҳим ўрин тутатди. Шу сабабли давлатларaro муносабатларни тизимли ташкил этишда либерал гояларни ижтимоий барқарорлик омили сифатида чуқур ва кенг қамровли ўрганиш ҳозирги кунда долзарб аҳамият касб этмоқда.*

Калит сўзлар.

Инсон, шахс, жамият, давлат, фалсафа, либерализм, эркинлик, индивидуализм, тенглик, эркин рақобат, тараққиёт.

1. Долзарблиги.

Инсон ҳуқуқи, унинг эркинлиги табиат қонунидан келиб чиқади. Мана шу жойда инглиз файласуфи Жон Локк ижтимоий табиатнинг объектив қонунларисиз инсоният ҳамжамияти мавжуд бўлолмайдиган, дейди. “Қонун бўлмаса ... ҳамма нарса инсон амрига бўйсундирилади. ... Ўз хатти-ҳаракатларининг мутлақ эркин ва бош ҳаками бўлган инсон ўзини айбдор деб ҳисобламайдиган, негаки ҳеч бир қонун бирор нарсага эгаллик қилиш ҳуқуқини бермайдиган ва ҳеч нарсани тақиқламайдиган” [1].

Маълум бўлганидек, Ж.Локк инсон эркинлигини масъулиятни ҳис этадиган ва ундан онгли равишда фойдаланадиган объектив, табиат қонунларига бўйсунган ҳодиса деб қарайди. Инсон эркинлиги объектив қарор топган жамиятга хос маънавий, одоб-ахлоқ ва инсон руҳияти қонуниятидир. Инсон руҳияти тўғрисида гап борар экан, унга таъсир этувчи омиллар хусусида гапириш ўринли. Айнан шу омиллар инсон эркинлигига нафақат таъсир этади, тажовуз ҳам қилади. Булар жумласига дин, анъана, давлат каби тузилмаларни киритиш мумкин. Либерализм ана шу омиллар таъсиридан халос бўлиш йўлидаги эркин ҳаракатни ифодалайди.

2. Методлар ва ўрганилганлик даражаси:

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев раҳбарлигида ишлаб чиқилган «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси»да[2] либераллашувнинг янги механизмлари асосланган. В.Гумбольдт, Т.Жефферсон, Ж.Медисон, Б.Констан, А. де Токвиль либерализмнинг моҳияти ва ижтимоий аҳамиятини очиб берган.



mavjud emas. Paremiyalarni xalq yaratadi va ular xalq bilan birga ularning nutqida yashaydi. Shunday ekan, paremiyalar tarixi uzoq o'tmishga, xalqlar va ularning tillari rivojlana boshlagan davrlarga borib taqaladi. Hikmatli so'zlar ma'lum bir davrning ijtimoiy hayotidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Lekin ularning hammasi ham ommalashib ketavermaydi. Hikmatli so'zlar va maqollarning ommalashib ketishi va avloddan-avlodga o'tishi ular qay darajada xalqning umid-istaklarini, hayotini, orzularini va fikrlarini aks ettira olishi bilan bog'liq. Maqol va matallarni bir-biridan farqlab olish lozim. Maqol ko'chma ma'noda yoki o'z ma'nosida qo'llanadigan, ixcham, ta'sirli va grammatik jihatdan tugallangan fikrni ifodalaydigan xalq og'zaki ijodining kichik bir bo'lagi hisoblanadi. Masalan: *Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq ne qilur. Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamas. Matal esa, o'z ma'nosida qo'llaniladigan, ixcham, kichik va gap shakliga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodining bo'laklaridan biridir. Masalan: Odamning olasi ichida, molning olasi tashida bo'ladi. Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod qoladi.* Maqol sodda yoki murakkab gap shaklida bo'lishi mumkin. Xalq maqollari asosan hodisa, holatni tasdiqlash, tasvirlash uchun ishlatiladi. Demak, maqol va matallar semantik jihatdan farq va xususiyatga ega, lekin sintaktik tahlilda maqol va matallar bir xil. Lekin har ikkisinin ham funktsional jihatlarini olib qaraydigan bolsak, ularning bajaradigan vazifalari bir xil. Pand – nasihatga yo'g'rilgan maqol va matallar insonlarni hushyorlikka, e'tiborli bolishga chaqiradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, paremiyalarni yig'ish va ma'lum bir tizim holatiga keltirish uzoq o'tmishdan boshlangan. Mahmud Qoshg'ariyning „Devon“ida qadimgi turkiy tillarga xos bo'lgan hikmatli so'zlarni jamlagan. XIX asrga kelib Gulxaniy ham „Zarbulmasal“ asarida bir qator hikmatli so'zlarni kiritgan. Qadimgi o'zbek tilida shu tariqa paremiyalarni yig'ish ishlari boshlangan. Paremiyalar asosan xalqning madaniy hayotini o'zida aks ettiruvchi kichik janr hisoblanadi. Madaniyat bu xalq hayotining umumlashmasi bo'lib, insonning turmushidagi, kundalik hayotdagi barcha holatlar unda mujassam bo'ladi. Til esa axborot to'plash, saqlash va uzatish bilan birga, xalq madaniyatni ifodalovchi asosiy vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Paremiologiya - filologiyaning maqollarni o'rganadigan bo'limi. Maqollarning xususiyatlaridan biri shundaki, ular nutq va tilga, matn va tizimga murojaat qiladi"⁵. Maqollar har qanday muloqotda namoyon bo'ladigan to'liq mustaqil matn sifatida qaralib, ular axborot, kognitiv, pragmatik ma'noga ega. Ozhegov ta'rifiga ko'ra, maqol - bu ma'rifiy xabar, xalq aforizmi bo'lgan qisqa xalq maqolidir. Maqollar xalq orasida tug'ilgan bo'lib, ular xalqning ko'p yillik tajribasi bo'lib, uning tarixi, turmush tarzi, madaniyati, o'sishini aks ettiradi. Maqollar xalqning ko'p yillik tajribasi bo'lib, uning tarixi, turmush tarzi, madaniyati va taraqqiyotini aks ettiradi. Maqollar bir tomondan hayotning turli jabhalari haqidagi falsafiy bayonlar, tarbiya, aforizmlardir⁶. Bundan tashqari, Kunin maqollarni kommunikativ frazeologik birliklar deb ataydi. Maqollarning muhim belgilaridan

⁵ Lazareva E.I. Communicative and pragmatic functions of proverbs in advertising discourse: on the material of the German language / E.I. Lazareva // Modern problems of philology, art history and cultural studies: materials of the international. correspondence course scientific-practical conf. (in Russian language). Novosibirsk. 2012. pp. 18- 26.

⁶ Mokienko V.M. Modern paremiology (Linguistic aspects) / V.M. Mokienko // Mir russkogo slova. 2010. № 3. pp. 6-20.



tilshunos olim aforizm, tarbiyalovchi va didaktik ma'no, ritmik tarzda tashkil etilgan tuzilishni ajratib ko'rsatadi⁷.

Maqollarning kommunikativ vazifasi xalqning ko'p asrlik tajribasini saqlab qolish va kelajak avlodlarga etkazishdir. Maqollar qotib qolgan ikki qismli lisoniy tuzilma shaklidagi ishonchli matndir. Maqollar matni qisqa, eslab qolish oson bo'lishini ta'minlaydi va tasviriyli, izchilligi bilan tushunishni osonlashadi.

Har bir xalqning tarixi, madaniyati, tili uning maqollari to'plamida o'z ifodasini topadi. Taniqli estoniyalik paremiolog Krikmann fikricha, maqollarning tashqi aloqalari ularning ijtimoiy-tarixiy jarayon, insonning bilish faoliyati kabi ko'plab bilim sohalari bilan aloqasi orqaligina tushuntirilishi mumkin⁸. Maqol va matallar xalqchil, hamma uchun tushunarli bo'lganligi bois, ularni eshitganimizda yoki matnda o'qiganimizda, nutq shaklidan qat'i nazar osongina tanib olamiz. Nemis tilshunosi V. Fleysherning fikriga ko'a, maqollar oddiy odamlarning tajribasini umumlashtiruvchi matndir. Shu ma'noda aytish mumkinki, maqollar xalqning tajribasidan, uzoq yillar kuzatishlari natijasida yuzaga keladi. Maqollar paydo bo'lgan davrning axloqiy, ma'naviy qadriyatlariga asoslanadi.

Paremiologiyaning asosiy negizini tashkil etuvchi maqol va matallar frazeologizmlarga mansubmi yoki mansub emasmi degan fikr haligacha muhokama qilinmoqda. Ba'zi olimlar maqollarni frazeologiyaning bir qismi deb hisoblasa, boshqa olimlar esa maqol va matallarni frazeologik birliklardan ajratib tushuntiradi. Masalan, Mokienko maqollarni frazeologiyadan chiqarib tashlaydi, garchi u maqollarni uning manbalariga havola qilsa ham⁹. Nemis tilshunosi Burger maqollarni frazeologik birliklar deb tasniflab, frazeologik birliklar fondini yangi birliklar bilan to'ldirish mumkinligiga ishora qiladi, maqollar esa tarixan qayd etilgan¹⁰. Bu borada olimlarning fikrlari turli xil. Lekin ularning tuzilishiga kelganda, deyarli barcha olimlarning fikrlari bir xil. Ya'ni maqollar va matallarni tuzilishiga ko'ra, gapga teng deb hisoblashadi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash kerakki, maqol va matallar ma'lum bir xalqning umumiy bilimlarini o'zida aks ettiradi. Maqollarga xos xususiyatlardan biri leksik tarkibning doimiyligidir. Maqol va matallar turli xil mavzular doirasi bo'lishi mumkin. Maqol va matallarni mavzular bo'yicha ajratishda, ularning ifodasiga ko'ra tarkibidagi bosh so'z, ya'ni asosiy so'zga asosiy e'tibor qaratiladi va mavzu bo'yicha joylashtiriladi. Maqollar to'g'ri turmush tarzini o'rgatadi va insonlarga pand-nasihad orqali xatti-harakatlarini tushunishga

⁷ Kunin A.V. Modern English phraseology course /A.V. Kunin. (in Russian language). M.: "Visshaya shkola". Dubna: Izdatelskiy tsentr "Feniks". 1996. pp. 176-177

⁸ Krikmann A.A. Experience in explaining some of the semantic mechanisms of the proverb. / A.A. Krikmann // Paremiological studies. Digest of articles. (Research on folklore and mythology of the East). (in Russian language). M.: The main editorial office of oriental literature of the publishing house "Nauka". 1984. pp. 149-177.

⁹ Mokienko V.M. Modern paremiology (Linguistic aspects) / V.M. Mokienko // Mir russkogo slova. 2010. № 3. p. 5.

¹⁰ Burger H. Semantic aspects of phrasemes /H. Burger //Phraseologie. Ein internationales Handbuch zeitgenössischer Forschung. Hrsg. v. H.Burger, D. Dobrovolskij, P. Kühn, N. Norrick. Berlin, New York: Walter de Gruyter, 2007. pp. 90-109

yordam beradi. Demak, maqollar kundalik turmush va hayotiy hikmatlar orqali inson tajribasini rasmiylashtiradi hamda insonlar uchun hayotiy to'g'ri yo'nalish vazifasini bajaradi. Jamiyat madaniyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan maqollar, xalqning lingvistik o'ziga xosligini o'zida yorqin namoyon etadi.

O'zbek milliy xarakterining o'ziga xos xususiyatlari tilimizdagi mavjud maqollarning xilma-xilligi va ko'p qirraliligida namoyon bo'ladi. O'zbek maqollari to'plami xalqning an'anaviy turmush tarzining chinakam ensiklopediyasi, uning milliy xarakterining diaxronik mohiyatidir. Maqol va matallar o'ziga xos sifatlaridan biri xalqchilikdir. Yuqorida aytib o'tilganimizdek, maqollar o'zida xalq barcha xislatlarini, uning nafasi, yig'isi, shodligi, sevinchi, qayg'usi va ovunchini mujassamlashtiradi hamda insonlarni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Xalq asrlar mobaynida o'zining to'plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va matallar xalqning bebaho merosi. Ular asrlar osha, xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, og'izdan – og'izga o'tib, sayqallanib kelgan. Maqol va matallardagi xalqchilik xususiyati uning ichki strukturasi, ya'ni ma'nosining yo'q bo'lib ketishi mumkin emasligini isbotlab beradi. Maqol va matallarning yana bir xususiyati uning qadimiylikidir. Maqollar ming asrlardan beri mavjud va ular hozirgacha yashab kelmoqda. Insoniyat paydo bo'libdiki, u atrof – olam, jamiyat, siyosat, tabiat, iqtisodiyot va tibbiyot haqida fikr yuritadi, xulosa chiqaradi. Ijtimoiy hayotning barcha tarmoqlari bilan bog'liq o'y – hayollar va xulosalarni qisqa va lo'nda qilib ifodalash maqollarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, maqollar aynan bir kishi tomonidan emas, balki butun bir jamiyat va ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilindi. Maqollar kelib chiqishiga ko'ra qanchalik qadimiy bo'lmasin, baribir ular hech qachon eskirmaydi, iste'moldan chiqib ketmaydi. Maqollarning navbatdagi xususiyatlari ularning majoziyliigi va ko'chma ma'noli ekanligidir. Har doim ham maqol anglatayotgan ma'no undagi komponentlarning ma'nosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazlilik bilan bog'liqdir. Maqollarning hikmatli so'zlardan farqli jihati ham shunda, ya'ni maqol ma'nosining ikki jihatga ega ekanligidir. Hikmatli so'zlar faqat o'z ma'nosida qo'llanilsa, maqollar esa ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanila oladi.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan ta'riflarni hisobga olgan holda, maqollar zamonaviy shaxsning hayoti va faoliyatida quyidagi asosiy funktsiyalarni amalga oshiradi: madaniy-kognitiv, hayotga yo'naltirilganlik, axloqiy, qadriyat, intellektual, ijodiy, kommunikativ ritorik, tartibga solish. Paremiyalar, milliy iboralar va frazeologik birliklarning qiyosiy ifodalanishidan maqsad shundaki, xalq maqollari va matallarini yaxshi bilish nafaqat tilni yaxshiroq bilishga, balki xalqning fikrlash tarzi va xarakterini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O'zbek tilidagi xalq maqolida aytilganidek, "Xalqning ko'rki maqol", ya'ni xalq qanday bo'lsa, uning maqoli ham shunday bo'ladi. Xalqning hayoti uning maollarida o'z aksini topadi. Shunday ekan, maqol va matallarni yig'ib, ma'lum bir lug'at holatiga keltirish ularni avloddan-avlodga o'zgarishsiz yetib borishini ta'minlaydi. O'zbek xalqining maqol va matallarini XIX asrning oxirlarida N. Ostroumov yig'ib, nashr qilgan. Paremiologik lug'at tuzish masalasiga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Chunki paremiologik lug'at tuzish ikki tilli yoki boshqa lug'atlarga qaraganda mushkulroq masala. Ikki tilli va boshqa lug'atlarni tuzayotganda alifbo tarzida so'zlar joylashtirilib tuzilsa, paremiologik lug'atlarni tuzishda esa alohida bir aspektga e'tibor qaratiladi. Paremiologik lug'at tuzishda olimlar paremiyalarning turli xil tasniflariga e'tibor qaratishadi. Ba'zi lug'atshunos olimlar paremiologik lug'at tuzishda birinchi so'zning bosh harflarini alifbo

tartibida joylashtirishni avzal ko'rsalar, ba'zilar esa, paremiyalar tarkibidagi asosiy, kalit so'zning birinchi harflarini alifbo tarzida joylashtirishni avzal biladilar. Bunga misol qilib, Mokienko va Nikitina, Modestovlarning tuzgan lug'atlarini keltirib o'tish mumkin. Ushbu yaratilgan paremiologik lug'atlarida birinchi so'zning bosh harflari alifbo tartibida joylashgan. Bu tartibning o'ziga xos asosiy kamchiligi shundan iboratki, bitta maqolning turli harflar bilan boshlangan boshqa variantlari lug'atning boshqa sahifalarida takrorlanishi mumkin. Keyingi usul kalit so'z, bosh so'z asosida paremiologik lug'at tuzish bo'lib, bungaga nemis tadqiqotchilari X.Bayer, A.Bayerlarning tuzgan lug'atlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu tamoyil bilan ma'nosi o'xshash, ammo leksik tarkibida farq qiluvchi paremiya turli guruhlariga kirishi mumkin. Bu holatda ham tuzilgan lug'atlarda maqol va matallar turli o'rinlarda va guruhlarda takrorlanishi mumkin. Navbatdagi tasnif maqol va matallarning tarixiy tarkibiy qismini o'rganishga asoslanadi. Shuningdek, ularni xronologik tartibda ko'rib chiqilib, paremiyalarni joyi va vaqtiga ko'ra tasniflanadi. Bunga misol sifatida 1961 yilda SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan chop etilgan "XVIII – XX asrlar qo'lyozma fondidagi maqollar, matallar, topishmoqlar" kitobini keltirib o'tish mumkin. Keyingi tasnif genetik bo'lib, unda paremiyalar ma'lum tillar va etnik guruhlariga qarab ajratiladi.

Yana bir tasniflash tematik tasniflash hisoblanib, unda ma'no tuzilishi va mazmuniga ko'ra maqol va matallar ma'lum mavzulariga taqsimlanadi. Tematik tasniflashga V.I. Dal, M.A. Ribnikova, A.N. Martynov va V.V. Mitrofanov, V.P. Felitsina, Yu. Proxorov, V.I. Zimin, A.S. Spirin va V.I. Zimin va boshqa ko'plab paremiolog olimlarning lug'atlari va to'plamlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
2. Ўзбек халқ мақоллари, Тошкент, 1981.
3. Lazareva E.I. Communicative and pragmatic functions of proverbs in advertising discourse: on the material of the German language / E.I. Lazareva // Modern problems of philology, art history and cultural studies: materials of the international. correspondence course scientific-practical conf. (in Russian language). Novosibirsk. 2012.
4. Mokienko V.M. Modern paremiology (Linguistic aspects) / V.M. Mokienko // Mir russkogo slova. 2010. № 3.
5. Kunin A.V. Modern English phraseology course / A.V. Kunin. (in Russian language). M.: "Visshaya shkola". Dubna: Izdatelskiy tsentr "Feniks". 1996.
6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. -Тошкент, 1990
7. Ўзбек халқ мақоллари. II томли. –Тошкент: Ўзбекистон фан нашриёти, 1988
8. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . -T.: 2001
9. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq 2012
10. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2009.
11. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" I tom. -Toshkent.: 1960.
12. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari". –Toshkent: 2003

Internet saytlari

1. <https://uz.wikipedia.org/w/in dex.php>.
2. ziyo.net
3. <http://www.oxfordhouse.com>
4. <http://www.yourdictionary.com>
5. <http://www.longman.com>
6. <http://www.uzbekistan.org/news/archive/302>
7. <http://www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.html>
8. <http://www.thesaurus.com/browse/proverb>

**MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA "VATAN", "ONA",
"OPA – SINGIL", "SEVGI– MUHABBAT", "SADOQAT" KABI INSONIY
TUYG'ULARNI BILDIRUVCHI LINGVOKONSEPT**

NamMQI o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi Tojimatov Rasuljon G'anijonovich
Tojimatova Madinabonu Umidjon qizi
NamDU 2-kurs magistranti
Holmurodova Nigora G'anijonovna
Andijon viloyati Baliqchi tumaniga qarshli
7-umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituv

***Annotatsiya:** Maqolada konsept, lingvokonsept, lingvistik tushuncha sifatida muhokama qilinadi bunda asosiy element konsept, lingvokonseptlar va odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish orqali lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratilgan bo'ladi. Buni aniqlashda lingvokonsept hodisani har tomonlama tahlil qilish yordam beradi til muhitining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Konsept, lingvokonsept, lingvostika, kognitiv psixologiya, semantika, deriktiv, mental leksikon, metafora, lison.*

**"РОДИНА","МАТЬ" В СТИХАХ МУХАММЕДА ЮСУФА,
ЛИНГВОКОНЦЕПТ, ОБОЗНАЧАЮЩИЙ ТАКИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ЧУВСТВА,
КАК" СЕСТРА"," ЛЮБОВЬ ", "ВЕРНОСТЬ"**

***Аннотация:** В статье рассматривается концепт как лингвистический концепт, основным элементом которого является определение лингвокультурологического существования концепта, лингвоконцептов и, в целом, определенных концепций, связанных с образом жизни человека, путем помещения их в особые паттерны. В определении этого комплексный анализ феномена лингвоконцепта помогает выявить природу и особенности языковой среды.*

***Ключевые слова:** Концепция, лингвоконцепт, лингвистика, когнитивная психология, семантика, директива, ментальный лексикон, метафора, язык.*



LINGUOCONCEPT EXPRESSING HUMAN FEELINGS SUCH AS "MOTHERLAND", "MOTHER", "SISTER", "LOVE" AND "LOYALTY" IN THE POEMS OF MUHAMMED YUSUF

Annotation: *The article discusses the concept as a linguistic concept, the main element of which is to define the linguistic and cultural existence of the concept, Linguoconcept and, in general, certain concepts related to human lifestyle by putting them into special patterns. In determining this, a comprehensive analysis of the linguoconcept phenomenon helps to reveal the nature and specific features of the language environment.*

Keywords: *Concept, linguoconcept, linguistics, cognitive psychology, semantics, directive, mental lexicon, metaphor, language.*

Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi.

¹Sternin I.A., takdlashicha Konsepsiya ideal mavjudotdir inson ongida shakllanadi" Bu tushuncha inson ongida shakllanganda ikki mohiyatning sinkretik birikmasini hosil qiladi, ya'ni madaniy an'analar va ushbu jamiyatning ustuvor madaniy arxetiplari, bunda bevosita shaxsning ijtimoiy borlig'i va uning vakili ongning ichki niyatlari, shakllangan fikr shakllari matni unda o'zining shaxsiy, noyob mavjudligi tajribasi ta'siri ostida ma'lum bir ijtimoiy-madaniy muhit, ma'lum bir jamiyatda tarixiy va madaniy taraqqiyotining yana bir bosqichi. boshqa, bu muhim asoslar o'zlarining ichki ichki qismini tashkil qiladi kontsepsiyaning tabiati va ularning asosiy belgilarini topadi tilda aks ettirish.

²Karasik.V.I., fikricha esa Konseptlarning tipologik yondashuvdagi tahlillarini bir necha yondashuvda ko'rib chiqadi: birinchisida konseptlarning tilga asoslanishi, ya'ni predmetga oid, belgiga oid, hodisa-jarayonga oid xususiyatlarga e'tibor qaratilsa, ikkinchi yondashuv kognitiv psixologiya kabi qiyofalarga tegishli sanaladi. Keyingi yondashuv etik-estetik kategoriyalarning mahsuli sifatida deriktiv xususiyatga ega bo'lgan madaniy qadriyatlarni baholovchi konsept hisoblanadi hamda "Vatan", "Ona", "Opa-Singil", "Sevg-Muhabbati", "Baxt", va shu kabi yuqori qadriyatlar sanalgan konseptlar ajratib ko'rsatiladi. Ma'lum konseptlarning tipologik tahlili faqatgina semantik farqlarini ko'rsatish uchungina xizmat qilmaydi, balki — ong, anglash, munosabat, faoliyat tushunchalarini integratsion yondashuv orqali modellashtirish uchun ham xizmat qiladi.

³E.S.Kubryakovaning ta'kidlashicha, konsept – inson psixikasida aks etadigan, butun olam qiyofasini ifodalaydigan lisoniy ong bo'lib, mental leksikonning xotiradagi operativ mazmuniy birligi sanaladi. Ayni paytda, konseptning ko'pqatlamli ekanligi ham tan olingan

Muhammad Yusuf she'riyatining bosh mavzusi vatan, ona, baxt, mehr – muhabbat, sevgi – sadoqat kabi insoniy tuyg'ular va bu tuyg'ularning bosh omili, gul toji bo'lgan vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat va ehtiromni tarannum etish sanaladi. Shoir "Ishori dil" she'rida shunday yozadi:

Vatan – yuragimning olam panohi

Bu dunyo bukri bir jiydangning shoxi.

¹Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2002. – 191 с.

²Карасик В.И. Языковые ключи. -М., Гнозис, 2009. – 406с



*Ko'zim yoshi bilan sug'orib gohi,
Ko'ksimda o'stirgan gulday sevaman.*

Vatan uni tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki ijodkor uchun o'zi tug'ilib o'sgan maskani – Vatanini kuylashdek zavqli va sharfli baxt bo'lmaydi. Vatan mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsa-da, lekin ularning hech biri bir-biriga o'xshamaydi. Muhammad Yusuf ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi vatan mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lganligi sababli yorqin va ta'sirchan deyishimiz mumkin. Vatan mehri, muqaddas ona tuproq sog'inchi o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Muhammad Yusuf o'z she'rlarida ham xalq qo'shiqlari ohangidan muhim uslubiy vosita sifatida unumli foydalangan. Vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali vatanni onaga, singilga o'xshatgan emas yoki vatanning tol beshikdan boshlanishini faqat shu ijodkorigina o'z asarida ilk bor qo'llagan. Vatanning bog' – rog'larini, so'lim go'shalarini tarannum etganlar ko'pdir.¹² Lekin hech kim vatanni “yuragimning olampanohi” deb uning “bukri bir jiydasining shoxi” ni kuylagan emas. Va yo “tilimning ostida navvot – zarimsan, sen mening yagona payg'ambarimsan” degan tashbehlarini Muhammad Yusuf she'riyatidagina ko'rishimiz mumkin. Masalan, “Vatanim” she'rida:

*Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga,
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdardu – hamhonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri,
Ilig'imsan vatanim.*

Muhammad Yusuf she'riyatida xalq va vatan timsoli o'zgacha tarannum etilgan. Ona-Vatanni sevish, uni ardoqlash, himoya qilish insonning birinchi darajali burchi, shu bilan birgalikda uning vatanparvarlik fazilati, qalbning eng oliy tuyg'ularidan biridir. Darhaqiqat, bolaning ilk qadamini ko'rgan ona uchun bundanda ortiq quvonch bo'lmaydi. Ona kabi vatan ham bag'rida yashayotgan xalqining yutuqlaridan, shodon kunlaridan sevinadi. Uning yo'llariga gul – u maysalar tutadi. Opa – singil kabi ko'ngli xira vaqtlarda hamdardu – hamroh bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, shoir oddiy hayotiy voqealar asosida ajoyib o'xshatishlar va teran falsafiy mushohadaga ega bo'lgan misralar yaratgan. Shoir vatanni qanday sevishini “Ishori dil” she'rida shunday izohlaydi:

*Cho'ksang, tur singlim deb,
Soching silayman.*

³ Кубрякова Е.С. Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. -М., Изд-во Моск. Ун-та, 1997. –С 90-93

⁴ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 275.

⁵ Маъруфжон Йўлдошев. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент. “O'zbekiston” НМИУ, 2019. -256-б.

Boltaboyev H. So'z sehri. – Toshkent, 2006. – B. 98.



*So'ksang opam deyman,
Umring tilayman.
Sendan ranjimaيمان,
Gina qilmayman-
Xoh xo'mray, xoh jilmay,
Birday sevaman.*

Xalqimizda haqiqiy er yigit onasi va opa-singlini himoya qilishi, ularga tog'dek suyanch bo'lishi kabi xislatlar border. Opa –singil kabi vatan ham himoyaga, tog'dek suyanch bo'ladigan er yigitlarga tayanadi. Muhammad Yusuf she'rlaridagi tasvirlar Ona haqida bo'lib inson qalbining tasviri kabi ishonchli va ta'sirchan kuchga ega:

*Oh, mening ortimdan oovora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam,
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi!.. (“Onamga”).*

Farzandni dunyoga keltirgan ayol undan hech narsa kutmay, faqat undan bir parcha xat yoki bir og'iz qo'ng'iroq ilinjida yashaydi. Tashida bo'lmasa ham, ichida shoir aytganidek, quyidagi so'zlarni ta'kidlaydi:

*Chakka o'tgan eski tomga o'xshayman,
Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay.
Yorug' bu dunyoda bormi, bilmayman
O'z o'g'li yo'lga intizor menday. (“Onamdan xat”).*

Shoir bu jumalarni go'yo o'ziga qarata aytayotganga o'xshaydi, lekin chuqurroq diqqat qilinsa, ota-onasidan yiroqda bo'lgan barcha farzandlarga eslatma ekanligini anglab olish mumkin. Shoir she'rlarini tahlil qilar ekanmiz misralardagi emotsionallikni tasirchanlikni yuzaga chiqarishda poetik sintaksis va poetic fonaning o'rni katta bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Qolaversa, poetic sintaksis vositalari bo'lgan ritorik so'roq, ritorik, aniteza, apostrafa epifara kabi turlaridan foydalanib ajoyib misralar yaratgan. Masalan, o'zbek xalqining turmush tarzini ko'rsatib beruvchi “Qora qumg'on she'rida apostrafa san'ati she'rning emotsionalligini vujudga keltirgan

*Momom senga olov yoqqan,
Qora qumg'on, qora qumg'on.
Bobomni ham o'zing boqqn,
Qora qumg'on, qora qumg'on.*

Muhammad Yusuf ijodidan “O'zbekiston” she'ri o'zining hissiy bo'yoqdorligi, jozibadorligi bilan va ko'plab insonlarning vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini ifoda etib kelganligi bilan alohida o'rin tutadi.

*O, ota makonim, Onajon o'lkam
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman beda poyingga.*

- Deb boshlanuvchi bu she'r satrma-satr, bandma-band tasirchanligini oshirib boradi. Guvohi bo'lganingizdek birinchi badda insoniyat sivilizatsiyasining birinchi



durdonasi bo'lmish Rimni o'zining keng beda poyasiga teng ko'rmagan shoir ikkinchi bandda yurtining serjilo tabiatini tarannum etib, "Qayga borsam suyab boshni tik tut deb, tog'laring izimdan ergashib yurar" - deya kuylaydi.

Uchinchi bandda esa shoir bir o'zbek farzandi sifatida undan ko'rk-hasham, dabdaba begonaligini, uning uchun oilasi bag'ri hammasidan ustunligini quydagicha ta'riflaydi:

*Ko'rdim suluolarning eng faranglarin,
Yo xudbinman yo sodda kasman men –
Parijning eng go'zal restaranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.*

To'rtinchi bandda yurtidan hech qachon ko'ngil uzib ketolmasligini, sal uzoqlashsa ko'zdan uyqu, dildan halovat qochishiga iqror bo'ladi. Keyingi bandda esa.

*Bildimki baridan ulug'im o'zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga
Bahorda bahmalda tug'ilgan qo'zing,
Arab ohusidan azizroq menga –*

- deya vataniga bo'lgan cheksiz muhabbatini, dunyodagi jamiki boylik vatanning bir siqim tuprog'idan aziz emasligini takidlab, oxirgi bandda yurtiga bo'lgan muhabbatiga tugal fikr aytadi:

*Sen bilan o'tgan har kun bayram – bazm,
Sensiz bir on qolsam vaxmim keladi,
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga raxmim keladi.*

Ko'rib o'tganimizdek Muhammad Yusuf ijodidagi vatan mavzusidagi she'rlar o'zini teranligi va ohangraboligi bilan ajralib turadi. Bunday she'rlar esa o'z – o'zidan , oddiy so'zlarning ketma – ket saf tortishidan yuzaga kelmaydi. Balki, vatanga bo'lgan mehr – muhabbat mevasi sifatida qalbdan to'kiladi. Shoir vatanini kuylar ekan uni o'zligidan ajratib, maddohlik bilan kuylamadi. Ya'ni uning faqatgina yaxshi tomonlarini ko'rib, og'riqli nuqtalariga qo'l siltab ketmadi. Uni boricha sevdi, ardoqladi uni yuksaltirishga intildi. Zero, haqiqiy vatanparvarlik ham shunday bo'ladi. Haqiqiy vatanparvar inson o'zi tug'ilib o'sgan joyni xalqini bor – yo'g'i bilan sevadi. Muhammad Yusuf she'riyatini kuzatsak " Vatan ostonadan boshlanadi" degan naqlning naqadar rost ekanligiga guvoh bo'lamiz. Muhammad Yusufning har bir she'rida hayotga bo'lgan tashnalik, teran o'ychanlik, samimiy tuyg'ular tarannumini ko'ramiz. Ayniqsa, vatan mavzusidagi she'rlarida shoir vatan haqida yozar ekan uni shunchaki ta'riflab, bayon etib qo'ymaydi. Balki, kuchli harorat cheksiz muhabbat bilan izhor etadi.

Bu emotsiyalarning barchasi Muhammad Yusuf asarlarining o'ziga xosligini, ta'sirchanligini yuzaga keltirar edi. Shoirning vatan mavzusida yozilgan she'rlarining yana bir o'ziga xozligi shundaki , shoir vatanni jonsiz bir materiya deb bilmaydi. Ya'ni u vatanni kuylaganda faqat to'g-u toshlarni , dasht-u dalalarni – maftunkor tabiatini kuylamaydi.

Masalan, "Xalqona" she'rida :

*Qiz deganning ko'ksi to'la o'y bo'lar ,
Yigit bir kun yetilib bo'y bo'ladi,
Bir tandir non o'rtada, bir kosa suv,
O'nta o'zbek yig'ilsa to'y bo'ladi.
Ro'yoblarga chiqadi shirin tushlar,*



*Kelinchakning yengidan kuyov ushlar,
Beshiklarni bo'shatib bir - biriga,
Tug'iladi To'maris, Alpomishlar
Suyungandan onalar ko'zida yosh,
O'talar yuzida porlar quyosh.
Nabiralar to'ladi hovlilarga,*

Bari bir xil - qora sochu – qora qosh, O'ziga xos ohangrabolikda yozilgan bu she'r har bir o'quvchini o'ziga rom qiladi va shu el, millatning o'ziga xosligini, urf – odatlarini, sodda va samimiyligini, qisqasi o'zbek xalqi mintaliteti haqida boy taassurot beradi. Muhammad Yusuf she'riyatini xalqona she'riyat deb bilamiz. Muhammad Yusufdek she'rlarida vatanni, opa-singilni, mehr-muhabbatni, sevishga chorlaydi. Muhammad Yusuf serqirra ijodkor. U qalamga olgan mavzular turli xil bo'lib, barchasiga o'ziga xos originallik bilan yondoshgan.

Muhammad Yusufning ijodida sayqal topgan asoslardan yana biri muhabbat mavzuidir. Buyuk faylasuflar ta'biri bilan aytganda, muhabbat eski narsa, biroq har bir ko'ngil uni yangilaydi, yangidan kashf etadi. Muhabbat mavzuidagi she'rlardan shoirning qalami ravonlashadi, mavhum tuyg'u konkret shaklga kiradi, o'zligini izg'or etayotgan his tilga kiradi. Muhabbatning ozorlari, firoqu jafolari, vaslu vafolari poetik obrazlarda, kutilmagan sifatlarda o'ziga xos tarzda, ta'bir o'rni bo'lsa, muhammadona uslubda ifoda etiladi.

*Muhabbat, ey go'zal iztirob,
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u.
Ko'kragimga qo'lingni tirab,
Yuragimni to'kib qo'yding-ku.
Muhabbat, ey go'zal iztirob,
Ko'chang kezdin sarson, dovdirab,
Yuzlarimga yuzlaring tirab,
Ko'zlarimni boylab qo'yding-ku!..*

Konsept, Lingvokonsept, lingvopoetika, haqida gap borar ekan, uni ichki kechinmalar bilan his-tuyg'ularsiz, lirikasiz qolaversa tasavvur etish qiyin. Chunki shoir tomonida keltirilgan bunday o'ziga hos, takrorlanmas o'xshatishlardan hayoti bilan bog'liq voqealar, hodisalar, ichki kechinmalarni Muhammad Yusuf ijodida uchratishimiz mumkin. Masalan "Muhabbat" she'rida uchratamiz:

*Qalbg'a zardob bo'lib to'lganing alam,
Gohi ochilmasdan so'lganing alam
Muhabbat, muhabbat, hammasidan ham
Sochga oq tushganda kelganing alam!..16.*

Muhammad Yusuf: "Agar sevgi bo'lmaganida, balki butun ijodimni onamga bag'ishlagan bo'lardim. Shoirning ko'plab sherlarida uchratish mumkin bo'lgan "Singlinga maktub", "Sevgi bu", "Qizil olma", kabi bir qator she'rlari shular jumlasidandir. Muhammad Yusufning mahorati she'rlarining sarlavhalarida ham yorqin ko'rinadi. Shoir she'rlarining mazmunidan kelib chiqib sarlavha tanlaydi. Sarlavhani asarlarining g'oyasini ochish vositasi sifatida ishlatadi. Masalan "Sevgi bu" she'rida ko'rishimiz mumkin.

*Sevmoq bu
Kechirmoq degani asli,
Toki bu dunyoda quyosh bor, gul bor.*



Yalpizlar gullagan shu bahor fasli,
Sodiq hamdam bo'lg'in sen menga, dilbar.

Sevgi mavzuidagi she'rlardan shoirning qalami ravonlashadi, mavhum tuyg'u konkret hamda lingvokonsept shaklga kiradi, o'zligini izhor etayotgan his tilga kiradi. Sevgining ozorlari, vaslu vafolari lingvopoetik obrazlarda, kutilmagan sifatlarda o'ziga xos tarzda, Muhammadona uslubda ifoda etiladi.

Shoirning "Sevgi bamisoli" deb boshlanuvchi she'rida qizg'aldoqni muhabbat ramzi sifatida namoyon etib, chuqur mushohadaga undaydi:

*Sevgi bamisoli lolaqizg'aldoq,
Teginmay bo'lmaydi,
Tegsang to'kilar.
Alvon bir gumbazning o'rtasi
oppoq...
Buni bir menu bir kapalak bilar.
Men o'sha gumbazga boshimni
suqdim -*

Sevgi bamisoli lolaqizg'aldoq, Teginmay bo'lmaydi, Tegsang to'kilar. Alvon bir gumbazning o'rtasi oppoq... Buni bir menu bir kapalak bilar. Ilk muhabbat bilan qizg'aldoq o'rtasidagi o'xshash qirralarni topgan shoir muqaddas tuyg'uni nafis, nozik va go'zal lolaqizg'aldoqqa o'xshatadi. Qizg'aldoqni ilk muhabbatga qiyoslaydi. Muhabbat ham qizg'aldoq singari qalbning eng nozik tuyg'usi, qizg'aldoq ham ko'ngildagi ish yanglig' ba'zan hislarni uyg'otadi. Muhammad Yusuf ijodida qizg'aldoq obrazi qadrlanmagan muhabbat timsoli sifatida ham gavdalanadi: "Men o'sha gumbazga boshimni suqdim – Qizil ko'ylakli bir qizgina kular: Bunday boqma menga, uqdingmi? Uqdim... Buni bir men-u bir kapalak bilar" kabi misralar fikrimiz dalili bo'lishi mumkin. Qizg'aldoqning tabiiy go'zalligi va noziklik belgilaridan ijodiy foydalangan shoir muhabbat tushunchasining turfa jihatlarini yoritadi, yangi ma'no qirralari, lingvopoetikasini kashf etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2002. – 191 с.
2. Карасик В.И. Языковые ключи. -М., Гнозис, 2009. – 406с
3. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры: 3-е изд. - М.: Академический проект, 2004, с. 42-67.
4. Demyankov V. Z. Termin «konsept» kak element terminologicheskoy kulturi. –М.: Nauka, 1975
5. Dzyuba E. V. Konsept v russkoy lingvokulture: Monografiya. Ural. gos. ped. un-t. – Ekaterinburg, 2011. – 224 s.
6. Воркачев С.Г. Сопоставительная этносемантика теленомных концептов «любовь» и «счастье» (русско-английские параллели). -Волгоград: Перемена, 2003. -164с
7. Кубрякова Е.С. Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. -М., Изд-во Моск. Ун-та, 1997. –С 90-93
8. Зубарева Г.С. Концепт как основа языковой картины мира. Вестник МГОУ. Серия «Лингвистика». 2011. № 3. С.46-51.



9. Карапетян Е.А. Концептуальная лексика русской песенной лирики XIX – начала XX столетий. Монография. – М.: МГОУ, 2012. – 172 с.
10. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 273
11. Boltayev F. Shoir zamondoshlari хотirasidan. – Toshkent, 2004. – B. 192.
12. Yusuf M. Biz baxtli bo'lamiz. – Toshkent: Nihol. 2008. – B. 200.
13. Маъруфжон Йўлдошев. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент. "O'zbekiston" НМИУ, 2019. -256-б.
14. Boltaboyev H. So'z sehri. – Toshkent, 2006. – B. 98.
15. Boboyorov U., Xolsaidov F. Adabiyot. – Toshkent: Ilm ziyo, 2000. – B. 218 b.
16. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 275.

ҚОДИРИЙ ҲАЖВИЯЛАРИДА АЙРИМ ЁРДАМЧИ СЎЗЛАРНИНГ ИФОДА ИМКОНИАТЛАРИ

Пардаева Мадихабону Хакимовна,
Навоий давлат педагогика институти
Бошланғич таълим кафедраси
катта ўқитувчиси
тел: 90 647 50 18

НавДПИ филология фанлари доктори (DSc) Р.Юсупова тақризи асосида

Аннотация. Мақолада мустақил сўзларнинг коммуникатив нуқтаи назардан ўз вазифасини бажариши, аммо шу алоқани таъминлаш ёрдамчи сўз туркумларига боғлиқлиги, лексик сатҳ бирликлари икки катта гуруҳга бўлиниши, улар орасидаги зидланишни «маъновий ва вазифавий номустақиллик» ташкил этиши, бу зиддият белгисига кўра ёрдамчи сўз белгили, мустақил сўз эса белгисиз аъзо мавқеини эгаллаши, ёрдамчи сўз ҳеч қачон мустақил қўлланмаслиги, боғлиқ қуришовдагина кела олиши мисоллар асосида таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: мустақил, маъновий ва вазифавий номустақиллик, белгили ва белгисиз, грамматик морфема, модал маъно, грамматик, фонетик, морфологик.

POSSIBILITIES OF EXPRESSION OF SOME AUXILIARY WORDS IN QADIRI COMICS

Пардаева Мадихабону Хакимовна,
Navoi State Pedagogical Institute
Teacher of the department Primary education

Annotation. In the article, independent words perform their function from a communicative point of view, but this connection depends on auxiliary word groups, lexical units are divided into two large groups, the contradiction between them is "spiritual and functional independence". It has been analyzed on the basis of examples that it takes the position of an unmarked member, never uses the auxiliary word independently, and can only come in a connected circle.

Keywords: independent, semantic and functional independence, definite and indefinite, grammatical morpheme, modal meaning, grammatical, phonetic, morphological.



ВОЗМОЖНОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ НЕКОТОРЫХ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В КОМИКСА Х КАДЫРИ.

Пардаева Мадихабону Хакимовна,
Навоийский государственный педагогический институт
Учитель кафедры начального образования

Аннотация. В статье самостоятельные слова выполняют свою функцию с коммуникативной точки зрения, но эта связь зависит от вспомогательных групп слов, лексические единицы делятся на две большие группы, противоречие между ними - «духовная и функциональная независимость». на основе примеров, что он занимает позицию неопределенного члена, никогда не использует вспомогательное слово независимо и может входить только в связный круг.

Ключевые слова: независимый, семантическая и функциональная независимость, определенное и неопределенное, грамматическая морфема, модальное значение, грамматический, фонетический, морфологический.

Мустақил сўзлар коммуникатив нуқтаи назардан ўз вазифасини бажараверади, аммо шу алоқани таъминлаш ёрдамчи сўз туркумларига боғлиқ. “Маълумки, лексик сатҳ бирликлари икки қатга гуруҳга бўлинади: мустақил сўз ва ёрдамчи сўз. Улар орасидаги зидланишни «маъновий ва вазифавий номустақиллик» ташкил этади. Бу зиддият белгисига кўра ёрдамчи сўз белгили, мустақил сўз эса белгисиз аъзо мавқеини эгаллайди. Ёрдамчи сўз ҳеч қачон мустақил қўлланмайди, боғлиқ қуршовдагина кела олади. Мустақил сўз эса мустақил қўлланилиш ва маъно ифодалаш қобилиятига эга”. [Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Абузалова М. 2010. – 414 б.]

Қуйидаги матнда аввало, ёрдамчи сўзларнинг матндаги аҳамияти ҳақида тасаввур ҳосил қилиш мумкин, қолаверса, ажратиб кўрсатилган грамматик воситаларнинг фонетик, морфологик ўзгаришга деярли учрамаганини англаш мумкин: /Қўчқорхўжа акам жўраларига гап берди. Болтичўлок, маҳалла сўфиси билан имомини ва ҳам уч-тўрт маҳалла муштумзўрларини имлаб қурбонлигини едириб юборди. Булар-ку майли, Ёдгор семиз шундай бой бўлса ҳам зикна-да, қурбонлик гўшт-ёғини димлаб қўйди. Бу тўғрида ҳеч кимга айб қўйиш керак эмас. Қурбонлик гўштлардан очларга насиба чиқариш учун пайгамбарнинг декрети босилган қонунлар мажмуаси ҳам умматлар қўлига теккани йўқ, уламолар қўлига теккан бўлса ҳам улар бундай буйруқларни бекорга чиқарганларига кўб замонлар бўлди./ (А.Қ., 571) Бу ўринда фақат ҳозирги мулоқотда “тўғрида” кўмакчиси ўрнида асосан, ҳақида кўмакчиси қўлланилади.

Масалан, билан кўмакчиси қуйидаги икки кўринишда қўлланган: /Хай-хай, қандай яхши... бу дунёда қадри йўқ мусулмон ога-иниларнинг у дунёда бундай роҳат билан кун кечиринларига ҳасад қилгучи кофирларнинг кўзи чиқсун. Эрта бирлан уй ичидан фотиҳани олиб, ё ху ё ман хуни тилимга жо қилиб, қўлда каттакон халта ила... нчи қассоблик дўкони қайдасан, деб йўлга равона бўлдик./ (А.Қ., 570) Бундан шундай хулосага келиш мумкинки, Қодирий ва жаидлар даври ўтмиш ва келажак ўртасида кўприк вазифасини ўтаган. Чунки “бирлан” шакли Навоий асарларида ҳам мавжуд, аммо у даврда билан шакли бўлмаган. Жаидлар, хусусан, Қодирий асарларида иккала шакл ҳам барабар ишлатилиб турибди.



Учун кўмакчиси узоқ вақтлардан буюн деярли ўзгаришга учрамай келади, фақат шеърий матнларда баъзан қофия ёки ритм талаби билан -чун шаклида қисқартирилиши мумкин. /Мусулмонлар учун жаннатнинг баҳоси бир қўй, икки кишига бир ҳўкуз, туя бўлса ҳам майли. Қони чиқарилса кифоя. Хай, ҳай... ҳамма пайгамбарнинг уммати ичида бахтиёр Муҳаммад уммати. Хай, ҳай... бу давлат бизга етмасми, Муҳаммад умматидирмиз. [Қодирий Абдулла, 2014. – 880 б.]

Айрим олимларнинг таъкидлашича, ёрдамчи сўзларни мустақил сўзларга қўйидагилар яқинлаштиради:

- а) шаклан алоҳида ажралиб туриш;
- б) луғавий маънонинг мавжудлиги (от-кўмакчи, феъл-кўмакчида);
- в) кўпинча уларнинг мустақил сўзларга яқинлашиши, улардан келиб чиқиши.

Ёрдамчи сўзнинг грамматик морфемага ўхшаш томони уларнинг морфема каби мустақил номинатив функция бажармаслиги ([аммо], [ва], [сайин], [каби]), қўшимчасимон шаклда бўлиши ([-у], [-ю], [-да]; [-ки/-ким]; [-дек/-дай], [-ча]) ва бошқалар. Бироқ ёрдамчи сўзнинг грамматик морфемадан фарқли томони шундаки: улар ажралган ҳолда гап бўлаги, сўз бирикмаси ва гапда синтактик характердаги вазифа бажаради.

Азбаройи Худо айтингиз-чи, ҳуқуқ, деган нарса ўзи нима? Ҳуқуқ нимадан иборат? Гуваламики, уни биз майдалаб ҳожатимизга яратайлик?! Нима ахир? Бунинг жавобини — «ҳуқуқ» деган дарди бедавони бўйнига осиб олганлардан сўраймиз.

Гирмон ундай ҳунар кўрсатибдир, оқ подшоҳнинг бунча шаҳрини олибдир, деган хабарларга сира ишонгуси келмай: «Яхши, Гирмоннинг юз ўн беш газ тўпи бор, мен буни Гирмоннинг ўзидан-да яхшироқ биламен, аммо у гарқи оҳан бўлса ҳам Русиянинг бир тола мўйини кам қила олмайдир. Русия бунга ўхшаш Гирмоннинг бир юзи билан урушиб кўрган, оқ подшоҳ эмди эр назар қилган деб юрадир.

Шунингдек, “учун”, “ҳам” ёрдамчилари вақт таъсирида ўзгаришга учрамаган, аммо “лекин” боғловчиси “локин” тарзида қўлланган ўринлар ҳажвиялар матнларида кўзга ташланади: /Ҳозирда «таб бости» учун ҳар икки томон хўроз, каклик, қўчқор каби уруш одатлари орқали иш кўриб турсалар ҳам, лекин булар ит ўрнини босолмайдир. Бу томошада ўн минглаб халқ иштирок этса ҳам лекин итникидек ўзаро чиртинг пиртинглар бўлмади./ (А.Қ., 615)

Соф кўмакчилардан айримлари фонетик ўзгаришга учраган: /Болшевиклар ҳақинда маълумот эгаси бўлмагани учун ундан, бундан суриштурмоқга турди./ (А.Қ., 614)

Баъзан ҳақида кўмакчиси ҳам қўлланган ўринлар учрайди, аммо бутунгидан фарқ қилган ҳолда ўзгача қўлланган. Аслида қўйидаги жумлани бугунги адабий тил доирасида қўлланганини кузатмаймиз. Бироқ, бемалол жорий қилса бўлади, қолаверса, тежамкорликка шароит яратиб берувчи бундай морфологик шакллар жуда зарур: /...Оёгинга қараб юр!.. Кечаги газетда ҳақимда алжиганингни бу галча бола-чақанг ҳурматига кечирдим. Йўқса битта каллакесарга заказ берилган эди... Имзо.../ (А.Қ. 560.) Жумладаги “ҳақимда” кўмакчиси бутунги мулоқотда, албатта, менинг қаратқич шаклини талаб қилади, бироқ Қодирий ҳажвияларида бунга эҳтиёж йўқ. Мавжуд ёрдамчи сўзлар шаклий хусусиятига кўра:

- а) қўшимчасимон;
- б) соф ёрдамчи сўз;
- в) нисбий ёрдамчи сўз каби кўринишларга эга.



Кўшимчасимон ёрдамчи сўз ҳар учала ёрдамчи сўз таркибида учрайди. Кўмакчи орасида [-дек/-дай],[-ча], боғловчи орасида [-ки/-ким]; [-у], [-ю],[-да] аффикссимон юклама – боғловчи, юклама орасида [-ми], [-чи], [-а], [-я], [-ку],[-оқ/ёқ], [-да], [-гина] каби қўшимчага ўхшаш ёрдамчи сўзни учратиш мумкин. Кўшимчасимон ёрдамчи сўз шаклан қўшимчага ўхшайди, аммо ёрдамчи сўз вазифасини бажаради. [Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Абузалова М.2010. – 414 б.]

Бутун кўплаб маънодошларига эга бўлган ёрдамчи сўзларнинг ҳар бири муайян даврда фаол бўлган: *Худо учун илтимосимни рад қилма. Оилам ила яқингинадан бери бир балога йўликдик. Ёлғиз мангина эмас, бутун маҳалла ақли йўликдилар. Бу воқифага энди уч ойлар чамаси бўлди. Кундузлари ҳарчику нотинчлик билан ўткурамиз. Аммо кечалари! Сўрама биродар, бизнинг ҳолимизга мушуклар йигласун! Бир чимдим ухлаш йўқ, бутун кечаси жонсараклик. Ўзимизни ҳам қўябера, ҳаммадан ҳам бешикдаги болани айт... Эй, бечора-бечора, санинг нима гуноҳинг бор эди?!(А.К. 564.)*

Сайин кўмакчиси бир аср олдин ҳам морфологик, фонетик жиҳатдан ҳеч бир ўзгаришга учрамагани маълум бўлди: *Товушинг ўчқурнинг товушини эшиткан сайин бешикда ётқан гуноҳсизнинг ўтакаси ёрилиб шайтонлайдир. Эртасига бутун кун домла хўжа қилуб умримиз ўтадир... Бунинг маҳалласига дев дориган экан, деб ўйлай кўрма. Бу унинг олдида ҳеч нарса. Аждарҳо пайдо бўлғандир, деб ҳам ўйлама. Чунки биз аждар деганингдан ... оламиз, бу ўзи ажиб бир бало, хунук бедаво!*

Ўз даврида айирув боғловчилари ўрнини бошқа тил морфологик бирликлар бажарганига кўплаб мисоллар таҳлили орқали амин бўлинди: *Энди бўлмади, энди уйни ташлаб қочаман. Йўқ, у турсун – йўқ ман турай. Санга илтимос шулки, ўзингга яқин ердан бир ҳовли топ, ман кўчай шу маҳалладан, бошимни олиб кетай шу уйдан./ (А.К.,569.)*

Ёрдамчи сўз туркумлارининг вақт таъсирида морфологик шакл ва грамматик вазифаларидаги ўзгаришлар қуйида жадвал шаклида берилди:

3.1-жадвал

№	Кўмакчи	Боғловчи	Юклама
1	бирлан	локин	хам
	Билан кўмакчиси билан аралаш қўлланган.	Лекин боғловчиси билан аралаш қўлланган.	(фақат юклама вазифасида қўлланилган)
2	ҳақинда	йўкса	ёлғиз
	ҳақида кўмакчиси билан аралаш қўлланган	мобода, агар боғловчилари ўрнида қўлланган.	(ўз даврида фақат сўзининг ўрнида фаол бўлган)

Модал маъно ифодаловчи, субъектив баҳо ифодаловчи грамматик шаклларга доир ишларда ҳам -гина шундай шакл ясовчилар орасида бўлади. Қолаверса, -гина элементининг хусусиятларини ўрганишга бағишланган махсус тадқиқотлар мавжуд. Аксарият ишларда -гина омоним қўшимча сифатида берилади. Ш.Раҳматуллаев бунга қуйидагича изоҳ беради: 1) модал форма (субъектив баҳо формаси) ясовчи аффикс, 2) таъкид, чегаралаш ифодаловчи юклама-аффикс деб таърифланади. Бунинг исботи сифатида, биринчидан, -гина ифодалайдиган кучайтирув, чегаралаш маъноси билан



унинг субъектнинг турли муносабатини ифодалашди бошқа бошқа ҳодисалар экани кўрсатилса, иккинчидан, бу маъноларни ифодалашда „-гина“нинг сўзга қўшилиш тартиби ҳар хил бўлиши кўрсатилади: укамгина-укагинам, қизимгина – қизгинам каби. [Ҳожиёв, А. 1979. 31-б.]

Адабиётлар

1. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Фан ва технологиялар. 2010. – 414 б.
2. Қодирий А. Диёри бакр. Т., Янги аср авлоди НММ. Қодирий Абдулла, 2014. – 880 б.]
3. Ҳожиёв А. Семасиология. Ўзбек тили лексикологияси // Махсус муҳ. А.Ҳожиёв, А.Аҳмедов. – Тошкент: Фан, 1979. – 31 б.

HOZIRGI ZAMON NEMIS YOSHLARI SOTSIOLEKTIDA ANGLITSIZMLAR. ANGLICISMS IN THE SOCIOLOGY OF MODERN GERMAN YOUTH.

Narmatova Aijan Polatovna
National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
narmatova_1982@mail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilidan nemis tiliga kirib kelgan leksik birliklar haqida soʻz yuritiladi va ularning yoshlar sotsiolektida ishlatilishining oʻrni yoritilgan. Bundan tashqari yoshlar leksikasida koʻp ishlatiladigan anglitsizmlar misollari tariqasida berilgan.*

***Kalit soʻzlar.** Anglitsizmlar, yangi leksik birliklar, lingvistik, nutq.*

***Annotation.** This article discusses lexical units from English to German and their role in the sociology of youth. There are also examples of common Englishisms.*

***Key words.** Englishisms, new lexical units, linguistics, speech.*

Jamiyat rivojlanib borgani sari, zamonaviy texnologiyalarning kundalik hayotimizga kirib kelishi natijasida yangi leksik birliklar tilimizga keng qullanila boshlaydi. Ingliz tilining zamonaviy hayotimizdagi rolining oshishi sababli nemis tilida ham juda koʻp yangi soʻz va atamalar nutqda foydalanila boshlandi. Bugungi kunda barcha tillarda ingliz tili zamonaviy hayotimizda muhim ahamiyatga ega va biz koʻpincha ijtimoiy tarmoqlar, oʻyin, musiqa va sanʼat orqali ingliz tili qurshovidamiz. Shuning uchun ham hozirgi kunda yoshlar anglitsizmga moyil boʻlib bormoqda. Ushbu fikrga qarshi turuvchilar tomonidan buning isboti hali aniqlanmagan. Germaniyadagi koʻpgina universitetlarda tahsil olayotgan yoshlar nutqiga eʼtibor berar ekanmiz, ular nutqida ishlatilayotgan soʻzlarning aksariyat qismi ingliz tilidan kirib kelgan boʻlib, bunda nemis tilining ahamiyati kamayayotgandek tuyiladi. Germaniyaning chekka hududlarida esa anglitsizmga moyillik kamroq seziladi. Ular anglitsizmdan keng miqdorda foydalanayotgan yoshlarga qaraganda koʻproq tilning sofligini saqlab qolishga intiladilar. Shuning uchun bu mavzu turli bahs-munozaralarga sabab boʻldi va batafsil oʻrganishni taqozo etdi.



Til – millat ko'zguvidir. Uning o'zligini, ma'naviy qiyofasini ko'rsatib beruvchi bebaho boylikdir. Ona tilini muqaddas bilish o'zini, qadr-qimmatini, g'ururini anglash, tarixini, milliy qadriyatlarini hurmat qilish demakdir. Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tili muhim o'rin tutadi. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning ko'zguvidir. Hadisda “ Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir” deyiladi. Har bir xalq, millat o'z tiliga hurmat bilan qaraydi. Chunki til millatning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

Insoniyat tarixida bugungi kungacha 9000 dan ortiq til yo'qolib ketgan. Hozirgi kunda Yer sayyorasida 6809 ta til saqlanib qolgan. Aholi eng ko'p foydalaniladigan til sifatida-xitoy, ingliz va ispan tillari e'tirof etiladi. Lingvistlarning fikricha, hozirda ko'p qo'llanilayotgan til ingliz tili bo'lsa, XXI – asr o'rtalariga borib xitoy tili asosiy til bo'lib qolishi taxmin etilmoqda. Har bir mamlakatning bayroq, gerb, madhiya singari davlat ramzlarini belgilovchi eng muhim omillaridan biri – uning milliy tilidir. Shuning uchun, har bir xalq o'zining milliy tili taraqqiyoti va taqdiri uchun qayg'uradi. Xalqlar qanday bo'lmasin o'zining tili o'zi uchun azizdir.

Leksika eng harakatchan, doim rivojlanuvchi komponent hisoblanadi. Jamiyatda yuz bergan yangiliklar, rivojlanish va o'zgarishlar leksikada o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, leksika va uning har xil qatlamlari o'z xarakteriga ko'ra turlicha “tovlanib”, o'ziga xos lisoniy qiymat kasb etadi. Bu narsa leksikaning o'ziga xos murakkab lisoniy sath ekanligidan dalolat beradi. Har bir xalq va uning tilining boshqa xalqlar va ularning tili bilan o'zaro aloqadorligi ham leksikada aks etadi. Shu bois til leksikasini ko'zguga o'xshatish joiz bo'ladi. Ko'zgu unga qaratilgan har bir narsaning aksini namoyish etgani kabi, til leksikasi ham ijtimoiy va ruhiy olamning barcha xususiyatlarini namoyish qiladi. Shu sabab ham jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy olamidagi har bir yangilik, har bir o'zgarish eng avvalo lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, leksika ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlarni, xalq bosib o'tgan tarixiy yo'lning izlarini o'zida aks ettiradi. Ayni paytda muayyan tilning lug'at tarkibini tadqiq etishda chet tili elementlarining mavqei va amal qilish doirasi, o'ziga xos xususiyatlarini ana shu nuqtai-nazardan tahlil etish zaruratini paydo qiladi. Shuni aytish kerakki, lug'at tarkibining ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettirishida o'ziga xos qonuniyatlar amal qiladi.¹³

Anglitsizmlar - bu bizning kundalik tilimizda ishlatiladigan leksik elementlar. Ular o'zlarining zarurligi to'g'risida doimiy bahs-munozaralar bilan o'ralgan. Tilshunoslar asosan ularning afzalliklarini qadrlashsa, lingvistik puristlar ularni tahdid deb bilishadi va ularni olib tashlash yoki cheklashga harakat qilishadi. So'rovnomanini tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot nemis tilidagi anglitsizmlarga bo'lgan munosabatni taqdim etadi. Shunday qilib, ishtirokchilar yoshining ularning munosabatga ta'siri, ayniqsa, e'tiborga qaratilgan. So'nggi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilining tarqalishi, nemis tilidagi anglitsizm va lingvistik purizm bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot berib, keksa avlodlarning anglitsizmga bo'lgan munosabati salbiyroq bo'ladi. "Yosh" ijtimoiy xarakteristikasiga e'tibor qaratilgandek, kelgusi tadqiqotlar sinfga mansubligi yoki ta'limning anglitsizmga bo'lgan munosabatiga ta'siri muhokama qilinishi mumkin.

¹³ Nosirova Z. Arab Tilidan O'zlashgan So'zlar Semantikasi. - Andijon, 2017, B.12



Ingliz tilidan nemis tiliga kirib kelgan soʻzlarda talaffuz qoidalari unchalik farq qilmaydi. Nemis tilida oʻzgarishga uchraydi. Ingliz tilidagi atamalar: *das Baby, der Babysitter, babysitten (to babysit), das Bodybuilding, das Callgirl, der Clown, der Cocktail, der Computer, fit (in good shape), die Garage, das Golf (der Golf is "the gulf" or a VW model), das Hobby, der Job, joggen (to jog), der Killer, killen (to kill), der Lift (elevator), der Manager, managen (to manage), das Musical, der Playboy, der Pullover, der Rum, der Smog, der Snob, der Streik, das Team, der Teenager, das Ticket, der Tunnel, der Trainer (coach), der Waggon (train car).*

Nemis tilidan ingliz tiliga kirib kelgan soʻzlar talaygina. Bolalar bogʻchaga borishadi. Nemis tilidagi bogʻcha maʼnosini bildiruvchi *kindergarten* soʻzi ingliz tilidagi *children's garden* birikmasi orqali kirib kelgan va zamonaviy ingliz tilida ham *kindergarten* soʻzi ishlatiladi. Nemis tilidan ingliz tiliga koʻchib oʻtgan soʻzlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: *blitz, blitzkrieg, cobalt, dachshund, delicatessen, ersatz, frankfurter, glockenspiel, hinterland, kaffeeklatsch, Munster and Limburger* (Germaniyadagi shaharlar nomiga pishloqlar), *pilsner (glass, beer), pretzel, quartz, rucksack, sauerkraut, schnaps, (apple) strudel, waltz, wiener, brake, dote, tackle.* Oilaga tegishli soʻzlar, tana aʼzolari va baʼzi koʻp ishlatiladigan soʻzlarga misollar: *der Arm, der Ball, der Bruder, die Hand, das Haus, das Ende, das Gold, gut (good), der Finger, lang, der Mann, die Maus, Montag (Monday), die Mutter, der Vater, die Schwester (sister), der Sohn, die Tochter (daughter), das Wasser, das Wort (word).*

Har ikki ingliz va nemis tiliga lotin tilidan qarz olish jarayoni qiyinroq kechgan. Lotin tili Oʻrta asrlarda Germaniyadagi va Yevropaning qolgan qismlaridagi universitetlarda oʻqitilgan. Shuning uchun bunday soʻzlar juda eskirgan va asrlar davomida turli oʻzgarishlarga uchragan. Shuningdek, bunday soʻzlar maʼnosiga teng keladigan muqobil variantlar kam boʻlgan. Masalan, lotin tilidan nemis tiliga kirib kelgan *Birne* soʻzi lotin tilidagi *pirumdan* kelib chiqqan va ingliz tilidagi *pear* soʻziga muqobil boʻla oladi. Baʼzi bir lotin tilidan kirib kelgan soʻzlar: *aktiv, der Altar, der Atlas, die Disziplin, der Esel (ass, donkey), das Examen, die Feige (fig), das Fieber (fever), der Kaiser (Caesar, emperor), die Kammer (chamber), die Kamera, der Kanzler (chancellor), der Keller (cellar), das Klima, das Kloster (cloister), das Kreuz (cross), die Lilie (lily), der Markt (market), die Meile (mile), das Münster (minster, church), die Münze (money, coin), opfern (to offer, sacrifice), die Pforte (portal), das Pfund (pound), die Rose, der Student/die Studentin, die Tafel (tablet), der Wein (wine).*

Nemis tilida anglitsizmga boʻlgan munosabat haqida maʼlumot toʻplash uchun soʻrovnomatuzildi va oʻtkazildi. Soʻrovning maqsadi nemislarning munosabatini aniqlash edi, barcha savollarni nemis tilida berildi. Yaxshilab tushunish maqsadida inglizchaga tarjima toʻrtburchak qavsda beriladi. Soʻrov quyidagi oʻnta savoldan iborat boʻldi:

1. Wie alt sind Sie? - Yoshingiz nechida?
2. Welche Geschlecht haben Sie? - Siz qaysi jinsga mansubsiz?
3. Welche Folgen hat die schnelle Verwendung von Anglizismen? - Anglitsizmlarni tez-tez ishlatish qanday oqibatlariga olib keladi?
4. Bewerten Sie die Notwendigkeit der folgenden Anglizismen - Qoʻyidagi anglitsizmlarning zarurligini baholang: *App, Charts, T-Shirt, Musical, Server.*
5. Bewerten Sie die Notwendigkeit der folgenden Anglizismen - Quyidagi anglitsizmlarning zarurligini baholang: *Brifing, Mexanizm menejeri va sifat menejmenti.*
6. Bewerten Sie die Notwendigkeit der folgenden Anglizismen: - Quyidagi anglitsizm zarurligini baholang: *Pochta qutisi, bakalavr, elektron pochta va Butler.*



7. Empfinden Sie Anglizismen im Deutschen als störend? - Siz anglitsizmlarni nemis tiliga tasir qiladi deb o'ylaysizmi?
8. Worin liegen Ihrer Meinung nach die Vorteile der Nutzung von Anglizismen im Deutschen? - Nemis tilida anglitsizmlardan foydalanishning afzalliklari nimada deb o'ylaysiz?
9. Worin liegen Ihrer Meinung Nachteile der Nutzung von Anglizismen im Deutschen? - Nemis tilida anglitsizmlardan foydalanishning qanday kamchiliklari bor deb o'ylaysiz?
10. Würden Sie ein Sprachschutzgesetz befürworten, Welche die Nutzung von Anglizismen beschränkt? - Anglitsizmlardan foydalanishni cheklaydigan tilni himoya qilish to'g'risidagi qonunni qo'llab-quvvatlaysizmi?

Ushbu savollarni turli toifalarga bo'lish mumkin. Savol 1, 2, 4, 5, 6, 7 va 10 bitta tanlov savollari. 3-savol - ko'p tanlovli savol, 8 va 9-savol esa ochiq matnli savollardir. 3-savolni tuzishda allaqachon mavjud bo'lgan so'rovnomaga o'tkazilib, uning natijalarini ushbu so'rov natijalari bilan taqqoslash uchun uning turli xil variantlari ko'chirildi.

Ingliz tili zamonaviy hayotda muhim rol o'ynaydi va biz doimo ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar, musiqa va boshqalar orqali uning qurshovida bo'lamiz. Aksariyat holatlarda yoshlar anglitsizmlarga moyil bo'lib, bu hali isbotlanmagan. Men o'zim kundalik hayotimda bir nechta inglizcha so'zlarni qo'shganimni angladim. Germaniyadagi universitetdagi ko'plab talabalar anglitsizmlarni o'z nutqlarida ko'p ishlatishadi. Quyi Avstriyada esa tez-tez inglizcha so'zlardan foydalanganlik uchun tanqid qilishadi. Ushbu masala ko'rib chiqilmoqda va chekka hududlardagi o'spirinlarning ularga nisbatan munosabati o'rganildi.

Anglitsizmlar deyilganda odatda odamlarning hayoliga avtomatik ravishda yoshlar tili degan tushuncha keladi. Biroq, o'smirlar tomonidan qo'llaniladigan anglitsizmlar miqdori bu sababni oqlamaydi. Aslida qarz olishlar ko'pincha professional tillarda yozma ravishda yuzaga keladi.

Bundan tashqari, ba'zi olimlar Yoshlar tilidagi anglitsizmlar madaniy transferning natijasi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, yoshlar nutqida madaniy jihatdan olib qaralganda zamonaviylik belgisi sifatida turli vulgarizmlar, kinoya so'zlar va jargon so'zlardan foydalanish ko'payib bormoqda.

Anglitsizmlar aslida mavjud bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirish uchun nemis tiliga qo'shilgan inglizcha so'zlardir. Shunday qilib, yoshlar nutqida ular asl nemis tilidagi so'z boyliklarini siqib chiqarmaydilar, balki narsalarni nomlash va ularsiz tushunish qiyin bo'lgan faktlarni ifodalash uchun imkoniyatlar ochadilar. Quyidagi ro'yxat yoshlar tomonidan ishlatiladigan anglitsizmlar haqida tushuncha beradi. Atamalar doimiy ravishda moslashtirilib kelinayotganligi sababli, bu yerda keltirilgan barcha ro'yxatlar ma'lum bir tarzda dinamik bo'lganligi bilan ajralib turadi, ya'ni ularni har doim o'zgartirish mumkin. Bular quyidagilar:

Aerobic American Football Baby/Babyphon/Babysitter Applet (App) Assembler Audit Autocross/Autoscooter Actionfilm Band Bar/Barkeeper Beat Beefsteak Biochip Bit Blazer Blog/bloggen/Blogger Bluejean Boiler Boom Boss Box/Boxenstopp boxen/Boxer boykottieren Broiler Brunch Buggy CAD Cartoon Charter/Charterflug Charts Chip/Chipkarte Chat Camcorder Cape Chopper Clown Cockpit Cocktail/Cocktailkleid/Cocktailparty Container Couch Countdown Crew Darts Derby Dimmer/dimmen Disco/DJ/Disk Jockey Dope/dopen/Dopingmittel Double Dribbling Drops



*Dumpinglohn/DumpingpreismEcstasyErdnussflipEssayfair/FairnessFan/FanClub/FanmeileFestival
fit/Fitnessstudio Fitting fixen/Fixer Flip/Flipper/flipping Flirt/flirten Flop Folklore Frisbee
Gang/Gangster googeln/googlen Grapefruit Groupie
Haarspray Hard Rock Hip Hop Hippie Hit Hobby Hostel/Hostess Hotdog
ICE (Intercity-Express) in Infobox Internet Interview Intranet Jeans Jeep Jetlag/Jetset Jockey Joint
Joker Ketchup kicken Kickstarter Knickerbocker K.O.
lasern/Laserdrucker leaken Logo Lohndumping Lokald Derby Looping lynchen/Lynchjustiz Made in
Germany Mikrochip Minijob Mob/Mobbing/mobben Modem Monster Musical Offsetdruck okay, O.K.
Oldtimer Overall Parser/parsen Party/Partygirl/Partyservice PC (Personal Computer) Pellet Pidgin
Pixel Playboy Pop/Popper Pub Punker Puzzle Quiz/Quizmaster Rallye Rap/Rapper Roastbeef Rowdy
Rugby Rumpsteak Safe Sandwich Science FictionServer Sex/sexy Shorts Single Sketch Slang
Slipper Slum Smog SMS (short message service) Snob Soul music Sport SpraySprint/sprinten/
SprinterSteak Steuersplitting Steward/StewardessStraps
Stress/Stresstest/stressig Striptease surfen/Surfbrett/Surfer SwingTeamTest Ticker Toastbrot/Toaster
Tour/touren Trainer/Training Trenchcoat Trend tricksen Trip T-Shirt Turf unfair Vamp Van
versnobt Videorecorder Werbespot
Yuppie zappen/Zapper Zoom/zoomen¹⁴*

Quyidagi barcha ma'lumotlardan quyidagi xulosalarga ega bo'ldik:

- Ingliz tilidan kirib kelgan olinma so'zlar zamonaviy texnologiyalar va internet bilan bog'liq, ammo bular mahalliy nemis tilida so'zlashuvchilar tomonidan ishlatiladigan olinma so'zlarga aylangan. Ba'zan ingliz tilidan olingan olinma so'zlar nemis tilida *anglizismen* deb nomlanadi. Aksariyat holatlarda norasmiy nutqda inglizcha nemis qarz so'zlari "Denglisch" yoki Deutsch so'zlarining portmantosi deb ataladi.

- Bizning kundalik tilimizda ishlatiladigan leksik moddalar "anglitsizmlar" deb nomlanadi. Anglitzim qabul qiluvchi tilining lug'atida o'z shakli (imlosi, talaffuzi, morfologiyasi yoki uchtasidan kamida bittasi) bo'yicha taniqli inglizcha bo'lgan, ammo ob'ekt sifatida qabul qilingan so'z yoki iboradir.

- Anglitsizmlar aslida mavjud bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirish uchun nemis tiliga qo'shilgan inglizcha so'zlardir. Yoshlar nutqida ular asl nemis tilidagi so'z boyliklarini siqib chiqarmaydilar, balki narsalarni nomlash va ularsiz tushunish qiyin bo'lgan faktlarni ifodalash uchun imkoniyatlar ochadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Kettmann B., Anglizizm in German, Enrichment or Inrtusion, G.-2002
2. Ehmann H., Das neuste Lexikon der Jugendsprache. München. Verlag C.H.Beck.2001
3. Iskos A., Lenkova A., Deutsche Lexikologie. - Moskau, 1970
4. Neuland E., Jugendsprache. Bedrohung oder Bereicherung der Standartsprache. - München, 1997
5. Pütz D., Anglizismen Deutsch erklärt. - Köln : Cornelius Communication, 3. Auflage, 2008
6. Schmitt P., Anglizismen in den Fachsprachen: Ein pragmatische Studie am Beispiel der Kerntechnik. - Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag, 1985.

¹⁴ www.kindersache.de



7. Susanne A., Funktionen von Jugendsprache. Max Niemeyer Verlag. – Tübingen, 1998.
8. Yang W., Anglizismen im Deutschen, am Beispiel des Nachrichtenmagazins Der Spiegel. - Tübingen : Max Niemeyer Verlag, 1990.
9. Hamroev M., Ona tili. – T., 2017
10. Nazarov P.J. Lug'at boyligini oshishda o'zlashgan so'zlarning tutgan o'rni. Samarqand, 2008

“ЎГАЙ ОНА/СТЕРМОТНЕР” ЛЕКСИК БИРЛИГИНИНГ СТРУКТУР-СЕМАНТИК ТАҲЛИЛИ

Жалолова Феруза Нормуродовна
Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ докторанти
Тел.: 94 693-03-09, E-mail: missjalolova@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада “ўгай она/stepmother” концептларининг қиёсий структур-семантик тузилиши кўриб чиқилади ва уларнинг ўхшашлик ва фарқли жиҳатлари ёритилади.

Калит сўзлар: лексик бирлик, сўз бирикма, компонентли таҳлил методи, концепт, лексик маъно.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ МАЧЕХЕ

Жалолова Феруза Нормуродовна
Докторант НУУз имени Мирза Улугбека
Тел.: 94 693-03-09, E-mail: missjalolova@mail.ru

Аннотация. В статье исследуется сравнительная структурно-семантическая структура понятий «мачеха», их сходства и различия.

Ключевые слова: лексическая единица, фраза, метод компонентного анализа, концепт, лексическое значение.

STRUCTURAL-SEMANTICAL ANALYSIS OF THE LEXICAL UNIT OF STEPMOTHER

Jalolova Feruza Normurodovna
Doctoral Researcher of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek
Tel.: 94 693-03-09, E-mail: missjalolova@mail.ru

Abstract. This article discusses the comparative structural-semantic structure of the concepts of “stepmother” and their similarities and differences.

Key words: lexical unit, phrase, component analysis method, concept, lexical meaning.

Кириш. Лексик-семантик гуруҳларни ўрганишда компонентли таҳлил методини қўллаш энг махсуддор усуллардан бири ҳисобланади. Маълумки, семантик майдон (мантиқий-лисоний гуруҳ) муайян семантик компонент асосида ажратилади. Қариндошлик атамалари “қариндошлик”нинг семантик таркибий қисмлари асосида бирлашади. Тизимли усул синхрон-қиёслаш усули билан бирга қўлланади ва у турли

тузилишдаги тилларнинг қариндошлик атамалари тизимини ўрганишда жуда қулай ва самаралидир.

Асосий қисм. Сўз бирикмаси семантик яхлитлик хусусиятига эга бўлган структурадир ва ушбу семантик структуранинг ҳосил бўлиши ҳамда лисоний фаолият жараёнида турли кўринишда намоён бўлиши ҳолатларини ўрганиш сўз бирикмалари назариясининг муҳим қисми ва талабидир. Шунини инобатга олган ҳолда ҳозирги замон ўзбек тилидаги сўз бирикмасининг “сифат+от” (A+N) модели асосида ясалган “ўтай она” ҳамда инглиз тилидаги “от+от” (N+N) моделига тегишли қўшма сўз “stepmother” концептларининг қийсий структур-семантик тузилишини ўрганишга доир кузатишларимиз натижаларини баён қилмоқчимиз. Аммо “stepmother” концептнинг этимологиясига эътибор қаратадиган бўлсак, “step” сўзи ҳам қачонлардир сифат сўз туркумига мансуб бўлган.

Ўзбек халқ эртақларида асосий ва асосан салбий “қаҳрамон”лардан бири ҳисобланган *ўтай она* концепти икки элементдан ташкил топан, унинг биринчиси “*ўтай*”, иккинчиси эса “*она*” лексик бирликларидир. Сўз бирикмаси доимо икки қисмдан: ҳоким ва тобе қисмдан иборат бўлади. Кенгаювчи бўлак ҳоким, кенгайтирувчи бўлак эса тобе саналади. Тобе қисм ҳоким қисм талаб қилган грамматик шаклда келади. Компонентларининг лексик маънолари замирида сўз бирикмасининг семантик маъноси шаклланади. Синтактик бирликлар фақат шаклий жиҳатдангина эмас, балки мазмуний жиҳатдан ҳам ўзаро боғланади. Икки синтактик шаклнинг бир-бири билан тўғри боғланиши учун фақат шаклий боғланишнинг тўғрилиги кифоя қилмайди. Тобе қисм билан ҳоким қисм тўғри боғланиши учун мазмуний мосликка ҳам эга бўлиши керак. Тобе ва ҳоким қисм ҳар иккисидан такрорланадиган умумий семага эга бўлиши керак. Ана шу умумий сема тобе ва ҳоким қисмларнинг мазмуний боғланиши учун асос бўлади.

Мазмуний бирликларнинг кетма-кет муносабати мазмуний синтагматик муносабатни ҳосил қилади. Синтактик бирликларнинг мазмуний муносабати киши онгида акс этган моддий дунёдаги элементларнинг ўзаро муносабати дир. Масалан, предмет ва унинг белгиси (таъми— мазаси, хусусияти, ранги, миқдори ва бошқалар) ўртасидаги муносабат, ҳаракат ва унинг белгиси (тарзи, сабаби, ўрни, пайти ва шу кабилар) ўртасидаги муносабат, ҳаракат ва унинг субъекти ўртасидаги муносабат, ҳаракат ва унинг объекти ўртасидаги муносабат ва бошқалар.[1]

“Сифат+от” (A+N) моделидаги “ўтай она” сўз бирикмаси элементлари ўзаро атрибутив муносабат асосида ясалган бўлиб, атрибутив муносабат белги + предмет семантик моделидаги сўз бирикмаси учун хосдир. Сўз бирикмаси маълум гап бўлакларига кенгайишидан ҳосил бўлади. Шунинг учун ҳам ҳар қандай сўз бирикмаси тил бирлиги бўлган сўзнинг кенгайиш моделининг нутқ босқичида юзага чиқиш имкониятларидан бири саналади. У тил тизимининг лексик-грамматик бирлиги сифатида мустақил сўзнинг боғланиш имкониятидир. Нутқий жараёнда сўзнинг кенгайиш модели аниқ лексик бирликлар билан тўлдирилган ҳолда сон-саноксиз реал сўз бирикмалари орқали намоён бўлади. Бевосита кузатиш босқичидаги ҳар қандай сўз бирикмаси кенгаювчи бўлакнинг категориал хусусияти билан хосланган боғланиш модели асосида рўёбга чиқади. Кенгаювчи бўлакнинг қайси сўз туркумига мансублиги ҳамда қандай категориал белгига эга бўлиши: унинг қандай сўзлар билан кенгайиб



келиши мумкинлигини ҳам кўрсатади, демак, *ўгай* сўзининг репрезентлари фақатгина сифат сўз туркумига, *она* сўзиники эса от сўз туркумига тегишли бўлмоғи лозим.

Қисмларининг эркин ёки боғлиқлигига кўра сўз бирикмалари эркин ва боғлиқ бирикмаларга бўлинади. Эркин бирикма қисмлари осон бўлинади, боғлиқ сўз бирикмалари қисмлари ўзаро зич алоқага киришиб, гапта бир гап бўлаги ўрнида келади. Бундай бирикмалар фразеологик бирикмаларга яқин келади, лекин синтактик алоқанинг сақланиши билан фразеологизмлардан фарқланади. Биз таҳлилга тортган *ўгай она* сўз бирикмаси эркин сўз бирикмаси бўлиб, эркинлиги унинг компонентларини ўзгартириш мумкинлиги билан асосланади:

ўгай она – *туққан она* – *бегона она* – *ёш она* – *кўп болали она* ва ҳоказо,

ўгай она - *ўгай қиз* - *ўгай бола* – *ўгай ота* – *ўгай фарзанд*... репрезентлар асосий элемент ўрнини эгаллаши мумкин бўлган бу каби эркин сўз бирикмаларини чексиз яратиш мумкин, бунда семантика ўзгаради.

ўгай она – компонентларини алоҳида таърифлайдиган бўлсак:

она – от сўз туркумига мансуб; предметни номловчи маънога эга; *ўгай* – сифат сўз туркумига мансуб; предмет белгисини номлайди.

“Она” лексемаси туб лексема, чунки у икки бўғиндан ташкил топган. Ўзбекча туб лексемалар асосан бир ва икки бўғинли бўлади. Туб лексеманинг ифода плани деганда дастлаб унинг қайси фонемалар билан ифодаланиши назарда тутилади. Туб лексемаларда ифода плани деб уларнинг гавдаси бўлиб хизмат қиладиган фонемалар тузумига айтилади. (Тузум қайси фонемаларнинг қандай тартибда жойлашиб бир бутунлик ҳосил этишидир.) Туб лексеманинг ифода планига боғлиқ ҳодисалардан бири – уларнинг бўғин тузилиши. *Она* лексемаси уч фонемали бўлиб, *унли + ундош + унли* тузумига эга.

Бирикма деганда, одатда, икки мустақил лексеманинг ўзаро грамматик ҳамда семантик муносабатга киришуви асосида тузиладиган синтактик бирлик тушунилади. Бунда грамматик жиҳатдан биринчи қисм тобе, иккинчи қисм ҳоким бўлиб, тобе қисм сўзшакл билан, ҳоким қисм эса лексема билан ифодаланади (бундай лексема маълум шакл олган бўлиши мумкин, лекин сўзшакл даражасида грамматик шаклланмайди). Масалан, *ўгай она* эркин бирикмасининг қисмларини чизмада шундай кўрсатиш мумкин:

$$\begin{bmatrix} (\text{ўгай}) & (\text{она} =) \\ \vdots & \vdots \\ \text{сўзшакл} & \text{лексема} \end{bmatrix} =$$

Луғавий бирликнинг мазмун плани икки ҳодисадан — луғавий маъно ва стилистик (эмоционал-экспрессив) баҳодан таркиб топади. Луғавий маъно лексемага нисбатан *лексик маъно* деб юритилади.

Лексик маъно билан у билдирадиган воқелик бошқа-бошқа ҳодисалардир. Лексик маънода воқеликдаги нарсa, белги ёки шулар орасидаги муносабатнинг ўзи эмас, балки шулар ҳақидаги тушунча акс этади. Шунга кўра лексик маъно деб, одатда, тушунча таъкидланади. Лексик маъно билан тушунча ўзаро узвий боғлиқ. Аммо бу боғлиқлик асосида уларни тенглаштириш ярамайди. Лексик маъно – тил қурилишига хос ҳодиса, тушунча – тафаккурга хос ҳодиса. Буларнинг ҳар иккиси умумлаштириш, абстракция асосида туғилади. Лекин тушунча фикрлаш қобилиятининг натижаси сифатида инсонга нисбатан белгиланса, лексик маънога хос умумлаштириш ҳар бир



тилинг ўз доирасида воқе бўлади. Шунга кўра лексик маъно ҳар бир тил учун, одатда, хусусий бўлади. Кенгроқ ёндашсақ, сўз билан тушунча орасидаги муносабат анчагина мураккаб. Бир томондан, ҳар бир сўз маълум маънони билдиради, аммо ҳар бир сўзнинг тушунча англатишини қуттиш тўғри келмайди (тушунча англатиш номловчи сўзларга хос хусусиятдир). Иккинчи томондан, бир сўз (лексема) икки ва ундан ортиқ тушунчанинг ифодаси бўлиб хизмат қила олади: кўп маъноли лексеманинг ҳар бир маъноси айрим-айрим тушунчани англатади. Масалан, кўз лексемасининг “*кўриш аъзоси*” маъноси бир тушунчани, “*игнанинг ип ўтказиладиган тешиги*” маъноси иккинчи тушунчани, “*узукдаги қимматбаҳо тош*” маъноси бошқа бир тушунчани англатади [4].

Лексик маъно идеал ҳодиса деб талқин қилинади. Бу идеал ҳодисани моддийлаштириш йулларидан бири лексик маънони семантик қисмларга парчалаб ўрганиш бўлиб, у *семик таҳлил усули* деб юритилади. Шу усул билан фарқланадиган ҳодиса *сема* дейилади (юнонча *sema* — “белги”). Семик таҳлил усулидан дастлаб лексик бирликларни турлича семантик гуруҳлар (тематик, лексик-семантик гуруҳлар)га бирлаштиришда фойдаланилди. Масалан, от туркумига мансуб бўлган лексемалар орасидан ишимизда таҳлилга тортилган “она” лексемасини семик таҳлил қилиб кўрамиз: “*онанинг ҳаёти ва фаолияти номлари*” тематик гуруҳи ажратилади. Бундай лексемалар ушбу тематик гуруҳга *она, ҳаёт, фаолият* семалари асосида бирлашади. Бу тематик гуруҳдан, ўз навбатида, бир қанча кичикроқ ҳажмли тематик гуруҳлар ажратилади. Ана шундай гуруҳлашда асосга лексик маъно олинса, булар *лексик-семантик гуруҳ* деб юритилади. Тематик гуруҳлар, одатда, от туркуми лексемалари бўйича белгиланса, лексик-семантик гуруҳлар бошқа туркум лексемаларига кўра ҳам белгиланади. Кўринадик, маълум бир сема лексемаларни тематик (ёки лексик-семантик) гуруҳга бирлаштиришда асосга олинади ва бундай сема умумий, *бирлаштирувчи* (интеграл) *сема* деб юритилади; айти шу сема ҳажми катта гуруҳдан ушбу тематик (лексик-семантик) гуруҳни ажратиш олишда *фарқловчи* (дифференциал) сема бўлиб хизмат қилади. Тематик (лексик-семантик) гуруҳларни белгилашда фойдаланилган семик таҳлил усули кейинчалик лексик маъно таркибини таҳлил этишга ҳам татбиқ қилинди.

Масалан, семик таҳлил усули билан *она* лексемасининг лексик маъноси таркибида қуйидагича семаларни ажратиш мумкин: 1) “*киши*”, 2) “*аёл*”, 3) “*туғишган*”, 4) “*катта ёшли*”. Лексик маъно таркибига мансуб бўлгани сабабли бундай сема *идеографик сема* деб юритилади (юнонча *idea* — “тушунча”, *graphike* — “ёзув”). Лексик маъно таърифи идеографик семалар асосида тузилади: *она* — “*ёши катта туғишган аёл киши*”. Кўринадик, лексик маъно таърифига идеографик семаларни тўлиқ ва айнан киритиш шарт эмас, улардан зарур ва мақбул тарзда фойдаланилади.

Лексеманинг мазмун планида, лексик маънодан ташқари, услубий баҳо ҳам ҳисобга олинади. Услубий баҳо шу лексик маънога суянади, лексик маънони қуршаб туради. Асли услубий баҳо ҳақида лексемани яхлитлигича олиб эмас, балки конкрет бир лексик маънони назарда тутиб гапириш тўғри. Ҳақиқатда, услубий *баҳо* бир лексеманинг лексик маъноларига кўра ҳар хил бўлиши мумкин. Шу сабабли бир лексеманинг лексик маънолари ҳатто турли нутқ кўринишларига хосланган бўлиб, ҳам чиқади. Лексик маънони қоплаб турувчи услубий (эмоционал-экспрессив) баҳо ҳам лексеманинг мазмун планига мансуб семантик қисм деб қаралади ва *услубий сема* деб юритилади. Лексеманинг мазмун планида, идеографик ва услубий семалардан



ташқари, яна бир сема қатнашади. Ҳар бир лексема маълум бир туркумга мансуб бўлади ва бу мансубликни лексемадан англашиладиган лексик маъно белгилаб туради. Лексик маънодан келиб чиқиб белгиланадиган бундай семантик қисм *туркумлик семаси* (категориал сема) дейилади. Масалан, *она* лексемаси от туркумига мансуб, чунки бу “предмет” маъносини англатади; *ўғай* лексемаси сифат туркумига мансуб, чунки у “предметнинг белгиси” маъносини англатади ва бошқалар. Лексик маъно асосида ажратиладиган “предмет”, “предмет белгиси” каби семантик қисмлар туркумлик семаси бўлиб, бундай сема ҳам, идеографик сема каби, лексеманинг семантик мазмунида қатнашади. Хуллас, лексеманинг мазмун плани таркибида уч хил сема ажратилади: идеографик сема, услубий сема, туркумлик семаси.

Фраземада икки ва ундан ортиқ лексема, ўз лексик маъно мустақиллигини йўқотган ҳолда, бир умумий маъно марказига буйсунади, фраземадан яхлитлигича англашиладиган маънони гавдалантириш учун хизмат қилади. Фраземадан англашиладиган маъно унинг таркибидаги лексемалардан англашиладиган маъноларнинг оддий (арифметик) йиғиндиси бўлмай, умумлашма, устама маъно, шу билан бирга, кўчма маъно сифатида гавдаланади. Масалан:

- *Ҳосилнинг ўғайи бўлмайди. Тез-тез қимирланглар. Ёгин-сочин бошланмасдан, йиғиштириб олайлик.*

- *Вой-вой, Гулнора синглингни Азизбойниқидан олиб чиққунимча нақ она сунтим оғзимга келди.* [6]

- *I lost my mother when I was 7 and they put her in a mental hospital. My brother and I watched her being taken away in a strait jacket. That's something you never forget. And my stepmother was like in the movie 'Precious.' I couldn't handle it. So I said to myself, 'I don't have a mother. I don't need one. I'm going to let music be my mother (Quincy Jones).*

Шунингдек, *она ватан, она юрт, она табиат, она тили, она тупроқ* лексик бирликларида ҳам кўчма маъно англашилади.

Тил бирликлари бир ёки бирдан ортиқ маънони англатади. Бир маънони англариш ҳодисаси *моносемемия*, бундай хусусиятли тил бирлиги *моносемантик бирлик* дейилади, (юнонча), *monos* – “бир”, *sema*, *semeion* – “белги”, *semantikos* – “билдирувчи”). Бирдан ортиқ маънони англариш ҳодисаси *полисемемия*, бундай хусусиятли тил бирлиги *полисемантик бирлик* дейилади (*polys* – “кўп”). Барча тил бирликлари моносемантик (бир маъноли) ва полисемантик (кўп маъноли) деб иккига гуруҳланади, булардан полисемантик тил бирликлари алоҳида диққат билан ўрганишни талаб қилади. Инглиз тили сўзлари ўзларининг полисемантиклик хусусиятлари билан ажралиб турадилар. Биз таҳлилга тортган “stepmother” концепти икки сўзнинг бирлашувидан тузилган қўшма сўз бўлиб, биринчи элементи *step* сўзининг луғатда от сўз туркуми сифатида 11 та маъноси, феъл сўз туркуми сифатида эса 10 та маъноси келтирилган: *step – measure, footstep, pace, stride, stair, gradation, ston's throw, distance, footfall, tone, interval, footmark, footprint, dancestep, go, move, travel, locomote, tread, walk, lay, put, set, pace, etc.* [3]

Old English *steop-*, with connotations of "loss," in combinations like *steopcild* "orphan," related to *astiepan, bestiepan* "to bereave, to deprive of parents or children," from Proto-Germanic *steupa-* "bereft" (source also of Old Frisian *stiap-*, Old Norse *stjup-*, Swedish *styv-*, Middle Low German *stef-*, Dutch *stief-*, Old High German *stiof-*, German *stief-*), literally "pushed out," from PIE *steup-*, from root (s)*teu-* (1) "to push, stick, knock," with derivatives



referring to fragments (see [steep](#) (adj.)). Barnhart suggests the forms in *-f-* are by assimilation of the first sound in following words for "father."

Etymologically, a *stepfather* or *stepmother* is one who becomes father or mother to an orphan, but the notion of orphanage faded in XX c. and came to denote simply relation through marriage. For sense evolution, compare Latin *privignus* "stepson," related to *privus* "deprived."

Прото-Германча *steupa-* "bereft" дан "astiepan, bestiepan" ни ўлдириш, ота-онасидан ёки фарзандидан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлган "steopcild" етим сингари комбинацияларда *йўқотиш* деган маънога эга бўлган қадимги инглизча *steop-* ўзагига эга. Қадимги Швеция тилидаги *stuv-*, Ўрта асрларга тегишли немис тилидаги *stef-*, Голландия тилидаги *stief-*, Қадимги Юқори Герман тилига мансуб *stiof-*, Германча *stief-*, том маънода "итариб юборилган", Прото-Ҳинд-Европа тилларига тегишли *steup-* ўзагидан яралган. Барнхарт "отаси" деган сўзни ифодалаш учун биринчи товушни ўзлаштириш орқали *-f-* шаклини таклиф қилади.

Ушбу концептнинг иккинчи элементи *mother* сўзининг эса луғатда от сўз туркуми сифатида 5 та маъноси, феъл сўз туркуми сифатида эса 2 та маъноси келтирилган: *mother - female parent, barm, yeast, a term of address for an elderly woman, mother superior, inspiration, fuss, overprotect, beget, bring forth, engender, make children, etc.*

"Ўгай она" концептнинг биринчи элементи бўлмиш ўгай сўзининг "Ўзбек тилининг изоҳли луғати"да 3 та маъноси, она сўзининг эса 6 та маъноси берилган. Жумладан, қуйидаги мисолларда *ўгай* сўзининг кўчма маъноси вербаллашганини учратишимиз мумкин:

- *Мустамлакачи чор маъмурлари маҳаллий меҳнаткашларни ўзларига ўгай кўрардилар.* (Н. Сафаров, Оловли излар).

- *Дангалини айтавериш керак, авваллари бу машинага одамларимиз ўгайроқ қаради.* (Х. Назир, Ўтлар тутаганда).

- *Дангал айтишим керак, ўртоқлар, машинага ўгай кўз билан қаровчилар йўлимизга кўндаланг туришиб олдилар.* (Газетадан). [6]

Ўзаро бир-бирига зид қўйилган ва қиёсан олинган грамматик маънолар системаси ва уларга хос ифода воситалари – грамматик шакллар системаси грамматик категория дейилади. Масалан, отларга хос келишик маънолари ва уларнинг ифода шакллари бўлган келишик шакллари системаси келишик категориясини ҳосил қилади. Шунингдек, отларда эгалик категорияси, сон категорияси, феълларда шахс-сон категорияси, нисбат (даража) категорияси кабиларнинг ҳар қайсиси ўзига хос грамматик маънолар мажмуасига ва шу маъноларнинг ифода шакллари системасига эга.

Грамматик категориялар умумий ҳодиса сифатида хусусий ҳодисаларда мавжуд булади, хусусий ҳодисалар умумлашмаси асосида юзага келади. Демак, сон категорияси бирлик ва кўплик маъноларини ифодаловчи шакллар системасида, эгалик категорияси биринчи шахс – сўзловчи, иккинчи шахс – тингловчи, учинчи шахс – ўзга ва шуларнинг миқдори маъноларини ифодаловчи шакллар тизимидан иборат. Грамматик категорияларда тилнинг ўзига хос хусусияти очиқ намоён бўлади.

Лексика, унинг этимологияси, таърифлари таҳлили, фойдаланиладиган сўзлар, бирикмалар ва контекстни ҳисобга олиш филологик тадқиқотларда муҳим роль ўйнайди, буларнинг барчаси концептосферани шакллантиришга ёрдам беради.



Фойдаланилган адабиётлар

1. Азизов О. Тилларни қиёсий ўрганиш масаласига доир // Туркий тилларнинг тараққиёти муаммолари. – Тошкент: Фан, 1995. – С. 20–21.
2. Мамонова, Ю. Концепт и способы его исследования / Ю. Мамонова Текст. // Язык культура - сознание: междунар. Сборник научных трудов по лингвокультурологии / отв. ред. Е.Е. Стефанский. - Самара: Самар. гуманитар. акад., 2005. - С. 13-17.
3. Oxford Advanced Learner's Dictionary. Eighth edition. - Uk / India. Oxford University Press, 2010. - 1796 p
4. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т. "Ўзбекистон". 2010. Б.400.
5. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1988. – С. 52-92.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3 - жилд. - Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. - 688 б.

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ АНТОНОМАЗИЯЛАРНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Рисолат Ачилова Аъзамовна,
Бухоро давлат университети
катта ўқитувчиси
risolat_lola@mail.ru
Tel: 90-637-05-05

Аннотация. Мақолада антономазия ҳодисасининг тил ва нутқда воқеланиши очиб берилган, унинг моҳияти ва лексик-семантик хусусиятлари аниқланган, инсон лисоний фаолиятида ҳамда бадиий матнни шакллантиришдаги ўрни ва вазифалари белгиланган, номинатив вазифасидан ташқари рамзий маъноларни англатиши, бадиий санъатни воқелантиришдаги роли, айрим лингвопоэтик хусусиятлари ҳамда ўзбек лингвомаданиятида тугган ўрни каби масалалар ўрганилган. Антономазияларни семантик хусусиятларига кўра уч гуруҳ, яъни а) машҳур тарихий воқеалар асосида шаклланган антономазиялар; б) афсоналар асосида юзага келган антономазиялар; в) адабий асарлар, улардаги образлар асосида шаклланган антономазиялар бўйича ўрганиш мақсадга мувофиқлиги бўйича тавсия берилган. Ўзбек адабиётдаги антономазияларнинг айрим услубий ва лингвопоэтик хусусиятларига Алишер Навоий асарлари мисолида аниқлик киритилган.

Таянч тушунчалар: троп, антономазия, талмиҳ, ўхшатиш, метафора, ономастика, антропоним, мифология, лингвопоэтика, лингвокультурология.

SOME FEATURES OF ANTONOMASIAS IN THE UZBEK LANGUAGE

Achilova Risolat A`zamovna
Senior Lecturer of the Bukhara State University
risolat_lola@mail.ru
Tel: 90-637-05-05

Abstract. The article describes the phenomenon of antonomasia in language and speech, its essence and lexical-semantic features. issues such as the role of. There are three groups of antonomasia



according to their semantic features, namely a) antonomasia formed on the basis of popular historical events; b) antonomasia based on myths; c) literary works - it is recommended to study the antonomasia formed on the basis of the images in them. Some methodological and linguopoetic features of antonomasia in Uzbek literature are clarified on the example of Alisher Navoi's works.

Keywords: trop, antonomasia, talmih, analogy, metaphor, onomastics, anthroponymy, mythology, linguopoetics, lingvo culturology.

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНТОНОМАЗИИ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Ачилова Рисолат Аъзамовна

Старший преподаватель

Бухарский Государственный Университет

risolat_lola@mail.ru

Аннотация. В статье раскрывается феномен антономазии в языке и речи, его сущность и лексико-семантические особенности. По семантическим признакам можно выделить три группы антономазии, а именно: а) антономазия, сформированные на основе популярных исторических событий; б) антономазия, основанные на мифах; в) литературные произведения - рекомендуется изучать антономазии, сформированные на основе изображений в них. Некоторые методологические и лингвопоэтические особенности антономазия в узбекской литературе раскрываются на примере произведений Алишера Навои.

Ключевые слова: троп, антономазия, талмих, аналогия, метафора, ономастика, антропонимик, мифология, лингвопоэтика, лингвокультурология.

Ижтимоий онг тараққиёти тил ҳодисалари янги нуктаи назарлар билан қараш, уларни янги илмий концепциялар ва замонавий методлар билан тадқиқ этиш заруратини юзага келтирди. Шунга кўра кейинги даврларда тилнинг инсон ҳаётидаги моҳиятини чуқурроқ ва янада кўпроқ билишга, тил ҳодисаларини инсоннинг ижтимоий-иқтисодий, руҳий-маънавий ҳаёти билан ўзаро боғлиқ ҳолда ўрганишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ижтимоий ҳаётни шакллантирувчи энг асосий восита – тилнинг асл туб моҳиятини тўлиқ англаш учун унинг зоҳирий ҳодисалари билан бирга богинидаги ҳодисаларни ўрганиш ҳам муҳимлиги аён бўлиб қолди.

Дунё ва миллий тилшунослиқда тадқиқ этилиши муҳим бўлган масалалардан бири антономазия ҳодисасидир. Бу ҳодисанинг моҳияти шундаки, унда ҳаммага маълум ва машҳур бўлган бадиий асар қаҳрамонларига, тарихий воқеа ва афсоналарга ишора қилинади. Антономазиянинг асар бадииятига таъсирини аниқлаш, асосий хусусиятлари, шаклланиш, ривожланиш йўллари ва қонуниятларини тадқиқ этиш, унга оид мавжуд мулоҳазаларни янги қараш, тамойил, мезон ва далиллар асосида таҳлил этиш, лексик-семантик ва лингвопоэтик аспектда махсус ўрганиш, мангикий-психологик, лисоний ва поэтик хусусиятларини яхлит таҳлил этиш, лисоний ва поэтик хусусиятлари бўйича илмий фикрни шакллантириш муҳим бўлиб турибди.

Антономазия номнинг кўчишига асосланган, яъни объектнинг маълум бир хусусият-ҳаракати бошқа объектда намоён бўлишининг алоҳида ҳодисасидир. Кейинги даврларга қадар антономазияни шундай тушунилиб келинди, шундай таърифлаш билан чекланилди ва фақат нутқнинг стилистик ҳодисаси ҳамда воситаси деб қабул қилинди. Ҳозирги даврга келиб эса унинг моҳият-мазмунини тўғрисида қарама-қарши фикрлар билдирилмоқда. Бундай ёндашувлар антономазияни ногўғри тушунишни англамайди, балки унинг баъзи жиҳатларини янада кенгроқ ёригишни, стилистик воқелиқдан янада кенгроқ ҳодиса

эканлигини билдиради. Антономазия лингвистик номинация воситасидир, унинг натижасида мутлақо янги маъно гуруҳларининг таркибий, семантик ва прагматик хусусиятлари намоён бўлади [2, 7].

Антономазияларни матний ва лексик маъноларига кўра, ҳар хил турларга ажратиш мумкин. Чунки аташ маъноси атоқли от маъноси учун хосдир, денотатив маъно эса турдош от маъносига оиддир. Шуларга кўра антономазияни иккита асосий турга бўлиш мумкин. Биринчи турдаги антономазияларда аташ ном маъноси асосий ҳисобланади, денотатив маъноси эса матндан келиб чиқади, яъни бунда атоқли от маъноси қисман турдош ном маъносига айланади. Иккинчи турдаги антономазиялар эса кўчма маънодаги турдош номлар маъносидир. Унда асосий маъно денотатив маънодир, аташ ном эса матндан келиб чиқади. Турдош от эса қисман атоқли отга айланади [6, 9].

Илмий манбаларда қайд этилишича, *антономазия* термини XV асрлардан бошлаб қўлланила бошланган. Грек тилига тегишли мазкур лексик бирликнинг луғавий маъноси *қайта номлаш*дир. Антономазия воситасида таърифланган инсонга образли хусусият берилади. У нафақат эмоционалликни, шу билан бирга антономазиялашган инсон ёки образга баҳо ҳам беради. Стилистика бўйича қатор асарлар муаллифи И.Б. Голуб антономазияни метонимиянинг махсус тури сифатида белгилайди ва шу йўналишда ўрганади. Муаллифнинг таъкидлашича, XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб, қадимги мифологиядан келиб чиққан антономазиялар ғарб шеърий асарларида камроқ қўлланила бошланган. У бу хусусда ёзади: “Ҳозирги вақт шеъриятида қадимги номларнинг ишлатилиши ўтмишда қолди”. Олим бунга Шекспир асарларини мисол қилиб келтиради. Маълумки, Шекспир ўз асарларида афсоналардаги худоларнинг исмларидан кенг фойдаланган. Бу эса унинг ижодини китобхонларга тез ва таъсирчан етказишга катта ёрдам берган. И.Б.Голуб фикрича, кейинги давр инглиз шеъриятида антономазилардан фойдаланиш кўлами анча торайган [4].

Ўзбек тилишунослигида кўчим(троп)ларнинг айримлари, чунончи, ўхшатиш, метафора, метонимия кабилар у ёки бу даражада ўрганилган [8]. Бироқ шу кўчимлар доирасига кирувчи антономазия (талмиҳ) ҳодисаси, унинг тузилиши, семантик хусусиятлари, инсон лисоний фаолиятида ҳамда бадиий матнни шакллантиришдаги ўрни ва вазифалари, номинатив вазифасидан ташқари рамзий маъноларни аниқлаштириш, лингвопоэтик хусусиятлари, ўзбек лингвомаданиятида тутган ўрни каби масалалар алоҳида тадқиқот мавзуси сифатида ўрганилмаган. Ҳолбуки, бу ҳодиса ўзбек тилида, чунончи, унинг бадиий адабиётида муҳим ўрин тутаяди.

Антономазиялар кўчим (троп)нинг алоҳида бир тури бўлиб, у дунёқараш, руҳият, муносабат, ҳис-туйғу, кайфият, эстетик дидни аниқ, ёрқин, ихчам тарзда ифодалаш имконини беради, ўзининг ихчамлиги, соддалиги, семантик жиҳатдан сермаънолилиги билан нутқнинг таъсирчанлигини оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Антономазия тилга хос ҳодиса, ономастик бирлик бўлиб, у сўзнинг қўлланиш доирасини кенгайтиради, бадиий нутқда ифодалилик ва таъсирчанликни оширишга, тасвирланаётган воқеа-ҳодисани равшанроқ баҳолашга ёрдам беради.

Ғарб олимлари — О.С.Ахманова, А.П.Квятковский, Н.М.Наер, Б.Савинский, Б.А.Серебрянников, В.В.Мартынов, И.Р.Гальперин, Д.Харъюнг, А.Н.Степанова, А.А.Уфимцева, М.А.Аругюнян кабилар томонида антономазияларнинг айрим хусусиятлари ўрганилган. Уларнинг илмий асарларида антономазия кўчимнинг бир тури ва услубий восита эканлиги алоҳида таъкидланган. Уларнинг бу борадаги фикрлари бир-биридан деярли фарқ қилмайди. Бироқ антономазия кўчимнинг қайси тури таркибига кириши масаласида уларнинг фикри бир хил эмас. Масалан, О.С.Ахманова антономазияни метафора, И.Р.Гальперин, Д.Харъюнг, Н.М.Наер ва А.П.Квятковский кабилар эса метонимияга хос кўчим сифатида баҳолаган [2, 5].

Айтилганидек, антономазия ҳодисасининг лисоний, мазмуний ва услубий хусусиятлари, бадиий услуб тараққиётида тутган ўрни, адабиётда бадиий тасвир воситаси сифатидаги



мавқеи, таркибий тузилиши ўзбек тилшунослигида махсус ўрганилмаган. Мазкур масалани илмий ўрганишда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир:

— антономазияларнинг лексик-семантик жиҳатларини ёритиш, уларнинг матндаги ўрнини, бадиийликни таъминлашдаги ўрнини кўрсатиш, ёндош кўчим турлари, чунончи, метафора, метонимия ва ўхшатишга муносабатини аниқлаштириш, ойдинлаштириш, уларнинг кўчимлар тизимида тутган ўрни ва аҳамиятини кўрсатиш, шу асосда муайян илмий-назарий умумлашмалар чиқариш муҳимдир;

— антономазияларни қуйидаги гуруҳлар бўйича ўрганиш мақсадга мувофиқдир: а) машҳур тарихий воқеалар асосида шакланган антономазиялар (масалан, *ҳижрат* — Муҳаммад пайғамбаримизнинг Маккадан Мадинага кўчиши; исломда шу кун, яъни 622 йил 16 июль йил боши қилиб олинган); б) афсоналар асосида юзага келган антономазиялар (масалан, *Масиҳ* — Исо пайғамбарнинг лақаби бўлиб, диний афсоналарда Исонинг ўз нафаси билан ўлганларни тириштириши); в) адабий асарлар, улардаги образлар асосида шакланган антономазиялар (масалан, *Отелло* — рашкчи киши, *Дон Кихот* — хаёлпараст одам, *Қоришкамба* — хасис инсон).

— антономазияларнинг лексик-семантик табиати ва структурал-композицион хусусиятларини тадқиқ этиш, уларнинг фалсафий, мантиқий, лисоний, семантик ва поэтик хусусиятларини яхлит таҳлил қилиш дунё ҳамда миллий тилшунослик учун долзарбдир;

— антономазияларнинг услубий ва бадиий-эстетик (поэтик) хусусиятларини таҳлил этиш ва муайян илмий-назарий хулосаларга келиш муҳим аҳамиятга эга.

Антономазиялар оғзаки нутқда ҳам, бадиий матнда ҳам қўлланилади. Бироқ уларнинг бадиий нутқда қўлланиши нисбатан кўпроқ учрайди. Антономазиялар бадиий матнда ижодкорнинг субъектив муносабатини ифодалаб келиб, матнни шакллантиришда муҳим восита вазифасини бажаради. Улар бадиий матнда метафорик маънода қўлланилиб, бадиий санъатлар ва услубий фигуралар яратишга асос бўлади. Антономазияларда ишора қилинаётган тарихий ёки бадиий фактнинг машҳур, яъни кўпчиликлари таниш бўлиши муҳим аҳамият касб этади. Ишора қилинаётган фактнинг машҳурлик ва маълумлик даражаси қанча юқори бўлса, унинг моҳият-мазмунини, кўчма маъносини тушунувчилар доираси ҳам шунча кенг бўлади.

Антономазиялар бадиий матнда қуйидаги мақсадлар учун қўлланилади: 1) ижодкорнинг фикрини ёрқин, ихчам, аниқ, таъсирчан ва яққол тарзда ифодалаш учун; 2) бадиий санъатни воқелантириш учун; 3) матннинг интертекстуаллигини таъминлаш учун; 4) салбий ёки ижобий баҳони экспрессив ифодалаш учун; 5) кучли ҳис-ҳаяжонни ифодалаш учун; 6) образ характериға хос айрим жиҳат ва белгиларни бўрттириб кўрсатиш учун; 7) фикрни изоҳлаш, тасдиқлаш, далиллаш учун; 8) китобхоннинг бадиий-эстетик диди ва дунёқарашини мукаммаллаштириш ва бойитиш учун.

Антономазиялар таркибига кирувчи бадиий асар образларининг номи — антропонимларни шартли тарзда уч гуруҳга ажратиш мумкин: 1) тарихий антропонимлар; 2) мифологик антропонимлар; 3) хаёлий-тўқима антропонимлар. Антономазия сифатида қўлланиладиган тарихий антропонимларга *Колумб, Искандар, Хотам, Чўлпон*; мифологик антропонимларга *Одам Ато, Момо Ҳаво, Масиҳ*; хаёлий-тўқима антропонимларга эса *Отелло, Буратино, Қумуш, Отабек* кабиларни мисол тарзида айтиб ўтиш мумкин.

Аёнки, ифода воситаларининг ёлғиз ўзи мустақил ҳолда бадиийлик касб этмайди ва бадиий нутқни ташкил қилмайди. Улар фақат бадиий матн ичида, асар мазмунига боғлиқ ҳолда, бошқа тасвир воситалари билан биргаликда маълум маъно касб этади, муайян бадиий вазифани бажаради, тасвирланаётган воқеа-ҳодисани ва унга хос хусусиятларни янада бўрттириб ва умумлаштириб кўрсатишда муҳим восита бўлади. Ифодавий воситалар, жумладан, антономазиялар бадиий нутқ таркибида ўз маъноларидан бошқа маъно товланишларига, кўчма маъноларга, мажозий хусусиятларига эга бўлган сўзлар бўлиб, улар

бадий нутқ таъсирчанлигини. Эмоционаллигини оширишга, тарбиявий-эстетик вазифасини конкретлаштиришга имкон беради.

Автономазия шоирни ифодалаш лозим бўлган фикрни батафсил айтишдан, ҳолатни батафсил тасвирлаш заруратидан халос этади, бадий мақсадга муайян фикр ёки ҳолатга мос келадиган бошқа бирор бадий ёки тарихий фактга ишора қилиш билан эришиш имконини беради. Натижада оз сўз билан кўп маъно ифодаланади ва бадий санъат яратилади.

Автономазия бадий асарда номинатив, тавсифий, ғоявий, эстетик, услубий, экспрессивлик, рамзий каби вазифаларни бажаради. Улар, асосан, ўхшатиш асосида воқеланади. Шоирлар автономазиялардан фикрларни изоҳлаш, тасдиқлаш ва далиллаш учун бадий асарларида кенг фойдаланади. Автономазиялар бадий асар эстетик моҳиятини чуқур идрок этиш ва қулай англанишда муҳим лисоний восита бўлиб хизмат қилади, унинг таъсирчанлигини оширади.

Алишер Навоий бадий асарларидаги автономазиялар, асосан, от сўз туркумидаги сўзлар асосида шакллантирилган. Уларнинг кўпчилиги араб тилидан ўзлашган атоқли отлардир. Миқдор жиҳатдан тўқима образлар, диний-афсонавий (мифологик) қаҳрамонлар номлари ҳукмдорлар номларига нисбатан кўп учрайди. Адиб асарларида қўлланган жуда кўплаб автономазиялар ҳозирги ўзбек бадий адабиётида анъанавий тарзда ҳозир ҳам фаол қўлланишда давом этмоқда. Улар ўзбек халқининг турмуш тарзи, маданияти ва адабиётига чуқур сингиб, унинг ижтимоий тафаккури, эстетик диди ва ахлоқий қарашлари тараққиётига ижобий таъсир кўрсатиб келаётганлигини алоҳида таъкидлаш ўринлидир.

Адабиётлар

1. Анданиёзова Д. Баий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: филол. фан. б. фалс. док. дисс. автор. –Т.: 2017. -27 б.
2. Арутюнян М.А. Структура, семантика и прагматика стилистического приема «автономазия» на материалах немецкого языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –М.: 2010. – 24 с.
3. Бобоев Т. Шеър илми таълими. Т.: Ўқитувчи, 1996. -142 б.
4. Голуб И. Б. Стилистика русского языка. 4-е изд. -М.: Айрис-пресс, 2003. -Стр. 448-451.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. -Т.: Зарқалам, 2006. -125 б.
6. Каграманов К.Р. Автономазия как средство языковой номинации: семантика и прагматика: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Москва -2007. – 26 с.
7. Калинин В.М. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Киев, 2000. – 24 с.
8. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Фан, 2010. -312 б.
9. Навоий. Хазойин ул-маоний (Ғаройиб ус-сиғар). Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. –Т.: Фан, 1988. III том. -589 б.
10. Тўхлиев Б., Каримов Б., Усмонова К. Адабиёт / Дарслик-мажмуа. –Т.: ЎзМЭ, 2017.
11. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Турон замин зиё, 2015. -40 б.
12. Хусайний.А. Бадойиъ-ус-санойиъ. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. -400 б.
13. Ҳожиаҳмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. - Т.: Шарқ, 1998.-160 б.



INGLIZ TILIDA SEMASIOLOGIYA VA POLISEMIYANING IFODALANISHI

Norova Mexri Baxtiyorovna
Buxoro davlat universiteti Tabiiy
yo'nalishlarda chet tili kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada lingvistika sohasi bo'lgan semasiologiya va inglizcha so'zlarning leksik ma'nolari, semantik strukturasi va so'zlarning polisemiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilida leksik ma'noning rivojlanishi, lug'at tarkibi va mazmuni doirasidagi so'zlar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarning tizimi hamda tilning boshqa jihatlari ochib beriladi, shu bilan birga, maqolada ingliz tiliga ko'p ma'nililik xos bo'lib, keng tarqalganligi, so'zlarning noaniqligi, real voqelikning cheksiz xilma-xilligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'no, tushuncha, tilshunoslik, til birliklari, leksik birlik, network, denotativ, ob'yekt

ВЫРАЖЕНИЕ СЕМАСИОЛОГИИ И ПОЛИСЕМИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Норова Мехри Бахтиёровна
Преподаватель кафедры Иностранных
языков в естественных направлениях
Бухарского государственного университета

Аннотация: В статье анализируются лексические значения, семантическая структура и многозначность слов в области лингвистики, семантики и английских слов. В статье также раскрывается развитие лексического значения в английском языке, система связей и отношений между словами в рамках лексики и содержания, а также другие аспекты языка, однако для статьи характерна неоднозначность английского языка. двусмысленность слов, бесконечное разнообразие реальной действительности.

Ключевые слова: значение, концепт, лингвистика, языковые единицы, лексическая единица, сеть, денотатив, объект.

SEMASIOLOGY AND POLYSEMY IN ENGLISH EXPRESSION

Norova Mekhri Bakhtiyorovna
ESP Teacher of the Department of Foreign
Languages in Natural Sciences
Bukhara State University

Abstract: The article analyzes the lexical meanings of English words, semantic structure and polysemy of words and semasiology, the field of linguistics. The article also reveals the development of lexical meaning in English, the system of connections and relationships between words within the vocabulary and content, as well as other aspects of the language; however, the article is characterized by ambiguity in English and the prevalence, the ambiguity of words, the infinite diversity of real presence.

Keywords: meaning, concept, linguistics, language units, lexical unit, network, denotative, object.

Hozirgi kunda millatlar va davlatlar orasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar kuchayib borayotgan bir davrda, ingliz tilni o'rganishga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Shu ma'noda, tilning o'ziga xos jihati bo'lgan til birliklari - semalarni o'rganish zaruriyati kelib chiqadi. Tilshunoslikning til birliklarining ma'nosini o'rganuvchi bo'limi semasiologiya deb ataladi. Bu atama yunoncha "sēmasiā" (ma'no) va "logos" (bilim) so'zlaridan olingan.

Tilshunos olim I.V. Arnold so'zning leksik ma'nosiga quyidagi ta'rifni beradi: "So'zning leksik ma'nosi deganda...til tizimi orqali tushunchalar, his-tuyg'ular yoki munosabatlarni amalga oshirish tushuniladi" [1, 151]

Lingvist A.I. Smirnitskiy ma'noni "ongda ob'ekt, hodisa yoki munosabatlarni ma'lum bir holda aks etishi (yoki voqelikning alohida elementlaridan yasalgan, xarakteriga ko'ra muqobil bo'lgan ruhiy tuzilman) deb ta'riflaydi, bu so'zning tarkibiga uning ichki tomoni sifatida kiradi va unga nisbatan so'zning jaranglashi moddiy qobiq vazifasini bajaradi, bu nafaqat ma'noni ifodalash va uni boshqa odamlarga yetkazish uchun, balki uning vujudga kelishi, shakllanishi, mavjudligi va rivojlanishi uchun ham zarur" [2.].

Ingliz tilining semantik tuzilishi murakkab tizimdir. Uning to'rtta asosiy jihati bor:

1. Har bir so'z leksik va grammatik ma'nolarni birlashtiradi, masalan, e.g. to go – harakat fe'li. Grammatik ma'no so'z mansub bo'lgan bo'lakning ma'nosidir.
2. So'z odatda faqat ob'ektni bildirmaydi, uning semantik tuzilmasi assotsiatsiyalar tizimini ham o'z ichiga oladi. Uning yordami bilan so'zlovchi biror narsa, hodisa va jarayonga o'z munosabatini bildiradi. So'z ma'nosiga predmet, tushuncha (referent) deb ataladigan denotativ komponent kiradi. Konnotativ komponentga emotsional, baholovchi, ekspressiv va stilistik ma'no komponentlari kiradi.
3. So'zning denotativ ma'nosi semantik qismlarga yoki komponentlarga bo'linadi, ular semantika deyiladi.
4. So'z polisemantik, ya'ni o'zining semantik tarkibida bir nechta leksik-semantik variantlar va ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Barcha leksik-semantik variantlar (LSV) so'zlar bir-biri bilan umumiy sema orqali bog'lanib, so'zning semantik tarkibini tashkil qiladi.

Masalan, to manage – 1. To succeed in doing something difficult; 2. To succeed in dealing with problems, living in a difficult situation etc.; 3. To succeed in buying things you need to live even though you do not have very much money; 4. to be able to do something or carry something without help; 5. to do something that causes problems; 6. to direct or control a business and the people who work in it, to be the manager of; 7. to use your time or money effectively; 8. to succeed in keeping something neat and tidy; 9. to control the behavior of a person or animal; 10. to be able to do something because you are strong enough or healthy enough; 11. to be able to eat and drink something; 12. to make yourself say or do something when you do not really want to; 13. to have time for (Longman Dictionary of Contemporary English, Longman Dictionaries, 1995.).

Bu barcha ma'nolarni birlashtirgan umumiy sema – "success" semasi.

"Concept" (tushuncha) atamasi tilshunoslikka mantiq va psixologiyadan kirib kelgan. Bu narsa va hodisalarning eng muhim xususiyat va munosabatlar ongida aks etishini anglatadi. Har bir "tushuncha"ning o'ziga xos chegarasi va ma'nosi bor. "Tushuncha"ning chegaralari u tegishli bo'lgan real voqelikning barcha ob'ektlari bilan belgilanadi.



“Tushuncha” mazmuni uni boshqa tushunchalardan ajratib turuvchi barcha xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Leksik ma’no va mantiqiy tushunchani tenglashtirib bo‘lmaydi.

Tushuncha va ma’no o‘rtasidagi munosabat o‘zgarishi mumkin. Tushunchalar har doim hissiy jihatdan neytraldir, chunki ular ong toifasiga kiradi. Til inson ongining barcha mumkin bo‘lgan tomonlarini tilda aks ettirgani uchun ko‘p so‘zlarning ma’nolari nafaqat ob’ektiv voqelikning o‘zini, balki so‘zlovchining holatini, uning aytayotgan gapiga munosabatini aks ettiruvchi konnotatsiyalarni ham aks ettiradi. Kontseptsiyaning hissiy komponentining mazmuni har xil bo‘lishi mumkin. Hissiy rangdagi so‘zlar ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularning butun spektrini ifodalaydi: hayrat, hurmat, muloyimlik, nafrat, kinoya, g‘azab va boshqalar.

Umuman olganda, tushuncha va ma’no o‘rtasidagi farqlarni aniqlab, so‘zning leksik ma’nosini tilning grammatik va leksik xususiyatlari ta’sir ko‘rsatadigan ma’lum bir til tizimidan foydalangan holda tushuncha, his-tuyg‘u yoki ob’yektni amalga oshirish sifatida aniqlash mumkin. Kontseptsiyani nomlaydigan so‘zlar hissiy yoki stilistik rangga ega bo‘lishi mumkin. Leksik ma’noni anglashdan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlar so‘zning lingvistik xususiyatiga bog‘liq. Ma’no ifodalash so‘zning vazifalaridan biri bo‘lib, bu uning yagona vazifasi emas, chunki hech qanday tushunchani nomlamaydigan so‘zlar ham mavjud. Leksik ma’noning rivojlanishiga lug‘at tarkibi va mazmuni doirasidagi so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlarning butun murakkab tizimi hamda tilning boshqa jihatlari ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘p ma’nolilik tilda keng tarqalgan hodisadir. So‘zlarning noaniqligi, real voqelikning cheksiz xilma-xilligi bilan solishtirganda, til cheklangan tizimdir. Bizning ongimizda voqelik va tushuncha hodisalari ularni til orqali aks ettirish uchun alohida mustaqil til birliklari sonidan ko‘proqdir. Rus tilshunosi V.V. Vinogradov shunday deydi: “Hech bir tilda biron bir aniq fikrni mustaqil so‘z va o‘zak element bilan ifodalash imkoniyati yo‘q. Tajribaning o‘ziga xosligi cheksizdir va eng boy tilning resurslari qat’iy cheklangan. Til son-sanoqsiz ma’nolarni targ‘ib qilishga majbur bo‘ladi, u yoki bu asosiy tushunchalarning ma’lum sarlavhalari bo‘yicha aniq yoki yarim aniq fikrlarni qo‘llaydi, ular vositachi funktsional bog‘lanish vazifasini bajaradi” [3].

Polisemantik tarmoq ot turkumiga kiruvchi so‘zni ko‘rib chiqaylik. Bu so‘zning semantik tarkibida ko‘chma ma’noning shakllanishi kuzatiladi. U alohida birlik bo‘lib, ishbilarmonlik aloqasi sohasiga mansub, birlikdan shakllangan semantik hosila jarayoni natijasida shakllanadi. Bu birlik stilistik jihatdan neytral yoki boshqa sohada ishlatiladi; masalan, muhandislik sohasida. Ingliz tarmoq otlari seriyasida bir nechta LSV mavjud:

network 1. a complex system of roads etc. crossing each other. 2. a closely linked group of people, companies. 3. a group of broadcasting stations that link up to broadcast the same programmes at the same time. 4. a system of computers linked together. (Oxford Advanced Learner’s Dictionary, Oxford University Press, 1999, p. 780)

Nomzodlik nuqtai nazaridan I denotatsiya operatsiyani bajarish uchun o‘zaro bog‘langan murakkab jonsiz jismlarning o‘zaro bog‘langan tizimini o‘z ichiga oladi. Ikkilamchi nominatsiya ob’ekti sifatida denotata II ham murakkab va o‘zaro bog‘langan tizim sifatida ishtirok etadi, lekin u faqat kompaniyalar yoki filiallar, shuningdek, yagona tarmoqda qo‘shma harakatlar yoki operatsiyalarni amalga oshirish uchun uyushgan kompaniya bo‘linmalari sifatida ishtirok etadi.



Shu bilan birga, har ikkala denotatga umumiy bo'lgan "o'zaro bog'liqlik, har qanday harakatni birgalikda bajarish" asosida ma'no siljishi kuzatiladi. So'zning semantik tuzilishini tahlil qilishda M.N. Lapshina tomonidan taklif qilingan semantik komponentlarni semantika (arxisemalar), turlar bo'yicha semantika va turlar bo'yicha potentsial semantika guruhlariga bo'lishdan foydalanish to'g'ri bo'ladi [4].

Leksik birlik tarmog'i "business environment" tushunchasini yangilash funksiyasini bajaradi, chunki "connection, crossing" semafori kosmosda turli xil o'zaro bog'langan ob'ektlarni topishni nazarda tutadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu semafor berilgan so'zning semantik tarkibiga kiritilgan barcha LSV uchun o'zgarmasdir.

Ma'lumki, leksik semantikaning rivojlanishi ikki kuch ta'sirida yuzaga keladi. Bu kuchlar tobora kengayib borayotgan dunyo va dunyoni bilish qonuniyatlari haqidagi bilim bo'lib, tilning yig'indisi va gnoseologik funksiyalarini aks ettiradi va bilimni o'zlashtirish va o'zgartirishning dinamik jarayonlari natijasidir. Tarmoqning leksik birligiga kelsak, u ma'no taraqqiyoti jarayonida atrofdagi voqelikning yangi ob'ektlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum xususiyatlarga ega. Ya'ni, u ob'ektlarning fazoviy masofasi va ularning o'zaro ta'siri bilan bog'liq. Bu bilim mavjud birlikning semantik tuzilishida namoyon bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, bu holda yangi LSV ni ishlab chiqishda polisemantning semantik tarkibida "inheritance" jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni ma'lum miqdordagi konseptual ma'lumotlar uzatiladi, bu ma'lumotlar yangi LSV ga aylanadi, bosh ma'nodagi polisemantik so'z (bog'lanish, kesishish). Semantik tarkibida turli xil LSV larning mavjudligi tufayli "network" so'zi polisemantik bo'lishi va turli sintagmatik muhitda ishlatilishi mumkin.

For example, a rail/road/canal network; a network of underground cables/pipes, a communications/transportation/distribution network set up a network of financial advice centres (business style) the three big US television networks a local area network (computing) (Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English, p. 780).

In short, the problem of word polysemy has always attracted the attention of researchers because the processes of development of new meanings in words have occurred, are occurring, and will continue to occur due to changes in the realities around us. For the same reason, there will continue to be an interest in the study of various aspects of semiotics and polysemy in the future.

Masalan, a rail/road/canal network; a network of underground cables/pipes, a communications/transportation/distribution network set up a network of financial advice centres (business style) the three big US television networks a local area network (computing) (Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English, p. 780).

Xulosa qilib aytganda, so'zning ko'p ma'noliligi muammosi doimo tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan, chunki so'zlarda yangi ma'nolarning rivojlanish jarayonlari atrofimizdagi voqelikning o'zgarishi tufayli sodir bo'lgan, sodir bo'lmoqda va bundan keyin ham sodir bo'ladi. Xuddi shu sababdan, kelajakda semiotika va polisemiyaning turli jihatlarini o'rganishga qiziqish davom etadi.

References:

1. Arnold I.V. *Стилистика. Современный английский язык.* – М.: Flinta: Nauka, 2002.
2. Smirnitsky A.I. *Лексикология английского языка.* – М.: Izdatelstvo literature na inostrannix yazykax, 1956.



3. Vinogradov V.V. Избранные труды: лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977.
4. Lapshina M.N. Ономаσιологический анализ приема «смещение» в английском языке (на материале просторечных имен лица) // *Semanticheskaya integratsiya v sintagmatike* (Sb. nauch. tr.), Latviyskiy gosuniversitet im. P. Stuchki, 1984, P. 89-96.
5. Zvegintsev V.A. Семасиология. Москва: Izdatelstvo Moskovskogo universiteta, 1957. – 320 p.
6. Mavlonova Ugiloy Khamdamovna 2020. Similarities and differences between types of comic. *International Journal on Integrated Education*. 3, 9 (Sep. 2020), 105-107. DOI:<https://doi.org/10.31149/ijie.v3i9.596>.
7. Achilova Risolat Azamovna. (2021). SEMANTICAL FEATURES OF ANTONOMASES IN LITERATURE. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(3), 55-57. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejrd/article/view/363>
8. Mavlonova Ugiloy Khamdamovna, "IRONY IN FITRAT'S DRAMAS", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. CONGRESS, p. 3, Nov. 2020.
9. AR A`zamovna. THE SEMANTIC VALUE OF ANTONOMASIA IN THE WORKS OF SHAKESPEARE . *INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART* 4 (2), 6-11, 2021.
10. AR Azamovna. THE ROLE OF ANTONOMASIA IN THE PROSE OF ALISHER NAVOI . *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 2020, 188p.
11. Mavlonova Ugiloy Khamdamovna. (2021). IRONY IN LYRICS. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(4), 77-81. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejrd/article/view/609>
12. У.Х. Мавлянова. КИНОЯНИНГ ОҒЗАКИ, ВАЗИЯТЛИ ВА ДРАМАТИК КЎРИНИШЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛИШ АҲАМИЯТИ - МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2021.
13. Mavlonova Ugiloy Khamdamovna. THE ROLE OF IRONY IN UZBEK LITERATURE. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*. 2021/3(85), P. 50-59
14. Sharipova D. RELATIONSHIP OF SYMBOL AND ALLEGORY. // *NamDu*. -2021. – №. 5. – P. 275-279.
15. Sharipova D. THE RELATIONSHIP BETWEEN SYMBOL AND METAFORA//*INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART* //VOLUME 6, ISSUE 3. – 2020. – № 3. – P. 232 - 239.
16. Shavkatovna Sh. D., Istamovna I. N., Komiljonovna X. M. Symbols and Images in Uzbek stories//*Proceeding of The ICECRS*. – 2020. – T. 5.
17. Khamdamovna, M.U. 2021. Aesthetic and Psychological Features of Irony. *International Journal on Integrated Education*. 4, 10 (Oct. 2021), 184-187. DOI:<https://doi.org/10.31149/ijie.v4i10.2318>.
18. Norova M.B. Narziyeva I.Z. Terms and terminology in the Uzbek and English languages. *International Journal on integrated education*. e-ISSN:20203502 p-ISSN:26153785 Impact factor. -173-176p.
19. Norova M.B. Vosiyeva Sh. I. Various approaches to terminology. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol.24, Issue 09, 2020. ISSN:1475-7192 Scopus. -394-397 p.
20. Norova M.B. Importance of Semiotics in poetry. *Journal Academy* №3(66), Mart 2021. ISSN2412-8236. Google Scholar.-P.24-28



21. Norova M. Semiotics in Uzbek Classical Poetry, Middle European Scientific Bulletin. ISSN 2694-9970. Volume 9, №1, February 2021.

УЛУЧШЕНИЕ ПОЭТИЧЕСКОГО СОДЕРЖАНИЯ ЮМОРИСТИЧЕСКОЙ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ

Джураева Гулноза Ахматовна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Аннотация: В статье анализируются юмористические произведения детской поэзии, созданные за годы независимости, с точки зрения поэтической и содержательной гармонии. В статье анализируется детская литература, в частности, поэтические произведения Д. Раджаба, Х. Имонбердиева, Т. Адашбаева. За годы независимости в детской поэзии стали появляться размышления о поэтических новациях.

Ключевые слова: независимость, поэтика, символ, образование, творческая лаборатория.

IMPROVING THE POETIC CONTENT OF HUMOROUS CHILDREN'S POETRY

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Abstract: The article analyzes humorous works of children's poetry, created during the years of independence, from the point of view of poetic and meaningful harmony. The article analyzes children's literature, in particular, the poetry of D. Rajab, H. Imonberdiev, T. Adashbaev. During the years of independence, reflections on poetic innovations began to appear in children's poetry.

Keywords: independence, poetics, emblem, education, creative laboratory.

ҲАЖВИЙ-МАЖОЗИЙ БОЛАЛАР ШЕЪРИЯТИДА ПОЭТИК МАЗМУН ТАКОМИЛИ

Жураева Гулноза Ахматовна

ТошДўТАУ доценти, филология фанлари номзоди

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida yaratilgan bolalar she'riyatiga doir hajviy asarlar poetik va mazmun uyg'unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Maqolada bolalar adabiyoti, xususan, she'riyatida ijod qilgan D.Rajab, H.Imonberdiyev, T.Adashboyevlarning she'riy asarlari tahlilga tortilgan. Istiqlol yillarida bolalar she'riyatida ko'zga tashlangan poetik jihatdan yangiliklar haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, poetika, timsol, tarbiya, ijod laboratoriyasi.

Болалар адабиётининг ўзига хос табиати, унинг маърифий, бадий эстетик қиммати доимо ижодкорларнинг ҳам, танқидчиларнинг ҳам диққат марказида бўлиб келган. Айниқса, ҳажвий-мажозий шеърият ўзининг кўп қатламлилиги, тағдор мазмун касб этиши билан китобхонларни ўзига жалб қилса, танқидчилар ҳам бундай асарларни таҳлилга тортиб, улардан китобхон уқа олмаган мазмунни синчи нигоҳи билан кашф этганлар. С.Ирисхўжаеванинг таъкидлашича, “Мавзу муҳимлиги, яхши мақсаднинг ўзи чинакам бадий асар учун етарли эмас. Ана шунга қўшилган ҳолда фикрнинг болалар диди, дунёқарашига мос ҳолда ифодаланиши, бунинг устига



инсоний ҳис-туйғулар асосида жозибали бўлиши ҳам талаб этилади”¹⁵. Мана шу жиҳатлари билан болалар шеъриятида ҳажвий-мажозий образлар алоҳида аҳамият касб этади.

“Ўзбекистон адабиёти ва санъати” ҳафталигида уюштирилган “Мустақиллик даври болалар адабиёти: таҳлил ва талқинлар” номли давра суҳбатида ҳам бу масала юзасидан турли фикр-мулоҳазалар айтилди. Жумладан, давра иштирокчиси, профессор С.Матчонов болалар адабиётининг тарбиявий хусусиятларига тўхталиб, бу ҳол турли даврларда турлича изоҳланиб, даврдаги етакчи ғояларга хизмат қилиб келганини таъкидлайди. Олимнинг фикрига кўра, XX аср бошларида Ҳамза, Авлоний каби мутафаккирлар асарлари моҳиятида маърифатпарварлик ғоялари намоён бўлган бўлса, шўро даврида кўпроқ давр мафкуриси ташвиқ қилинган. Истиқлол даврига келибгина яратилаётган қаҳрамонлар “...фақат аъло хулқи ва ўқиши билангина эмас, балки оламни англаш йўлидаги ингилишлари, ҳаёт ва табиатга фаол муносабати билан ҳам ажралиб туради”¹⁶.

Истиқлол даврида яратилган образлар ўзларининг болаларча тасавури билан дунёни англашга, атрофда бўлаётган воқеа-ҳодисаларни идрок этишга уринадилар. Шу жараёнда уларнинг ҳаётга ва табиатга муносабати шаклланиб боради.

Давра иштирокчиларидан яна бири Қ.Қаҳрамонов эса бугунги глобаллашув даврида болалар адабиётига фақат тарбия воситаси сифатида ёндашиб бўлмаслигини, балки ундан болаларнинг ўзига хос руҳий оламини ҳам излаш зарурлигини таъкидлаб, шундай ёзади: “Болалар адабиёти ҳам, аввало, санъат ҳодисаси сифатида инсонни бадиий кашф этиши зарур. Унинг тасвир объекти инсондир. Демак, болалик кашф этолмаган асар ҳар қандай тарбиявий мақсадни кўзламасин, ўз мақсадига эришса олмайди”¹⁷.

Шоир ва мунаққид Д.Ражабов “Бадиият – маърифатдир” мақоласида болалар адабиётининг тарбиявий хусусияти ва бадиийлиги тўғрисида қуйидаги фикр-мулоҳазаларни баён этади: “Баъзан, айниқса, болалар адабиёти ҳақида гап кетганда, бу адабиёт тарбиявий, маърифий бўлиши керакми ё бадиий бўлиши керакми қабилдаги савол қўйилади. Болалар адабиётининг тарбиявийлиги, маърифийлигини асло бадиийликдан айрича тушунмаслик, талқин этмаслик керак. Илҳом ва истеъдод билан битилган ҳар қандай теран бадиий асар – тарбиявий ва маърифийдир. Чунки у инсоннинг кўнглини тарбиялайди, руҳини камолот сари ундайди”¹⁸.

Шуни таъкидлаш керакки, давра иштирокчилари ўз мулоҳазаларида болалар адабиёти маърифийми ёки бадиий бўлиши керакми деган масалани ўртага ташлашмаган. Хусусан, Қ.Қаҳрамоновнинг юқорида келтирилган фикрларида болаларнинг руҳий оламини бадиий кашф қилиш ҳақида гап кетади. Ваҳоланки,

¹⁵ Ирисхўжаева С. Болалар адабиётида дидактика. – Тошкент: Фан, 1978. – 13-б.

¹⁶ Mustaqillik davri o‘zbek bolalar adabiyoti: tahlil va talqinlar (davra suhbat) / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2005. 19-avgust.

¹⁷ Mustaqillik davri o‘zbek bolalar adabiyoti: tahlil va talqinlar (davra suhbat) / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2005. 19-avgust.

¹⁸ Rajabov D. Badiiyat – ma’rifatdir / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2005. 9-sentabr.



болалар адабиётининг муайян намуналари, асосан, тарбиявий мақсадларда яратилиши кўпчиликка сир эмас. Демак, болаларнинг руҳий оламида тарбиянинг ҳам ўзига хос ўрни бор. Хусусан, болалар шеъриятида илм-маърифатни тарғиб қилувчи алифбо, ҳарфлар, тиниш белгилари, ҳуснихат каби мавзуларда яратилган кўплаб шеърлар бунинг исботидир. Бу каби ижод намуналари ўзининг маърифий хусусияти билан ҳам ажралиб туради.

Мумтоз адабиётимизда ҳам Анбар Отиннинг “Қизил ва қоралар жанги” асарида ҳарфлар ўртасидаги муносабатлар тасвири орқали маърифий дидактик ғоялар илгари сурилганди. XX аср болалар шеъриятида бундай шеърлар кўплаб яратилди. Жумладан, Қуддус Муҳаммадийнинг “Дум”, “Тугмача”, “Темирлар ўйини”, Султон Жўранинг “Тиниш белгиларининг мажлиси”, Пўлат Мўминнинг “Салимжон – нимжон”, “Парпининг ҳарфи” каби кўплаб шеърлари ҳам маърифий, ҳам бадиий-эстетик қиммати билан бирдек аҳамиятлидир. Бу икки хусусиятнинг бир асарга жо бўлиши муаллифнинг маҳорати юксаклигидан далолат бериб турибди.

Адабиётшунос О.Шарафиддинов Пўлат Мўмин шеърларининг тарбиявий ва амалий аҳамияти ҳақида характерли мисолни келтириб, қуйидагиларни қайд этган эди: “Бу фикрнинг исботи сифатида китобхонлардан шоирга кўплаб келиб турадиган мактубларнинг биридан парча келтирайлик. Уни андижонлик ўқитувчи йўллаган: “Худди шу сиз айтган гап мен ўқитаётган 7-синф ўқувчилари орасида ҳам топилади. Кўпчилик болалар янги дафтарга ўтишлари билан уларнинг ёзувлари бузилиб, қинғир-қийшиқ ёзадиган бўлиб қолишади. “Парфининг ҳарфи” шеърингизни дарсда ишлаб чиқдим. Ўқувчилар уни ўқиб ҳам хурсанд бўлишди, ҳам кулишди. Кўпчилик болалар энди қоидали ва чиройли ёзишга ҳаракат қилишяпти”. Бу – Пўлат Мўминнинг битта шеъри ва унинг таъсири ҳақидаги гап. Шоирнинг бошқа шеърларини жам қилиб, уларнинг таъсир кучини тасаввур қилсак, Пўлат Мўмин ёшларни тарбиялашига катта ҳисса қўшаётганига амин бўламиз”¹⁹.

О.Шарафиддиновнинг ушбу фикрларидан болалар адабиётининг чинакам бадиий мукамал намуналарида ҳам маърифий-дидактик, ҳам бадиий-эстетик қиммати бирдай аҳамиятга эга бўлиши кераклиги ойдинлашади. Нафақат кераклиги, балки унинг таъсир кучи амалда ҳам кўринаётганини мактуб орқали билиб олишимиз мумкин. Сатира ва юмор эса ушбу таъсир қувватини оширувчи энг асосий қуроллардан биридир. Болалар адабиётида сатира ва юмор асосий ўринлардан бирини эгаллашининг боиси ҳам шундадир. Айниқса, сўнгги давр болалар шеъриятини кузатганда, сатира ва юмор асарнинг ҳам бадиий мукамаллигини таъминлашга, ҳам тарбиявий таъсир кучини оширишга бирдай хизмат қилаётганлигини кўриш мумкин. Қолаверса, ундаги мавзу кўламининг кенглиги, ҳар бир инсон ўзи учун алоҳида хулосалар чиқаришга имкон берилиши шеър, умуман, асарнинг бадиий қимматини юксакларга кўтариб беради.

Истиқлол даври ўзбек болалар шеъриятида Т.Адашбоевнинг “Алғов-далғов аралаш”, Ҳ.Имонбердиевнинг “Ҳарфлар жанги” каби асарлари шу жиҳатдан эътиборга сазовордир.

¹⁹ Шарафиддинов О. Ўзбек болалар адабиёти. Мақолалар, адабий портретлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1978. – 150-б.



Т.Адашбоев шеърда лирик қаҳрамон “Алифбе”дан ўрин олиб, ўз бурчини ҳалол ўтаб келаётган ҳар бир ҳарф, тиниш белгилар адашиб кетишса нима бўларди, деган ваҳимали тасаввурларга берилади. Шеърда “А” ҳарфи билан боғлиқ воқеа шундай тасвирланади:

*Агарда “А” адашса,
Андижон, Асакани,
Арини
Атардик не деб қани?*

(“Уч бўғалоқ ва сирли қовоқ”, 33-б.)

Шоир дастлаб ҳарфларнинг аҳамиятини тушунтиришда уларнинг йўқ бўлиб қолишидан фойдаланади. Шеърда шу тариқа “Б”, “В”, “Г”, “К”, “И”, “К” каби кўплаб ҳарфлар билан боғлиқ шеърини тасаввурлар ҳикоя қилинади. Шоирнинг маҳорати шундаки, ҳар бир шеърдаги шу хилдаги адашишлар оқибатида қувноқ кулги юзага келади. Асар болаларни таълим олишга чорлайди ва шу жиҳати билан маърифий характер касб этади.

Шеър болаларнинг тасаввур дунёсини кенгайтиради. Болалар унда тасвирланаётган ҳарфларнинг алғов-далғов ҳолатини тасаввур қилишар экан, қувноқ юмрдан, бой поэтик мазмундан эстетик завқ, дидактик мазмундан маърифий сабоқ олишади. Негаки, шоир шеърда ҳар бир ҳарф хусусиятини тасвирлар экан, албатта, болаларнинг дунёқараши, маърифий эҳтиёжларини ҳам назарда тутди. Ҳарфларнинг ташқи қиёфасини ҳам унинг хусусиятларига мос тарзда чизиб беради. Масалан, “К” ҳарфи тасвирида болаларнинг кундалик ўқув фаолиятини куйидагича тавирланади:

*Китоб билан кундалик,
Керак бизга ҳар кунни.
Календарда аниқдир.
Келгуси ой якуни,*

(“Уч бўғалоқ ва сирли қовоқ”, 33-б.)

“О” ҳарфи ҳақида эса у иштирок этган сўзлар кетма-кетлиги келтирилиб, талқинидан куйидагича маърифий-дидактик хулоса чиқарилади:

*Очигин айтсам, ошна,
Осмону ойдан тортиб,
“О” ҳарфин қадрни ортиқ
Опам ва онажоним
Она тили, этилган тортиқ.*

(“Уч бўғалоқ ва сирли қовоқ”, 34-б.)

Шеърнинг якуний қисми ўзига хос юмористик оҳангга эга. Унда ҳарфларнинг маърифий қиймати баланд нуқталарда кўрсатилиб, ҳарфлар иштирокидаги сўзлар билан унинг керак эканлиги уқтирилади. Китобхон шеърдаги:

*Ўттиз беш ҳарф агарда
Бўлмай қолса башарти.
Китобдаги шеър, ҳикоя
Айтинг қандай яшарди?*

(“Уч бўғалоқ ва сирли қовоқ”, 33-б.)

деган хулосани ўқир экан, уларнинг руҳиятида ўзига хос ҳолатлар рўй бериши аниқ. Энг аввало, уларнинг хаёлига дафъатан: “Ростдан ҳам ҳарфлар бўлмай қолса нима



бўларди?” деган саволнинг келиши табиий. Кейинги руҳий ҳолатдан эса болаларда: “Бундай бўлиши мумкин эмас”, деган хулоса шаклланади. Шеърдан ҳосил бўладиган мана шу икки номутаносиб руҳий ҳолат уларнинг қувноқ табассумига сабаб бўлади, шеърнинг тарбиявий, эстетик қимматини оширади. Ҳали ўқишни билмаган ёки энди ўрганишни бошлаган болалар учун ҳам янги бир чақириқ бўлиб хизмат қилади. Энди улар тезроқ ҳарфлар билан танишишга интиладилар. Бу эса шеърга янги бир маърифий мазмун ҳам юклайди.

Ҳ.Имонбердиевнинг “Ҳарфлар жанги” шеърда ҳам шунга ўхшаш манзарани кузатиш мумкин. Шеърда тасвирланишча, тинч-аҳил яшаётган ўттиз беш ҳарфнинг орасига кутилмаганда нифоқ тушади. Бунинг асосий сабаби эса ҳарфлар музқаймоқ учун навбатга туришганда “У” ойим билан унинг ўғли “У” чанинг орасига “Р” бекнинг бемаврид суқилишидир. Шоир ушбу вазиятни жонлантириб қувноқ юмор билан қуйидагича мажозий тарзда тасвирлайди. Шеърда “У” ой:

*“Р”га “уят-э”, – деди
Шу он “Р”: – Уятингни
Бор, пишириб е, – деди²⁰.*

Шоир ҳарфларнинг ушбу можароли манзарасини тасвирлар экан, диологик нутқ воситасида болаларнинг кундалик ҳаётида ҳар куни дуч келадиган, эҳтимол, ўзи ҳам фаол иштирок этадиган жонли, таниш жараённи ҳарфлар ёрдамида суратлантириб қувноқ кулги яратади. Бунда ҳар бир ҳарфнинг жанжалга муносабати уларнинг шаклига мос ҳолатлари билан кулгили тарзда жонлантирилиши болаларнинг завқини оширади. Катта “У” ва кичик “у” ҳарфи “У” ва “У” ча дея таъриф берилиши болалар учун қизиқарли бўлади. Қолаверса, шаклий жиҳатлар мазмун планини тўлдириб, “у” ва “р” ҳарфлари кетма-кетлигидан “ур” сўзининг ҳосил бўлиши ҳам можарога ишора қилиб келади. Бундан ташқари, ҳарфларнинг ҳаракатларга бирлашиб кетиши ҳам яхши тасвир бўлиб келган. Жумладан:

*“Ф” қўлини белига
Тираганча лол турар.
“П” аста нусиб бориб
Ўзин панага урар.*

Ушбу шеърда ҳарфларнинг ҳаракатлари уларнинг ташқи кўринишларига мосланганини кўришимиз мумкин. “Ф” ҳарфи чиндан ҳам қўлларини белига тираб тургандек кўринишга эга. Ёки:

*Оғзини очганча “О”
Дея олди: Оббо...
– Вазиятни юмшатсам,
дер юмшатиш белгиси.
– Ўзингни эпла, – деб
“К” яширмади кулгисин.*

Шоир ҳарфлар жанги, уларнинг ўзаро можаролари орқали болаларга ўзларининг кундалик ҳаётидаги тўполонлар, уриш-жанжаллар манзарасини шундай усталик билан кулгили чизадикки, натижада шеърдаги образлар ҳарфлар экани ҳам бир зум

²⁰ Imonberdiyev H. Harflar jangi. – Toshkent: Cho‘lpon. – 19-b.



унутилади. Улар гўёки чиндан баҳсга киришиб кетгандек тасаввур уйғотади, чунки барчаси жонли, табиий тасвирланади. Шеърда ҳарфлар жангининг барҳам топиши ҳам ғаройиб, ҳам маърифий йўсида ўз ечимини топа олган. Баҳс якунида ҳарфларнинг дўстлари ҳисобланган тиниш белгилари аралашади. Бу ҳам шоирнинг поэтик топқирлигидан дарак беради. Ҳарфлар жанги авжига чиққанда етиб келган уларга яқин бўлган тиниш белгилари бунга қуйидагича чек қўяди:

– Нима гап, не тўполон?

Сўроқ белгиси ҳайрон.

Найнов Ундов ҳам тергаб

Бақирди: – Бу қандай гап?!

Вергул деди: – Тинчинг сал...

Охир келиб Нуқтабек

Тўполонга қўйди чек.

Ҳар иккала шеърда ҳам шоирлар анъанавий образлар (ҳарфлар, тиниш белгилари) орқали янгича поэтик мазмун билан бойитилган оригинал юмористик асар ярата олганлар. Жумладан, Т.Адашбоев шеърида асосий эътибор ҳар бир ҳарф таърифида шу ҳарф билан бошланадиган сўзларни кўплаб қўллаш ва уларнинг йўқолиб қолишидан келиб чиқиши мумкин бўлган алғов-далғовга қаратилса, Ҳ.Имонбердиев асарида ҳар бир ҳарфнинг ташқи белгисига асосланилган тасвир (масалан, “Ф” ҳарфи икки қўлини белига тираб турган аёлга, “О” ҳарфи очилиб қолган оғизга ўхшатилиши) ва улар вазифасидан келиб чиқадиган ҳолат (сўроқ белгисидаги сўраш, ундов белгисидаги ҳис-ҳаяжон, буйруқ, вергулдаги ярим тўхташ – “тинчинг сал”, нуқтадаги ҳаракат, воқеанинг тугаши) шеърдаги кулгили, ҳажвий ҳолатни келтириб чиқаради. Китобхон учун ҳам асар бадиияти, қизиқарлилиги ва ўқимишлилигини кучайтиради. Бу шеърларда аввалгилардек ҳажв тиғи зоҳиран болаларга эмас, балки ҳарфларнинг ўзига қаратилмоқда. Шу боис панд-насиҳат ўрнига рамзий-мажозийлик, юмористик руҳ устуворлик қилади. Айни чоқда, шеърнинг фақат маърифий аҳамиятига эмас, балки эстетик томонига ҳам кўп эътибор қаратилади. Шеърларда болаларга хос тасаввур, образлилик, манзара яратиш, ҳарф ва тиниш белгиларининг шаклига мос сўз ва қофиялардан, аллитерация усуллариининг маҳорат билан қўлланиши уларнинг юксак бадиийлигини таъминлайди. Натижада уларнинг тасаввур олами гўзал бўёқларда чизилган лавҳалар билан бойитилади. Кичик китобхонлар ҳарфларнинг беҳуда жанжалларидан ўзларига керакли хулосаларни чиқарадилар. Атрофдаги барча нарсага жонли мавжудотга қарагандек муносабатда бўла бошлайдилар.

Маълумки, Ҳ.Имонбердиев яратган қаҳрамонлар сиртдан қараганда жиндай айёр, ширинликка ўч, хаёлпараст, озгина эътиборсизлик қилсангиз, чап бериб чув тушириб кетадиган устумон, қувноқ болалардир. Лекин ушбу хусусиятлари кўпинча уларнинг ўзларига панд бериб, беозор кулгига сабаб бўлади. Жумладан, “Бир кунлик мўъжиза” шеъри шундай хаёлпараст болаларнинг фантазияси асосига қурилган. Катта бир шаҳарда мўъжиза рўй бериб, ҳамма мумкин эмас деган сўзни унутади. Бу эса шеърнинг ёқимтой қаҳрамонига жуда қўл келади. Тергайдиган, тақиқлайдиган одамда йўқ. Хоҳлаганча ухлайди, эрта-ю кеч тўп тепади, ҳеч ким “бўлди, бас, мумкин эмас”, демайди.



Шоир ота-она, ўқитувчилар, умуман олганда, жами катталарнинг болаларни тергашда энг кўп ишлатадиган “мумкин эмас” деган танбеҳини поэтиклаштириб, шу асосда болалик дунёсининг ҳажвий қирраларини очиб беради. Болаларнинг устомонлигини ўзларига кўзгу орқали кўрсатиб беради. Бундаги ҳажвий руҳга болалар ниҳоятда ўч бўлган музқаймоқ деталари воситасида эришилади.

– Ойи, ейман музқаймоқ!

Ойим-чи, йўқ демайди.

Ойиси йўқ демагач, болакай, албатта, тўйиб музқаймоқ ейди. Натижада иситмаси кўтарилиб кетиб, дорилар ҳам фойда бермай қолади. Шеърнинг якуни эса жуда ғаройиб:

Ойша дер: – Укол керак!

*Йўқ деёлмайман, афсус!*²¹

Яқунда “мумкин эмас”ни болакай ўзи ҳам ишлата олмаслиги орқали оқибат ясалади. Бунда ўзи фойдаланган нарса болакайнинг ўзига қарши ишлай бошлайди ва пушаймонлик ҳосил қилади.

“Хўп-хўп” шеърда ҳам шоир топқирлик билан айрим болалар нутқида ишлатиладиган “Хўп-хўп”ни ҳажвий образ даражасига кўтариб, уларнинг табиатини фош қилади. Лирик қаҳрамон катталар нима иш буюрса, “хўп-хўп” дейди, лекин ўз билганидан қолмайди. Бу ҳам болалар характериға хос нуқсонлардан бири ҳисобланади. Онаси унга “дазмол иссиқ, ўйнама” деса дарров “хўп” тайёр. Лекин ўша заҳотиёқ унинг сири очилиб қолади.

“Норга торт бер”, деса ҳам хўп дейди-ю ҳаммасини ўзи паққос туширади. Отаси “икки” баҳоларни қачон тузатасан, деган танбеҳига ҳам “хўп” деган жавобни эшитади. Хуллас, бу мазмундаги шеър якунида боланинг ёлғон ваъдалари фош бўлади. Шоир бу манзарани диалог асосида қуйидагича кулгили тасвирлайди:

– Сени ўша “хўп”ларинг

Бутунлай этди хароб.

Синфда қолар бўлдинг,

“Икки”ларинг жуда кўп.

Чиқиб кетди озгимдан

Беихтиёр: “хўп”.

(“Энди зерикмайман”, 64-б.)

Бундай типдаги шеърларнинг тарбиявий аҳамияти ҳақида гап кетганда бир масалага диққат қаратиш зарур. Шоир шу хилдаги барча шеърларида ўқувчига панд-насиҳат қилмайди, ошкора сезилиб турадиган маърифий-дидактик ғояларни яланғоч шаклда ифода этмайди. Аксинча, болаларнинг кундалик турмушиға хос оддий воқеа-ҳодисани бадиий образ даражасига кўтариб, унга юмористик руҳ ва кулги бахш этади. Ана шу юмористик руҳ ва кулги шеърнинг ҳар жиҳатдан бадиий қувватини оширади. Шакл ва мазмун жиҳатдан уйғун ва бир бадиий мақсадга хизмат қилаётган асарлар ўзининг тарбиявий, маърифий ва эстетик вазифасини аъло даражада бажара олади.

²¹ Imonberdiyev X. Lofchilar-aldoqchilar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991. – 52-b. (кейинги мисоллар саҳифаси қавс ичида кўрсатилади)



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Imonberdiyev X. Lofchilar-aldoqchilar. – Toshkent: Cho'lpon, 1991. – 52 b.
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Шарқ, 1999 йил. – 23 б.
3. Ашуров Б. Турсунбой Адашбоевнинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 2009. – 140 б.
4. Баракаев Р. Болаларга берайлик дунёни / Ўзбек болалар адабиёти антологияси. 2 жилдик. 1-жилд. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – Б. 3-24.
5. Жумабоев М. Болалар адабиёти. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2011. – 224 б.
6. Жумабоев М. Ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: 1994. – 213 б.
7. Ирисхўжаева С. Болалар адабиётида дидактика. – Тошкент: Фан. 1977. – 47 б.
8. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 548 б.
9. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2018. – 360 б.
10. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2008. – 536 б.
11. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 544 б.
12. Қахрамонов Қ. Адабий танқид ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 231 б.
13. Қуддус Муҳаммадий. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1979. – 126 б.
14. Ҳовли тўла болалар. Шеърлар ва эртаклар. – Тошкент: Юлдузча, 1988. – 148 б.

JAHONING BUYUK YOZUVCHILARI V.SHEKSPIR VA A.NAVOINING ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISHNING AHAMIYATI HUSUSIDA ("LAYLI VA MAJNUN" HAMDA "ROMEO VA JULIYETTA" ASARLARI MISOLIDA)

Yoqubjon Soliyev, Namangan davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi, E-mail:yoqubjonsoliyev149@gmail.com Tel:+998972303203

Annotatsiya: Usnbu maqolada Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni va Vilyam Shekspirning "Rameo va Juletta" tragediyalari o'rtasida juda katta farqni anglab yetishimiz mumkinligi bayon etilgan. Vaqt nuqtai nazaridan, har ikki asardagi sevgi muammosi, Navoiyning mahorati, uning qalami juda murakkab va shu bilan birgalikda uning asarlari o'ta chuqur mazmunga ega ekanligi bilan boshqa asarlardan keskin farqqila olishi hususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tangriga bo'lgan muhabbati, o'ta chuqur mazmunga ega, Vaqt nuqtai nazaridan, ko'nglini junun ayuq osti qildi, qalami juda murakkab.

ЗНАЧЕНИЯ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ВЕЛИКИХ ПИСАТЕЛЕЙ МИРА А.НАВОИ И В.ШЕКСПИРА

Солиев Ёқубжон

Старший преподаватель Наманганского государственного университета
E-mail:yoqubjonsoliyev149@gmail.com Tel:+998972303203

Аннотация: Данная статья посвящается огромной литературной разнице между достаном Алишера Навои "Лейли и Маджнун" и трагедией Вильяма Шекспира "Рамео и



Джюльетта". С точки зрения времени, проблемы любви в обоих произведениях, мастерства Навои и его литературного пера и в то же время очень глубокой содержательности в его произведениях, которые резко отличаются от других произведений.

Ключевые слова: литературной разнице. литературного пера. в его произведениях. мастерства Навои.

THE IMPORTANCE OF COMPARATIVE STUDY OF THE WORKS OF GREAT WRITERS OF THE WORLD A.NAVOI AND W.SHAKESPEARE(ON THE WORKS "LAYLI AND MAJNUN " AND "ROMEO AND JULIYET").

Yakubjan Soliev, Senior teacher of Namangan state university E-mail: yoqubjonsoliyev149@gmail.com Phone:+998972303203

In this article there is a reflection that we can understand the great difference between Alisher Navoi's novel "Leyli and Majnun" and William Shakespeare's tragedy "Rameo and Juliet", from the point of view of period, the problem of love in both works, Navoi's skill, the originality of his works and at the same time it's very deep content, which can differ greatly from other novels.

Key words: Shakespeare's paintings, the natural state of a person, his desires, courage and pure morality, divine love, on romantic love.

Shekspir yaratgan obrazlarda insonning tabiiy holati, orzu-istaklari, ishq-muhabbati yorqin aksetgan. Ayniqsa, ayollar jozibadorligi, o'рта asr an'analari va johil ota zulmiga dadil qarshi chiqishlari bilan ajralib turadilar. Germil ("Yoz kechasidagi tush"), Juletta; Dezdemonalar vafodorligi, jasur va pok ahloqligi bilan ajralib turadi. Kardeliya ("Qirollir") haq ish uchun qattiq turib kurashuvchi sifatida kishini o'ziga maftun etadi.[3]

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni va Vilyam Shekspirning "Rameo va Juletta" tragediyalari o'rtasida juda katta farqni anglab yetishimiz mumkin, bu esa vaqt va sevgi muammolarida aniq ko'rinadi .

Bu ikki buyuk shaxning sevgi haqidagi qarashlarining bir-biridan farqi shundaki, Alisher Navoiyning dostoni orqali Allohga, Tangriga bo'lgan muhabbati kuchliroq ekanligini ko'rsatadi. Bu esa albatta, majoziy, ilohiy sevgi hisoblanadi. "Rameo va Juletta" esa ko'proq ishqiy sevgiga asoslangan.

Misol uchun "Juletta" obrazi Vilyam Shekspirning farzandlarining ismi bilan bog'liq deb aytaolmaymiz.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoniga qaytadigan bo'lsak, u yerda qanday mazmun bor ekanligini ko'rishimiz mumkin:

... Savdo o'tidin yonib chirog'i ,
Dudiga maqar bo'lib dimog'i.
Bu dud chuuluy ichra ortib,
Tavo yuxirad yuzin qarortib.
Emdiki bu ikki tolibon raht,
Anda urubon junun shahi taxt.

Shakespeare's paintings reflect the natural state of a person, his desires and his love. In particular, women are distinguished by their attractiveness, their opposition to medieval traditions and the oppression of an ignorant father. Jermil (Midsummer Night's Dream),



Juliet; Desdemones are characterized by their devotion, courage and pure morality. Cardelia ("King Lear") captivates himself as a staunch fighter for justice.

We can notice the huge difference between AlisherNavoi's poem "Leili and Majnun" and the tragedies of William Shakespeare "Rameo and Juliet," which is clearly manifested in the problems of time and love.

The difference between these two great people is that their love for God is stronger than that of AlisherNavoi. This, of course, is figurative, divine love, and Rameo and Juliet are based not only on romantic love.

For example, we cannot say that the image of Juliet is connected with the names of the children of William Shakespeare.

Returning to the poem of AlisherNavoi "Laili and Majnun", we can see what this content is:

Mazmuni:

"Majnunning Layli ishq'i savdosi o'tida chirog'I yonib, dudi esadimog'i (miyasi)ga o'rmasdi. Bu dud u uy ichida ortgan sari taqvo bilan aql yuzini qora yutadi. Bu ikki (taqvo bilan aql) uydan ko'chgach, u yerda junun shohi o'z taxtini qurdi". U dud savdo qo'shini bo'lib, u qo'shinhar dam g'avg'o soldi. Mana bu xilda dimog'I ichida to'polon yuz berib, ko'nglini junun ayoq osti qildi". [3]

Baytlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, Navoiyning mahorati, uning qalami juda murakkab va shu bilan birgalikda o'ta chuqur mazmunga ega ekanligi bilan boshqa asarlardan keskin farq qila oladi.

Layli yoki Majnun obrazlarining prototiplari haqida aniq biror narsa aytish qiyin. Chunki, Alisher Navoiy ko'proq majoziy ma'noda g'azallar, dostonlar yozgan. Lekin, asarda har bir yozuvchining o'z abtobiografiyasi aks etadi. Shundan xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy Majnun obraziga yaqin prototip bo'lishi mumkin. Bizga ma'lumki, Alisher Navoiy butun hayoti davomida tanho, yolg'iz o'tdi, chunki, u butun umr o'zini tangriga bahshida etdi. Shuning uchun shoir tabiatidan kelib chiqib shu xulosaga kelyapmiz.

Mana shu o'rinda Vilyam Shekspirning "Rameo va Juletta" tragediyasiga murojaat qilaylik [5]:

Meaning:

"Leyli Majnun's lamp was burning in the fire, and smoke penetrated his brain. This smoke obscures the face of piety as it grows in the house. When these two (devout and insight) left the house, King John established his throne. He was a stupid seller, and his army was noisy every time. Thus, a noise appeared in his chest, and his heart was filled with harm." [3]

Byte analysis showed that Navoi's skill, his pen and his complexity, but at the same time, are very different from other works.

Here's a look at the terrace of Rameo and Juliet of William Shakespeare :

Rom: [To Juliet] if I profane with my unworhiest hand This holy shrine, the gentle sin is this; My lips two blushing pilgrims ready stand

To smooth that rough touch with a tender kiss **Juliet:** Good pilgrim, you do wrong, your hand too much. Which mannerly oleration shows is this; for saints Lake Lands the pilgrims Lands do touch.

And palm is holy palmers too?

Romeo: Have not saints lips and holy palmers too?



Julliet: Ay, pilgrim, lips that they must use in prayer.

Romeo: O! Then, dear saint, let lips do what hands do;

They pray, grant those, lest faith turn to despair.

Julliet: Saints do not move, though grant for prayers' sake.

Tarjima:

Rameo: Hojilarning, ezgularning lablari yo'qmi?

Juletta: Bor afandim, lekin duo zikr etmoq uchun?

Rameo: Ezgi xonim, qo'llaringa berilgan baxtni

Lablaringa ham ochsangiz; Yo'q sa shakkokman!

Juletta: Rozilikka bildirmoqqa qimirlash shartmi?

Rameo: Qimirlamay turmoq ma'qul – men baxtni topdim. (O'padi.)

Lablaringiz o'chidilar labim gunohin

Juletta: Demak, yuqdi lablaringiz gunohi menga?

Yuqorida keltirilgan dunyoning ikki tomoni, G'arb va Sharq mamlakatlarning buyuk namoyondalari tomonidan yozilgan ushbu fikr va g'oyalarni bir-biridan farqlab olish qiyin emas.

Vilyam Shekspirning tragediyalari she'riy uslubda yozilgan bo'lsada, unda ko'tarilgan sevgi-ishqiy sevgidir. Ushbu davrda ishqiy she'rlar, dostonlar, shu kabilarni yozish odat tusiga kirgan.

Shu narsa bizga ma'lumki, har qanday shoir, yozuvchini burchi, ya'ni, hayotdagi haqiqatni ochib berish, ular o'z vijdoni bilan yondashishi, va hal etilishiga kirishishi, albatta.

Davr nuqtai nazaridan olib qaralganda Sharqda vaziyat biroz boshqacharoq kechgan. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidan quyidagi obrazlar orqali ularning prototiplarini topish bizga unchalik mushkul emas, chunki, ular anashu jamiyatda yashagan, o'zidan iz qoldirib ketgan.[2]

Alisher Navoiyning ushbu dostoni boshidan-oyoq sevgi-muhabbatga bag'ishlangan deb aytish mumkin. Majnunning Layli ishqida saholarda dod-faryod urishi, azob-uqubatda qolishini, biz Vilyam Shekspirning "Rameo va Juletta" tragediyasiga taqqoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasida sevgi muammosi asosiy hisoblanadi.

Alisher Navoiy o'z qahramonlarini ezgulikka, chin sevgi-muhabbat, farovonlik, do'stlik yo'llariga boshlaydi. Yomon hulqli insonning ham qalbida yaxshilik urug'lari borligiga ishonadi va bu ishonch uning baytlarida yaqqol sezilib turadi:

Bu fikrda ham haqiqat bor, chunki Shekspir Sharq adabiyoti bilan ham chambarchas bog'langan, undan bahramand bo'lgan. Lekin bu fakt to'g'ri yoki noto'g'riligiga hech kim aniq tashxis qo'ya olmaydi.

Bu ikki asarda biz o'xshash va noo'xshash tomonlarni ham kuzatamiz. O'xshash tomonlari shundaki, asar ishq-muhabbatni tarannum etadi. Noo'xshash tomoni, aniqrog'i, farqli tomoni ishq, sevgining ishqiy va majoziylikidir.

Bilamizki, yuqoridagi ikki asar ham dunyoning katta sahnalaridan o'rin olgan va ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

Asardagi tasvirlangan obrazlar yozuvchi tomonidan zo'r matonat bilan tanlab olingan. Bu asarlarni o'qigan har bir kitobxon asarda bo'layotgan voqealar girdobiga kirib ketishi tabiiy. Bu ikki yirik sahna asari dunyo xalqlari tomonidan katta olqishlarga sazovor bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

References

1. Abdurahmanov G'. Mamajonov S.. "O'zbek tilida adabiyoti". Toshkent. 2002 yil.
2. Navoiy Alisher "Layli va Majnun". Toshkent. 2011 yil.
3. Shekspir V. "Rameova Julietta" p'esarlar. Toshkent. 2004 yil.
4. Shakespeare V.. "Romeo and Juliet". Higher school Publishing house. Moscow. 2006 yil.
5. Hudoyberdiyev E. "Adabiyotshunoslik kakirish". Toshkent. 2013 yil.
6. Qayumov O. "Chet el adabiyotitarixi". Toshkent. 2009 yil.

INGLIZ NUTQ ETIKETINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Nafisa Farhadovna Qosimova, Phd, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasini mudiri.
Mahbuba Olimovna Amonova, Xorijiy tillar fakulteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasini II kurs magistranti.

Annatsiya: Zamonaviy tilshunoslik lingvomadaniy tahlil zamirida til va nutq, nutq etiketi kabi tushunchalar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni ilgari surmoqda. Ushbu maqolada ingliz nutq etiketi va uning alohida jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nutq etiketi, milliy madaniyat, kichik suhbat, murojaat, muloqot.

SPECIFIC FEATURES OF ENGLISH SPEECH ETIQUETTE.

Nafisa Farkhadovna Kasimova, Phd, Head of the Department of Translation Studies and Linguodidactics.

Makhbuba Olimovna Amonova, Faculty of Foreign Languages, Department of English Linguistics, 2nd year master.

Abstract: Modern linguistics promotes the study of concepts such as language and speech, speech etiquette, and their specific features at the heart of linguocultural analysis. This article discusses English speech etiquette and its special aspects.

Key words: Speech etiquette, national-specific culture, small talk, addressing communication

Dunyoda juda ko'p sonli xalqlar mavjud. Angliya odobi nafisligi bilan hammadan ajralib turadigan va haqiqiy janoblarni tarbiyalagan davlat. Inglizlar sovuqqon, vazmin, deb hisoblansa-da, aslida ular juda samimiy va hamdard.

Ingliz tilida nutq odobi odatda xushmuomalalik va muloqot madaniyatining namunasi sifatida qabul qilinadi. Misol uchun, Angliyada siz hech qachon omma oldida baland ovozda gapiradigan odamlarni uchratmaysiz. Har bir ingliz o'zining shaxsiy makonini qadrlaydi, shuning uchun u hech qachon shaxsiy mavzularda suhbatni boshlamaydi va hatto ularga tegmaydi.

Ingliz tilidagi nutq odob-axloq qoidalari - bu turli lingvistik vaziyatlarda rioya qilinishi kerak bo'lgan xushmuomalalik qoidalari tizimi. Zamonaviy davrda ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatda odamlar uchta xushmuomalalik darajasida muloqot qilishadi

- rasmiy, neytral va tanish. Barcha muloyim so'z va iboralarni stilistik sabablarga ko'ra ajratish mumkin va shunga ko'ra rasmiy, neytral va tanish nutq uslublari sifatida tasniflanadi. Rasmiy nutq uslubi turli ish suhbatlarida, rasmiy sharoitda qo'llaniladi. Suhbatdosh bilan rasmiy yoki tanish munosabatda bo'lmagan notanish odamlar bilan



muloqot qilishda inglizlar neytral nutq uslubidan foydalanadilar. Va tanish uslub, mos ravishda, oila davrasida, yaqin odamlar va do'stlar bilan muloqot qilishda qo'llaniladi [3].

Nutq odob-axloq qoidalari ko'p yillar oldin Angliyada shakllangan va o'zining aniq qonun va qoidalariga ega, ularga rioya qilish kerak va ulardan chetga chiqish suhbatdoshlar o'rtasida tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Ingliz nutqi etiketi boshqa davlatlar uchun standartdir, chunki Angliya normalar, an'analar va qoidalarining timsolidir.

O'zini hurmat qiladigan har bir ingliz asosiy odob-axloq qoidalarini bilishi va ularga rioya qilishi kerak. Ulardan mohirona foydalanish odobli insonning belgisidir, uning fazilatlarini har doim munosib jamiyatda qadrlanadi, chunki inglizning shaxsiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan konstruktiv muloqotga bog'liq.

Filologiya fanlari doktori, Voronej davlat universitetining umumiy tilshunoslik va stilistika kafedrasini professori I. A. Sternin o'zining «Ruscha nutq odobi» kitobida turli mamlakatlar, shu jumladan Buyuk Britaniyaning nutq odob-axloqining o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tadi. Uning fikrini inobatga olmaslik mumkin emas, nutq odob-axloqi, umuman olganda, bir qator umuminsoniy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, u hali ham o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega va ingliz tili bunga yorqin misoldir.[16]

Ingliz nutqi etiketi mamlakatning urf-odatlarini va an'analarini bilan chambarchas bog'liq. Uzoq vaqtdan beri o'rnatilgan qoidalarni rad etish johillik belgisidir. Angliyada, boshqa mamlakatlar singari, salomlashish va xayrlashish uchun barqaror formulalar, shuningdek, yoshi ulug'larga hurmat bilan munosabatda bo'lish shakllari mavjud.

E'tibor bermochi bo'lgan birinchi narsa – bu urg'u va intonatsiya. Agar siz Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II ning Rojdestvo murojaatiga yoki, masalan, 1959 yildagi BBC xabariga guvoh bo'lgan bo'lsangiz, unda sizda Konservativ qabul qilingan talaffuz haqida fikringiz bor. Bu «Miss Marple» (1984-1992) va «Puarro» (1989 – 2013), «Jives va Vusster» (1990 – 1993), «Mag'rurlik» kabi taniqli filmlar qahramonlari tomonidan so'zlashadigan juda nozik tildir.

Sternin I.A.ning so'zlariga ko'ra, inglizlarning o'ziga xos xushmuomalaligini namoyon qiladigan muhim xususiyat – bu ularning sokin nutqi va bir-birlarini bilish usullari. Bir kechada yoki ingliz kechalarida uchrashganda, odamlarni shaxsiy ma'lumot bermasdan tanishtirish odatiy holdir, chunki ingliz odob-axloq qoidalari odamlarni haddan tashqari qiziquvchanlik ko'rsatmaslikka undaydi [16]. O'tgan asrlarda savollarga javob berish va sizni tanishtirmagan odam bilan gaplashish odatda axloqsizlik deb hisoblangan. Taniqli sovet va rus jurnalisti, yozuvchi-publisist Ovchinnikov 1979 yilda "Noviy mir" jurnalida inglizlar bilan tanishganini shunday tasvirlaydi: [9] "Mehmonlarni tanishtirar ekanmiz, mezbonlar, birinchi navbatda, ularni bir-birlariga shunchaki ismi bilan tanishtiradilar. » Bu Butrus, bu Pavlus va bu uning xotini Maryam.» Agar biron bir xususiyat qo'shilsa, u ko'pincha hazil xarakteriga ega: «Mana, bizning qo'shnimiz Jon, mashina yuvishning printsiplari raqibi». Yoki: «Sizni Londonda yashamaydigan ser Charlz bilan tanishtirishga ruxsat bering, chunki uning irland teriyeri toza havoni afzal ko'radi.» [8]

Biroq, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, zamonaviy Angliyada, ayniqsa, yoshlar orasida bu tanishuv an'anasi zaiflashmoqda. Klaus Shnayder, Bonn universitetining amaliy ingliz tilshunosligi professori, o'zining «Ingliz tilining turli xil turlari: Journal of Pragmatics» (2012) kitobida o'z tadqiqotida yoshlarning Irlandiya, Birlashgan Qirollikdagi kechalarda uchrashish usullarini taqqoslaganligini ta'kidlaydi. [15] Davlatlar va Birlashgan Qirollikda u kutilmagan xulosaga keldi, ya'ni Buyuk Britaniyadagi yoshlarning aksariyati (56,7%)



notanish odamlar bilan suhbatni faqat salomlashish (Salom!) bilan boshlashadi, masalan, amerikaliklar suhbatni boshlaganlarida. Salomlashish, o'zini tanishtirish va suhbatdoshning kimligini so'rash orqali [6].

Har bir ingliz o'zini xushmuomalalik bilan tutadi va tortishuvlardan qochishga harakat qiladi. Ingliz jamiyatida shaxsiy munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi va har qanday tushunarsiz vaziyatda britaniyalik xotirjamlikni saqlaydi, chunki ohangning oshishi janjal boshlanishini ko'rsatadi. Jonli munozaraga kirishdan oldin, inglizlar barcha dalillarni aniq tarozida tortadilar.

Iltifot nutq odob-axloqining eng muhim elementlaridan biri ekanligiga ishoniladi. Biroq, agar ingliz sizga iltifot aytgan bo'lsa, o'zingizni aldamasligingiz kerak, chunki u uchun iltifot, birinchi navbatda, xushmuomalalikning namoyonidir, boshqa narsa emas. Shuning uchun, sizga aytilgan barcha maqtovlarga ishonmasligingiz kerak.

Yaxshi tarbiyaning belgisi - suhbatdoshni tinglash qobiliyati. Ammo ingliz jamiyatida suhbatni boshlashdan oldin, mavjud taqiqlar haqida bilishingiz kerak.

Britaniyaliklarning nutqlari har doim "aytilmagan" bo'lib qolishi juda muhim, chunki aniqlik e'tiroz bildirib bo'lmaydigan yakuniy "hukm" ga olib keladi. Inglizlar misolida, past baho vaqtinchalik. Boshqacha qilib aytganda, ular o'zlari haqida gapirishdan qochishadi va shu bilan oson intriga qoldiradilar [2].

Avvaliga chet ellik ingliz tilidagi suhbat konstruktiv emas deb o'ylashi mumkin. Ammo bu unday emas. Qisqa va quruq suhbat juda ma'lumotli suhbatni yashirishi mumkin. Shuning uchun, inglizlar ba'zi bir pastki matn yashiringan maslahatlar bilan juda yaxshi ishlay oladilar. Vaqt o'tishi bilan siz yashirin ma'noni, ya'ni butun suhbatning asosini tan olishni o'rganishingiz mumkin. Britaniyaliklar kambag'al ingliz tilida so'zlashuvchilarni tushunishadi, lekin ularning o'zlari nutqlarini soddalashtirmaydi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, nutq etiketi - bu nutqning odobli shaklini beruvchi maxsus so'z va iboralar, shuningdek, ushbu so'z va iboralar turli xil muloqot holatlarida amalda qo'llaniladigan qoidalardir. Ingliz nutqi odob-axloqi xushmuomalalik, to'g'rilik, xotirjamlik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Ko'rinib turibdiki, har bir xalqda o'xshash an'ana va asoslarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, har bir xalqda salomlashish va xayrlashishning, keksalarga hurmat bilan murojaat qilishning va hokazo shakllari bo'lsa kerak.

7. Vinogradov V.V. Lexicology and Lexicography. Selected work. - M.: Nauka, 1977 - S. 312.
8. Ufimtseva A.A. Word in the lexico-semantic system of the language. - M. Nauka, 1968. -- 1980 - S. 580.
9. Ufimtseva A.A. Word in the lexico-semantic system of the language. -M. Science, 1968. - - P. 251.
10. Yartseva V.N. Development of the national literary English language. -M.: Science. 1969 - p. 95.



NEMIS TILIDAGI YOSHLAR LEKSIKASIDA O'ZLASHTIRMA SO'ZLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Saidova Durdoni Akrom qizi,
O'zMU, XFF, Nemis filologiyasi kafedrasasi o'qituvchisi

Yoshlar leksikasining so'z boyligi doimiy ravishda o'zgarib boradi va harakatda bo'ladi. Bunda esa turli xil ta'sir kuchlarining roli katta hisoblanadi. Bugungi davr yoshlar leksikasiga, mutaxassislarning fikrlariga ko'ra avvalambor quyidagilar katta ta'sir ko'rsatadi: globallashtirish, ommaviy axborot vositalari va immigratsiya harakati.²² Turli xil o'lchamlarga ega bo'lgan bu hodisalar yoshlar leksikasining paydo bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bir so'z bilan aytish mumkinki, ushbu hodisalar nafaqat yoshlar leksikasida, balki barcha Yevropa davlatlari "milliy til"larining boyishida va o'zgarishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib nemis tilidagi yoshlar leksikasi tarkibida chet tilidan o'zlashgan so'zlar salmoqli o'rin egallashi yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zlashtirma so'zlar fonema, morfemalari, yozilishi va talaffuz qilinishi jihatidan ma'lum bir til doirasidagi so'zlardan farq qiluvchi va etimologik jihatdan chet tilidan o'zlashgan so'zlardir. Ular ma'lum bir tilga to'g'ridan to'g'ri o'zgartirilmagan holda yaxlit so'z sifatida o'zlashtiriladi, yoki chet tilidan o'zlashtirilgan morfemalar asosida nemis tilining ichida yasaladi.²³ Masalan, *Camping*, *Sputnik* kabi so'zlar to'g'ridan to'g'ri yaxlit so'z sifatida o'zlashtirilgan bo'lsa, *Telekommunikation*, *Minime* kabilar esa nemis tilining ichida yasalgan hisoblanadi. Chet tilidan o'zlashgan so'zlarning ona tiliga integratsiyasi keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bunday integratsiya o'zlashtirma so'zlarni katta harflar bilan yozish hamda otlarning rodini aniqlash yoki belgilash bilan boshlanadi.

Masalan: *der Quickie; der Trouble-* s Problem

ii. Shu bilan birga o'zlashtirma fe'llar shaxs-son qo'shimchalarini va noaniq zamon qo'shimchasini oladi

Masalan: *auspowern; beamen; dealen; jobben ; killen; relaxen*

iii. va ko'pincha fonetik- orfografik jihatdan „nemischalashtiriladi“

Masalan : *nix nichts; Photograph* Fotograf

O'zlashtirma so'zlar doirasida chegara doirasi yoki mazkur doirani bosib o'tgan guruh so'zlari ham mavjud. Bunday guruhga mansub so'zlarni o'zlashtirma so'z sifatida tartiblash qiyin hisoblanadi. Bunda mazkur so'zni o'zlashganlik vaqti, qo'llanilish doirasi muhim hisoblanadi. Masalan, ko'pchilik *Maschine* so'zini o'zlashtirma so'z sifatida qaramaydi (Fleischer 1993, S. 85). Ko'pchilik o'zlashtirma so'zlar nemis tilida yoshlar leksikasiga ingliz tilidan o'zlashgan va ko'pgina adabiyotlarda anglisizmlar yoshlar leksikasini tadqiq qilish uchun muhim manba sifatida keltiriladi. Anglisizmlarning

²² Androustopoulos A. Kanaksprak – Mischmasch – Hip-Hop-Slang-Wie Comedy, Migration und globale Popkultur das Deutsche in Bewegung bringen. In.: Fluter. Hervorgerufen am 25.5.2009 von <http://archetype.de/texte/2003/Kanaksprak - Mischmasch - HipHop-Slang.pdf>.

²³ Fleischer W. Entwicklung in Wortbildung und Wortschatz der deutschen Gegenwartssprache. Berlin, 1993, S. 85 [Ling. Studien; A/ 105]



yoshlar leksikasida bunchalik keng tarqalganligini shu bilan izohlash mumkinki, yoshlar anglisizmlar orqali biror bir ma'lum narsani original va shu bilan birga o'z guruhlariga tushunarli tarzda tasvirlay olishadi. Ular uchun muhim tarafi esa anglisizmlar orqali yoshlar biror narsani har kungi odatiy tarzda emas, balki noodatiy tarzda ifodalashidir. Yoshlar leksikasida anglisizmlar nima sababdan qo'llanishini tushuntirib beruvchi ushbu motiv yoshlar o'rtasidagi til munosabatlarining umumiy tendensiyalari bilan birga namoyon bo'ladi.²⁴

Yaqin o'tmishda amalda bo'lgan yoshlar leksikasiga nazar tashlasak, anglisizmlarning qo'llanishi barcha joyda teng taqsimlanmaganligiga guvoh bo'lamiz. Sobiq ikki nemis davlatlarining birlashishidan oldin anglisizmlarning qo'llanishiga siyosiy kuchlar tomonidan ta'sir ko'rsatilgan. Anglisizmlar g'arbiy Germaniyada sharqiy Germaniyaga qaraganda ko'proq qo'llanilgan²⁵. Bugungi kunga kelib mazkur holat tenglashgan va tilshunos olimlar anglisizmlarning yoshlar leksikasida paydo bo'lishi sabablarini tadqiq etishga katta qiziqish bildirmoqdalar. Tilshunos olim J.K. Androutsopoulosning fikriga ko'ra, anglisizmlar bugungi kunda maktab yoki darslarda emas, balki ko'proq turli xil internet saytlari, video-kliplar, DVD-disklar va jurnallar orqali kirib kelmoqda hamda keng tarqalmoqda. Ushbu fikrga tanqidiy yondashgan holda ushbu dalilni keltirish mumkinki, yoshlar leksikasi qo'llanuvchi ko'pgina sodda va keng tarqalgan anglisizmlar yoshlarga boshlang'ich maktablarda o'rgatilgan so'zlar hisoblanadi. Va ba'zida ularga o'zlashtirma so'z sifatida ham qaralmaydi. Bunday so'zlar yoshlar tomonidan „juda yaxshi“ va „tushunarli“ deb baholanadi („Irgendwie keine fremdwörter oder so (.) is halt irgendwie total gut verständlich“, beschrieb eine 18 jährige Schülerin ihre Sprache“ (ebd.)) Anglisizmlar ko'pincha o'zlarining qo'llanilish va sevimlilik darajasiga ko'ra „urf so'zlar“ (Modewörter)²⁶ bo'lishgan va bu holat buguni kunga qadar davom etib kelmoqda. „Urf so'zlar“ o'zlarining juda katta miqyosda qo'llanilganligiga qaramasdan tilshunos olimlar tomonidan salbiy baholangan.

Chet tilidan o'zlashgan so'zlar simplizia sifatida qisqargan holatda ham kelishi mumkin. Bunday qisqartma shakllar so'zlarni, tilni „tejab qolish“ sababidan ishlatiladi va ularning qo'llanishida boshqa bir qator omillar ham sabab bo'ladi. Mazkur qisqartma so'zlarning qo'llanishi transparenzga bo'lgan xohishning yo'qligi bilan xarakterlanadi va juda kam hollarda ular chegaralangan kommunikatsiya jamiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Masalan: *Demo(nstration)*; *Mathe(matik)*; *Reli(gion)*; *Bio(logie)*; *Akku(mulator)*; *Limo(nade)*;

Labor(atorium).

Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni umumiy tahlil qilganda „yoshlar madaniyatining realiasi“ (Realia der Jugendkultur) atamasiga duch kelamiz. Mazkur tushuncha yoshlar

²⁴ Androutsopoulos J.K. Deutsche Jugendsprache. Untersuchungen zu ihren Strukturen und Funktionen. Frankfurt am Main, Bern, New York, Paris, Wien: Lang, 1998, S. 578

²⁵ Vgl. Ehmann H. Jugendsprache und Dialekt. Regionalismen im Sprachgebrauch von Jugendlichen. Opladen, 1992. S. 165.

²⁶ „Urf so'zlar“ (Modewörter) ma'lum bir vaqt oralig'ida juda ko'p va keng qo'llangan so'z va iboralardir. Ko'pincha anglisizmlar va bo'rtirilishlar tez – tez uchrovchi bunday so'zlar yoshlarning kundalik so'zlashuvida va turli xil publististik matnlarda, reklamalarda uchraydi. (Mala 2003, S. 52).



madaniyatida vujudga kelgan yoki ommabop bo'lgan barcha narsa, voqea-hodisalar va konseptlarning umumiy atalishidir. Hozirda yoshlar madaniyatida ahamiyatli bo'lgan dominantlar quyidagilardan iborat:

- Musiqa uslublari
- Turli xil ishqibozlik jamoalari va guruhlar
- Sotsial sohalardagi turli xil holatlar, voqea-hodisalar
- Turli xil madaniyat ta'sirida paydo bo'lgan mahsulot va uslublar (soch turmaklari)
- Turli xil g'oya va qarashlar

Aynan bir madaniyatga tegishli bo'lmagan, yuqorida keltirilgan sohalarda ta'sirida kelib chiqqan so'z va iboralar bir biriga parallel tarzda paydo bo'ladi va qo'llaniladi. *Split-Tape* yoki *Split-Single* kabi so'zlar musiqa sanoatining emas, balki kishilarning ta'sirida paydo bo'lgan so'zlardir. Xuddi shu kabi *Fanzines*, *Do-it-Yourself* kabi so'zlar, hamda *Stadediving*, *Pogo*, *Mosh* kabi raqs uslubini bildiruvchi so'zlar aynan maxsus guruhlar ta'siri ostida paydo bo'lgan, deb aytishimiz mumkin. Bular tashqari nemis tiliga mos variant yo'q bo'lgan bir qator so'zlar ham mavjud bo'lib, bular safiga turli xil guruhlarni anglatuvchi *Hippie*, *Popper*, *Punk*, *Rocker*, *Skinhead* kabilarni keltirishimiz mumkin. Shunisi qiziqki, bunday so'zlarning ayrimlari nafaqat qabul qiluvchi tilda, balki beruvchi tilda ham ma'noga ega emas yoki umuman yo'q.²⁷

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, agar realiyada o'zlashgan so'zlar yoshlar madaniyatining keng tarqalishi bilan birga parallel kengaysa, bunday o'zlashma so'zlar keyinchalik (hech bo'lmaganda ma'lum bir avlodga tegishli bo'lgan) internatsionalizmlar maqomini olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biz yuqorida semantik va stilistik jihatdan chegaralanmagan ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar haqida fikr yuritgan edik. Yana shunday guruhga mansub ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar borki, ularning ma'nolari o'zgargan holda qabul qilingan yoki vaqt o'tishi bilan semantik o'zgarishlarga uchragan. Bunday hodisaga misol qilib hozirda "*Tanzveranstaltung*" so'zi o'rnida qo'lanuvchi *Party* so'zini olishimiz mumkin. Bu yerda *Party* so'zi arxaik leksema hisoblanadi. Ushbu so'z o'zlashtirilgan vaqtda faqatgina raqs kechasi ma'nosida ishlatilgan. Ammo keyinchalik mazkur leksema bilan yasalgan barcha so'zlar raqs kechalariga, musiqa uslublari va ommaga bog'liq bo'lmagan tarzda paydo bo'lgan. Bunday so'zlar sirasiga *Partymensch*, *Partyleute*, *Partypeople*, *Party Animal*, *Partystimmung*, *Partylaune*, *Party machen*, *partykompatibel*, *Party Knüller*, *Party bis zum Abwinken* kabilar kiradi.

Yuqoridagilardan tashqari, hozirga kelib *Party* so'zi nafaqat aniq bir ziyofat kechasini ifodalash uchun, balki umumiy tarzda bayram kunlarini, bayramona kayfiyatni ifodalash uchun ham qo'llaniladi:

Bei der ersten Großen Hip-Hop Jam im AZ werden ab 20.00 Uhr [Bandname] zur großen Party aufgerufen.

Oh ja, ich will Spaß, Hysterie, Exzesse und Party Party Party

²⁷ *Pogo*, *mosh*, *slam*, *stagediving* kabi raqs uslublariga xos so'zlar biror bir ingliz tili lug'atlarida ham uchramaydi.



Fete va (ba'zida) *Feier* leksemalari universitet talabari o'rtasida tashkil qilinadigan raqs kechalari uchun qo'llanilsa, turli xil yoshlar markazlarida o'tkaziluvchi raqs kechalari *Disco* so'zi amal qiladi. Yangi turdagi raqs kechalari uchun yangi so'zlar qo'llanilmoqda. Masalan, *Rave* (*Rave-Party*, *Techno-Rave*) so'zi elektr musiqali uzoq davom etuvchi raqs kechalari uchun qo'llanilib, mazkur so'zdan *Raver* va *Techno-Rave* kabi so'zlar kelib chiqqan. *Rave*- raqs kechasining eski fabrikalarning zallarida bo'lib o'tadigan turi esa *Locations* deb ataladi. Ertalabga yaqin nihoyasiga yetgan ziyofatlar uchun *After Hour* so'zi ishlatiladi. Nemis tilida so'zlashuvchi yoshlar leksikasida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning salmoqli qismini fe'l so'z turkumiga oid so'zlar tashkil qiladi. Bunday fe'llar odatda turli xil hollarda turli ko'rinishda moslashgan holatda keladi. O'zlashtirma so'zlarni nemis tiliga moslashtirish **-en** qo'shimchasini qo'shish orqali fe'lning noaniq zamon formasini yasash (*to jam > jammen*, *to smash > smashen*, *to sample > sampeln*) va Perfekt (yaqin o'tgan zamon) da qo'llanuvchi partizip (ravishdosh)ni yasash orqali (*to hype > gehypt*, *to rave > geravet*, *to crossover > gecrossover*) amalga oshiriladi. Mazkur holatda Perfekt (yaqin o'tgan zamon)ni yasashdagi turfa xillik e'tiborga molikdir. Masalan, *review* va *interview* kabi fe'llar ravishdosh yasovchi morfemalarni qabul qilmaydi: *review*, *interview*. *layouten* fe'lida esa bu hodisa boshqacharoq bo'lib, bunda fe'l *layouted* va *gelayouted* kabi tarzda o'tgan zamon shaklini yasaydi. Morfologik jihatdan qarindosh bo'lgan *remake* va *remix* fe'llari esa *remaket* hamda *geremixt* tarzida ravishdosh shaklini yasaydi. Shunisi qiziqki, otlarning qisqarishidan kelib chiqqan qisqartma fe'llar ravishdosh yasashdagi odatiy qo'shimchalarni oladi, bunga qarama qarshi o'laroq to'liq (qisqartirilishlarga uchramagan) fe'llar esa belgisiz (qoidaga to'liq bo'ysunmagan) holda yasaladi: Inti "Interview" > inten "interviewen" > geintet "interviewt"²⁸

Yana shunday fe'llar borki, ular hech qanday o'zgarishsiz, morfologik integratsiyasiz yoshlar leksikasida gaplarda qo'llanib kelinmoqda. Bunga misol qilib *rules* va *sucks* kabi so'zlarni keltirishimiz mumkin:

Viel rules! Fussball rules!

Ingliz tilidan o'zlashtirilgan fe'llarning sintaktik jihatdan qo'llanishi umumiy jihatdan chegaralangan bo'ladi. Bunday fe'llar gaplarda Infinitiv zamon formasining turli xil konstruksiyalari bilan kelganda (1), shuningdek modal fe'llar ishtirokida (2), Präsens – hozirgi zamon (3) va Imperfekt – o'tgan zamon hikoya shaklida (4) nisbatan kam qo'llaniladi:

1. *Ich versuche da nicht groß zu teachen*
2. *Die gute Geste, zwei Berliner Shouterinnen freestylen zu lassen*
3. [Song] *groovt vor sich hin*; [Song] *gabber etwas rum*
4. [er] *divte*; [sie] *rockten das Haus*; [sie] *bangten*

Fe'llarning modifikatsiyasi (biror bir jihatdan o'zgarishi) ga ko'ra ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar quyidagi 4 guruhga bo'linadi:

- (i) O'zlashtirma fe'l uchun majburiy, shartli ravishdagi o'zgarish
- (ii) Semantik- ma'no jihatdan o'zgarishsiz asosiy fe'lning o'zgarishi. Mazkur guruhga turli xil produktiv fe'llar xos bo'lib, ular o'zlashtirma so'zni qabul qiluvchi til

²⁸ Androutsopoulos J.K. "Deutsche Jugendsprache. Untersuchungen zu ihren Strukturen und Funktionen. Frankfurt am Main, Bern, New York, Paris, Wien: Lang, 1998. S.560



ichida yangi soʻzlarni yasashida muhim hisoblanadi. Masalan: *los-rocken, los-moshen, dahin-jammern, durch-powern, rein-powern; mit-pogen*

Quyidagi misolda esa barcha soʻzlarni bir asosiy feʼl boshqaradi: *an-checken ~ antesten; runter-punken ~ runterspielen; etw. ausdealen (mündl.) ~ verteilen*

(iii) Asosiy feʼlning maʼno oʻzgarishi bilan sodir boʻluvchi modifikatsiya. Bu guruhga quyidagi feʼllar misol boʻla oladi: *checken* feʼlidan *verchecken* (*verkaufen* feʼliga oʻxshash), *power* feʼlidan *abpowern* (*abhauen* feʼliga oʻxshash), *grooven* feʼlidan *angrooven* (*anmachen* feʼliga oʻxshash) va boshqalar.

(iv) Bu guruhga mansub feʼllar xuddi 2- guruhdagi kabi asosiy feʼl orqali bir feʼlning turli xil variantlari paydo boʻladi, lekin bunda feʼllar oʻzaro semantik jihatdan nozik farqlarga ega boʻladi: *flip out > ausflippen, flippen, abflippen, rumflippen, wegflippen* ²⁹

Ammo shunday oʻzlashtirma feʼllar borki, ular bir emas, balki bir nechta guruhga tegishli boʻladi. Bunga misol boʻlib *checken* feʼli kela oladi:

ab-/aus-checken (i), *an-checken* (ii), *durch-checken* (ii), *ver-checken* (iii)

Shular bilan birgalikda aytish mumkinki, yuqoridag barcha kategoriyalar uchun *ab-*, *aus-*, *an-*, *rum-* kabi morfemalar bilan kelgan feʼllar maʼlum bir darajada oʻzgarish yoki integratsiya jarayoni yuz beradi.

Nemis tilida soʻzlashuvchi yoshlar leksikasidagi oʻzlashtirma soʻzlarda sifat soʻz turkumiga kiruvchi soʻzlar ham salmoqli oʻrin egallaydi. Bunda soʻzlar chet tilidan yoshlar leksikasiga turli xil shaklda oʻzlashadi.

(i) Morfologik jihatdan oʻzgarishsiz qabul qilingan sifatlar. Bularga *dark, deep, happy, heavy* kabi sifatlar misol boʻladi. Bu soʻzlar odatda gapda kesim, ravishdosh boʻlib keladi, lekin ular aniqlovchi boʻlib kelmaydi. M.: *die Stimmung ist sehr tuff [=tough] und ein wenig dark.*

(ii) Turlanadigan sifatlar: *big, cool, soft, straight, clean.* Bu tur sifatlar birinchi qatordagi sifatlariga qarama qarshi turadi. M.: *cooles Gesicht; softer Metal; cleaner Layout*

(iii) *-ig* suffiksli sifatlar. Bunda *-ig* suffiksi ingliz tilidagi *-y* suffiksi oʻrnida qoʻllaniladi. M.: *chilly > chillig; nerdy > nerdig.* Baʼzida esa chet tilidagi qoʻshimchasiz sifatlar oʻzlashtirilganda *-ig* qoʻshimchasini oladi: *mainstream > mainstreaming; power > powerig*

(iv) *-mäßig* suffiksli sifatlar. Mazkur qoʻshimcha bilan kelgan sifatlar baʼzida *-wise* va *-like* morfemalari oʻrnida qoʻllanadi. M.: *layout-wise > layoutmäßig*

(v) *-isch, -esk, -end, -t* suffiksli sifatlar

(vi) *clubtauglich, pogofähig* kabi toʻliq emas suffikslar (Halbsuffikse)

(vii) ravishdoshlar (*angerappt* kabi)

Turlanib keladigan sifatlar baʼzida turli xil sifat darajalarida ham keladi. Bu holat ayniqsa sifatning orttirma va qiyosiy darajasida kuzatiladi: *Ost-Berlin war cooler als jetzt; das raveigste Publikum*

Big, tuff, ruff, strange kabi sifatlarning bir vaqtning oʻzida turlanish va turlanmaslik xususiyatiga keladigan boʻlsak, bunda javob (i) va (ii) guruh sifatlarining oʻzaro uzviy aloqasiga borib taqaladi. Kuzatishlarga koʻra, sifatlar koʻpincha turlanmagan tarzda qabul

²⁹ Androustopoulos J.K. “Deutsche Jugendsprache. Untersuchungen zu ihren Strukturen und Funktionen. Frankfurt am Main, Bern, New York, Paris, Wien: Lang, 1998. S.561



qilinadi (i) va va ba'zida oradan vaqt o'tgach ularda turlanish- fleksiya hodisasi yuz beradi (ii).

Xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlar leksikasining doimiy ravishda o'zgarib turishi va chet tilidan so'zlarni o'zlashtirish xususiyati yoshlar leksikasining muhim semantik jihati hisoblanadi. Yoshlar leksikasidagi o'zlashtirma so'zlar, ayniqsa anglisizmlarning nafaqat semantik, balki morfologik-sintaktik jihatdan ham tahlillari natijasida aytish mumkinki, o'zlashtirma so'zlarning yoshlar leksikasida qo'llanishi tilning integratsiyasi hodisasiga yaqqol misol bo'ladi hamda va tilning rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Androutsopoulos A. Kanaksprak – Mischmasch – Hip-Hop-Slang-Wie Comedy, Migration und globale Popkultur das Deutsche in Bewegung bringen. In.: Fluter. Hervorgerufen am 25.5.2009 von <http://archetype.de/texte/2003/Kanaksprak - Mischmasch - HipHop-Slang.pdf>.
2. Androutsopoulos J.K. Deutsche Jugendsprache. Untersuchungen zu ihren Strukturen und Funktionen. Frankfurt am Main, Bern, New York, Paris, Wien: Lang, 1998.
3. Ehmann H. Jugendsprache und Dialekt. Regionalismen im Sprachgebrauch von Jugendlichen. Opladen, 1992.
4. Fleischer W. Entwicklung in Wortbildung und Wortschatz der deutschen Gegenwartssprache. Berlin, 1993.

NUTQ ODOB-AXLOQ QOIDALARI LINGVISTIK TADQIQOT OB'EKTI SIFATIDA

Soliyeva Munavvar Ahmadovna

Buxoro davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

[Tel:905149758](tel:905149758) smunavvar2015@gmail.com

Annotasiya: Ish nutq odob-axloq qoidalarini o'rganishga bag'ishlangan, ayniqsa maqolada Zamonaviy nutq aloqalarida nutq niyatlariga qarab tasniflangan vaziyatlar va ularning xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: odob-axloq, nutq birliklari, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy farqlar

РЕЧЕВЫЕ ПРАВИЛА ЭТИКИ КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Солиева Мунаввар Ахмадовна

Бухарский Государственный Университет

преподаватель кафедры английского языкознания

[Tel:905149758](tel:905149758) smunavvar2015@gmail.com

Аннотация: Работа посвящена изучению правил речевого этикета, в частности в статье описаны ситуации и их характеристики, классифицированные по интенциям речи в современном речевом общении.



Ключевые слова: этикет, единицы речи, коммуникативная ситуация, социальные различия.

SPEECH RULES OF ETHICS AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

Solieva Munavvar Ahmadovna

Bukhara State University

a teacher of the English linguistics department

[Tel: 905149758](tel:905149758) smunavvar2015@gmail.com

***Annotation:** The work is devoted to the study of the rules of speech etiquette, in particular, the article describes situations and their characteristics, classified according to the intentions of speech in modern speech communication.*

***Key words:** etiquette, units of speech, communicative situation, social difference*

Tadqiqotlarda odob-axloq, nutq birliklari barqaror, ma'lum bir tilshunoslik jamiyatida qabul qilingan so'z, ibora yoki jumla bayonotlariga teng tuzilgan deb tushuniladi. Suhbatdosh bilan muloyim aloqaning odatiy holatlarida qo'llaniladi. Nutqiy etiket birliklari aloqa vaziyatiga bevosita bog'liqdir. Ushbu bog'liqlik ikki tomonlama xususiyatga ega: "bir tomondan, nutq odob birliklari tegishli vaziyatlarda tipiklashtiriladi, boshqa tomondan, vaziyat tarkibiy qismlari nutq odob birliklarida qat'iy birikmalar tufayli keskin belgilarni keyinga qoldiradi. standart vaziyatlarga standart birliklar ". Nutqiy etiket vaziyatlarida suhbatdoshni kuzatib borish orqali do'stona munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan odatiy, muntazam takrorlanadigan aloqa vaziyatlari, tegishli lisoniy vositalardan foydalangan holda, ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan ba'zi qoidalar va marosimlar tushuniladi. Har qanday kommunikativ vaziyatning majburiy komponenti bu suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish, uni aniqlash, muloqot oxiriga qadar aloqani saqlab qolish uchun do'stona muhit yaratishdir. Ushbu aloqa vazifalarini amalga oshirishning asosiy vositasi murojaat. Aloqa jarayoni samaradorligini qo'lga kiritishda murojaat muhim rol o'ynaydi, chunki aynan shu nutqiy etiket birliklari kommunikatorlarning o'zaro ta'sirining dastlabki bosqichida asosiy hisoblanadi, keyingi suhbatning ohangini belgilab, adresat niyatlari to'g'risida ma'lumot tashuvchi hisoblanadi. V.E.Goldin ning so'zlariga ko'ra: "Murojaat - bu odamlarning muloqotini ta'minlash va tartibga solish uchun til tomonidan ishlab chiqilgan universal tabiatning asosiy vositalaridan biridir"[2,296].

Odatda kommunikativ vaziyat singari odob-axloq nutqining holati murakkab tuzilmaviy shakllanish, manzilga yuborilgan nutq xabarining shakli va mazmunini belgilaydigan tarkibiy qismlar to'plami:

- 1) mavzu (ma'ruzachi, adresat) va uning ijtimoiy rollari;
- 2) ob'ekt (tinglovchi, adresat) va uning ijtimoiy rollari;
- 3) kommunikatorlar o'rtasidagi munosabatlarning tabiati (rasmiy - neytral - do'stona);
- 4) aloqa muhiti (norasmiy, neytral, rasmiy);
- 5) vaziyatning makon-vaqt parametrlari (aloqa joyi va vaqti);
- 6) nutq niyati – niyat ma'ruzachi ma'lum bir nutq harakatini amalga oshirish;
- 7) odobli nutq ma'ruzachining nutq niyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalarni anglatadi;



8) aloqa usuli (aloqa yoki uzoqdan muloqot; og'zaki yoki yozma shakl)

Komponentlardan kamida bittasini o'zgartirish (masalan, kommunikatorlarning ijtimoiy rollari yoki aloqa muhiti) odob-axloqiy vaziyatni lingvistik dizaynini o'zgartirishga olib keladi, bu esa nutq vositalarini o'ziga xos kommunikativ sharoitlarda eng maqbul va mos tanlash zarurati bilan bog'liq [5,229].

Yuqorida sanab o'tilgan komponentlar odob-axloq nutqiy vaziyatni yaratishda tengsiz rol o'ynaydi. Olimlarning fikriga ko'ra, aloqa "odob-axloq qoidalarini" ning asosiy mezonlari har qanday ijtimoiy xususiyatlarga (jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei, ma'lumot darajasi va boshqalar) ko'ra adresat va adresant o'rtasidagi farqlarning mavjudligidir. Kommunikatorlar o'rtasidagi ijtimoiy farqlar ikki jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu aloqa jarayonining ishtirokchilari tomonidan qabul qilinadigan ijtimoiy rollarning farqlari (masalan, xo'jayin - bo'ysunuvchi, professor - talaba, ota - o'g'il, mezb-on - mehmon va boshqalar). Ushbu alomatlar doimiy emas: har xil vaziyatlarda bitta odam har xil rollarning tashuvchisi bo'lishi mumkin (ishda - professor, uyda - ota, er va boshqalar).

Ijtimoiy rollar kommunikatorlarning doimiy yoki uzoq muddatli ijtimoiy xususiyatlariga qo'shilib, ularning ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini quyidagi mezonlarga muvofiq belgilaydi: yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi, tarbiyasi, millati va boshqalar. Muayyan rolni tipik bajarish haqidagi g'oyalar rol xulq-atvorining ajralmas qismi bo'lgan odob-axloq nutq stereotiplarida amalga oshiriladi [8,138]. Nutqiy etiket vaziyatni yaratishda nutq niyati muhim rol o'ynaydi. Har qanday odob-axloq nutqi harakati ma'lum bir kommunikativ niyat bilan amalga oshiriladi, ya'ni maqsadga erishishga qaratilgan. O. G. Pocheptsovning so'zlariga ko'ra, nutq niyati keyingi nutqning o'zaro ta'siri samaradorligining ajralmas shartidir, chunki bu til bilan insonni bog'laydigan bo'g'in: "Inson - bu bajaruvchi, til bu vositadir va niyat ularni nutq faoliyatiga birlashtiradi". Faqatgina ma'ruzachining nutq niyatini to'g'ri tanib olish orqali (masalan, e'tiborni jalb qilish, taklif qilish, minnatdorchilik bildirish, xayrlashish, kechirim so'rash va h.k.), adresat xabarni to'g'ri qabul qilishi va unga javob berishi mumkin [3,116].

Muayyan nutq niyatini amalga oshirish kommunikativ jarayonni to'g'ri aniqlash va tartibga solish uchun eng maqbul bo'lgan odob-axloq vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'ruzachining nutq niyatini amalga oshirish uchun u yoki bu nutq harakatini amalga oshirish niyati etarli emas [7,412]. Tilshunoslik qoidalariga ko'ra, ma'lum bir tilshunoslik jamiyatida muayyan nutq vositalarini ma'lum bir odob-axloq sharoitida ishlatish to'g'risida qabul qilingan kelishuvlar mavjud. Boshqacha qilib aytganda, har bir odob-axloqiy vaziyat o'ziga xos nutq vositalariga ega va undan yetarli darajada foydalanilmagan taqdirda, adresat niyati adresat tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi mumkin [6,1600].

Zamonaviy nutq aloqalarida nutq niyatlariga qarab tasniflangan ko'plab odob-axloqiy nutq vaziyatlari mavjud bo'lib, eng keng tarqalgani: salomlashish, xayrlashish, murojaat qilish, iltimos qilish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so'rash, taklif qilish, tabriklash, rad etish, tilak, hamdardlik va boshqalar. Har bir odob-axloq holatida umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan o'ziga xos odob nutq birliklari ishlatiladi: 1) standart, stereotip; 2) samaradorlik (harakatga tenglik); 3) marosimlarni o'tkazish; 4) to'liq yoki qisman desemantizatsiya; 5) frazeologik xarakter; 6) kutish va bashorat qilish; 7) muloqotning qulay muhitini yaratishga munosabat; 8) madaniy va vaziyatni yaxshilash [4,170].



Nutqiy etiket funksiyalari bo'yicha olimlarning fikrlarini umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkinki, aloqa jarayonida ushbu birliklar turli vazifalarni amalga oshiradilar, ular orasida asosiylari quyidagilardir: nominativ (nutq murojaat qilingan odamni nomlash, uni boshqa shaxslar soni); apellyatsiya (manzilni chaqirish, uning e'tiborini jalb qilish); aloqa (suhbatdosh bilan aloqani o'rnatish, saqlash va tugatish). Har bir aniq vaziyatda aloqa, yuqoridagi vazifalardan biri asosiy, o'zgarmas bo'lib qoladi, bu erda ixtiyoriy, variantli funksiyalar ustma-ust qo'yiladi: ekspresiv yoki baholovchi xarakterli (suhbatdoshni baholash, adresatning unga nisbatan munosabatini ifodalash); tartibga solish (kommunikatorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish); ixtiyoriy (rag'batlantirish, manzil egasida ma'lum bir ta'sir sabab bo'lishi uchun mo'ljallangan) va boshqalar murojaat lingvistik vaziyatlarga tegishli. Shu bilan birga, har bir millat asrlar davomida o'zining ma'lum tarixiy aloqa sharoitida o'zining ijtimoiy-tarixiy tajribasi, madaniy an'analari va nutq hatti-harakatlari me'yorlari bilan bog'liq o'ziga xos noyob murojaat va nutqiy etiket birliklari tizimini yaratib kelmoqda. Bundan tashqari, ma'lumotnomalarning semantikasida milliy xarakterning estetik tarkibiy qismi, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ma'lum bir etnik guruh vakillari dunyosini fikrlash va idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Grice, H. P. *Presupposition and Conversational Implicature* [Text] / H. P. Grice // *Radical Pragmatics*. – New York, 1981. – P. 83–198
2. Haugh, M. *The discursive challenge to politeness research: An interactional alternative* [Text] / M. Haugh // *Journal of Politeness Research*. – Vol. 3 (2). – 2007. – P. 295–317.
3. O. G. Pochevov. – *Osnovi pragmaticheskogo opisaniya predlozheniya* Vishaya shkola, 1986. – 116 .
4. Usmonova, Zarina Habibovna. "Steven King romanlarining badiiy xususiyati va uning o'zbek ilmiy fantastikasiga ta'siri." *Міжнародний науковий журнал Інтернаука* 1 (1) (2017): 170-172.
5. Gadoeva, Mavluda Ibragimovna; Umurova, Xushvaxt Hakimovna; and Vaxidova, Fotima Saidovna (2019) "THE EXPRESSION OF THE MEANING OF THE CATEGORY OF INDEFINITENESS IN NOUNS AND PRONOUNS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 43. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/43>
6. Zarifovna, Ruzieva Nafisa. "The viewpoint to the study of euphemisms in different languages and epochs." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.2 (2021): 1600-1605.
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=2&article=261>
7. Abdullayeva, Gulnora; „GRAMMATICAL DISPROPORTION BETWEEN UZBEK AND ENGLISH AS A MAIN PROBLEM IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION OF THE LANGUAGES,EPRA International Journal of Research and Development



(IJRD),5,9,409-412,2020,EPRA Publishing

<https://eprajournals.com/viewjournal.php?jid=3438>

8. Ruzieva, N. X., & Yuldasheva, F. E. (2017). The use of mingles in the communicative way of teaching. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 138-139.

9. Gadoyeva, M. (2021). Features of connotative meaning of somatizms as part of phraseological units. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 5(5).http://scholar.googleusercontent.com/scholar?q=cache:ji9Fsy4oIMAJ:scholar.google.com/+Gadoyeva&hl=ru&as_sdt=0,5

10. Haydarov Anvar Askarovich, and Nigina Hamidovna Navruzova. "CONNOTATIVE MEANINGS RELATED TO SOUND CHANGES." *International Journal for Innovative Engineering and Management Research*. Vol 10. Issue 03. (2021.02): 340-347. <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/Special>

11. Bakhridinovna, K. A. (2020). Features of the use of the periphrases of the Uzbek and English languages in journalistic texts. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(7), 8162-8168. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=43267947>

12. Akramov, I. (2021). ОСОБЫЕ ЗНАКИ, СВОЙСТВА И ХАРАКТЕРИСТИКИ АФОРИЗМОВ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 5(5). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2386

13. Mastura, E. (2017). DEPICTION OF THE NATURALISM PRESENTED IN THE CALL OF THE WILD. *Интернаука*, (7-3), 6-9. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=29041086>

14. Elmanova, M. (2017). PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF RW EMERSON'S "NATURE" AND "SELF-RELIANCE". *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 9. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=29041087>

15. Khayrullayeva, N. (2015). COMMUNICATIVE PECULIARITIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN POLITICAL DISCOURSE. *Научная дискуссия: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии*, (7), 137-141. <https://elibrary.ru/item.asp?id=23760006>



SOSSYUR TA'LIMOTI VA ZAMONAVIY O'ZBEK TILSHUNOSLIGI

Bobokalonov Ramazon Rajabovich, f.f.n.,

Buxoro davlat universiteti dotsenti,

boboramazon@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada Ferdinand de Sossyur davridan boshlab sistem-struktur tilshunosligida shakllangan lisoniy qolip va nutqiy hosilalarning falsafiy kategoriylariga aloqadorligi, til va nutqning dixotomik farqlanishi, leksik-sintaktik va lingvoparadigmatik xususiyatlari yuzasidan ilmiy qarashlar, mushohadalar va sintaktik munosabatlarga e'tibor qaratilgan. Lisoniy qolip va nutqiy hosila muammosi jahon tilshunosligida faqat xususiy korpusda o'rganilganligi, biroq rivojlanib borayotganligi strukturalistlarning oldida turgan qiyosiy-chog'ishtirma, diskursiologik tadqiq masalalariga oydinlik kiritishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, ishda o'zbek va fransuz tillari sintaksisi masalalariga alohida urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar: *sistem-struktur tilshunoslik, lisoniy qolip, ichki struktura, tashqi struktura, element, dixotomiy, tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish, sistema, struktura, element, falsafiy kategoriylar, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik, butun va qism, strukturan.*

СОССЮР ДОКТРИНА И СОВРЕМЕННЫЙ УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Бобокалонов Рамазон Раджабович, к.ф.н.,

Доцент Бухарского государственного университета,

boboramazon@mail.ru

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистические закономерности узбекского системно-структурного синтаксиса на основе учения Фердинанда де Соссюра, типы речевой продукции, некоторые синтаксические проблемы, возникающие при сравнении узбекского и французского языков, различные особенности речевых произведений в общем и личном корпусе, сравнительная степень, уточнены вопросы исследования дискурса.

Ключевые слова: *системно-структурная лингвистика, языковой паттерн, внутренняя структура, внешняя структура, элемент, дихотомия, организация, управление, контроль, система, структура, элемент, философские категории, сущность и явление, содержание и форма, причина и следствие, необходимость и случайность, случайность и реальность, общность и специфичность, целое и часть, структура.*

SOSSYUR DOCTRINE AND MODERN UZBEK LANGUAGE

Bobokalonov Ramazon Rajabovich, PhD.,

Associate Professor of Bukhara State University

boboramazon@mail.ru

Resume: *The article examines scientific views, observations and syntactic relations on the structure of language and its relation to the philosophical categories and lexical-syntactic of speech products, dichotomous differentiation of language and speech, linguoparadigmatic features that have formed in systemic and structural linguistics since the time of Ferdinand de Saussure. The fact*



that the problem of linguistic images and speech derivatives is studied and developed in world linguistics only in the private sector requires clarification of the issues of comparative, discursive research facing structuralists. Therefore, the work pays special attention to the syntax of the Uzbek and French languages.

Key words: *system-structural linguistics, language pattern, internal structure, external structure, element, dichotomy, organization, management, control, system, structure, element, philosophical categories, essence and phenomenon, content and form, cause and effect, necessity and randomness, chance and reality, generality and specificity, whole and part, structure.*

Materik olamning bir burchagida sodir bo'lgan tabiiy yoki ijtimoiy hodisa makon va zamonda boshqa bir burchagida takrorlanib turishini inkor etish mumkin emas. Iqlim, tabiiy ofatlar, iqtisodiy yuksalish, siyosiy to'qnashuvlar kabi biologik, geografik, sotsiologik, politologik o'zgarishlar negizida tilshunoslikda ham paradigmatic hodisalar va lingvistik o'lchamlar har doim o'xshash, farqli va o'zgaruvchan bo'ladi, Bu holat til va jamiyat qonuniyatlari uchun ham me'yoriy jarayon hisoblanadi.

Struktur tilshunoslik Evropada tug'ilib, Amerikada rivoj topdi. Bu lingvistik interferentsiy Markaziy Osiyoga o'tgan asrning 80-yillarida rus tilshunosligi zaminida kirib keldi. Masalani oydinlashtirish uchun savol tug'iladi:

Sossyur ta'limotini kim qanday va qancha tushunadi?

Ferdinant de Sossyur strukturalizmi rus tilshunosligidan "tilshunoslik" terminiga "sistem", "struktur", "sistem-struktur" sifatlari bilan birga bilvosita o'girildi. Sossyur zamonidan boshlab strukturalistik tilshunoslik til va nutq hodisalariga yaxlit bir butunlik – belgilar sistemasidan iborat hodisa sifatida qaralgani, ularning mazmuni va shakli o'rtasidagi munosabatlarning nazariy asoslari takomillashib borishi, lison//nutq dixotomiyasi tizimiy aloqadorlikda bo'lishi ham o'zbek tilshunosligida bilvosita o'tgani sir emas. Chunki Sossyurni tushunish uchun uni fransuz tilida o'qish va zamonaviy xalqaro tilshunoslik natijalarini kuzatib borish kerak edi. Shu sababli ham hozirgacha bizning mamlakatimizda uning g'oyalari hayotga to'g'ri tadbiiq etilmay kelinayotgani Sossyurni tushunadigan tilshunoslarimizga ma'lum. Sossyur qo'yasidan kelib chiqadigan maqsad faqat til hodisalarini dixotomik zanjirini ko'rsatish emas, balki har qanday tilning amaliy jihatdan o'rganilishini osonlashtirish, o'rganish uchun qulay shart-sharoit tizimini yaratish, nutq imkoniyatlarini amaliy jihatdan rivojlantirishdan iborat edi. Buning uchun Fransiya, Amerika, Angliya, Italiya, Ispaniya va h-zo mamlakatlarda amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan turli-tuman lug'atlar, tilni sohaviy o'rganish uchun osonlashtirilgan minglab didaktik vositalar yaratilgani singari amaliy ishga tezroq ko'chib, til o'rganish orqali tafakkurni o'stirish mumkin bo'lardi. Menimcha, biz Sossyurni tushunmay unga nazariy baho berishdan nariga o'tmayapmiz.

Amaliy jihatdan olib qaralganda Sossyur lingvistik olamda bunchalik mashhur bo'lishini o'zi ham o'ylab ko'rmagan bo'lsa kerak. U til tizimini yaratish uning o'rganilishini osonlashtirish uchun xizmat qilishi shart degan g'oyani ilgari surdi, xolos. Bunga faqat professor H.G.Negmatov rahbarligidagi izlanuvchilar asrimiz boshida astoydil kirishgan edilar va bu yo'nalishda respublika bo'ylab birqancha ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Ming afsuski, O'zbekiston maktablariga o'zbek tili o'qitish tizimini



yangilashga zabardast olimlarimiz to'g'ri baho bera olmaganliklari sababli xayrli ish yana orqaga surildi.

Tizim yaratish uchun tizimni isloh qilish zarur edi. Ana shu talabdan kelib chiqib, Sossyur ta'limotida ham til, jamiyat va tabiatdagi bog'liqlik dialektik qonuniyatlar revolution tarzda tizim qoidalariga bo'ysundirildiyu hamma tilshunoslar jimib qoldi. Fonetik va fonologik, leksik va semantik, morfologik va sintaktik sathlar yaxlit tizim ostida tadqiq etila boshlandi. Ammo har bir tilning ichki xususiyatlari boshqa tillarga o'xshamasligi sababli qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik masalalarida differentsial yondashuv – beo'xshov kontentlar borligi yaqqol sezila boshlandi.

Til falsafasiga asosan tizim, ya'ni "**Sistema, struktura, element** falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sistema – grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi. Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi [4, 3-341]." Bularni alohida-alohida aniqlashtirish muhimdir.

Tizimlashtirish nazariy faoliyat sifatida tarkibiy elementlarni mantiqiy izchil tartibga keltirishni taqozo etadi. Tizim, til va nutq dixotomiyasi hamda nutqiy hosilalar til falsafasi uchun muhim sanalgan o'zaro bog'langan zanjir hisoblanadi. Xususan, *sistemalashtirish*, o'z ahamiyatiga ko'ra *turkumlalashtirish*, elementlarning funksional faoliyati uchun muhim falsafiy metodologik ahamiyatga ega. "Insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi bevosita ob'ektiv qonuniyatlarni o'rganish, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga bog'liq. Ya'ni bular insonning *tashkillashtirish*, *boshqarish*, *nazorat qilish* faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi. Sistema – narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir." [4, 3-341]

«Sistema va struktura» bir-birini to'ldiradigan tushunchalardir. Shuning uchun zamonaviy o'zbek tilshunosligida sistem-struktur tushunchalariga tez-tez murojaat qilib turiladi. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollari belgilab turadi.

Borliqni tashkil qilgan *elementlarning* munosabatlari, makon va zamon xususiyatlariga qarab, «ichki struktura» va «tashqi struktura»ga («linguistique interne», «linguistique externe») ajratiladi. *Element* sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi.

Ta'kidlash joizki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko'ra har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida tan olib qarash



lozim. Til tizimidagi ma'lum sohadan tilshunosning xabardor bo'lmashligi tizim ichida bo'lmashligidan dalolat beradi. Jumladan, jamiyat va til taraqqiyotida ham shunday holat kuzatiladi. Zero, til jamiyat strukturasi, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi. Biroq tilni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil o'ziga xos sistema ekanligini ko'ramiz. Chunonchi, buni rivojlanib borayotgan fan-texnika, tibbiyot, koinot, iqtisodiyot va h-zolarda yaqqol sezamiz. Shunga ko'ra, til ham o'ziga xos tizim, ya'ni "*sistema, struktura va element*" nisbiy tushunchalar bo'lib, kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi. Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo'lib hisoblanadi." Elementlar sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko'ra: muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va asosiy bo'lmaganlarga ajratib o'rganiladi. Chunki har qanday konkret unsur, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko'ra, o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Buni falsafa fanidagi juft kategoriyalar: «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va oqibat», «zaruriyat va tasodif», «imkoniyat va voqelik», «umumiylik» va «xususiylik», shuningdek, «butun», «qism», «struktura», «element» kategoriyalari orqali aniqlab olish mumkin va bular o'zaro uzviy bog'liq falsafiy o'lchamlardir.

Parij tilshunoslik maktabida Ferdinand de Sossyur izdoshlari Sh.Balli, A.Seshevel, L.Tener, A.J. Greymas, J. Kurte va boshqalar til falsafasi bo'yicha nazariy kontseptsiya – ta'limot yaratishdi. Aslida Sossyur tilni tizimli o'rganish maqsadida "Ma'ruzalar" ini meros qilib shogirdlariga qoldirdi, xolos [6]. Uning kamchilik-nuqsonlar izdoshlari tomonidan bartaraf etildi. Chunonchi, Greymas ilmiy omma e'tiborini semiotikaga qaratish uchun shunday ta'rif berdi: "Parij maktabi ma'no asosini yaratadigan va yaratiladigan universal tuzilmalarning mavjudligini paydo bo'lganini isbotlaydi. Ularni o'rganish – semantika tushunchasiga ko'ra bosh masala semiotika mavzusidir. Ushbu tuzilmalar modellar ko'rinishida ifodalanishi mumkin, keyinchalik ular semantik mazmunni dekodlash va izohlash uchun har qanday belgilovchi ob'ektga qo'llanilishi mumkin (tarj. B.R.)» [12]. Biroq Ferdinand de Sossyurning g'oyasi romanistika va germanistikada ham dastavval qarshilikka uchragan edi. Uning dunyoga mashhur bo'lishiga ham shu ziddiyat sabab bo'ldi. U nemis faylasuf olimlari Gegel, Kant, Bop, Vilgelm fon Humboldtlarning til va tafakkur nuqtai nazaridan idealistik va gumanistik qarashlaridan ilhomlangan edi [7, 154; 8, 201-245]. Ularning lingvistik g'oyalari asosida lison//nutq farqi – "belgi, belgilanuvchi va belgilanmish" (uchlik assimetrik burchak – "signification, signifiant, signifié") lariga aniqliklar kiritdi [9]. Bunda til tizim asosida tashkil topgan yaxlit bir butunlik, uning unsurlari tashkil etuvchilik tamoyiliga asosan ana shu butunlik doirasida o'zaro aloqadorlikda, lison//nutq hodisalari dialektik qonuniyatlar metodologiyasi asosida o'rganildi.

Ma'lumki, dialektik qonuniyatga asosan til ayniyat, nutq esa o'zgaruvchan hodisadir. Til hodisalari o'lchami me'yoriy bo'lib, nutq hodisalari o'lchami nome'yoriydir. Tildan hamma umumiy foydalanadi, uning qonuniyatlari davlat va jamiyat tomonidan tartibga solinadi. Nutq esa individual hodisa bo'lib, muayyan va ma'lum qonun-qoidalarga bo'yin so'ndiriladi va tartib-qoidaga muvofiq muloqot jarayonida xususiy ahamiyat kasb etadi.



Har bir nutqiy hosila o'z muallifiga ega. Nutq hosilasi mikrotekstdan, makrotekst (oddiy so'z-gapdan badiiy asar)ga qadar individual hodisadir. Til jamiyat ong-tafakkuri mahsuli, nutq esa shaxs mahsulidir. Insonning nutq ifodasi uning ongi, dunyoqarashi, aql-idroki darajasidan dalolat beradi. Til tizimini o'rganishni cheklab qo'yib bo'lmaydi. Shaxs o'z hayotida butun tizim ichida yashar ekan, u olamni bilish va tushunishga intiladi. Demak, nutq ongli mehnat natijasidir. Ong esa miya faoliyatining sog'lom fiziologik jarayonidir. Ong nafaqat aql-idrokni, balki inson qobiliyatini yuzaga chiqishiga yordam beradi. Til tizimi dunyoni muloqot asosida bilish uchun vositadir. Til tizimi va uning signallari asosida shaxs tafakkurini shakllantirish oson kechadi.

Til – inson uchun in'om etilgan ulug' ne'mat. Til insonni shaxs sifatida tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi (bunda soqov odamlarning shartli signallar orqali o'zaro gapirishi til tizimiga ko'chirilganini e'tibordan qochirmaslik kerak). Til sathi tizimga solib o'rganilar ekan, tizim orqali olamni to'g'ri anglash oson kechadi. Tizim asosida ensiklopedik lug'atlar yaratiladi, tafakkur shakllanadi.

Til//nutq dioxroniyasi falsafiy kategoriy sifatida quyidagicha izohlanadi: til – imkoniyat, nutq – natija/voqelik; til – umumiylik, nutq – xususiylik /alohidalik /yakkalik; til – sabab, nutq – oqibat; til – zamon, nutq – makon; til – mazmun, nutq – shakl; til – mohiyat, nutq – hodisa; til – substantsiy, nutq – hosila; til – butunlik, nutq – bo'lak/qism; til – zaruriyat, nutq – tasodif; til – sistema/struktura, nutq – element kabi dialektik juftlikni hosil qiladi. Falsafiy kategoriyalar falsafiy tafakkur uchun nihoyatda muhim bo'lgan olamdagi o'zgarish, rivojlanish, aloqadorlik va uzviy bog'liqlikka xos umumiy jihatlarning in'ikosidir. Ular narsa va hodisalarning o'ziga xosligi, o'xshashligi va farqlarini, barqarorligi va o'zgarishini anglatuvchi, bilishning asosini tashkil etuvchi eng umumiy tushunchalar bo'lib, olamdagi barcha hodisa, jarayonlarga xos umumiy, muhim tomonlar, hususiyatlar, munosabatlarni ifodalovchi keng ma'noli va chuqur mazmunli ilmiy atamalardir. Til//nutq dixotomiyasi ong mahsuli sifatida inson tafakkurining rivojlanishiga turtki beradi.

Xulosa shuki, har kim o'z qobiliyati doirasida o'z nutqining muallifidir. Til o'zini anglash uchun berilgan imkoniyat. Imkoniyati cheklangan shaxs bilan intellektual rivojlangan shaxs o'rtasida tildan foydalanish zaruriyati amalda bir xil emas. Har bir inson ma'lum bir sharoitda o'z nutqiga ega bo'lishi mumkin. Inson til iste'molchisi sifatida oz nutqini ong qobig'i – miyada ishlab chiqib, uni realizatsiy qiladi, xoh og'zaki yoki yozma bo'lsin, o'z nutqiga sayqal bera oladi va uni rivojlantirish mumkin. Tilning nutqda reallashuvi shaxsning fikr doirasiga bog'liq. Nutqning diskursiv holati til imkoniyatidan foydalana olish qobiliyatiga aloqador. Chunki nutq til qolipi hosilasi, ong va shuur natijasi hisoblanadi. Til tizimini yaratish til imkoniyatlaridan foydalanishni osonlashtiradi. Tillar tizimini qiyoslash esa, ularning differensial belgilarini tushunishga, lingvomadaniy, lingvodidaktik, neyropsixolingvistik muammolarni bartaraf qilishga ham yordam beradi. Bular har bir shaxsning tillar tizimi aloqadorligida intellektual salohiyatini rivojlantirishga, chet tillarida o'zaro muloqot qilishda xizmat qiladi.

Tilni tizimlashtirish Sossyur g'oyalarini nafaqat tilning o'zida, balki til o'rganishning integratsiyalashuvida, til o'rganishni qulaylashtirishda va tafakkur doirasini boyitishda undan foydalana olish yo'llarini izlashtirishimiz hamda minglab o'quv-uslubiy qo'llanmalar, sohaga doir lug'atlar, olamni aks ettiruvchi ko'rgazmali vositalar, elektron



darsliklar yaratish zarur. Bir gap bilan aytganda, ona tili zaminida har bir tilni mukammal bilish uchun kitob rastalarini chet eldagidek to'ldirib qo'yish kerak.

Foydalangan adabiyotlar

1. Bobokalonov R.R. O'zbek tilida semantik-funksional gaplar talqini. –T.: Fan, 2006. 3-126 b.
2. Bobokalonov R.R. Umumiy tilshunoslik masalalari va frazeologik birliklar talqini. Buxoro, 2009. 3-120 b.
3. Bobokalonov P.R. Kanonik modeli nutqiy hosilalarning tollerantlikka aloqadorligi. Monografiya. – T: «Fan ziyosi» nashriyoti, 2021. 3-98 b.
4. Falsafa asoslari. Toshkent O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005 www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Malmberg Bertil. Structural Linguistics and Human Sommmunication, 2^e éd.1966.
6. Malmberg Bertil. Les Nouvelles tendances de la linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972.
7. Gumbold V. Izbrannyye trudy po uzykoznaniyu. – M.: 1984. S.154.
8. Gegel G.V. Nauka logiki. T – I. – M.: “Mysl”, 1970. S. 201-245.
9. Cahiers F. de Saussure, XII, 1954, p. 9-28/Cours de linguistique générale de F.de Saussure, 1957.
10. Sayfullayeva R.R. va b. Hozirgi o'zbek tili, darslik, Toshkent – O`ZMU, 2020 3-549 b.
11. Martin Reigel. Jean Christophe Pellat. René Riol. Grammaire méthodique du français. PUF. Paris. 1998.
12. Греймас А.Ж. Структурная семантика: Поиск метода/Sémantique structurale: Recherche de méthode Перев.: Л. Зимина.- М.: Академический проект, 2004.- 368 с. ISBN: 5-8291-0440-7.

ҚЎШМА СЎЗЛАРНИНГ КОНЦЕПТУАЛ ТАҲЛИЛ МАСАЛАСИ

Юлдашев Акмал Гуламжанович

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Инглиз тили 1 факультети декани

Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

тел: 97 7728044 email: akmal1909@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада қўшма сўзларнинг ливкокогнитив аспектда концептуал таҳлил қилиш масаласи тадқиқ этилган. Қўшма сўзларнинг концептуал жиҳатини ёритишда концептуал метафоранинг роли когнитив майдонларга ажратилган ҳолда далилланган. Шу билан биргаликда қўшма сўзларнинг когнитив моделларини яратиш усуллари кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: когнитив майдон, манба-майдон, нишон-майдон, концептуал таҳлил.

ПРОБЛЕМЫ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА СЛОЖНЫХ СЛОВ

Юлдашев Акмал Гуламжанович

Узбекский государственный университет мировых языков

Декан 1 факультета английского языка



Доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
тел: 97 7728044 email: akmal1909@mail.ru

Аннотация: В данной статье исследовался концептуальный анализ сложных слов в лингвокогнитивном аспекте. Роль концептуальной метафоры в объяснении концептуального аспекта сложных слов была подвержена путем разделения ее на когнитивные области и показаны методы создания когнитивных моделей сложных слов.

Ключевые слова: когнитивная область, область-источник, область-цель, концептуальный анализ.

THE PROBLEMS OF CONCEPTUAL ANALYSIS OF COMPOUND WORDS

Akmal Yuldashev Gulamjanovich

Uzbekistan state university of world languages

Dean of the English faculty 1

Doctor of philosophy on philological science (PhD), docent

tel: 97 7728044 email: akmal1909@mail.ru

Annotation: This article explores the conceptual analysis of compound words in the linguocognitive aspect. The role of conceptual metaphor in explaining the conceptual aspect of compound words was exposed by dividing it into cognitive domains and methods for creating cognitive models of compound words were shown.

Key words: cognitive domain, source domain, target domain, conceptual analyses.

Тил тизими ва инсоннинг нутқий фаолиятини ҳар томонлама тадқиқ қилиш, уларга хос белги-хусусиятларни батафсил ёритиш учун тилшуносликнинг турли соҳаларини бириктирадиган, уларнинг барчаси учун бир хилда таянч нуқта хизматини ўтайдиган умумлашган таҳлил тизимини топиш олимлар олдидаги долзарб муаммо бўлиб, бугунги кунга қадар аниқ ечимини топган эмас. Бу каби таҳлил тизими тўғрисида Бодуен де Куртене шундай деган эди: “Тилда рухий ва ижтимоий далиллар ҳаракатда бўлиши сабабли тилшунослик учун ёрдамчи фан сифатида дастлабки ўринда психологияни ва ундан кейин кишиларнинг жамиятдаги муносабатлари ҳақидаги фан – социологияни танлаймиз” [2].

Тил ва тафаккур муносабатлари масаласининг фалсафа, тилшунослик ва психология фанлари доирасида батафсил муҳокама қилиниши когнитив тилшунослик тараққиёти учун мустаҳкам замин яратди. Когнитив тилшунослик мажмуавий тадқиқот соҳаси бўлиб, у тилшунослик ва психологиядан ташқари сунъий интеллект назарияси, психоллингвистика, нейролингвистика каби фанлар соҳаларига оид илмий ёндашувларни ҳам умумлаштиради.

Инсон борлиқдаги нарса ва ҳодисаларни асосан тил орқали идрок этади, хотирасида сақлайди ва уни концептуал тизимга жойлайди. Н.Н.Болдирев таъкидлаганидек, ҳар бир инсон ўз концептуал тизимга эга бўлади. Масалан, қишлоқ хўжалиги ходимининг концептуал тизимидан *ерга қайта ишлов бериш, экин экиш, уни сугориш, парваришлаш* тил бирликлари ўрин олади; ўқитувчида *дарс, меъёрий ҳужжатлар, журнал, дарс режаси* ва *жадвали, баҳолар қайдномаси, рейтинг*



дафтарчаси кабилар концептуал тизимни ҳосил қилади. Ҳар икки ижтимоий қатлам вакилларининг концептуал тизими бир-биридан тубдан фарқ қилади.

Оламни билиш жараёнида, яъни уни концептуаллаштириш ва категориялаштиришда баҳо муносабати муҳим ўрин тутади. Н.Н.Болдиревнинг таъбири билан айтганда, бу жараёнда эгалланган билимлар интерпретацияси, иккиламчи концептуаллаштириш ҳамда муносабат, баҳо ифодалаш, қадриятлар, стереотиплар каби бошқа тизимлар доирасидаги иккиламчи категориялаштириш муҳим аҳамиятга эга [3]. Аниқроқ айтадиган бўлсак, инсон оламни идрок этар экан, албатта, бу жараёнда эгалланаётган билимни унганча бўлган билимлар билан ўзаро қиёслайди. Қиёс асосида онда янги концепт шаклланади. Бундай ҳолат, айниқса, қўшма сўзларда яққол ўз аксини топади.

Инсоннинг оламни идрок этиши жараёнида воқеликнинг қайта англаниши натижасида индивиднинг концептосферасида янги мураккаб когнитив жараёнлар амалга ошади. Бу жараёнлар *концептуал деривация* мақомини олади. Концептуал деривация аниқ концептлар ўртасида алоқа мавжуд эканлигини назарда тутган ҳолда асосий концепт ва унинг асосида пайдо бўлган концептларнинг ўзаро таъсирини таъминлайди. Концептуал деривация ясама сўзларда, жумладан, қўшма сўзларда ўз аксини топади. Концептуал деривация назариясига асос солган Е.С.Кубрякованинг фикрича, инсон билимларининг ўзаро боғланиши маълум бир сўз ясаиш конструкциялари, сўз яшаш моделлар механизми ва унинг семантикасига асосланади.

Когнитив тилшунослиқда концептнинг ўрни алоҳида эканлиги олимлар томонидан кўп бор таъкидланган. Жумладан, Е.С.Кубрякова концептнинг онгимиз ва руҳий имкониятларимиз ҳамда инсон билими, тажрибасини акс эттирувчи тафаккур бирлиги эканлиги ҳақида фикр юритади. Унинг фикрича, концептуал тизим фикр юритиш ҳамда инсон психикасида воқелик қиёфасини акс эттирувчи тузилмадир, хотира менгал лексиконининг фаол мазмун бирлиги, миянинг концептуал тизими, бутун олам манзараси инсон руҳида акс этади [5].

Мазкур мақолада К.С.Кубрякова Т.Клауснер, У.Крофт, Н.Н.Болдиревлар [5, 4,12, 13] томонидан концептга берилган “концепт – бу инсон тафаккурининг тез ҳаракатчан (оператив) бирлиги ёки тизимли билим кванти” таърифига таянилади. Негаки концепт инсоннинг ташқи оламни идрок этишида фаол ҳаракатланиб, унинг онгида менгал равишда намоён бўладиган бирликдир. Бу жиҳатдан тил бирликлари, жумладан, қўшма сўзларнинг когнитив-деривацион таҳлил қилиниши ҳар жиҳатдан лозим ва мақсадга мувофиқ.

Тилшунослиқда концептни таҳлил қилишнинг ўзига хос методлари мавжуд. Ж.Лакофф ва М.Жонсон концептнинг метафорик таҳлили усули ҳақида фикр юритиб, метафора образли схемаларнинг бир концептуал майдондан бошқасига ўтишини таъминловчи фундаментал когнитив операция вазифасини бажарувчи восита эканлигини қайд этдилар.

Когнитив тилшунослиқ нуқтаи назаридан қўшма сўзларнинг ясаиши мавжуд тил бирликлари ифода этган билимларнинг инсон томонидан қайта англаниши орқали амалга оширилади. Е.Кубрякованинг қайд этишича, ясама сўз маъносида



бир томондан когниция, иккинчи томондан коммуникация жараёни акс этади, яъни ҳар қандай ҳосил бўлаётган сўзда билимларни ихчамлаш жараёни содир бўлади [7].

Тилда янги сўз ясалиши жараёни тил тизимидаги мавжуд ясалиш тизимини ўрганишдан бошланади. Концепт ҳосил бўлишининг дастлабки босқичида ажратиб олинган ўхшаш семантик муносабатларни ифодаловчи прототип моделлар қидирилади [9]. Мазкур прототип моделлар асосида шу типдаги бирликлар ҳосил қилинади. Бошқача айтганда, янги лексик бирлиكنинг ҳосил бўлиши тилнинг мавжуд бирликлари негизида содир бўлади.

Концептнинг мазмунан шаклланиши бир неча босқичли *когнитив механизмлар* орқали амалга оширилади. Фақат энг сўнгги босқичда у вербал ифодага эга бўлади. қўшма сўзларнинг ҳосил бўлишида қуйидаги когнитив механизмлар фаол иштирок этади:

1. Концептуал метафора (conceptual metaphor) [16].
2. Концептуал метонимия (conceptual metonymy) [16].
3. Метафтонимия (metaphonymy) [15].
4. Концептуал интеграция назариясидаги блендинг (blending) [14].

Е.С.Кубрякова янги сўз ҳосил қилиниши жараёнини таҳлил қилар экан, бу ҳодисанинг бирин-кетин боришида кузатиладиган қуйидаги икки амалий вазифани ажратиб кўрсатади: 1) бирор нарсани номлаш учун, аввало, референтни таниб олиш, унинг тил эгаси когнитив тизимидаги ўрнини аниқлаш ва уни муайян тоифага киритиш; 2) ушбу референтни бошқа, бу тоифада (синфда)ги ўхшаш референтлар билан таққослаш ва номланган референтни унга ўхшашларидан фарқловчи жиҳатни ажратиш. Е.С.Кубрякова бу жараёнда аввал умумий категориялаштириш, сўнг субкатегориялаштириш содир бўлишини таъкидлайди. Унинг фикрича, номлаш акти “воқеликнинг бирор-бир ҳодисасини бошқалар билан таққослаб, улар орасида муайян муносабатларни аниқлашдир [6].

XX асрнинг сўнгги чорагига келиб тилшуносликка “концептуал метафора” назарияси Ж.Лакофф ва М.Жонсон томонидан чоп этилган “Биз билан ёнма-ён яшаётган метафоралар” (Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We live by*) номли машҳур асари орқали олиб кирилди. Мазкур назариянинг моҳияти шунда эдики, олимлар метафорани оддий стилистик ифода воситаси эмас, балки концептуал мақомга эга бўлган муҳим ҳодиса эканлигини эътироф этган ҳолда унинг янги табиатини очиб бердилар. Уларнинг фикрича, “...метафоралар инсон концептуал тизимидан ўрин олгани учун тилда ифода воситаси сифатида мавжуд. Бошқача қилиб айтганда, метафора аслида тафаккурга хос, лисоний метафоралар фақат мана шу ҳодисанинг ташқи ифодасидир” [10], “метафоралар нафақат кундалик ҳаёт, нафақат тил, балки тафаккур ва фаолиятимизга ҳам кириб боради. Кундалик концептуал тизимимиз, фикрлашимиз ва хатти-ҳаракатимиз ҳам ўз моҳиятига кўра метафорикдир” [16].

Англашиладики, метафора шунчаки ифода воситасигина эмас, балки тафаккур ва маданиятга алоқадор ҳодисадир. Шундай экан, концептуал метафоралар оддий маъно кўчиши натижасида ҳосил бўлган ҳосила маъно эмас, балки инсон тафаккурида содир бўладиган мураккаб когнитив жараён натижасидир. Бу борада олиб борган кузатувларимиз шунни кўрсатдики, концептуал метафора



янги ном ясалишининг энг сермахсул усули саналади. Кўшма сўзларнинг ҳосил бўлишида ҳам концептуал метафора зарур когнитив механизм ҳисобланади.

Ж.Лакофф., М.Жонсон, С.Клауснер, В.Крофт ишларида метафорик ҳосила маънонинг пайдо бўлишида когнитив тилшунослик нуқтаи назаридан иккита когнитив майдон, яъни *манба майдони* (source domain) ҳамда *мақсад майдони* (target domain) иштирок этишини кўрсатишади [16]. Уларнинг фикрича, концептуал метадоралар ортида фрейм ва сценарий ўртасидаги ўзаро таъсир кучи ётади. *Манба майдони* инсоннинг тажрибаси орқали борлиқни идрок этишидаги аниқ билимлари йиғиндисидир. *Мақсад майдони* эса нисбатан кам ойдинлашган, аниқлашган муқаррар билимдир. Масалага ойдинлик киритадиган бўлсак, метафора орқали маъно кўчиши содир бўлганда инсон тилнинг луғат таркибидаги мавжуд бирликлардан ва эгаллаган билимидан фойдаланади. Ушбу ҳолат *манба майдони* вазифасини ўтайди. *Мақсад майдони* эса инсон тафаккурида тайёр тил бирликлари орқали ҳосил қилинадиган янги ҳосила маънодир.

Ж.Лакофф ва М.Жонсон метадорани тушунишни таъминлаб берувчи феномен деб атайдилар. Уларнинг фикрича, маданият ва дин тизими табиатан метафорикдир, анъанавий метафора фақат тилга мансуб, когнитив тилшунослик нуқтаи назаридан метафора кундалик ҳаётимиз ва тушуниш тизимимиз тузилмаси даражасида талқин қилинади [8].

Кўрдикки, метафора оламни идрок этишининг ўзига хос воситаси, тилда янги маънони юзага келтирувчи когнитив механизмдир. Ташқи оламда жадал суръатлар билан юз бераётган ўзгаришлар, турли кашфиётлар натижаси ўлароқ онгимизда ҳосил бўлган янги тушунчаларга ном беришда метафора муҳим ўрин тутаяди. Демак, метафора нафақат тил ҳодисаси, балки тафаккур ҳодисаси ҳамдир. Бу хулоса ўз вақтида бошқа олимлар томонидан ҳам қайд этилган. Хусусан, Айвор А.Ричардснинг фикрига кўра, “тафаккурнинг ўзи метафорикдир, у қиёслаш орқали содир бўлади ва айнан шу нуқтада тилда метафора ҳосил бўлади” [1]. Хосе Ортега-И-Рассет ҳам “метафора нафақат ифода воситаси, тафаккурнинг асосий қуроли” эканлиги ҳақидаги қарашни илгари суради [11].

Концептуал метафора хорижий тилшунослар Ф.Унгерер, Х.Шмидт, Т.С.Клауснер, В.Крофт [13, 19], А.Лаира ва А.Жанда [18] томонидан ҳам ёритилган бўлиб, улар ҳам концептуал метафора, шунингдек, метонимия орқали ҳосил бўладиган ҳосила маънолар ўртасидаги ўзаро фарқларни аниқлашга ҳаракат қилганлар.

Тадқиқот давомида кўшма сўзлар метафорик маъно кўчиши орқали ҳосил бўлишининг концептуал таҳлилида когнитив механизм саналмиш *концептуал метафора* алоҳида ўрин тутиши аниқланди. Кўшма сўз ясалишида концептуал метафора *манба майдони* ва *мақсад майдонларининг* ўзаро мослашиши орқали кўзга ташланади.

Маълумки, сўз семантикасининг тадқиқи концептгни фақат бир жиҳатдан ўрганишга имкон беради. Концептуал метафора таҳлили орқали сўзнинг лексик тасвири тўлдирилади, сўз маъноларининг контекстдаги излари, унинг метафорик ишлатилиши қайд этилади. Бу, ўз навбатида, концептнинг жамики пинҳоний белгиларини очиш имкониятини беради. Бундан ташқари, мазкур таҳлил методи



тадқиқ этилаётган концепт ёрдамида оламнинг муайян тиллардаги манзараси талқинини аниқлашга имкон беради.

Тилшуносликда *концептуал майдон* турлича номланади. Хусусан, Р.Лангакер концептуал майдонга нисбатан *когнитив майдон (cognitive domain)*, Ж.Фоконье ва Ж.Лакофф *ментал майдон*, Д.Лихачев *концептосфера*, Н.Н.Болдирев *концептуал контекст* терминларини қўлайдилар. Биз тадқиқотда Р.Лангакер томонидан берилган қуйидаги таърифга асосланамиз: Семантик бирликни характерловчи контекстнинг майдони – когнитив майдондир [17]. Концептнинг категория ва субкатегориялар йиғиндисини *когнитив майдон* тарзида номлаймиз.

Инсон тафаккурида оламни идрок этиш жараёнида шакланган умумий концептлар категорияларга ажратилади. Концептлар ўз когнитив майдонларига эга бўлиб, мазкур майдон субкатегориялардан ташкил топади. Буни қуйидагича тасвирлаш мумкин:

ВАҚТ + ҲАРАКАТ НОМИ ← ҚУШ

манба майдони мақсад майдони

Ўзбек тилидаги *кун қарғар* қўшма сўзи “агамалар уруғининг бир тури, қуш”ни англатади. Кун қарғар худди чумчуққа ўхшаш, у одам турадиган жойларда яшайди. Қушнинг ранги ёшига қараб ўзгариб боради. Ўзбекистондаги чўл ва саҳроларда яшайдиган кун қарғар офтобга қараб ўтириб, бошини салом бергандек пастга тушириб, баландга кўтаргани учун кунни қарғаяпти деб, унга “кун қарғар” деб ном қўйишган [3Э амфибия ва рептилиялар, 1969: 4].

Қўшма сўзнинг луғавий маъноси қушнинг нима учун бундай ном билан аталишини кўрсатиб турибди. Когнитив нуқтаи назаридан қўшма сўзнинг *кун* компоненти ВАҚТ концептнинг когнитив майдонидан, *қарғар* компоненти эса ҲАРАКАТ концептнинг когнитив майдонидан проекциялашади ҳамда мазкур концептлар *манба майдони* вазифасини ўтайди. ҚУШ концептнинг когнитив майдони *мақсад майдони* саналади.

Юқорида келтирилган когнитив модел андозаси каби қуйидаги йил мавсуми ва иқлимни англатувчи қўшма сўзларнинг концептуал таҳлилини амалга ошириш мумкин. Масалан: инглиз тилидаги *brass-monkey* қўшма сўзи “*British extremely cold*” маъносини англатади. [OALD 2010: 175] (*brass – жес, мис ва руҳ қуйишмаси, monkey – маймун*). Ўзбек тилида бу қўшма сўз *қора совуқ* маъносига эга. *Dog-days* қўшма сўзи “the hottest period of the year” луғавий маъносига эга. [OALD 2010: 448] (*dog – кучук, day – кун*). Ўзбек тилида у *жазирама* лексемаси билан ифода этилади. *Honeymoon* қўшма сўзи “A holiday/vacation taken by a couple who have just got married. The period of time at the start of a new activity when nobody is criticized and people fell enthusiastic» маъносига эга. [OALD 2010: 747] (*honee – асал, moon – ой*). Бу қўшма сўз англатган маъно ўзбек тилида *асал ойи* бирикмаси билан ифода этилади.

Ўзбек тилида қуйидаги қўшма сўзлар йил мавсуми ва иқлимни англатади: *бешқўноқ* қўшма сўзи “ҳамал ойида (апрелда) бўладиган совуқ кунлар”ни англатади. Одатда, бундай кунлар апрель бошида бўлиб, 4-5 кундан ошмайди [ГИЛ, 1979: 25]. *Илигузилди* қўшма сўзи “эрта баҳорда кўр-қут тугаган, ҳали ҳеч нарса пишмаган киши организми дармонларга эҳтиёж сезадиган давр”ни билдиради. [ЎТИЛ II, 2006: 191]. *Аямажиз* “қишнинг охирига ҳафтаси” маъносига эга. *Аямажиз* сўзи “айём ажуз”



(кампир куни) сўзларининг талаффузда қисқариб кетишидан ҳосил бўлган. “Аямажиз олти кун, қаҳр айласа, қаттиқ кун” деган нақл бор [ГИЛ, 1979: 19].

Юқорида қайд этилганлар асосида шуни хулоса қилиш мумкинки, концепт тили эгаларининг олам ҳақидаги билимлари, тажрибасини акс эттирувчи тафаккур бирлигидир. Инсон тафаккурида мавжуд билимлардан фойдаланишга қаратилган когнитив механизмлар фаолияти амалга ошади. Когнитив механизмлар фаолияти инсонда муайян когнитив моделларни шакллантиради. Қўшма сўзлар ясалишида воқеликнинг инсон онгида когнитив механизмлар асосида қайта идрок этилиши кузатилади. Бу жараёнда оламни категориялаштириш, концептуаллаштириш ва, албатта, уларни акс эттирувчи когнитив механизмларнинг аҳамияти катта бўлиб, улар концептуал метафора, концептуал метонимия ва метафтонимия ҳодисаларини юзага келтиради.

Қўшма сўзларнинг маъносини белгилашда фақат ифода плани билан кифояланиб бўлмайди. Уларнинг ясалишида, албатта, энциклопедик билимлар, хусусан, инсоннинг концептуал тузилишини белгилашга қаратилган баҳоловчи билимига ҳам таянилади.

Муайян концептуал майдондан ўрин олган субкатегориялашган концептларнинг фаоллашуви натижасида инсоннинг воқелик ҳақидаги ментал тасаввурини акс эттирадиган образлар, тушунчалар, тасаввурлар шаклидаги вербал ифодага эга тафаккур бирлиги ҳосил бўлади.

Концептуал метафора айни бир пайтда категория, бирлик ва тузилма бўлиб, бир вақтнинг ўзида индивидуал ва ижтимоий тус касб этади. Концептуал метафора мавҳум, аниқ ассоциатив ва баҳоловчи белгилар ёрдамида яратилади. Концептуал метафора ҳаётий тушунча негизида ишлаб чиқилган мавҳум илмий тушунчаларни ўз ичига олади. Концептуал метафора маданият генотипига кирадиган ўзига хос гаплар, тушунча ёки сохта тушунчаларга таянадиган, ўз-ўзидан ҳосил бўладиган, интегратив функционал тизимли, кўп ўлчамли идеаллаштирилган шаклий ҳодиса сифатида қўшма сўзлар ҳосил бўлишида салмоқли ўрин тутади. Концептуал метафорада *манба майдони* ва *мақсад майдони* ўртасидаги ўзаро ўхшашлик асосида қўшма сўзлар пайдо бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Айвор А. Ричардс. // Метафора. Теория метафоры: Сборник: Пер. с англ., фр., исп., польск., яз. / Вступ. ст. и сост. Н.Д.Артюновой; Общ. ред. Н.Д.Артюновой и М.А.Журиной. – М.: Прогресс, 1990. – 512 с.
2. Бодуэн де Куртэнэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Том II – М.: Изд-во АН ССР, 1963. – 391 с.
3. Болдырев Н.Н. Категориальная система языка / Категоризация мира в языке / Когнитивные исследования языка X. – Москва-Тамбов, 2012. – С. 17-120.
4. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику. – Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет им. Г.Р.Державина, 2014. – 236 с.



5. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. – 245 с.
6. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. – М.: Наука, 1981. – 200 с.
7. Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки Славянской культуры, 2004. – 560 с.
8. Лакофф Дж, Джонсон М. Метафоры которые мы живем: Пер. с англ. / Под. ред. и с предисл. А.Н.Баранова. Изд. 2-е. – М.: ЛКИ, 2008. – 256 с.
9. Петрович Ю.В. Когнитивные основы образования новых фразовых глаголов в современном английском языке: Дисс ... канд. фил. наук. – М., 2004. – 47 с.
10. Скребцова Т.Г. Когнитивная лингвистика. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2011. – 254 с.
11. Хосе Ортега-И-Гассет. Две великие метафоры. // Теория метафоры: Сборник: Пер. с англ., фр., исп., польс., яз. / Вступ. ст. и сост. Н.Д.Артюновой; Общ. ред. Н.Д.Артюновой и М.А.Журинской. – М.: Прогресс, 1990. – 512 с.
12. Clausner T.C., Croft W. Domains and images schemas. – Cognitive Linguistics, 1999. – Vol. 10. – № 1. – P. 2-31.
13. Croft W., D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – 374 p.
14. Fauconnier G., Turner M. Conceptual integration networks // Cognitive science. 1998. – vol. 22. – № 2. – P. 133–187.
15. Goossens L. Metaphtonymy: The Interaction of metaphor and metonymy in figurative expressions for linguistic action. // Cognitive Linguistics. – Berlin; New-York: Mouton de Gruyter, 1990. – № 1. – P. 323–340.
16. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We live by. – The University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
17. Langacker Ronald W. Foundations of Cognitive Grammar, Vol. I: Theoretical Prerequisites, Stanford, California: Stanford University Press. – 516 p.
18. Laura A. Janda. A metaphor in search of source domain: The categories of Slavic aspect. Cognitive Linguistics, 2004. – Vol. 15. – № 4. – 471–527 p.
19. Ungerer, F., Schmid, H.-J. An Introduction to Cognitive Linguistics. – L., N.Y.: Longman, 1997. – 305 p.

Луғатлар

20. Зоҳидов Т.З. Зоология энциклопедияси. Амфибия ва рептилиялар (газандалар). – Тошкент: Фан, 1969. – 226 б.
21. Қораев С., Ғуломов П., Раҳимбеков Р. Географиядан изоҳли луғат. – Тошкент: Ўқитувчи – 1979. – 156 б.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 – жид. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672 б.
23. Oxford Advanced Learner`s Dictionary. Eighth edition. – Uk / India. Oxford University Press, 2010. – 1796 p.



УЎК: 821.512.133.09-32

ҲИКОЯДА ТАРИХИЙ ОБРАЗ ТАЛҚИНИ

Амиркулова Зебунисо Мустафакуловна

Термиз давлат университети

ўқитувчи

Тел: 91 586-65-72 e-mail: zebuniso.amirkulova

Аннотация: Ушбу мақолада тарихий мавзудаги ҳикояларда тарихий образ талқини ҳақида фикр юритилган. Бунда тарихий мавзуда асар ёзганда ёзувчи муаллифдан тасвирланаётган давр ҳаётини ёки тарихий шахнинг ҳаёти ва фаолиятини тарих ҳужжатлари асосида ўрганиш, шу даврнинг тарихий колоритини ҳаққоний тасвирлаш, персонажлар нутқида ўша давр кишилари тилига хос хусусиятларни акс эттириш ҳақида батафсил баён этилган.

Калит сўзлар: Тарих, ҳикоя, аجدодлар, поэтика, ижодкор, Абдулла Қодирий, Абдурауф Фитрат, Одил Ёқубов, Пиримқул Қодиров, Муҳаммад Али, Сойим Исҳоқ, Уйғун, Иззат Султон, Ойбек, Ҳамид Олимжон, Абдулла Орипов.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ОБРАЗА В ИСТОРИИ

Амиркулова Зебунисо Мустафакуловна

Термезский Государственный Университет

Преподаватель

Тел: 91 586-65-72 e-mail: zebuniso.amirkulova

Аннотация: В статье рассматривается трактовка исторических образов в исторических рассказах. При написании произведения на историческую тематику автор подробно описывает изучение жизни или деятельности исторического деятеля на основе исторических документов, точно отображая исторический колорит этого периода, отражая язык персонажей того периода.

Ключевые слова: история, рассказ, предки, поэтика, создатель, Абдулла Қодирий, Абдурауф Фитрат, Одил Якубов, Пиримқул Қодиров, Муҳаммад Али, Сойим Исҳоқ, Уйғун, Иззат Султан, Ойбек, Ҳамид Олимжон, Абдулла Орипов.

INTERPRETATION OF HISTORICAL IMAGE IN THE STORY

Amirkulova Zebuniso Mustafokulovna

Termez State University

Teacher

Tel: 91 586-65-72 e-mail: zebuniso.amirkulova

Annotation: This article discusses the means and features of the artistic plot in historical stories. When writing a work on a historical topic, the author describes in detail the life of the period or the life and activities of the historical figure described by the author on the basis of historical documents, accurately depicting the historical color of this period, reflecting the language of the characters.



Keywords: *History, story, ancestors, poetics, creator, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Odil Yakubov, Pirimqul Qodirov, Muhammad Ali, Soyim Ishaq, Uygun, Izzat Sultan, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Aripov.*

Мустақиллик даврига келиб эпик турнинг ҳикоя жанрига бошқа жанрлардан кўра кўпроқ эътибор қаратилди. Ҳикоянинг мавзу кўлами кенгайди ва тарихий ҳикоялар яратиш жадаллик билан анъана тусига кирди. Унинг бошқа турлари ҳам оммалашди.

Бадиий асарларда воқеликни, инсон феъл-атворида бўлаётган ўзгаришларни ва унинг фаолиятини бадиий шаклда қайта яратиш мумкин. Қайта ишланган асардан ижтимоий-фалсафий маънолар қидиришга уриниш ёзувчиликнинг ўзига хос ҳислатларидан биридир. Мавжуд миф ва афсоналарни бадиий-эстетик тафаккур тарзида асарга олиб кирса ҳам бўлади. Ва турли ифода йўсинлари орқали давр руҳини, қаҳрамонларнинг кечинмаларини ифодалаш, улар орқали китобхонни фалсафий мушоҳадага чорлаш Назар Эшонқул услубининг етакчи омилларидандир. Шу сабаб бўлса керак, унинг “Маймун етаклаган одам”, “Баҳовуддиннинг ити”, “Шамолни тутиб бўлмайди”, “Тобут”, “Хароба шаҳар сурати” каби ҳикояларида тарихийлик, яъниким, афсона ва ривоятлар нафасини ҳис этамиз. “Назар Эшонқул чорак аср самарали ижод қилди. “Баҳовуддиннинг ити”, “Шамолни тутиб бўлмайди”, “Сибизға воласи” “Бепоён осмон” каби одамни фикрлашга ундайдиган ва осонгина ҳазм қилиб бўлмайдиган серқатлам ҳикоялари босилди”, [1. Б. 306.] деб фикр билдиради, адабиётшунос Б.Каримов “Мўъжаз хазиналар сири” мақоласида.

Назар Эшонқулнинг “Сибизға воласи” (миф-ҳикоя) асари ҳам мана шу руҳдаги асарлари сирасига киради. Бу ҳикоя халқ орасида машҳур Искандар Зулқарнайн ҳақидаги афсона асосида яратилган. Афсонада келтирилишича, Искандарнинг бошида шохи бор, аммо буни ҳеч ким билмас, қайси сартарош сочини олса, эртасига қатл қилинади. Оқибатда, мамлакатда сартарош қолмайди. Мамлакатдаги охириги сартарошни ҳукмдор ҳузурига олиб келадилар. Сартарош вазифасини адо этгач, сирни ошкор этмаслиги ҳақида огоҳлантирилади ва тирик қўйиб юборилади. Ўлимдан қутулиб қолган сартарошни бошқа бир дард ўз исқанжасига олади: ичидаги мудҳиш сир уни тинч қўймас ва уни ҳеч кимга айта олмас эди. Ниҳоят, сартарош чидолмай эски бир ташландиқ қудуққа ўз сирини айтиб енгил тортади. Орадан узок вақтлар ўтиб, қудуқдан қамишлар ўсиб чиқади. Бир чўпон йигит бу қамишдан най ясайди ва уни чалиб кўрганда, найдан “Искандарнинг шохи бор”, деган овоз таралади. Ва шу билан нечалаб одамларнинг умрига зомин бўлган бу мудҳиш сир эл орасида фош бўлади. Маълумки, бадиий адабиётда бир хил мавзуда, ҳатто сюжет жиҳатидан ҳам бир-бирига ўхшаш асарлар жуда кўп учрайди. Ёзма адабиётда эса халқ оғзаки ижодига хос сюжетлар асосида яратилган асарлар талайгина.

Фольклор асарларини, яъни халқ орасида оғиздан оғизга ўтиб, кенг тарқалган ижод намуналарини ижодкорларимиз ўз замоналарига мослаб қайта ишлаганлар. Шеърый ё насрий шаклда яратилган бундай асарлар адабиётимиз хазинасидан муносиб ўрин олган. Бу каби асарларни Фурқат, Абдулла Авлоний, Элбек, Қудрат



Ҳикмат, Зафар Диёр каби шоирларимиз ижодида кўришимиз мумкин. Айниқса, Ҳамид Олимжон «Ойгул билан Бахтиёр», «Семурғ ёки Паризод ва Бунёд» каби эртақ-дostonларини халқ оғзаки ижодининг сара дурдоналари асосида яратган. Бундан ташқари, адабиётшунослиқда сайёр сюжет тушунчаси борки, “Бу турли халқлар оғзаки ижодида бир-бирига ўхшаш сюжетлар бўлиб, адабий асарлар бир маданий–тарихий ҳудуддан бошқа тарихий-маданий ҳудудларга кўчиб юриши билан изоҳланади. Мутахассислар сайёр сюжетларнинг вужудга келишини халқаро маданий алоқаларнинг кучайиши билан боғлайдилар” [2. Б. 306.]. Бироқ бу асарлар, айнан, бир хил дегани эмас. Бундай асарлар жанр, ғоявий, тасвир ва ифода жиҳатидан фарқ қилади. Ёзувчининг ўзига хос услуби яққол сезилиб туради. Ижодкор ўз ҳаётини тажрибаси, турмушни кузатиши, билим даражаси, диди, савияси, дунёқарашидан келиб чиқиб асарни қайта яратади. Назар Эшонқулнинг “Сибизга воласи” ҳикояси ҳам Искандар ҳақидаги машҳур афсона асосида ёзилган бўлса-да, ёзувчи уни янги тасвир воситалари ва тўқималар билан бойитиб, қайта ишлашга уринган. Ҳикояда саргарош образи бош қаҳрамон даражасига олиб чиқилган. Ҳикояда ривоянинг субъектив кўриниши кузатилади. Яъни, асар воқеалари ҳикоячи-персонаж ҳисобланган саргарош тилидан ҳикоя қилинади. Бу эса тасвирнинг жонлилиги ва таъсир кучини оширишга хизмат қилган. “Маълумки, адабиётшунослиқда ривоя – воқеликни объектив воқеабанд тазда акс эттирувчи эпик асарларнинг ўзаги, эпик асар қурилишининг асосий шакли, ундаги муаллиф ёки персонаж – ҳикоячи нутқи, яъни асар матнининг персонажлар нутқидан ташқари қисми бўлиб, эпик асарда объектив ва субъектив кўринишлари мавжуд. Объектив ривояда ровий “холис кузатувчи” сифатида воқеаларга фикр билдирмайди ва тасвир предметига очиқ аралашмайди. Субъектив ривояда эса, аксинча, воқелик “ичдан ўтказиб” берилади, тасвир предметига муносабат ошқор ифодаланади” [4. Б. 251.]. Муаллиф субъектив ривоя орқали асарнинг эстетик таъсир кучини оширишга эришган.

Ҳикояда саргарош образи асосий образ ҳисобланади. Саргарошнинг руҳий ҳолати, қалб кечинмалари, изтироблари кенг очиқ берилади. Шаҳардаги ягона саргарош ва унинг ҳам қисмати бошқалари каби аянчли якун топиши, бу ўзгармас қисмат эканига ҳикоянинг бошидаёқ урғу берилади. Ва ҳикоя охирига қадар ўқувчининг эътибори шу жиҳатга қаратилади. Воқеалар ривожини поғонама-поғона ривожланиб боради ва ёзувчи асарда нима демоқчи, нимани мақсад қилгани ойдинлаша боради.

Шуни таъкидлаш лозимки, воқеалар муайян бир йўналиш бўйича ривожланиши ва ҳодисалар тизимли, тартибга мос тарзда юз бериши ёки асарда вақт кетма-кетлигига амал қилинмаган, жараёнлар эса воқеа ривожини бошқичларига таянган ҳолда турли йўналишларда юз бериши ҳикоя жанрининг ўзига хос хусусияти ҳисобланади. Шунингдек, умумий баёнда бир-бирига қўшилиб кетмайдиган, аммо маълум муддатдан сўнг умумий баён оқимида қўшиладиган шохчаларга бўлинишдан иборат ҳикоя қилиш методи ҳам учрайди. Ижодкор ҳикоя жанрининг характерли усуллари мисол сифатида умумий тасаввур тамойилига кўра тасвирлаш композицияси ва мустаҳкам ички боғланишли қисмлардан ташкил топган типни келтириши мумкин. Назар Эшонқул ўз асарларида шу икки усулни



аралаш ҳолда қўллаган. Баъзан бирор образни яхлит гавдалантириш учун у алоҳида қисмларни ҳам батафсил ифодалайди. Бу кераксиз туюлган сахналар образнинг яхлит қиёфасини шиддат билан чизишда қўл келади. Ҳикояда сартарош образи худди мана шу усулда гавдалантирилган. Бунда муаллиф бадиий тасвир ва ифода воситаларига кенг ўрин бериш орқали, асар бошидаёқ қаҳрамоннинг вазияти, ҳолати ва руҳиятини очиқ беришга уринади.

Адабиётшуносликда портрет образ яратишнинг муҳим шартларидан биридир. “Бадиий асардаги портретнинг характери ва функциялари ранг-баранг бўлади. Бироқ портретнинг энг муҳим характери унинг психологик портрет бўлишидир. Психологик портрет ёзувчига персонажнинг ташқи кўриниши орқали унинг руҳий дунёсини очишга ёрдам беради. Шунинг учун айтиш мумкинки, портрет ёзувчининг шахсий услуби, маҳорати ва мақсадига боғлиқ ҳолда турлича даражада берилиши мумкин”. [5. Б. 252.]. “Сибизга воласи” ҳикоясида муаллиф Искандар образи портретини яратар экан, образнинг ташқи қиёфаси ва унинг хатти-ҳаракатини тўлиқ тасвирламайди. Балки унинг ташқи кўриниши ва характерига оид муҳим бўлган бир нечта деталларни келтиради ва бу тасвирларни ҳикоячи нутқи орқали ҳикоя сюжетига синдириб юборади. Адабиётшунос Баҳодир Каримов: “Нодир санъат дурдоналарида адабий қаҳрамонларнинг ташқи кўриниши муҳим, айниқса, портрет чизгисида кўзлар марказий ўринни эгаллайди. Зотан инсоннинг кўнгли, қалб ҳолати сўзи ва кўзида намоён бўлади” [3. Б. 54.]. – дейди ва портретда кўзга алоҳида эътибор қаратади.

Бадиий образ носирнинг мукамал гўзаллик нуқтаи назаридан яратган типларида ўз ифодасини топади. Аммо шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, “Мутлақо гўзаллик қамраб олинмаган, балки фақат эстетиканинг хунуклик категорияси ўлчовлари доирасида яратилган образлар ташаккулида ҳам эстетик идеал иштирок этади” [4. Б. 11.]. Олимнинг фикрини давом эттириб айтиш мумкинки, хунуклик категорияси асос бўлган образ, характер ва портретлар заминида шундай хунукликка қарши турган – гўзаллик концепти бўлган бўлади. Назар Эшонқул тасвирида ҳам шу жиҳат етакчилик қилади.

Назар Эшонқул “Сибизга воласи” ҳикоясида Искандар Зулқарнайини золим ва бераҳм шоҳ сифатида тасвирлайди. Бунда, албатта, халқ оғзаки ижодига хос бўлган афсонанинг таъсири катта. Бу каби қараш Мақсуд Шайхзоданинг “Искандар Зулқарнайн” эртак-дostonида ҳам ўз ифодасини топан. Муаллиф “дунёда ҳеч бир ёмонлик жазосиз қолмайди, тубан ишларни қанчалик яширманг, у барибир бир куни ошкор бўлади” деган ибратли ғояни илгари суради ва асар ғоясини маҳорат билан очиқ беради. Эртак-дostonни ўқиган ўқувчи ўз ҳадини билмай, нафс балосига берилган, зулм, зўрлик билан эзгуликни маҳв этиб, ўз мақсадига эришмоқчи бўлган ёвуз кишилар пировардида халқ лаънатига учраб, авлоддан-авлодга ёмон ном билан ўтади, ҳар хил лақаблар орттириб мазах бўлади, деган хулосага келади. Ахир халқда шундай мақол бор, “касални яширсанг, иситмаси ошкор қилади”. Асарда “най” рамзий маънода келади. “Най” образи орқали сир ошкор бўлади. Бу ўринда, услуб ва тасвирий фарқларга қарамай, афсонанинг асл ғояси икки ижодкор асарида ҳам ўз ҳолича сақланади.



Олима Гулноз Сатторова ушбу нуқтаи назардан фикр биддириб, ёзувчининг камчиликларини кўрсатади: “Шу ўринда таъкидлаш ўринлики, “Сибизга воласи” тил, ифода, тасвир жиҳатдан ҳам хийла заиф. Ортиқча сўзамоллик, гаплардаги тўмтоқлик, ғализлик ўқувчи ғашига тегади. Бундай нохушлик ҳикоянинг илк сатрларидаёқ кўзга ташланади” [3. 9-сон]. Шу ўринда фикр муаллифи ҳақ. Чунки тарихий асарларда ўша давр тили тарихийлик руҳини юзага чиқарувчи восита ҳисобланади. Ҳикояда тарихий сўзлар деярли учрамайди. Тарихий манзара, макон ва замон тасвирлари ғализ.

Адабиётдаги поэтик ўзлаштириш, яъни асар сюжети ўхшашу, муаллиф муддаоси бошқа бўлиши мумкин. Кўринадики, адабиётда мавжуд асар таъсирига тушиш ёмон, аммо ўша асардан ўтказиб, бадиий жиҳатдан пишиқ асар яратиш муҳим вазифа ҳисобланади. Муаллиф мана шу вазифани бажаришга ҳаракат қилган ва асарга ўзига хос янгиликларни олиб киришга уринган. Жумладан, асар якуни ҳам ўзгача талқин этилган. Яъни сартарошнинг тақдири ва унинг кейинги ҳаёти қамишларда яширинган сир орқали баён қилинган. Бу асарни анчайин заифлаштирган. Ҳикоя халқ орасида юрадиган Искандар ҳақидаги мистик ҳикоят(чўпчак)нинг бадиийлаштирилган баёнига қурилган. Натижада, жўн бир мистика ҳам маъно, ҳам хронология кўлами нуқтаи назаридан поэтик универсалия касб этган. Ҳикоя сюжети, Искандар ва сартарош образлари типологик қиёфа олган.

Бу ҳикояда ҳам адиб услубидаги шу ўринлар бир қадар кўзга ташлангандек кўринади. Аввалига ўқувчи ёзувчининг қадимий афсонага ёндашувидаги янги талқинидан умидвор ва шундай бўлиши табиий. Ҳикоя бош қаҳрамони ҳам, ҳикоячи ҳам бир киши. У эринмасдан кулминацион воқеагача бўлган тафсилотларни баён қилади. Асарда шаҳар қисматида сартарошсиз қол иш фожиаси битилган. Аслида, инсонни ҳайвондан айириб турувчи асосий жиҳат ҳам соч-соқолини олиб, ўзига оро бериб юришидадир. У эса мамлакатдаги сўнгги сартарош. Носир ёвуз ҳукмдор асраётган сир фуқароларни орқага, жаҳолатга қайтаришга сабаб бўла бошлади, демокчидек туюлади. Шунга қарамай айтиш мумкинки, Назар Эшонқул мавжуд афсона асосида янги ва ўзига хос бадиий асар яратишга уринди. Тарихий шахс образи орқали ҳикоя ғоясини ўз услубига хос тарзда ифодалашга ҳаракат қилди. Бадиий тўқималар ва тасвирлар билан бойитишга уринди. Натижада, “Сибизга воласи” ҳикояси мавжуд асарлар таъсирига тушиб самимиятдан холи асарга айланди.

Искандар образи билан боғлиқ яна бир ҳикоя Раҳимжон Отаевнинг “Ҳадди Искандарий” ҳикоясида воқеалар ривожига ғарб-у шарқ, жумладан, Арабистон, Ҳиндистон, Эрон-у Турон заминини эгаллаб, Исфижоб билан Ўтрорни босиб олган Искандар Зулқарнайн қўшинларининг фавқулудда шижоати билан Ясси томон юриши тасвири орқали бошланади. Аммо қўшин қишлоққа яқинлашиши билан улкан тепаликка дуч келиши ва жанг қилиши ўрнига шаҳар аҳолисининг пешвоз чиқиб, хуш кайфият билан кутиб олиши тасвирланган. Аммо тўқнашувлар авжиги чиққач, қишлоқ аҳолисининг жанг майдонидаги жасорати ифодаси ҳам кишини бефарқ қолдирмайди.

Носир Назар Эшонқул асарларида, кўпинча, шаклий ва маънавий ўзига хослик устунлик қилади. Тафсилотларни рамзлар орқали бериш, ўтмишга



мурожаат, йўқликнинг сирин томон китобхонни бошқариш унинг услубига хос сифат. Келтирилган ҳикояда ҳам адиб услубидаги шу ўринлар бир қадар кўзга ташлангандек кўринади. Ушбу тарихий ҳикояда ўқувчи ёзувчининг қадимий афсонага ёндашувини қабул қила олмаслиги табиий.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Карим Б. “Кўз”нинг поэтик моҳияти / Бадиият уфқлари. – Тошкент: Университет, 2008. – Б. 54.
2. Сарчашма мавжлари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: MASHHUR PRES, 2016. – Б.306.
3. Сатторова Г. Чўпчакдан муддао не? (Назар Эшонкулнинг “Сибизға воласи” ҳикоясини ўқиб) // Ёшлик, 2012 йил. 9-сон.
4. Қуронов Д ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 268.
5. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент : Ўқитувчи, 1983. – Б.252.

BADIY TASVIRDA ALLITERATSIYA VA ASSONANS – STILISTIK FIGURA SIFATIDA

Haydarov Anvar Askarovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti, Buxoro davlat universiteti

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida alliteratsiya va annosans haqida fikr yuritilgan. Fonetik uslubiyatda, asosan, nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Fonostilistika masalalari ingliz va o'zbek tillarida bir qadar o'rganilgan. Unda nutq tovushlari takroriga asoslangan alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabi stilistik figuralar natijasida tilning ta'sirchanlik qirralari namoyon bo'lishi haqida bahs yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** fonostilistika, konnotatsiya, stilistik figura, alliteratsiya, assonans.*

АЛЛИТЕРАЦИЯ И АССОНАНС В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОБРАЗЕ - КАК СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ФИГУРА

Хайдаров Анвар Аскарлович

Кандидат филологических наук, доцент

Доцент кафедры английского языкознания Бухарского государственного университета

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

***Аннотация:** В этой статье обсуждаются аллитерация и аннотации на английском и узбекском языках. Фонетическая методика в основном изучает стилистические особенности звуков речи. Фоностилистика изучается на английском и*



узбекском языках. Обсуждается влияние языка на такие стилистические фигуры, как аллитерация, ассонанс, анафора, эпифора, основанная на повторении звуков речи.

Ключевые слова: фоностилистика, коннотация, стилистическая фигура, аллитерация, ассонанс.

ALLITERATION AND ASSONANCE IN ARTISTIC IMAGE - AS A STYLISTIC FIGURE

Khaydarov Anvar Askarovich

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Associate Professor of English Linguistics, Bukhara State University

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

Annotation: This article discusses alliteration and annotation in English and Uzbek. Phonetic methodology mainly studies the stylistic features of speech sounds. Phonostylistics has been studied in English and Uzbek. It discusses the impact of language on stylistic figures such as alliteration, assonance, anaphora, and epiphora, which are based on the repetition of speech sounds.

Key words: phonostylistics, connotation, stylistic means, alliteration, assonans.

Tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida tilning aloqa vositasi sifatida ichki imkoniyatlari chuqur o'rganila boshlandi.

Natijada uslubiyat va uslubiyatning bir tarmog'i hisoblangan fonetik uslubiyat paydo bo'ldi. Fonetik uslubiyatda, asosan, nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Fonostilistika masalalari ingliz va o'zbek tillarida bir qadar o'rganilgan. Unda nutq tovushlari takroriga asoslangan alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabi stilistik figuralar natijasida tilning ta'sirchanlik qirralari namoyon bo'lishi haqida bahs yuritiladi. Ammo qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy o'rganish amalda oshirilmagan.

Ushbu maqolada stilistik figuralardan alliteratsiya va assonans hodisalarining o'zbek va ingliz tillaridagi o'ziga xosliklari haqida fikr yuritimiz.

Alliteratsiya (lot. al – old, litera – harf) deganda misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi [1, 14] tushuniladi. Alliteratsiyaning vazifasi matnda qo'shimcha musiqiy ohangdorlik yaratishdir.

Uning mohiyati gapdagi bir xil tovushlar bilan boshlangan har bir so'zning takrorlanishidir. Boshqacha aytganda, alliteratsiya jumlada u yoki bu tovushni turli maqsadlarda o'rinli takrorlash san'atidir. Tovush she'rni she'r qiluvchi asosiy element hisoblanadi. So'z ustalari, adiblar o'z asarlarining jozibadorligini ta'minlashda alliteratsiya san'atidan foydalanadilar. Alliteratsiya ma'lum fonetik sharoitda bir so'z ichidagi bo'g'inlararo, shuningdek, jumladagi ikki va undan ortiq so'zlar orasida bo'ladi. Alliteratsiya usulining o'ziga xos xususiyatlaridan asosiysi uning misralarni hosil qiluvchi so'zlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi [2, 41].

Alliteratsiya hodisasi dastlab xalq ijodida mavjud bo'lgan. Xalq o'zining uzoq o'tmishi davomida jamlagan tajribalaridagi maqol, matal va turli xildagi aforizmlardagi o'ta qisqa jumladan ifodalagan.



Xalq o'zi yaratgan og'zaki ijod namunalaridan ayrimlarini yaxlitlash, barqaror holatga keltirish uchun alliteratsiyadan unumli foydalangan. Jumladan, maqol va matalarda:

Ingliz tilida:

Safe and sound; Tit for tat; Blind as a bat; Neck and nothing.

O'zbek tilida: Ellik yilda el o'zgarar; Ko'kka boqma, ko'pga boq.

Yuqoridagi har ikkala tilda keltirilgan misollardan ko'rinadiki, xalq yaratgan ijod namunalarida, xususan, xalq maqollarida ma'no asosiy rol o'ynasa ham, biroq shaklning roli ham beqiyosdir. Sodda shaklda ifodalangan fikr oson tushuniladi, xotirada uzoq saqlanadi.

Xalq tomonidan yaratilgan ushbu usuldan ayrim shoir va yozuvchilar o'z asarlarining ta'sirchanligi hamda jozibadorligini ta'minlashda keng foydalanganlar.

Ingliz tilidagi alliteratsiya hodisasi haqida I.V.Arnol'd fikr yuritib: "Alliteratsiya keng ma'noda bir xil yoki yonma-yon joylashgan urg'uli bo'g'inlar boshidagi undosh yoki unli tovushlar takroridir", - deb qayd etgan [3, 214].

Ingliz tilida: Quyidagi she'rda "d" undoshini takroriga asoslangan alliteratsiya hodisasini ko'rish mumkin:

Deep into the darkness peering, long I stood there wondering, fearing;

Doubting, dreaming, dreams no mortals,

Ever dared to dream before (E.A.Poe)

O'zbek tilidagi quyidagi she'riy parchada ham shoir alliteratsiyadan ustalik bilan foydalanganligini ko'ramiz.

Sim-sim yomg'ir, sirli soz misol.

Pichirlaydi ona tabiat.

Saxiyligi ortganday qat-qat,

Go'yo deydi: ol, ol, olib qol. (Mirtemir "Yoz yomg'iri).

Yuqoridagi misralarda "s" undosh tovushining takroriga asoslangan alliteratsiya hodisasini kuzatamiz. Shoir bahor fasli yoz fasliga qaraganda salqinligi, yengil, yoqimli shabada esib turishi, mayinligi, gul va maysalarga to'la bo'lganligi sababli so'limligi bilan ajralib turishini mohirona tasvirlagan. Shuning uchun keltirilgan parchadagi tabiat tasviri haqqoniy manzara bilan uyg'unlashib ketgan. She'rda ham tabiat tasviri ohangdosh tovushlar orqali obrazli ifodalangan. Shu bilan birga, misradagi "s" tovushining takrori ma'no va emotsional ta'sirchanlik ortib borishiga xizmat qilgan. She'riyatda alliteratsiya orqali obrazlilik va ta'sirchanlik bo'rttiriladi. Uslubiy ravonlik, so'zlarning ohangdorligini vujudga keltiradi. Misra boshida tovushlarning takror kelishi tovushlar uyg'unligini hosil qiladi.

Ingliz tilida:

To lend our hearts and spirits wholly,

To the music of mild minded melancholy,

To muse and blood and live, again in memory. (Tennyson)

O'zbek tilida:

Sokin so'lim kecha... men soqchi edim,

Soyalarday yiroq qorovulxona.

Sokin so'lim kecha. To'rt tomonim olam.



Saqlar edim, elni mardona (Mirtemir)

Shuningdek, alliteratsiyani ro'znoma sahifalarida va adabiy asarlar nomlarida ham uchratish mumkin.

Masalan: *kechmish va kechirilishlardan* (G'.G'ulom)

Izlarini izlayman. Tez va toza.

Shunday qilib, alliteratsiya so'zlar orasidagi aloqani mustahkamlaydi, tashqi tomondan yaxlitlaydi, o'quvchi xotirasida uzoq saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, alliteratsiya ahamiyatli so'zni ajratib ko'rsatadi, uni alohida o'ziga xos talaffuz qilishga undaydi hamda tovush takrori evfonik vazifani bajaradi va tovushning takrorlanishdan poetik asarda obrazlilik hamda ta'sirchanlikni oshirishda muhim fonostilistik vosita sifatida xizmat qiladi, chunki alliteratsiya nutqning umumiy estetik ta'sirini kuchaytiradi.

"Misralar oxiridagi ohangdosh, talaffuzi o'xshash so'zlar, bo'g'inlar yoki birikmalar" [4, 605] **qofiya** deb yuritiladi. Qofiyaning to'liq, bo'sh, unlilar, undoshlar qofiyasi kabi turlari mavjud. Qofiya she'rni tashkil etadi, uni nasriy asarlardan farqlaydi, shu bilan birga ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. She'riy nutqni ohangdor va ta'sirchan qilishda xizmat qiladi. She'rning asosiy g'oyasini ifodalash uchun ba'zan she'rda uning asosini tashkil etuvchi so'zlarning qofiyalashuvini ko'rish mumkin.

Ingliz tilida:

It was many and many a year ago,

In a kingdom by the sea.

That a maiden there lived whom you may know.

By the name of Annabl Lee;

And this maiden she lived with no other thought.

Than to love and be loved by me. (E.A.Poe)

From "Sea Dreams".

What does little birdie say.

In her nest at peep of day?

Let me fly, says little birdie,

Mother, let me fly away.

Birdie, rest a little longer.

Till the little wings are stronger,

So she rests a little longer,

Then she flies away. (Tennyson)

Qofiyaning ahamiyati she'rning ohangdorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan qofiya she'rning g'oyasini ifodalash vositasi hisoblanadi.

Maqol va matallarning ko'pchiligi qofiyaga asosan yasalgan. Bu qofiyalangan birikmalar, turli maqsadlarda ishlatiladi. O'zbek tilida qofiya dostonlarda, she'riyatda ko'p uchraydi.

Oltin edim, cho'yan bo'ldim,

Don edim, somon bo'ldim.

Qimmat edim,

Arzon bo'ldim,

G'amga qolgan ravshan bo'ldim.



Yuqoridagi she'riy misradagi cho'yan, somon, arzon, ravshan so'zlari o'zaro qofiyalangan.

Stilistik figuralardan yana biri **assonans**dir. Fonetik vositalarni uslubiy qo'llash natijasida turli xil fonetik hodisalar yuz beradi. Shulardan biri assonans hisoblanadi.

Assonans lotincha ("acconance" – "ohangdoshlik" so'zidan) atamasi tilshunoslikda gapda, misra va bandda bir xil unli tovushlarning qaytarilishi holatiga nisbatan qo'llaniladi. [5, 58]. Assonans usuli she'riyatda unlilarning mosligi bilan bog'liq bo'lib, aruz vaznida ham, barmoq vaznida ham asosiy elementlardan biri sanaladi. Masalan:

*And failing and crawling and sprawling,
And gleaming and streaming and blaming.* (R.Southey)

O'zbek she'riyatida ham shoirlar ushbu hodisadan keng foydalanadilar. Jumladan, H.Olimjonning quyidagi she'rida bu usuldan keng foydalanilgan.

*Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi.
Dalasida o'smas tikanlar,
Yo'llarida chopmas ilonlar.* (H.Olimjon. "O'zbekiston" she'ri).

Adiblar o'z asarida tovushlar mosligiga, ularda kuchli konnotativ ma'no ifodalanishiga e'tibor beradilar. Chunki ushbu usuldan foydalanib yozilgan she'rlar o'quvchining tez va osonlik bilan she'rni yodlashi, ularning o'ynoqi va musiqiyliigi, ritmik xarakterga ega bo'lishi esa she'rlarning qo'shiq qilib kuylashga moyilligini ko'rsatadi, ularning juda ko'p kuylanishiga sabab bo'ladi. Masalan:

*Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'zim ko'rdi bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni...* (H.Olimjon)

Yuqoridagi she'riy parchadagi misralarda tovushlar takrori nutqning musiqiyliyini ta'minlagan. Assonans usulida she'rning bir satrida lablangan unlilar ishtirok etgan bo'lsa, ikkinchi satrida ham unga hamohang ravishda lablangan unlilar qatnashgan.

*Seni ko'rsa ochilsin gullar,
Seni ko'rsa yonsin bulbullar.* (H.Olimjon)

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, shoirlar poetik ijodida assonans faol qo'llanuvchi fonetik usullardan biri bo'lib, u shoirlar asarlarining ohangdoshligi va jozibadorligini ta'minlashda xizmat qiladi.

Shuningdek, alliteratsiya, qofiya va assonans hodisalari har ikkala tilda ba'zan ayrim moslik va aynanliklarni, ba'zan esa tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos farqli tomonlarni ham namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985, -14b.
2. Aliyev S. Mumtoz adabiyotda badiiy san'atlar. –B.: 1994, -41 b.
3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –М.: Просвещение, 1990. С. 214.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. 2-jild. –M.: Rus tili, 1981, –B.605.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.:1966, –С. 58.



6. Haydarov Anvar Askarovich. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. International Engineering Journal For Research & Development, 6(TITFL), 91–94. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/3Q7SB>
7. Abdullayeva, Gulnora; ,GRAMMATICAL DISPROPORTION BETWEEN UZBEK AND ENGLISH AS A MAIN PROBLEM IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION OF THE LANGUAGES,EPRA International Journal of Research and Development (IJRD),5,9,409-412,2020,EPRA Publishing <https://eprajournals.com/viewjournal.php?jid=3438>
8. Haydarov, Anvar Askarovich and Navruzova, Nigina Hamidovna (2021) "STYLISTIC FEATURES OF INTONATION," Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 1 , Article 2. DOI: 10.52297/2181-1466/2021/5/1/2 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol5/iss1/2>

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ РЕЧЕВОЙ ЦЕПОЧКИ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Анарбоева Иродахон Ориповна
Старший преподаватель кафедры французского языка
Андижанский государственный университет
E - mail iroda_an70@mail.ru Тел. + 99 899 908 19 70

Аннотация: В статье анализируется формирование отдельного синтагматического сегмента по отношению к первичным номинациям в потоке повторяющихся номинаций в речи. Контрастные различия между французским и узбекским языками разных систем объясняются особенностями речевых норм.

Ключевые слова: повторная номинация, синтагматический сегмент, последовательность речи, единица речи, денотат, семантема, репрезентативные глаголы.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MEANS OF EXPRESSION OF THE SPEECH CHAIN IN FRENCH AND UZBEK

Irodakhon Oripovna Anarbayeva
Senior teacher of the French Language Department
Andijan state university
E - mail iroda_an70@mail.ru Тел. + 99 899 908 19 70

Annotation: The article analyzes the formation of a separate syntagmatic segment in relation to the primary nominations in the flow of repeated nominations in speech. The contrasting differences between the French and Uzbek languages of different systems are explained by the features of speech norms.

Key words: repeated nomination, syntagmatic segment, succession speech, denotation, semanteme, verb representative.

ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА НУТҚ ЗАНЖИРИ ИФОДА ВОСИТАЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ



Анорбоева Иродахон Ориповна

Андижон давлат университети француз тили ва адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси

E - mail iroda_an70@mail.ru

Тел. + 99 899 908 19 70

Аннотация: Мақолада такрорий номинациянинг нутқ оқимида бирламчи номинациялар билан боғлиқ равишда алоҳида синтагматик сегментни ташкил этиши таҳлил қилинган. Турли тизимга оид француз ва ўзбек тиллари ўртасидаги оппозицион фарқлар нутқ меъёри хусусиятлари билан изоҳланади.

Таянч сўзлар: такрорий номинация, синтагматик сегмент, нутқ изчиллиги, нутқ бирликлари, денотат, семантема, репрезентатив феъллар.

Нутқ жараёнида иштирок этаётган гаплар муайян ахборот ташувчи ифода воситалари сифатида намоён бўлади. Зарурий коммуникатив муддао ва мақсад билан уйғунлашган гаплар боғлами горизонтал йўналишда синтагматик жиҳатдан тартибли занжирлашади ҳамда маълум ахборот маконини яратади. Ахборот макони яратишда иштирок этувчи гаплар коммуникатив жиҳатдан бири иккинчисини изчил равишда бирин-кетин тўлдириб келади. Айнан шу изчиллик уларнинг тартибли жойлашувини, айнаи чоғда, ўзаро узвий боғланишини таъмин этади. Бинобарин, нутқ занжири замирида изчиллик маъноси ётади [1.15]. Изчиллик категория сифатида ахборот макони яратувчи нутқ занжири оқимининг бир чизиqli йўналишдаги воқеалар тасвири ўзанини акс эттиради. Нутқ занжири оқимининг ўзанида бир чизиqli йўналиш бўйича ифодага кирувчи нутқ бирликлари изчиллик асосида ахборот уйғунлигини шакллантирувчи коммуникатив қиммат олади.

Демак, изчиллик категорияси тушунчаси остида бир чизиqli йўналишдаги нутқ занжири ифода воситалари орқали акс этувчи ахборот оқими ўзанининг умумлашган маъноси англашилади. Изчиллик категорияси нутқ фаолиятининг, хусусан, матн тилшунослигининг алоҳида категорияси сифатида эътироф этилади: “Изчиллик категорияси матн хусусиятини очиб берувчи ва гаплар боғланишида ўз ифодасини топувчи матн тилшунослигининг умумий тушунчасидир” [2.23].

Одатда, матн тилшунослиги, матншунослик нутқ фаолияти лингвистик масалаларини ёзувдаги намунаси орқали тадқиқ этиш билан машғул.

Изчиллик категорияси яхлитлашган гуруҳни шакллантирувчи гаплар ўртасидаги синтагматик муносабатларни очиб беришда, тасвирлашда қулай восита сифатида қўл келади. Изчиллик маъноси нафақат гаплар ўртасида, шунингдек, унинг номинатив бўлаклари ўртасида ҳам кузатилиб, ахборот оқими сурункали занжирлашувини таъмин этади. Бу ўринда, ахборот макони яратувчи бирламчи ва такрорий номинация алоҳида синтагматик сегмент яратади. Атамашунослик жиҳатидан, бирламчи номинация – борлиқнинг вазиятда акс этган бўлаги ҳисобланса, такрорий номинация мазкур вазият элементининг қайта, яна бир бор аталишидир. Бирламчи ва такрорий номинация ўртасидаги денотат, маъно, мазмун умумийлиги синтагматик сегмент умумийлигини ташкил этади.



Бирламчи ва такрорий номинация муносабати асосида юзага келган синтагматик сегмент замирида субстанция, иш-ҳаракат, субстанция ва иш-ҳаракат тавсифи каби ономосиологик категориялар ётиши мумкин [3.27].

Ономосиологик типология нутқни назаридан француз ва ўзбек тилларида иш-ҳаракат такрорий номинациясини бирламчи ва такрорий номинациялар синтагматик сегменти доирасида ўрганишнинг муҳимлиги шубҳасиз [3.39]. Зеро, бундай ёндашув нутқ занжири типологиясига дастлабки қадам ҳисобланади.

Нутқ занжири ифода воситаларининг қиёсий таҳлили шуни кўрсатадики, бирламчи ва такрорий номинация синтагматик сегменти типологияси, одатда, ҳар икки тил одати, нутқ меъёрини белгиловчи хиима-хил қўлланишдаги турли ифода воситаларининг нутқ вазиятларида муайян синтагматик сегмент доирасида ўзига хос тарзда мужассамлашувида ўз аксини топади. Хиима-хил қўлланишда турли ифода воситаларининг муайян нутқ вазиятларига татбиқ этилиши киёсланаётган тиллар руҳи, нутқий ифода меъёрлари талабларига кўра амалга ошади ҳамда лексик оппозиция тамойили кўрсаткичлари асосида таснифланади. Жумладан, синтагматик сегментдан жой олган иш-ҳаракатининг такрорий номинацияси таққоси “лексик ўхшашлик” ва “лексик вариативлик” оппозициясини ажратиш имконини беради.

Лексик ўхшашлик ахборот маконининг турли жойларидан ўрин олган бир хил денотат билан боғланган иш-ҳаракат номинацияларининг ўзаро муносабатида ўз аксини топади. Қуйидаги мисол фикримиз гувоҳи бўла олади: *Duroy s'assit et attendit. Il attendit longtemps. (G.de Maupassant, Bel.Ami, p.58) Дюрюа ўтириб кута бошлади. У анча куттиди. (Мапассан. Азизим. 71б.)*

Мазкур мисолда икки ёнма-ён жойлашган гапда кутиш жараёни тасвири билан боғлиқ «attendre» ва «кутмоқ» феъллари икки марта қўлланган. Биринчи гапда қўлланган «attendre» ва «кутмоқ» сўзлари кутиш жараёни маъноси билан боғланган иккинчи гап таркибидаги сўзларга нисбатан бирламчи номинация ҳисобланади; иккинчи гап таркибидаги сўзлар биринчи гаптагиларга нисбатан такрорий номинация саналади, чунки улар кутиш жараёнини такрор ҳолда номламоқда. Биринчи гаптаги “attendre” феъли билан иккинчи гаптаги “attendre” сўзи, худди шунингдек, биринчи гаптаги “кутмоқ” билан иккинчи “кутмоқ”, ҳар хил гапда жойлашишига қарамасдан, бир синтагматик сегментга мужассамлашади, чунки улар ўзаро “кутиш” жараёни мазмунини ташкил этган алоҳида денотат асосида узвийлашади. Бирламчи номинация дастлабки асосий ахборот манбаи бўлиб хизмат килади. Ўз навбатида, такрорий номинация унга суянади, бирламчи номинация ахборот қуввати асосида такрорий номинация ифода кўлами, қудрати аниқланади. Лексик такрор асосида шаклланган такрорий номинациялар ахборот маконида жой олган яхлит мураккаб жумлалар ўртасида, уларнинг ичида кузатилиши мумкин. Хатто, улар бир гапнинг ичида ҳам акс этиши мумкин.

Лексик такрор кўринишидаги такрорий номинацияларнинг ахборот маконининг турли ўринларидан жой олиши уларни алоҳида синтагматик сегментга ажратишга халақит бермайди. Оппозициянинг вариативлик доирасидаги такрорий номинациялар лексик синонимлашувни камраб олади. Бу ҳолатда синтагматик сегмент доирасида ахборот ташувчи бирламчи номинация билан такрорий



номинация муносабати ифода воситаларининг лексик ранг-баранглигини яратади [4.25]. Фикримизнинг мантикий тасдиғи сифатида қуйидаги мисолни келтирамиз:

Je ne sais ce que je lui dis. Il tira son epee et je degainerai. (Merimee. *Carment*.p.524) *Унга нима деганим ёдимда йўқ. У қиличини яланғочлади, мен ҳам қиличимни суғурдим.* (Мериме. *Кармен*.52 б.)

Ушбу мисолимизда “tirer son epee” ва “қиличини яланғочлади” биринчи номинация сифатида ажратилади, «degainer» ва «қиличини суғурмоқ» нутқ вазиятидаги ҳаракат белгиси тасвири сифатида алоҳида синтагматик сегментга кўчади. Бирламчи номинация ҳисобланмиш “tirer son epee” ва “қиличини яланғочламоқ” ушбу нутқ вазиятида таянч ахборот манбаи сифатида тўлақонли ахборот ташиш имкониятига эга экани билан характерланади. Ўз навбатида, “degainer” ва “қиличини суғурмоқ” такрорий номинациялари тўлақонли ахборот манбаи бўлмиш бирламчи номинацияга суянади ҳамда коммуникатив қимматга эга бўлган ахборот тизими яратади. Француз тилида “degainer” феълидан кейин “son epee” отини қўлламаслик маъқул. Унинг семантемадаги иштироки хусусида бирламчи номинация “tirer son epee” хабар беради. Оқибатда нутқ вазияти тасвирида ахборот ташиш кўламига кўра сўз бирикмаси билан сўз синонимик муносабатга киришади. Ўзбек тилида эса ҳар иккала ҳолатда ҳам сўз бирикмаси сақланган. Синтагматик сегмент таққосининг айни ҳолатдаги икки тил ўртасидаги муносабати нутқ оқидамидаги ахборот тақсимотининг “тежамкорлик = санжоблашув” муносабатини юзага келтиради. Синтагматик сегментдаги бирламчи номинациялар нафакат дастлабки, шунингдек, асосий ахборот манбаи бўлиб хизмат қилади, шунинг баробарида нутқ вазияти тасвирига татбиқ этилган такрорий номинациянинг ўзи мазмунан уйғунлашувга таъсир этади. Бу эса, ўз навбатида, семантема таркибида маълум семаларнинг фаоллашувига олиб келади, етакчи ахборот қимматини белгиловчи маъно аломатларига айланади [5.15]. Қуйидаги мисол фикримизга далил бўлиб хизмат қилади:

- *Les autres demenderent du vin. Cornudet reclama de la biere.* (*Gui de Maupassant. Boul de suif*.p.41).

- *Бошқалар вино буюришди. Корнюде пиво сўради.* (Мопассан. *Дўндиқча*.22б.)

Мазкур мисолдаги “demander” феъли ахборот оқидамида “reclamer” синонимлашади ва етакчи, фаол сема сифатида “ичимликка буюртма бериш” маъносига хизмат қилади. Худди шундай ҳолат ўзбек тилида ҳам кузатилади. Синтагматик сегментдаги бирламчи номинациялар ўрнига нутқ вазиятларида такрорий номинация функциясидаги турли ифода воситаларининг кириши ва маъно уйғунлигини яратиши нутқий синонимларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Нутқ вазиятларида ҳосил бўлувчи синонимлар тилдаги мавжуд синонимлар қаторини бойитади. Жумладан, муайян нутқ вазиятида “bailler” сўзининг “ouvrir la bouche”, “эснамоқ” феълининг “оғзини очмоқ” сўз бирикмасига синонимлашади. Хусусан, қуйидаги мисол шундан далолат бериб турибди:

De temps en temps quelqu'un baillait un autre presque aussitot l'imitait et chacun, a tour de role, suivant son caractere, son savoir vivre et sa position sociale,



ouvrait la bouche avec fracas ou modestement en portant vite soudain devant le trou béant d'où sortait une vapeur (Maupassant. Boule de suif.p. 34).

Гоҳ-гоҳ йўловчилардан бири эснай бошлайди; унинг кетидан дарҳол бошқаси эснайди, ўзининг хулқи, тарбияси ва жамиятдаги турган ўрнига қараб биров товуш чиқариб, биров товушсиз навбат билан озини очар ва буз чиқиб турган ковакни тезда қўли билан беркитади (Морассан. Дўндиқча.146).

Француз тилидаги “bailler” сўзи “ouvrir la bouche” сўз бирикмасига нисбатан тил синоними ҳисобланади. Чунки у тилда “эснамоқ” луғавий маъносига эга бўлиб, нутқ жараёнига кўчганда ҳам шу маъноси асосида семантизациялашади. Аксинча, “ouvrir la bouche”, “bailler” га нисбатан нутқ синоними ҳисобланади. Чунки у айрим нутқ вазиятларидагина “эснамоқ” маъносини ифода этади. Албатта, бунда бирламчи номинация функциясини бажарувчи “bailler” етакчи роль ўйнайди. Зеро, нутқ вазиятлари хусусияти ва моҳияти таъсирида “ouvrir la bouche” avaler, manger, prendre ses repas ; montrer, examiner, considerer каби феъллар ва бошқа сўзлар билан синонимлашуви мумкин [6.32].

Худди шундай нуқтаи назар ўзбек тилидаги “эснамоқ”, “оғзини очмоқ” каби лексик бирликларига ҳам тааллуқлидир. Демак, тилдаги синонимлар тақчиллиги нутқда бартараф этилади. Нутқ вазиятларида юзага келган синонимлар тилдаги синонимлар қаторини бойитишга, тил ифода қудратининг орттишига хизмат қилади. Баъзи ҳолларда нутқдаги синонимларнинг шаклланишида нутқ прагматикаси етакчи роль ўйнайди. Фикримизга далил сифатида қуйидаги мисол билан кифояланамиз:

- Puis ils sont venu pour loger chez moi ; j'ai sauté à la gorge du premier. Ils ne sont pas difficiles a etrangler que d'autres. Et je l'aurais terminé, celui-la, si l'on me m'avait pas tirée par les cheveux. (Maupassant. Boule de suif.p. 38).

- Кейин улар уйимда тургани келиди. Биринчи кирганимдаёқ бўзидан олдим. Немисни бўзиб ўлдириши бошқаларни ўлдиришдан қийин эмас! Агар сочимдан тортқилаб ташламаганларида-ку, ишини тамом қилардим-а. (Морассан. Дўндиқча,186).

Бу хилдаги синонимлар синтагматик сегментга жойлашган бирламчи ва такрорий номинациялар муносабати асосида импликация ҳодисасининг юзага келишини акс эттиради.

Такрорий номинация ифода воситаларининг вариативлиги доирасида синтагматик сегментлардаги бирламчи номинация ифода воситалари билан таққослаган ҳолда “синонимик номлаш ва репрезентатив номлаш” оппозицияси фарқланади. Синонимик номлаш такрорий номинациялар ифода воситалари қаторидан жой олган тил ва нутқ синонимларининг мужассамлашувини тақозо этади. Тил синонимлари муайян тил луғат таркибида мавжудлашган, маълум барқарор маъно билан боғланган лексик бирликлар ҳисобланади. Улар нутққа кўчганда ҳам таркибидаги маъно асосида семантизациялашади. Нутқ синонимлари эса муайян нутқ вазиятларида юзага келади, тил синонимлари билан ўзаро боғланиши оқибатида янги бир даврий, вазиятли маъно билан боғланиб, ахборот қимматига эга бўлади. Репрезентатив номлаш билан боғлиқ феъллар умумлаштириб номлаш хусусиятига эга бўлиб, семантик таркибида семалар



тақчиллиги билан ажралиб туради. Шу боисдан ҳам репрезентатив феъллар ҳамда бирламчи номинация вазифасини бажарувчи феъллар фарқланади. Чунки бирламчи номинациядаги лексик бирлик тўла қамровли лексик маънога эга, такрорий номинация вазифасини бажарувчи репрезентатив феъл эса мавхум маъно касб этиб, бирламчи номинациядаги феъл билан боғланишгина унинг маъно қиррасини аниқ очиб беради. Мисол:

-Гоҳ-гоҳ йўловчилардан бири эснай бошлайди; унинг кетидан дарҳол бошқаси эснайди... (Мопассан, Дўндиқча.146).

- De temps en temps, quelqu'un bailler; un autre presque aussitôt l'imiter. (Mopassant. Boule de Suif. p.34)

Мазкур мисолдаги “bailler” феъли билан боғланган “imiter” айни нутқ вазиятида “эснамоқ” маъносини олади. “Imiter” феъли семантик хусусиятига кўра ҳар қандай мустақил маъноли феълга нисбатан синонимлашув хусусиятига эга. Француз тилида “эснамоқ” ҳаракати синтагматик сегментдаги бирламчи номинацияни ифодаловчи мустақил лексик маъноли ҳамда такрорий номинацияни ифодаловчи репрезентатив феъл муносабатида акс этса, ўзбек тилида “эснамоқ” ҳаракати лексик такрор воситасида ифода этилади. Демак, типологик планда “тўлиқ маъноли феъл ҳамда репрезентатив феъл” – “лексик такрор” муносабати юзага келади.

Такрорий номинация функциясидаги репрезентатив феъллар бирламчи номинациядаги феъллар билан тўла ўхшашлик ҳосил этиши мумкин. Мисол:

- Mais deux hommes se reconnerent, un troisieme les aborda, ils causerent: J'emmene ma femme, dit l'un-J'en fais autant. Et moi aussi. (Maupassant. Boule de Suif. p.29)

-Икки эркак бир-бирини таниб қолди, уларнинг ёнига учинчиси келди ва сўзлаша кетишди. Мен хотиним билан кетаётирман, -деди улардан бири.

- Мен ҳам.

- Мен ҳам.

(Мопассан. Дўндиқча.916)

Бунда француз тилидаги такрорий номинация функциясидаги “en faire autant” репрезентатив феъли “emmener sa femme” бирламчи номинацияси билан тўла ўхшашлик ҳосил этади. Унинг ўхшашлигини бирламчи номинация билан боғлаган ҳолдагина тўла тасаввур қилинади. Ўзбек тилида эса мазкур нутқ вазияти эллиптик гап орқали беришган. Унинг тўла мазмуни контекст асосида аниқланади.

Тўлиқ ўхшашлик ҳосил этувчи феъллар билан бир қаторда ҳаракат аспектининг маълум қирраси билан боғланган репрезентатив феъллар тоифаси ҳам ажратилади. Бундай репрезентатив феъллар тоифасига ҳамкорлик, рўёбга чиқувчи ва рўёб топмайдиган ўхшашликни ифода этувчи феъллар киради: aider, realiser, reussir, parvenir, у arriver, essayer ва бошқалар. Худди шунингдек, ўзбек тилида: ёрдамлашмоқ, амалга оширмоқ, эришмоқ, уддасидан чиқмоқ, уринмоқ, ҳаракат қилиб кўрмоқ ва бошқалар. Репрезентатив феъллар доирасида “оддий ўхшашлик / мураккаблашган ўхшашлик” оппозицияси ажратилади.

Оддий ўхшашлик ҳосил этувчи репрезентатив феъллар бирламчи номинациядаги феъллар билан алоқага киришиб, ўхшашликнинг турли



даражасини акс эттиради. Мураккаблашган ўхшашликни ифода этувчи феъллар эса қўшимча маъно аломатлари билан қоришиб, ўхшашлик маъносини билвосита акс эттиради. Ушбу феълларда ўхшашлик даража, тус ва бошқа маънолар орқали ифода этилади. Бу ўринда қуйидаги мисолларни келтириш мумкин:

- ...*et je lui dit: On dit que tu sais jouer du couteau comme le meilleur jaque de Malaga, veux-tu t'essayer avec moi.* (Merimee. Carmen.p.540).

- Эшитишимча, пичоқбозлик қилишда Малагалик бўз болалардан қолишмасмишсан; мен билан пичоқбозлик қилишга майлинг борми?- дедим. (Мериме. Кармен 68б).

- *Au moment de nous separer elle me dit –Il y a une fete a Cordoue, je vais la voir, puis je serai les gens qui s'en vont avec de l'argent et je te le dirai. Je la laissai partir.* (Merime. Carmen.p.499).

- Мен билан хайрлашар экан: Кордуда байрам, ўша ёққа боргим келяпти, у ерда ким серпул бўлиб қайтганини билиб, сенга айтаман,- деди. Мен унга рухсат бердим.(Мериме. Кармен.77б).

Юқоридаги мисолларнинг биринчисида ўхшашликнинг турли даражаси ифода этилган бўлса, иккинчисида мураккаблашган ўхшашлик ўз аксини топган. Синтагматик сегментда бирламчи номинация билан муносабатга киришувчи такрорий номинация функциясидаги бир қатор феъллар кузатиладики, улар окказионал ўхшашлик ва синонимликни ҳосил этади. Мисол учун:

- *Даррага кираверишда отим кишнаб юборди, шу заҳоти менга кўринмаган бошқа бир от ҳам кишнаб, отимга жавоб берди.* (Мериме. Кармен.46 б).

- *A l'entrée de la gorge, mon cheval hennit, et un autre cheval, que je ne voyais pas, lui repondit aussitot.* (Merimee Carmen.p.474.)

Юқоридаги мисолимиздан кўриниб турибдики, француз тилида бир нутқ вазияти доирасида “hennit” билан “lui repondit” синонимлашиб, маълум маъно ўхшашлигини ҳосил этмоқда. Бу ўхшашлик айнан шу нутқ вазиятига тааллуқли бўлгани учун ҳам окказионал хусусият касб этади. Ўзбек тилида эса бу лексик такрорнинг сақланиши ҳамда лексик-семантик санжоблик билан характерланади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, изчиллик категорияси ёрдамида такрорий номинация хусусиятини очиб бериш кенг қамровдаги ахборот макони доираси билан боғлиқ. Ахборот макони ичида изчиллик категорияси нутқ оқимининг муайян йўналишидаги ахборот ўзанида унинг уйғун занжирланишини таъминлайди. Такрорий номинация нутқ занжирида бирламчи номинация билан боғлиқ равишда алоҳида синтагматик сегментни ташкил этади. Синтагматик сегмент ахборот маконининг турли ўринларидан жой олиши мумкин. Синтагматик сегмент доирасида француз тили билан ўзбек тилидаги такрорий номинацияларнинг қиёсий таҳлили икки тил муносабатига хос оппозицияларнинг мавжудлигини кўрсатади. Тиллар ўртасидаги оппозицион фарқлар уларнинг руҳи, одати, нутқ меъёри хусусиятлари билан изоҳланади. Тил ва нутқ синонимларининг фарқланиши айнан шу ҳодисанинг маҳсули бўлиб, тил луғатининг бойишига хизмат қилади.



Адабиётлар:

1. Харвег Р. Редуцированная речь.- В кн.: Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистика текста.- М.,1978
2. Зарубина Н.Д. Текст: лингвистические и методические аспекты.- М.,1981.
3. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология.- М.,1977.
4. Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций.- В кн.: Языковая номинация. Общие вопросы.- М.,1977.
5. Greimas A. Semantique structurale.- 1976.
6. Ullmann S. Precis de Semantique française.- 1972 .

АРГУМЕНТАЦИЯ В РЕКЛАМНОМ ТЕКСТЕ В РАМКАХ ТЕОРИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Ахтямов Азизбой Эркинбоевич

докторант Ферганского государственного университета

[Tel: 90 583-33-55](tel:905833355) e-mail: akhtyamov.azizboy@inbox.ru

Аннотация: В статье рассматривается аргументация в рекламном тексте в рамках теории речевых актов. Проведен подробный анализ печатной рекламы на примерах узбекского, русского и немецкого языков. Изучены средства для достижения интенции производителя и потенциального/перлокутивного эффекта на потребителя.

Ключевые слова: реклама, рекламный текст, прагмалингвистика, теория речевых актов

NUTQ AKTLARI NAZARIYASI DOIRASIDA REKLAMA MATNIDA ARGUMENTATSIYA

Axtyamov Azizboy Erkinboyevich

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

[Tel: 90 583-33-55](tel:905833355) e-mail: akhtyamov.azizboy@inbox.ru

Annotatsiya: Maqolada nutq aktlari nazariyasi doirasida reklama matnidagi argumentatsiya ko'rib chiqiladi. O'zbek, rus va nemis tillari misolida bosma reklamanning batafsil tahlili o'tkazilgan. Ishlab chiqaruvchining maqsadiga erishish vositalari va iste'molchiga potentsial / perlokutiv ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: reklama, reklama matni, nutq aktlari nazariyasi, pragmalinguistika

ARGUMENTATION IN ADVERTISING TEXT WITHIN THE THEORY OF SPEECH ACTS

Akhtyamov Azizboy Erkinboyevich

basic doctoral student at Fergana State University

[Tel: 90 583-33-55](tel:905833355) e-mail: akhtyamov.azizboy@inbox.ru

Annotation: The article discusses the argumentation in the advertising text within the framework of the theory of speech acts. A detailed analysis of print advertising was carried out



using the example of Uzbek, Russian and German languages. The means to achieve the producer's intention and the potential / perlocutionary effect on the consumer have been studied.

Keywords: advertising, advertising text, the theory of speech acts, pragmalinguistics

Прагмалингвистический анализ рекламных текстов подразумевает изучение воздействия на адресата. Его следует рассматривать в рамках теории речевых актов, так как в ней присутствует перлокутивный акт, подразумевающий потенциальное воздействие на адресата. В нашем случае это убеждение покупателя совершить покупку определенного продукта или использованию определенной услугой.

Штокл утверждает, что достижение цели обуславливается некоторыми условиями [5]. Во-первых, следует вызвать внимание и интерес у покупателя. Это достигается языковыми и визуальными элементами (слоган, рекламный текст, музыка, шум и др.) Во-вторых, ясность сообщения и его интенции. В-третьих, рекламное объявление должно быть положительно принято. Для этого используют специальные термины или привлекают авторитетных или известных людей. В-четвертых для лучшего запоминания многократно показывают или повторяют название или слоган продукта. В-пятых, изображаются или описываются возможности, которые станут доступными после приобретения продукта. В-шестых, попытка убеждения о покупке перемещается на второй план или вообще скрываются с целью отвлечения покупателя от интенции производителя. Так можно имплицитно навести его самого на данное намерение. Последним является привлекательность, которая достигается путем использования шутки или иронии в рекламе. Здесь следует быть осторожным, так как может получиться, что покупатель будет слишком отвлечен от самого продукта.

Роль аргументации в данном аспекте является одной из главной. При рассмотрении рекламных текстов в прагмалингвистическом аспекте, следует акцентировать внимание на аргументации. С ее помощью мы рассмотрим перлокутивный акт теории речевых актов.

В полном словаре лингвистических терминов Матвеевой аргументация определяется так: «Аргумент – высказывание, которое служит для утверждения или опровержения какой-либо мысли, для доказательства какого-либо положения (тезиса). В качестве аргумента используются истинное логическое суждение, силлогизм (образцовое умозаключение), бесспорный проверенный факт. Аргументом может также служить авторитетное мнение, раскрытие причин и следствий утверждаемой мысли, описание чувств по поводу данной мысли и др. Он делится на два типа:

1. к существу дела или к логосу: наблюдения, свидетельские показания, документы, статистические сведения, рассуждения;
2. к человеку или к пафосу: похвала адресату, возбуждение чувств публики, отсылка к мнению влиятельных людей и др. » [1]

При создании рекламного текста его создатели исходят из того, что описание и свойства продукта должны быть аргументированы. Это происходит в форме монолога. Здесь можно проследить следы убеждения, которое предназначено для воздействия на покупателя.

Шведский ученый Б. Андерсон применил способы аргументации К. Оттмерса при анализе рекламы. Оттмерс описывает аргументацию с помощью энтимемы и примера.

Энтимема – это сокращенный силлогизм, в котором отсутствует одна из трех составляющих частей. Чаще всего опускается большая посылка умозаключения, т.е. общее суждение с которым связано данное частное [1]. Спорное высказывание, опираясь на бесспорное высказывание (аргумент), превращается в заключение, в котором оно уже не является спорным.



(Рисунок 1)

В представленном рекламном баннере мы видим рекламный заголовок (1) и слоган (2), который выступает тут основой рекламы. Высказывание «новая форма заботы» с помощью аргумента «папа рекомендует» наталкивает на умозаключение, что данная форма заботы проявляется во внимательном отношении производителя к покупателю.

Аргументация с помощью примера по мнению автора делится на индуктивную и иллюстративную аргументацию. Баннер с рекламой сока «Bliss» служит примером иллюстративной аргументации. Она служит для усиления обоснования энтимемы.



(Рисунок 2)

Аргументирование индуктивным путем основана на построении изложения от фактов к выводу. Приводятся конкретные факты, а в заключении покупатель делает из них общий вывод.

В качестве подтверждения приведем пример минеральной воды из федеральной земли на востоке Германии Тюринга. «Думать глобально, пить регионально. Поэтому Waldquell из Тюринга. Филипп, 33 года, из Эрфурта». Эрфурт – это город в Германии, административный центр федеральной земли Тюрингия. Первый факт о том, что люди должны мыслить глобально, а второй о том, что путем питья данной воды люди будут пользоваться продуктом своей федеральной земли,

которая известна как «зеленое сердце Германии». Стоит также обратить внимание на название продукта. Оно переводится как лесной родник.

Как заключение данного примера с точки зрения индуктивного аргументирования можно сказать, что покупатель, прочитав факты, приходит к выводу, что нужно пить данную воду.

После рассмотрения того, что аргумент может быть опорой какого-либо спорного высказывания, рассмотрим его содержательную сторону. Ведь для того, чтобы он был неоспоримым, он должен быть очень убедительным. Аргументы по содержанию могут относиться к самому продукту, к его изготовителю и к его потребителю. Если они относятся к самому продукту, то можно сослаться на его происхождение. В такой рекламе выделяются натуральное качество изготавливаемой продукции и его место производства. При названии свойств указываются технические или косметические свойства, а при аргументации описывается или показывается принцип действия продукта. Также в нем могут ссылаться на проведенные проверки, тесты и полученные награды. Указание выгодной цены также может помочь в данном процессе. Если при аргументации указывается производитель, то ссылка будет на его традиции и опыт, т.е. сколько он уже находится в данной области, какие его достижения и т.д.

Подкрепление также происходит аргументами, которые направлены на потребителя. В них используются такие слова как красота, молодежь, семья, стабильность, надежность.



(Рисунок 3)

Примером служит выше рассмотренный баннер с рекламой сока «Bliss». Здесь стоит также отметить эмоциональный подтекст, которому свойственно затрагивание чувств и эмоций потенциальных покупателей.

Большой интерес с точки зрения аргументации представляют правила вывода К. Оттмерса [4]. Он различает два вида: логический и конвенциональный вывод. Оба основываются на различные типы топосов, из которых мы рассмотрим только те, которые встречаются в рекламе. В логике или классической риторике *топос* означает аргумент, или некую схему аргументации, аргументационное лекало, уже выработанное и широко применяемое в дискурсе [2], в литературоведении – некий повторяющийся мотив, образ [3]. Водак определяет топос как «широкое семантическое, часто стереотипное, клише, заключающее в себе общие черты определенных линий аргументации» [6]. Она отмечает, что топосы зачастую



содержатся в высказываниях-энтимемах, которые основаны на общеизвестных посылах или неких подразумеваемых знаниях, известных каждому члену группы-адресата в условиях определенного контекста. Логические выводы принимаются дедуктивным путем. При данном виде аргументация опираются на:

- причинно-следственные топосы;
- противоположные топосы;
- топосы сравнения;
- топосы примера.

Основой конвенционального вывода считаются общепринятые конвенции, договоренности. К ним относятся следующие топосы:

- топос сходство;
- топос личности;
- топос авторитета.

Таким образом, проведенный нами анализ аргументации в рекламных текстах в рамках теории речевых актов позволяет нам констатировать, что иллокутивный и перлокутивный акты происходит не без помощи использования аргументации. Для достижения интенции производителя и потенциального/перлокутивного эффекта на потребителя для аргументирования применяются энтимемы, примеры, топосы, а с содержательной точки зрения в нее заключаются сам продукт или его производитель. Для убеждения нередко затрагиваются чувства, эмоции покупателя, а главное, покупателю осознанно дается возможность самостоятельному умозаключению.

Список использованной литературы

1. Матвеева Т. Полный словарь лингвистических терминов. – Ростов на Дону: 2010.
2. Курилова А. Топосы в интерпретации нижегородской рукописной риторики // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. – Нижний Новгород, 2013, № 1 (1). – С. 361–363.
3. Прокофьева В. Категория пространство в художественном преломлении: локусы и топосы // Вестник Оренбургского государственного педагогического университета. – Оренбург, 2005, № 11. – С. 87–94.
4. Ottmers C. Rhetorik. – Stuttgart: 1996.
5. Stöckl H. Werbung in Wort und Bild. – Frankfurt am Main: 1997.
6. Wodak R., Iedema R. Constructing boundaries without being seeing: The case of Jorg Haider, politician // Revista Canaria de estudios ingleses. – San Cristobal de la Laguna, 2004. № 49. – P. 157–178.



РОМАНДА АЁЛ КЎНГЛИНИНГ БАДИИЙ ТАСВИРИ

Нигора Ашурова Хайитовна,
ТДЎТАУ тадқиқотчиси
Тошкент, Ўзбекистон
Тел.: (90) 916-50-40
E-mail: manaviyatfarmi@edu.uz

Аннотация: Мақолада замонавий ўзбек адибалари ижодида аёл образи, хусусан таниқли ижодкор Зулфия Куролбой қизи қаламига мансуб “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” романида аёлларнинг кўнгли асрорлари, бахту-саодати, орзу-умидлари, интилишлари, жамиятда, оилада тутган ўрнининг бадиий талқинида гавдалантирилган ҳолатлари таҳлилга тортилган. Шунингдек, ўзбек аёлининг қатъиятлилиги, меҳнатсеварлиги, оилапарварлиги, болажонлиги ҳамда аёл кўнглининг сир-асрорлари хусусида сўз юритилган.

Калит сўз: аёл, кўнгли, жамият, оила, тадбиркор, тақдир.

ЖЕНСКИЙ ОБРАЗ В ТВОРЧЕСТВЕ

Нигора Ашурова Хаитовна,
Научный сотрудник ТГУУЯЛ
Ташкент, Узбекистан
Тел. : (90) 916-50-40
Электронная почта: manaviyatfarmi@edu.uz

Аннотация: В статье анализируется образ женщины в творчестве современных узбекских писателей, в частности, в романе известной художницы Зулфии Куролбой кызы «Следы тяжелой жизни». Они также рассказали о решимости узбекской женщины, ее трудолюбии, семье, детстве и тайнах ее сердца.

Ключевые слова: женщина, душа, общество, семья, предприниматель, судьба.

FEMALE IMAGE IN CREATIVITY

Nigora Ashurova Khaitovna,
Researcher of Tashkent State University of
Uzbek language and literature
Tashkent, Uzbekistan
Tel.: (90) 916-50-40
Email: manaviyatfarmi@edu.uz

Annotation: The article analyzes the image of a woman in the work of modern Uzbek writers, in particular, in the novel by the famous artist Zulfiya Kurolba kyzy "Traces of a Hard Life". They also talked about the determination of the Uzbek woman, her hard work, family, childhood and the secrets of her heart.

Key words: woman, soul, society, family, entrepreneur, destiny.



Кўнги́л – энг ноёб туйғуларнинг муқаддас кўрғони, жисми жонимизга ҳадя этилган энг ардоқли хазина. Нурдай шаффоф, гулдай нозик, биллурдек нафис. Одамзотни жамики мавжудодлардан улуғ сифатларининг Ватани кўнги́л. У чексиз осмонга ўхшайди. Оламни ёрқин рангларда кўрмоқлик имконини берувчи ҳаёт ишқи билан лиммо-лим. Бу маконда фақат унинг ўзигагина таниш ва маълум ҳақиқат тимсоли яшайди. Кўнги́л уйимиз адолат ва эзгулик истаги, комиллик ва ўзликни англаш орзуси билан мунаввардир.

“Кўнги́лга йўл топиш”, “кўнги́л олиш” заҳматли юмуш. Ахир “бўйимдай бўй топдим, кўнги́лдай кўнги́л топмадим” дея зорланганлар қанча?.. “Ўзим ҳар жойдаман, кўнги́л сандадир” дея нола чекканлар камми? Кўнги́л энг нозик яралмиш. Кўнги́лни асраш эса ундан-да нозик иш...

Ёзувчи Орзиқул Эргаш таъкидлаганидек, “... кўнги́лни асрашда гап кўп экан. “Кўнги́л, бу ўзлигинг” деб бекорга айтилмаган. Айниқса, ижодкор учун бу жуда муҳим. Яхшилиққа ишониш, яхши ният, яхши амаллар, некбинлик, ҳар қандай хуш, нохуш ҳодисадан ҳикмат излаш, ҳожатбарорлик... булар бари кўнги́лни асраш демакдир” [1] (154-бет).

Адибанинг кўнги́лда кечган сир-асрорлар пинҳоний. Унинг ўз туғёнлари, ўз тўлқинлари, чақмоқлари, ёмғирлари бор. Бироқ қаламкаш қалбининг офтоби борлиққа энг ёруғ нурлар тортиқ этишга қодир. Унинг ёғдулари юракларга яшаш завқини тортиқ этади. Ҳаёт моҳиятини тушунишга, инсон қадрини юксак тутишга, юртни севиш, ҳақиқатга тик боқиш, яхшилиқ умиди билан яшаш, оқ ва қорани англашга ўргатади. Самимий, кўнги́лнинг ғуборсиз манзилларидан қоғозга тўкилган туйғулар юракларга осон етади. Адиба Зулфия Қуролбой қизи битикларида ҳам мана шу самимият, беғуборлик, халққа яқинлик ва албатта, аёл руҳиятини, қалб кечинмаларини, кўнги́л сасларини маҳорат билан ёритиб бериши кўзга ташланиб туради. Яна шуни ҳам таъкидлаш жоизки, адиба аёллар кўнги́л тасвирини ўз асарларида нозик ифодалаш асносида, иборалар, нақллар, аччиқ киноявий сўзлар воситасида ҳаёт фалсафасидан баҳс юритади.

Зулфия Қуролбой қизининг илк ҳикоясидаёқ бўртиб кўринган ва унинг ижодий такомилда қудратли бир қанот бўлиб хизмат қилган бу миллийлик, ўзбек миллатига хос бўлган туйғуларни ўзида мужассамлаштира олган сифатларни маҳорат билан тасвирлайди. Ўзбек аёлларининг шарм-хаё, ибo, оқилалик сингари сифатларини ҳамда аёллар руҳий оламини, орзу-истаклари, ўй-хаёлларини, қалб кўридаги нозик сифатларни ўз асарларида маҳоратли рассом сингари тасвирлаб бера олганлигининг гувоҳи бўламиз. Зулфия Қуролбой қизи кейинги йилларда, хусусан, мустақиллик йиллардан кейин баракали ижод қилиб, нафақат китобхон балки адабиётшунос олимлар томонидан эътироф этилмоқда.

Адибанинг кейинги йилларда нашр этилган “Армон асираси”, “Машаққатлар гирдоби” ва “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” сингари романлари миллий насримизда янгича мазмун, янгича қиёфа кашф этилганлигини исботлайди. Зеро, адабиётшунос Умарали Норматов таъкидлаганидек, “...Зулфиянинг бир вақтлар танқидчиликда менсимай қараладиган, унча хуш кўрилмайдиган ижтимоийликдан холи соф “кўнги́л майллари нағмалари” талқини адабий тажрибалари йўлидан



бориб яратган қатор ҳикоялари, ... ўзининг бадий-маънавий таъсир кучи жиҳатидан соф ижтимоий йўналишдаги етук асарлардан асло қолишмайди” [2].

Ҳақиқатдан ҳам Зулфия Қуролбой қизи ижодининг дастлабки босқичларига қараганда, кейинги яратилган асарлари (“Армон асираси”, “Машаққатлар гирдобини” ва “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” романи)даги ўзига хос услубий теранлик, халқчил, иборалара, қочиримли сўзларнинг янада сайқалланганлигини, фалсафий тус олганлигини кўришимиз мумкин. Адибанинг “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” романида ғоявий-бадий мундарижасининг теранлиги, тасвир ва ифода ранг-баранглигининг

кенгайганлиги, қаҳрамон тасвирида ҳаққонийлик, тилида халқчиллик, ибратли, қочиримли сўзларнинг маҳорат билан қўлланганлиги боис ўзгача жозибадорлик касб этгани диққатни тортади.

Бу хусусият адибанинг аввалги асарларидаги изланишларининг давоми, сайқалланган бадий тасвир услуб такомилнинг ифодасидир. Гарчи олдинги ва кейинги асарлар яратилган вақт оралиғи унча узоқ бўлмасда, сўнги ўн йилдаги асарлардаги воқеликни янгича англаш, унинг моҳиятига чуқур кириб бориш, бадий кашф маҳоратининг ўстанлиги ҳамда аёл образининг янада мукаммалланган, руҳий оламини, қисмат битикларининг теран англаган ҳолатда ёритилиши, қаҳрамонлар тилининг ранг-баранглиги, ибратли, ҳикматли мушоҳадаларга бой тарзда ифодалана борганлиги билан ажралиб туради. Унинг “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” романида ҳаёт деб аталмиш синовли масканда ўз ўрни ва мавқеини тинимсиз меҳнат ортидан рўё қилган аёл - Назира Шодмонова қисмати маҳорат билан ёритиб беради.

Асар силсиласи ўқувчини ўздан ҳеч узоқлашгирмайди. Турли воқеликлар асар қаҳрамони характери, руҳий олами билан янада яқинроқ таништириб боради. Бу жараёнлар асар бошидан то якунигача бўлагн жараёнларда ўқувчини ушлаб туради ва ҳар гал асар қаҳрамони Назиранинг янги қирралари, характери, истеъододини намоён этиб бораверади. Шунингдек, адиба асар воқелиklarини тасвир этиш асносида оилада хусусан инсонлар ўртасида аёлларга бўлган қарашларни, уларга “шаҳар олиб берармидин” қабилида ёндошиш масалаларини ҳам олиб чиқади. Бу оғриқли ва аёлларга хусусан қизларга, уларнинг келажигига қўшгирноқ остида қаровчиларнинг “аёл ҳам инсон, унинг ҳам қалби борлигини” исботлаб беради. Аёлларда кўнгли иши жуда нозик масала эканлигини ошкор этади ва буни асар қаҳрамонлари тилидан ифодалаб беради. Асар қаҳрамони Назирада бу қарашларга ўзининг қалб кўридаги ғалаёнларини, эътирозларини намоён этади. Бу сўзларни ўз онаси тилидан эшитганида ўзини қўярга жой тополмайди: “- Қиз бола одам эмасми? Онам нега ҳадеб гўр бўлармидинг дейверади?... – Айбимиз қиз бўлиб туғилганимизми?” яна бир ўринда “-Нима, ўқиб менга шаҳар олиб берармидинг?” [3].

Аёл қачон бахтли бўла олади? Аёл кимгадир керакли эканлигини қалбан анлаганида, оила бағрида, фарзандлар тафтини ҳис қилганида, ёнида севимли қалқони бўлганида ўзини янада бахтли ҳис қила олади. Адабиётшунос олим Қозоқбой Йўлдошев таъкидлаганидек, “Аёл зоти бор ҳамиша унитилишидан, назарга олинмаслиқдан, эътибордан қолишдан қўрқиб яшайди” [4] (482-бет). Аёл -



аёл сифатида кадрланмаса, эътибордан, эътирофдан йироқ бўлиб яшаши уни руҳан азоблаши ҳақиқатдир. Аёл ширин сўз гадоси.

Асар бош қаҳрамони Назира ҳам бошқа аёллар сингари ўз оиласи, сеvimли ёри, бахтдан масрур яшаш умиди билан Жалилга турмушга чиққан эди. Ҳамробувининг қанчалик оёқ тириб олишларига қарамасдан “ушлаган жойини узиб оладиган” Ражаб момо сингари аёллар Ҳамробувининг нозик жойи турмуш ўртоғидан қолган боғини гуллатиб, яшнатиш нияти борлиги билан Назирани ўзига келин қилишга муяссар бўлди. Бу ваъдалар аслида сароб эканлигини Ҳамробуви секин асталик билан англаб етади.

Ўзбек хонадонларида қиз боланинг таълим-тарбиясига кичиклигиданок эътиборли бўлишади. Қиз бола “бировнинг хасми” қабилида асраб-авайлашади, уни меҳмон сифатида эъзозлашади. Не-не умидларда катта қилиб, иссиқ бағридан бегона оилага келин сифатида берган она ўз қизининг ҳаётдан, бахтдан масрур эканлигини ёхуд акси эканлигини дарров пайқайди. Ҳамробувининг ҳам ич-этини еб битириш даражасидаги вазиятлар Назиранинг бахтдан масрур эмаслигини кўрсатади. Асарда Назира ҳеч оиласидан, турмуш ўртоғидан, қайнонасидан нолимайди. Аммо унинг қалбидаги оғриқли нуқталари унинг кўзлари, нигоҳлари ва сўзларида ошкор этилади.

“Уч ойлик келинчакнинг кўзларидаги яширин гусса қандай пайдо бўлиб улгурди? Аллақачон чилласи чиққан бўлса-да, нечун бошидан желанини ташламайди? Назирадаги ёшига ярашмаган жиддийлик, босиқлик сабаби не?...” [3]. Бу каби саволлар Ҳамробувини ўйга толдирди шу асносида уни сергак ҳам қилди.

Адиба Назира тимсолида ёш келинларнинг кўнгли қаридаги нозик қарашлари, туйғуларини, ўзга оилага сингиш, кўникиш, мослашиш масалаларини очиб беради. Ҳар қандай ёш келин ўз оиласи бағридан бошқа оилага борганида ўша оиланинг паст-баландига кўникиб яшаш баробарида, уларга сингиб кетиши ҳам талаб этилади. Асарда мана шу ҳолатлар бадиий тасвир воситаларида очиб берилади. Тўғри асарда Назира шу оилани ўз оиласидек, қайнонаси ва турмуш ўртоғининг кўнглидан жой топиш илинжида тинмай меҳнат қилади, унга эришиш йўлида ўзини азобласада қатъиятли бўлади. Ҳа ундаги бу каби жасорат, оилапарварлик туйғуларини адиба асар воқеалари ривожига кўрсатиб беради. Халқимиз орасида шундай нақл юради: *“Хотиннинг ёмони – эрнинг заволи, Хотиннинг яхшиси – эрнинг камоли”* ёки *“Яхши хотин арпа унни кабоб қилар, Ёмон хотин бугдой унни хароб қилар”*.

Назира ҳудди шундай йўқдан бор қилгувчи аёл эди. Асарда Назиранинг яна бир қиррасини очиб беришга йўналтирилган сўзлар мавжуд: *“Нимани хор қилсанг – шунга зор бўласан. Назира оилада шу ақида таъсирида ўсган, уйда, далада неки бор, ҳаммасини тежаб, асраб-авайлаб яшаган. Қиз ҳеч қачон бугдой поясини босиб ўтмаган, илло бир ҳовуч галладан битта нон ёпилишини яхши билади. Қиз ҳеч қачон тарвуз-қовун пўчоғини ариққа иргитмаган, аксинча йигиб олиб молга берган: сут бўлади, гўшт бўлади...”* [3]. Ҳа Назира мана шундай тежамкор, исрофгарчиликка йўл қўймайдиган, ҳар бир неъматни асраб-авайлашга одатланган аёл эди. Асар воқеалари ривожига ўқувчини янада ўзига ром қилиб қўяди. Ўқувчи ўзини қаҳрамон оламида, у билан



ёнма-ён, дарду хасратларига шерик, бахтдан масрур онларида бахтиёрлик туйғуларига шерик бўлади.

Адиба таъриф этганидек: *“Сирдан сокин кўринган уммон қаърида не-не пўртаналар, оқимлар яширин бўлгани каби, ҳаёт аталмиш баҳри уммон бағрида ҳам биз билган-билмаган катта-кичик зиддиятлар, тўқнашувлар, тушунмовчиликлар содир бўлиб туради, уларни англамоқ, ечмоқ, муаммоларга жавоб топмоқ эса ҳаргиз осон кечмайди...”* [3]. Назира ҳаётида ҳам мана шундай машққатли онлар бошланган эди. Асар воқеалари ривожда кўришимиз мумкинки, Ҳамробуви қизлар тарбиясига жуда қаттиқ турганлиги, бўш вақтларининг тақсимога эътиборли бўлганлиги, уй-юмушларига, сарамжон-саришталикка, озодаликка қизларини ўргатганлигини кўриш мумкин. Бир оилада тарбия кўрган, камолга етган опа-сингиллар характер жиҳатидан эса ҳеч бир-бирларига ўхшамас эди. Назирадаги меҳнаткашлик, тиришқоқлик, қатъиятлилик, жасоратлилик сингари фазилатлари юксак эди. Сингиси Орзугудда эса худбинлик, манманлик фазилати баланд эди. Асар воқеалари ривожда Ражаб момо характер хусусиятларини очиб берилди бошланади. Ражаб момо Ҳамробуви тилидан таъриф этилганидек, *“Сал гердайданроқми-ей, бошқаларга тепадан қараб, оёқ учида кўрсатишни ёқтирадимми-ей... ўзи бор –йўғи бир косибнинг қизи бўлса. Онаси бир умр қўли югурик эр дастидан куйиб ўтди. Айтишади-ку, отанг ким-чи, энанг ким-чи, деб...лекин Ражаб момо ундай қилмайди, бошқалар олдида боши кўкка етгудай гердаяди, “ҳай-ҳай” демасанг, ўзини оқсуяклар, эшонлар авлодидан деб кўрсатишдан ҳам тоймайди. Аммо тилига захар қўшиб олишни ҳам боплайди, таъбига ўтиришмаган хотин-халаж, бола-бақрани гап билан ўхшатиб чақиб олишнинг роса ҳадисини олган”* [3], - аёл эди. Ўз мақсади йўлида ҳеч нарсадан топ-тортмайдиган, ўзи тизгини ушлаб туришга одатланган, айтгани-айтган бўлиши йўлида ҳар қандай қабиҳликкача бора оладиган эди. Келини Назирадан кўнгли сира тўлмагани, унинг камчиликларини бўртириб, ошириб-тошириб ўғлига айтиш асносида қалбининг туб-тубида келинидаги жасоратга, қатъиятликка тан берар эди. Ражаб момо сиртидан, ошкора айтмасада ич-ичидан Назирага тан берар эди. Бир ўринда Ражаб момо тилидан шундай таъриф этилади: *“Ҳа, ҳақиқатда ҳам суқсурдай келини бор. Истараси ҳам иссиққина ўлгурнинг. Рўзгор юмушларига ҳам бало: қачон қарасанг, ҳовли ёғ тушса ялагуде супирилган, ош-овқати вақтида...”* яна бир ўринда *“Икки кўча нарида турадиган онасининг уйига ҳам эри, қайнонасига рухсат бермаса, бормай қўя қоларди. Ражаб момонинг оғзига ёқадиган овқатлар қилишдан чарчамасди. Бирор марта қайнонасининг кўзига тикилиб қарамаган, аксинча Ражаб момо дўндириб-дўндириб гапириб ташлаганида ҳам гап қайтармасди, қайтанга иззатини жойига қўйиб, аввалгидан-да меҳрибонроқ бўлиб қоларди. Қургур одамга юқумли эди-да”* [3] (316-бет). Назирага нисбатан адолатсизроқ бўлганини келини Хулкарни оиласига киритганида, у билан ҳамхона бўлганида англаб етади. Энди эса ҳамма нарсага кеч эди. Шунда Назиранинг қилган меҳнатлари, унга нисбатан меҳр-оқибатли бўлганини орзиқиб хотирлар, келини Хулкар эса қайнонаси Ражаб момони ўткир сўзлари билан мот қилиб бўлганди. Ражаб момо бу келинига хукмини ўтказа олмаганини тан олар эди.

Асар воқелигининг кетма – кетлигида китобхон Назиранинг ҳар қандай қийинчиликларга дуч келсада, ҳатто шаҳарга юпин, йиртиқ калиши билан келган



бўлсада ўзининг тиришқоқлиги, тадбиркорлиги, ҳар қандай қийинчиликларга сабот билан мардона тура олишини кашф эта боради. Ундаги иқтидор ёшлигидан маълум эди: “...У бирор ишга қўл урмочи бўлса, баъзи қизларга ўхшаб элдан бурун оламга жар солмасди...унинг мақсад, нияти ҳақида лоақал синглиси ҳам билмасди” [3].

Асар воқеалар ривожда Назира иккинчи бор бахтли бўлиш, оила қуриш умиди, кўнглида яна баҳор келганидан масрур эканлиги кўрсатилиб берилади. У кўнглида баҳорнинг яна қайта бўй кўрсатганига, ҳаётида уни бахтли қилаоладиган инсонни учратиши унинг кўнглини нурафшон қилади. Мана шундай кунлардан бирида яхши ниятларда Жўрабекка турмушга чиқади, бир этак фарзандларнинг севимли онасига айланади. Аммо бора-бора Жўрабек билан ўртасидаги муносабатларда кемтиклик юзага келди. Оиланинг, рўзгорнинг оғир юки Назиранинг зиммасида, унинг масъулияти, вазифаси даражасига етказиб қўйган Жўрабек оила, фарзандлар учун меҳнат қилиш, изланиш, елиб-югуришдан бош тортади. Назиранинг қанча ялиниб-ёлворишига қарамасдан бирор ишнинг этагидан тутмайди. Бу ҳолатга Назира бора-бора кўникиб, мослашиб бораверади. Эрта-ю-кеч оилам, бола-чақкам деб тинмай меҳнат қилади, изланади. Асар персонажлари орасида ҳаёт синовларидан, турмуш чорраҳаларидан эсон-омон ўтиб олган зот – айна шу Назиранинг ўзидир. Энг муҳими, ғоят чигал, таҳликали дамларда ҳам у ўзлигига содиқ қолади, аёллик шаъни, ор-номуси, латофатига гард юқтирмайди. Бу аломат аёл жамики қийинчиликларни, рўзгор “юк”ини бўйнига олиб, турмуш чорраҳаларида умр йўлдоши Жўрабекни ҳам унга елкадош бўлишни ҳис этишга уринади. Афсус, бу аёл табиатидаги бебаҳо фазилатларни, истеъдодини, қалб тубидаги эзгу туйғуларини, юрт корига яраш, обод этиш, ривожлантириш, халқнинг фаровонлиги йўлидаги олиб борган эзгу амалларини нафақат умр йўлдоши балки юқори мансаб эгалари бўлган Анвар Бўриев, Аброр Қодирович сингари амалдорлар ҳам пайқамади, қадрламади. Улар билан бўлган тортишувлар, даҳанаки жанглار бора-бора Назиранинг соғлиғига таъсир кўрсата бошлади. Аёлнинг метин юрагини ғуссага ботирди, қаддини букди, жондан азиз фарзанди Шокирни ва ўзини қамоққа тикишди. У ҳам камлик қилганидай Назирага нисбатан Анвар Бўриев, Аброр Қодирович сингари раҳбар ходимлар ёлғон маълумотлар, ақл бовар қилмас даражадаги ноҳақликлар қилинлиги ўқувчида нафрат туйғусини уйғотади. Жамиятда Назирага ўхшаш тадбиркор аёлларнинг оёғига болта уриш истагида юрган, коррупцияни ўзига шиор қилган, ўз манфаатини устун қўйгучи баъзи амалдорларнинг хатти-ҳаракатларидан норизо бўлади. Ҳақиқат, адолат барибари ғалаба қозонишига умид қилган Назира ҳаётда яхши, халол инсонлар ҳам борлигини англаб, Суннат Аҳмедович сингари ўз ишининг устаси бўлган инсон уни оқлаб чиқади. Унга қўйилган айбловлар ноҳақ эканлигини исботлаб беради. Жондан азиз бўлган Шокирини ҳам озодликка чиқаради.

Адиба аёлнинг кўнгли оламидаги эврилишлар, ноҳақликлардан озорланишларини Суннат Аҳмедович билан кечган суҳбатда намоён этади, “... қадимда аёлларни қурбонлик қилишга тўғри келганда улар орасидан тайинли яқинлари, таниш-билиши бўлмаган хотинни танлашаркан. Негаки унга тоғдай суюнчиқ бўладиган, довуллардан ҳимоя қиладиган ҳеч ким бўлмас экан-да...” [3] (505-бет). Назирада мана шундай тоғдай қалқони, суюнадиган суюнчиғи, дарддоши йўқ эди. Роман мутолааси чоғида мана шу



ҳол бир армон бўлиб ўқувчи қалбини тирнайди. Аёл боши билан ўз куч ва манотангига, истеъодига, интилувчанлик, тадбиркорлик қобилиятига суяниб юқори марраларни эгаллади.

Адиба асарда КҰНГИЛ тушунчасига алоҳида урғу берганлиги бежиз эмас. Инсон ташқи жиҳатидан қандай яратилишидан қатъий назар унинг кўнгли бор. Бу кўнгилда ҳайрат, муҳаббат, чексиз туйғулар мужассам. Аслида мана шулар эмасми инсоннинг бахти, бойлиги. Назиранинг кўнгли эса ... *“Вайрон бўлган кўнглим қайта тикланиб, ҳар томонлама сочилиб кетган синиқлари бир бутун бўлди, аммо кўп ўтмай кучли зилзила оқибатида кўнгил қасримда яна вайроналик рўй берди”* (504-бет) яна бир ҳолатда *“... умр бўйи виждоним билан ҳисоблашиб келдим, унинг амрига қулоқ тутдим. Аммо кўнглим билан ҳамиша тортишиб келганман, уни ўз ҳолига қўймадим, эрк бермадим. У мендан норози. Кимдандир кечирим сўраш керак бўлса, бу ўз кўнглим...”* [3] (587-бет).

Назира кўнгили амрига қулоқ тутмаганлиги, унинг озорланишига парво ҳам қилмаганлигига, эътибордан четда қолдирганлигини умри сўнги дамларида армон, афсусланиш туйғусини намоён этади. Не орзу-умидларда қурган турмуши охир оқибат сароб бўлиб чиқанлигидан оғринади. *“Одамлар китобга ўхшаркан. Муқовасига қарасанг, кўзинг қувнайди, аммо ичини очиб ўқиб чиққанингдан кейин ҳафсаланг пир бўлади...”* [3] (588-бет). Назира хаёлидан ўтган бу ўйлар Жўрабекка бўлган қарашларнинг, муносабатларнинг саробга айланганлиги, орзу қилган, у истаган инсонга айланмаганлигини таъкидлайди.

Романда мақол ва маталларнинг, ибораларнинг ўз ўрнида ишлатилиши, асарнинг янада жозибали, ўқимишли чиқишига замин ярата олган: *“Ишонган тоғда кийик ётмайди”*[44], *Нимани эксанг, шуни ўрасан...*[64], *Туя ҳаммомни орзу қилган экан* [100] [3].

Муаллифга хос услубнинг яна бир ўзига хослиги аввало асар мавзуси, қаҳрамон номи ва тилида рамзий маъно мавжудлигида кўринади. Айниқса асар қаҳрамонларининг исмларини характерига, ички маънавий, руҳий ҳолатига, касбига хос хусусиятларни инобатга олиб, киноявий сўзлар уйғунлигида номлайди. Мана шундай қаҳрамонлардан бири Самар ланг(*оёғида нуқсонни борилиги*) баъзи ўринларда Самар пирра (*қимор ўйинларида гирромлиги ёхуд ютуш йўлида ҳар қандай пасткашликка етадиган*), Самар гуппи (*мақтончоқлиги, ўзини юқори тутувчи фазилатига эгаллиги*) (Самар).

“...доим ўта муҳим ўйлар билан банд одам ёинки каттакон амалдордай намоишкорона жиддий қиёфада юришга уринадиган, салом аликдан кейинги иккинчи гапи “Ҳа, энди, бизники барлос-да, бу уругдан кимлар чиққанини ўзларингга маълум...” деб мақтаниб қўйишдан иборат бўлган...”,- [3] (46-47 бетлар) дея адиба ушбу қаҳрамонни ғойибона таърифлашдан бошлайди. Самар ўзгалар тақдири, ҳаёти билан ўйнашиши, ўзини буюк куч соҳиби сифатида қаровчи, уни кўрганда ҳамма тиграб-қаҳшашини, кўрқашини исташи унинг юриш-туришидан, хатти-ҳаракатидан аён бўлади. Назира ҳаётининг тубдан ўзгаришига, аёл шаънига доғ қолдиришга уста Самарга ўхшаш инсонларнинг охир-оқибат қисмати виждон азобида ўтишини, у дунёда эмас бу дунёда жазосини олиши муқаррар эканлигини ўқувчига уқтиради.



Умуман олганда адиба “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” романида ўз олдига қўйган мақсад, унинг асл ғоявий-бадий нияти, фикримизча қуйидагилардан иборат:

- 1) асар қаҳрамонлари тимсолида ҳаёт ходисаларини янги талқин қилиб, бугунги кун кишиларининг дунёқарашидаги ўзгаришлар ҳамда миллатимизга хос бўлган одамгарчилик, меҳнатсеварлик, саховатпешалик, ҳалоллик сингари тушунчаларни тарғиб этиш;
- 2) аёллар руҳиятидаги кечинмаларни, орзу-интилишларни бадий адабиётга киритиб бориш ва уларни етакчи образ сифатида намоён этиш, уларнинг кўнгил оламидаги гоҳ махзун, гоҳ шодлик сурурларидан баҳраманд этиш, кашф этишга интилиш;
- 3) асар қаҳрамонларининг тили ва характерлари воситасида муштамлақачилик сиёсатини, ижтимоий қонунчиликнинг бузилиши, эркисизлик ва адолатсизликни вужудга келтирган омилларни кескин қоралашга интилиш;
- 4) бугунги кун аёлларининг ўй-мушоҳадалари, инсон кўнгил кечинмалари ва ҳаёт фалсафасидан баҳс этади.

Хуллас адиба аёллар руҳий оламини, кўнгил сир-асрорини нозик тасвирлайди, ўқувчи олдида бу оламнинг нозик кечинмалари, кўнгил асрорлари борлигидан огоҳ этади. Уларга заифа, ожиза сифатида эмас балки келажак давомчиси сифатида қарай олишдан, оилада ва жамиятда ҳам ўз ўрнига эга бўла оладиган кучга эга эканлигидан воқиф этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Эргаш Орзиқул. Қалб гавҳари. “Mashhur-press”. – Тошкент. 2020.
2. Норматов У. Қалбдаги беназир зиё. Веб-саҳифаси. 2010 йил.
3. Зулфия Қуролбой қизи. Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари. “Янги китоб”. .– Тошкент. 2020.
4. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. “Янги аср авлоди”. .– Тошкент. 2006.

НУТҚ МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИНИНГ СИНЧИ ТАДҚИҚОТЧИСИ

Ҳикматхон Аҳмедова,
Қўқон ДПИ катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада ўзбек тилшунослигининг даргаларидан бири – Низомиддин Маҳмудовнинг нутқ маданияти соҳасига доир фаолиятининг соҳа илмий такомилли ҳамда етук кадрлар тайёрлашдаги ўрни, аҳамияти ёритилган.

Таянч сўз ва иборалар: нутқ маданияти, маданий нутқ, нутқ одоби, тил эстетикаси, нутқнинг коммуникатив сифатлари, маданий нутқ тарбияси, нотиклик, нутқ маданияти мезон ва меъёрлари. лингвопублицистика.

КРИТИЧЕСКИЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ВОПРОСОВ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ

Ҳикматхон Аҳмедова,
Кокандский ГПИ
Старший преподаватель



Аннотация. В статье освещается роль и значение культуры речи в сфере научного развития и подготовки зрелых кадров в деятельности одного из лидеров узбекского языкознания Низомиддина Махмудова.

Ключевые слова и фразы: речевая культура, культурная речь, речевой этикет, языковая эстетика, коммуникативные качества речи, культурологическое речевое образование, ораторское искусство, критерии и нормы речевой культуры, лингвопублицистика.

CRITICAL RESEARCHER OF THE ISSUES OF SPEECH CULTURE

Hikmatxon Ahmedova,
Kokand SPI
Senior Lecturer

Annotation. The article highlights the role and importance of Nizomiddin Mahmudov's work in the field of speech culture, one of the leaders of Uzbek linguistics, in the field of scientific development and training of well-qualified personnel.

Basic words and phrases. speech culture, cultural speech, speech etiquette, language aesthetics, communicative qualities of speech, cultural speech education, oratory, criteria and norms of speech culture, linguo-publicistic.

Ўзбек филологиясида нутқ маданияти соҳасининг илмий такомил ва ривожидида филология фанлари доктори, профессор Низомиддин Маҳмудовнинг алоҳида ўрни бор. Олим илмий фаолиятида нутқ маданияти ва унинг тарғиб-ташвиқи алоҳида йўналишни ташкил этади. Унинг “Маданий нутқ тарбияси”, “Нутқингиз қулоқни қийнамасин”, “Ўринли сўзга туя чўқади”, “Овоз – фикр либоси”, “Кўнгилочар газеталардаги кўнгилисиз гаплар” каби лингвопублицистик мақолалари³⁰, “Ўқитувчи нутқ маданияти” номли дарслиги фикримизнинг далилидир.

Олим истиқдол йилларида: “Ўқитувчининг асосий қуроли унинг нутқи экан, “Нутқ маданияти” ўқув фани фақат филолог-ўқитувчи эмас, балки ҳар қандай фан ўқитувчиси тайёрлайдиган барча олий ўқув юртларида ўқитилиши мақсадга мувофиқ”³¹, дея фидойилик билан педагог кадрлар тайёрлайдиган барча олий ўқув юртларида нутқ маданиятига доир махсус фан ўқитилиши лозим деган эзгу ғояни илгари сурди.

Устоз нутқ одоби, нутқ маданияти умуминсоний ахлоқ, маънавий комиллик сирасига киришини ва унинг меъёру мезонларига амал қилиш бизга қадимий мерос эканлигини бетақрор талқинлару синчилик билан уқтиради: “Бизнинг асрларни аллалаган юртимизда ахлоқ бениҳоя серқамров, маъзи тўқ тушунча сифатида ардоқлаб келинади. Маънили ва бежирим гапира билиш, нутқ дарёсидаги мақбул ва номақбул тўлқинларни илғай олиш, сўзнинг орқа-ўнгини, муносиб ўрнини фарқлай

³⁰ Қаранг. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 129-149.

³¹ Маҳмудов Н. Маданий нутқ тарбияси // Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.52.



билиш, нутқий фаҳму фаросат, тарҳли нутқ одоби каби фазилатлар Туронда инсон умумий ахлоқининг, маънавий расолигини таянч устунларидан саналган.”³²

Олим эътироф этганидек, “Аниқки, нутқ маданияти жамият маданий-маърифий тараққиётининг, миллат маънавий камологининг муҳим белгисидир. Ҳақиқий маънодаги маданий нутқ шахс умуммаданий савиясининг фавқулдда муҳим унсурларидан биридир”.³³

Устознинг “Маданий нутқ тарбияси” номли мақоласида маданий нутқ ва унинг сифатлари, инсон маънавий тақомилидаги ўрни масалалари Юсуф Хос Ҳожиб, Кайковус, Абдурауф Фитрат асарларидан олинган иқтибослар асосида ёрқин ёритилган ва асосланган. Бу мақоланинг яна бир ижобий жиҳати шундаки, унда она тили ва адабиёти фанини ўқитишнинг бош мақсади ҳамда вазифаси, ўқувчиларда маданий нутққа хос малака ва кўникмаларни шакллантиришда ўқитувчининг ўрни, вазифаси ва масаланинг педагогик омиллари борасида ҳам асосли фикрлар берилган: “Мактабда ўқувчининг нутқий маданиятини шакллантириш ва тақомиллаштиришда асосий оғирлик она тили ва адабиёт ўқув фанларининг зиммасида эканлиги маълум. Албатта, мактаб ўқув режасида алоҳида “Нутқ маданияти” деган фан йўқ, аммо она тили ўқитилишининг энг пировард мақсади, табиийки, нутқи равон, аниқ, бой, ўз фикрини мустақил равишда хоҳ ёзма, лўнда, гўзал ва таъсирчан шаклларда ифодалай оладиган шахсни тарбиялашдан иборат.” (52-б.)

Сўз синчиси Н.Маҳмудов мақола сўнгида ўқувчиларда маданий нутқ тарбиясида кўрғазмалилик ҳамда ўқитувчи алоҳида ўрин тутишини таъкидлайди: “Таълим амалиётида кўрғазмалилик азалдан энг зарурий омил сифатида қараб келинади, шунинг учун ўқитувчи жуда кўп вақтини турли кўрғазмали қуроолар тайёрлашга сарфлайди. Бу маъқул, аммо, унутмаслик керакки, нутқий маданиятни ўргатиш, чиройли сўз завқини ўстириш, умуман, тил эстетикаси тарбиясида асосия, жонли кўрғазмали қурол ўқитувчининг ўзидир”. (52-б.) Таъкидлаш жоизки, бу методик тавсия бугун ҳам, эртага ҳам ўз моҳиятини йўқотмайди. Чиндан ҳам ўқувчиларда маданий нутқ малака ва кўникмаларини шакллантириш ҳамда тақомиллаштиришда ўқитувчи ва унинг шахсий сифатлари алоҳида моҳиятга эга.

Лингвистик компотентликнинг бир қирраси ноғизлик маҳоратини эгаллашдир. 2000 йилларнинг бошида бакалавриятнинг “Ўқитувчилар тайёр-лаш ва педагогика фани” билим соҳаси талабалари учун “Ўқитувчи нутқи маданияти” фани киритилди. Н.Маҳмудов томонидан илк бор “Ўқитувчи нутқи маданияти” номли дарслик яратилди. Мазкур дарслиқда нутқ маданиятининг назарий ва амалий масалалари, хусусан, нутқ маданияти, нутқнинг тўғрилиги, аниқлиги, мангиқийлиги, софлиги, бойлиги, жўялилиги, ифодалилиги сифатлари ва буларни тарбиялаш хусусида содда, равон, таъсирчан усулда баён этилган.³⁴ Бироқ университетларда ана шу фаннинг ўқитилиши тўхтаб қолди. Бизнингча,

³² Маҳмудов Н. Маданий нутқ тарбияси // Маърифат манзиллари, 42-43-б.

³³ Маҳмудов Н. Маданий нутқ тарбияси // Маърифат манзиллари, 44-45-б.

³⁴ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 180 б.



бакалавриятнинг барча педагогика йўналишларида “Мутахассис нутқи маданияти” фанини ўқув дастурига кири-тиш ва ўқитиш лозим. Бу фақат ижобий натижа беради холос.

Нутқ маданиятига оид бир қанча монография, дарслик, қўлланма ва рисолалар ёзилган. Н.Маҳмудовнинг “Ўқитувчи нутқи маданияти” (Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007; 2009) китоби мазкур йўналишдаги энг сўнгги ва мукамал тадқиқотдир.

Олим таъкидлаганидек, “Она тилида гўзал ва равон нутқ туза билиш, бежирим ва бетакрор, рангин ва зангин нутқдан ҳузурланиш ва шундай маданий нутқ билан бошқаларга таъсир этиш, ёш авлод қалбининг қулфини очиб, мазкур тушунчаларни уларни ўзиники қилдириш, айниқса, ўқитувчи учун биринчи даражали талаблардандир”.³⁵

Олим нутқ маданияти барча фан ўқитувчилари учун энг зарур фазилят эканлигини асосли уқтиради: “Қайси фан мутахассиси бўлишидан қайти назар, ўқитувчи тилдан моҳирона фойдаланиш ҳадисини олмаган, демакки, чинакам маданий нутқ малакасини эгалламаган бўлса, дарсдаги нутқи ўтмас, ночор ва рангсиз бўлса, унинг билими қанчалик чуқур ва тугал бўлмасин, қирқ беш дақиқалик фурсат унинг ўзи учун ҳам, ўқувчи шўрлик учун ҳам бениҳоя оғир азоб. Она тилида пухта, дўнда ва ширадор нутқ туза олиш малакаси ва маҳорати математика ўқитувчиси учун ҳам, она тили ўқитувчиси учун ҳам бирдай зарурий фазилятдир” (18-б.).

Н.Маҳмудов нутқ маданиятига қуйидагича мукамал таъриф беради: “Нутқ маданияти эса тилдан бемалол, мақсадга ўта мувофиқ ва таъсирчан бир тарзда фойдалана олишни таъминлайдиган кўникма, малака ва билимларнинг жами демақдир. Бошқача айтганда, нутқ маданияти тилда потенциал мавжуд бўлган хилма-хил ифода шаклларида фикр учун энг уйғунларини танлай билиш ва шу асосда расо нутқ туза олиш маҳоратидир” (22-б.).

Бошқа ўринда муаллиф тўғрилиқ, аниқлик, мантиқийлик, ифодалилик, бойлик, софлик, жўялилик каби коммуникатив сифатларнинг барчасини ўзида мужассамлаштирган нутқ маданий ҳисобланишини қайд этади.³⁶

Китобни мутолаа қилар экансиз, бугунги куннинг кўплаб долзарб савол ва муаммоларига ҳам жавоб топасиз. Оммавий нашрлар ва телевидение, радиода “Бугуннинг ўқитувчиси қандай бўлиши керак?”, “Замонавий ўқитувчи қандай маънавий фазилятлар соҳиби бўлмоғи керак?” деган масалада баҳслар кузатилади. Н.Маҳмудов бу борада ҳам ўз талқинларини беради: “Нозик тил сезгиси, тилимизнинг бениҳоя бой анъаналари ва ифода имкониятларидан хабардорлиги, тамом тўқ ва таъсирчан нутқи билан ўқувчи қулоғини эмас, балки қалбу шуурини забт этиб, унинг ақлий ва маънавий дунёсини кенгайтиришга бел боғлаган ўқитувчи – бугуннинг ўқитувчисидир.” (33-б.)

³⁵ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 17.

³⁶ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 29.



Дарсликнинг “Нутқ маданияти ва бошқа фанлар” бўлимида нутқ маданиятининг фонетика, орфоэпия, лексикология, лексикография, услубият, грамматика каби тилшунослик соҳалари ва мантиқ, социология каби ижтимоий-гуманитар фанлар билан алоқаси, боғлиқлиги рус ва хорижий олимларнинг қарашлари, талқинлари ҳамда асосли далиллар билан мукамал ёритилган.

Унда нутқнинг тўғрилиги, аниқлиги, мантикийлиги, софлиги, ифодалилиги, бойлиги, жўялилиги каби асосий тушунчалар ўқитувчи нутқига боғлиқ содда, образли тилда кенг ёритиб берилган. Шунингдек, ҳозирги ўзбек адабиётидан олинган парчалар асосида далилланган.

Бизнигча, мазкур дарслик сўз санъатининг нодир намунаси, нотиклик санъатининг ҳам бебаҳо дурдонасидир. Асарда сўзнинг ижтимоий-эстетик кадр-қиммати ҳақида теран қарашлар ниҳоятда гўзал, равон ва тушунарли ҳамда ўзгача услубда ўз ифодасини топган.

Н. Маҳмудовнинг мазкур дарслиги нутқ маданиятига доир ўзига хос қомусий манбалардан биридир. Унда нутқ одоби, нотиклик маданиятининг ўзига хос хусусиятлари, меъёр ва мезонлари мукамал ёритилган.

Муаллифнинг мақолалари ва дарслигида тил, нутқ ва сўзнинг содда, мухтасар ва бетакрор мазмунан ҳамда услубан ўзгача, фақат олимнинг ўзигагина хос саъж билан сайқал топган талқинларни ўқийсиз, уқасиз:

Умумхалқ тили ҳақида: *“Ўз гўзаллигини қандай бўлса, шундайлигича асрлар оша асраган, атайлаб пардозланмаган, меъёрлардан, қатъий қоидалар занжиридан озод, муайян ҳудудга мансуб гоҳ беҳад нозик, гоҳида мундайроқ ўзига хосликларни, яъни шу тил доирасидаги барча шеваларни ҳам қамраган тилдир”*(43-б.).

Адабий тил ҳақида: *“Адабий тил эса ана шу халқ тилининг ... тарбияли, кўркли ва комил ягона “фарзанди” дир. Ўзбек адабий тили ўзбек халқ тили заминиде таркиб топган, у халқ тилининг тегишли қонуниятлар асосида меъёрлаштирилган, сайқалланган, оро берилган шаклидир”* (43-б.).

“Адабий меъёр тил унсурларидан тил системаси қонуниятларига уйғун, жамият тараққиётининг муайян даврида барқарорлашган ижтимоий-нутқий амалиёт ва анъанага мувофиқ ҳолда фойдаланиш қоидалари” сифатида изоҳланди (43-б.).

Тил ҳақида: *“тил бемисл бой, сеҳру синоатга, руҳу руҳониятга, кўрку ко Олим нутқни бетакрор сифатлашлар билан тавсифлайди: чинакам нутқ, гўзал ва нафис нутқ (5-б.), нозик нутқ (6-б.), бежирим ва бетакрор, рангин ва зангин нутқ (17-б.), милликка лимо-лим бир хилқатдир”* (44-б) каби.

Олим тилни энг муҳим алоқа воситаси сифатида баҳолар экан, асосий урғуни унинг ижтимоий аҳамиятига беради. Тил, сўз инсон қалбининг таржимони, унинг қалбидаги асосий фикрларни, ўй ва тушунчаларни бошқаларга етказиш воситасидир. Инсоннинг сўзлаш қобилияти унинг шахс сифатидаги ўзига хосликларни намойиш этиш имкони ҳамдир. Ана шу имконият орқали у ўз билимларини намойиш этади. Агар у сўзламаса, унинг билимлари бошқаларга ноаёнлигича қолиб кетаверади. Тилдан шикоят қилиш ножоиз. Унинг мақтовли жиҳатлари ниҳоятда кўп. Аммо унда инсонни ношоиста ҳолатларга солиш имкони ҳам йўқ эмас. Шунинг учун ҳам бу борада тегишли меъёрларни билиш жоиз. Демак, тил кўнгил таржимонидир. Шу боис ҳам тил инсон учун энг мўътабар ва азиздир.

Н.Маҳмудов ўзбек халқининг нутқ ва маданий нутққа эътибори қадриятга айланганлигини ҳам айрича талқинлар билан уқтиради: *“Ўзбек – сўзнинг бебаҳо ва муқаддаслигига ҳамма замонларда имон келтирган, ҳеч қачон ўз сўзидан тонмаган, лафзига мункир келмаган, сўзни ўз фарзанди каби оқ ювиб, оқ тараган халқ. Шунинг учун ҳам ўзбек*



ажодлар ҳикматига амал қилиб, ўйнаб гапирса ҳам, ўйлаб гапиради. Ҳамиша қошиб эмас, топиб гапиришнинг пайдан бўлади. Сўзга ошуфталик, нутқнинг латифлигидан, ундаги сўзларнинг фавқулудда уйғунлигидан завқланиш, гўзал ва таъсирли нутқ тузишга айрича ҳавас, бундай санъат соҳибига ҳайрат билан қараш ўзбекларнинг азалий урфларидандир. Айтгилмоқчи бўлган фикрга мутлоқо мос либос кийдира билиш, сўз билан тингловчининг фақат қулоғини эмас, балки қалбини ҳам забт эта олиш Шарқда, хусусан, ўзбекларда тарбияланганликнинг, маърифатлиликнинг, зиёлиликнинг қабарик белгиларидан бири ҳисобланган”(12- б.)

Албатта, бундай талқину тавсифлар ёшларга тил эстетикаси тарбиясини беришда ҳам муҳим маънавий-маърифий аҳамиятга эга.

Мухтасар қилиб айтганда, Н.Маҳмудовнинг нутқ одоби, маданиятга доир мақолалари ва “Ўқитувчи нутқи маданияти” кигоби ўзига хос бетақрор услубда, ширали, жонли тилда ёзилган, инсонларда ҳайрат ва ҳавас уйғота оладиган маданий нутқнинг олий намунасидир.

ЎЗБЕК ВА РУС ТИЛЛАРИДА МАДАНИЙ-ИСТИРОҲАТ ОБЪЕКТЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ ИНДИКАТОРЛАР ВА УЛАРНИНГ ФУНКЦИОНАЛ-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Исломова Д.А.

НамДУ рус тилшунослиги
кафедраси ўқитувчиси
diloromislamova@mail.ru

Аннотация. Мақолада ўзбек ва рус тилларидаги маданий-истироҳат объектларини ифодаловчи индикаторларнинг тарихий-этимологик манбалари, семантик-функционалхусусиятлари ёритилган.

Калит сўзлар: индикатор, топонимик индикатор, функционал-семантик, бог, парк, сквер, хиёбон, сад, сити-парки, экопарк, дендропарк, интерактив парк, арт-парк, кўриқхона, заповедник, лесопарк.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНДИКАТОРОВ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ КУЛЬТУРНО-РАЗВЛЕКАТЕЛЬНЫЕ ОБЪЕКТЫ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ.

Исломова Д.А.

НамГУ, преподаватель кафедры русского языкознания
diloromislamova@mail.ru

Аннотация. В статье анализируются топонимические индикаторы обозначающих культурно-развлекательные объекты в узбекском и русском языках,, исследуются их функционально-смысловые особенности, проанализированны пути наименования новых культурно-развлекательных объектов.

Ключевые слова: парк, сквер, сад, сити-парки, экопарк, дендропарк, интерактив парк, арт-парк, заповедник, роща.



FUNCTIONAL AND SEMANTIC FEATURES OF INDICATORS DENOTING CULTURAL AND ENTERTAINMENT OBJECTS IN THE UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES.

Islomova D.A.

NamSU, lecturer at the Department of Russian Linguistic
diloromislamova@mail.ru

Annotation. *The article analyzes toponymic indicators denoting cultural and entertainment objects in the Uzbek and Russian languages, examines their functional and semantic features, analyzes the ways of naming new cultural and entertainment objects.*

Key words: *park, square, garden, city parks, ecopark, arboretum, interactive park, art park, nature reserve, grove.*

Топонимларнинг функционал-семантик жиҳатдан шаклланишида, турларининг ифодаланишида муайян луғавий бирликлармуҳим аҳамиятга эга. Топонимлар таркибида қўлланувчи бундай бирликлар топонимик индикаторлар деб юритилади. Топонимик индикаторлар объектнинг турига кўра ойконимик индикаторлар, оронимик индикаторлар, гидронимик индикаторлар ва бошқаларга бўлинади.

Маданий-истироҳат масканларини ифодаловчи топонимлар таркибида ўзбек тилида *боғ, парк, сквер, хиёбон*, рус тилида *сад, парк, сквер* каби индикаторлар қўлланади.

Тарихий-этимологик жиҳатдан инглизча *парк* сўзи дастлаб рус тилига ва унинг воситасида ўзбек тилига ўзлашган. *Парк* луғавий бирлиги қуйидаги маънони англатади: “Йўлаклар, хиёбонлари, ўйин майдонлари, дам олиш, кўнгиш очиш мақсадлари учун белгиланган бино ва ҳар хил ускуналари бўлган манзарали боғ”³⁷.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да *парк* сўзига “Тулзор, дарахтзор ва хиёбонлари бўлган, дам олиш, кўнгиш очиш учун мослаштирилган катта боғ”, деб изоҳ берилган³⁸.

Сквер сўзи асли лотинча бўлиб, “тўртбурчак қилиб қирқмоқ” маъносидаги *exduadrate* сўзининг рус тилига *square* шаклида “тўртбурчак майдон” маъносида ўзлашуви натижасида юзага келган³⁹. Мазкур луғавий бирлик ўзбек тилига рус тилидан ўзлашган бўлиб, *хиёбон* сўзининг муқобили сифатида қўлланади ва “унчалик катта бўлмаган ва кўпинча шаҳарнинг марказий қисмидаги жамоат боғи” ни англатади.⁴⁰

³⁷Усмонов О., Данияров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 331.

³⁸Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-ж. – Б.224.

³⁹Қаранг. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-ж. – Б.532.

⁴⁰Усмонов О., Данияров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 419.



Ўзбек тилида форсча *хиёбон* русча *бульвар* сўзининг муқобили сифатида қўлланади. *Хиёбон* индикатори “икки томонига қатор дарахт, бута ва гуллар ўтқазилган йўл ва йўлка; сайргоҳ” маъносини англатади⁴¹. Масалан, *Амир Темур хиёбони* (Тошкент ш.), *Буюк алломалар хиёбони* (Урганч ш.), *Амир Темур хиёбони*, *Бобур хиёбони* (Наманган ш.) каби.

Сўнги йилларда ўзбек тили топонимиясида *парк* ўрнида *сайилгоҳ* индикаторининг қўлланиши фаоллашди. *Сайилгоҳ* (а.ф. сайил жойи) Халқ сайиллари ўтказиладиган жой, боғ, парк⁴².

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да боғ сўзига қуйидагича изоҳ берилган: 1) мевали дарахтлар ва ток, гул билан банд майдон, мевазор (узум боғи, анжир боғи, олма боғи ва ҳ.к); 2) манзарали ўсимликлар экилган жой, дарахтлар ва гуллар экилиб обод этилган истироҳатгоҳ.

Боғ сўзи иккинчи маъноси билан индикатор сифатидакиши номлари (антропонимлар), аҳоли манзиллари, кўпроқ шаҳар номлари (полисонимлар) ва бошқа луғавий бирликларга қўшилиб, маданий-истироҳат объектларининг атоқли номларини ҳосил қилишда фаол қўлланади: *Зомин халқ боғи* (Жиззах в. Зомин т.), *Ботаника боғи* (Тошкент в.), *Алишер Навоий номли миллий боғ*, *Ғафур Ғулом номидаги маданий-истироҳат боғи*, *Фурқат номидаги маданий-истироҳат боғи*, *Бобур номидаги маданий-истироҳат боғи*, *Абдулла Қодирий номидаги маданий-истироҳат боғи*, *Улўбек номидаги маданий-истироҳат боғи* (Тошкент ш.) *Бобур боғи* (Наманган ш.), *Сўғдиёна маданий ва истироҳат боғи* (Самарқанд в.) каби.

Рус тилида боғ сўзининг биринчи маъноси сад сўзига, иккинчиси эса парк сўзи билан ифодаланади. Русча парк сўзи кўпмаъноли. Юқорида кўрсатилган маъноларидан ташқари “трамвай, темир йўл вагонлари, автобус ва троллейбусларни тўхташ жойи ва таъмирлаш жойи”, “хўжалиқда машиналар тўпиами (масалан, автопарк, машина-трактор парки, дастгоҳ парки)ни ҳам англатади, аммо янги изоҳли луғатларда, жумладан, Т.Ф. Ефремованинг луғатида “сайил, кўпинча меҳмонларнинг дам олишлари учун турли хил жиҳозланган катта боғ” деб изоҳланади.⁴³

С.И.Ожегов ва Н.Ю.Шведоваларнинг луғатида парк сўзи гулзорлар, сув ҳавзалари бор катта боғ ёки дарахтзор изоҳи берилган.⁴⁴ Кўринадикки, бу сўз дастлаб сад сўзининг синоними бўлган. Рус тилида айрим ҳолларда сад сўзига лесопарк (ўрмон-боғ), роцца (дарахзор),сквер сўзлари ҳам синоним сифатида қайд этилган.⁴⁵

⁴¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж. – Б.394.

⁴²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж. – Б. 423.

⁴³Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка: толково- словообразовательный. - Москва: 2012.Онлайн словарь. <https://leksicography.onlaine>

⁴⁴Ожегов С.И.,Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 4-ое издание. – Москва: А ТЕМП, 2017 . – Б. 472.

⁴⁵АбрамовН. Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений. Москва: Русские словари, 1999 Онлайн словарь. <https://dict.t-mm.ru.abramov>.



В.Ф.Гостев ва Н.Н.Юскевичлар боғларни барпо этилиш мақсади, вазифаси, тузилиши ва хусусиятларига кўра қуйидагича таснифлайдилар: *парк культуры и отдыха, спортивный парк, парк развлечений, парк-выставка, зоологический парк, ландшафтный парк, лесопарк, парк-заповедник, национальный парк, исторический парк, этнографический парк, ботанический парк, мемориальный парк, городской сад, сквер, бульвар.*

Кейинги йилларда боғларнинг сити-парки, экопарк, дендропарк, экстрим-парк, интерактив парк, скейт-парк, арт-парк каби янги замонавий турлари ҳам пайдо бўлди.

Боғларнинг кўп турлари ўзбек тилига айнан таржима қилинган: истироҳат боғи, спорт боғи, кўнгилочар боғи, кўргазма боғи, зоологик боғ, ландшафт боғи, миллий боғ, тарихий боғ, этнографик боғ, ботаника боғи, ёдгорлик боғи, шаҳар боғи каби. Айримларининг таржимаси қийинчилик туғдиради. Масалан, лесопарк, парк-заповедник, сквер, бульвар. Боғларнинг янги турларини таржимасида парк ўрнида боғ сўзини қўллаш билан боғлиқ айрим ноқисликлар кузатилади: сити-боғ, экобоғ, дендробоғ, экстримбоғ, интеркатив боғ, скейт- боғи, арт-боғ каби.

Ўзбек ва рус тилларида юқоридаги индикаторларнинг қўлланиши ва семантик-функционал хусусиятлари қуйидаги топонимлар таркибида ёрқин кузатилади:

*Миллий табиат боғи – алоҳида қўриқланадиган, инсон фаолияти таъсирига учрамаган ва табиий манзаралари сақланган, ўсимликлар ва ҳайвонот олами ва уларнинг яшаш муҳити, илмий ва ўқув амалий аҳамиятига эга бўлган катта табиий ҳудуд ҳисобланади.*⁴⁶

Рус тилида боғларни бу тури “заповедник” индикатор билан ҳосил қилинади: *Зомин миллий табиат боғи (ўзб.)– Зааминский горно-арчевый заповедник (рус.), Зарафшон миллий табиат боғи (ўзб.)–Заравшанский далинно-тугайный заповедник (рус.)* каби. Боғларнинг бу турининг майдони катта ва функционал жиҳатдан табиат қўриқхонаси ҳисобланади.

Ботаника боғи– бу дунёнинг турли қисмлари ва турли хил иқлим зоналаридан тирик ўсимликларнинг коллекциялари етиштириладиган, ўрганиладиган ва илмий-тадқиқот, маърифий мақсадларда намойиш этиладиган майдон. ⁴⁷Шу билан бирга, у шаҳар аҳолиси учун дам олиш маскани бўлиб хизмат қилади. Бундай масканларнинг атоқли номлари шаҳар ва бошқа атоқли отларидан боғ индикатори воситасида ҳосил қилинади. Масалан, *Ўзбекистонда Тошкент ботаника боғи, Россияда Иркутск ботаника боғи (Иркутск ш.), Петразаводск давлат университети ботаника боғи (Петразаводск ш.), Твер давлат университети ботаника боғи (Твер ш.), Иванова давлат университетнинг ботаника боғи. (Иванова ш.).*

Япон боғи (Тошкент ш.), Японский сад “Шесть чувств” (Қрим) топонимлари мамлакат номи (хороним)дан боғ, сад индикаторлари воситасида ҳосил қилинган. Бу

⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси ўрмон хўжалиги давлат кўмитасининг расмий веб сайти. <https://urmon.uz/uz/10076/>

⁴⁷ Википедия. Оммавий кўп тили универсал интернет-энциклопедия. <https://ru.m.wikipedia.org>.



атама нафақат боғ номини, боғнинг янги турини ҳам ифода этади. Япон боғи– сўнги йилларда кўп мамлакатларда биноларнинг фасади ва ҳовлиларда микро боғларни яратишда ва бошқа мақсадларда бўш жойни ташкил қилишда кенг қўлланилмоқда. Япон боғининг асосий элементлари тошлар, моҳлар ва паст ўсимликлар. Бундай боғларда майсазор, шағал ёки қум майдонлари мавжуд, тошлар ҳам махсус диагонал жойлашган. Япон боғларнинг асосий вазифаси одамларда ҳар кунги оддий, кундалик ҳаётда гўзаллик туйғусини ҳис қилиш туйғусини уйғотишдан иборат.

Изоҳли лугатларда роцца индикаторига “кўпинча баргли дарахтлардан иборат кичкина дарахтзор” деб изоҳ берилади.⁴⁸ Дастлаб шаҳар шароитида дарахтзорлар сайр қилиш ва дам олиш учун мўлжалланмаган, ammo Россияда мамлакат бўйлаб сайр қилиш, пикниклар, очиқ ҳавода дам олишга қизиқиш ортиши билан, дарахтзорлар ҳам дам олиш ва сайр учун универсал жойлар мақомига айланди. Натижада роццалар номланди, бундай атамаларнинг ҳосил қилишда у индикатор сифатида қўлланди: Зеленая роцца (Екатеринбург ш.), Роцца «Звездочка» (Иркутск ш.), Кайская роцца (Иркутск ш.), Гилевская роцца (Тюмень ш.), Роцца Журавского (Тобольск ш.) ва бошқалар.

Ҳозирга келиб кўнгилочар боғларни тури кўпайди ва уларни ифодаловчи интерактив боғ, экобоғ, дендробоғ, арқон боғи, скейт -боғ, экстрим-боғ, гайд-боғкаби луғавий бирликлар ҳам индикатор сифатида қўлланмоқда. Масалан, *Интерактивный парк профессий “Кидстан” (Вологда ш. Россия), Экопарк “Гремучая грива” (Красноярск ш.) каби.*

Интерактив боғ –кенгайтирилган проекцион технологияларига асосланган кўнгилочар марказларнинг янги тури. Унда компьютер тизимлар, проектор ва камералар хонада ҳаёлий, фантазия дунёсини яратишга имкон беради, одамлар виртуал ўйин иштирокчисига айланади, уларнинг ҳаракатларига қараб сюжет ўзгаради.

Экопарк–экологик уйларда яшаш, энг тоза ўрмон ҳавосидан баҳраманд бўлиш ва ҳайвонлар билан алоқа қилишни бирлаштирган бутун экологик тизимдир.

Дендропарк ёки “дендрарий” (юнонча δένδρο – дарахт)–тизимли, географик, экологик, декоратив ва бошқа хусусиятларга кўра жойлаштирилган, ёғочли ўсимликлар (дарахтлар, буталар, лианалар)ни етиштириш учун ажратилган очиқ ер, ҳудуд. Дендрариумлар илмий, маърифий, маданий-маърифий ёки тажрибавий ва ишлаб чиқариш мақсадларида бунёд этилади. Масалан, Непейцевский дендропарк (Уфа ш.), Дендрологический парк (Новосибирск ш.) ва бошқалар.

Арқон боғи кўнгилочар муассасаларнинг энг янги турларидан биридир. «Арқон боғи» ёки тайпарк (ингл.тие –тугун, уланиш, арқон), арқон парки деб ҳам аташи мумкин –бу ердан икки ёки уч метрли баландликда жойлашган, арқондан ясалган, умумий ўтиш қоидаларига асосланган ва мантиқий занжирга боғланган ўтиш йўлиаттракционмажмуадир. Википедияда ёзилишича, тайпаркига кирган ҳар бир киши ўзини альпинист, ёки ўзини эпчил одам каби ҳис қилиш имкониятига эга. Аттракционлар кўтарилиш, баландликда ҳаракат қилиш, тушиш

⁴⁸ Ожегов С.И. ва Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 4-ое издание. М.: 2017 .655-б.



усуллари бўйича умумий битта мантқиқий занжирга боғланган бўлади.⁴⁹ Масалан, *Верёвочный парк "Паутина" (Казань ш.), Веревоочный парк "Parkwood's" (Сергеев Посад ш.), Веревоочный парк (Иваново ш.), Веревоочный парк "Мир Приключений" (Тамбов ш.), Веревоочный парк (Архангельск ш.)* каби.

Сиги-парк – катта шаҳарларда замонавий тураржой мажмуаси. Яқинда Ўзбекистонда “Тошкент сиги-парк” энг катта истироҳат боғ зонаси яратилган. Бундай сиги-паркларни қурилиши Ўзбекистоннинг бошқа катта шаҳарларида ҳам режалаштирилган.

Таҳлиллардан кўринадики, ҳар икки тил маданий-истироҳат масканларини ҳосил қилувчи индикаторларга бой, индикаторларнинг бу мавзуй гуруҳи ички ва ташқи манбалари асосида юзага келган, ижтимоий омилар асосида бойиб бормоқда. Мазкур индикаторлар мавзуй гуруҳининг асосини ташкил этувчи ўзбек тилидаги боғ ва рус тилидаги парк сўзларининг маъно-мундарижаси кенгайган, бу уларнинг индикатор сифатидаги семантик-функционал хусусиятига ҳам таъсир этган.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Абрамов Н. Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений. – М.: Русские словари, 1999. Онлайн словарь // <https://dict.t-mm.ru.abramov>.
2. Большой энциклопедический словарь. Словари и энциклопедии.–М.: Академик, 2012. official.academic.ru.
3. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. – М.: Онлайн-словарь, 1991. <https://leksicography.onlaine>.
4. Википедия. Оммавий куп тили универсал интернет-энциклопедия. <https://ru.m.wikipedia.org>.
5. Гостев В.Ф., Юскевич Н.Н. Проектирование садов и парков. – М.: Стройиздат, 1991. www.bibliotekar.ru
6. Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. – М., 2012. Онлайн словарь . leksicography.onlaine
7. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 4-ое издание. – М.: А ТЕМП, 2017.
8. Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т.: 2009.
9. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. док. дис. – Т.: 2010.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
11. Ўзбекистон Республикаси ўрмон хўжалиги давлат кўмитасининг расмий веб сайти. urmon.uz/uz/10076/

⁴⁹ Википедия. Оммавий куп тили универсал интернет-энциклопедия. <https://ru.m.wikipedia.org>.



12. Усмонов О., Данияров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Т.: Фаъ, 1965.
13. Шанский Н.М., Боброва Т.А. Школьный этимологический словарь русского языка. Происхождение слова. – М.: Дрофа, 2004. lexicography.onlaine

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИКДА ИҚТИСОДИЙ ДИСКУРСНИНГ ТАДҚИҚИ

Тошкент молия институти

катта ўқитувчиси

Ш.Мамадаюпова

Аннотация: Ҳозирги кунга келиб, замонавий тилшунослар иқтисодий дискурсга алоҳида эътибор қаратмоқдалар. Шунинг учун ҳум иқтисодий дискурс нафақат мазкур соҳа вакилларига балки оммага ҳам тушунарли бўлиши керак деган фикр-мулоҳазаларни юритмоқдалар. Мазкур мақоламизда айнан иқтисодий матнларда иқтисодий дискурслар деярли метафоралар билан ишлатилиши ҳамда таржима жараёнида турли қийинчиликлар туғдириши мумкинлигини ва замонавий тилшуносликда иқтисодий дискурс метафора тушунчалари ҳақидаги таърифлари аниқланган.

Калит сўзлар: метафора, иқтисодий, тилшунослик, дискурс, иқтисодий матн, термин, тушунча

RESEARCH OF ECONOMIC DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS

Tashkent Finance Institute

senior teacher

Sh.Mamadayupova

Annotation: This article describes economic discourse which is important and attracts modern linguists' attention all over the world. Therefore, they argue that the economic discourse should be understandable not only to the representatives of this field but also to the public. Also it identifies the use of economic discourses in economic texts with almost metaphors and their definition of the concept of economic discourse metaphor in modern linguistics, which can cause various difficulties in the translation process.

Key words: metaphor, economy, linguistics, discourse, economic text, terminology, concept.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ДИСКУРС В СОВРЕМЕННЫХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИИХ.

Ташкентский Финансовый Институт

старший преподаватель

Ш.Мамадаюпова

Аннотация: На сегодняшний день современные лингвисты уделяют особое внимание экономическим дискурсам. Поэтому считают, что экономический дискурс должен быть понятным не только представителям этой сферы, но и общественности. В данной статье именно в экономических текстах экономические дискурсы могут



использоваться практически с метафорами, а в процессе перевода могут вызывать различные трудности, и в современной лингвистике определяются определения экономических дискурсивных метафор о понятиях.

Ключевые слова: *метафора, экономика, лингвистика, дискурс, экономический текст, терминология, концепция.*

Замонавий тилшуносликда дискурс атамасига алоқадор дастлабки эътирофлар XX асрнинг 50-йилларида шаклланди. Бу атама матн лингвистикаси билан бир қаторда адабиётшунослик, социология, сиёсатшунослик, фалсафа, мангик, психология каби фан соҳаларида кенг ишлатилиб келинаётган бўлса-да, матн лингвистикасининг ўзида ҳам ягона, кўпчилиқ томонидан эътироф этилган талқини, маъноси йўқ, хилма-хил фарқли тушунчалар ифодаси учун истифода қилинади. Дастлаб “дискурс” ва “матн” терминлари айна бир тушунча учун қўлланган бўлса, кейинроқ “матн” ёзма коммуникацияга нисбатан, “дискурс” эса оғзаки коммуникацияга нисбатан ишлатилган. Бу сўзнинг маъноси французча *discours* – “нутқ”, “сўзлаш” демакдир. [1]

Мавжуд манбаларда дастлаб муаммога бирдан ортиқ гаплардан ташкил топган ва “мураккаб синтактик моҳиятли бирлик” сифатида қарашган. Бу ҳодиса тилшуносликда мангикий грамматика ҳамда сўзлашув нутқи алоқадорлиги сифатида баҳоланган. Шунингдек, ўтган асрда тилшуносликда дискурс ҳодисаси оғзаки нутққа алоқадор эканлиги, уларнинг нутқ жараёнида ундалма, кириш сўзи, кириш бирикмалар билан ҳам ифодаланиш ҳолатларининг мавжуд эканлиги, бу эса уларнинг “мураккаб синтактик қурилма” сифатида баҳоланишига асос бўла олиши ҳақидаги фикрлар ҳам илгари сурилган.

Хорижий тилшуносликда дискурс муаммоси ўтган асрда З.Харрис томонидан кўтарилиди. Ўрганилган тадқиқотларда дискурс сўзлашув нутқининг монопредикатив бирлиги сифатида талқин этилди. Бу вақтга келиб, илмий манбаларда матн тилшунослиги, матн тадқиқининг нутқ назарияси билан алоқадорлиги, амалий стилистика, мулоқот назарияси, тил ўрганиш, автоматик таржима каби атамалар қўллана бошланди. Ўтган асрнинг 70-йилларидаги энг катта ютуқлардан бири дискурснинг сўзлашув нутқидаги мавқеи тилшуносликнинг алоҳида бўлими ҳамда муаммонинг алоҳида тадқиқот манбаи сифатида шаклланишидир. Баъзи манбаларда эса, дискурс атамасининг тилшуносликдаги мавқеи ва унинг қўлланилишига эътирозлар ҳам билдирилган. Хатто, 1966 йилда тилшунос Р.Годельнинг дискурс атамасининг тилшуносликка оид тадқиқотларда қўлланилиши “тил ва нутқ ҳодисалари ҳақида аниқ хулоса чиқаришга шубҳа туғдириши мумкинлиги” ҳақидаги эътирофини Н.А.Слюсарев ўз изланишларида қайд этди [2] ва Р.Годель эътирозига қарши асосли, илмий жавоб берди.[3]

Дискурс тушунчаси асосан бадиий ва матн ўргасидаги алоқани ўрганишга қаратилган соҳа бўлиб, асосан 20 асрнинг 60-70-йилларида лингвистика, семиотика, психология, антропология ва социология каби соҳалардаги изланишлар натижасида юзага келди. Дискурс бадиий имкониятларнинг воқеланган ҳолатини ҳамда хар хил



матн ва оғзаки нутқ, яъни мулоқотдан тортиб, суҳбатларгача бўлган ҳолатларни тадқиқ қилади.

Дискурс - бу тилнинг воқеланиши фаолият жараёни эканлиги тилшунослик фанида Арасту давридан бошлаб ҳозирги кунгача ҳеч бир тилшунос томонидан инкор этилмади, лекин яқин давргача, юқорида айтиб ўтганимиздек, тилшуносликнинг барча оқим ва йўналишлари фаолият маҳсулини, ҳатто, диалектологик тавсифларда ҳам тавсифи таҳлил этиш билан банд эдилар. Тўғри, психологлар, психоллингвистлар нутқнинг пайдо бўлиши, унинг юзага чиқиш жараёнида психик хусусиятларга кўп эътибор қаратган бўлсалар-да, улар нутқ жараёнининг ўзини эмас, нутқнинг пайдо бўлиши, бадиий имкониятнинг нутқ шаклида воқеланиши психофизиологик жиҳатдан тадқиқ этиш билан чекландилар. Шундай қилиб, тилшунослар нутқи инсон онгининг маҳсули сифатида, психологлар бу маҳсулнинг руҳий физиологик томонлари билан шуғулланиб келганлар, барча тилшунослар яқдиллик билан тан олган нутқий фаолиятнинг ўзи четда қолиб келаверди.

Голланд тилшуноси Т. А. ван Дейк кенг маънода дискурсга комплексли коммуникатив воқеа, тор маънода эса коммуникатив ҳаракатнинг ёзма ёки нутқий вербал маҳсулоти сифатида қараш лозимлиги ҳақида фикр билдиради. Таъкидлаш керакки, Т.А. ван Дейк дискурс ва матн ўртасидаги фарқни шундай белгилайди: дискурс - актуал айтилган матн, яъни фаол нутқий ҳаракат, матн эса тил тизимига ёки шаклий лисоний билимларга тегишли фикрларнинг мавҳум грамматик тузилишидир.[4] Дискурс - аниқ суҳбат, аниқлик эса дискурс тушунчаси қўлланадиган вазиятга, матнга ва объектга ҳам бирдай тааллуқлидир. Дискурс - суҳбат тури. Дискурс жанр кабилдир. Нутқий жанр-бадиий воситалардан фойдаланишнинг ўзига хослиги, маълум коммуникатив мақсад ва информативлик, императивлик, этикетлик каби жиҳатлари билан ажралиб турувчи нутқ тури ҳисобланади. Дискурснинг ижтимоий табиати янгиликли дискурс, публицистик дискурс, сиёсий дискурс, илмий дискурс, бадиий дискурс, баҳоловчи дискурс каби янги тушунчаларнинг юзага келишига имкон беради. Талқин ва изоҳларнинг хилма- хиллиги дискурс тушунчасининг кўп қиррали ва кенг қамровли эканлигини кўрсатади. Маълум бир индивидуал дискурснинг алоҳида тадқиқот объекти сифатида ўрганилиши нутқнинг лингвопрагматик табиати тўғрисида мулоҳаза юригишга имкон беради.

Юқоридаги тилшунос олимларнинг фикр мулоҳазаларидан келиб, мазкур тадқиқот ишмизда “дискурс” ва “матн” тушунчалари, ҳамда уларнинг бир-бири билан ўзаро муносабатлари ҳақида ҳам ўз тушунчамизни беришга қарор қилдик.

“Дискурс” тушунчаси бадиий мулоқот таҳлилига ўз шахсий нуқтаиназари билан хар хил таърифларни пайдо бўлишига тақозо қилади. Масалан, Мишель Фуко бу сўзни кенг қамровли маънода кўриб чиқиб, дискурсни бадиий эмас, балки умуммаданий тушунча деб ҳисоблайди. У ёзади: “ ... Дискурс, шубҳасиз – белги ҳодисаси, лекин бу - нарсаларни ифодалаш учун белгиларнинг шунчаки ишлатилишидан кўра кўпроқ иш бажарадиган ҳодиса. Айнан унинг ана шу кўпроқ иш бажариши уни тил ва нутққа қиёслаб бўлмаслигини таъминлайди” [5]. Фуконинг фикрича,



“дискурс” тушунчасининг бундай ишлатилиши ҳамма томонидан қабул этилмаган, бироқ тилшунослар унга бутунлай бошқача маъно берадилар. Тилшунослик бўйича тадқиқотларда “дискурс” экстралингвистик, прагматик, ижтимоий маданий, психологик ва бошқа факторлар билан биргаликдаги боғланган матн деб талқин қилинади.

Ю.С. Степановнинг фикрича, В.З.Демяньковнинг дискурсга берган таърифини энг яхши таъриф деб ҳисоблайди. “Дискурс – битта гапдан ёки мустақил гап қисмидан кўпроқ матннинг ихтиёрий фрагменти бўлиб, концепт атрофида жамланади. Дискурс гапларнинг кетма-кетлигидан эмас, уни ҳосил қиладиган ва талқин қиладиган, дискурс билан “яратилдиган” олам томонидан аниқланади”. Таърифнинг бу қисмида В.З.Демяньков дискурснинг интенционал тузилишини ифодалаб, яъни интерпретация дискурс мантиқий тузилишига эга. Дискурс элементлари: баён этилган воқеаҳодисалар, уларнинг қатнашчилари, перформатив ахборотлар ва ҳодисалар эмас, яъни, а) ҳодисалардан кейинги ҳолатлар; б) ҳодисаларни аниқлаштирадиган фон; в) воқеа-ҳодиса қатнашчилари баҳоси; г) дискурсни воқеалар билан солиштирадиган ахборот [6:37-38]

В.Г.Борьботконинг таъкидлашича, дискурс фақат коммуникатив бирликлардан ташкил топган матн бўлиб, гапларнинг бирликларга бириктириши ва уларнинг ички лексик маъновий боғланишларга эга бўлиши уларни бир бутун тузилма деб ҳисоблашга имкон беради. [7].

Ўзбек тилшунослигида дискурснинг ўзига хос хусусиятлари ва турлари, унинг структурал қурилиши ҳамда вазифаларини аниқлашга оид тадқиқотлар санокли. Масалан, матн ҳамда унинг бадиий асардаги ўрни тўғрисида академик М.Кўшжонов ўзининг “Ижод сабоқлари” китобида [8] қисқа ва умумий маълумот берган. Н.Ҳотамов ва Б.Саримсоқовларнинг “Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати” да [9] ҳам дискурсга алоҳида тўхтаб ўтилган. Тадқиқотчи Г.Имомова “Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли” мавзусидаги номзодлик диссертациясида, дискурс нутқда миллий характернинг ифодаланиши” деб номланган бўлса-да, матн дискурсига таъриф беришни ортқича ҳисоблаб, “матн дискурс мулоқатининг ўзаро тортишуви бир-бирини инкор этувчи турли хил эътиқоди ва характерини тасвирлаш воситаси” [10] эканлигини қайд этиш билан чекланади. Профессор А.Ғуломов ва М.Асқаровалар “Ҳозирги ўзбек адабий тили” (Синтаксис) дарслигида матн дискурси тўлиқсиз гапнинг бир тури сифатида кўрсатилади ва дискурс таркибида келувчи тўлиқсиз гапларнинг тузилиши устида фикр юритилади. Умуман олганда, ўзбек тилшунослигида дискурс масалаларини илмий асосда ўрганиш ўтган асрнинг 60-70-йилларига тўғри келади. Бу даврда яратилган тадқиқотлар сирасига А.Ҳазратқулов [11], А.Бобоева [12], Э. Шодмонов [13], С.Холдорова [14], А.Шомақсудов [15] илмий изланишларини алоҳида эътироф этиш мумкин. Мазкур манбаларда дискурснинг хусусияти масалалар хусусида сўз юритилади. Чунончи, А.Бобоева тўлиқсиз гапларнинг юзага келиши ўз табиатига кўра диалогик нутқ билан, айниқса, сўзлашув нутқи билан боғлиқ ҳодиса эканлигини таъкидлайди. [16] Сўзлашув нутқида учрайдиган савол-жавоб шаклидаги диалог ва унинг тўлиқсиз гаплардан фарқи, диалог ва монолог ўртасидаги тафовут каби масалалар А.Ҳазратқуловнинг ишида қайд этилган. [17] Шунингдек, айрим



ишларда диалогдаги, диалогик структурадаги ҳамма ҳодисалар адабий норматив ҳодиса эмаслиги, шу боис бу муаммони манбаларда адабий тил асосида ўрганиш, яъни тадқиқот объекти бўлган диалогик нутқни адабий тил тушунчалари билан биргаликда қўллаш мунозарали эканлиги таъкидланади.[18] Кўринадикки, диалогнинг анъанавий талқинларида у ё бадиий, ё соф лингвистик нуқтаи назардан текширилиб, унинг дискурсив моҳияти, ҳали ижтимоий зарурат етилмаганлиги боис, тадқиқ эътиборидан четда қолган.

Дискурсни ўрганишда унинг классификацияси масаласи юзага келади. Энг аввало, дискурс ифодаланиш воситасига кўра икки, оғзаки ва ёзма каби бошланғич гуруҳларга бўлинади. Шу ўринда дискурснинг учинчи гуруҳини ҳам келтириш лозим: фикрий дискурс, бунда акустика ҳам, график белгилар ҳам қўлланилмайди. Фикрий дискурс ҳам коммуникатив қўлланилади, лекин уни кузатиш мураккаб бўлганлиги туфайли кам тадқиқ этилган. Л.С.Висотский ички нутқни тадқиқ этган ва фикрий дискурс масаласига тўхталиб ўтган.[19]

Кўп ҳолларда дискурс турлари жанр тушунчаси ёрдамида тушунтирилади. М.Халлидей дискурсни унинг параметрлари орқали, элементлари, мавзуси, услублари орқали характерлайди.[20] Дискурс тушунчаси остида одамларнинг ижтимоий мулоқотга киришиши учун асосий қурол тушунилади.

Юқоридаги таърифлардан келиб чиқиб, дискурсга ўзимизни қуйидаги таърифимизни яратдик: дискурс – бу барча экстралингвистик факторлар билан биргаликда, фикрлар, қарашларни ўз ичига қамраб олган матн ва мулоқат бўлиб, дискурс кенгрок ва очиқрок тушунча демакдир.

Нутқни – бу мулоқат жараёнида сўзловчи ва тингловчи орасида ўзаро дискурс (фикр алмашиш), саволга яраша жавоб бериш – ҳолатидагина тадқиқ этилиши мумкин. Шу боис XX асрнинг охирида замонавий тилшуносликнинг янги бир тармоғи – дискурсология нутқий мулоқотни тадқиқ этувчи фан сифатида шаклланди. Тадқиқотчилар матн дискурсининг максимал бирлиги масаласида абзаци алоҳида бирлик сифатида ажратишга шубҳа билдиришди. Чунки абзацининг шаклланиши, кўпинча, субъективдир, муаллифнинг услуби, график қоидалар билан боғлиқ. Бизнингча, бундай бирлик даражасига фақатгина дискурс кўтарилиши мумкин. Дискурс

бажараётган коммуникатив вазифаси жиҳатдан тизимлашган ва мулоқот вазиятига мослашган нутқий қурилмадир. Шакл ва вазифа жиҳатидан мувофиқлашув айнан дискурсни бошқа бирликлардан фарқлаш имконини беради. Бироқ дискурс назарияси эндигина шаклланиб бормоқда, шу сабабли ушбу таҳлил йўналишида умумлингвистик методларни қўллаш имкониятларини излаб топиш эҳтиёжи мавжуд.

Сўнги пайтларда замонавий лингвистик тадқиқот материалларида дискурснинг қуйидаги типлари ажратилади: педагогик, сиёсий, танқидий, ҳарбий, диний, иқтисодий, илмий, ўқув, публицистик, реклама ва ҳ.к. Яъни инсон фаолиятининг ҳар қандай жабҳасига тааллуқли дискурслар мавжуд.

Тилшунос олимлар дискурснинг бадиий унсурлари ҳамда нутқ билан боғлиқ алоқаларини ўрганиш натижасида олимларнинг айнан француз структуралистларнинг нутқни ўрганишга киришганлиги ҳам иқтисод соҳасидаги



дискурсни ривожланишига катта туртки бўлди. З.Харрис ва Делл Хеймас иқтисодий дискурсни нутқнинг социумдаги ҳолатини таҳлил қилди.[21] Дж. Остин[22], Дж. Сёрл[23], М.Грайс[24] каби тилшунос файласуфлар ҳам иқтисодий дискурсни ижтимоий воқелик сифатида тадқиқ қилишга, мулоқотнинг шаклланишини ва нутқ назариясини ўрганиш натижасида прагматик йўналишини танлаб, матндан англашилган маънони таҳлил қила бошлашди.

Британиялик олимлар томонидан айнан соҳага оид, яъни иқтисодий дискурс ҳақида М.Холлидейнинг[25] мазкур матн юзасидан олиб боришган дискурста функционал ёндашувларига катта таъсир ўтказган. М.Холлидейнинг илмий ишлари иқтисодий дискурсни ижтимоий вазифаларини, мундарижасини, расмий ёзма ва оғзаки нутқ таҳлилинини ўз ичига олади. Бундан ташқари, тилшуносликлар Синклер ва Каулфард[26] иқтисодиёт соҳасидаги мулоқотнинг дискурс бирликларга асосланган таҳлилинини ривожлантирдилар, улар ишларида банк ходими-мижоз, хизмат кўрсатиш, мулоқат, суҳбат, бизнес мулоқоти ва монологларнинг иқтисод соҳасига оид дискурс берилган. Британия илмий назариялари тилшунос олимлар томонидан иқтисодий дискурслар, яъни иқтисодий матнда бирликларни ажратиш, иқтисодий дискурсни мукамал шакланган бирликларини таърифловчи қоидалари мажмуаси асосига қурилган.

Америка тилшунос олимлар томонидан иқтисодий дискурс этнометодологик анъаналарга, иқтисодий соҳа мутахассислари мулоқотини кузатиш жараёнидаги илмий изланишга асосланган. Бунда мазкур соҳага оид матнларда лексик бирликларни, терминларни, метафора ва жаргонларни мулоқот ва суҳбат давомида ўрганилади. Мулоқотда бадиий структурага аҳамият берилмайди, балки жаргон ва сленг ҳамда метафора омилларига асосий урғу берилади.

Тилшунослар Гоффман, Х.Сакс, Э.А.Счеглофф ва Г.Жефферсоннинг[27] тадқиқот ишларида иқтисодий дискурс мулоқот меъёрлари, ва бошқа нутқ шакллари ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.

Прага тилшунослари иқтисодий дискурсни ривожига ҳам катта ҳисса қўшган, хусусан, бу мактаб грамматика ва дискурсни ўзаро алоқасини кўрсатиб бергани алоҳида эътирофга лойиқдир.

Ўзбек субстанциал тилшунослиги бутунги кунда иқтисодий дискурсни “нутқ-бадиий” тамойили асосидаги тадқиқотлар даврини босиб ўтди. У янги поғонага – “бадиий-нутқ” тамойили асосида иш кўриш эҳтиёжини бошидан кечираётганлигини эътироф этмоқ лозим.

Структур, қиёсий-тарихий тилшунослик ва ёш грамматикачилар иқтисод матндаги дискурста система сифатида ёндашдилар, бу йўналишларнинг барчаси учун назарий, методологик асос бўлган В.Гумбольдт таълимотида дискурс – бу “эргон” эмас, “энергия” (жараён, ҳаракат, фаолият) [28] деб баҳоланган бўлса-да, улар нутқий бирликларни инсоний фаолиятнинг яратиш бунёдкорлигидан ажратган, узган ҳолатда, уларнинг таркибий қисмларини тавсифий, тарихий, қиёсий, структур, типологик томонлама таҳлил ва тадқиқ этиш билан шуғулланган. Ваҳоланки, дискурсни воқеланиши - “Воситгаи робитаи оламиён” (А.Ўтар) вазифасини бажариши – инсондаги нутқий фаолиятни ўзида акс эттириши керак.



Замонавий тилшунос олимларининг нуқтаи назаридан келиб чиқиб, иқтисодий дискурснинг 4 хил маънода қўлланиши мумкинлигини аниқладик: 1)сўз муқобили; 2)фразалардан иборат бирлик; 3)Лисоний бирликлардан фойдаланиш; 4) матн ҳосил бўлишга қаратилаган назарий қуризмалар.

Бир қанча илмий изланишлар ва муаммога нисбатан биддирилган турлича қарашлар оқибатида тилшуносликнинг иқтисодий дискурсни икки – оғзаки ва ёзма жиҳати ҳар доим бир-бири билан муносабатда ва алоқадор. Иқтисодий дискурс диалогик дискурс шаклида намоён бўлади. Л.В.Щербанинг фикрича, “иқтисодий дискурс диалогик дискурс шаклида юз беради. Бу эса, диалогнинг табиийлигини таъминлайди. Тил диалогдагина ўзининг ҳақиқий борлигини намоён қилади. Унинг оғзаки ва ёзма шакллари таққослаб кўрилса, иқтисодиёт соҳасида монологик матн дискурси ҳам борлигини ва унинг синтактик хусусиятлари билан боғлиқ” деб ҳисоблайди.[29]

Иқтисодий дискурс—маълум бир иқтисодий фикрлар жараёнида юзага келадиган дискурс типидир.[30] Иқтисодий дискурснинг аспектилари товар, пул, фойда, бозор, инвестиция, иқтисодиёт, иқтисодий фаолият каби базавий тушунчалардан иборат.[31]

Иқтисодий дискурсни қуйидаги белгиларига кўра турларга ажратиш мумкин:

- 1) Суғурга қатламидаги дискурс, банк дискурси (институтционаллик белгисига кўра);
- 2) Корхона раҳбарининг оғзаки нутқида ҳосил бўлувчи дискурс (шахсий ва институтционал дискурснинг таққосланиш белгисига кўра);
- 3) Иқтисодий мавзудаги газета ва журнал дискурси, иқтисодиётга оид диссертациялар, илмий мақолалар (жанрий белгисига кўра)[32]

Иқтисодий дискурснинг мавжудлиги асосида иқтисодий матнларни таржима қилишнинг махсус назарияси ҳам мавжудлигини тушунтириш мумкин. Таъкидлаш мумкинки, бу каби матнларнинг таржимаси ўзига хос хусусиятларга эгадир.

Замонавий иқтисодий дискурс тушунчаси қуйидаги хусусиятларга эгадир:

- 1) Структурасининг мураккаблиги ва бир жинсли эмаслиги;
- 2) Мулоқот қатнашчиларининг турличалиги (олимлар, мутахассислар ва номутахассислар);
- 3) Турли мулоқот вазиятлари.[33]

Илмий иқтисодий фаолият ва профессионал иқтисодий фаолият ўзаро мақсади, предмети ва шарт- шароитларига кўра фарқланади ҳамда бу матнда ўз аксини топади. Иқтисодий дискурс қарашлар умумийлиги ва вербаллашган терминологияси билан ажралиб туради.[34]

Тадқиқотимиз давомида иқтисодий дискурси диалогик дискурс диалогик бирликларни ташкил этувчи ва уни мулоқот бирлиги сифатида кўрсатувчи воситалар: ифодалилик, экспрессивлик, эллиптиклик шаклларида иборат бўлиб, уни асосан 2 хил матн дискурси борлиги тавсифланди:

1. *Содда бирликлари*
2. *Полипредикатив бирликлар*



Содда бирликлар- бир тартибли сўзлар, гаплар, тўлиқсиз гаплардан иборат бўлган бирликлар йиғиндиси. Содда гап ҳам синтактик сатҳ бирлиги ҳисобланса-да, у полипредикатив бирликка қараганда анча ихчам. Зеро, ҳар икки нутқий бирлик коммуникатив вазифа ифодалаши жиҳатидан умумийлик белгисига эга бўлса-да, тилда алоҳида қурилиши қолипига эгаллиги, семантик-синтактик таркиби жиҳатидан ўзаро фарқланади.

Полипредикатив бирлик тил синтактик сатҳининг юқори бирлигидир. Демак, анъанавий синтактик назарияларда полипредикатив бирликлар мазмуни, грамматик тузилиши ҳамда оҳангига кўра бир бутунликни ташкил этган, икки ёки ундан ортиқ содда гапларнинг боғловчи ёки боғловчи вазифадаги воситалар ёрдамида бирикувидан тузилган синтактик қурилмалар тарзида талқин этилади ҳамда лексик-семантик тадқиқ усулида полипредикатив бирликлар икки ва ундан ортиқ шакланган кесимли гаплар сифатида талқин этилади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, тилшуносликда матн дискурси гап ёки нутқда боғланган ва келишилган оқибат сифатида тушунилган бўлса, замонавий лингвистикада мураккаб коммуникатив ҳодиса сифатида изоҳланмоқда. Иқтисодий дискурсни тилни прагматик нуқтаи назардан иқтисодиёт соҳасига оид суҳбат ва мулоқат қилишга ҳамда тадқиқ этишга мўлжалланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кибрик А., Паршин П.О. Понятия дискурса.- М.,2003.
2. Слюсарев Н.А. Проблема функционального синтаксиса современного английского языка.--- М.: Наука, 1981.—206 с.
3. Benveniste E. Problemes de linguistique general.—Paris: Gallimard, 1966.—356 p.
4. Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. М.: Прогресс, 1989. - 312 с.
5. Фуко М. Археология знания / М.Фуко. – Киев: Ника – центр, 1996. – С. 207.
6. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности / Ю.С.Степанов // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский Государственный гуманитарный институт, 1995. – С. 35 – 73.
7. Борботько В.Г. Элементы теории дискурса / В.Г.Борботько. – Киев: Вища школа, 1981. – 144 с.
8. Қўшжонов М. Ижод сабоқлари.—Т.: Ёш гвардия, 1973. -191 б.
9. Ҳогамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати.—Т., 1981.
10. Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли: Филол.фанлари номзоди ... дисс.—Тошкент, 1993.-Б.13.
11. Ҳазратқулов А. Диалогическая речь в современном узбекском литературном языке: Автореф.дисс... канд. филол. наук. – Самарканд, 1966.
12. Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар: Филология фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 1968.- 158 б.
Тақдири – ноёб умр йўли ва ғаройиб интиҳо, уни ўрганиш учун Хитой, Ўзбекистон, Афғон заминларини кезиб чиқиш керак. У маза олган зиёларни, булоқларни қайта кашф этиш лозим. Сўзи – қиличдай кескир, тоғ асалидек қалб қозонини-да қайнатиб куйдирувчи, куйга солинганда эса тош қалбларни мумдай эритилади. Такаллуми – халқонаю, хосларга хос: ёшу катта, оқилу оми бирдек титрайди.

Номи – латифаю талмеҳлар, ташбеҳлар мояси. XIX асрга қадар Насриддин Афанди образини ўрнида латифаларда Машраб исми кўп ишлатилган. Унинг кескир сўзли эканлиги, ҳақ сўзни айтишдан тоймаслиги мазкур образнинг асосий белгиларидир. Шоирлар ҳалигача илоҳий ишқ, ҳижрон каби мавзуларда Машраб номини Мажнун, Вомиқ, Тоҳир билан ёнма-ён ишлатадилар. Рауф Парфи, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Муҳаммад Юсуф ижодининг айрим қирраларида Машрабга эргашиш, унга ҳавас кузатилади.

Раҳимбобо Машраб шухрати Хитой [1][2], Венгрия [3][4], Туркия [5] [6][7][8][9][10], Олмон [11] Афғон [12]га қадар етган. Ҳерман Вамбери ўз хотираларида Мовароуннаҳр одамлари босиқлик, совуққонлик, камгаплик каби феъл-атворни қадрлашларини, ўз ҳиссиётларини юзага чиқаришни ёқтирмаслигини, бироқ Лutfий ёки Машраб байтларидан ўқилганида, кўзларидан ёш оқиб соқолларини ҳўллашини ёзади. Олмон олими Мартин Ҳартманн бу ҳудудлардан ўтар экан, халқ ўртасида Машраб ғазаллари кенг тарқалганини кўриб, уларни тўплашга ҳаракат қилади. Рус олими Н. С. Ликошинда ҳам шу ҳолат кузатилади.



Шўро даврида Раҳим бобо Машрабга илмий жиҳатдан илк диққат қаратган мутахассис Абдурауф Фитрат бўлиб, у Н.С.Ликошин, Вяткин каби рус олимлари асарларидан, шунингдек, ўша вақтдаги қўлёзма манбалар, маноқиблар: Малехо Самарқандийнинг “Музокир ул-асҳоб”, Хўжа Фаҳмийнинг “Мажмуаи Фаҳмий”, Саид Ҳакимхон Тўранинг “Мунтахаб ут-тавориҳ”, Мирзо Олим “Ансоб ус-салотин”, Мажзуб Намангонийнинг “Тазкират ул-авлиё” асарларидан шоир ҳақидаги илмий фикрларни ўрганиб чиқади. Фитрат Машраб шахси билан боғлиқ маълумотлар кўп ва чалкаш эканлиги, унинг ҳаёт йўлини ёритувчи кўплаб халқ ривоятлари мавжудлигини қайд этади. Машрабнинг туғилган жойи, сафар йўналишлари, маънавий қиёфаси, тасаввуфий қарашлари, қаландарлик мақоми кабилар “синфий” нуқтаи назардан очиқ берилди [13].

Фитратдан бошланган адабий меросни ўрганиш борасидаги илмий тадқиқотлар, сиёсий тузум қандай бўлмасин, Машраб дунёқарашига қандай баҳо берилмасин, ҳаргиз тўхтамаган. Айниқса, мустақилликнинг дастлабки йилларида Раҳимбобо Машраб ижодини ўрганиш алоҳида паллага кирди. Жумладан, Исматуллоҳ Абдуллоҳ (Исматулла Абдуллаев)нинг бу борадаги изланишлари диққатга сазовор [14]. Исматулло Абдуллоҳнинг илмий ва публицистик мақолаларида Машраб ижодининг ғоявий, тасаввуфий жиҳатлари, шоир автобиографиясига оид муҳим илмий манбалар, фактларни йиғиш, эълон қилиш, илмий исботлаш каби жиҳатларига эътибор қаратди. Шунингдек, Машраб қаламига мансуб деб баҳоланаётган “Мабдаи нур”, “Кимё” асарларининг табдили ва чоп этилиши айнан Исматуллоҳ Абдуллоҳ билан боғлиқ.

Адабиётшунос олим ва ёзувчилардан Абдурашид Абдуғафуров, Раҳим Воҳидов, Абдулла Жаббор, Эркин Мусурманов, Жалолиддин Юсупов, Дилором Ҳамроева, Хошимхон Мўъминов, Муҳсин Зокирий, Жуманазар Абдусаттор, Иброҳим Ҳаққул, Мусохон Тожихўжаевларнинг Раҳимбобо Машраб шахси ва тафаккур тарзини, бадиий ва тасаввуфий қиймати борасида турли жабҳалардан олиб борган илмий изланишлари таҳсинга лойиқ. Наманган, Андижон, Самарқандда бу хазинани ўрганиш бўйича жиддий ишлар амалга оширилмоқда.

Тадқиқот мавзуси сифатида Раҳимбобо Машрабнинг дунёқарashi, ҳаёт ва ижод йўли, бадиий тасвир маҳорати, шоир шахси ва ижодининг хорижда ўрганилиши каби жабҳалар олинган. Демак, мавзу ҳали ҳам долзарб, ҳали ҳам қизиқ. Айтиш мумкинки, Раҳимбобо Машраб ижодининг тил хусусиятлари тадқиқи қониқарли даражада деб бўлмайди. Ҳазрат Бобурдан кейин ўзбек тилини ривожига қўшган ҳиссаси ҳурмати юзасидан шоир асарлари тилининг лексик-семантик, услубий, грамматик, шунингдек, лингвокультурологик, лингвостатистик таҳлилини амалга ошириш ҳозирда кўплаб тадқиқотчиларнинг саволларига жавоб топиб беради, деб ўйлаймиз.

Кейинги 30 йилда Раҳимбобо Машраб ғазаллари турли ҳолларда бир неча ўн маргалаб нашр этилгани ҳам шоирнинг “Уни халқу замон йўқлар” кароматига мос келади. Самарқандда “Машраб”, Сурхондарёда “Шоҳ Машраб” жомеъ масжидларининг фаолият юритаётгани эса Ҳазратнинг ўзбек маънавиятида нақадар юксак ўрин тутишини кўрсатиб турибди. Айниқса, бу мавзуда Туркияда бир қанча мутахассислар ўз изланишларини эълон қилиб бораётганлиги, Афғонистонда эса



Машраб асарлари ҳануз чоп этилаётгани мавзунинг истиқбол порлоқ эканлигини яққол кўрсатиб турибди.

Бироқ шу билан бирга шоир ижоди тўлиқ ўрганилмаганлиги кундек равшан бўлиб қолмоқда. Мавзу доирасидаги адабиётларни бир хонтахта устига қўйиб таснифлаш, тавсифлаш эҳтиёжи юзага келди. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси томонидан “Эзгуликни куйлаган шоир” методик-библиографик қўлланмаси (Тузувчи: М. Матмуродова, 2007), машрабшунос олимлар Эркин Мусурмон, Мўмин Ҳошимхоновларнинг бир қанча фойдали илмий монографиялари, Мусохон Тожихўжаевнинг хориж адабиётлари билан боғлиқ илмий тадқиқотлари мазкур адабиётларни жамлаш, уларни китоб ҳолида йиғиш ва ўрганишни тақозо қилмоқда.

Ҳозирги кунда Раҳимбобо Машраб ижодини ўрганиш, танқидий матнини тайёрлаш бўйича шоир, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси Мирзо Кенжабек текстологик изланишлар олиб бораётганликларини қайд этиб ўтиш жоиз.

Шу мақсадда Наманганда шоира Дилором Эргашева шахсий ташаббуси ва маблағи асосида “Машраб” нашриёти фаолияти йўлга қўйилди. Мазкур нашриёт ташаббуси билан Наманган давлат университети ўзбек тили ва адабиёти кафедрасида “Раҳимбобо Машраб ҳақидаги илмий, публицистик ва бадиий асарлар библиографияси” тайёрланган.

Адабиётларни ўрганиш жараёнида мавзунинг қуйидаги ҳолатлари долзарб эканлигини маълум бўлди:

- ❖ Машрабнинг эски ўзбек тили тараққиётига қўшган ҳиссаси;
- ❖ Машраб номи билан боғлиқ этнографизмлар, ўхшатишлар, талмеҳлар, латифаларнинг лисоний-маданий тадқиқи;
- ❖ Машраб қаламига мансуб “Алифнома”ларнинг Ўзбекистондаги тадқиқи;
- ❖ Машраб ижодининг хориждаги (Хитой Халқ Республикаси, Россия Федерацияси, Туркия Республикаси, Афғонистон) тадқиқи ва уларнинг ўзига хос жиҳатлари;
- ❖ Машраб девони ва бошқа асарларининг текстологик-танқидий таҳлили;
- ❖ Раҳимбобо Машраб уй-музейи ҳамда кутубхонасини ташкил этилиши масалалари;
- ❖ Машраб халқаро жамғармасини ташкил этиш, асарлари қўлёзмаларини топиш ва қадамжойларини обод қилиш борасида экспедицияси ташкил этиш муаммоси.

Фойдаланилган адабиётлар:

[1] Қаранг: Мусурманов, Эркин. Маҳдуми Аъзам авлоди ёхуд Хитой императори Цяньлун армонига айланган Ипархон ҳақида // Зарафшон. 2013. 15 январь, № 164; Офоқ хўжа ким эди?// Зиёкор. Илмий, услубий, ижтимоий, адабий-бадиий журнал. 10 (182) 2012. 31-40 б.; Раҳимбобо Машраб фаолияти ва руҳияти талқини: монография (кирилл ва лотин алифбосида) . – Самарқанд, 2015;



Раҳимбобо Машраб ҳақидаги янги маълумотлар: монография (кирилл ва лотин алифбосида). – Самарқанд, 2015 ва бошқ.

[2] Akasoy, Anna. Burnett, Charles. Islam and Tibet – Interactions along the Musk Routes. 1st Edition. – Published October 3, 2016 by Routledge 406 Pages

[3] Тожиқўжаев М. Бобораҳим Машраб ҳаёти ва ижодининг хорижда ўрганилиши // Адабиёт кўзгуси. 2000, 5-сон; Машраб ҳаёти ва ижодининг Фарбда ўрганилиши // “Сухбатдош” газетаси, 1998 йил 30 июль

[4] Мамашаева М.М., Гойиббоева Р.А Изучение наследие в Европе //Учёный XXI века, 2020: <https://cyberleninka.ru/article/n/izuchenie-naslediya-mashraba-v-evrope>

[5] Aşkari, Mustafa (Tez Danışmanı), Kanabaev, Cemaldin (Yazar) Baba Rahim Meşreb'in kişiliği, şahsiyeti ve tasavvuf anlayışı – Ankara üniversitesi, sosyal bilimler enstitüsü, temel islam bilimleri (tasavvuf) anabilim dali, 2013.

[6] Fidancı, Mahmut. Şah Meşreb Menakıb-nâmesi. Doktora Tezi. İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 1994.

[7] Gedik, Sadi. Son Dönem Çağatay Şairi Baba Rahim Meşreb'in Kitab-ı Mebde-i Nur Mesnevisi'nin Dil Özellikleri. On Language Characteristics of Last period Chagatai Poet Baba Rahim Mashrab's Kitab-ı Mabda-i Nur Masnavi; Baba Rahim Meşreb'in Kitab-ı Mebde-i Nur Mesnevisi (İnceleme-Metin-Gramer-Dizin). Doktora Tezi. – Ankara: Gazi Üniversitesi, 2010; Babarahîm Meşrebin Kimya mesnevisinin on altıncı kimyasi üzerine metinler arası ilişkiler bağlamında bir tahlil de nemesi. // The Journal of International Social Research, 2016.

[8] Gedik, Sadi. Alici, Yusuf. Baba Rahim Mashrab's Elifnâmes. Baba Rahim Meşreb'in elifnâmeleri. – International Journal of Social Science. Number: 65 , p. 123-140, Spring I 2018

[9] Güleç, İsmail. “Meşreb'in Kitab-ı Mebde-i Nûr'u Mevlana'nın Mesnevî'sinin Şerhimidir?” / İlmî Araştırmalar Dil ve Edebiyat İncelemeleri. (16), 2003. 135–142.

[10] Kavsar, Munire. Last Term Cagatai Poet Baba Rahim Meşreb's Verse Commentary of Fatha Surah (son dönem çağatay şairi Baba Rahim Meşreb'in manzum Fâtîha tefsiri // https://toplumbilimleri.com/?mod=makale_ing_ozet&makale_id=234

[11] Hartmann, Martin. Meşreb, der weise Narr und fromme Ketzer. Ein zentralasiatisches Volksbuch, in: Der islamische Orient. Berichte und Forschungen, Bd. 5, 1902, 147–193.

[12] Baba Rahim Mashrab Namangani. Attempt by Behroz Khaliqi. – Afganistan:Pameer Prints, hijriy 1390.

[13] Фиграт, Абдурауф. Машраб. Танланган асарлар. 2-жид. Илмий асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.82-105.

[14] Абдуллаев, Исмадулла. Мабдаи нур жилоси: [Бобораҳим Машраб ҳақида] // Қишлоқ ҳақиқати. 1992.22 май; Машраб ва “Мабдаи нур” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1991. 12 апрель № 15; Абдуллаев, Исмадулла. Машраб таржимаи ҳолига оид ғазал // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992.17 янв; «Мабдаи нур»га сўзбоши. // Шарқ юлдузи, 1992, 12-сон; Файри илм шарпаси // Тафаккур, 2005, 1-сон; Қўнгулни узма шундоғ кимёдин. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1999, 23 апрель; Машраб ва «Мабдаи нур» // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1991. 12 апрель ва бошқалар



**ИНГЛИЗ ТИЛИДАН ЎЗЛАШГАН АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ТЕРМИНЛАРИНИ ЎЗБЕК ТИЛИ ЛЕКСИК ТИЗИМИГА
МОСЛАШИШ ЖАРАЁНЛАРИ**

Мавлонова Мавлуда Давуровна

(Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент Ахборот технологиялари
университети Чет тиллар кафедраси катта ўқитувчиси)

E-mail: malika25rustamovna@gmail.com <tel:+998974908951>

Аннотация: Ушбу мақолада терминология, АКТ терминлари ва улардан ўзлашган сўзлар, уларнинг таржима қилиниши ва хусусиятлари хусусида батафсил ёритилган. АКТ терминлари инглиз тилидан қабул қилувчи тилга ўзлашганда шу тил тизимининг график кўриниши ва фонетик хусусиятлари, сўз яшаш потенциали, семантикаси, маънонинг аниқлиги, ўзлаштирилган терминологик соҳа мақолада таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: терминология, ўзлашган сўзлар, АКТ, қўшма сўзлар, семантика, лексика

**ПРОЦЕСС АДАПТАЦИИ ТЕРМИНОВ ИНФОРМАЦИОННО-
КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, ПРИНЯТЫХ В АНГЛИЙСКОМ
ЯЗЫКЕ , К ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

Мавлонова Мавлуда Давуровна

(старший преподаватель Ташкентский университет информационных
технологии имени Мухаммад ал-Хоразми)

E-mail: malika25rustamovna@gmail.com <tel:+998974908951>

Аннотация. В данной статье подробно описываются терминология, термины ИКТ и их словарный запас, их перевод и особенности. В статье анализируются графический облик и фонетические особенности одной и той же языковой системы, словообразовательный потенциал, семантика, точность значения, освоенная терминологическая сфера при переносе терминов ИКТ с английского языка на принимающий язык.

Ключевые слова: терминология, освоенные слова, ИКТ, компьютер, сложные слова, ввод иностранного языка.

**THE PROCESS OF ADAPTING THE TERMS OF INFORMATION AND
COMMUNICATION TECHNOLOGIES ADOPTED IN THE ENGLISH LANGUAGE
TO THE LEXICAL SYSTEM OF THE UZBEK LANGUAGE**

Mavlonova Mavluda Davurovna

(a senior teacher of Tashkent university of information technologies named after
Mukhammad al-Khwarazmi)

E-mail: malika25rustamovna@gmail.com <tel:+998974908951>

Annotation. This article describes in detail the terminology, ICT terms and their vocabulary, their translation and features The article analyzes the graphic appearance and phonetic



features of the same language system, word-formation potential, semantics, accuracy of meaning, mastered terminological sphere when transferring ICT terms from English to the host language.

Key words: terminology, borrowed words, ICT, computer, joint words, foreign language borrowed words.

Ўзбек тилига чет тилидан кириб келган лексик бирликлар статик ўзгаришсиз қолмайди, балки ўнинг қонунларига буйсилади.

“Чет тилидан кирган лексик бирикмаларни ўзлаштириш айнан уларни ўзига буйсиндиришдир ва чет тилидан кирган лексик бирикма берилган тил қонунларига бўйсинган, мавжуд ва қўлланиладиган тил моделларига мослашган ҳолда уларни амалда қўллаш орқали ўзлаштирилиши мумкин”⁵⁰. Чет тилидан кирган сўзларнинг қабул қилган тил тизимида ўзгариш жараёни ҳақида гапирар эканмиз тадқиқодчилар қуйидаги терминларни қўллашади, *ассимиляция* (К.Л. Егорова, М.В. Брофман, Д.С. Лотте, А.Ф.Л. Майоров), *адаптация* (Г.Т. Хухуни, Л. Блумфилд), *ўзлаштириш* (А.А. Реформатский, Л.П. Ефремов, О.П. Сологуб), *жорий қилиниши* (Д.С. Лотте), *амалда қўлланилиши* (СВ. Гринев).

АКТ терминларини ўзбек тилида қўллаш жараёни ҳақида гапирганда «адаптация» терминини қўлаймиз. «Адаптация» тушунчаси турли соҳаларда, биологиядан физикагача кенг қўлланилади. Бу термин филологик адабиётларда ҳам қўлланилади (лотин. Adaptatio - мослашув). Кенг маънода адаптация бадиий матнни таржима қилишда трансформация ёки модификация усуллари қўллаш (мослаштирилган таржима), яъни чет тилидаги сўз ёки матнни таржима қилинаётган тил тизимига мослаштириш жараёнида чет тилидаги сўз ёки матннинг семантикасини ўзгартиришда қўлланади⁵¹.

А.А.Горбачевскийнинг фикрича, “адаптация барча тил бирликлари, фонемалар, морфемалар, лексемалар, жумлалар фаолиятида турли тил сатҳларида намоён бўлади. Атрофида жойлашган бирликларга мослашиб тил бирлиги ўз шаклини ўзгартиради, шу тарзда у ёки бошқа шаклда амалга оширилган –аллафон, алламорф, сўз шакли, гапнинг грамматик шаклига мос келадиган контекстга мослашади”⁵².

Чет тили бирлигининг қабул қилувчи тил тизимига ўзлаштиришнинг қуйидаги асосий белгилари мавжуд:

- чет тилидаги сўзни қабул қилувчи тилнинг фонетик ва грамматик воситалари орқали ўзлаштириш;
- чет тилидаги сўзни қабул қилувчи тилнинг грамматик шакллар ва категорияларига мослаштириш;
- чет тилидан кирган сўзни фонетик ва грамматик жиҳатдан ўзлаштириш;
- сўз ясаш хусусияти;

⁵⁰ Реформатский, А.А. О сопоставительном методе [Текст] / А.А. Реформатский / Лингвистика и поэтика. - М.: Наука, 1987. - С.43.

⁵¹ Хухуни, Г.Т. Художественный текст как объект межкультурной и межъязыковой адаптации [Текст] / Г.Т. Хухуни // Этнокультурная специфика языкового сознания / Под ред. Н.В. Уфимцевой. — М.: Институт языкознания РАН, 1996.- С. 206 - 214.

⁵² Горбачевский, А.А. Оригинал и его отражение в переводе [Текст]: Монография / А.А. Горбачевский. - Челябинск, 2001. - 202 с.



- семантик ўзлашиш, яъни маъно аниқлиги, тилда мавжуд бўлган ва бошқа тилдан кирган сўзлар маъноларини ва хусусиятларининг фарқланиши;
- нутқда мунтазам фойдаланиш: бирон бир махсус стилистик соҳага боғлиқ бўлмаган сўз учун - бадий нутқнинг турли жанрларида; термин учун уни ўз ичига олган терминологик соҳада барқарор фойдаланиш, ушбу терминологик майдоннинг шартлари билан муайян парадигматик ва муҳим муносабатлар мавжудлиги.⁵³

Сўз семантикасининг моҳиятини ўрганиш жараёнида олимлар ҳар қандай лексик-инновацияни тил тизимига киритиш жараёнининг мажбурий таркибий қисми бу прагматик, оғзаки қўллаш, янги сўзга одатий ижтимоий контекстнинг маълум доирасини бериш, ёки аксинча фойдаланиш мумкин эмаслиқ деган хулосага келди.

АКТ терминологиясини қабул қилувчи тил тизимига мослаштириш - бу барча тил сатҳларида ушбу терминнинг кетма-кет ўзгариши содир бўладиган босқичли кўп қиррали жараёндир.

Шуни таъкидлаш жоизки, ўзлашиш назариясида мослашув босқичларини тавсифлашда ягона терминлар мавжуд эмас. Айрим тадқиқотчилар ўзлашган сўзни мослаштириш жараёнини икки босқичга бўлишади: ўзлашган сўзнинг қабул қилувчи тил тизимига кириш босқичи ва қабул қилувчи тил тизими қонунлари бўйича ривожланиш босқичи.

Баъзи тадқиқотчилар эса уч босқични ажратиб кўрсатишади: чет тилидан кирган сўзнинг қабул қилувчи тил тизимига кириш босқичи; ўзлаштирувчи тил реалиясига нисбатан сўзни ишлатиш соҳасининг кенгайтиши билан кечадиган босқич; қабул қилувчи тил меъёрларига бўйсунган ва тилнинг ички ривожланишини ҳисобга олган ҳолда ўзлашиш жараёнининг тезлашиш босқичи.

Ўзбек тили тизимига АКТ терминларини мослаштиришнинг қуйидаги босқичларини кўрсатиш мақсадга мувофиқдир:

1. Кириш – АКТ терминининг ўзбек тили тизимига *кириб бориши* ўзбек тилининг фонетик, график воситалари орқали инглизча сўзнинг ўзлашишида, унинг грамматик шакллар ва категориялари билан алоқадорлигида аниқланади. Ушбу босқичда АКТ терминларини мослаштириш лексик-семантик ва грамматик ўзгарувчанлик билан бирга келади, бу ўзлашган терминлар семантик жиҳатдан яқин бўлган асл сўзлар қаторида ёки аввал ўзлашган сўзлардан фарқланмаслигини аниқлатади.
2. Фарқлаш – ўзлашган терминнинг ёки унга синоним асл сўзларнинг маъноларини *фарқлаш*, сўзни умумий шакл муносабатларига киритиш, ўзлашган сўзнинг мустақил маъносини шакллантириш билан бирга келади. Ушбу босқичда сўзнинг лексик алоқалари янада аниқроқ ва доимий бўлиб боради, ва қабул қилувчи тилнинг сўз ясаш қонунларига бўйсинадиган ясама сўзлар шаклланиб боради.
3. Ривожлантириш – ўзлашган сўзнинг янада ривожланиши, бу эса унинг маълум соҳада мунтазам равишда ишлатилиши, бу ҳолда ахборот коммуникация

⁵³ Крысин, Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке / Л.П. Крысин // Современный русский язык: Лексикология. Фразеология. Лексикография [Текст]: Хрестоматия и. учебные задания / Сост. Л.А. Ивашко, И.С. Лутовинова, Д.М. Поцепня, М.А. Тарасова, М.Ю. Жукова, Е.И. Зиновьева, М.А., Шахматова; отв. ред. Д.М. Поцепня. — 2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2002. - С. 270 - 282.



технологияси соҳаси, фойдаланиш доирасининг кенгайиши, сўзнинг стилистик маъносини ўзгариши.

Ушбу таснифлаш чет тил лексик бирликларнинг мослашиш даражаларини кўрсатади: “ўзлаштирилмаган” – “ярим ўзлаштирилган” – “ўзлаштирилган” ёки бошқача қилиб айтганда, умуман мослашмаган – қисман мослашган – тўлиқ мослашган.

Тўлиқ мослашувда АКТ терминлари инглиз тилидан қабул қилувчи тилга ўзлашганда шу тил тизимининг график кўриниши ва фонетик хусусиятларини, сўз яшаш потенциалини, семантикасини, маънонинг аниқлиги, ўзлаштирилган терминологик соҳада мунгазам равишда фойдаланишини эгаллашида намоён бўлади, масалан *программист* (programmer), *компьютер* (computer), *оператор* (operator). В.Б. Касачевнинг “асл чет тилдан кирган сўз она тили сўзи сифатида қабул қилинганида ўзлашган сўзларнинг ассимиляция даражаси максимал бўлиши мумкин” деб таъкидлаган фикрига қўшимасликнинг иложи йуқ⁵⁴.

Қисман мослашувда инглиз термини барча келтириб ўтилган мослашув босқичларидан ўтмайди. Л. Блумфилднинг таъкидлашича “ўзлашган сўзлар қабул қилувчи тилнинг фонетик моделларига тўғри келмаслиги мумкин”⁵⁵. Масалан, *printer* (принтер) - *принт[э]р* (“е” товушидан олдин ўндош товушни юмшатмаслик).

Умуман мослашмаган холда АКТ термини ўзбек тилида айнан сўзни киритган манба тилга хос шаклда ишлатилади. Масалан, *Pentium* (процессор), *Quattro Pro* (электрон-таблица дастури), *Windows* (операцион тизим).

Мослашув жараёнида хосил бўлган сўзнинг семантикаси манба тилнинг сўз ясовчи ва хосил бўлган сўзлари ва қабул қилувчи тил ўртасидаги муносабатлар бир-бирига тўғри келмаслиги сабабли ўзгаради. Мослашувнинг намоён бўлишининг қуйидаги турлари мавжуд: маъно (семантик) мослашув ва расмий (морфологик) мослашув. Семантик мослашув қабул қилувчи тилнинг тизими семантикаси тасири остида хосил бўлган сўзнинг семантикасини қайта кўриб чиқишида намоён бўлади. Морфологик мослашувда чет тилдан кирган сўз қабул қилувчи тилнинг грамматик шакл ва категорияларига мослашиш содир бўлади. Ўзлашган сўз мослашган тилнинг грамматик муносабатлари уни грамматик парадигмага киритиш орқали ўрнатилади. Сўз маълум грамматик категорияларни, шунингдек, тегишли манба сўзига хос бўлган синтактик муносабатларни қабул қилади.

АКТ терминларини мослаштириш босқичларини ўрганар эканмиз ўзбек тилининг лингвистик муҳитида англицизмнинг ривожланишини график, фонетик, семантик ва сўз шаклларини мослашиш жараёнини ўрганиш орқали кўзатамиз.

АКТ терминларини график жиҳатдан ўзлаштиришда инглизча сўзнинг график қобиғининг қайта кодлаштириш содир бўлади, яъни ўзлашган сўзнинг график тасвири ўзбек тилининг график воситалари ёрдамида тасвирланади. Ушбу жараён иккита асосий йуналиш буйича амалга оширилади: график қайта ўзлашган ва

⁵⁴ Власенко, СВ. Англо-русский квазиперевод или тотальный языковой импорт англицизмов в современный русский язык [Текст] / СВ. Власенко // Мир русского слова. — № 1. - 2009- С.-Петербург: Издательский дом МИРС, 2009. - С 20 - 29.

⁵⁵ Блумфилд, Л. Язык [Текст] / Л. Блумфилд // Пер. с англ. Е.С. Кубряковой и В.П. Мурат / Под. ред М.М. Гухман. -М.: Прогресс, 1968. - 608 с.



график қайта ўзлашмаган. Биринчи ходда чет тилида ёзиш тизимига эга бўлган сўзнинг ташқи кўриниши ўзлашади: Adobe Photoshop, Adobe Reader, Excel, Winamp.

Ўзбек тили график воситалари ёрдамида инглиз тилидаги терминни ўзлаштириш мураккаб эмас, аммо график қайта кодлаш натижасида талаффуз этиш қийин бўлган бирикмалар пайдо бўлиши мумкин. Кейинчалик фонетик жиҳатдан ўзлаштириш жараёнида ушбу бирикмалар ўзбек тилининг фонетик тизимига мослашади.

Ўзбек тилига инглизча АКТ терминлар асосан рус тили орқали ва бевосита инглиз тилидан ўзлашиш ҳолатлари учрайди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: фан ва технология, 2016. – 128 б.
2. Казарина:С. Ф. Типологические характеристики отраслевых терминологий. — Краснодар: Изд-во Куб. гос. мед.;акад.,. 1998. - С.73.
3. Комлева, И.Л. Принципы формирования русской компьютерной терминологии: автореф. дис.канд. филол. наук [Текст] / И.Л. Комлева. – М., 2006. – 24 с.
4. Косова. М.В. Терминологизация как процесс переосмысления русской общепотребительной лексики. Дис... докт. филол. наук. - Волгоград, 2004.
5. Кошкарлова, Н. Н. Структурно-семантические особенности и степень адаптации англоязычной частично ассимилированной лексики в русском компьютерном подъязыке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2004. – С. 24.
6. Крысин, Л. П. О русском языке наших дней / Л. П. Крысин // Изменяющийся языковой мир. – Пермь, 2002. – С. 47–54.
7. Крысин, Л.П. Иноязычное слово в контексте современной общественной жизни [Текст] / Л.П. Крысин // Русский язык конца XX века. — М., 1996. — С. 142-161.
8. Крысин, Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке / Л.П. Крысин // Современный русский язык: Лексикология. Фразеология. Лексикография [Текст]: Хрестоматия и учебные задания / Сост. Л.А. Ивашко, И.С. Лутовинова, Д.М. Поцепня, М.А. Тарасова, М.Ю. Жукова, Е.И. Зиновьева, М.А., Шахматова; отв. ред. Д.М. Поцепня. — 2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2002. - С. 270 - 282.
9. Крысин, Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке [Текст] / Л.П. Крысин. - М.: Наука, 1968. - 206 с.



UDK 811.511+811

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA NOANIQLIK MA'NOSINING MODAL
VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI**

Mavlyuda Ibragimovna Gadoyeva
BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
gadoyevamavlyuda59gmail.com. Tell: +998914486758

Sherali Obloberdiev

Buxoro davlat universiteti ingliz tilshunosligi kafedrasida magistranti.
g.mail: sheraliobloberdiyevgmail.com Tell: +998916456722

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida noaniqlikni modal vositalar bilan ifodalashga bag'ishlangan. Maqolada modal vositalarning taqdim etilishi, boshqa so'z turkumlaridan farqli o'laroq, modallik, birinchi navbatda, jarayonning noaniqligini ko'rsatishi, ikkinchidan, bu kategorik tushuncha jarayonni tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki ob'ektni ham ifodalashi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: modal vositalar, noaniqlik. ifoda, gap bo'laklari, shaxs, predmet, joylashuv, yo'nalish, sabab, predmet belgisi, predmet sifati

UDC 811.511+811

**EXPRESSION OF THE MEANING OF INDEFINITENESS IN ENGLISH AND UZBEK
LANGUAGES BY THE MODAL MEANS**

Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna
docent of the English linguistics department of Bukhara state university,
g.mail:gadoyevamavlyuda59gmail.com. Tell:+998914486758

Obloberdiev Sherali

master student of the English linguistics department of BSU
g.mail: sheraliobloberdiyevgmail.com Tell:+998916456722

Annotation: This article is devoted to the expression of indefiniteness in English and Uzbek languages by the modal means. We studied the representation of the modal means first, unlike other word groups, modality, first of all, shows the indefiniteness of the process; secondly, this categorical concept is not limited to the description of the process, but also of the subject.

Key words: modal means, indefiniteness. expression, parts of speech, person, object, location, direction, cause, object symbol, object quality.

УДК 811.511+811

**ВЫРАЖЕНИЕ НЕОПРЕДЕЛЕННОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКАХ С ПОМОЩЬЮ МОДАЛЬНЫХ СРЕДСТВ**

Гадоева Мавлюда Ибрагимовна
доцент кафедры английского языкознания БухГУ,
g.mail:gadoyevamavlyuda59gmail.com. Tell:+998914486758

Облобердиев Шерали

магистрант кафедры английского языкознания БухГУ.
g.mail:sheraliobloberdiyevgmail.com Tell:+998916456722



Аннотация: Данная статья посвящена выражению неопределенности модальными средствами в английском и узбекском языках. Сначала мы изучали представление модальных средств, в отличие от других групп слов, модальность, прежде всего, показывает неопределенность процесса; во-вторых, это категориальное понятие не ограничивается описанием процесса, но и предмета.

Ключевые слова: модальное средство, неопределенность, выражение, части речи, человек, объект, местоположение, направление, причина, символ объекта, качество объекта

Noaniqlikning to`la inventarini aniqlashda shu kategorial ma`noni beruvchi modallik va vositaning kategoriyasi muhim rol o`ynaydi.

Masalaning mohiyati shundaki, modallik o`zining xususiyatiga ko`ra noaniqlikni, taxminni, noreallikni va boshqa tushunchalarni ifodalovchi kategoriyadir.

Modallik quyidagi nuqtai nazardan qiziqish uyg`otadi: birinchidan, boshqa so`z turkumlaridan farqli o`laroq, modallik, birinchi navbatda, jarayonning noaniqligini ko`rsatadi; ikkinchidan ana shu kategorial tushuncha faqatgina jarayonni ko`rsatish bilan chegaralanib qolmasdan, balki predmetning: Maybe it is a walf (BARS), sifatning: It seems to me be green at night (BARS), miqdorning: Maybe they brought fifty books (BARS) va boshqalarning noaniqligini ifodalaydi:

Shuni ta`kidlash kerakki, modallik hamma darajadagi prizma va hamma tillarda mavjud bo`lib, hamma tillardagi tipologik umumiylik unga xos xususiyatdir.

Taqqoslanayotgan tillar doirasida biz modallik ma`nosining berilishining quyidagi usullari yoki har xilligini kuzatamiz:

- 1) modal so`zlar;
- 2) modal fe`llar;
- 3) modal shakllar.

Til iyerarxiyasi darajalari bilan mos kelishi nuqdai nazaridan ularni quyidagicha modifikatsiya qilish mumkin: leksik vositalar sifatida (modal so`zlar, modal fe`llar); morfologik vositalar sifatida (shart maylining sintetik va analitik shakllari); sintetik vositalar sifatida (modal iboralar, intonatsiya, frazeologik birliklar va boshqalar).

Modal so`zlar so`zlovchi ishonchining har xil darajasini ifodalaydi. Ingliz tilida ularga quyidagilar kiradi: perhaps, maybe, probably, evidently, surely. O`zbek tilida esa quyidagilar kiradi: balki, chamasi, ehtimol, ajabmas, aftidan, hoynahoy, chog`i.

Maybe it is right (J.Fowles, Daniel Martin, 27).

You don't believe me, perhaps (F.J.Cronin, Citadel, 254).

They had probably noticed all the police of the big cities and ... (T.Dreiser, Sister Carrie, 267).

Chamasi Yo`ldosh ham tashqaridan kirib ularga qo`shildi (S.Anorboev, Qissalar, 35).

Ajabmas, Sirojiddin ham kirib kelsa (R.Fayziy, Hazrati inson, 230). Ehtimol bir kuni borib yarashardik (A.Muxtor, CHinor, 170 – 171).

Balki Mahkam to`g`ri aytar (P.Qodirov, Uch ildiz, 140).

Ularning ham gapiga quloq solish kerak ekan, shekilli (A.Muxtor, Chinor, 176).



– Menga qarang aka, - dedi yigit Azimjonga qarab, - siz nima oydan tushganmisiz? Shundoq bo'lsa ham Hazrat Navoiyni bilsangiz kerak hoynahoy (A.Muxtor, Chinor, 126).

Bosmachilar yana bir qancha sho'ring qurg'urlarning yostig'ini quritdi, chog'i (K.Yashin, Tor – mor, 43).

Aftidan, raisning jumagacha sabri chidamadi shekilli, ertasiga yana chaqirtirdi (J.Abdullaxonov, borsa kelmas, 232).

Modal so'zlar so'zlovchining gapda ifodalangan mazmunga nisbatan taxminini, ehtimolga moyilligini, ikkilanishini va ishonchini ifodalaydi.

Ham ingliz, ham o'zbek tillaridagi ba'zi bir noaniqlik ma'nosini ifodalovchi modal so'zlar so'z – gap vazifasini bajarishi mumkin. Buni quyidagi misollarda kuzatish mumkin:

Didn't you like it last Sunday? "Perhaps" (J.Fowles, Daniel Martin, 398). Zora yangi xushxabar eshitsa. Ehtimol (R.Fayziy, Hazrati inson, 47).

Fan nomzodi bo'lib olardingiz shu choqqacha. Balki (J.Abdullaxonov, borsa kelmas, 198).

Ingliz tilida quyidagi modal fe'llar noaniqlik ma'nosini ifodalaydi: can (could), may (might), shall (should), will (would), ought.

O'zbek tilida esa: kelmoqchi, yubormoqchi va hokazo.

He can be rather a clown, actually (J.Fowles, Daniel Martin, 309). – Would you marry me? – I might (J.Fowles, Daniel Martin, 398).

Po'lat xo'jaev Ettinchi polkni chiqarib yubormoqchi (SH.Xolmirzaev, Qil ko'prik, 273).

Ingliz tilida: once upon a time, one day, one morning;

O'zbek tilida esa bor ekanda yo'q ekan, kunlardan bir kun va boshqa modal iboralar noaniqlikni ifodalaydi:

Once upon a time an artist who had painted a small and a very beautiful picture placed it so that he could see it in the mirror (American Satire, 48).

One day the following February he was sent on an errand to a large coal company's office (T.Dreiser, Sister Carrie, 435).

Kunlardan bir kun stansiyadagi do'konga non olgani borsa, o'sha kungi bukri shilpiqni qovoqxonada ko'rib qoldi (A.Muxtor, Chinor, 318).

Bor ekanda yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, hakka hakimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, qarg'a qaqimchi ekan (Ertakdan).

Modal shakllar noaniqlikni ham ifodalaydi. Ingliz tilida shart mayli taxminiy, shart va kutilgan ish harakatni oddiy so'zlar: be, were, know va hokazolar, analitik shakllar: should come, would know, might have taken va hokazolar orqali ifodalaydi.

I should have warned you about the baggers (J.Fowles, Daniel Martin, 496).

His hands felt as if they must have something to do (T. Dreiser, Sister Carrie, 267).

O'zbek tilida esa bunday ma'noni o'qisa (biladi), kelsangiz (ko'rasiz), borsak (olamiz) va boshqa so'zlar, ya'ni " – sa" affiksi orqali ifodalanadi:

Toshxo'janing hovlisi ichkari – tashqarili ertakda keng chorbog' yo'llar bilan boshqa hovlilarga tutashib ketgan bolalarining xonadonlari bo'lsa kerak (A.Muxtor, CHinor, 248). Necha ming yillardan beri dehqon ahli o'zining jamoa kuchini bu qadar bevosita his etmagan bo'lsa kerak (A.Muxtor, CHinor, 256 – 257).

MODAL VOSITALARINING QIYOSIY IFODALANISH



JADVALI

Modal vositalar	ingliz tili	o'zbek tili
Modal so'zlar	+	+
Modal fe'llar	+	+
Modal iboralar	+	+
Modal shakllar	+	+

Qiyosiy jihatdan modallik alohida ishlarda ko'rib chiqilgan. Z.M.Saidovanning nomzodlik dissertatsiyasi ingliz va o'zbek tillarida noreallikning istak ma'nosidagi shakllar orqali ifodalanishiga bag'ishlangan. Nemis tilidagi aynan shu kategoriya, ya'ni modallik nemis va o'zbek tillarida ishlatilishi Z.M.Saidovanning nomzodlik dissertatsiyasida o'rganib chiqilgan. Modallikning tipologik qonunining metodologik jihatdan yo'nalishini o'zgartirishi haqidagi muammolar A.Parpievning nomzodlik dissertatsiyasida o'rganilgan.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek va ingliz tillarida noaniqlik ma'nosini modal vositalar orqali ana shu tarzda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саидова З.Э. Структура функционально - семантического поля модальности возможности. Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2016. № 12(66): в 4-х ч. Ч. 4. С. 161-163.
2. Парпиев А. Сравнительный анализ средств выражения модальности в русском и английском языке. Автореф. канд. филол. наук. Ташкент 2016. – 27с.
3. American Sature. Saterical short stories and essays. M., 1966. – 315 p.
4. G'ulom H. Mangulik. Toshkent, 1977, 498 b.
5. Asqad M. Chinor. Toshkent, 1983, 390 b.
6. Dreiser T. Sister Carrie. M., 1958. 510 p.
7. Cronin A.J. The Citadel. M., 1966. 515 p.
8. Qodirov P. Uch ildiz. Toshkent, 1963, 419 b.
9. Xolmirzaev Sh. Qil ko'prik. Toshkent, 1984, 383 b.
10. Fowles J. Daniel Martin. USA. 1978. 673 p.
11. Гальперин И. Р. Большой англо-русский словарь: (BARS), в 2-х т. – М.: Русский язык, 1979. Т. 2. - 864 с.



**TOHIR MALIK ASARLARIDA BOLA ETALONI BILAN BOG'LIQ
O'XSHATISHLARNING IFODALANISHI
("Shaytanat" qissasi misolida)**

Iskandarova Sharifa Madaliyevna, Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Turaqulova Umida Anvarovna, Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada o'xshatishlar, xususan, o'xshatish etalonlari haqida so'z boradi. Tohir Malikning "Shaytanat" qissasi misolida bola etaloni bilan bog'liq o'xshatishlar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: milliy dunyoqarash, etalon, o'xshatish, o'xshatish etalonlari.

**РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СРАВНЕНИЙ С ЭТАЛОНОМ «РЕБЕНОК» В
ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТОХИРА МАЛИКА (на примере повести «Шайтанат»)**

Искандарова Шарифа Мадалиевна, профессор Ферганского государственного университета, доктор филологических наук.

Туракулова Умида Анваровна, магистрант Наманганского государственного университета.

Аннотация: В статье рассматриваются сравнения, в частности, эталоны сравнений. Произведен анализ сравнений с эталоном «ребенок» в повести Тохира Малика «Шайтанат».

Ключевые слова: национальное мировоззрение, эталон, эталоны сравнений.

**DESCRIPTION OF ANALOGIES RELATED TO CHILDREN'S STANDARDS IN
TAHIR MALIK'S WORKS (on the example of "Shaytanat")**

Iskandarova Sharifa Madaliyevna, Professor of Fergana State University, Doctor of Philology.

Turakulova Umida Anvarovna, Master of Namangan State University.

Annotation: The article deals with analogies, especially analogy standards. The analogies of the child's standard are analyzed on the example of "Shaytanat" by Tahir Malik.

Keywords: national worldview, standard, analogy, the standards of analogy.

O'xshatishlarning hosil qilinishida o'xshatish etalonlari muhim ahamiyatga ega. Etalonlar milliy dunyoqarashni aks ettiradi, chunki ular dunyodagi hodisalarning o'z milliy-odatiy o'lchovi natijasidir. "Etalon ijtimoiy-psixologik miqyosda jamiyat tabiat hodisalari, inson haqidagi me'yoriy tasavvurlar ko'rinishida aks etadi" [1; 21]. Ular orqali shaxs, narsa-buyum, hodisalar, obyektlarning xususiyatlarini va sifatini o'lchash yoki tasavvur qilish mumkin. Shu xususiyati bilan bilinmagan yoki bilinishi qiyin bo'lgan o'rinlarda etalonlar juda ham katta ahamiyatli sanaladi. Turg'un o'xshatishlar tarkibida ulardan foydalanish barcha tillarga xos. Badiiy asarlarda turg'un o'xshatishlarni va ular tarkibida an'anaviy etalonlarni qo'llash sarmahsul. Biroq ijodkorlar o'ziga xos yangidan-yangi o'xshatishlardan ham samarali foydalanib, original ijod namunalarini



yaratmoqdalar. Tohir Malik asarlarida ham shaxs, predmet, hayvon, osmon jismlari, harakat va holatni ifodalovchi nomlar bilan bog'liq o'xshatish etalonlarini o'rinli qo'llaydi. Ular orasida qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda shaxs semali o'xshatishlar alohida o'rin turadi. Masalan, *jinniday, odamdek, kasaldek, mahbusdek, o'g'ridek, boladek* kabi. Quyida biz yozuvchining "Shaytanat" qissasi misolida *bola* etaloni bilan bog'liq o'xshatishlarni tahlilga tortdik. Asarda *bola* etaloni orqali qahramonlarning xarakteri va xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan ko'plab o'xshatishlar uchraydi.

"O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" da *bola* etalonining *ishonuvchan, beg'ubor, beozor, sodda, injiq; aldanmoq, jo'n fikrlamoq; hurkmoq, uyalmoq, tortinmoq, javdiramoq; sho'xlik qilmoq, erkalik qilmoq; sevinmoq, quvonmoq; tutolmasdan, tortinmasdan, baland ovoz bilan yig'lamoq, ovutmoq, aldamoq, suymoq, yupatmoq, mehribonlik qilmoq* kabi semalari misollar orqali izohlangan [3; 45-47]. "Shaytanat" qissasida ham bu etalonning yuqoridagi har bir semalariga misollar topish mumkin. Asarni o'rganish davomida lug'atda keltirilgan *bola* etaloni bilan bog'liq o'xshatishlar bilan birgalikda, boshqa semalari ham asarda uchrashiga guvoh bo'ldik:

1. Bola etaloni bilan bog'liq ojizlikni ifodalovchi o'xshatishlar.

"Jalilning baland ovozda aytgan bu gaplari Asadbekka quvvat berganday sergaklantirdi. O'zidan o'zi nafratlandi. "Bu qanaqasi, ***mishiqli boladay*** ping'illab qoldimmi? Endi unga ko'z yoshi qilaymi? U meni yupatsinmi? "Qo'yaver, bunaqalar ko'p hozir" deydimi yo "Sen birga bo'lgan qizlarning ham ota-onasi shunday kuygandir" deydimi? Men... charchabman... kuchdan qolibman... Bu yaxshilikka olib bormaydi. Menga qarshi urush ochdilar... Men esa ping'illab o'tiribman..." [2; 16].

Asar qahramoni Asadbek juda mag'rur va qaysar odam bo'lib, uning uchun boshqalar oldida egilish, chorasiz qolganini namoyon qilish g'ururining toptalishi bilan barobar edi. Shuning uchun Asadbek hech qachon ichidagi dardni sirtida ifodalamasdi.

Yuqoridagi "*Bu qanaqasi, mishiqli boladay ping'illab qoldimmi?*", - degan jumlaning aynan Asadbek tilidan aytilishida qahramonning ichki ruhiy holatidagi o'zgarish ***mishiqli boladay*** birikmasi orqali ochib berilgan. Konstruksiya-dagi *mishiqli* so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagicha sharh berilgan: "Burnidan mishig'i oqib turadigan. Mishiqi bola" [4; 603]. Yozuvchi aynan shu o'xshatishni keltirish orqali chorasiz holatda qudratli, mag'rur kishilarni ham bolaga o'xshab qolishini nazarda tutgan. Asadbek bir necha o'rinlarda bolaga qiyoslanadi. Lekin aynan "*mishiqli bola*"ga o'xshatish faqat bir o'rinda, Asadbekning qizi o'g'irlab ketilgan o'rindagina qo'llanilgan. Buning sababi qahramon qizi o'g'irlanganida o'zini ancha ojiz his etadi. Yozuvchi Asadbekning ahvolini boshqacha ifodalashi ham mumkin edi, lekin aynan boladek ojiz, yordam so'rashga uyalmaydigan kimsadek ifodalaganligi mana shu tasvirning nihoyatda badiiy saviyada yozilganligidan dalolat beradi. Asarni o'qish davomida *bola* bilan bog'liq o'ndan ortiq o'xshatishlarni tahlil qildik. Ularning har biri o'rinli, holatga aynan mos tushadigan o'xshatishlardir.

"Har kuni o'nlab odamlarning ta'zimiga bepisand qarovchi Qilich, "senga rahbarman" deb po'pisa qiluvchilarning ovozi besh-o'n so'm pul bilan o'chirib qo'ya oluvchi boshqon ***ishtonini bexos xo'l qilib qo'ygan boladek shalvoirab qoldi***" [2; 37]. Muallif ushbu o'xshatish orqali asar qahramoni Qilichning avvallari kibor, egilmas, bo'ysunmas xarakterga ega bo'lgani va ayni vaziyatda ojiz, qadam tashlashi ham avvalgidan ancha sust ekanligiga ishora



qilmoqda. Yozuvchi bu o'rinda xalq orasida ko'p takrorlanuvchi ishtonni xo'l qilish bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishga ishora qilib o'tadi.

"Sharif eshigi oldida turib qoldi. Oppoq g'ishtdan qurilib savlat to'kib turgan imoratlar qatoridagi somon suvoqli pastak uyi ko'ziga yetim boladay mung'ayib ko'rindi. Nazarida egasi qamoqqa olib ketilganidan so'ng uyi sharmandalik yukini ko'tarolmay cho'kibroq qolganday tuyuldi" [2; 60]. Misoldagi bola o'xshatishining shaxsga emas, predmetga nisbatan qo'llangani adibning yuksak iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Bu o'rinda Sharifning uyi mung'aygan kulbaga emas, balki *yetim bolaga* qiyoslanib insonning holati bilan bog'liq o'xshatishni hosil qilgan. *Yetim* so'zi izohli lug'atda "ota-onasiz, yakka-yu yagona" tarzida beriladi [4; 17]. To'g'ri, uying ota-onasi bo'lmaydi, ammo bu yerda majoziy ma'no bor. Sharif qamoqdan qaytganda, uyi ko'ziga go'yo qarovsiz, qarovchisiz qolganday tuyuldi. Bu sifatlar esa yetim bolalarga xos xususiyat. Sharif vino zavodida direktorlik vaqtlarida ham uyiga, uning ta'miriga e'tibor bermagan, baland imoratlar qurmagan edi. Mahalladagi baland imoratlar oldida somon suvoqli uyining go'yo yupun korinishi ham yetim bolalarga xos ko'rinish.

O'xshatish tarkibidagi "mung'aygan" so'zini izohlaydigan bo'lsak, uy munga'ayishi mumkin emas, bu sifatlash insonga, ba'zan hayvonlarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Demak, *mung'aymoq* so'zi uyda yashovchilarga nisbatan qo'llangan. Yozuvchi bu o'rinda o'xshatish orqali uy ichidagi g'amginlik tashqarisiga ham sezilayotganiga ishora qilgan.

Asarda uchrovchi bola bilan bog'liq o'xshatishlar rang-barang mazmunga ega bo'lib, bir-birini takrorlamaydi. Bir o'rinda bolaning ojizligiga qiyoslansa, yana bir o'rinda tajribasizligiga, boshqasida sho'xligiga qiyoslangan.

Yozuvchi asar davomida qo'llagan o'xshatishlari orqali xuddi o'quvchiga qahramonning ayni holatini "tasavvur qil" deyotganday tuyuladi.

2. Bola etaloni bilan bog'liq itoatkorlikni ifodalovchi o'xshatishlar:

"Kesakpolvon uch-to'rt qadam chekindi-yu, ammo yo'qolmadi. Oshnasining shumshayib turishiga toqat qilolmagan Jalil unga yaqinlashib, jiqqa ho'l yelkasiga qo'l tashladi.

— Asad, yur, keldi-ketdiga qarab turishing kerak.

Asadbek akasining yo'rig'idan chiqmaydigan mo'min boladay Jalil boshlagan yo'lga yurdi" [5; 7].

Asadbek bu o'rinda mo'min bolaga o'xshatilgan bo'lil, *mo'min* leksemasi lug'atda itoatkor va yuvosh; beozor tarzida izohlangan [4; 669]. Asadbek asarda juda mag'rur, qaysar, o'jar, kibri shaxs sifatida tasvirlanadi. Ammo kishi hayot quvontirsa, quvonadi, g'am-tashvishlarga ro'baro' qilsa, ko'rib turganingiz bola misoli mo'min, beozor qilib qo'yishi mumkin. Yozuvchi bu o'rinda "akasining gapidan chiqmaydigan boladay" desa ham bo'lardi, lekin "mo'min" so'zini qo'shish orqali buyruqni tez va oson bajaradigan bolaga qiyoslamoqda. O'xshatish Asadbekning yelkadoshi Mahmudning janozasidagi holatiga nisbatan qo'llangan bo'lib, o'quvchiga uning o'limi Asadbekka qanday ta'sir etganini va qay darajada ezilayotganini aniq ochib bermoqda. Bola etaloni bilan bog'liq o'rinlarni o'rganar ekanmiz, quyidagi misollarni ham tahlil qildik.

"Sovqotdim, oshna, — dedi Anvar. — Endi kir, xotinlar gap qiladi.

Elchin mo'min boladay xo'p, deb uy tomon yurdi. Ostona — muqaddas chegara. Anvar chegarani bosib o'tmadi, hovlida qoldi" [2; 127]. Ushbu o'xshatish asar qahramoni Elchinga nisbatan qo'llangan bo'lib, o'xshatish orqali aynan uning yuvosh odam ekanligi emas,



qaysarlik, o'jarlik qilish yaramaydigan vaziyatda ekanligi ta'kidlanmoqda. Chunki o'xshatish qo'llangan o'rin Elchinning to'y kechasi tasviri bo'lib, to'y tarqab hamma ketib bo'lgan, ammo do'sti Anvar hamon u bilan gaplashib o'tirardi. U ham ketayotib Elchini kelinning oldiga kirishga undaydi. Bu o'rinda ham o'xshatish etaloni itoatkorlik semasi bilan kelgan.

3. Bola etaloni bilan bog'liq qo'rquvni ifodalovchi o'xshatishlar:

"Haydarjon aka, ishqivozlik bormi? — dedi u itga ishora qilib.

— *"Mi" sini olib tashlab gapir. Men ko'rgan kuchukvozlarni ko'rish uchun yana yuz yil yashashing kerak. Keyingi paytlarda vaqt bo'lmadi. Bo'lmasa bitta qo'yimas edim.*

— *Bugun qoling bo'lmasa, zo'rlari qo'yiladi.*

— *Shuni aytyapsanmi?*

— *Buning gavdasiga ishonmang. Po'k hali.*

— *Sen qayerdan bilasan?*

— *Bilaman-da... Tirikchilik shu yerda, akaxon, — dedi yigit miyig'ida kulib.*

— *Bu yer... senga qaraydimi? — dedi Kesakpolvon ajablanib.*

— *Ha... — dedi yigit aybdor boladay undan ko'zini olib qochib"* [6; 81]. Matnda qo'llangan konstruksiya vositasida personajning qo'rquvi, hadiki ifodalanmoqda. Ya'ni qahramon bu joylar meniki deyishga deb qo'yib, Xaydardan qo'rqdi. Sababi Xaydar Asadbekning odami, Asadbek esa hukmron toifadan edi. Yigit go'yo bu yer menga qarashli deyish bilan palakni bosganday, Asadbekni mensimayotganday bo'lib ko'rinishdan qo'rqib ketdi. Yozuvchi mana shunday holatni *aybdor boladay* o'xshatishi orqali ochib bergan.

4. Bola etaloni bilan bog'liq maqtanishni ifodalovchi o'xshatishlar:

"Mamatbey uning gaplarini e'tiborsizlik bilan tingladi. Jamshid arzimagan yumushni bajarib qaytib, ko'pirtirib maqtanayotgan boladay o'zini noqulay sezdi. U gapdan to'xtagach, Mamatbey Kesakpolvonga qarab:

— *Krasnoyardagilar qo'ng'iroq qilishdi, Selim ham qo'lga tushibdi, — dedi. Keyin arzimagan narsani eslaganday ilova qildi: — Bechoraning yuragi kasal edi, ularning qiynashlariga chidarmikin?"* [5; 145].

Berilgan matnda *"arzimagan ishni qilib qaytib, ko'pirtirib maqtanayotgan boladay"* o'xshatishi qahramonning biror manfaatni ko'zlab maqtanishini ochib berish uchun qo'llangan. Chunki maqtanish aynan bola tomonidan bo'lsa, beg'uborlik, samimiylik, bajarilgan ishga ta'kid kutmaslikni ifodalaydi. Yozuvchi katta kishilarning ko'pirtirib maqtanishida qilgan ishidan g'ururlanish, boshqalarning ta'kidlashini xohlash, manfaat ma'nosini ifodalagan.

Ko'rinib turibdiki, yozuvchi *bola* bilan bog'liq o'xshatishlarni juda o'rinli qo'llagan. Muallif bunday o'xshatishlarni shunchaki qo'llamaydi, balki insonni aynan bola holiga solib qo'ygan vaziyatlarni tanlaydi. Masalan, yozuvchi inson psixologiyasidagi yoshga nisbatan to'g'ri kelmaydigan, o'zi sezmaganda tuyg'ularini ochiq namoyon qiladigan o'rinlardagina *bola* etalonidan foydalangan.

Chuqurroq nazar tashlansa, o'xshatishlar ham so'zlayotgandek, o'zi ifodalayotgan shaxs, narsa, voqea-hodisa haqida hikoya qilayotganga o'xshaydi. O'xshatishlarni tahlil qilar ekanmiz, duch kelgan predmet yoki holatni o'xshatib bo'lmaydi degan xulosaga keldik. Sababi u orqali qahramon yoki voqea aniqroq, kengroq tasavvur qilinadi. Shuni



ta'kidlab aytish o'rinliki, yozuvchi o'xshatilayotgan narsa, voqea-hodisa, shaxs – barchasining belgisi, xususiyati, aynan o'xshayotgan nuqtasini yaxshi anglashi va kuzatgan bo'lishi shart. Tahlilga tortilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'xshatishlar o'rinli qo'llanilgan. Nutqimizdagi turg'un o'xshatishlar ham, erkin o'xshatishlar ham o'zbek xalqining zukko, so'zamol, tasavvurga boy xalq ekanligini ko'rsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 44 б.
2. Маҳмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўқшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-жилд. – 671 б.
4. Tohir Malik. Shaytanat. I kitob – Toshkent: Sharq, 2013. – 384 б.
5. Tohir Malik. Shaytanat. IV kitob – Toshkent: Sharq, 2013. – 482 б.
6. Tohir Malik. Shaytanat. III kitob – Toshkent: Sharq, 2013. – 384 б.

ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАР ҲУСУСИДА

Наширова Шахноза Буриевна
Қарши давлат университети катта ўқитувчиси
nashirovashahnoza@gmail.com

Аннотация: Терминологик тизимларнинг ривожланиши, лингвистик ва эксталингвистик омиллар таъсири остида содир бўлади. Терминологлар терминологик тизимларни тавсифлашнинг умумий схемасини ишлаб чиқишга ҳаракат қилишди. Ҳар бир терминологик тизимнинг шаклланиши, ривожланиши, айти шу соҳанинг таркиб топиб, тараққий эта бориши билан узвий боғлиқ бўлиб, соҳавий жиҳатдан ўзига хослик касб этади.

Калит сўзлар: термин, терминология, тизим, илмий тадқиқот.

THE RESEARCHES ON THE SYSTEM OF TERMS

Nashirova Shahnoza Burievna
Senior Lecturer, Karshi state university
nashirovashahnoza@gmail.com

Annotation: The development of terminological systems occurs under the influence of linguistic and extalingvistic factors. Terminologists have tried to develop a general scheme for describing terminological systems. The formation and development of each terminological system is inextricably linked with the formation and development of the same field, and acquires a sectoral specificity.

Keywords: terminology, terminology, system, scientific research.

ИССЛЕДОВАНИЯ ПО СИСТЕМЕ ТЕРМИНОВ

Наширова Шахноза Буриевна
Старший преподаватель Каршинского государственного университета



nashirovashahnoza@gmail.com

Аннотация: Развитие терминологических систем происходит под влиянием языковых и экстралингвистических факторов. Терминологи попытались разработать общую схему описания терминологических систем. Становление и развитие каждой терминологической системы неразрывно связано со становлением и развитием одной и той же области, приобретает отраслевую специфику.

Ключевые слова: терминология, терминология, система, научное исследование.

Терминологиянинг асосий бирлиги – бу терминдир. Г.Г. Хакимова терминга қуйидаги изоҳни келтиради: “термин – бу ихтисослашган ва профессионал концепцияни номлашнинг махсус функциясини бажарадиган, уни тил тизимидаги бошқа лингвистик бирликлардан ажратиш имконини берадиган махсус лингвистик бирликдир” [1, 1136-1142].

Термин ва терминологиянинг энг муҳим хусусиятларидан бири бу изчилликдир ва терминологик бирликларни ўрганиш улар киритилган тизим доирасида амалга оширилиши керак. «Термин» лотинча «terminus» сўздан келиб чиққан бўлиб «охири», «чегара», «туташ» деган маъноларни билдиради [2, 503]. О.С. Ахманова терминни “махсус тушунчаларни аниқ ифодалаш ва махсус объектларни белгилаш учун яратилган (қабул қилинган, ўзлашган ва ҳоказо) махсус (илмий, техник ва бошқалар) тилнинг сўз ёки ибораси” деб таърифлайди [3, 607]. “Термин” лотинча “terminus” - чегара, ҳад - деган маъноларни англатиб, у билим ёки фаолиятнинг махсус соҳасига доир тушунчани ифодаловчи сўз ёки сўз бирикмасидир. Ҳозирги кунда «Термин» сўзи билан бир қаторда «атама», «истилоҳ» сўзлари ҳам айни маънода қўлланмоқда. Лекин улар «термин» сўзининг тўлиқ маъносини ифода эта олмайди. «Термин» сўзи кенг маънода қўлланилиб, географик объектлар, атоқли номларга нисбатан қўлланилса, «истилоҳ» сўзини эса «термин» маъносида асосан тарихий мавзулардаги матнлар (масалан: адабиёт тарихи, Шарқ фалсафаси ва б.) да бемалол қўллаш мумкин [4, 396]”.

Yoshlar xorij davlatlardagi nufuzli oily o'quv yurtlarda ta'lim olishlari, chet-el o'qitish tizimini o'rganishlari uchun "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etilib, yoshlarni xorij davlatlarida ta'lim olishni davom ettirishlari uchun davlat tomonidan mablag'lar ajratildi va ularning miqdori besh barobarga oshirildi. 2021-yilda 100 nafar yoshlar xorijda ta'lim olishlari uchun yuborilishi ko'zda tutilmoqda. Barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirish sifatini oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, fizika fani va chet tillari bo'yicha uzluksiz ta'lim sifati va natijadorligini oshirish bo'yicha o'qitish metodikasini qayta ko'rib chiqish, amaliy va innovatsion loyihalar tanlovlarini tashkillashtirish, elektron darslik va o'quv kurslarini yaratish, xorijiy tillarni o'rganish uchun kengroq imkoniyat yaratish maqsadida bepul til o'rganish elektron platformalari yaratilmoqda, ixtisoslashgan maktab faoliyatini bosqichma bosqich yo'lga qo'yish, ularni oliy ta'lim tashkilotlari hamda ishlab chiqarish korxonalarini bilan o'zaro bog'lash va xorijiy mamlakatlardan o'qituvchilar jalb etiladi. Mamlakatimiz aholisining 64 % ini yoshlar tashkil etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng yoshlarga oid davlat siyosati masalalari, hujjatlar, qarorlar qabul qilindi. Misol uchun, 1991-yil 20-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslar to'g'risida" gi qonun qabul qilingan edi. Bundan tashqari, yana ko'plab qarorlar imzolandi.

12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 24-avgustda ma'qullangan va 2016-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonun imzolandi. Bundan ko'zlangan maqsad, yoshlarning vakolatlari, imkoniyatlari va majburiyatlari belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari yoshlarning jamiyatda tutgan o'rnini, kuchli ijtimoiy himoya qilish, ommaviy axborotlardan samarali foydalanish, ularni



rag'batlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun PF-6017-son qarorida O'zbekistonda 30-iyun "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Turli sohalarida yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag'batlantirib borish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'asis etildi. Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlarni bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirildi.

1-tashabbus: Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va sanatning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

2-tashabbus: Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasidagi qobiliyatini nomoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

3-tashabbus: Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

4-tashabbus: Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

5-tashabbus: Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Bundan asosiy maqsad iqtidorli yoshlarning iste'dodlarini nomoyon qilish, ularning bandligini ta'minlash, ijtimoiy sohalarida qo'llab-quvvatlash, vatan ravnaqiga munosib hissalarini qo'shish uchun barcha sharoitlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda hududlar kesimida ishsiz yoshlar ro'yxatini shakllantirish ham ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan manzili, shu jumladan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilmogda, "Fidoyi yoshlar ortyadlari" ni tuzish orqali ishsiz yoshlarni haq to'lanadigan jamoat va mavsumiy ishlarga jalb qilinadi. "Yoshlar qurilish o'triyadlari" ni tashkil etish va oliy ta'lim muassasalari talabalarini yozgi ta'til vaqtida haq to'lanadigan qurilish ishlariga jalb qilinadi. 2021-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar- kelajagimiz" jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish, ajratilgan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya va subsidiyalar berish tartibini bekor qilinadi, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan quvvatlash yosh tadbirkorlar biznes loyihalari uchun ajratilgan mablag' miqdori 2 milliard so'mdan, foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmaydigan tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlari bo'yicha foiz stvkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, biroq 10 foiz punktidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun kompensatsiya to'lanadi. Bundan ko'zlangan maqsad, yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, huquqbuzarlikni oldini olish, kelajakimiz poydevorini mustahkamlashdir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar natijasida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamalakatimizda yoshlar uchun juda ko'p shart-sharoitlar yaratilmogda. Ular zamonaviy ta'lim olishlari, oliy ma'lumotli kadrlar bo'lib yetishishlari uchun davlat siyosiy da sturlari



yaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari uchun grantlar sonini yanada oshirish, kontraktlar miqdorini arzonlashtirish, ligotalar sonini oshirish, yoshlarni Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini birmuncha osonlashtiradigan test sinovlari bo'lishi va qabul sonlarini yanada ko'paytirilishi, so'ngra Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasi o'zgartirilib ichki imtihonlar asosida saralab olishlari lozim. Fikrimizcha, yuqorida aytilgan faktlar asosida haqiqiy kadrlar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmoni: www.lex.uz/docs/-4880189
2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5234746>
3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori: <https://lex.uz/acts/-4993790>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3864155>



13.00.00

ПЕДАГОГИКА ФАҲЛАРИ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

THE IMPORTANCE OF TEACHING READING SKILLS TO THE STUDENTS
OF HIGHER EDUCATIONS

Kadirova Firuza Rustamovna

Department of English Samarkand State University Samarkand, Uzbekistan

firuza.kadirova.2020@mail.ru

Abstract: While teaching a foreign language to students, reading skills has great impact along with other skills such as listening, speaking and writing. Reading is about understanding written texts. It is a complex activity that involves both perception and thought. Readers typically make use of background knowledge, vocabulary, grammatical knowledge, experience with text and other strategies to help them understand written text. Through reading in a foreign language, the student enriches his knowledge, of the world around him/her. He/She gets acquainted with the countries where the target language is spoken. Reading develops students' intelligence. It helps to develop their memory, will, imagination.

Generally, it has been observed that many teachers don't develop this skill in the students in the right way, and even provide little time for it. It is, therefore, necessary to work to know about reading skills and to incorporate them in teaching practices.

Key words: skills, reading, integrated skills, importance, communication and reading comprehension.

ОБУЧЕНИЕ НАВЫКАМ ЧТЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Кадырова Фируза Рустамовна

Кафедра английского языка Самаркандский государственный университет

Аннотация: При обучении студентов иностранному языку навыки чтения имеют большое значение наряду с другими навыками, такими как аудирование, говорение и письмо. Чтение - это понимание письменных текстов. Это сложная деятельность, включающая как восприятие, так и мышление. Читатели обычно используют базовые знания, словарный запас, грамматические знания, опыт работы с текстом и другие стратегии, чтобы помочь им понять письменный текст. Читая на иностранном языке, ученик обогащает свои знания об окружающем мире. Он / она знакомится со странами, в которых говорят на изучаемом языке. Чтение развивает интеллект студентов. Помогает развивать память, волю, воображение.

Как правило, было замечено, что многие учителя не развивают этот навык у учеников должным образом и даже уделяют ему мало времени. Следовательно, необходимо работать, чтобы знать о навыках чтения и использовать их в учебной практике.

Ключевые слова: навыки, чтение, интегрированные навыки, важность, общение и понимание прочитанного.



OLIV O'QUV YURLARI TALABALARIGA O'QISH QOBILIYATLARINI O'RGATISH

Qodirova Firuza Rustamovna

Samarqand davlat universiteti ingliz tili kafedrası Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. O'quvchilarga chet tilini o'rgatish paytida o'qish qobiliyatlari tinglash, gapirish va yozish kabi boshqa ko'nikmalar bilan bir qatorda katta ta'sir ko'rsatadi. O'qish yozma matnlarni tushunishdir. Bu idrokni ham, fikrlashni ham o'z ichiga olgan murakkab faoliyatdir. O'quvchilar odatda yozma matnni tushunishda yordam beradigan ma'lumot, so'z boyligi, grammatik bilim, matn bilan ishlash tajribasi va boshqa strategiyalardan foydalanadilar. Chet tilida o'qish orqali talaba o'z bilimlarini, atrofidagi olamni boyitadi. U maqsadli tilda gaplashadigan mamlakatlar bilan tanishadi. O'qish o'quvchilarning aql-idrokini rivojlantiradi. Bu ularning xotirasini, irodasini, tasavvurlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Odatda, ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarda ushbu mahoratni to'g'ri shakllantirmayotgani va hattoki unga oz vaqt ajratayotgani kuzatilgan. Shu sababli, o'qish qobiliyatlari haqida bilish va ularni o'qitish amaliyotiga kiritish uchun ishlash kerak.

Kalit so'zlar: ko'nikmalar, o'qish, integral ko'nikmalar, ahamiyat, aloqa va o'qishni tushunish.

Learning and teaching second language especially English has dramatically increased in the last few decades. There are several reasons for increasing International demand for learning and teaching English. English is the most widely used and spoken language around the world. Around one out of 5 people can speak or understand some form of English. Today, English is the official language of 57 countries around the world. English is the language used in business, science, and technology. Learning English increases the chances of its users to get better jobs, participate in discussions, and improve your networking skills. English helps in increasing the educational opportunities for its learners. English enables it's users to join international schools around the world and become better educated. It, further, provides access to numerous English resources and increases the knowledge. Learning English helps in understanding different cultures, communicating with people from all over the world, and for observing habits that are different from among the people of the world. [5]

The use of English in the world can be seen at three different geographical regions. The first is the variety of English that is spoken as a native language in countries like UK, USA, Canada, Australia, New Zealand and South Africa. The second is the use of English as a Second language in countries like India, Singapore, Nigeria etc. The third is the use of English as a Foreign Language in countries like Russia, China, Japan, South Korea, Uzbekistan etc.

The role and influence of English in today are gaining a higher speed in Uzbekistan too. There are many factors for this phenomenon, one of the main reasons is that as it is mentioned above; English is the third most common spoken language in the world. Another importance of learning and teaching English is that Uzbekistan after gaining its independence, expanded communication with the world. Uzbeks realize that English is



necessary for pursuing international education, attaining a good career and keeping up with the rapid pace of world changes. Therefore, English language is seen as the key to successful and prosperous life.

Many laws and decrees have been signed to improve foreign languages in the country. One of them is resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages" (PP-1875). The document was adopted to improve teaching foreign languages, training specialists with good language skills, introducing advanced technologies into education system, etc. According to the decree English among other foreign languages gradually throughout the country is taught from the first year of schooling in the form of lesson-game and speaking-games, continuing to learning the alphabet, reading and spelling in the second year. [6]

Starting from the lowest levels of school, young Uzbeks are now taught the English language and many universities in the capital teach in the English language or have significant English-language departments.

To improve students' L2 skills, English is taught from kindergartens till the students graduate from Higher Educations in Uzbekistan. In a 3-year kindergarten period children learn elementary English words through plays. In elementary school which lasts 4 years pupils are taught A1 level. A2 level is taught in secondary school where pupils study 7 years and at 3-year academic lyceums or vocational colleges where students enter after a 9-year education from schools. Students at Institutes and Universities study B1 and B2 levels in bachelor course and C1 in magistrature. Besides that, there are many language centers where people can study L2 and prepare for IELTS, TOEFL and CEFR exams.

In nontraditional way of teaching, four skills: reading, writing, listening and speaking, as well as grammar, vocabulary and pronunciation need to be taught. In the process of teaching and learning English as a L2, reading is one of the most important and challenging skills that students must obtain. [2]

Reading is necessary and arduous skill that takes much effort and time to learn. However, through reading skills students can learn other skills effectively, since from a written text, students not only read words and get information, but also they can learn massive contextual vocabulary, structure of sentences, form of words and other grammar rules that can be proper examples for them. Reading is basic for other skills such as: listening, writing and speaking. [4]

Reading is not just reading words but it is decoding of written words. Readers must decipher what are written by a writer and comprehend the meaning of the messages. As Dechant (1991) states firmly that reading is about meaning and comprehension of meaning. As she says "comprehension is the goal and purpose of reading. Without it there is no reading" (p. 9). By this, it should be clear that reading is not only recognizing printed symbols, but it is a development of understanding of the words that the writer intends to transmit. The most essential part of reading process is comprehension of what is read. However, reading comprehension especially in L2 is much complex and consists of many process such as knowledge of grammar, the ability to identify the main idea of a text, an awareness of discourse structure and using reading strategies with more difficult texts.



These reasons make reading skills most important among other skills and teachers must develop students reading comprehension in priority. [3]

In conclusion, teaching a foreign language to students reading skills has great impact as other skills such as listening, speaking and writing. Reading is about understanding written texts. It is a complex activity that involves both perception and thought. Readers typically make use of background knowledge, vocabulary, grammatical knowledge, experience with text and other strategies to help them understand written text.

References:

1. Dechant, E. (1991). Understanding and teaching reading: An Interactive Model. Hillsdale, New Jersey: Laurence Erlbaum Association.
2. Grabe, W., & Stoller, F. (2002). Teaching and researching reading. New York, NY: Longman.
3. Goodman, Kenneth S. "Reading: A Psycholinguistic Guessing Game". *Journal of the Reading Specialist* 6.4 (1967): 126-135. Print.
4. Kamhi, A. & Catts, H. (2008). The language basis of reading: Implications of classification and treatment of children with reading disabilities. In Bulter, K.& Silliman, E. (Eds.) Speaking, Reading, and Writing in Children with Language and Learning Disabilities: New Paradigms in Research and Practice.
5. <https://www.british-study.com/>
6. <https://www.uzedu.uz/en/ozbekiston-respublikasi>

O'QUVCHILARGA ROBOTOTEXNIK QURILMALARNI YASASH VA DASTURLASHNI O'RGATISH YO'LLARI

A.X.Abdullaev, Sh.F.Rivojiddinov NamDU fizika yo'nalishi talabalari, ilmiy rahbari p.f.n., dotsent I.O.Zaxidov

Annotasiya: ushbu maqolada o'quvchilar uchun hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan robototexnika va uning elementlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish uchun robototexnik qurilmalarni dasturlashda Arduino platasidan foydalanib mashqlar qilish yo'llaridan biri ko'rsatib berilgan. Motivatsiya uchun mashqlar yo'nalishi tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: robototexnik qurilmalar, robototexnika, Arduino, to'siqlardan qochish qurilmasi va uni yig'ish, kompyuter, dasturlash, kunning dolzarb talabi.

СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ УЧЕНИКОВ ИЗГОТОВЛЯТЬ РОБОТОТЕХНИЧЕСКИЕ УСТРОЙСТВА И ПРОГРАММИРОВАНИЮ

Аннотация: в этой статье показан один из способов использования платы Arduino при программировании робототехнических устройств, чтобы направить студентов в их интерес к изучению робототехники и ее элементов, актуальных в настоящее время. Для мотивации рекомендуются направления упражнений



Ключевые слова: робототехнические устройство, робототехника, Arduino, устройство обхода препятствий и его сборка, компьютер, программирование, современные требования дня.

METHODS FOR TRAINING STUDENTS TO MAKE ROBOTIC DEVICES AND PROGRAMMING

***Abstract:** This article shows one way of using the Arduino board when programming robotic devices to guide students in their interest in learning about robotics and its current elements. Exercise directions are recommended for motivation*

***Keywords:** robotic device, robotics, Arduino, obstacle avoidance device and its assembly, computer, programming, modern requirements of the day.*

Mamlakatimizda kompyuter texnologiyasini o'rganishga oid darslik va qo'llanmalar istagancha topiladi. Biroq robototexnika fanini o'rganish hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Holbuki, robototexnikani o'zlashtirmasdan dunyo taraqqiyotiga qo'shilib, uning yutuqlariga erishib bo'lmaydi. Shu boisdan ham umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida robototexnika alohida dars sifatida o'qitilishi zamon talabiga aylanib ulgurdi.

Robototexnik qurilmalarni yig'ish bilan birga ularni dasturlash masalasi ham ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Odatda robototexnik qurilmalarga dasturlar Arduino platasi yordamida yoziladi.

Arduino - bu o'ziga xos protsessor va xotiraga ega bo'lgan kichik plata bo'lib, professional bo'lmagan foydalanuvchilarga mo'ljallangan oddiy avtomatlashtirish va robototexnika tizimlarini yaratish uchun mo'ljallangan asbob va dasturiy ta'minot brendidir [1].

Dasturiy ta'minot qismi dasturlarni yozish, kompilyatsiya qilish va dasturiy ta'minot uchun bepul dasturiy qobiqdan iborat. Uskuna qismi rasmiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotiladigan oldindan yig'ilgan bosma elektron platalar to'plamidir. To'liq ochiq tizim arxitekturasi sizga Arduino mahsulotlar qatoriga bemaol nusxa ko'chirish yoki qo'shish imkoniyatini beradi.

Arduinodan avtomatlashtirilgan ob'ektlarni yaratish yoki standart simli va simsiz interfeyslar orqali kompyuterda dasturiy ta'minotga ulanish uchun foydalanish mumkin.

Robototexnik qurilmalarga quyidagi mikrokontrollerlarni misol qilishimiz mumkin: Arduino platalari, Father simlari, Breadboard taxtasi, PIR datchiklar, Svetodiodlar, Fotodiodlar, Sensor datchiklar va boshqalar. Arduino IDE ga yozilgan kodlar sketch deb ataladi. Arduinoga sketch yozish uchun uni kompyuterga Arduino USB orqali bog'lab olish kerak. Sketchlar orqali biz Arduino platalariga dasturlar yozib qurilmalar vazifalarini kiritishimiz mumkin.

Robotlar kelajakning ko'zga ko'ringan suniy intellektlaridan biri sanaladi. Shu asosida o'zini o'zi muvozanatlaydigan bir qancha loyihalar yaratilgan. Bu esa robototexnikaning shiddat bilan rivojlanayotganiga bir misoldir. Robototexnika - har qanday bola uchun eng yangi va istiqbolli mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi [2].

Hozirgi kunda dunyo juda rivojlanib bormoqda. Bizning yurtimiz ham chet el mamlakatlari texnika, ishlab chiqarish va boshqa ko'plab sohalarda jadal rivojlanmoqda. Texnikaning rivoji iqtisod va boshqa ko'plab sohalarni tubdan o'zgartirib yuborishiga shak - shubha yo'q. Bunday rivojlanishdagi yo'nalishga robototexnikani misol keltirish mumkin.

Robototexnika bugungi kunda eng ommalashgan va eng rivojlanib borayotgan sohadir. Juda ko'pchilik bu sohani eshitganida faqat robot yasashni tushunadi. Aslida robot o'zi nima va u aynan gapiradigan va harakatlanadigan bir jism bo'lishi kerakmi? Yo'q, aslida robot bu insonning og'irini yengil qiladigan, inson qilolmaydigan ishlarni qila oladigan, turli xil ko'rinishdagi sxemalar, datchiklar va ko'plab qurilmalardan iborat sistemalar to'plamiga aytiladi. Inson qilolmaydigan ishlar nima? Bular masalan zavodlarda biror nimani juda aniqlikda o'lchash, uni aynan bir temperaturada qizdirish, biron-bir shakl berishdir. Bunday ishlarda insonlar robotlar ko'magiga albatta ehtiyoj sezadilar. Robototexnika shunday murakkab ishlarni bajara oladigan turli robotlar va shunga o'xshash turli qurilmalar yasashdan iborat sohadir. O'quvchilarga ham shu yo'nalishda sinfdan tashqari ishlarda tashkil etilishini tavsiya etamiz. Bunday ishlarda turli xil oddiy avtomatika va robototexnika tizimlarini qurish asboblari va dasturiy vositalaridan foydalanish katta yordam beradi. Masalan, ishni foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotlarni o'rganish va turli platalarni yig'ish va dasturlashdan boshlash kerak deb hisoblaymiz. Bunda biz Arduino Uno - Atmega 328 mikrokontrolleri asosida ishlangan qurilmalardan foydalandik va unda mikrokontroller bilan ishlash uchun zarur tarkibiy qismlar mavjud, ya'ni: 14 ta raqamli kirish-chiqish portlari; ulardan 6 tasi KIM (keng impulsli modulyatsiya)-chiqish porti sifatida ishlatilishi mumkin; 6 ta analogli kirish porti; 16 MGts li kvartslı rezonator; USB interfeys; elektr manbaga ulash porti; ichki sxemalarni dasturlash uchun ulash (ICSP); qayta yuklash tugmasi [3].

Qurilma bilan ishlashdan oldin uni AC/DC-adaptteri yoki batareyka manbasiga yoki USB-kabel orqali kompyuterga ulash zarur. Tavsiya etayotgan qurilma quyidagi tartibda yig'iladi.

1-rasm. To'siqlardan qochish roboti sxemasi.




To'siqlardan qochish robotini yasash uchun kerakli qurilmalar: 1ta Motor shield, 4 ta DC Motor, 4 ta Balon, 1 ta ultrasonik, 1ta Servo Motor, 1 ta arduino uno, Fomeks, ulovchin simlar, 2 ta Li-on batareya.

Qurilmaning yig'ish tartibi:

1. Kerakli qurilmalarni ishchi stolga qo'yamiz.
2. Fomeks orqa robotni korpusini yasaymiz.
3. Arduinoga Motor shieldni ulaymiz.
4. Motor shieldga 3-rasmdagidek: 4 ta DC Motorni, Ultrasonikni, 4 ta Balonni, Servo Motorni, 2 ta Li-on batereyalarni ulaymiz.

2-rasm. To'siqlardan qochish roboti.



Shundan so'ng Arduinoni USB orqali kompyuterga ulaymiz va quyidagi dasturni yuklaymiz. U quyidagicha:

```
//ARDUINO OBSTACLE AVOIDING
CAR//
// Before uploading the code you have to
install the necessary library//
//AFMotor Library
https://learn.adafruit.com/adafruit-motor-
shield/library-install //
//NewPing Library
https://github.com/livetronic/Arduino-
NewPing//
//Servo Library https://github.com/arduino-
libraries/Servo.git //
// To Install the libraries go to sketch >>
Include Library >> Add .ZIP File >> Select
the Downloaded ZIP files From the Above
links //
```

```
#include <AFMotor.h>
#include <NewPing.h>
#include <Servo.h>

#define TRIG_PIN A0
#define ECHO_PIN A1
#define MAX_DISTANCE 200
```

```
#define MAX_SPEED 190 // sets speed of
DC motors
#define MAX_SPEED_OFFSET 20
NewPing sonar(TRIG_PIN, ECHO_PIN,
MAX_DISTANCE);
AF_DCMotor motor1(1, MOTOR12_1KHZ);
AF_DCMotor motor2(2, MOTOR12_1KHZ);
AF_DCMotor motor3(3, MOTOR34_1KHZ);

AF_DCMotor motor4(4, MOTOR34_1KHZ);
Servo myservo;

boolean goesForward=false;
int distance = 100;
int speedSet = 0;

void setup() {

myservo.attach(10);
myservo.write(115);
delay(2000);
distance = readPing();
delay(100);
distance = readPing();
delay(100);
distance = readPing();
```



```
    delay(100);
    distance = readPing();
    delay(100);
}

void loop() {
    int distanceR = 0;
    int distanceL = 0;
    delay(40);

    if(distance<=15)
    {
        moveStop();
        delay(100);
        moveBackward();
        delay(300);
        moveStop();
        delay(200);
        distanceR = lookRight();
        delay(200);
        distanceL = lookLeft();
        delay(200);

        if(distanceR>=distanceL)
        {
            turnRight();
            moveStop();
        }else
        {
            turnLeft();
            moveStop();
        }
    }else
    {
        moveForward();
    }
    distance = readPing();
}

int lookRight()
{
    myservo.write(50);
    delay(500);
    int distance = readPing();
    delay(100);
    myservo.write(115);
    return distance;
}

int lookLeft()
{
    myservo.write(170);
    delay(500);
    int distance = readPing();
    delay(100);
    myservo.write(115);
    return distance;
    delay(100);
}

int readPing() {
    delay(70);
    int cm = sonar.ping_cm();
    if(cm==0)
    {
        cm = 250;
    }
    return cm;
}

void moveStop() {
    motor1.run(RELEASE);
    motor2.run(RELEASE);
    motor3.run(RELEASE);
    motor4.run(RELEASE);
}

void moveForward() {
    if(!goesForward)
    {
        goesForward=true;
        motor1.run(FORWARD);
        motor2.run(FORWARD);
        motor3.run(FORWARD);
        motor4.run(FORWARD);
        for (speedSet = 0; speedSet <
MAX_SPEED; speedSet +=2) // slowly bring
the speed up to avoid loading down the
batteries too quickly
        {
            motor1.setSpeed(speedSet);
            motor2.setSpeed(speedSet);
            motor3.setSpeed(speedSet);
            motor4.setSpeed(speedSet);
            delay(5);
        }
    }
}
```

```

}
}
void moveBackward() {
  goesForward=false;
  motor1.run(BACKWARD);
  motor2.run(BACKWARD);
  motor3.run(BACKWARD);
  motor4.run(BACKWARD);
  for (speedSet = 0; speedSet < MAX_SPEED;
speedSet +=2) // slowly bring the speed up
to avoid loading down the batteries too
quickly
  {
    motor1.setSpeed(speedSet);
    motor2.setSpeed(speedSet);
    motor3.setSpeed(speedSet);
    motor4.setSpeed(speedSet);
    delay(5);
  }
}
void turnRight() {
  motor1.run(FORWARD);
  motor2.run(FORWARD);
  motor3.run(BACKWARD);
  motor4.run(BACKWARD);
  delay(500);
  motor1.run(FORWARD);
  motor2.run(FORWARD);
  motor3.run(FORWARD);
  motor4.run(FORWARD);
}
void turnLeft() {
  motor1.run(BACKWARD);
  motor2.run(BACKWARD);
  motor3.run(FORWARD);
  motor4.run(FORWARD);
  delay(500);
  motor1.run(FORWARD);
  motor2.run(FORWARD);
  motor3.run(FORWARD);
  motor4.run(FORWARD);
}
}

```

3-rasmdagidek dasturlash ustunini yopamiz. To'siqlardan qochish roboti kodlarni Arduino dasturiga kiritib bo'lingan bo'ladi, so'ng kompyuter ekrani quyidagi ko'rinishga keladi. → tugmasini bosiladi va yig'ilgan sxema ishchi holatga keladi.

3-rasm. Dasturni Arduinoga yuklashning ko'rinishi.

Qurilmalarni korpusga joylaymiz va uning ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin:



Bu qurilmadan foydalanish yo'nalishlarini ham tavsiya etish mumkin:

1. Avtomobillar uchun to'siqlarga (boshqa avtomobillarga) urilib ketishdan saqlovchi qurilma sifatida foydalanish.
2. Pochtachi robotlar.

3. Ishlab chiqarish korxonalarini omboridan sexlarga tovar olib chiquvchi robot.
4. Ishlab chiqarish sexlarida tayyor mollarni konveyrdan oluvchi yoki omborlarga olib boruvchi robotlar va boshqalar.

Kompyuter va robototexnikalar tufayli har kuni kashfiyotlar amalga oshirilib, o'zgarishlar yuz berayotir. Yoshlarning mazkur jarayonga muvaffaqiyatli kirib borishi va faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir.

Hozirga kelib respublika bo'ylab qo'pgina shaharlarda robototexnika va elektronika bo'yicha o'quv kurslari va markazlar tashkil etilgan. O'sib kelayotgan avlod orasida ham bu sohaga qiziqadiganlar ko'pligiga ishonchimiz komil. Faqat ularning iste'dodini o'z vaqtida payqab, to'g'ri yo'nalish berilsa bo'lgani. Bunga erishish va O'zbekistonda ham robototexnikaning rivojlanishi uchun ularga maktab davridanoq e'tibor qaratish kerak.

Robototexnik qurilmalarni yig'ish bilan birga ularni dasturlash masalasini o'quvchilarga singdirib borishda fizika fanining o'rni katta. Shuning uchun mashg'ulotlarni dasturiy ta'minotlardan foydalanib tashkil etish va o'tish [4], ularga elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar uchun guvohnomalar [5], [6] olinishi ham maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A., Rivojiddinov Sh., I.O.Zoxidov. Fizikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy yo'nalishlari. Namangan davlat universiteti Ilmiy Axborotnomasi - 2021. 11-son, 559-565b.

1. Xalmetova M. X., Sobirova S. R., Sultanov R. O. Robototexnika sohasini maktablarda joriy qilish samaradorligi SCIENTIFIC PROGRESS. Scientific Journal ISSN: 2181-1601 Volume:1, ISSUE: 5 pp:14-17.

2. https://lh3.googleusercontent.com/proxy/fjoVO8trN9g9GYJ9dIkdsBKse_BEegjpyzezJf9jOrxPRBbDf8vSKfw150ZH27UXm0ScYYVMn7MuIKIuEMr-vyt-mjTdLC1j_Ujh5JwS3GXIOOwEmaJgAgCZqw.

4. A.O.Умаров, М.М.Мадрахимов, И.О.Захидов, М.А.Мирзаева. 8 - синф физика курсининг "Электр қаршилиги" мавзусига "C++" дастурини қўлаб ўқиғиш The journal of academic research in educational sciences/ ISSN 2181-1385 Volume 2, ISSUE 6 June 2021. Scientific Journal Impact Faktor (SJIF) 2021:5,723.

5. A.O.Umarov, I.O.Zoxidov, Q.X.Axunov, I.A.Jo'raev. Fizika kursida "O'tkazgichning solishtirma qarshiligini aniqlash" dasturi. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur. O'zb.Res. adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi. Guvohnoma № DGU 11278. 19.04.2021y.

6. A.O.Umarov, I.O.Zoxidov, Q.X.Axunov, I.A.Jo'raev, M.M.Madraximov. "Konturning elektromagnit tebranishlar davrini aniqlash" dasturi. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur. O'zb.Res. adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi. Guvohnoma № DGU 2021 2346. 26.07.2021y.



**BOSHLANG`ICH SINIF “ONA TILI” VA “O`QISH” DARSLARIDA
O`QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK
MUAMMO SIFATIDA.**

Akbarova Ominaxon Murtazali qizi

Namangan davlat universiteti

Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang`ich ta`lim) mutaxassisligi 2-bosqich
magistri

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda o`quvchilarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda ona tili va o`qish darslarining ahamiyati haqida fikr bildirilgan bo`lib, ona tili va o`qish savodxonligi kreativ fikrlash qobiliyatining samarali rivojlantirilishi uchun poydevor vazifasini bajarishi ilmiy-metodologik jihatdan asoslab berilgan.*

***Kalit so`zlar:** ona tili, o`qish savodxonligi, kreativ fikrlash, “kichik kreativlik”, intellekt, ongli o`qish, til.*

**РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССОВ НА УРОКАХ “РОДНОГО ЯЗЫКА” И “ЧТЕНИЯ” В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ –
КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА.**

Акбарова Оминахон Муртазали кызы

Наманганский государственный университет

Степень магистра теории и методики обучения (начальное образование) Уровень 2

***Аннотация:** В статье обсуждается важность родного языка и уроков чтения в развитии творческих способностей учащихся начальной школы, а также дается научное и методическое обоснование роли родного языка и грамотности чтения в эффективном развитии творческого мышления.*

***Ключевые слова:** родной язык, грамотность чтения, творческое мышление, «малое творчество», интеллект, осознанное чтение, язык.*

**DEVELOPING PUPILS' CREATIVE ABILITIES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM IN
PRIMARY SCHOOL "MOTHER TONGUE" AND "READING" CLASSES**

Akbarova Ominaxon Murtazali qizi

Namangan State University

Master`s degree in Theory and Methods of Education (Primary Education) Level 2

***Annotation:** This article discusses the importance of mother tongue and reading lessons in the development of students' creative abilities in primary school, and provides a scientific and methodological basis for the role of mother tongue and reading literacy in the effective development of creative thinking.*

***Keywords:** native language, reading literacy, creative thinking, "small creativity", intellect, conscious reading, language.*

Dono xalqimizda “Yoshlikda olingan bilim toshga o`yilgan naqsh kabidir”, degan hikmatli gap bor. O`quvchilarda kreativlik, kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishni boshlang`ich sinfdanoq yo`lga qo`yish maqsadga muvofiq. Bunda boshlang`ich ta`limdagi barcha fanlarning o`rni beqiyos.

Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar bir-biri bilan til va nutq vositasida muloqot qiladi. Til borliqni bilish vositasidir. Til birliklari yordamida borliqni o'rganish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi. Fikrlash jarayoni, tafakkur qilish faoliyati, boshqalar bilan muloqotga kirisha olish ko'nikmasi nutq jarayonida yuzaga keladi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham rivojlanib boradi. Kishining erkin fikrlay olishi, o'z fikrini bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotga kirisha olishi hamda o'z fikrini yozma tarzda ifodalay olishi uning butun hayoti davomida kerak bo'ladigan, kelgusidagi yutuqlarini ta'minlab beradigan muhim omillardan biri bo'lgan ona tili va o'qish savodxonligi darajasini belgilab beradi.

"Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir“, – deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikma-malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.”[1;16]

Biz ona tilini ko'pincha leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi fan sifatida tushunamiz. Shu bilan birga ona tili o'quvchining nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzuni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır. Bundan tashqari til dalillari ustida olib borilgan tizimli ishlar o'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun, turli shaklda berilgan ma'lumotlarni o'qib tushunishi uchun zamin hozirlaydi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlanib boradi.

Ona tilidan grammatik qoidalarni suv qilib ichib yuborgan bilan erkin mavzuda matn yoki insho yarata olmasa, aqalli 4-5 odam oldida o'z fikrini erkin bayon eta olmasa, biror kitobni o'qir ekan, undagi mazmunni anglay olmasa o'rganilganlari foydasiz.

O'qish fani o'quvchilarda og'zaki nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri, ifodali, tez, ongli o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati shakllantiradi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim

standartida va Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3 iyundagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4-sinflari uchun o'qish fani bo'yicha malaka talablari belgilangan bo'lib:

O'qish fanini o'qitish orqali o'quvchida:

- to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish;
- mutolaaga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish;

- o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish;

- axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o'stirish;

- tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish;

- o'quvchining fikrlashini o'stirish ko'zda tutiladi.

O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning hal etilishi darsda faqat badiiy asar matni ustida ishlash bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchini o'qishga o'rgatishda hayot bilan bog'lagan holda, ularning tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslari bolalarda go'zallik manbaiga aylanishi, poklik, insoniy tuyg'ular, sifatlarning tarbiyachisi, yuksak did, nazokatning ko'rinishi va muhimi, o'quvchining aqlini o'stiruvchi, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi asosiy omil bo'lib hizmat qilishi kerak.

Til jamiyatdagi aloqa vositasi, ma'naviy rivojlanishning yagona omili, o'quvchi kelajagining asosi ekan, o'quvchilarda kreativlik, kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ta'sir doirasining kengligi, materiallarning xilma-xilligi, samaraliligi bilan ona tili va o'qish darslarining ahamiyatini yana bir karra oshiradi

Ona tili va o'qish fanlari boshqa fanlar bilan uzviy bog'lab o'qitiladi. O'quvchi yuqoridagi fanlardan olgan bilimlari asosida turli jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, unga tanqidiy yoki ijodiy yondasha olmas ekan, o'qish savodxonligida qusur borligidan dalolat.

Shuningdek, o'quvchilarning kreativ fikrlash sohasini o'rganishga, mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri va bu vazifani amalga oshirishda ona tili va o'qish darslari metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Endigi masala o'quvchilarda kreativlik, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ona tili, o'qish darslarida nima qilish kerak? O'qituvchilarning juda ko'pchilik qismi kreativlik qobiliyatiga alohida qobiliyat, iqtidorning ma'lum ko'rinishi sifatida qaraydi va kreativ bo'lish uchun judayam aqlli bo'lish kerak deb, hisoblaydilar. Vaholanki, kreativlik sohasida olib borilgan tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, turlicha fikr va qarashlarning guvohi bo'ldik.

Asosan psixologik yondashuvlar asosida o'rganilgan kreativlik qobiliyatini olimlarning aksari intellekt bilan bog'liq, uyg'unlikda rivojlanuvchi jarayon sifatida izohlaydilar;

A. Adlarning fikricha kreativlik va intellekt bir-biriga bog'liq bo'lmagan jarayon, ular bir-biridan mustaqil holda rivojlanuvchi qobiliyatlar hisoblanadi;

Maslou va yana bir guruh olimlarning ta'biricha, kreativlik va intellektni bir-biri bilan uzviy bog'langan ikki xil faktor deb baholanadi, ijodiy faollik namoyon bo'lishi uchun yuqori intellektga ega bo'lish lozim deb hisoblaydilar.

Yuqoridagi qarama-qarshi fikrlar tarixiy faktlarni, hayotiy kuzatmalarimizni ko'z oldimizga bir-bir keltiradi: inson olovni kashf qilganda intellektual qobiliyatga egamidi yoki shunchaki kuzatuv natijasida xayoliga kelgan g'oyani amalga oshirib kashfiyot qilganmidi? Buyuk rassomlarning kezi kelganda oddiy misolga tishi o'tmasligi yoxud matematikaga anchayin usta odamning san'at bobida yoki sport sohasida omadi har doim ham kelavermasligi ularda intellekt darajasi pastligidanmi, yoki ularda kreativlik qobiliyati yo'qligidanmi? Yana bir olimning umuman fanlarni o'zlashtira olmay maktabdan haydalganligi va onasi tomonidan o'qitilib kelajakda buyuk shaxs bo'lib yetishganligini intellekt bilan bog'lash kerakmi, onaning farzandiga bo'lgan mehri, uning mashg'ulotlarda yangicha uslub asosida tushuntirishi asosida bolada shakllangan o'zidan qoniqmaslik, bilimga chanqoqlik, yangilikka intilishni kuchaytiruvchi kreativlik qobiliyati bilanmi? Aynan oxirgi fakt kreativlikni ta'lim jarayonida kundalik faoliyatda zaruriy masalalar uchun "kichik kreativlik" ko'rinishida shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi. Bu vazifani boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarida amalga oshirishni to'g'ri yondashuv asosida, tizimli tashkil etish o'quvchi tomonidan tushunchani anglashni osonlashtirib, bilim olishga bo'lgan ixtiyoriy rag'batni kuchaytiradi. Shu o'rinda, yuqorida fikr yuritganimiz intellekt va kreativlik borasida olib borilgan tadqiqot natijalari asosidagi xulosa-agar har bir insonda aqlning qanchadir miqdori berilgan ekan, to'g'ri tashkil etilgan ta'lim, o'zlashtirilgan bilim asosida orttirilgan tajriba insonni ma'naviy, kasbiy jihatdan yuksaltirib boradi. Ayni mana shu jihat insoniyatni rivojlantirib, "Kompyuter asri"ga olib keldi.

Ona tili va o'qish darslari "kundalik kreativlik"ni shakllantirishda ya'ni o'quvchida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda boshlang'ich poydevor vazifasini bajarar ekan, bu jarayon qanday amalga oshirilishini o'rganish muhimdir.

"Ijodkorlikka qiziqishning eng oddiy ko'rinishlari aynan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda namoyon bo'la boshlaydi. Lekin bolalarning ijtimoiy-kommunikativ tajribasi yetarli bo'lmaganligi bois, bunday holatlar epizodik tarzda yuzaga kelsa, tajriba to'plab borish jarayonida olamni anglashga intilish, muayyan bilimlarni egallashi natijasida kreativlik aniq mazmunga ega bo'la boshlaydi. Bu ko'rsatkich bolalarning ijodiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi...ijodkorlik ko'nikmalarining shakllana borishi esa ularning mashg'ulot jarayonidagi faolliklarida namoyon bo'ladi.

Faollik- bu amaliy faoliyatda namoyon bo'luvchi ish bo'lib, predmet, buyum va narsalarning shakli, mohiyati va makonda joylashgan holatlarini tezda ilg'ab olishga o'rgatuvchi omillardan biridir. U nafaqat atrof-olamni o'zlashtirish, balki shaxsning o'zligini namoyon qilishga qaratilgan faoliyatdir"[2] O'quvchi bilan ona tili va o'qish darslarida berilgan matnlar ustida olib borilgan tizimli ishlar ularni olamni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib faoliyatida kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilib borishi kerak. "O'quvchilarning bilishga qiziquvi ikki asosiy yo'l bilan tashkil etiladi. Birinchisi, o'quv materialining o'zi o'quvchilarda bilimga qiziqishni paydo qiladi. Chunki o'rganilmagan yangi narsa insonlar tomonidan qiziqish bilan o'rganiladi. Ikkinchi tomondan o'quvchilarning bilish faoliyatini qiziqarli tashkil etish yo'li bilan bilimga qiziqtirish mumkin...Shuning uchun ham yangi materialni bolalar yoshiga mos ilmiy bilimlarning butun boyliklari bilan ko'rsata olish o'quvchilarda o'qishga qiziqishni uyg'otadi"[3]

O`qish darslarida berilgan matnlar ustida ishlash orqali o`quvchi yangi bilim hosil qiladi. Estetik va badiiy tafakkuri yuksaladi. O`qituvchi tomonidan tashkil etilgan ish turlari badiiy asar matni ustida ishlash orqali inson "asarni qaytadan o`zi uchun kashf qiladi", o`quvchida yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyati shakllana boradi.

Hozir maktab tajribasida izohli o`qish, ijodiy o`qish, adabiy o`qish usulidan, muammoli o`qitish metodlaridan, ilg`or pedagogik texnologiya, interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda...

Metodik adabiyotlarda badiiy asar matnini tahlil qilishning uch usuli: badiiy asami yozuvchiga ergashib yaxlit o`rganish, obrazlar vositasida o`rganish, mavzuli-muammoli o`rganish *alohida ajratib ko`rsatiladi*.

Boshlang`ich sinflarda, asosan, matn asosidagi tahlildan foydalaniladi, ya`ni, o`qituvchi asarni tahlil qilishda asar matniga asoslanadi. Uni o`zgartirmagan holda undagi ma`noni, jozibani o`quvchilarga yetkazib beradi.

Boshlang`ich sinflarda muammoli tahlil usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Bobur va Humoyun" hikoyasini o`rganishda o`quvchilarga "Boburning aytgan gaplari o`rinlimi?", "Hikoyadagiday holat sodir bo`lishi mumkinmi?" kabi muammoli savollar berish o`rinli bo`ladi. O`quvchilar asarni ichida o`qiydilar, jamoa bo`lib fikr almashadilar, bahslashadilar. Bahs davomida o`quvchilar ma`naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan o`zgarishlar, rivojlanishlar sodir bo`ladi. Asar tahlilida qo`llanadigan tanlab o`qish, unga munosabat bildirish, munosabatlarning turli xilda bo`lishi ham munozarani keltirib chiqaradi. Munozarali o`rin muammoni yuzaga keltiradi" [1,88] Muammoli vaziyatda o`quvchilar o`z fikrini bildirishga, muammoga yechim topishga intiladilar.

"Inson ko`rish, eshitish, sezish orqali dunyoni idrok etadi, o`z hayotiy faoliyati davomida ana shu fiziologik holatlar - signallar sistemasi orqali voqeliklarni anglaydi, tafakkuri orqali ularning analiz-sintezini amalga oshiradi". [4] Ona tili darslarining samaradorligi ta`limning mazmuni - o`quvchilarga berilishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma, malakalar tizimiga, shuningdek, ta`lim jarayonida o`quvchilarning faolliklarini ta`minlaydigan usul va vositalarga bog`liqdir. Ona tili darslarida berilgan til dalillarini idrok qilish va o`quvchilarda kreativlik qobiliyatini shakllantirish uchun an`anaviy tarzda bilimlarni tayyor holda bayon qilib berish foydali metod hisoblanmaydi. Bunda o`quvchi faqat tinglovchi bo`lib qoladi, eshitgan narsasini yodlash, qayta hikoyalash, nari borsa bir-ikkta misollar keltirish bilan faoliyati cheklanib qoladi. Shuning uchun ham ona tili darslarida turli usullardan, ta`lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil qilish nafaqat darsning jozibasini oshiradi, balki, o`quvchilardagi sezgilarning bir yoki bir nechitasi qatnashib materialning to`liq o`zlashtirilishiga sabab bo`ladi. "Ona tili mashg`ulotlarida o`quvchi ta`lim jarayonining sub`ekti ya`ni faol ishlovchisiga aylanib, har bir o`quv topshirig`ini aqliy faoliyat "chig`irig`i" dan o`tkazgan taqdirdagina o`quv materiallarni o`zlashtirish jarayoni ancha yengil kechadi va dars mashg`ulotlarining samaradorligi ta`minlanadi. O`qitishning amaliy metodlariga tayangan o`qituvchi o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o`quvchining faolligini to`g`ri uyushtira oladi va uning muvaffaqiyatli kechishini ta`minlaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ona tilidan bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o`qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o`qituvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi." [5]



Biz yaxshi bilamizki, berilayotgan axborotlarning qabul qilinishi bir qancha sezgilarga bog'liq. Bundan tashqari har bir inson alohida shaxsiy qabul qilish xususiyatlariga ham egadir. Ya'ni inson eshitish, ko'rish, ta'm bilish, sezish sezgi organlari yordamida axborotlarni qabul qiladi. Ba'zi insonlar eshitganini tez eslab qoladi, ba'zilar ko'rganini. Ba'zi insonlar esa bajarib ko'rsalar keyin mohiyatni tushunib yetadilar. Shuning uchun ham ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatini shakllantirish uchun sezgi organlarining bir necha turi orqali ta'sir etish ya'ni, ko'rsatish, eshittirish, his qildirishga yo'naltirilgan ish uslublaridan foydalanish, amaliylikka urg'u berish, o'quvchini fikrlashga va fikrlarini yozma ifodalashga odatlantirish kerak.

Bundan tashqari bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Aksincha, o'zini tavakkaldan olib qochish, darsda o'qituvchining doimiy hukmron maqomida turishi, shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi, boshqalarga tobe bo'lish, har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash kabilar kreativlikni yo'qqa chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik) –T.: “NOSHIR”, 2009. – 352 bet
Maktab o'quvchilarining yoshi va organizmining funktsional xususiyatlariga muvofiq ishlab chiqilib tavsiya etilgan metodika bo'yicha statik mashqlardan foydalanish ularning jismoniy rivojlanish darajasini, harakat tayyorgarligini oshirish va jismoniy madaniyat bo'yicha dastur materialini o'zlashtirishda yuqori samaradorligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2014. 296 bet.
2. Айрапетьянц, Л. Р.. Педагогические основы планирования и контроля соревновательной и тренировочной деятельности в спортивных играх : диссертация ... доктора педагогических наук : 13.00.04.- Москва, 1991
3. Ашмарин, Б.А. Теория и методика физического воспитания: Пособие для учителя. - М.: Академия, 2001.
4. Гимнастика: учебник / В.М. Баршай, В.Н. Курьсь, И.Б. Павлов. - Ростов н/Д: Феникс, 2009, - 314, [1]с.: ил. - (Высшее образование). ст. – 246
5. Еремина, А. О. Польза статических упражнений для похудения и поддержания тела в форме / А. О. Еремина // Актуальные проблемы развития физической культуры и спорта в современных условиях : материалы IV Международной научно-практической конференции, Курск, 22 марта 2019 года. – Курск: Закрытое акционерное общество "Университетская книга", 2019. – С. 126-130.
6. [Касьянов, В. М.](#) Лекции по возрастной физиологии и школьной гигиене [Текст] / В. М. Касьянов [и др.] ; [под ред. В. М. Касьянова] ; М-во просвещения РСФСР, Моск. гос. пед. ин-т им. В. И. Ленина, Каф. возрастной физиологии и школьной гигиены. - М. : МППИ, 1975. - 150, [1] с. : табл. - Библиография: с. 150. - 1 р.
7. Матвеев, Л. П. Теория и методика физической культуры. Введение в предмет: учебник / Л.П.Матвеев. – 4-е изд., стер. – М. : Омега-Л ; СПб. : Лань, 2004. – 160 с.
8. Мейксон, Г.Б., Любомирский Л.Е. Методика физического воспитания школьников - М. «Просвещения ». 1989. 180 с.
9. Пилюсян, Н. А. Физиологическое обоснование применения статических упражнений на уроках физической культуры у младших школьников: специальность 03.00.13 : диссертация на соискание ученой степени кандидата биологических наук / Пилюсян Наталия Анатольевна. – Краснодар, 1999. – 209 с.
10. Сухарев А. Г. Здоровье и физическое воспитание детей и подростков. М. Медицина. 1991, 270 с.



11. Усмонходжаев, Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью.: Автореф. дисс. пед. наук. Т., 1995, 50 с.
12. Фомин Н. А., Вавилов Ю. Н. Физиологические основы двигательной активности. М., ФиС. 1991, 224 с.
13. Хрущев С.В. Врачебный контроль за физическим воспитанием школьников, М., 1988
14. Шабунин Р. А. Приспособительные возможности сердечно-сосудистой и дыхательной систем организма детей среднего школьного возраста к мышечной деятельности. В кн. Медико - биологические проблемы физического воспитания учащихся молодежи. Челябинск. 1981, с. 105 - 118.
15. Шиян, Б.М. Теория и методика физического воспитания М.: Просвещение. 1988.

MEDIASAVODXONLIK

Rahimova Dilnoza Azamjon qizi

Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti

dilnozarahimova1225@gmail.com Tel: +998972521225

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodni media vositalaridan to'g'ri foydalanish ularni inson hayotidagi ijobiy va salbiy oqibatlarini, yoshlarni pedagogik va psixologik jihatdan chuqur o'rganish ularni ongidagi yod g'oyalarni bilish kabi asosiy masalalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot, mafkura, media, xabar, texnologiya, internet, taxdid, kutubxona, arxiv, kommunikatsiya.

МЕДИАСАВОДХОНЛИК

Рахимова Дилнозы Аъзамжоновны

Магистр теории и истории педагогики

НамГУ

dilnozarahimova1225@gmail.com

Tel: +998972521225

Аннотация В статье освещаются такие ключевые вопросы как правильное использование их положительные и отрицательные влияния на жизнь человека углубленное педагогическое и психологическое изучение молодежи знание заученных идей в их сознании.

Ключевые слова информация, СМИ, идеология, сообщение, технология, интернет, угроза, библиотека, архив, коммуникация

MEDIA LITERACY

Rahimova Dilnoza A'zamjon qizi NamSU

Master of Theory and History of Pedagogy

dilnozarahimova1225@gmail.com

Tel: +998972521225

Annotatsion: The article highlights such key issues as the proper use of the media by the younger generation, their positive and negative effects on human life, in-depth pedagogical and psychological study of young people, the knowledge of memorized ideas in their minds.

Keywords: *information, media, ideology, message, technology, internet, taxdid, library, archive, communication.*

Respublikaning ijtimoiy –iqtisodiy, ma’naviy axloqiy va axborot kommunikatsiya sohalarida yuz berayotgan tizimli o’zgarishlar kishilar hayotida ham jiddiy o’zgarishlar bo’lishini talab etmoqda. Inson hech qachon tashqi dunyodan, o’zini qurshab turgan olamdagi o’zgarishlar, rivojlanishlar yuz berayotgan hodisalar, voqea jarayonlaridan ajralib qolgan, ularni his etmagan holda yashay olmaydi. Xalqlar, millatlar ijtimoiy –siyosiy kuchlar faoliyatida asosli bo’lgan turli mazmundagi hodisa va jarayonlar, ayniqsa g’oyaviy hamda mafkuraviy omillar odamlar ongi mafkura va dunyoqarashiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Binobarin, har qanday muayyan millat va xalqning maqsadlari ma’naviyatlari zamirida shakllanadi hamda takomillasha boradi. Inson hech qachon tashqi dunyodan, o’zini qurshab turgan olamdagi o’zgarishlar, rivojlanishlar, ro’y berayotgan hodisalar, voqea jarayonlaridan ajralib qolgan ularni his etmagan holda yashay olmaydi. Xalqlar millatlar ijtimoiy siyosiy kuchlar faoliyatida sodir bo’lgan turli mazmundagi hodisa va jarayonlar ayniqsa g’oyaviy hamda mafkuraviy omillar odamlar ongi mafkura va dunyoqarashiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Binobarin, har qanday muayyan millat va xalqning maqsad muddaolari ma’naviyatlari zamirida shakllanadi hamda takomillasha boradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev axborot texnologiyalarini rivojlantirish, buning uchun zamonaviy infratuzilma yaratish masalasi bo’yicha yigilish o’tkazdi. Bu yig’ilishda media savodxonlikni yo’lga qo’yish uning yoshlar ongiga ta’siri to’g’risida nutq so’zlarilar. Media savodxon inson o’ziga bu axborotni kim va nima uchun yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to’g’ri xulosa chiqara olishi unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko’rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarni ko’rayotgan paytda berilishi, balki xar qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir. Bugungi axboriy muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo’lib AQSHning Jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha “Mediasavodxonlik” (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi ma’suliyatini his qilgan holda faol va savodli bo’lishi, media matnlarni qabul qila olishi, yaratilishi, tahlil eta olishi va baholashi zamonaviy media ijtimoiy madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olish demakdir. Ingliz siyosatshunosi R. Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma’lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va xar bir uzatiladigan axborotni saralashda ongli ravishda yondoshish hamdir.

Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan xolda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralash bilish va zarurini qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish bo’lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste’mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkarning fikriga ko’ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam bu to’g’ri savol bera olishdir. Bugungi kunda Internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy xurujlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylandi va u keberxavfsizlik nomini oldi.

Aynan jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur degan fikrlar ko'paymoqda. Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, yani mediasavodxonlikning ahamiyati juda kattadir.

Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan siyosiy diniy ekstremizm aqidaparastlik va yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka havf tug'dirishini odamlar ongiga chuqur singib borishi kerak. So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun mediasavodxonlik axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi unga nisbatan tanqidiy yondashishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi balki xar qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baxo berayotganda ham kerakdir. Bugungi axborot muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh mediasavodxonlik nima uchun kerak? Avvalo huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish.

Media va axborot savodxonligiga ega inson bo'lish yo'lidagi birinchi muhim qadam bu axborot –axborot g'oya va ularning mazmuni turli media xamda kutubxona, arxiv, muzey va internet kabi axborot xizmatlari orqali yoki ularning yordamida qanday uzatilayotganligini tushunish xisoblanadi. Xar bir muhit g'oyani yetkazishga xizmat qiladigan o'ziga xos bir xususiyatga ega bo'lgan o'z tili yoki grammatikasiga ega. Bu jumlada til g'oyalari ma'lumotlar va bilimlarni namoyish etish uchun media va axborot sohasidagi professionallar ajrata oladigan texnik tarkibiy qismlar ramzlar yoki kodlar va shartli belgilarni ifoda etadi. Xozirgi kunda ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilayotgan ko'pchilik xabarlarni maqsadi yosh avlodni ishontirish va ularni yod g'oyalari ta'siriga tushushiga ko'maklashishda n xam iborat. Bu kabi xolatlarni oldini olish maqsadida yoshlar ta'lim tarbiyasiga juda kata ahamiyat berilmoqda. Yoshlarni pedagogik va psixologik jihatdan chuqur o'rganish ularni ongidagi yod g'oyalarni chiqarish lozimligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Zero bugungi kunda mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi fuqarolarga jahon xamjamiyati tomonidan to'plangan ma'lumot va axborotlarni cheksiz ravishda olish imkoniyatini bermoqda. Biz oladigan va foydalaniladigan axborotning sifatini bizning xayotiy tanlovimizga, ijtimoiy- siyosiy faoliyatimizga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xozirgi kunda jamiyat xayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta'limning rivojlanishini mediasiz tasavvur qilish qiyin.

Media va boshqa axborot xizmatlari kutubxonalar, arxivlar va internet butun dunyoda mavjud axborotning ko'pligini xisobga olgan xolda insonlarga qaror qabul qilishda ko'mak beradi. Bundan tashqari ular jamiyat o'zi xaqidagi xaqiqatni bilishi axoli bilan bo'ladigan muloqotni qo'llab-quvvatlovchi va shu orqali u bilan birlashgan xolda maqsad sari borishi mumkin bo'lgan vositadir. Ommaviy kommunikatsiya va axborot kanallari insonning xayoti davomida bilim olishiga katta ta'sir ko'rsatadi, Shuning uchun xam nafaqat bo'lajak jurnalistlar balki barcha fuqarolar xam media xamda kutubxona, arxiv va internet kabi boshqa axborot xizmatlari qay tarzda ishlashi va ularni to'g'ri baxolashni bilishi zarur. Media va axborot

savodxonligining vazifasi esa aynan ushbu bilimlarni ta'lim oluvchilarga yetkazib berishdan iboratdir.

Media va axborot savodxonligi o'zida asosiy tushunchalarni mujassam etadi:

1. Demokratiya an'analari rivojlanayotgan jamiyatda media hamda kutubxona, arxiv va internet kabi boshqa axborot xizmatlarining funksiyalari.

2. Ommaviy axborot vositalari va axborot xizmatlari mazkur funksiyalarni samarali ravishda amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

3. Taqdim etilayotgan kontent va xizmatlar vositasida mazkur funksiyalarning bajarilish sifatini baxolash usullari.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQSHning jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, <<Mediasavodxonlik>> (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratilishi, tahlil eta olishi va baholashi zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Londonning Qirollik universiteti professori S. Fayrstounning fikriga ko'ra esa, mediasavodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat.

Ingliz siyosatshunosi R. Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M. Guetterz esa mediasavodxonlikni o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni biladi deydi.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va xar bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondoshish xamdir.

Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan xolda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va xar bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish xamdir. Mediasavodxonlikni maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir. Bugungi kunda Internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy hujjatlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylandi va u kiberxavfsizlik nomini oldi. Zero, virtual va haqiqiy dunyoning qo'shilishi, aynan virtual dunyo orqali yoshlar tomonidan haqiqiy dunyoni noto'g'ri tushunilishi, turli xil salbiy kuchlar va oqimlar tomonidan bir qarashda ijobiy ko'ringan ammo mohiyatan inson ongiga salbiy ta'sir qiluvchi axborotning tarqatilishi ko'payib borayotganligi hech kimga sir emas. Aynan jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur degan fikrlar ko'paymoqda. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar



fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilmoqda. OAV orqali tarqatilayotgan avborotning manipulyativ ta'siri kuchliligini bugun hech kim inkor etmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, OAV orqali tarqatilayotgan xabarning haqqoniyligiga ishonish ilk gazetalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. Bugun OAV ning ta'siri o'sha paytdagidan kam emas. Aynan axborotni tahlil etmay, o'z holicha qabul qilish oqibatida dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo'l urmoqda. Yoshlar ongini ortiqcha narsalar bilan band qilmagan holda ularga ko'proq kitob jurnallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Biz bugun mediasavodxonlik XXI asr odamlari uchun eng zarur bo'lgan ko'nikma. Sababi, bugungi kunda odamlar media dunyosida yashaydilar, turli axborot manbalaridan foydalanadilar. Albatta, xar kim bu ma'lumot qanchalik foydali yoki zararli bo'lishi mumkinligini o'zi o'ylashi kerak. Shu ma'noda menga axborotlar oziq-ovqatlar bilan taqqoslanadigan metafora juda yoqadi. Biz aynigan ovqatni yemaymiz. Juda yog'li yoki juda achchiq taomni iste'mol qilmaymiz. Albatta, bu masalada insonni o'zi nimani tanlashini xal qilishi kerak. Axborotlar xam xuddi shunday. Turli ta'mli maxsulotlar tanlanishi mumkin, ammo aynigan ya'ni yolg'on ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'qish, iste'mol qilish kerak emas. Sifatli maxsulotni tanlab saralab o'qiydigan tinglaydigan odamlar xam mavjud. Mobodo biz sifati past ma'lumotlarni o'qisak unda dunyo xaqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lamiz. Extimol, ba'zi firibgarlar bizni aldab ketadi.

Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotiga xavf tug'diradigan mafkuraviy taxdidlar qatorida birinchi galda o'rta asrlardagi islom xalifaligini tiklab musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlarni tushunamiz. Bunday vayronkor g'oyani vahobiylik, hizbut-taxrir kabi aqidaparastlik oqimlari o'zlariga bayroq qilib olgan. Bu oqimlar ashaddiy vayronkor va buzg'unchi bo'lib ularning faoliyati dunyoning hamma mamlakatlarda taqiqlangan. Aynan mana shunday vayronkor kuchlar Avg'oniston tuprog'ida joylashib olgan xalqaro terrorchilik, diniy ekstramizm va aqidaparastlik markazlarini yo'q qilishga kirishdi. Tariximizni milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinuvchi kuchlar – yana bir jiddiy havfdir. Ular tarixiy dalillarni dinning mohiyatini buzib ko'rsatib xalqimizning o'zligini anglash jarayonida chalg'itishga urinadi. Bunday zararli tajriba mustamlakachilik davrida xam muttasil qo'llanilib kelingan bo'lib, buning oqibatida xalqimiz uzoq yillar milliy o'zligi tarixi va hayotbaxsh qadriyatlaridan uzilib yashadi. Demak, bugungi kunda ham ana shu tajribani qo'llashga urinayotganlar bizni shu tariqa yana qullik va qaramlikka solishga intilayotgan kuchlardir.

Xalqaro terrorizm –turli xalqaro terrorchilik markazlari mablag'lari evaziga mavjud konstitutsion tuzumga qarshi qo'poruvchilik siyosiy arboblarni hayotiga suiqasd xarakatlarni olib boruvchi guruhlar. Ommaviy axborot tizimlari-jangarilikni targ'ib qiluvchi, milliy qadriyatlarimizga sharqona odob axloqqa yod bo'lgan g'arb videofilmlari.

Bizning sharqona turmush tarzimizga axloqiy me'yorlarga milliy qadriyatlarimizga milliy tarbiyamizga yot bo'lgan chet el videofilmlaridagi zo'ravonlik, berahmlilik, yovuzlik ahloqsizlik kabi inson qadr-qimmatini yerga uruvchi g'oyalar xam ularning mazmun-mohiyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar yoshlar ongida salbiy asoratlar qoldirmoqda. Hali dunyoqarashi shakllanib ulgurmagani yoshlar ularni o'zlari istaganicha qabul qilib ularga taqlid qilmoqda va o'z hayotida tadbiriq qilishga urinadilar.

Yuqorida bayon qilingan chet el videofilmlarini mamlakatimizga olib kelib ularni namoyish qilishdan asosiy maqsad ham aynan yoshlarda vayronkorlik va vaxshilik instinktlarini xatti-xarakatlarini qo'zg'atib mafkuraviy buzg'unchilikni amalga oshirishdan iborat.

Keyingi paytlarda muttasil ravishda namoyish qilayotgan ko'p qismli g'arb kinofilmlari ham bizning sharqona madaniyatimizga oilaviy munosabatlarimizga milliy axloqiy qadriyatlarimizga mutlaqo zid bo'lib, ularni yemirilishiga olib kelmoqda. Oilada er xotin o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda.

Mafkuraviy tahdidga qarshi kurash yo'li odamlarimiz avvalombor yoshlarimizni iymon-e'tiqodini mustahkamlash. Ularning tafakkurida o'zligini unitmaslik, ota –bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularni men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir. Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan siyosiy diniy ekstramizm aqidaparastlik va yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka havf tug'dirishini o'quvchilar ongiga chuqur singdirib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7- iyundagi PQ-4354sonli qarori.

2. Н.Нуратова Е.Гриза Д.Мирзахмедова Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги Тошкент; Baktriya press, 2019-1126

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria-Virginia. USA: ASCD, 2014
4. Kubey R, (1998). Obstacles to the Development of Media Education in the United States. Journal of Communication (Winter), pp.58-65.
5. Мигранова Е. А. Позилова. Ш. Х. Касбий педагогик фаолиятга кириш. Тошкент; Тафаккур бустони, 2018-200 б

IJTIMOYIY KOMPETENTLIK IJTIMOYIY HAYOTGA MOSLASHISHNING SHARTI SIFATIDA

FarDU o'qituvchisi Soliyeva

Annotatsiya: *Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy kompetentlikka alohida o'rin berilgan bo'lib, u o'zida turli hayotiy sohalaridagi ijtimoiy hamkorlikka bo'lgan qobiliyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiradi. Ijtimoiy kompetentlik asosini jamiyat, undagi xulq-atvor usullari va qoidalari haqidagi bilimlar tashkil etadi.*

Tayanch tushunchalar: *«resurs paket», «Ijtimoiy», «qobiq», Ijtimoiy kompetentlik asosini jamiyat, xulq-atvor, qoidalari, bilimlar, to'g'ri qo'llay bilish, ijtimoiy moslashuvchan, faol, ijodkor, «faoliyatni bajarish qobiliyati»,*

Аннотация: *В структуре компетентности уделяется особое место социальному партнерству и отражает социальную адаптацию и способности к социальному партнерству в различных жизненных отраслях. Основу социальной компетентности составляют знания об обществе способах и правилах поведения в нем.*

Ключевые слова : *«ресурсный пакет», «социальный», «оболочка», социальная компетентность, основа общества, поведение, правила, знания, умение правильно применять, социально гибкое, активное, творческое, «работоспособность»*

Synopsis: *In the competence structure, social competence has a special place that reflects the ability and social flexibility of social partnership in various life spheres. Social competence includes knowledge of the basic society, its behavioral patterns and rules.*

Key words: *"resource package", "Social", "shell", Social competence, the basis of society, behavior, rules, knowledge, ability to apply correctly, socially flexible, active, creative, "performance ability»*

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi inson hayoti va faoliyatining turli sohalaridagi tez sur'atlarda kechadigan innovatsion o'zgarishlar bilan xarakterlanadi, ijtimoiy soha ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda jamiyat va davlatga tez o'zgaruvchan sotsium(jamiyat)ga ijtimoiy moslashuvchan, faol, ijodkor, hatti-harakatlarning universal usulini egallagan kishilar zarur. Ushbu sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni tarbiyalashni esa bog'cha yoshi davridan boshlab tarbiyalash kerakligi bugun o'z isbotini topdi. Chunki kishining nazariy bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay bilish malakasining mavjudligi ijtimoiy hayotga moslashuv jarayonida ham qo'l keladi va turli yosh davrlaridagi kishilarda jamiyatda o'z o'rnini topishga amaliy yordam beradi. Bugungi kundagi ta'lim tizimi hozirgi davr talabiga javoban, ta'limga kompetentli yondashuv g'oyasini ishlab chiqqan va uni ta'lim maskanlariga joriy etishga xarakat qilmoqda. Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy

kompetentlikka aloxida o'rin berilgan bo'lib, u o'zida turli hayotiy sohalardagi ijtimoiy hamkorlikka bo'lgan qobiliyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiradi.

Kompetentsiya - faoliyat sub'ekti tomonidan o'z bilimi va vaziyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish imkoniyati, yoki keng ma'noda konkret vaziyatdagi muammoni hal etish uchun zarur bo'lgan amaliyot(bilim+xarakter)ni topish qobiliyati demakdir. Boshqa so'z bilan aytganda – odamning aniq hayotiy vaziyatdagi samarali faoliyat uchun, o'z bilimlari, ko'nikmalari va tashqi resurslarni safarbar etishga tayyor ekanligidir.

Kompetentlik – ta'lim natijasi, o'quvchining ma'lum bir ta'sir predmetiga nisbatan egallagan faoliyat usullari jamlanmasida ifodalanadi. Mazkur ta'lim natijasining ahamiyati shundaki:

1. faoliyatning muayyan usulini egallash orqali, o'quvchi faoliyat ko'rsatish tajribasini o'zlashtiradi (bu yerda gap «faoliyatni bajarish qobiliyati» haqida emas, balki «faoliyat usuli» haqida boradi):

- o'quvchilar tomonidan maqsadni o'zlashtirish, o'z faoliyatini boshqarish jarayonini anglab yetish;

- bilim, ko'nikma, malaka, ustanovkalar va qadriyatlar integratsiyasi (qo'shilishi), chunki faoliyatni taqlid orqali(sa'y xarakterdan farqli ravishda) egallash mumkin emas;

2. shaxsiy «resurs paket» shakllanadi, bu o'z-o'zini boshqarishdan keyingi «qobiq» sanalib, kompetentlik uchun muhim o'rin tutadi;

3. kompetentlik ta'lim natijasi sifatida alohida qiymatga ega bo'lib egallangan faoliyat usullari jamlanmasi, ijtimoiy kutishlar hosilasidir va u o'quvchiga tipik vaziyatlarda ko'makchiga aylanadi;

4. aynan egallangan faoliyat usullari jamlanmasi, ish beruvchilarning so'rov predmeti xisoblanib ma'lum bir vaqtda dolzarb ahamiyat kasb etadi, so'ngra ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o'zgarishi bilan tuzatish kiritilishi mumkin.

Kompetentlik muayyan doiradagi vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba va qobiliyatni ko'zda tutadi. «Ijtimoiy» tushunchasi vazifalar doirasini belgilab, uning ijtimoiy soha, ya'ni jamiyatga, undagi xulq-atvor va o'zaro birgalikdagi faoliyatga tegishli ekanligini bildiradi.

Ijtimoiy kompetentsiya-ijtimoiy malakalar (majburiyatlar) xisoblanib, kishiga jamiyat hayotidagi normalar va qoidalarni adekvat(o'zaro mos) tarzda bajarish imkoniyatini beradi va inson o'z navbatida o'z menining anglay boshlaydigan ilk bolalik davrlaridan boshlab ushbu normalar va qoidalarni ota-onasining yordami bilan egallay boshlaydi.

Ijtimoiy kompetentlik asosini jamiyat, undagi xulq-atvor usullari va qoidalari haqidagi bilimlar tashkil etadi. Maktab o'quvchisi uchun jamiyat, keng (dunyo, mamlakat) va tor (oilalar, maktab, maxalla) davrada aks etadi. Uning ijtimoiy kompetentligi turli ma'lumotlar oqimidan xabardorligi orqali aniqlanadi. Bu yerda so'z faqat, dunyo, mamlakat, mintaqalar, ijtimoiy institutlar xaqidagi ma'lumotlardan boxabarlik to'g'risida emas, balki kishilarning o'zaro birgalikda faoliyat ko'rsatish xususiyatlari, an'analar, xulq-atvor me'yorlari va qoidalari haqida ketadi.

SHuning uchun, ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim yo'llaridan biri, bolalarda o'zini o'rab turgan kishilar bilan birgalikda harakat qila olish, o'zini tutish usullariga doir bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy kompetentlik tuzilmasidagi bilim, ko'nikma va malakalar jamlanmasiga e'tibor bergan holda, shuni ta'kidlash lozim-ki, ularning o'zi ijtimoiy kompetent xulqni ta'minlay olmaydi. Kompetentlikni yanada kengroq ma'noda izohlash, ya'ni

bilimlarni zarur vaziyatlarga bog'lay olish imkoniyatlari, muammoli jarayonni his etish qobiliyatini xisobga olish maqadga muvofiqdir.

Ijtimoiy kompetentlik quyidagi komponentlari mavjud bo'lib, ushbu komponentlar turli yosh davrlaridagi insonlarda jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning tuzilishi va faoliyat olib borishiga doir ma'lumotlarni, ijtimoiy rolga qo'yilgan talablar va kutishlarga oid bilimlarni, ijtimoiy rolga xos bo'lgan xulqni egallash malakasini, umuminsoniy normalar va qadriyatlarga oid hamda kishining o'zi haqidagi tasavvurlari, o'zini ijtimoiy sub'ekt sifatida idrok etish bilan bog'liq bo'lgan samarali ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalari va malakalarini shakllantiradi. Ijtimoiy kompetentlikni shakllanishi insonlardan quyidagi ijtimoiy xulq malakalarini ham talab etadi.

- o'zaro birgalikdagi harakat malakalari;
- stress(zo'riqish)li vaziyatlardagi adekvat xulq malakalari;
- ijobiy muloqot malakalari;
- boshqalarni tushunish va o'z-o'zini baholash malakalari;
- o'z xulqini idora etish malakalari;
- hissiy xolatlar va emotsiyalarni boshqarish;
- muammoli vaziyatni hal etish malakasi;
- o'z shaxsiga nisbatan ijobiy munosabat, o'z qadrini bilish malakasi.

Ushbu xulq malakalarini shakllanishi boladagi shaxsiy tuzilmalarning shakllanganlik darajasi va ijtimoiy adaptatsiya (moslashish)ga ko'maklashadi va bu ijtimoiy ko'nikmani xosil qiladi. Ijtimoiy kompetentlikka zamin yaratib beradigan shaxsiy tuzilmalar:

Birinchidan, maktabda ijtimoiy foydali faoliyat motivatsiyasi rivojlanadi va mustahkamlanadi. Jumladan, u ikkita qutbdan biriga joylashgan bo'ladi:

- muvaffaqiyatga erishishga intilish;
- muvaffaqiyatsizlikdan xavotirlanish(qochish).

Agar o'quvchi o'z faoliyati davomida muvaffaqiyatsizlikka duch kelsa, uning motivatsiya sohasida "muvaffaqiyatsizlikdan qochish" motivi ustunlik qila boshlaydi. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, "muvaffaqiyatga erishishga intilish" motivi ijtimoiy adaptatsiya(moslashish)ga qulaylik yaratib beradi. Faoliyatning ushbu motivatsiyasi amaliy, ijobiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va shaxs faolligini belgilab beradi. Muvaffaqiyatsizlikdan xavotirlanish motivatsiyasi ijtimoiy kompetentlikka erishishga to'sqinlik qiladigan, salbiy xolat xisoblanadi. Motivatsiyaning ushbu tipida o'quvchi hatolar, muvaffaqiyatsizliklar, tanbeh va jazodan qochishga harakat qiladi, barcha intilishlaridan salbiy natijani kuta boshlaydi va bu uning jamiyatdagi xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

Hali faoliyat boshlamasdan oldin, u o'zining muvaffaqiyatsizligini bashorat qila boshlaydi va faoliyatdan voz kechadi. Ijtimoiy kompetentlikni egallash uchun, "muvaffaqiyatga erishishga intilish" motivining ahamiyati katta bo'ladi.

Ikkinchidan, bilish sohasining intensiv rivojlanishi va undagi sifat o'zgarishlari tufayli bola, o'z bilish jarayonlarini idora etishni o'rganadi, ular bilvositalik kasb etib, ixtiyoriy va anglangan shaklda ifodalanadi. Bu esa, xulq-atvorni ixtiyoriy boshqarish qobiliyatiga zamin yaratadi. Xulq-atvorni ixtiyoriy tarzda idora etish (o'z xulqini ongli boshqarish, ijtimoiy me'yorlar va qoidalarga rioya etish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati), ijtimoiy kompetentlikning taraqqiy etishi uchun ahamiyatli bo'lgan muhim yangilanishlardan biri sanaladi.

Uchinchidan, o'smir o'ziga boshqalar nazari bilan qarashga o'rganadi, unda o'ziga va boshqalarga nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'ladi, hamda o'ziga-o'zi baho bera

boshlaydi. O'z-o'ziga baho berishning yuzaga kelishi, shaxs tuzilmasidagi eng muhim bo'g'in xisoblanib, ko'p hollarda shaxsning ijtimoiy moslashuvini ta'minlab beradi va o'quvchi xulqini idora etadi. O'z shaxsidan qoniqish hissi va o'z-o'ziga berilgan baho, ijtimoiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismidir.

To'rtinchidan, o'quv jarayonida bolalarda tevarak atrofdagi kishilar bilan munosabatlarning yangi tipi shakllanadi. Bolalar ijtimoiy normalarni o'zlashtiradilar, shaxslararo munosabatlarda "nima yaxshi – nima yomon" ekanligini farqlaydilar, kattalardan ko'ra o'z tengdoshlariga yaqinlasha boshlaydilar.

Ushbu xolatda ijtimoiy moslashish uchun o'zaro hamkorlikdagi faoliyat ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchi o'z tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda faoliyat olib boradi. O'z fikrini boshqalarnikidan ajrata olish tufayli o'quvchi o'z shaxsiy "Men"ining imkoniyatlarini chamalay oladi, ko'pgina hayotiy vaziyatlar uning xulq-atvori, o'zini tutishiga bog'liq ekanligini tushunib yetadi, shu asnoda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini egallaydi.

SHunday qilib, ijtimoiy kompetentlik -shaxs ustanovkalari va ma'naviy qadriyatlari, shaxsiy psixologik xususiyatlar tizimiga asoslanuvchi, o'zaro bir-biriga yaqin ijtimoiy kompetentsiyalar majmuasi bo'lib, individga jamiyatga qo'shilishga va turli ijtimoiy rollarni samarali bajarishga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andreeva G.M. Sotsial'naya psixologiya. M., Aspekt press, 1996.
2. Anurin V.F. Intellekt i sotsium. Vvedenie v sotsiologiyu intellekta. N. Novgorod, izdatel'stvo N-gorodskogo universiteta, 1997.
3. Belitskaya G.E. Sotsial'naya kompetentsiya lichnosti. Soznanie lichnosti v krizisnom obshchestve. M., 1995.
4. Masyagina G.P. Formirovanie sotsial'noy kompetentsii budущix pedagogov: Avtoref. dis. kand.ped.nauk. – Astraxan', 2008. –24s.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

Отаханов Нурилло Абдумаликович

п.ф.н (PhD) Старший преподаватель кафедры прикладной математики Наманганского государственного университета

E-mail: otahonov_n_a@mail.ru Тел: +99899 101 08 40

Исмоилов Равшан Якубжон угли

Магистр Наманганского государственного университета

E-mail: ravshan.ismoilov77@gmail.ru Тел: +99893 946 11 88

***Аннотация:** В статье подробно раскрывается важность использования информационно-коммуникационных технологий в развитии навыков логического мышления у детей дошкольного возраста. Автор пытается объяснить связь логического мышления с информационно-коммуникационными технологиями.*



THE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN.

Otaxanov Nurillo Abdumalikovich

p.f.n (PhD) Senior Lecturer of the Department of Applied Mathematics of Namangan State University

E-mail: otahanov_n_a@mail.ru Phone: +99899 101 08 40

Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li

Master of Namangan state university

E-mail: ravshan.ismoilov77@gmail.ru Phone: +99893 946 11 88

***Annotation:** The article reveals the importance of using information and communication technologies in the development of logical thinking skills in preschool children. The author tries to explain the connection between logical thinking and information and communication technologies.*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Otaxanov Nurillo Abdumalikovich

p.f.n (PhD) Namangan davlat universiteti Amaliy matematika kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: otahanov_n_a@mail.ru Tel: +99899 101 08 40

Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li

Namangan davlat universiteti magistranti

E-mail: ravshan.ismoilov77@gmail.ru Tel: +99893 946 11 88

***Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati batafsil yoritib berilgan. Muallif mantiqiy fikrlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'zaro qanday bog'langanligini tushuntirishga harakat qilgan.*

***Kalit so'zlar:** mantiqiy fikrlash, maktabgacha yoshdagi bola, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Biz hozir axborot oqimining jadal ravishda o'sishi, yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida turibmiz.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari deganda Internet, mobil aloqa vositalari, kompyuter, video, televizor, interaktiv doska, planshetlar, dasturlashtiriladigan o'yinchoqlar va boshqa qurilmalardan foydalanish tushuniladi. Bu texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarni taqdim eta oladi.

Bola tomonidan o'ziga qiziq bo'lgan materialni yaxshi o'zlashtirilishi hech kimga sir emas. O'quv maqsadlariga mo'ljallangan axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarga eng yaqin va tushunarli bo'lgan majoziy turdagi ta'limiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Animatsion va ovoqli pedagogic vositalar uzoq vaqt davomida bolalarning e'tiborini torta oladi va maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan mantiqiy bilim va texnikani tizimli ravishda o'zlashtirish imkoniyati L. F. Obuxova, X. M. Veklerova, L. A. Levitov, S. A. Ladimir va N. N.

Poddyakovning psixologik tadqiqotlarida ko'rsatilgan. Ularning ilmiy izlanishlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini o'rganishga bag'ishlanadi.

Mantiqiy fikrlashni katta maktabgacha yoshdan boshlab rivojlantirish kerak, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan egallangan ko'nikma va malakalar maktabda bilim olish jarayoni uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda aniq fikrlash, ishlarni rejali tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Interaktiv o'yinlar orqali, bola elementlarni mantiqan tartiblashni aniq tasavvur eta oladi va rejalashtirishni o'rganadi. Bolada o'z harakati natijasini oldindan tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi. Bola avval o'ylaydi, keyin bajarishga kirishadi. Obyektiv ravishda bularning barchasi nazariy fikrlash asoslarini o'zlashtirish boshlanayotganini anglatadi, bu bolalarni maktabga tayyorlashning muhim bosqichidir.

Bolaga mantiqiy fikrlash usullarini o'rgatish kerak, shunda u nazariy jihatdan muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tibori odatda yakuniy maqsadga qaratilgan bo'ladi. Uni amalga oshirish usullariga kamroq e'tibor qaratadi.

Miqdoriy ko'rinishlarni shakllantirish uchun o'yinlar: *"Sanashni o'rganamiz"*, *"Raqamni toping"*, *"Raqam tarkibi"*, *"Raqamli rebus"*, *"To'rtinchi ortiqcha"*, *"O'ng-chap"*, *"Sonli boshqotirmalar"*, *"Juftni toping"*, *"Vaqt va yosh"*.

Sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'yinlar: *"Rasmlarni tartibga soling"*, *"O'xshashini top"*, *"Simmetriya. Rasmni to'ldiring"*, *"Qatorni davom ettiring"*, *"Rost-yolg'on"*.

Yuqoridagi kabi o'yinlardan foydalanish bolalarda bilim omiliga nisbatan hissiy va ijobiy munosabatni shakllantiradi, aqliy faollikni oshiradi, bilimlarni aniqlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi. O'yinlarni o'ynash jarayonida bolalarda topqirlik, jasorat, zukkolik kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Qarorning natijasi atrofdagi obyektlar va hodisalar haqidagi bilimlarning rivojlanishiga, tanish narsalardagi g'ayrioddiylikni ko'rish, kuzatish va payqash qobiliyatlarini shakllantirishga sabab bo'ladi.

Puzzle o'yinlari (*"Kvadrat manzili"*, *"Qismlarga bo'l"*, *"Shakllar. Tepadan ko'rinish"*, *"Gugurt donalari"*). Bunday o'yinlarni bolalar bilan mashg'ulotdan tashqarida o'ynash kerak. O'yinlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, bolalardagi sezgirlikning rivojlanish darajasiga bog'liq. Bolalar nafaqat geometrik shakllarning nomlarini, balki ularning tarkibi va o'ziga xos xususiyatlarini ham anglashlari talab qilinadi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyati quyidagilarga imkon beradi:

- tevarak atrofdagi voqelikni anglash;
- atrofdagi muxit, obyekt, hodisa va jarayonlarning muhim tomonlarini his qilish;
- xulosalar chiqarish;
- turli muammolarni hal qilishni o'rganish.

Mantiqiy fikrlash usullarini o'zlashtira olmagan bolalarda bilim olish jarayoni qiyinlashadi, ya'ni mashqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt va kuch kerak bo'ladi. Bu holat bolalarda bilim olishga bo'lgan salbiy dunyoqarashni shakllanishiga olib kelishi mumkin. O'yinlardan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha tizimli faoliyat bolalarda mantiqiy fikrlashning asosiy usullarini yanada muvaffaqiyatli shakllantirishga yordam beradi. Mantiqiy o'yinlar universal didaktik material

bo'lib, u bolalarning kognitiv rivojlanishi vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, AKT yordamida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi, ya'ni ularning ijodiy va aqliy qobiliyatlar, kognitiv qiziqish, tasavvur, nutq, idrok, xotira kabi individual xususiyatlarini rivojlantiradi. Demak mantiqiy fikrlashga o'rgatish, bolalarni maktabga tayyorlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosova E.A. Nepomnyashaya R. L. "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mantiq va matematika" – Moskva: Detsvo-Pres, 2007.
2. Shalaeva G. P. "Mantiqiy o'yinlarning katta kitobi" – Moskva: Slovo, 2013.
3. Tixomirova L.F. "Kunlik mashg'ulotlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mantiq" – Yaroslavl: Akademiya razvitiya, 2007.

XI ASRDAGI TURKIY XALQ TAOMLARI

Qo'chqarov Bahodir Abdullajonovich

Namangan davlat universiteti Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotasiya. „Devonu lugot it turk“ asari turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug'atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug'at bo'lib, o'z muallifini dunyoga ulug' adabiyotchi, tarixchi, geograf va boshqa ko'p fanlardan xabardor bo'lgan yirik fan arbobi, qomusiy olim sifatida tanitdi. Shu o'rinda „X-XII asrlardagi taomlar qanday bo'lgan?“ degan savolni bergan o'quvchini ham ilk bor qadimiy spol idishni ko'rgan kishilarning holatiga qiyoslagimiz keladi. Albatta, bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob berish mushkul. Qolaversa, X-XII asrlarga mansub taomlar ro'yxatini hozirgi milliy taomlar to'g'risidagi kitoblarda uchratmaymiz. Shu sababdan ham biz bu borada ulug' olim Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'oti it turk“ asariga murojaat qilamiz.

Kalit so'zlar. „Devonu lug'ot it turk“, X-XII asr, taom turlari, gurunchli taomlar, don mahsulotlari bilan bog'liq taomlar, go'shtli taomlar, hozirgi taomlar bilan o'xshash taomlar.

ТУРЕЦКАЯ НАРОДНАЯ КУХНЯ XI ВЕКА

Кучкаров Баходир Абдуллажанович

Наманганский государственный университет старший преподаватель кафедры методики преподавания социальных наук в начальном образовании

Аннотация. „Devonu lugot it turk“ „Devonu lugot it turk“ „первый универсальный словарь в истории тюрских народов, охватывающий все элементы диалектологических, этнографических, историко-этимологических словарей.“ „Какими были блюда X-XII веков?“ Мы также хотели бы сравнить читателя, задавшего вопрос, с жизнями тех, кто впервые увидел древнюю глиняную посуду. Конечно, прямо ответить на этот вопрос сложно, к тому же в книгах по современным национальным блюдам мы не находим перечня блюд X-XII веков. По этой причине мы ссылаемся на труд великого ученого Махмуд Кашгари „Devonu lugot it turk“.

Ключевые слова. „Devonu lugot it turk“, X-XII век, Виды питания, блюда гурнгли, крупы, мясные блюда, сходные с современными блюдами.

TURKISH FOLK CUISINE OF THE XI CENTURY

Kochkarov Bahodir Abdullajonovich

Namangan State University Senior Lecturer, Department of Methods of Teaching Social Sciences in Primary Education

Annotation. „Devonu lugot it turk“ is the first universal dictionary in the history of the Turkic peoples, covering all elements of dialectological, explanatory, ethnographic, historical-etymological dictionary. „How were the dishes of the X-XII centuries?“ We would also like to compare the reader who asked the lives of those who first saw the ancient pottery. Of course, it is difficult. In addition, we do not find a list of dishes from the X-XII centuries in the books on modern national dishes. For this reason, we refer to the work of the great scholar Mahmud Kashgariy „Devonu lugot it turk“

Keywords ; „Devonu lugot it turk“, X-XII centuries, types of food, gurunqli dishes, cereals, meat dishes with similarities with modern dishes

XI asrda yashab o'tgan turkshunoslik ilmining asoschisi, filolog olim, etnograf Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg'ariy 1056-1057-yillarda mamlakatdagi ichki nizolar natijasida o'z vatanini tark etib, 15 yil davomida atrofda qardosh xalqlar orasida yurishga majbur bo'lgan. Ana shu yillarda u turk xalqlar yashaydigan o'lkalarni kechib, bu yerlardagi turkiy qabila va urug'lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishlari, joylashish o'rinlari urf-odatlarini, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o'rganadi. So'ng Bag'dodga borib, ancha shu shaharda ijod qilgan, xususan, 1072-yil ba'zi manbalarda 1074-yil dunyoga mashhur asari „Devonu lug'ot it turk“ni yozib bitiradi va uni abbosiylardan bo'lgan Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtado biamirullohga bag'ishlaydi [1.44-b]

„Devonu lug'ot it turk“da oziq-ovqatlar va taomlarning manbasi, taom turlari, oziq-ovqat xom ashyosini hozirlash jarayoni, taom tayyorlash va iste'mol qilishga kerakli oshxonalar qurollariga doir juda muhim ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Mahmud Koshg'ariyning turkiy xalqlarning an'anaviy taomlari orasida guruch va don mahsulotlari bilan bog'liq taomlar alohida o'rin egallagan bo'lib, „Devonu lug'ot it turk“ asarida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan;

Tutirqan-guruch [1.116, 475, 454-b]

Qovurmach-qo'g'irmoch, qovurilgan bug'doy

Uva-bir taom oti. Guruchni qaynatib, so'ng sovuq suvga solinadi, keyin suvni to'kilib, shakar solinadi, sovuqlik uchun yeyiladi. [1.117-b]

Qavut (qag'ut shakli ham bor) – ya'ni tuqqan xotinlar ovqati. Qovurilgan tariq uni yog' va shakarga qorib yeyiladi. [2. 178-bet]

Korshak-tariq, qo'voqlarning mag'zini ayrib, suv yoki sutga qaynatib, so'ng ustiga yog' quyib yeyiladigan ovqatning nomi.

Qagut-so'kdan qilinadigan bir xil ovqat. u shundayki: so'kni qaynatib, keyin quritib, tegirmonda tortiladi, so'ng yog' va shakar bilan qoriladi, ya'ni holva tolqon qilinadi. Bu sevimli taomlardandir.

Buxsi- bir xil ovqat: bug'doyni qaynatiladi, keyin uni bodom mag'zi bilan qo'shib xumchaga solinadi, ustiga arpa suvi quyiladi va shu holda qo'yib achitiladi. Bug'doyini yeyiladi, suvini ichiladi.

Surush- doni qotmasdan oldin olinib, qovurib, yanchib yeyiladigan bug'doy qismi.[1. 349, 385, 399, 443- b]

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, X-XII asrlarda ham guruch va don mahsulotlari bilan bog'liq taomlar turi turlicha bo'lib, hozirga qadar aholining kundalik turmushida asosiy taomlar bo'lib qolmoqda. Bu haqida elshunos olim Ulug'bek Abdullayev shunday yozadi:

“ Aholi nafaqat bug'doy, balki boshqa boshqoqli ekinlar (makkajo'xori, jo'xori va tariq) donidan ham un tayyorlab, undan turli xildagi issiq taomlar pishirilgan. XIX asr oxirlariga kelib vodiya jo'xori yetishtirishga alohida e'tibor qaratilgan va aholi orasida aynan ushbu boshqoqli ekin donidan tayyorlangan un va yormasidan taom tayyorlash sezilarli darajada oshdi. Xususan, jo'xori yormasidan pishiriladigan “go'ja”, (“ go'ja osh”) nafaqat o'troq balki yarim o'troq va yarim ko'chmanchi aholi orasida ham ommalashdi.

Guruchdan tayyorlangan turli xildagi ovqatlar o'troq aholi taomnomasida alohida o'rin egallagan. Mastava, xo'rda, sutli osh, shirguruch, shovla, palov kabi suyuq va quyuq taomlarni tayyorlashda guruch asosiy masalliq hisoblanadi. Guruchdan o'zbek va tojik xalqlarining eng sevimli taomi- palov tayyorlangan.

Farg'onaliklar orasida “osh” atamasi bilan keng tarqalgan ushbu lazziyatli taomning bir necha xili tayyorlangan. Ayniqsa, mahalliy devzira navli guruchdan qo'yning yog' - go'shtiga tayyorlangan qovurma palov aholi orasida sevib iste'mol qilingan.

To'g'ri, o'tmishda ko'proq badavlat xonadonlargina palovni muntazam tayyorlash va iste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Zero, ushbu to'yimli, shifobaxsh, ayni vaqtda qimmatga tushadigan taomni doimo tayyorlab iste'mol qilishga aholining kambag'al qatlamida imkoniyat bolmagan, albatta. Biroq barcha xonadon sohibalari palov tayyorlashni yaxshi bilganlar.

Ekin maydonlarida yetishtirilgan mosh va loviyalarni guruch ovqatlariga qo'shib, o'ziga xos lazziyat beruvchi “moshkichira”, “moshxo'rda” kabi taomlar ham tayyorlanilgan.

Darvoqe, farg'onalik yarim o'troq aholi vakillarining o'troq turmush tarziga o'tib, dehqonchilik bilan shug'ullanayotgan guruhlar taomlarida ham jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu, avvalo, ular taomnomasida o'simlikdan tayyorlanadigan oziq-ovqatlar tarkibining kengayib borishida o'z aksini topdi. Xususan, o'troq aholi tomonidan muntazam tayyorlanadigan xamir va guruch ovqatlar o'rtoqlashgan qirg'iz, qipchoq, turk, yuz, qurama kabi etnik jamolar taomnomasida ham mustahkam joy ola boshladi. Bu guruhlar uchun atala, go'ja, ugra, chuchvara kabi taomlar deyarli tez-tez tayyorlanib iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlarga aylanib bordi. Xo'rda, mastava, shovla va hatto palov kabi guruchdan tayyorlanadigan taomlarni ham asta-sekin ushbu etnik guruhlar o'z milliy taomlari sifatida e'zozlaydigan bo'ldilar.

Barchamizga ma'lumki o'zbek milliy taomlarining barchasi go'shtli, go'shtsiz taom yo'q deyish mumkin. Zero, bundan an'anaviy go'shtli taomlar qadimdan turkiy xalqlarga xos ekanligi Mahmud Koshg'ariyning “Devon-u lug'otit turk” asarida ham o'z ifodasini topgan.

Sugut-ichak ichiga guruch, go'sht va hushbo'y dorivorlar solib, pishirib yeyiladigan xasip.

Tobiq- to'piq so'ngaklaridan qilinadigan ovqat.

Tormak- tuxum va go'shtdan tayyorlanadigan ovqat. [1. 338, 361-bet]

Sim-simraq (chigillar so'zi)- ovqat turi.Kalla qaynatilib pishirilgach, mayda qilib to'g'raladi, so'ng dorivorlar bilan birga idishga solinadi va ustiga achigan qatiq solinib, u singigach, yeyiladi.

Qazi jag- ot qorning yog'i (qazi yog'i). Turklarning eng yoqimli go'shti shudir.

Sokloncho-qovurma.[2. 150,243,260-b] Ma'lumotlarga ko'ra qovurma Markaziy Osiyoning ko'plab xalqlarida ayniqsa, xo'jaligi chorvachilikka ixtisoslashgan etnoslarda keng tarqalgan edi.Uni tayyorlash yo'li ancha oson bo'lib , so'yilgan hayvonning go'shti hamda ba'zi bir iste'mol uchun yarqoli bo'gan ichki a'zolari (buyrak, jigar, yurak va boshqa) qozonda qo'yning dumba yog'iga qovurilgan. M. T.Aytboev qirg'izlarda ikki xil "qovurma" tayyorlanganligini yozadi.Birinchisida, yarim o'troq o'zbeklardagina o'xshash tarzda , ya' ni maydalangan go'sh faqat yog'da qovurilib olingan, ikkinchisida esa ozroq miqdorda suv ham qo'shilgan. Suv qo'shmasdan tayyorlangan qovurma "qora qovurdoq" ("qora quurdak") deb atalgan. [3. 133-b]

Tarix: Ha, haqiqatan ham atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi inson faoliyati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Hozirgi bosqichda genetik xilma-xillikni saqlab qolish uchun insoniyat tomonidan tabiatni muhofaza qilish tadbirlari keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Ular tomonidan noyob turlarni ko'paytiradigan maxsus markazlar tashkil qilinmoqda: genlar banki, qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, botanika bog'lari, zooparklar shular jumlasidandir.

Himoyachi: Haqiqatan ham kishilik jamiyati fanlarining turli jabhalarida ancha ilg'or yutuqlarga erishgan bo'lsa-da ko'p jihatdan ekologik bilimsizdir. Shu sababli hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri aholining barcha tabaqalarida ekologik ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilishdir.

Ekologiya: Ekologiya – tirik organizmlarning ularni qamrab turgan atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi to'g'risidagi fan. Bu aloqalar juda murakkab, bir butun tizimni hosil qilib, u yerdagi hayot deb ataladi. Insoniyat ham ana shu hayotning bir qismidir. Inson 3 mln yildan beri ma'lum bo'lgan yerdagi biologik turlardan biridir.

Sistematika: Bugun insoniyat shunday bir vaziyatga yetib keldiki, uning Yer sharida yashab qolish yoki yo'q bo'lib ketish masalasi dolzarb bo'liq qoldi.

Himoyachi: Hurmatli sud raisi, mening himoyamdagi Insonga so'z berishga ijozat bering.

Inson: Shuni yaxshi tushunamanki, men alohida shaxs sifatida biosferaning rivojlanish mevasi bo'lgan insoniyatdan ajralib qola olmayman. Biosfera o'z navbatida Yer sharining rivojlanishi natijasidir. Shunga muvofiq odamlar sayyoramiz haqida qayg'urib, birinchi navbatda atrof-muhit ifloslanishini oldini olish, ifloslangan chiqindilar va oqimlarni tozalash, ulardan qayta foydalanishning samarali va xavfsiz yo'llarini ishlab chiqish, tabiatning ifloslanish darajasini, uning insonga ta'sirini hamda inson xo'jalik faoliyatining atrof-muhitga ta'sir darajasini aniqlash va baholash, insonlarni ekologik tarbiyalash, ularda ekologik madaniyatni rivojlantirish.

Men va'da beramanki, insoniyat tabiatga nisbatan munosabatini o'zgartiradi, uning o'ziga xosligi va betakrorligini, o'zini uning kichik bir bo'lagi ekanligini tushunadi.

Sudya: Marhamat sud maslahatchilari. Sizlarga hukm chiqarish uchun 3 daqiqa vaqt (ular maslahat qilib, yakuniy xulosani aytishadi).

Endi kelinglar, sud maslahatchilarining qanday qarorga kelishganini eshitaylik:

Sud maslahatchilarining xulosasi: Biz bu masalada shunday fikr bildiramiz: bizning moviy sayyoramizni ko'pincha ulkan kosmik kemaga qiyoslashadi. U olamning cheksiz bo'shliqlarida harakatlanadi. Insoniyat esa ana shu kemanding yo'lovchilaridir. Lekin, kemamizda ko'plab yechimini kutayotgan ekologik muammolar bor.

Sudya: Hukm chiqarildi. Inson aybdor, lekin u o'zining xatolarini tuzatishi kerak. Sud jarayoni tugadi.

III. Dars yakuni: O'qituvchi: Sud o'z ishini tugatdi. Hukm chiqarildi. Sud maslahatchilari o'rtaga tashlagan ko'plab savollar ustida o'ylashimiz, o'z faoliyatimizni atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan tarzda olib borishimiz, bir so'z bilan aytganda ekologik madaniyatli bo'lishimiz zarur va bu bugungi kunning eng muhim talabidir.

XULOSA

Hayotiy vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan o'yinlar olingan bilimlar, egallangan ko'nikma, malaka, kompetensiyalarning ahamiyatini oshiradi. O'quvchilarning turli yangi vaziyatlarga tushishi bilimlarning integratsiyalashuviga, uning ijtimoiy tajribasini boyishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, geografiya ta'limida o'yinlarni tashkil qilish hamda o'tkazish umumiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – T.: Moliya, 2003.- 172 b
2. S.Y.Maxmudov, M.A.Umaraliyeva, G.K.Karimova. Ilmiy pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali o'qituvchilarda information tahdidlarni oldini olish mexanizmi; T.: 2017.-157b.
3. A.Norboyev. Geografiya ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: "Lesson press", 2017.-159b.
4. R.G.Safarova, F.I.Yusupova, N.S.Sabirova, Z.To'qsonova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida modulli o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalar bankidan foydalanish mexanizmlari. T.: "Tafakkur qanoti", 2017.-145b. B-68-69 b

УДК: 371.3

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДА МЕҲНАТ МУҲОФАЗАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА БУГУНГИ КУНДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШДАГИ ИСТИҚБОЛЛИ ТАВСИЯЛАР

Абдуллаев Шерзод Олимжон ўғли: Андижон машинасозлик институти меҳнат муҳофазаси, ишлаб чиқариш ва технологик жараёнлар хавфсизлиги мутахассислиги магистри.

Курбанов Азимжон Жўрабой ўғли: Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари миллий тадқиқот университети Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги кафедраси ўқитувчиси.

Аннотация: Мамлакатимизда "Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш" фани ўқитишдаги бугунги кундаги муаммолар кўтарилган. Яъни ушбу фанни ўқитишда тизимли равишда ўқитилмаслиги ва хориж тажрибалари асосида инновацион технологиялар қўлланилмаслиги баён этилган. Шунингдек, ушбу муаммоларни бартараф этишда истиқболли режаларга тавсиялар кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Ҳаёт, фаолият, хавф, хавфсизлик, меҳнат муҳофазаси, фавқулодда вазият, фуқаро муҳофазаси, авария-қутқарув, маданият, энциклопедия, ёнгин.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУКИ ОХРАНЫ ТРУДА НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИХ РЕШЕНИЮ

Абдуллаев Шерзод Олимжонович: магистр Андижанский институт машиностроения , Курбанов Азимжон Джурабаевич: Ташкентского национального исследовательского университета,

Аннотация: В нашей стране сегодня поднимаются проблемы в преподавании предмета "Охрана труда на промышленных предприятиях". То есть утверждается, что эта наука не должна систематически преподаваться, а инновационные технологии не должны использоваться на основе зарубежного опыта. Были также даны рекомендации в отношении перспективных планов решения этих проблем.

Ключевые слова: Жизнь, деятельность, опасность, безопасность, охрана труда, чрезвычайная ситуация, гражданская защита, спасение, культура, энциклопедия, пожар



CURRENT PROBLEMS OF LABOR PROTECTION SCIENCE IN PRODUCTION ENTERPRISES AND PROSPECTIVE RECOMMENDATIONS FOR THEIR SOLUTION

Abdullaev Sherzod Olimzhonovich: Master of Andijan Institute of Mechanical Engineering,

Kurbanov Azimjon Jurabaevich: Tashkent National Research University,

Annotation: *In our country, today's problems in the teaching of the subject "Labor protection at industrial enterprises" are raised. That is, it is stated that this science should not be systematically taught and innovative technologies should not be used on the basis of foreign experience. Recommendations were also made to prospective plans in addressing these problems.*

Keywords: *Life, activity, danger, safety, labor protection, emergency, civil protection, rescue, culture, encyclopedia, fire.*

.Асосий қисм

Бугунги кунда мамлакатимизда таълим ва фан соҳасини ривожлантиришга катта эътибор қаратиб келинмоқда. Бу борада қилинаётган ишларнинг яна бир исботи сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти 2017 йил 7 февраль кунги ПФ-4947-сонли фармони билан 2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини тасдиқлади. Ушбу устувор йўналишларнинг тўртинчиси "Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишлари" бўлиб, унинг 4-бандида "Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш" этиб белгиланган

ва унда бир қатор устувор вазифалар белгилаб қўйилган. Ушбу бандга асосан таълим соҳасини янада ислоҳ қилишда таълим жараёнларини инновацион технологиялардан кенг фойдаланиш асосий мақсад сифатида қаралиши белгилаб берилган [1].

Шунингдек, бешинчи устувор йўналишда "хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш, чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритиш" устувор вазифалар белгилаб берилган.

Мамлакатимиз ва жамиятимизнинг хавфсизлигини таъминлашда, албатта фаннинг роли беқиёс. Чунки, фанларни мукаммал ўрганиш орқали тингловчиларда етук савод ва чуқур билим юзага келади. Натижада келажакдаги ушбу билим ва салоҳиятлардан фаолиятнинг олий даражаси бўлиши – Меҳнат фаолиятида кенг фойдаланади. Демак, фан ишлаб чиқариш билан чамбарчас бўғлиқ деган фикрнинг яна бир исботини кўришимиз мумкин.

Бугунги кунда турли хил хавфлардан муҳофазаланиш ва хавфсизлик чораларини мустақил ҳамда жамоавий белгилашни ўргатадиган фан - Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш фанидир. Демак, ушбу фанни ўқитиш доразарблигини кўрсатмоқда.

Ушбу фан бўйича умумий тўхталиб ўтсак. Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш фани тарихан шаклланган фандир. Чунончи, тарихда ушбу фаннинг номи Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш деб алоҳида юритилмаган бўлсада бошқа фанлар тизимида шаклланганлигини буюк шахслар ва олимларнинг асарлари мисолида келтириш мумкин.

Жумладан, немис врачлари ва металлурги Агрикола (1494-1555) ўзининг “Тоғ ишлари тўғрисида” деб номланувчи асарларида инсон фаолиятида меҳнат муҳофазаси масалалари ҳамда шахсга қаратилган хавфсизликка алоҳида баён қилганлигини кўришимиз мумкин [4].

Шунингдек, италиялик врач Рамаццини (1633-1714) касбий гигиенага асос солган, у “Хунармандлар касалликлари” деган китобида инсон фаолиятида касб касалликлари ва уларни соғлиғига бевосита ҳамда билвосита таъсир этувчи хавфларни таъкидлаб ўтган [5].

XIX асрда саноатнинг жадал ривожланиши билан хавфсизлик муаммолари билан шуғулланувчи бир қанча кўзга кўринган олимлар пайдо бўлишди: Д.Л.Кирпичев (1845-1913), А.А.Пресс (1857-1930), Д.П.Николский (1855-1918), В.А.Левицкий (1867-1936), А.А.Скочинский (1874-1960), С.И. Каплун (1897-1943) ва бошқа олимларнинг асарларида хавфсизлик масалаларига биғишланган маълумотлар келтириб ўтилган. Бу эса ўз навбатида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанининг вужудга келишига ўз ҳиссасини қўшганлигини барчага маълумдир [5].

Бугунги кунда МДХ давлатлар орасида Россия Федерациясида “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” фани биринчилардан бўлиб жорий этилиб ўқувчи ва тингловчиларга ўқитилиб келаётганлиги ҳамда ушбу фан ўргатилиши натижасида аҳолисини турли хил офатлардан муҳофазаланишга тайёрлаб келинмоқда.

Муस्ताқилликка эришганимиздан сўнг мамлакатимизда “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси бўйича ўқитишнинг” фанини ўқитиш босқичма-босқич амалга оширилиб келинди. Жумладан, Олий таълим тизимида “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” фани жорий этилиб, барча бакалавр таълим йўналишдаги талабаларга белгиланган стандарлар асосида таълим бериб келинди. Бу эса барча бакалавр таълимида барча йўналишларига меҳнат фаолиятларида шахсий ва умумий хавфсизлигини таъминлаш бўйича билим ва кўникмага эга бўлиб келмоқда.

Шунингдек, Ўрта махсус таълим тизимида “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” фани 2012-йилдан буён ўқитилиб, меҳнат фаолиятида юзага келиши мумкин бўлган хавфлардан муҳофазаланиш бўйича кўникма ҳосил қилиниб келинмоқда.

Умумий ўрта таълим муассасаларида ўз навбатида бошланғич синфларда одобнома ва табиатшунослик, юқори синфларда эса физика, кимё, зоология, биология, география, чакриққа қадар бошланғич тайёргарлик ва бошқа айрим турдаги фанларга мавзулар интеграллаштирилган ҳолда ўқитилиб келинмоқда.

Таълим муассасаларида хавфсизликни олдини олишга қаратилган фанлар ўтилиши мамлакатимиз аҳолисини турли хил салбий хавфлар таъсирлардан муҳофазаланишга ўргатиб келинаётганлигидан долалат бермоқда.

Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофаза қилиш бўйича ўқитишда хориж давлати тажрибасига муҳим рол ўйнайди. Дарҳақиқат, Ю.Л.Воробьевнинг “Аҳолини Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш маданиятини шакллантириш асослари” асарларида Россия Федерациясининг тажрибасини қуйидагича ўрганишимиз мумкин. Россия Федерациясида “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” фанининг ўқитишда бошқа фанларга нисбатан алоҳида ўрин тутади. Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш фани ўқитиш



тизимли равишда ўқитилади, , олий таълим ва олий таълимдан кейинги таълимда таҳсил олишга эътибор қаратилган [2].

Ўрта таълимда ўқувчи болаларга турли хил хавфларни олдини олишга қаратилган анимациялар, тақдиротлар, видео-роликлар ва вертуал тизимдаги ўқитиш йўлга қўйилган. Болаларни хавфлар ва улардан ҳимояланиш бўйича кўргазмали материаллар орқали тушунчага эга бўлади 9-11-синф ўқувчилар учун “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси” фани бўйича ўқитиш йўлга қўйиш зарур [3]. Шунингдек, ўқитишда синф адабиётларида фавқуллодда вазиятлар ва инсон организмига салбий этувчи таъсир хавфлар бўйича умумий тушунчалар ва улардан ҳимояланиш бўйича маълумотларга асосланган. Синф ўқувчилари учун махсус хавфсизлик муҳофазасланиш учун журнал ва тарқатма материаллар жорий этиш керак. Жумладан, “Фавқуллодда вазиятларда хавфсизлик болалар энциклопедияси”, “Хавфсиз ҳаёт”, “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш асослари кулгили (масхаробоз шаклида) дастурлар” ва бошқа турли хил ахборот ташувчи манбалардан кенг фойдаланиб ўргатилади. Юқори синфларда эса потенциал хавфлар реал хавфга айланганда уларда ҳаракат қилиш ва жабрланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш алгоритмлари ўргатилади. Шунингдек, ўқувчилар иштирокида Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш ни таъминлашга қаратилган тўғарақлар, умуммиллий ва халқаро миқёсдаги амалий мусобақалар ўтказилиши йўлга қўйилган [2].

Олий таълим тизимининг барча бакалаврият мутахассисларига “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш ” белгиланган тартибда ўтилиши жорий этилган. Фан доирасида амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказиш учун керакли жиҳозлар модели яратилган. Агар лаборатория ва амалий машғулотларни ўтказишда кerals жиҳозлар мавжуд бўлмаса уларнинг вертуал ўтказиш жорий этилган. Талабалар машғулотларни ўтказиш икки усулда амалга ошириди. Натижада тингловчиларда назарий ва амалий тушунчага эга бўлади.

“Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” мутахассилиги бўйича таълим олувчи бакалавр тингловчилари дарсларни ўтказишда амалий машғулотларга эътибор қаратган. Амалий машғулотларни ўтказишда Олий таълим тизими ва Фавқуллодда вазиятлар вазирлик тизими ўзаро ҳамкорлигида махсус дарс ишланмалари ишлаб чиққан. Бунга мувофиқ, “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш ” бакалавр мутахассислик таълим олувчи тингловчилар фавқуллодда вазиятларда ҳаракат қилиш, кучли таъсир этувчи захарли моддалардан (КТЭЗМ) ҳимояланиш ва бошқа турли офатлардан муҳофазаланиш бўйича йўриқномаларни ишлаб чиқиш ҳамда жойларда ижроси бўйича амалий ишларни олиб боради.

Олий таълимдан кейинги таълим тизимида таҳсил олувчилар учун йиллик қабул квота миқдори бошқа соҳаларга нисбатан кам. Ушбу фан бўйича нисбат жудаям кам фан номзодлари ва фан докторлари мавжуддир.

Мамлакатимизда бугунги кунда “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш ” фанини ўқитишда юзага келаётган муаммоларни қуйидагича изоҳлаш мумкин.

биринчи, Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси бўйича ўқитиш мамлакатимизда тизимли равишда ўқитилиб келинмаслиги, яъни мактабгача, умумий ўрта таълим тизимларида алоҳида фан сифатида ўтилмаслиги. Бугунги кунда жамиятимизда айрим фанларга интеграллаштирилган ҳолда ўқитилиб келинмоқда,

лекин ушбу фаннинг таянч дарсликлардан фойдаланмаслиги ҳамда мутахассис педагоглар томонидан таълим бериб борилмаслигини келтиришимиз мумкин.

иккинчи, Олий таълим тизимида “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” фанининг ўқитиш тизимидан фойдаланишда етарли даражада ўқув моддий-техник базаси мавжуд эмаслиги. Яъни фан доирасида ўқув мажмуаларни намунаси олий таълим муассасаси томонидан ишлаб чиқиб, барча таълим муассасаларига жорий этилмаганлиги.

учинчи, Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш фанининг амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказиш учун керакли жиҳозлар ва воситалар етишмаслиги ёки уларнинг виртуал машғулот бажариш жиҳозлари таълим муассасаларида жорий этилмаганлиги.

тўртинчи, Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси бўйича бакалавр мутахассисларини ўтиладиган фанларни “Фан дастурлар”ни ўзаро мувофиқлаштириш. Чунки, мутахассислик йўналишларга ўтиладиган “Йўналишга кириш, Меҳнат муҳофазаси, Ишлаб чиқариш жараёни хавфсизлиги, фавқулдда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси, Саноат хавфсизлиги” фанларнинг мавзулари такрорланиб келиши. Мисол тариқасида, “Фавқулдда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси” фанида “Фавқулдда вазиятлар таснифи” мавзуси “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш ва Авария-қутқарув ишлари” фанида ҳам такрорланади. Бу эса бир хил мавзулар ўтилишда талабалар учун дарс машғулотларидан янги мавзуга эҳтиёж сезилишини кўришимиз мумкин.

бешинчи, Таълим муассасаларида “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” фани ўқитишда мутахассис ўқитувчилар томонидан ўтказилмаслиги ҳамда ушбу соҳа бўйича академик даража олиш учун Олий таълим тизимларида қабул квоталар сони камлигини кўришимиз мумкин дир.

Юқорида таъкидлаб ўтилган муаммолар “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш” фанининг ривожланишига ҳамда фан доирасида салоҳиятни ўсишига тўсқинлик қилаётган сабаблардан бири ҳисобланиб келмоқда. Ушбу муаммоларни ҳал этиш ва фаннинг ривожланиб, истиқболлини ривожлантиришга қуйидаги тавсияларни илгари суриш мумкин деб ҳисоблайман.

биринчи, таълим тизимларида янги фан “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш маданиятини шакллантириш” фани жорий этиш лозим. Бунинг натижасида ўқувчилар ва талабалар орасида “Хавфсизлик маданияти” тушунчаси пайдо бўлиб, жамиятимизда хавфдан сақланиш усуллари ва тамойилларини илгари суради. Ўз навбатида жамиятимизда табиий, техноген ва экологик хавфсизликка ўзларида интилиш бўлади.

иккинчи, умумий ўрта таълим муассасаларида Меҳнатни муҳофаза қилиш фанини ўтилишини жорий этиш ҳамда фан доирасида ўқув қўлланмаларни яратиш. Ўқув қўлланмаларнинг ишлаб чиқишда умумий ўрта таълим муассасаларининг қуйи ва юқори синфлар учун алоҳида-алоҳида тайёрлаш лозим. Фан доирасида қўлланмалар ва дарсликлар тайёрлашда Россия ва Беларусь мамлакатлари тажрибасидан фойдаланиш лозим. Юқори синфлар учун эса “Болалар хавфсизлиги энциклопедияси”, “Омон қолиш асослари”, “Ёнғиндан қутқариш асослари” ва бошқа қўлланмалар жорий этиш лозим.

учинчи, мактабгача таълим муассасасида таҳсил олувчи болалар учун “Хавфдан химояланиш”, “Умумий хавфлар” ва турли хавфлар ҳақида муҳофазаланиш бўйича

мулфилмлар, видео-роликлар тайёрлаб номойиш этиб бориш мақсадга мувофиқдир. Чунки, 3-6 ёшли болалар инсонлар ва ташқи муносабатларга тақлид қилиб улғайишади. Ушбу даврда биз хавфлардан муҳофазаланиш бўйича видео-роликларни қизиқарли ва раван этиб номойиш этиш орқали уларда салбий таъсирлардан муҳофазаланиш бўйича тушунча пайдо бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофаза қилиш фанининг таълим муассасаларида тизимли ўқитишни жорий этиш, мамлакатимиз аҳолисини табиий ва техноген хусусиятли фавқулдда вазиятлар муҳофазаланишни, саноат корхоналарида меҳнат хавфсизлиги, санитар-гигиеник ҳолатлар ҳамда инсон ва атроф табиий муҳитга келтириладиган зарарларни олдини олишга қаратилган чора-тадбирларнинг мажмуаси демақдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли фармони.
2. Mark. A., Friend.P., "Fundamentals of Occupational Safety and Health" berman press, Германия, 2007
3. Воробьев Ю.Л "Основы формирования культуры безопасности жизнедеятельности населения" МЧС России. – М.: Деловой экспресс, 2006. 55-68-б.
4. <https://saarj.com/wpcontent/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULL-PDF/ACADEMICIA-MARCH-2021/3.377,%20H.A.%20Rustamov.pdf>
5. Юлдашев Ў.Р "Меҳнат муҳофазаси махсус курси" дарслик. "Тафаккур қаноғи". Тошкент-2015. -536 б.
6. Хасанова Т.О. ва бошқалар "Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш " дарслик "Тошкент-иқтисод", Тошкент-2014. -268 б.
7. Ёрматова Ғ.Ё. ва бошқалар "Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси қилиш ". "Алоқачи", Тошкент-2009, -348-б.
8. www.gov.mchs.ru
9. www.edu.uz
10. www.ziyonet.uz
11. www.arxiv.uz



ХАЛҚ ҰЙИНЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДАГИ ПЕДАГОГИК ОМИЛЛАРИ

Турғуной Ахмаджоновна Эгамбердиева
педагогика фанлари доктори
Фарғона давлат университети профессори,
ФарДУ Гендер тенглиги тадқиқотлари маркази раҳбари
Тел: +99891 325 57 42

Салимжон Валиевич Йўлдошев
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD),
Фарғона давлат университети, Ўзбекистон тарихи кафедраси доцент в.б.,
Тел: +99899 680 68 56 E-mail: Salimjon660@fardu.uz

Аннотация: *Мазкур мақолада болалар ўйинларининг педагогик таҳлили ва ўйинлар асосида бугунги авлодни ақлий, жисмоний, руҳий, ахлоқий, эстетик руҳда тарбиялашнинг энг қулай ҳамда ихтиёрий манбаларидан эканлиги педагогик омил сифатида ўрганилган.*

Калит сўзлар: *Ўйин, номоддий маданий мероси, маънавий, таълим-тарбия, жисмоний тарбия, ақлий, жисмоний, руҳий, ахлоқий, эстетик ўзаро ҳурмат ва эътироф, умуминсоний туйгулар.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ НАРОДНЫХ ИГР В УЧЕБНОМ – ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Турғуной Ахмаджоновна Эгамбердиева
доктор педагогических наук
профессор Ферганского государственного университета,
руководитель Центра гендерного исследования ФерГУ
Тел: +99891 325 57 42

Салимжон Валиевич Йўлдошев
доктор философии по историческом наукам (PhD)
Ферганский государственный университет, и.о. доцент кафедры истории Узбекистана
Тел: +99899 680 68 56 E-mail: Salimjon660@fardu.uz

Аннотация: *В данной статье педагогический анализ детских игр и на основе этих игр исследуется педагогический фактор как один из наиболее удобных и добровольных источников воспитания современного поколения в умственном, физическом, духовном, нравственном, эстетическом духе.*

Ключевые слова: *Игра, нематериальное культурное наследие, духовное, образовательное, физическое воспитание, умственное, физическое, духовное, нравственное, эстетическое взаимоуважение и признание, общечеловеческие чувства.*

PEDAGOGICAL FACTORS OF FOLK GAMES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Turgunoy Akhmadjonovna Egamberdiyeva
Doctor of Pedagogical Sciences
Professor Fergana State University
Head of the Gender Research Center of FerSU
Phone: +99891 325 57 42

Salimjon Valiyevich Yuldoshev

Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

Fergana State University, acting Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan

Abstract: *In this article, the pedagogical analysis of children's games and on the basis of these games explores the pedagogical factor as one of the most convenient and voluntary sources of educating the modern generation in the mental, physical, spiritual, moral, aesthetic spirit.*

Key words: *Game, intangible cultural heritage, spiritual, educational, physical education, mental, physical, spiritual, moral, aesthetic mutual respect and recognition, universal human feelings.*

Ҳар қандай жамиятда ёш авлод тарбияси давлат олдида турган энг долзарб масалалардан бири бўлиб келган. Чунки, жамиятнинг равнақ топиши ва ривожланиши ана шу келажак авлод тарбиясига боғлиқ.

Тарбия шахсни жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий ишлаб чиқариш муносабатларига тайёрлаш, шунингдек, унинг маънавий, ақлий, жисмоний, умуман олганда эстетик ривожланишига мунтазам таъсир этиб борувчи узлуксиз жараён. Ҳар бир халқнинг миллий ўзлигини кўрсатадиган қадимий урф – одат ва маросимлари эзгуликни улғайтирган боқий анъаналари мавжуд. Соғлом, ақлли, эгчил ва мард авлодни тарбиялаб вояга етказиш ҳар бир аждоднинг эзгу орзусидир. Бу борада турли болалар ўйинларининг ўрни ва аҳамияти бекиёс.

Болалар ўйинларида асосан маҳаллий аҳолининг касб-ҳунари, хўжалик машғулоти ўз ифодасини топган. Шунинг учун болаларнинг ўйинчоғларида, уй-рўзғор буюмлари, қишлоқ хўжалик асбоблари, ов қуроли, идиш-товоқлар каби намоён бўлади.

Айрим ўйинлар асосан қизлар (меҳмон-меҳмон, бола-бола, тўптош, лаппак), баъзилари эса ўғил болаларга (улоқ, кураш, чакан, пар, эшак минди ва ҳакоза) хос. Қиз ва ўғил болалар аралаш иштирок этишлари мумкин бўлган ўйинлар ҳам мавжуд.

Болалар ўйинлари қайси шакл, мавзу, йўналишга эга бўлмасин, лой тўпроқ биланми, ёғочу-калтакми, ипу-арқон биланми, қайсиси бўлса ҳам болани турмуш иқдорлари, уй-рўзғор ва хўжалик ишлари, умуман ҳаётга тайёрлашда ўзига хос ҳунар мактаби ролини ўтаган.

Ўйинлар жисмоний маданиятни, жисмоний камолот, - жамиятдаги умумий маданиятнинг бир қисмидир. Шунингдек, у инсоннинг жисмоний камолотини ривожлантириш, саломатлигини мустаҳкамлашга йўналтирилган ижтимоий фаолият соҳаларидан биридир. Жамиятда инсон саломатлиги ва жисмоний маданият савияси: таълим - тарбия, иш фаолиятида, турмушда жисмоний тарбиядан фойдаланиш даражаси: бўш вақтдан унумли фойдаланиш орқали инсон ўзига ҳамда мамлакатимиз тарақиётига катта ҳисса қўшишга ундайдиган омиллардан ҳисобланади.

Маълумки жисмоний тарбия, жисмоний машқлар ва спорт билан мунтазам меъёردа шуғулланиш инсон саломатлигини мустаҳкамлайди, иш қобилиятини ўстиради, (айниқса ҳозирги пандемия шароитида “Covid-19” касаллиги билан курашда) соғлом турмуш эътиёжларини тарбиялайди, бу эса узоқ умр кўриш ва ўз навбатида мамлакатимиз тарақиётини фаол меҳнат қилишни асосий омилларидан биридир.

Ҳар бир инсон ўзи ва фарзандларини жисмоний камолоти учун оилада, жамиятда соғломлигини сақлаш ва мустаҳкамлашда айнан ҳозирга даврда соғлом турмуш тарзига амал қилиш асосий вазифалардан ҳисобланади.



Юқоридаги масалаларни амалга оширишни педагогик тарбия тизимининг энг муҳим вазифаларидан бири, мактабгача тарбия муассасаларида ва оилада болаларга таълим бериш шакллари, усуллари ва соломатлигини мустаҳкамлаш ҳамда сақлаш воситалари, уларда жисмоний такомиллаштиришга бўлган эҳтиёжларини шакллантириш бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Давлатимиз раҳбари томонидан ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та муҳим ташаббусни илгари суриши бунга мисол бўла олади.

Хусусан, иккинчи ташаббус ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган. Мактабгача ёшдаги болаларга таълим-тарбия беришнинг асосий вазифалари болаларни жисмоний, ақлий ва маънавий жиҳатдан ривожлантиришдан, уларнинг туғма лаёқати, қизиқиши, эҳтиёжи ва имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида мунтазам таълим олишга (мактабга) тайёрлашдан иборатдир.

Мактабгача ёшдаги болаларни ривожлантириш ва мактабга тайёрлаш жараёни олдида қўйилган мақсад ва вазифаларнинг бажарилиши ушбу “Мактабгача ёшдаги болалар таълим-тарбиясига қўйиладиган давлат талаблари” орқали назорат қилинади. Давлат талаби кўрсаткичларини белгилашда давлат ва жамиятнинг ижтимоий буюртмаси, мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмонан соғломлиги, қобилияти, эҳтиёжи ва имкониятлари, яъни бола шахсининг устиворлигидан келиб чиқилган. Таълим-тарбия мазмунининг асосий йўналишларида болаларни жисмоний ривожлантиришга катта аҳамият беришган. Болаларни тарбиялашда асосан уларни ёшларига мос бўлган ҳаракатли, шу жумладан миллий ўйинлар номларини, қоидаларини билиши ва уларда фаол иштирок эта олиши, югуриш ва сакраш, белгиланган меъёрларни бажариши, сафланиши, чаққон ҳаракат қилиш, чиниқтириш машқларини бажариш кабиларга ўргатиш мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний ривожланишини таъминловчи таълим-тарбия мазмунининг асосини ташкил этади.

Болаларнинг гигиеник ва жисмоний соғломликлари кўп жиҳатдан соғлиқни сақлаш ва мактабгача таълим тизимларининг ҳамкорликдаги интилишларига боғлиқ бўлади. Умумтаълим мактабларида болаларни жисмоний, маънавий камолоти ва келажакда мамлакатимиз тараққиётида фаол иштирок этадиган инсонлар қилиб тарбиялашда мавзу доирасида бугунги кунда қуйидаги ишларни амалга ошириш асосий вазифалардан деб ҳисоблаймиз:

Жаҳон халқларининг миллий маданияти бугунги глобаллашув ва интеграциялашув жараёнларида тобора унификациялашиб, умуминсоний характерга эга бўлиб бормоқда. Бу жараёнда анъанавий, миллий, номоддий маданиятининг ранг-баранг этник ва локал хусусиятларини илмий жиҳатдан ўрганиш ҳамда инсоният цивилизациясининг маданий мероси сифатида сақлаб қолиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Бу борада ЮНЕСКО, ХОҚ (Халқаро Олимпия қўмитаси), ЖССТ (Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти) бутунжаҳон TAFISA (“Спорт барча учун” ўйинлари) халқ ўйинлари каби халқаро ташкилотлар ҳамкорликда инсониятнинг номоддий маданий мероси бўлган миллий спорт турлари, халқ ўйинлари ва анъаналарини асраб қолиш, ривожлантиришга эътибор қаратмоқда.

Дунёнинг қатор мамлакатларида, айниқса, Осиё, Европа, Африка халқларининг миллий ўйинлари тарихини, у билан боғлиқ анъаналарини локал ёки этник асосда классификацияларга бўлган ҳолда илмий, амалий жиҳатдан ўрганилиб, минтақавий ва халқаро миқёсда фестиваллар, мусобақалар ташкил этишмоқда. Ҳатто, турк, қозоқ,

қирғиз, туркман тадқиқотчилари “Бутунжаҳон кўчманчи халқлар ўйинлари”[1] номи остида этнопедагогика йўналишларида мунтазам илмий изланишлар олиб бормоқда.

Бутунги кунда ўзбек халқининг сақланиб қолган номоддий маданий меросининг ўрганилиши, тикланиши ва ҳаётга татбиқ этилиши нафақат илмий, айти пайтда амалий жиҳатдан долзарбдир. Ўзбекистонда Халқ таълими вазирлиги ҳузуридаги Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси, Ўзбекистон Миллий Олимпия қўмитаси, Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия институти, Шарқ яккакураш ва жанг санъатларини ривожлантириш маркази, “Полвонлар Миллий Энциклопедияси”, “Этноспорт” жамиятлари каби ташкилотлар томонидан халқ ўйинларини ривожлантириш борасида илмий, тарғибот-ташвиқот ишлари олиб борилмоқда..

Бутунги авлодни маънан баркамол қилиб табиялаш, вояга етказиш усулларида бири халқ ўйинлари орқали амалга тадбиқ қилинишидир. Бу ўринда маънавият сарчашмаси, миллий-умуминсоний қадрият ҳисобланган халқ ўйинлари масофа ва ёш танламайди.

Ҳар бир халқнинг маданий –маънавий бойликлари хазинасига халқ ўйинлари ҳам киради. Халқ ўйинлари вужудга келиши ва ривожланишига кўра ғайриоддий ҳодиса эмас, балки халқнинг ҳаётини образли, муайян тарзда акс эттирадиган ва жамият тараққиётининг қонунлари билан белгиланадиган мақсадга йўналтирилган фаолиятдир.

Халқларнинг узоқ даврлардан буён сақланиб келаётган ўйинлари улар ҳаётининг бир бўлагига айланган. Ўйинларда халқнинг хоши-истаклари, ўтмиши, турмуш тарзи намоён бўлади. Халқ ўйинлари бошқа урф-одат ва анъаналар сингари узоқ тарихга эга. Бу ўйинлар, мусобақаларнинг айримлари турли таъсирлар натижасида модернизациялашган, айримлари локал хусусиятларини сақлаб қолган. Бу эса халқнинг ижтимоий-психологик ҳолатидан келиб чиқиб, қувноқлик, хушчақчақлик, тўй ва байрамларга иштиёқнинг кучлилиги, тадбир ўтказишга мойиллик каби компонентларнинг етакчилигидан далолат беради. Маънавий мероснинг қадимий қатламга хос миллий қадриятлар тизимида халқ ўйинлари марказий ўрин тутади. Ер юзида бирор бир ўйини шакланмаган халқни учратмайсиз. Инсон гўдаклигиданоқ ташқи оламни англай бошлайди. Бу жараёнда ўйинчоқлар воситасида атроф ҳақида тасаввурга эга бўлади. Гўдаклик, болалик, ўсмирлик ва ўспиринлик босқичларда турли ўйинлар ўзига хос тарзда ихтиёрий фаолият турлари ҳисобланиб, улар объектив равишда тарбиявий, ахлоқий, ижтимоий-эстетик функцияни бажаради[2]. Жумладан, “Хола-хола” ўйини болаларни ёшлик чоғиданоқ, меҳмон кутиш ва кузатиш, дастурхон тузаш одоби каби ижобий хислатлар шаклантирилади. Бу эса ўз навбатида қизларни оилага тайёргарлик босқичи вазифасини ўтайди.

Шундай тарбия усулига асосланган болалар ўйинлари талайгина. Масалан, “Лаптак”, “Тош кўтариш”, арқон, кошток, тош каби предметлар билан ўйналадиган қатор ўйинлар мазмуни болаларни жимсоний ва маънавий тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга. Бутунга қадар сақланиб қолган байрам, тўй, сайл, томошалардаги ўйинлар маънавий ва миллий ўзликка хос жиҳатларнинг тарихий, тарбиявий генетик асослари ҳисобланади[3].

Шунингдек, болалар ўйинларидаги уйғунлиги, атроф-муҳитга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш тарбиянинг муҳим омили эканлигини таъкидлаш ўринлидир.

Ўйинлар жараёнида болалардан ақл-заковат, моҳирлик, тадбиркорлик, эпчиллик ва чаққонлик, жасурлик ва шижоат, хушёрлик ва фавқулудда қатъий қарорга кела олиш

каби сифатлар талаб қилинади. Болаларда у ёки бу ўйинда иштирок этишда ихтиёрийлик принципига амал қилинади. Ташқи оламга тақлид ва уларни ҳаётга тадбиқ қилишга интилаётган болани кўрсангиз, билинги, у завқланипти, мураккаб оламнинг энг содда вакили нимагадир талпинапти[4]. Жумладан, асосан қизлар ўйнайдиган, хунармандчилик хўжалиги ривожланган ҳудудларда энг кўп тарқалган “Ранг топ”, “Лаппак”, “Тўп тош”, “Топишмоқ” (буюмлар билан боғлиқ топишмоқлар) каби ўйинлар болалар ва қизларда интеллектуал салоҳиятни оширишга хизмат қилади.

Ҳар қандай ўйинлар яқка тартибда ўйналмайди. Унда гуруҳ ва жамоа иштирок этади. Ўйин жараёнида жамоавий ҳаракат ва мулоқот, қоидалари, ахлоқ нормалари, ўзаро ёрдам кўникмалари, умуминсоний қадрият тамойиллари, маънавият ва руҳиятнинг таркибий қисмлари шаклланади. Ўйинларда шахслараро муносабат меъёрлари, катталар тажрибасини ўзлаштириш ва уни шахсий фаолиятда синаб кўришнинг кўникмалари вужудга келади. Халқ ўйинлари миллий ва умуминсоний қадриятларни шакллантириб бориш билан бирга миллий ўзликни билиш ва англаш, урф-одат ва анъаналарга содиқ қолиш жиҳатларини намоён қилиб бораверади.

Ўзбек миллий ўйинларига хос ижобий хусусиятларнинг бойлиги ҳам унинг хилма хил тарбиявий вазифалар бажаришини таъминлайди.

-халқ ўйинлари кўп минг йиллик тарихга эга бўлиб, аجدоддан авлодларга ўтиб келар экан, улар миллий қадрият сифатида миллик ўзликни англаш, миллатга мансублик, маънавий қадрият, асрлар оша шакланган урф-одат, анъана ва удумларни сақлаш ҳамда эъзозлашнинг асосларидан биридир;

-халқ ўйинлари очик ҳавода, асосан, жамоа бўлиб ўйналганлиги туфайли бу ўйинлар асосида бутунги авлодни ақлий, жисмоний, руҳий, ахлоқий, эстетик руҳда тарбиялашнинг энг қулай ва ихтиёрий манбаларидан биридир, шунингдек, миллатлараро тотувликни, ўзаро ҳурмат ва эътирофни, умуминсоний туйғуларни барқарорлаштиради.

Болаларда қадриятларга меҳр-муҳаббат уйғотиш, халқ анъаналарини авайлаб-асрашга ўргатиш кўп жиҳатдан ўзбек халқ миллий ўйинларидан унумли фойдаланиб билишга боғлиқ. Чунки ҳаракатли ва миллий ўйинлар орқали бола бир томондан жисмоний билимларни эгалласа, иккинчи томондан, жисмоний маданияга қизиқтириш муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар

1. Kırgızistan'ın Çolpon Ata Şehrinde 9-14 Eylül 2014 tarihlerinde gerçekleşen Dünya Göçebe Oyunları adlı program kapsamında Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi'nde 20-22 Kasım 2014 tarihlerinde “Türk Halklarının Geleneksel Spor Oyunları” adlı uluslararası sempozyum düzenlenecektir.// Илмий ва амалий халқаро конференция хабарномаси. 2014. – Б.1. www.gelenekselfed.gov.tr/
2. Йўлдошева Р. Ўзбек халқ ўйинларининг тарбиявий аҳамияти. – Тошкент: 1992. – Б.28.
3. Йўлдошев, С.В. Болалар ўйинларининг педагогик асослари ва методикаси: Ўқув услубий қўлланма/ – Фарғона: 2020. – 148 б.
4. Маҳсумов С. Миллий ўйинлар-тарбия воситаси// Маърифат. 2007.-№20.10 мар
5. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 407-412.



6. Kurbanovich, M. U. (2020). Pedagogical tendencies of the development of social activity skills of primary school pupils through the use of folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 562-566.

7. Maqsudov, U. Q. (2020). Stages and forms of development of social activity of primary school students through people's oral creativity. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1365-1368.

COMMUNICATIVE-COGNITIVE METHOD AS A MODERN MEANS OF ENHANCING ENGLISH LEARNERS' MOTIVATION

Bakhtijon Isroilova

PhD student, Uzbekistan State World Languages University

e-mail: isroilovabaxtijon@gmail.com Phone: +998900017494

***Annotation.** This article analyses the role of communicative-cognitive method in teaching English as a foreign language. It shows its main peculiarities which have been developing in modern language teaching methodology. Paper discusses the main way of creating the basic motivational conditions on the basis of adopting appropriate teacher behaviour and establishing rapport with the students. It collects basic principles of enhancing the learners' language-related values and attitudes and the outcomes of integrativeness, anticipated intrinsic pleasure of learning, instrumental incentives and etc.*

***Key words:** curriculum, instrumental motivation, student waiting time, self-awareness, motivation management, collaboration, intrinsic motivation, interest stimulation.*

КОММУНИКАТИВ-КОГНИТИВ МЕТОД- ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎРГАНУВЧИЛАР МОТИВАЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Бахтижон Баҳромжон қизи Исроилова

Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари Университети таянч докторанти

e-mail: isroilovabaxtijon@gmail.com +998900017494

***Аннотация.** Ушбу мақола инглиз тилини чет тили сифатида ўқитишда коммуникатив-когнитив усулнинг ролини таҳлил қилади. Бу замонавий тилларни ўқитиш методикасида ривожланиб келаётган асосий хусусиятларини кўрсатади. Мақолада ўқитувчиларнинг тегишли хатти-ҳаракатларини қабул қилиш ва талабалар билан ўзаро муносабатларни ўрнатиш асосида асосий мотивацион шароитларни яратишнинг асосий усули муҳокама қилинади. Унда ўқувчиларнинг тил билан боғлиқ қадриятлари ва муносабатлари ва интеграциялашув натижаларини оширишнинг асосий тамойиллари, қутилган таълимдан завқланиш, инструментал рағбатлантириш ва ҳоказолар муҳокама марказига олинади.*

***Калит сўзлар:** ўқув дастури, инструментал рағбатлантириш, ўқувчиларнинг қутиш давомийлиги, ўзини ўзи англаш, мотивацияни бошқариш, ҳамкорлик, ички мотивация, қизиқишни рағбатлантириш.*



КОММУНИКАТИВНО-КОГНИТИВНЫЙ МЕТОД КАК СОВРЕМЕННОЕ СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Бахтижон Исроилова

PhD докторант Узбекского государственного университета мировых языков

e-mail: isroilovabaxtijon@gmail.com +998900017494

***Аннотация.** В статье анализируется роль коммуникативно-познавательного метода в обучении английскому языку как иностранному. Это показывает основные особенности, которые развиваются в методологии обучения современным языкам. В статье обсуждается основной способ создания базовых мотивационных условий, основанный на принятии учителями соответствующего поведения и установлении отношений с учениками. Он фокусируется на языковых ценностях и отношениях учащихся, а также на ключевых принципах улучшения результатов интеграции, ожидаемом удовольствии от обучения, инструментальных стимулах и многом другом.*

***Ключевые слова:** учебная программа, инструментальная мотивация, время ожидания студентов, самосознание, управление мотивацией, сотрудничество, внутренняя мотивация, стимулирование интереса.*

In the recent period of language teaching and learning a momentous transfer and change has occurred. In the sense that, an enormous focus has gone towards learner and learning rather than teacher and teaching. Nowadays, indeed, it is an important target for the teachers to make their students less dependent on teachers and more autonomous on themselves. In fact, learner self-sufficiency is corresponding to contemporary ideas about the active association and interest of learners, importance of learner-centred approaches, as well as sovereignty of learners from teachers.

It should be mentioned that in a language learning classroom there are varieties of learners in terms of the individual differences. Concerning this matter, Skchan tells apart some techniques and manners that good students exploit and bring into play. He goes over the main points of them as below:

1. Initially, good learners are engaged and drawn in their works, duties, and missions.	2. Good learners promote and expand the knowledge of language as structure and arrangement and make implications and conclusions.
3. Good students identify and see language as a way to make assumptions and communicate with other people.	4. Good students look safer and more comfortable about the knowledge that they are acquainted with as well as their outlook and thoughts towards a foreign language.

To know and analyze these points help to the teacher in clarifying the bases of motivation in foreign language teaching process.

Johnstone considers motivation as a stimulant for achieving a specific target, similarly, according to Ryan and Deci. To be motivated means to progress or to be in mention to do something. [1]

If we look back all accomplishments in teaching, all are the result of highly motivated relationship of teacher and learner. Crump believes that excitement, interest, keenness and enthusiasm towards learning are the main constituents of motivation. [2] It's clear that, motivation is the result of the counted items. For that it socializes on the bases of these factors.

The levels and kinds of motivation in any individual are different from others. In other words, not only levels and amounts of motivation in individuals are different, their kinds of motivation can also be different. Cook comes across that language acquisition is not the same in learners. Moreover, it has been proposed and recommended that there are three main factors, which concern and influence the foreign language acquisition. These three factors are age, personality and motivation. He further claims that among the above three issues motivation is the most significant one in foreign language acquisition. [3]

Ellis considers motivation as the attempt which learners make for learning a second language because of “their need or desire learn it”. [4] Lightbrown and Spada identifies motivation in second language acquisition as “a complex phenomenon which can be defined in terms of two factors : learners’ communicative needs and their attitudes towards the second language community”. They believe that when learners think that they need to speak the second language with the aim of being in touch with others or accomplishing and achieving specialized and dedicated desires and goals, they will be stimulated and inspired to obtain expertise and skill in it. Gardner and Lambert name the mentioned situation as integrative motivation and instrumental motivation. Research has confirmed that the success or failure in second language learning depends very much on these two kinds of motivation. [5]

Students who don’t have instrumental or integrative motivation, in fact, will face with problems and difficulties to learn and gain knowledge of a second language in the classroom and generally, learning the language would be difficult for them. Students who have intrinsic motivation are inclined to say with intricate and complicated problems and gain knowledge from their slips and mistakes. Besides, intrinsic motivation is essential and fundamental for the integration process through which elements of one’s accessible internal awareness and knowledge is assimilated or mixed with new knowledge. Extrinsic motivation, on the other hand, is the propensity to take part in activities because of reasons which do not link to the activity. These reasons can be the anticipation of reward or punishment, like being successful in the exam or getting a good mark. According to Cook, the performance and presentation of a number of learners in the context of second or foreign language learning is improved and superior that others. The reason is that they are better motivated. Ellis sees the incident of learning by means of motivation and believes that the learning process simply occurs when a person is motivated. Relating to this matter, Ellis says that “Language teachers readily acknowledge the importance of learners’ motivation not infrequently explaining their own sense of failure with reference to their students’ lack of motivation”.

Research methods. The work was carried out using the main principles and methods of modern methodology of teaching English as a foreign language as participant and non-participant observation, communicative-cumulative and communicative-cognitive approach.

Results and discussions. Paying attention to the role of motivation in teaching process and developing, enforcing and strengthening it, can be some effective and helpful factor in the process of learning language. In reality, teacher’s awareness about learner’s attitude and it’s relation with teaching process provides a framework by which language teacher can use more useful and more effective methods.

1. Explain. Some recent research shows that many students do poorly on assignments or in participation because they do not understand what to do or why they should do it. Teachers should spend more time explaining why we teach what we do, and why the topic or approach or activity is important and interesting and worthwhile. In the process, some of the teacher's

enthusiasm will be transmitted to the students, who will be more likely to become interested. Similarly, teachers should spend more time explaining exactly what is expected on assignments or activities. Students who are uncertain about what to do will seldom perform well. (In a study conducted on one college campus, a faculty member gave a student assignment to a group of colleagues for analysis. Few of them could understand what the faculty member wanted. If experienced pros are confused, how can we expect students to understand?)

2. Reward. Students who do not yet have powerful intrinsic motivation to learn can be helped by extrinsic motivators in the form of rewards. Rather than criticizing unwanted behavior or answers, reward correct behavior and answers. Remember that adults and children alike continue or repeat behavior that is rewarded. The rewards can (and should) be small and configured to the level of the students. Small children can be given a balloon, a piece of gum, or a set of crayons. Even at the college level, many professors at various colleges have given books, lunches, certificates, exemptions from final exams, verbal praise, and so on for good performance. Even something as apparently "childish" as a "Good Job!" stamp or sticker can encourage students to perform at higher levels. And the important point is that extrinsic motivators can, over a brief period of time, produce intrinsic motivation. Everyone likes the feeling of accomplishment and recognition; rewards for good work produce those good feelings.

3. Care. Students respond with interest and motivation to teachers who appear to be human and caring. Teachers can help produce these feelings by sharing parts of themselves with students, especially little stories of problems and mistakes they made, either as children or even recently. Such personalizing of the student/teacher relationship helps students see teachers as approachable human beings and not as aloof authority figures. Young people are also quite insecure, and they secretly welcome the admission by adults that insecurity and error are common to everyone. Students will attend to an adult who appears to be a "real person," who had problems as a youth (or more recently) and survived them. It is also a good idea to be approachable personally. Show that you care about your students by asking about their concerns and goals. What do they plan to do in the future? What things do they like? Such a teacher will be trusted and respected more than one who is all business.

4. Have students participate. One of the major keys to motivation is the active involvement of students in their own learning. Standing in front of them and lecturing to them (at them?) is thus a relatively poor method of teaching. It is better to get students involved in activities, group problem solving exercises, helping to decide what to do and the best way to do it, helping the teacher, working with each other, or in some other way getting physically involved in the lesson. A lesson about nature, for example, would be more effective walking outdoors than looking at pictures. Students love to be needed (just like adults!). By choosing several students to help the teacher (take roll, grade objective exams, research bibliographies or biographies of important persons, chair discussion groups, rearrange chairs, change the overhead transparencies, hold up pictures, pass out papers or exams) students' self esteem is boosted and consequently their motivation is increased. Older students will also see themselves as necessary, integral, and contributing parts of the learning process through participation like this. Use every opportunity to have students help you. Assign them homework that involves helping you ("I need some magazine illustrations of the emphasis on materialism for next week; would someone like to find one for me?").



5. Teach Inductively. It has been said that presenting conclusions first and then providing examples robs students of the joy of discovery. Why not present some examples first and ask students to make sense of them, to generalize about them, to draw the conclusions themselves? By beginning with the examples, evidence, stories, and so forth and arriving at conclusions later, you can maintain interest and increase motivation, as well as teach the skills of analysis and synthesis. Remember that the parable method of making a point has some significant historical precedent.

There is little evidence to show that whether ESP students can benefit from reading strategy training as much as EFL learners. Therefore, the findings of the present experimental study can shed more light on the issue of teaching reading strategies and it will set the ground for a comparison between the effectiveness of reading strategy instruction versus traditional teaching of reading comprehension. Moreover, this study has got the purpose of discovering students from which proficiency level all more likely to benefit most from strategy training [7, 102].

A sample of 50 ESP readers who were in the first year of their education studying physical culture at Andijan State University was selected. They were two classes of sophomore university students who were taking a general English course. The sample consisted of two classes of students who were randomly assigned to control (N=25) and experimental groups (N=25). We had both male and female participants. There were 25 male participants and 25 female participants in the study. They were of about the same age ranging from 17 to 25. The participants were classified as low, intermediate and advanced levels of reading

comprehension based on the pre-test. After grouping participants into control and experimental group, a Nelson Test was administered to them in order to homogenize them. The scores of both groups on reading comprehension section of TOEFL test were taken as the pre-test. The experimental group received reading strategy instruction on skimming, scanning, summarizing and guessing meaning from context. In each session of instruction, the teacher introduced a new reading strategy and devoted enough time to its teaching and practice. The control group did not receive any specific training on reading strategies and were taught through the traditional methods of language teaching such as translating, reading aloud, and many others. After 10 weeks of reading strategy instruction, the same reading comprehension section of TOEFL test was given to them as the post-test. Finally, independent-samples were employed to analyse the relevant data.

Independent sample two-tailed t-test was run to compare the reading comprehension ability of control and experimental group on the post-test. A one-way Analysis of Variance (ANOVA) was also used to compare the gain score of learners from different proficiency groups. A posttest was also administered to determine the relationship between proficiency level and effectiveness of reading strategy training.

The purpose of this study was to investigate the impact of strategy training on the reading ability of ESP students. It also aimed to obtain awareness for the differential effect of the strategy training on students' reading proficiency level. Furthermore, the present study demonstrated that less able readers might benefit more from the training than more able readers. The amount of gain made by the low reading proficiency group was found to be much greater than that made by the intermediate and high proficiency groups.

The fact that less proficient ESP students benefited more from the reading strategy training may be attributed to this point that they are often unaware of the effective reading strategies and employ ineffective strategies in dealing with reading tasks they encounter. That is why receiving instruction on the efficient use of these strategies significantly improves their reading proficiency and helps them use strategies that result in successful reading habits. On the other hands, students that are more proficient may already be familiar with reading strategies or even if they are not aware of them, they employ these strategies unconsciously or they make use of other techniques that make up for their incompetency in reading strategy use.

While language proficiency factors are certainly important in determining ESP reading comprehension, reading strategies also play a significant role. The results of the study suggested that foreign language reading pedagogy, especially for adult students in academic settings, would benefit from the inclusion of explicit and direct strategy training. Moreover, reading strategy training makes learners independent learners of language, which is considered to the ultimate goal of language learning. Learning how to use strategies effectively, the readers do not require looking up to their teacher to provide them with the correct answer or define the new vocabulary for them all the time. This means that ESP learners become autonomous learners of language who can handle their reading requirements and get the meaning out of the printed material in the best possible way. In conclusion, students should be exposed to a variety of strategies that are suitable for learning the unknown words they encounter in reading different academic texts. The most important step in helping students to use different strategies which would lead to success is organizing strategy training sessions with students in every class so that our students can learn words more effectively. The amount of gains made by the low proficiency group was found to be much greater than that made by



high proficiency reading group. While teaching ESP readers how to use a given strategy, they must also be taught how to determine if they are successful in their use of that strategy. It must be emphasized that low proficient readers need guided practice if strategy training is to be successful.

References:

1. Anderson, N. J. Individual differences in strategy use in second language reading and testing. *The Modern Language Journal* (4), New York 1991. Pp. 460-472.
2. Block, E. The comprehension strategies of second language readers. *TESOL Quarterly*, Cambridge University Press 1986, Pp165- 187.
3. Carrell, P. L., Devine, J., & Eskey, D. E. Interactive approaches to second language reading. Cambridge University Press 1988, Pp 105-149
4. Celce-Murcia, D. Teaching English as a second or foreign language. United States: Heinle & Heinle. 2001, Pp 45-63
5. Doff A. An Introduction to English Language Teaching. Cambridge University Press. New York. 1999. Pp. 5-15.
6. Dudley-Evans, St. John, M. J. Developments in English for specific purposes: A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press. 1998, Pp 11-47
7. Falk, K. B., & Wehby, J. The impact of reading instruction on student achievement: Study findings. Cambridge University Press 2007, Pp.88-147
8. Nation I.S.P. Learning vocabulary in another language (5thed.). Cambridge: Cambridge University Press, 2004. Pp. 15-22.
9. Stevens V. Vocabulary materials derived from relevant, authentic text. *English for Specific Purposes*, Cambridge University Press 2001. Pp. 35-46.
10. <http://ici.Umm.Edu/productsimpact/182/182.pdf>

SINF RAHBARINING SINF JAMOASINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Asqarova Surayyo Ulug'bek qizi, NamDU.

Pedagogika nazariyasi va tarihi magistranti

surayyoasqarova1234@gmail.com. Tel: +998943073426

***Annotatsiya:** Maqolada sinf rahbarlarining sinf jamoasini tashkil etish bosqichlari, o'quvchilarni tarbiyalashda jamoaning roli, jamoada o'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissida tarbiyalash, o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** jamoa, ta'lim-tarbiya, munosabat, guruh, uyushqoqlik, an'analar, jamoatchilik, uslub.*

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ КЛАССНОГО КОЛЛЕКТИВА КЛАССЫМ РУКОВОДИТЕЛЕМ

Аскарова Сурайё Улугбек кизи

Магистр теории и истории педагогики НамГУ

surayyoasqarova1234@gmail.com. Tel: +998943043426



Аннотация В статье описаны этапы формирования команды классного руководителя в классе, роль команды в воспитании учеников, воспитание учеников в духе дружбы и товарищества, методы работы учителя с команды.

Ключевые слова. Команда, образования, группа, сплоченность, традиции, общественный, метод.

THE METHODS OF CLASS TEACHER ORGANIZATION OF THE CLASS TEAM

Asqarova Surayyokhon Ulug'bek qizi NamSU
Master of Theory and History of Pedagogy
surayyoasqarova1234@gmail.com. Tel:+998943073426

Annotatsion: The article is described about the levels of class leaders organizing a class team, the role of the team in educating students, fostering a sense of camaraderie and friendship in the community, also described a teaching methods with a group of students.

Keywords: team, education, attitude, group, cohesiveness, pineapples, public, method.

Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa xisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash –tarbiyaning yetakchi maqsadidir. Jamoa (lotincha "kollektivus" so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis,birlashma guruh) bir necha a'zolardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir.

Jamoaning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish,faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va kuchaytirish.

Jamoada bir-biriga g'amxo'rlik qilish, o'zaro yordam, faqat o'zi haqida emas, balki boshqalar haqida ham o'ylashga intilish, jamoa manfaatini o'z qiziqishidan ustun qo'yish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Jamoada o'rtoqlik va do'stlik hissi tarkib topadi. Jamoadagi o'quvchilarning o'zaro munosabati o'zaro javobgarlikni his etish, topshiriqlarni bajarishda barcha a'zolarning tengligi bilan ajralib turadi. Chunki unda o'quvchilar o'zaro yaqin muomalada bo'ladilar, birgalikda harakat qiladilar, butun jamoa qo'ygan maqsadni hal etishda qatnashadilar.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash-tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi.Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi. O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir.Quyida jamoa va uning xususiyatlari borasida so'z yuritamiz.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik , uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

Shu bois jamoa hayotining aniq maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Muayyan jamoaning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a'zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo'yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish jamoa a'zolarining umumiy va hususiy maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o'rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo'linishiga yo'l qo'ymaydi.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchilik faoliyatining maqsadi hisoblanadi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan sub'ektlarning alohida namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi. Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Har bir sinf kichik jamoa bo'lib, o'z faollariga ega bo'lsada, bu jamoa maqsadlarning birligi va umumiy ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa munosabatlarining rivojlanish darajasi (bosqichi, davri)ni aniq belgilashdan boshlaydi. Sinf rahbari jamoasining o'z ish uslubi bilan rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun vaqti – vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Tarbiya nazariyasi jamoa rivojlanishini uch daraja bilan belgilaydi. Dastlab pedagogning kuch g'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan talablar, tartib, intizom bilan o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Agar o'quvchilar jamoasi shakllantirilmagan bo'lsa, o'quvchi maktabni hech afsuslanmay tark etadi. Xatto keyinchalik maktab yillarini eslamaydi ham. O'quvchilarni hayotidagi mavqeyini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash sinf rahbarining bolalar jamoasini tashkil etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

Jamoani vujudga kelishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari jamoa a'zolari oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzda faoliyatni olib borishni talab qiladi. So'nggi (to'rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga ega bo'ladi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in –sinflar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasi doirasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o'z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi –bu ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoalarini tuzish guruhlarda, sinflarda turli farqlar bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha sinflar uchun bir xildagi yo'l-yo'riqlarni belgilab bo'lmaydi. Ayniqsa, boshlang'ich va 9- sinflarda o'quvchilar jamoasini tashkil etish va jipslashtirish katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu sinflarda ko'pincha o'quvchilar tarkibi mutloq yangi yoki qisman o'zgaradi. Shuning uchun o'quvchilar jamoasini yangidan to'g'ri keladi. 5-7- sinflarda o'quvchilar faollari kengayib boradi. Ular ko'proq jamoatchilik ishlarida qatnashadilar, o'zlarining ahloqiy tajribalarini boyitadilar, mehnat qilish malakalari va ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Sinf jamoasini uyushtirish yo'llari quyidagilar:

1. Jamoatchilik topshirig'ini berish;
2. Sinf faollarini to'g'ri tanlash;
3. O'quvchilarni istiqbolga chorlash;
4. Sinfda ijobiy an'analarni qaror toptirish;
5. O'quvchilarga yagona talablar qo'yish.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoani hech bir narsa an'anchalik mustahkamlay olmaydi. An'analarni tarkib toptirish, ularni saqlab qolish tarbiya ishining muhim vazifasidir. Mavjud an'analarni shartli ravishda 2 guruhga ajratish mumkin:

5. Kundalik turmush an'analari;
6. Bayram an'analari.

Kundalik turmush an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyatini bir –biriga o'zaro yordamning har xil turlari, mehnat faoliyatini –yosh meva ko'chatlarini parvarish qilish, yolg'iz keksalarga yordamlashishni va boshqa ishlarni o'z ichiga oladi.

Bayram an'anasiga Navro'z, Mustaqillik bayrami, bitiruvchilar kechasi, "Savodxonlik bayram"lari kiradi.

Jamoani rivojlanish bosqichlarida, har bir maktabda o'ziga hos an'analar yuzaga keladi. Bu yangi an'analar shu maktabda olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq bo'ladi. Yangi an'analar bolalarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Sinf rahbarining ish usullari – bu sinf jamoalari faoliyatini tashkil etish hamda o'quvchilarning ongi va his-tuyg'ulariga ta'sir etish usullaridir. Sinf rahbari o'quvchilarni faoliyatga jalb etadi, tarbiya jarayonida alohida o'rin egallandi, bu faoliyat ularning ijtimoiy faolligini tarkib toptiradi. Turli xil jamoa ishlarida o'quvchi ishining ijtimoiy mazmuniga ko'ra bilishga o'rganadi, o'zining tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat doirasini kengaytiradi, ma'naviy boyliklarni o'zlashtirib oladi. Sinf rahbari ish-faoliyatining asosiy vazifasi shaxsning o'z munosabatlarini va faol o'rnini tarkib toptirishdan, shaxsiy tuyg'ular va ahloqiy xatti-harakatlarning muayyan bir yo'lini rivojlantirishdan iboratdir. Sinf jamoasini tashkil etishda, sinf majlisini tashkil etishda sinf rahbarining roli katta hisoblanadi. Sinf majlisi o'tkazish uchun avvalo jamoani jipslashtiriladi. Sinf rahbari majlisda ko'plab masalalar ko'radilar. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko'rib muammoli tomonlari tahlil qilinadi va o'z yechimini topishi kerak bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy, va ommaviy madaniyat faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi,

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdan jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O'qituvchining esa yangi sinf bilan ko'p marta ish boshlashiga to'g'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa maktabda vujudga kelgan vaziyat taqazo bilan sinf rahbari o'zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun shundan keying ishlari davomida vaqti – vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uch yoki to'rtta darajasi ajratib ko'rsatiladi. Boshlang'ich daraja pedagogning kuch- g'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, o'quvchilarning unga katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya jarayoniga o'z o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z o'zini nazorat qiladi. Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu sinf rahbarining asosiy ishidir. Umuman maktab o'quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta'rifini aniq jamoa ta'rifi bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan o'quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o'zaro ma'suliyatli munosabatlarning mavjudligi, o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati va x.k.

Bolalarning jamoa turkum normalari va qoidalarining, intizomning buzilishga munosabatlarini kuzatib, jamoasining tashkiliy tuzilishi ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.T.:2006.
2. Mavlonova R., B. Normurodova, N.Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.-:"Tib-kitob",2010.
3. Z.Qo'ziyev. "Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish".T.,1997 yil
4. O'.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov"Pedagogika". TOSHKENT-Talqin-2008
5. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida NIZOM. 2021



PROFESSIONAL TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM MANBALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Xudayberdiyev Shuhrat Komilovich

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali katta o'qituvchisi

Tel: 998997728306 e-mail: shuhrat-uz@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunar ta'limi kadrlarini tayyorlashda elektron ta'lim manbalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish tamoyillari, vazifalari va bosqichlari, O'quv jarayoniga elektron axborot va ta'lim resurslarini joriy etish, professional ta'lim o'qituvchilarining talabalarga mustaqil ish jarayonida o'z-o'zini tarbiyalashi, professional darajada o'zgarishi uchun imkoniyat yaratadigan sharoit va yo'nalishlarni izlashining zaruriy sharhlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, elektron ta'lim resurslari, kontseptsiya, modernizatsiya, kasb-hunar ta'limi, o'quv -bilish faoliyati, tadqiqot faoliyati.

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИСТОЧНИКОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Худайбердиев Шухрат Комилович

Каршинский филиал Ташкентского университета информационных технологий
имени Мухаммада ал-Хоразми старший преподаватель

Тел: +998997728306 e-mail: shuhrat-uz@mail.ru

Аннотация: В статье описаны принципы, задачи и этапы разработки и использования электронных обучающих ресурсов в процессе подготовки кадров профессионального образования, внедрение электронных информационно-образовательных ресурсов в учебный процесс, самостоятельная работа преподавателей профессионального образования со студентами в процессе обучения. обсуждаются необходимые сферы самообразования, поиск условий и направлений, создающих возможности для профессионального изменения.

Ключевые слова: образование, ресурсы электронного обучения, концепция, модернизация, профессиональное образование, учебная деятельность, исследовательская деятельность.

METHODS OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL SOURCES IN IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION

Xudayberdiyev Shuhrat Komilovich

Karshi branch of Tashkent University of Information Technologies named after

Muhammad al-Khwarizmi Senior Lecturer

tel +998997728306 e-mail: shuhrat-uz@mail.ru

Abstract: *The article describes the principles, tasks and stages of the development and use of e-learning resources in the process of training vocational education personnel, the introduction of electronic information and educational resources into the educational process, the independent work of vocational education teachers with students in the learning process. The necessary spheres of self-education, the search for conditions and directions that create opportunities for professional change are discussed.*

Keywords: *education, e-learning resources, concept, modernization, vocational education, training activities, research activities.*

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun oliy va kasb-hunar kollejlarda ta'lim sifatini oshirish muammosi nihoyatda muhimdir. O'zbekiston Respublikasida ta'limni modernizatsiya qilish kontseptsiyasida ilgari surilgan ta'lim paradigmasi kasb-hunar ta'limining asosiy vazifasini belgilab beradi: mehnat bozorida raqobatbardosh va tegishli darajadagi malakali xodimni tayyorlash, tarkibiy, mas'uliyatli, o'z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohasiga yo'naltirilgan, o'z mutaxassisligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali ishlashga qodir, doimiy kasbiy o'sishga, ijtimoiy va professional harakatchanlikka tayyor[1].

Metodlar va usullar. Bularning barchasi kollej o'qituvchilarining talabalarga mustaqil ish jarayonida o'z-o'zini tarbiyalashi, shaxsan va professional darajada o'zgarishi uchun imkoniyat yaratadigan sharoit va yo'nalishlarni izlashining zaruriy shartidir. O'quv jarayonining bunday tashkil etilishi bilan o'qituvchiga kollej o'qituvchilarining mustaqil, faol, kognitiv faoliyati uchun malakali maslahatchi, menejer roli beriladi.

Talabalarining mustaqil ishlariga bag'ishlangan psixologik va pedagogik adabiyotlarda bu faoliyatning umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy va faollik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, kollej o'qituvchilarining kognitiv faolligini faollashtirish va ularning ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadigan mustaqil ishlar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi amaliyotining eng zaif nuqtalaridan biridir.

Ta'lim makonining hozirgi rivojlanish bosqichi o'qituvchilarning o'quv va kognitiv faolligini oshirish usullaridan biri bo'lgan axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. O'quv jarayoniga elektron axborot va ta'lim resurslarini joriy etish kollej o'qituvchilarining mustaqil, izlanish, tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga, ularning kognitiv va kasbiy qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Elektron ta'lim manbasi (ETM) - bu o'qituvchiga tegishli kurs bo'yicha darslar o'tkazishda yordam beradigan yoki o'z faoliyatini butunlay o'zgartiradigan o'quv vositasi. Nazariy materialni o'rganish bo'yicha talabalarining mustaqil ishlarini tashkil qilish, amaliy va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish, nazorat va o'zini nazorat qilish uchun bunday kompleksdan foydalanish mumkin. ETM davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq ma'lum bir kurs uchun yaratilgan. U turli xil dasturiy vositalarni o'z ichiga olishi mumkin, ular illyustrativ materiallar va giperhavolali matnli hujjatlardan laboratoriya uskunalari simulyatorlarigacha. Bunday kompleks ko'pincha masofadan o'qitishni tashkil qilish uchun ishlatiladi, lekin uni ta'limning standart shakllarida amalga oshirish mumkin: kunduzgi, kechki, sirtqi, sirtqi o'qishlar.

ETM quyidagi vazifalarni hal qilishi muhim:

- o'quv jarayonini maktab o'qituvchilarini tayyorlash sifatini yaxshilaydigan o'quv, uslubiy, ma'lumotnoma va boshqa materiallar bilan jihozlash;

- ta'lim muassasasining o'quv-uslubiy bazasini yaxshilash bo'yicha ishlarni rejalashtirish va tashkil etish vositasini yaratish;

ETM o'quv jarayonining yuz foiz uskunalarini bilan ta'minlash.

Fanlar tomonidan ishlab chiqilgan ETM fanning hozirgi rivojlanish darajasini aks ettirishi, o'quv materialini mantiqiy izchil taqdim etilishini, o'quv jarayonini faollashtirishning zamonaviy usullari va texnik vositalaridan foydalanishni, o'quvchilarga o'quv materialini chuqur o'zlashtirish va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashi kerak. uni amalda qo'llash uchun. Ekspertlarning fikricha, ETM mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: Asosiy o'quv dasturining o'quv fanlari maqsad va vazifalariga, tegishli darajadagi ta'lim standartlariga muvofiqligi.

Ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida kompleks mazmuni va uning elementlarining dolzarbligini asoslash. O'qish va o'qitish uchun qulay shaklda berilgan ilmiy yoki amaliy xarakterdagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarning mavjudligi[2]. Materialni diagrammalar, rasmlar, grafiklar bilan birga mantiqiy tuzilmaviy bo'linmalarga bo'lish kerak (modulga kiritilgan).

Materialni tayyorlashda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ko'rib chiqilayotgan masalalarni o'quvchining amaliy faoliyati ob'ektlari va uning ta'lim talablari bilan bog'lanishiga, shuningdek, yangi ma'lumotlarni (tushunchalar, faktlar) ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim;

- o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasidan qat'i nazar, ko'rib chiqilayotgan masalalarga har xil qarashlarni aks ettirishi kerak;

- eskirgan yoki shubhali ma'lumotlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi;

- agar kerak bo'lsa, ichki va xorijiy yutuqlarni qiyosiy baholash mumkin;

- Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar (xulosa) o'quvchini ishonchli o'rganilishi va eslab qolinishi kerak bo'lgan ma'lum ma'lumotlarga yo'naltirishi kerak.

Har bir mantiqiy tarkibiy bo'linma uchun bilimlarni nazorat qilish uchun savollar (testlar) ishlab chiqish zarur. Darslik o'rniga ushbu fan bo'yicha ma'ruzalar kursi taqdim etilishi mumkin. Ma'ruza matnlarining tuzilishi, ya'ni bo'limlar, mavzular va savollar ketma-ketligi fanning o'quv dasturining tematik rejasiga to'liq mos kelishi kerak. Ma'ruza matnlarida mavzu va test topshiriqlari bo'yicha nazorat savollariga muvaffaqiyatli javob berish uchun barcha kerakli ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Seminarda quyidagilar bo'lishi mumkin:

- batafsil reja va tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati bilan elektron seminar (forum yoki suhbat);

- laboratoriya ishlari;

- amaliy mashg'ulotlar;

- topshiriqlar va mashqlar (bajarilish misollari bilan);

Materiallar hajmi (amaliy topshiriqlar, seminarlar, laboratoriya ishlari, ilovalar) o'quv dasturi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Amaliy mazmun, izchillik va yaxlitlik.

Maxsus sxemalar yordamida tinglovchilar tomonidan barcha fikrlash zanjirlarini kuzatish qobiliyatiga ega bo'lgan nazariy materialni taqdim etishning aniq mantig'ini amalga oshirish[3].

Vazifalarni bajarish texnikasi, o'quv va amaliy muammolarni hal qilish borasida batafsil izoh.

O'quv jarayonining barcha shakllari uchun o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish uchun turli usul va metodlarni, vositalarni qo'llash (muammoli vaziyatlarni, amaliy texnologiyalarni, tadqiqot xarakteridagi vazifalarni shakllantirish va boshqalar) Elektron kompleks tizimi birlashtirishi mumkin. ta'limda ishlatiladigan avtomatlashtirilgan o'qitish va boshqarish tizimlari, modellashtirish dasturlari va boshqa axborot texnologiyalari dasturiy vositalarining vazifalari.

Dasturiy ta'minotni amalga oshirish sifati, dasturiy ta'minot modullarining to'g'ri bajarilishi, har xil ish rejimlarida xatolarga chidamlilik.

Multimediyadan foydalanishning adektivligi va ratsionalligi, multimediya komponentlarining o'ziga xosligi va sifati. Elektron kompleksning interaktiv ishini tashkil etishning optimalligi. Dasturiy mahsulot ergonomikasi, intuitivlik, ravshanlik, "do'stlik", navigatsiya qulayligi va boshqalar [4].

Bundan tashqari, ETMga quyidagi talablarga rioya qilish zarurligini ta'kidlash kerak:

- mavjudlik - o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga muvofiq o'quv materialining nazariy murakkabligi va chuqur o'rganish darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi;

- muammolilik - ta'limiy muammoli vaziyat jarayonida aqliy faollikni oshirishni o'z ichiga oladi;

- Ibility ko'rish qobiliyati - o'rganilayotgan ob'ektlar, ularning sxemalari yoki modellarini sezuvchi idrok etish va tinglovchilarning shaxsiy kuzatuvini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi;

- Learning learningning vijdonliligini davom ettirish - o'quv faoliyatining yakuniy maqsadlari va vazifalarini aniq tushuntirish jarayonida o'qitishning mustaqil harakatlarini ta'minlashi mumkin;

- tizimli va izchil o'qish - o'quvchilarni o'qishni o'rganayotgan fan sohasidagi bilimlarni bir vaqtning o'zida o'zlashtirishni tashkil etish;

- Bilim bilimlarni assimilyatsiya qilish kuchi - o'quv materialini chuqur tushunishni va uni tarqoq yodlashni nazarda tutadi;

Educational education, maktab va ta'limning birligi.

ETMni ishlab chiqish jarayoni ikkita asosiy bosqichdan iborat: tayyorgarlik va tartib.

ETMni ishlab chiqish jarayoni Materiallarni tayyorlash ETMni ishlab chiqish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, kurs matnini yozishni, tasviriy va ma'lumotli materiallarni tanlashni, interfeys va skript eskizlarini yaratishni o'z ichiga oladi[5].

Materialni tayyorlashda asosiy vazifa quyidagi printsiplarga asoslanib manbalarni to'g'ri tanlashdir:

1. Maxsus adabiyotlar va Internet manbalari Federal davlat ta'lim standartlariga mos kelishi kerak.

2. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlar lakonik va gipermatn yaratish uchun qulay bo'lishi va etarli miqdordagi amaliy misollarni o'z ichiga olishi kerak.

Elektron manba uchun matn tayyorlashda quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Elektron o'quv matnini yaratish, qoida tariqasida, MS Word matn muharririda amalga oshiriladi. Bunday holda, siz rasmlar yaratish uchun vositalardan, formulalar muharriridan, rasmlarni kiritish qobiliyatidan va hokazo pastki kataloglardan foydalanishingiz mumkin. Matnni tuzishda, shuni yodda tutingki, har bir faylning o'lchami shunday bo'lishi kerakki, u veb-brauzerda ko'rsatilganda 3-4 ekrandan oshmaydi. Bu odatda 12 shrift o'lchamidagi doc

faylidagi 2-3 sahifali matnga to'g'ri keladi. Alohida bo'limlar (mavzular) o'rtasida ham, kerakli Internet resurslari bilan ham aloqalarni o'rnatadigan kerakli gipermatnli havolalarni yaratish. Bu MS Word asboblari panelidagi "Giperhavola qo'shish" belgisidagi "sichqonchani" bosish orqali amalga oshiriladigan juda oddiy operatsiya. Ilgari, havola qilingan iborani, so'zni va boshqalarni ajratib ko'rsatish kerak. Havola qilinadigan fayl allaqachon yaratilgan o'quv katalogida bo'lishi kerak.

ETM tuzilishida bo'limlar, boblar, mavzulardan iborat kirish va asosiy qismni ajratish odat tusiga kiradi [6]. Kirish ETMning muhim elementi hisoblanadi, chunki u ushbu ESMning dolzarbligini isbotlaydi va ushbu resurs uchun mo'ljallangan o'quvchilar va auditoriya darajasini belgilaydi. Tarkibni shakllantirishda uni ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi: o'rganish majburiy bo'lgan asosiy qism va materialni chuqur o'rganish, ufqini kengaytirish va motivatsiyani oshirish uchun o'zgaruvchan qo'shimcha qism.

Kerakli bo'limlar: lug'at, bibliografiya va Internet manbalari.

ETM tuzilishi va mazmunini ishlab chiqishda quyidagi printsiplar va texnologik xususiyatlarni hisobga olish zarur:

- pedagogik yondashuvning ustuvorlik printsiipi;
- modul printsiipi;
- to'liqlik printsiipi.

Xulosa. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilish mumkinki, o'quv nazariy materialini tayyorlash, uni ergonomik qayta ishlash, matnning tuzilishi va mazmunini ishlab chiqish, tahrirlash va tuzatishdan so'ng, havolalar tizimini shakllantirishni boshlash kerak, ya'ni oxir-oqibat gipermatnni olish kerak.

Kasb-hunar kollejlari talabalarining mustaqil, o'quv va kognitiv faolligini faollashtirish uchun elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish muammosi qanchalik dolzarbdir.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent sh. 26.01.2021-y.
3. Б.Ю.Ходиев., О.Б.Гимранова «Современные образовательные технологии; теория и практика реализации» Ташкент., ТТЭУ, 2014.
4. Моисеенко Е.В., Лаврушина Е.Г. Развитие информационной компетентности обучающегося в процессе самостоятельной работы // Современные научные исследования и инновации. 2015.
5. "Малака ва инновацион ўзгаришлар самарали профессионал таълим тизимига кенг йўл очмоқда" мақола. Зайниддин Худойбердиев, Педагогик инновациялар, касб-хунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти директори, иқтисодий фанлари доктори, профессор.
<https://xs.uz/uzkr/post/malaka-va-innovatsion-ozgarishlar-samarali-professional-talim-tizimiga-keng-jol-ochmoqda>

6. “Янги профессионал таълим — янги миссия” мақола. Олий ва ўрта махсус таълим вазири ўринбосари Муродулло ХОЛМУҲАМЕДОВ. 24.08.2020.
<https://review.uz/oz/post/yangi-professional-talim-yangi-missiya>

ГРАММАТИКА НЕМИС ТИЛИНИ ЎРГАТИШДА МУҲИМ ВОСИТА СИФАТИДА

Бўрибаева Шарофат Абдурахмановна

ЎзМУ, ХХФ, немис филологияси катта ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада грамматика чет тилини ўрганишда энг муҳим воситалардан бири эканлиги, ўқувчиларга грамматик кўникмаларни эгаллашда турли машқлар, топшириқлар ва ўйинлардан унумли фойдаланиш ва уларнинг ўқув жараёнига татбиқ қилиши усуллари ҳусусида тўхталиб ўтилган.

Барчамизга маълумки, бутунги кунда барча соҳаларда бўлгани каби таълим соҳасида ҳам ижобий ўзгаришлар рўй бермоқда. Ёшларимизни чет тилини биладиган, ўз касбини яхши эгаллаган, малакали кадрлар қилиб тайёрлашда педагогларнинг ҳиссаси улкандир. Шунинг учун ўқув жараёнида қизиқарли педагогик технологияларни қўллаш ва машғулотларни юқори даражада ташкиллаштириш мақсадга мувофиқдир. Таълим жараёнининг самарадорлигини оширишга нафақат ўқитувчининг билимдонлиги, балки ўқув жараёнида қўлланадиган турли методлар ҳам катта ёрдам беради.

Чет тилларни ўрганишга талаб кучайиб бораётган даврда ёшларимиз ўртасида немис тилини ўрганишга ҳаракат қилаётганлар ҳам талайгина. Немис тилини ўрганишда лексика, фонетика каби грамматикани ўрни жуда каттадир. Аммо немис тили грамматикаси бошқа тилларга қараганда бироз қийинроқ. “Грамматика чет тилини ўрганишда асосий мақсад ҳисобланмай, балки гапириш, ёзиш, тинглаб тушуниш ва ўқиш каби нутқ фаолиятлари турлари учун восита сифатида қаралади.”⁹¹ Унинг нутқ фаолияти турларини ривожлантиришда, немис тилидаги фикрни тўлиқ баён қилишда ва ёзма нутқдаги адабиётларни тушунишда ўрни бениҳоя каттадир.

Немис тилини ўрганишда грамматиканинг тутган ўрни ҳақида илмий адабиётларда кўпгина баҳс-мунозараларни учратиш мумкин:

“Баъзилар грамматиканинг энг муҳим соҳалардан бири, баъзилар камроқ ёки умуман грамматикасиз тилнинг ўрганиш мумкин деб ҳисоблайдилар.”⁹²

„Грамматика таълимга тегишли бўлиб, уни иложи борича эртароқ бошлаш керак, чунки кейинроқ уни ўрганишга вақт топилмайдди.”⁹³

⁹¹ Brintzer M., Hantschel H.J., Kroemer S., Möller-Frorath M. DaF unterrichten. Basiswissen Didaktik als Fremd- und Zweitsprache. Ernst Klett Sprachen Stuttgart-2016. S.79

⁹² Glinz, H. Geschichte der Didaktik der Grammatik. In: Bredel, U. U.a. (Hrsg): Didaktik der deutschen Sprache. Ein Handbuch. 1. Teilband 2., durchgesehene Auflage. Paderborn/München-2006. S.431-432

⁹³ Pfeleiderer, W. Grammatik und Sprachunterricht. In: Rötzer, H.G. (Hrsg.) (1973): Zur Didaktik der Deutschen Grammatik. (Wege der Forschung. Bd. 276). Darmstadt-1954. S.34-35



“Кўпинча чет тилини ўрганишда грамматикага ёрдамчи восита сифатида қаралади. Кўпчилик грамматикани немис тилида тўғри гапиришда ва айниқса ёзма нутқда муҳим деб ҳисоблайди.”⁹⁴

Юқорида чет тилини ўргатишда ва ўрганишда грамматиканинг аҳамияти ҳақидаги турли фикрлар баён этилди. Уларнинг баъзилари ўхшаш, бир-бирини тўлдирса, баъзилари эса бунинг аксидир. Аммо олиб борилган кўпгина изланишларда чет тилини ўрганишда грамматиканинг роли катталиги аниқланган ва чет тилида гапиришни ўргатишда энг асосий воситалардан бири ҳисобланади.

Немис тил грамматикаси мактаб ўқувчилари учун кўпинча қийин ва зерикарли кўринади ва тилни ўрганишда талайгина қийинчиликлар пайдо бўлишига сабаб бўлади. Ушбу қийинчиликларни бартараф қилишда турли методлардан фойдаланиб дарс ўтиш ижобий натижаларга олиб келишини бир неча бор ўз тажрибамизда гувоҳ бўлганмиз.

“Метод танлаш нафақат ўқув мақсадидан, балки ўқув материали мазмунига ва бу фаннинг мураккаблигига боғлиқ. Бундан ташқари методларни танлашда таълим олувчиларнинг сони, уларнинг ўқув имкониятлари, таълимнинг давомийлиги, ўқув-моддий шароитлар ва таълим берувчининг маҳоратига боғлиқ.”⁹⁵

Дарҳақиқат методларни танлашда моҳир педагог бир неча омилларга аҳамият бериши жуда муҳим ҳисобланади. Масалан, ўқув машғулотида қўлланиладиган дарсликдаги машқ ва вазифаларни ўқувчиларнинг савияси, қизиқиши ва ўқув жараёнидаги шарт-шароитларга мослаштириш бутунги куннинг энг муҳим талабларидан биридир. Бу ўринда адаптация усули ҳақида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. “Агар дарсликдаги материаллар устида босқичма-босқич ишланмай, уларда ўзгаришлар учраса, бу ҳолат адаптация деб аталади”⁹⁶ Грамматикага оид машқ ва вазифаларни адаптация қилишда ўқитувчидан жуда ҳам эҳтиёткорлик талаб этилади. Чунки машқлар ўртасидаги кетма-кетлик яъни осондан қийинга, ёпиқ машқлар бажарилгандан кейин очик машқлар устида ишлаш усулидан фойдаланиш педагогдан махсус методик тажриба, билим ва маҳоратни талаб қилади.

Ўқитувчи бирор янги грамматик ходиса билан ўқувчиларни таништиришдан аввал уни қай усудда ўқувчилар онгига етказиш кераклигини пухта ўйлаб чиқиши даркор. Грамматик мавзунини тушунтиришда сўнги йилларда энг кўп қўлланиладиган индуктив усулнинг самарадорли бениҳоя каттадир. Ушбу усудда асосан дарснинг диққат марказида ўқувчилар туриб, турли мавзуга оид мисоллар ва машқлар орқали улар грамматик қоидаларнинг ўзлари (баъзида ўқитувчи ёрдамида) шакллантирадилар. Бу эса ўтилган мавзунини яхши тушуниш ва хотирада узоқроқ сақланиб қолиш имконини беради. Бундан ташқари индуктив усул методик-дидактик тамойиллардан бири ўқувчиларнинг фаоллигини оширишга катта хизмат қилади. Бу тамойил чет тили дарсларини ташкиллаштиришда инобатга олиниши керак бўлган энг муҳим тамойиллардан бири

⁹⁴ Steinig, W./H., Huneke W. Sprachdidaktik Deutsch. Eine Einführung. 3., neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Berlin-2007. S. 161-162

⁹⁵ Ташпулатов С., Бурханова Г., Елдашева Г., Джаналиева Г., Абдураимов М., Бобожонова Ф. Ўқув машғулоти ташкил этиш ва ўтказиш методикаси. Ўқув-методик қўлланма. Тошкент – 2015. 31 б

⁹⁶ Rösler D., Würfel N. Lernmaterialien und Medien. Klett-Langenscheidt. München-2014. S.78

ҳисобланади ва “унга кўра ўқувчилар дарс машғулотида ва ўқув жараёнида имкон қадар фаол иштирок этишлари даркор”⁹⁷. Агар ўқувчилар дарс машғулотида фаол иштирок этса, ўқитувчи ўқув жараёнида уларга қўмаклашувчи, маслаҳат берувчи ва кузатувчи вазифасини бажарса, ўқувчилар нафақат грамматик мавзуларни осон тушунадилар, балки дарсда ўрганган структураларни реал вазиятларда қийинчиликларсиз қўллай оладилар. “Дарс жараёнини⁹⁸ биз қанчалик кўп ўқувчилар фаолиятига мўлжаллаб ташкиллаштирсак, ўқув жараёни шунчалик даражада муваффақиятли ва эса қоларли бўлади”

Ўтмишга назар ташлайдиган бўлсак, грамматик-таржима методида (Grammatik-Übersetzungsmethode) грамматик ходисалар асосан дедуктив усулда тушунтирилган ҳамда мисоллардаги ва машқлардаги гапларда ўзаро боғлиқлик кузатилмаган. Тил ўрганувчиларнинг кўпчилиги немис тили грамматикасига оид жуда яхши билимга эга бўлсаларда, немис тилида эркин гапира олмасдилар. Ўша даврларда чет тили дарсларининг асосий мақсади матнларни таржима қилиш ва грамматик билимга эга бўлиш ҳисобланган. Бугунги кунда эса чет тили дарсларининг мақсади нутқ фаолияти турларидан бири бўлмиш гапириш ҳисобланиб, грамматика эса ушбу мақсадга эришиш воситаси сифатида қаралади.

Грамматик мавзуларни тушунтириш, машқ қилдириш ва мустаҳкамлашга ҳам алоҳида аҳамият бериш керак. “Грамматика контекстларда тушунтирилиши ва машқ қилиниши керак. Контекст сифатида матнлар, вазиятлар ва сценариялар қўлланилади.” Контекстлар танлашда ҳам бир неча критериялар мавжуд бўлиб, улардан энг муҳими контекст орқали ўрганилган сўзлар, грамматик структуралар, иборалар ва фразеологик бирикмалар реал вазиятларда қўлланилиши керак. Шунинг учун асосан аутентик материаллардан фойдаланиш кўпроқ тавсия этилади.

Ўқувчиларга муваффақиятга етакловчи машқ ва вазифалар бажартириш мақсадида методлардан фойдаланганда юқоридагиларни инобатга олиш жуда муҳимдир. Қуйида биз ўз тажрибамизда қўллаган, ўқувчилар фаоллигини таъминлайдиган ҳамда баъзи грамматик структураларни мустаҳкамлайдиган машқлар ва топшириқларни устида тўхталиб ўтмоқчимиз.

Auf den Rücken schreiben

Материал: матодан тикилган халтада 15 сифат ёзилган корточка

Иш тартиби (жуфтликда):

- Бир ўқувчи бошлайди: Халтадан бир карточкани ол ва ҳамкорингга кўрсатма.
- Сўзни ҳарфма-ҳарф ҳамкорингни орқасига (den Rücken) ёз. Сўнгра ҳамкоринг ушбу сўзни топиши керак.

⁹⁷ Ballweg S., Drumm S., Hufeisen B. u.a. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch? Klett-Langenscheidt. München-2013. S.189

⁹⁸ Funk H., Kuhn Ch., Skiba D., u.a. Aufgaben, Übungen, Interaktion Klett-Langenscheidt. München-2014. S.12

▪ Сўнгра ролларингизни алмаштиринг⁹⁹

Бу ўйинни бошқачароқ ўйнаш ҳам мумкин. Иштирокчилар иккитадан жуфтликга бўлинади. Ҳар бир жуфтликни бири доскага орқасини ўтирган ҳолда ўтириши керак. Ўқитувчи ўқувчиларга таниш бўлган сифатнинг оддий даражасини доскага ёзади (сифат ёзилган карточкалардан ҳам фойдаланиш мумкин). Иккинчи иштирокчи эса доскадаги сўзни овоз чиқармай ўқиб, биринчи иштирокчининг орқасига рўқанинг ёзмайдиган томони билан ушбу сўзнинг қийосий даражасини ёзиши лозим. Орқасини ўтириб ўтирган иштирокчи бутун фикрини жамлаган ҳолда ёзилган сўзни сезиши ва унинг ортгирма даражадаги шаклини қоғозга акс ёзиши керак. Кейин эса иштирокчилар ўзаро ўрин алмашадилар.

Масалан:

Доскага ёзилган феъл: **gut**

Биринчи иштирокчи: **besser**

Иккинчи иштирокчи: **am besten**

Ўйин сўнгида натижалар текширилиб, хатога йўл қўйилган бўлса, хатолар устида иш олиб борилади. Ўқувчиларда грамматик қўникмаларни ҳосил қилиш мақсадида ўтилган материалларини доимо турли машқлар ва ўйинлар орқали такрорлаб туриш керак. Ушбу ўйиндан феълнинг уч асосий шаклини такрорлашда, отларнинг кўплик шаклини, феъллардан от ясашда, сўзларни антоним ва синоним шакллари топишда ҳам фойдаланиш мумкин.

Унлиси тушуриб қолдирилган диктант

Ушбу диктант ёзишдириш учун ўқитувчига қуйидаги кўрсатмалар берилади:

Иштирокчиларга унлиси тушуриб қолдирилган диктант матни тарқатилади. Ўқитувчи тўлиқ матни ўқийди ва иштирокчилар унлиларни ёзиб чиқадилар.

L _ b _ r T _ m,

l _ d _ r k _ nn _ ch m _ rg _ n n _ cht m _ t _ ns K _ no k _ mm _ n.

_ ch _ rb _ t _ m _ b _ nd.

H _ st d _ _ m S _ mst _ gn _ chm _ tt _ g Z _ _ t?

W _ r tr _ ff _ n _ ns _ m 14 _ hr _ nd w _ ll _ n F _ ßb _ ll sp _ l _ n.

H _ st d _ L _ st?

V _ l _ Gr _ ß _

M _ r _ _

Lieber Tom,

leider kann ich morgen nicht mit ins Kino kommen.

Ich arbeite am Abend.

Hast du am Samstagnachmittag Zeit?

Wir treffen uns um 14 Uhr und wollen Fußball spielen.

Hast du Lust?

⁹⁹ So lernen Kinder erfolgreich Deutsch.Hg. vom Goethe -Institut. Erich Schmidt Verlag. Berlin. 2016. S.87

Viele Grüße

Mario

Бу материал Menschen A1.1 дарслигининг 8- Lektion нидан олинган бўлиб, бундан бошқа мақсадда ҳам фойдаланиш мумкин. Масалан, бу машқни ўтилганларни такрорлаш ва мустаҳкамлаш мақсадида жуфтликда мусобақа тарзида бажариш ўқувчиларга тавсия қилинади. Унлилари тушуриб қолдирилган сўзларни топишда ўқувчиларга дарак ва сўроқ гаплардаги сўз тартибига аҳамият бериш кераклиги таъкидланса, сўзларни топиш яна ҳам осонроқ кечади. Қисқа вақт ичида кўп ва тўғри сўз топган жуфтлик ёлиб ҳисобланади ва хатнинг тўлиқ матни проектор ёрдамида ўқувчиларга доскада кўрсатилади.

“Ким тез гап туза олади?” ўйини¹⁰⁰

Бу ўйин ишторокчиларни икки гуруҳга бўлган ҳолда амалга оширилади ва бевосита доскада бажарилади. Доска иккига ажратилиб, ҳар икки гуруҳнинг номлари ёзиб қўйилади. Икки гуруҳ талабаси махсус қутидан бирор сўзни олади ва таржимасини айтади. Сўнг доскага ёзади. Кейинги икки иштирокчи доскадаги сўз ёнига янги битта сўз қўшиб гап тузишни бошлаши керак. Ўйин шарти шундан иборатки, ҳар бир иштирокчи фақат битта сўз ёзиши, тузилаётган гап иложи борича кўп сўزلардан ташкил топиши ва грамматик нуктаи назардан тўғри тузилган бўлиши керак. Ўйин жараёни тез суръатда бажарилиши муҳим аҳамиятга эга. Иккинчи икки иштирокчидан сўнг, кейинги икки иштирокчи чиқиб, ёзилган сўзлар ёнига яна битта сўз қўшиб, гапни мантиқан давом эттириши лозим. Шу тариқа икки гуруҳ иштирокчилари томонидан иккига гап тузилади. Гапда иштирок этган сўзларнинг сон жиҳатдан кўплиги, грамматик тўғрилиги ва қайси гуруҳ биринчи бўлиб гап тузиш жараёнини якунлаганига қараб, ёлиб гуруҳ аниқланади. Албатта ёлиб гуруҳни ўқитувчи билан биргаликда талабаларнинг ўзлари аниқлайдилар.

Мазкур ўйинни мактаб ўқувчиларига ҳам татбиқ қилиб, содда ва кўшма гап турлари мавзуси ўтилганда сўз тартибига риоя қилган ҳолда ўқувчилар гаплар тузишларида қўллаш мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, чет тили дарсларининг асосий мақсади гапириш ҳисобланса, ушбу мақсадга эришишда грамматика муҳим воситалардан биридир. Грамматикани юқорида келтирилган ўйинлар орқали ўқувчиларга ўргатилса, уларнинг дарсда эркин фаол иштироки таъминланиб, машғулот марказини ўқитувчи эмас, балки ўқувчилар эгаллайдилар ҳамда ўтилган мавзулар осонроқ ўзлаштирилади ва мустаҳкамланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Соипова, Х.А. Араб тили дарсларида ноанъанавий усуллардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари. Инновация ўқув жараёнида. Тошкент давлат шарқшунослик институти. Илмий-услубий мақолалар тўплами. Тошкент- 2010.

¹⁰⁰ Соипова, Х.А. Араб тили дарсларида ноанъанавий усуллардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари. Инновация ўқув жараёнида. Илмий-услубий мақолалар тўплами. Тошкент- 2010. 292-293 б.

2. Ташпулатов С., Бурханова Г., Елдашева Г., Джаналиева Г., Абдураимов М., Бобожонова Ф. Ўқув машғулоти ташкил этиши ва ўтказиш методикаси. Ўқув-методик қўлланма. Тошкент – 2015.
3. Brinitzer M., Hantschel H.J., Kroemer S., Möller-Frorath M. DaF unterrichten. Basiswissen Didaktik als Fremd- und Zweitsprache. Ernst Klett Sprachen Stuttgart-2016.
4. Evans S., Pude A., Specht F. Menschen. Deutsch als Fremdsprache. Hueber Verlag-2012.
5. Funk H., Kuhn Ch., Skiba D., u.a. Aufgaben, Übungen, Interaktion Klett-Langenscheidt. München-2014.
6. Glinz, H. Geschichte der Didaktik der Grammatik. In: Bredel, U. U.a. (Hrsg): Didaktik der deutschen Sprache. Ein Handbuch. 1. Teilband 2., durchgesehene Auflage. Paderborn/München-2006.
7. Pfeleiderer, W. Grammatik und Sprachunterricht. In: Rötzer, H.G. (Hrsg.) (1973): Zur Didaktik der Deutschen Grammatik. (Wege der Forschung. Bd. 276). Darmstadt-1954.
8. Rösler D., Würfel N. Lernmaterialien und Medien. Klett-Langenscheidt. München-2014
9. Steinig, W./H., Huneke W. Sprachdidaktik Deutsch. Eine Einführung. 3., neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Berlin-2007.
10. So lernen Kinder erfolgreich Deutsch. Hg. vom Goethe-Institut. Erich Schmidt Verlag. Berlin. 2016.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА АНТИФРУСТРАЦИОН КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ

Жарқинова Дилора Алиевна

Фарғона жамоат саломатлиги Тиббиёт институти Биофизика ва ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада бўлажак педагогларда ўқув фаолияти жараёнида юзага келадиган фрустрацион вазиятлар, уларнинг оқибатлари ва унга нисбатан билдириладиган реакцияларнинг психологик механизмлари ёритилган. Шунингдек, фрустрацион вазиятларни бартараф этиш – фрустрацион толерантлик билан боглиқ жиҳатлар очиб берилган.

Таянч сўз ва тушунчалар: экстрапунитив, интрапунитив, импунитив, фрустрация, толерантлик, фрустрацион толерантлик, фрустратор, фрустрацион вазият.

НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ АНТИФРУСТРАЦИОННЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Джаркинова Дилора Алиевна

Преподаватель кафедры биофизики и информационных технологий Ферганского медицинского института общественного здравоохранения

Аннотация: В данной статье описываются психологические механизмы состояния фрустрации в студенческой среде, их последствия и реакции, а также раскрываются механизмы преодоления состояния фрустрации.

Ключевые слова и понятия: экстрапунитивное, интрапунитивное, импунитивное, фрустрация, толерантность, фрустрационный толерантность, фрустратор, фрустрационная ситуация.



THE NEED FOR THE FORMATION OF ANTIFRUSTRATION SKILLS IN FUTURE TEACHERS

Jarqinova Dilora Alievna

Lecturer of the Department of biophysics and information technologies of Fergana Public Health Medical Institute

Annotation: *There is considered in the article psychological mechanisms of frustration state among student's environment, their consequences and reaction. As well, mechanisms overcoming of frustration state are revealed.*

Keywords: *intropunitive, extropunitive, inpunitive, frustration, tolerance, frustrational tolerance, frustrator, frustrational situation.*

Жаҳон миқёсидаги мутахассислар фрустрация[1] бугунги кунда педагогик фаолият билан шуғулланувчи мутахассислар фаолиятидаги асосий салбий жиҳатга айланиб қолганлигини таъкидлашмоқда. Зеро, педагогнинг фрустрацион ҳолатга тушиши нафақат унинг юритаётган фаолиятига, унинг руҳий ва жисмоний саломатлигига ҳам жиддий салбий таъсир этади. Бу эса таълим жараёнида бўлғуси ўқитувчиларда антифрустрацион кўникмаларни шакллантириб боришни долзарб муаммога айлантirmoқда.

Бугунги кунда педагог кадрлар тайёрлашга қўйилаётган талаблардан бири – бу сифатли кадрлар, етук мутахассисларни тайёрлаш масаласи ҳисобланади.

Олий таълим муассасасига кирган ҳар бир талаба ҳам ўзи эгалламоқчи бўлган касби, мутахассислиги ва бу касб-мутахассисликни эгаллаш жараёнида юзага келадиган қийинчиликлар ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлади, деб айта олмаимиз. Унинг назарида «ўқишга киришди – бўлди, қолган ҳаммаси силлиққина кетаверади» гандай туюлади. Аммо ўқиш фаолиятининг ижобий жиҳатлари билан бир қаторда ўзига яраша қийинчиликлари, ўзига хос муаммолари ҳам мавжуд бўлиб, улар не-не орзу-ҳаваслар билан ўқишга кирган талабанинг қаршисидан ўқув фаолияти жараёнида кетма-кет ёки бирваракайига чиқаверади.

Демак, олий таълим муассасасининг 1-босқичидаги ҳар қандай талаба ўқишнинг дастлабки давридан оқ талабаликнинг ўзига хос «тўсиқ»ларига дуч кела бошлайди. Тўсиқларнинг юзага келиши эса аксарият талабаларда, психологик атама билан айтилса, фрустрацион ҳолатни юзага келтиради.

Шу ўринда олий таълим муассасаси талабалари ва умуман, мақоланинг ўқувчилари фрустрация, фрустрацион ҳолат каби психологик атамаларнинг моҳиятини тўлиқроқ англаб олишлари учун бу атамаларнинг илмий мазмунига батафсил тўхталиб ўтамиз.

«Фрустрация» тушунчаси психологик адабиётларда одатда икки хил маънода қўлланилади. Бу борада иш олиб борган олимлардан бири Е.П.Ильин[2] фрустрацияни икки хил маънода изоҳлайди:

1. Зарур ва шахс учун эътиборга эга бўлган мақсадга эришишга йўналтирилган хатти-ҳаракатларни тўхтатиш (фрустрацион вазият).

2. Инсондаги бирор-бир кучли эҳтиёжнинг қондирилмаслиги, омадсизлик ёки шахснинг атрофидаги кимнингдир таъна-маломати таъсирида келиб чиқадиган эмоционал ҳолат.

Лотинча «frustratio» умидлар, режалар, ўйларнинг барбод бўлишини англатади. Бундай вазиятда шахсда кучли эмоциялар – хавотир, афсус-надомат, ғазаб, айбдорлик хисси, агрессив ҳолатлар вужудга келиши кузатилади.

«Психологик луғат»да фрустрацияга шундай таъриф берилди: «Фрустрация – бу шахснинг онги ва фаолиятининг тартибсиз психологик ҳолати бўлиб, шахснинг ўз мақсадига эришишини жуда ҳам исташи йўлидаги енгиб бўлмас ва асоссиз (ёки субъект томонидан шундай тушуниш ва кечинмалар) объектив тўсиқ ҳисобланади»[3]. Демак, фрустрация шахснинг маълум бир мақсадга эришишга ҳаракати ва шу ҳаракат йўлида юзага келган тўсиқни енгишдаги объектив имкониятлари ўртасидаги ички конфликтдир. Алоҳида таъкидлаш лозимки, мақсад йўлида юзага келадиган ҳар қандай қийинчилик ҳам фрустрацияга олиб келавермайди. Фрустрация инсон норозилиги унинг бардошидан ошиб кетгандагина, яъни фрустрация оstonасидан ўтгандагина содир бўлади.

С.Розенцвейг АҚШда фрустрация муаммосини кенг ўрганган олимлардан бири ҳисобланади. Розенцвейг фрустрацияни қуйидагича баҳолайди: «Фрустрация – организм қандайдир ҳаётий эҳтиёжларини қондириши давомида унинг йўлида учрайдиган у ёки бу ўтиб бўлмас тўсиқли ҳолатларда юзага келади»[4].

Фрустрацион вазиятлар қуршовида қолган инсоннинг ҳолати фрустрацион зўриқиш деб аталади. Бу атама остида организмнинг фрустрацион вазиятга психофизиологик мослашув механизмларининг намоён бўлиш интенсивлиги тушунилади. Ҳаддан зиёд юқори фрустрацион зўриқиш адаптацион бузилишлар шароитида организмнинг асаб тизими ва гормонал (эндокрин) тизими функцияларининг меъёрдан ортиқ кучайишига сабаб бўлади, бу эса шу организмнинг резерв (захира) имкониятларининг емирилишига олиб келади[5]. Бу ҳолат уч хил хулқ-атвор шаклида намоён бўлиши мумкин:

- экстрапунитив шакл;
- интрапунитив шакл;
- импунитив шакл.

Экстрапунитив шакл шахсда юзага келадиган агрессив реакциялар билан боғлиқ. Бундай ҳолатда инсонда жаҳлдорлик, сабрсизлик, нима бўлишидан қатъий назар белгиланган мақсадга эришиш истаги пайдо бўлиши кузатилади. Инсоннинг хулқ-атвори примитив, ноэластик бўлиб, фрустрация объектига нисбатан, шу пайтгача ўзлаштирилган хатти-ҳаракат намуналари қўланади. Масалан, болалик чоғида ота-онанинг бола тарбияси борасида ўзаро бир-бирини айблаш ҳолати болалар иштирокида содир бўлган бўлса, бундай болаларда айнан шундай реакция шакланади. Бундай инсонлар фрустрацион тўсиқ юзага келган пайтда буни вужудга келган вазиятнинг таъсири деб тушунади ҳамда бу вазият ва омадсизликда ўзидан бошқа барчани айблайди, агрессив тарзда реакция билдиради.

Фрустрацион ҳолатда энг кўп учрайдиган реакция – бу агрессив хулқ-атвордир. Бу реакция шунчалик кўп учрайдиги, АҚШдаги Йел университети профессорлари шунга мувофиқ қуйидаги илмий фаразни илгари сурдилар: ҳар қандай фрустрация шахсни агрессияга ундайди. 1926 йилда олимлар томонидан фрустрацион вазиятдаги 45 талабанинг жавоблари тадқиқ қилинган. Бунда улар синовга рози бўлган талабаларда атайлаб фрустрацион ҳолатларни вужудга келтиришган. Ана шундай вазиятнинг 145 тасидан 113 тасида талабаларнинг жавоб реакцияси – фрустрация объектига (фрустрацион вазиятни келтириб чиқарган инсонга) нисбатан кўпол муомала, ҳақорат, ҳатто жисмоний куч ишлатиш каби агрессив хулқ-атворлар кўринишида бўлган[5].

Интрапунитив шаклда фрустрация юзага келганда инсонда хавотир ҳисси, танглик ҳолати, камгаплик кузатилади. Мақсадга эришиш йўлида юзага келган омадсизлик ёки муаммода инсон фақат ўзини айблайди, ўзининг хоҳиш-истаклари, интилишларини чеклайди (атрофидагилар билан гаплашмайди, кўнгилочар жойларга бормайди, овқат емайди ва ҳ.к.), баъзан эса эришмоқчи бўлган мақсадидан ёки бажараётган фаолиятдан умуман воз кечади, негаки у ўзини бу ишни амалга оширишга лаёқатли эмас, деб ҳисоблайди.

Импунитив шаклда эса фрустрацион ҳолат инсон томонидан оғир вазият сифатида тушунилмайди, фрустрацион вазиятга нисбатан объектив назар билан қаралади, юзага келган ҳолатни тўғрилаш мумкин бўлган ҳолат сифатида баҳоланади. Бундай вазиятда шахсда агрессия ёки хавотир каби ҳислар кузатилмайди, аксинча хотиржамлик билан бу муаммонинг ёки вазиятнинг ечимини топишга ҳаракат қилинади. Бундай реакция аксарият ўзига ишонган шахсларда кузатилади.

Юқоридаги фикрлардан шундай хулосага келиш мумкинки, фрустрациянинг у ёки бу шаклда намоён бўлиши инсоннинг шахсий физиологик ва индивидуал-психологик хусусиятларига ҳам боғлиқдир. Мутахассисларнинг фикрига кўра, фрустрацион вазиятда кучсиз асаб тизимига эга инсонларда интрапунитив шакл, кучли асаб тизимига эга инсонларда эса экстрапунитив шакл кузатилади. Бунда инсоннинг тарбияланганлик даражаси ва фрустрацион ҳолатга бўлган муносабати ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Айни кунда талабалар оддий кузатиш асосида таҳлил қилинадиган бўлса, уларнинг аксариятида фрустрацион вазиятларда ўзини тез йўқотиб қўйиш, муаммонинг ечимини топишга ҳаракат қилмаслик ва бу ҳолатдан чиқиб кетиш йўллари излашда сусткашликни кўриш мумкин. Буни бир томондан, уларнинг турли хил ташқи таъсирлар натижасида енгил-елпи яшашга ўрганиб қолганлиги ва ҳаётий қийинчиликларга бардош беришдаги иродасизлиги билан боғлаш мумкин бўлса, иккинчи томондан уларда бу борадаги психологик билим, кўникма ва малакаларининг йўқлиги билан изоҳлаш мумкин.

Мақсадга эришиш йўлида пайдо бўлган тўсиқларни нотўғри идрок қилиш ва уларни «енгиб бўлмас» деб тушуниш, талабанинг нафақат руҳий ҳолатига, балки унинг ўқув фаолиятига, энг асосийси, физиологик саломатлигига ҳам салбий таъсир этади. Бугунги кунда соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш муҳимлиги ҳисобга олинса, бу муаммонинг долзарблиги яна бир бор намоён бўлади. Шунинг илоҳотида олган ҳолда, талабаларнинг бу борадаги психологик саводхонлигини ошириш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Олимлар шундай тадқиқот ўтказишган: синалувчилар 3 та гуруҳга бўлинган. Биринчи гуруҳга инсон ҳаётида ҳаётий қийинчиликлар ва муаммоларнинг содир бўлиши табиий ҳол, деб ҳисобловчи кишилар киритилган. Иккинчи гуруҳга, аксинча, оддий ҳаётий муаммолар пайдо бўлиши биланоқ бошқаларга кўмак сўраб, паноҳ сўраб борадиган, содир бўлган қийинчиликни енгил ўрнига, оқ-воҳ қилувчи кишилар киритилган. Учинчи гуруҳга эса иккала гуруҳ ораллигидаги кишилар киритилган.

Синалувчиларнинг барчасига уларнинг оғриққа нисбатан сезувчанлиги ўрганилиши айтилган. Тажриба давомида терига таъсир этувчи электр қўзғатгич орқали таъсир этилиб, синалувчилар то «оғриқни сезяпман» демагунларича у аста-секин кучайтириб борилган.

Тадқиқотнинг натижаси қуйидагича бўлган: биринчи гуруҳдаги синалувчиларнинг оғриқни сезувчанлик кўрсаткичи даражаси анча юқори бўлган, шу билан бирга, уларнинг физиологик реакцияси (юракнинг тез уриши, асабийлашиш, буйрақусти безидан ажраладиган гормонлар ва ошқозон шираси ажралишининг кўпайиши кабилар) билинар-билимас бўлган. Иккинчи гуруҳдаги синалувчилар эса уларга қўзғатгич таъсир этиши бошланганиданок кучли оғриқни сезаётганликларини айтишган ва шунга мос равишда уларнинг физиологик реакцияси ҳам жуда юқори бўлган. Учинчи гуруҳ худди кутилганидек ўртача натижа кўрсатган[5].

Бу натижалардан шундай хулосага келиш мумкинки, ижтимоий ҳаётдаги қийинчиликлар табиий ҳол сифатида қабул қилинганда физиологик ўзгаришларнинг кам қайд этилганлиги шуни асослайди, бундай шахслар ҳаёт давомида фрустрацион таъсирларга дуч келганида ҳам уларнинг организмда кечадиган физиологик реакциялар организмга салбий таъсир кўрсатиш даражасида кечмайди. Аксинча, ҳаётдаги оддий муаммолардан ҳам норози бўлиб, «оҳ-воҳ» қилувчиларда эса фрустрацион таъсирларга нисбатан кучли физиологик ўзгаришлар кечадики, бу ўзгаришлар асабий, руҳий ўзгаришлардан тортиб, юрак-қон тизими, ошқозон ичак тизими фаолиятларида ҳам ўз аксини топади. Ва охир-оқибат, бу тизимларда жиддий салбий ўзгаришларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади.

Фрустрацион вазиятларда талабаларнинг вазиятдан чиқиб кетишни билмасликлари, юзага келган муаммоларнинг ечимини топа олмасликлари айрим талабаларнинг ноҳўя таъсирларга берилиб кетишларига ҳам олиб келиши мумкин.

Фрустрацияга нисбатан беқарор муносабатнинг яна бир салбий таъсири шундаки, бундай шахслар стрессга нисбатан ҳам беқарор, яъни чидамсиз муносабатда бўладилар. Бундай ҳол эса шахснинг организмга жиддий салбий таъсир кўрсатади. Бу илмий асосланган далиллардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, талабаларнинг ўқув жараёнида юзага келадиган фрустрацион ҳолатларга бўлган муносабати уларнинг стрессга барқарорлик даражасининг юқори ёки паст бўлишига асослардан бири бўлади. Шунинг учун талабалар онгида ўқиш жараёни давомида вужудга келаётган ижтимоий ва шахсий муаммоларга нисбатан тўғри муносабатда бўла олиш кўникма-малакаларини шакллантириш лозим. Бу эса стрессга барқарорликни оширишнинг энг яхши омилларидан бири бўла олади. Бундай кўникма ва малакаларни шакллантириш учун талабаларда фрустрацион ҳолатларга нисбатан шахсий толерантликни ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Шу ўринда антифрустрацион кўникмалар атамасига ҳам изоҳ бериб ўтмоқчимиз.

Антифрустрацион кўникмалар тушунчасини ёритиш ва бу борадаги тадқиқот ишлари С.Розенцвейг, Н.Д.Левитов, Ф.Е.Васильюк, И.П.Ильин, Ю.Н.Кулюткин, Р.П.Мильруд, Р.И.Хмельюк, З.Н.Курлянд, Н.А.Шевченко, Л.М.Митина каби муаллифларнинг ишларида ўз аксини топган. Бу муаллифлар ўз ишларида антифрустрацион кўникмаларни алоҳида тадқиқот предмети сифатида қарамаганлар, улар стресс, фрустрация, фрустрацион ҳолатлар ва бу жараёнда шахс хулқ-атворининг намоён бўлиши борасида олиб борган ишларида фрустрацион толерантлик муаммосига нисбатан муносабат билдириб ўтишган.

Бу борада дастлаб хориж психологлари иш олиб борганлар ва улардан С.Розенцвейг ўзининг фрустрация ҳақидаги концепцияси учун ниҳоятда катта аҳамиятга эга бўлган антифрустрацион кўникма ёки фрустрацион вазиятларда чидамлилиқ

тушунчасини киритган. У бу тушунчани қуйидагича тушунтирган: антифрустрацион кўникма индивид фрустрацияни ўзининг психобиологик мослашувисиз, яъни ноадекват жавоб реакцияларига мурожаат қилмаган ҳолда кечиришидир.

Антифрустрацион кўникмалар муаммоси бир қанча тадқиқотчиларнинг психологик барқарорлик, эмоционал барқарорлик каби муаммолар билан боғлиқ ишларида ҳам кўриб чиқилган бўлиб, улар асосан антифрустрацион кўникма атамасини назарий жиҳатдан таҳлил этганлар.

Л.М.Митина (1992)нинг тадқиқотларида антифрустрацион кўникмалар шахнинг ижтимоий психологик мослашуви даражаси билан боғлиқ ҳолда ўрганилган. Муаллиф бу муаммони ўрганиш баробарида антифрустрацион кўникма атамасининг маъносини ҳам ёритишга ҳаракат қилган. Унинг фикрича, антифрустрацион кўникма шахнинг турли хил ҳаётий қийинчиликларга психологик адаптацияни йўқотмаган ҳолда туриб бера олиш қобилияти ётадики, унинг асосида эса турли хил ҳаётий вазиятларга нисбатан адекват ёндашув ва муносабат билдира олиш қобилияти мавжуд бўлади.

Л.М.Митина антифрустрацион кўникмалар турлича бўлишини таъкидлаган. Улардан бирмунча адекватроғи фрустраторнинг мавжуд бўлишига қарамасдан хотиржамлик, мулоҳазалилик каби психик ҳолат ҳисобланади. Антифрустрацион кўникмалар исталмаган импульсив реакцияларни ушлаб туриш учун зўриқишлар ва уринишларда ҳам намоён бўлади. Антифрустрацион кўникмаларнинг оstonаси индивидуалликка эга бўлиб, у характер ва темперамент хусусиятлари, ўзига баҳо бериш, шахнинг устунлик қилувчи мотивлари ва этник муҳитнинг ўзига хослиги билан ҳам боғлиқ бўлади.

Антифрустрацион кўникмалар ҳаёт фаолияти жараёнида шаклланади. Бу қийин вазиятларни ҳал этишда тўсиқлар, мураккаб вазиятларни ўзига хос ҳолда енгиб ўтишдаги индивидуал тажрибага асосланилади. Фрустрацияловчи вазиятларни енгиб ўтишнинг ўзига хос йўли кўпгина ҳолатларда инсоннинг хулқ-атворини белгилаб беради.

Фрустрацион ҳолатдан чиқиб кетиш, яъни фрустрацион толерантлик талабадан бу вазиятларнинг ечимини топиш ва ўз ҳаёти, фаолиятида содир бўлган қийинчиликларга нисбатан енгилроқ муносабат билан қарашга интилиш заруриятини талаб қилади. Талаба бундай ҳолатларда сабр-тоқат, чидам, ақл билан иш тутиш, фрустрацион вазиятни кўрмаслик, аҳамият бермасликка ҳаракат қилиш каби бир қанча психологик омиллардан фойдаланади. Лекин инсон руҳиятига тегишли бўлган бундай кўникма ва малакалар талабаларда ўздан-ўзи пайдо бўлмайди. Уларни шакллантириш учун талабадан билим олиш, кузатувчанлик, қўйилган мақсадлар сари олға бориш каби жиҳатлар талаб этилади.

Юқоридаги фикрга таяниб айтиш мумкинки, олий таълимда фаолият юритаётган ҳар бир педагог ва талаба ўзида антифрустрацион кўникмаларни шакллантириши ва ривожлантириши лозим. Тадқиқотчилар томонидан педагог ва талабалар учун шакллантирилиши лозим бўлган антифрустрацион кўникмаларнинг бир қанча кўникма ва қобилиятлари ажратиб кўрсатилган бўлиб, улар орасидан қуйидагиларни ажратиб кўрсатамиз:

1) толерант фикр билдириш ва ўз нуқтаи- назарини шахсий мулоҳаза сифатида ҳимоя эта олиш қобилияти;

2) бошқаларнинг фикрига толерант муносабатда бўла олиш қобилияти, яъни ўзининг шахсий фикридан қанчалик фарқ қилишига қарамасдан, бошқаларнинг ҳам



ўзига хос фикри борлиги ва улар ҳам ўз фикрларини билдириш ҳуқуқига эга эканликларини тан олиш;

3) низоли вазиятларда (қарама-қарши нуқтаи назарлар билдирилганда, фикрлар тўқнашуви юз берганда) толерант бўла олиш қобилияти.

Ҳозирги давр талабасида ўқиш фаолияти давомида юзага келадиган қийинчиликларни енгишга бўлган кўникма ва малакалар қанчалик кўп бўлса ва улардан талаба ўз ўқиш фаолияти давомида кўпроқ фойдаланса, унинг мутахассис бўлиб шаклланиши ҳам шунчалик енгиш кечади, деган хулосага келиш мумкин. Чунки бундай кўникма ва малакаларни эгаллаш унинг олий таълим муассасасида муваффақиятларга эришиши учун ҳам асос бўлади. Яхши муваффақиятга интилган ва эришган талабада эса аста-секин ўз-ўзидан ва эгаллаётган касбидан фахрланиш, касбини севиш ҳислари вужудга келади. Бундай ҳис билан мутахассислик дипломини олган ҳар қандай битирувчи эса шу соҳанинг ривожини учун ҳисса қўшишига ва жамият учун эътиқод билан хизмат қилишига ишончимиз комил.

Шундай экан, бутунги кун талабаларида аввало ўз ўқиш фаолияти жараёнида дуч келадиган фрустрацион вазиятларда толерант бўла олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш учун фақат унинг ўзи эмас, балки барчамиз ҳам масъулмиз.

Бундай қобилиятлар албатта шахсда ўз-ўзидан ривожланмайди, демакки, талабада ҳам бу жиҳатлар ўз-ўзидан ривожланмайди. Бунинг учун қуйидаги тавсияларни бериш мумкин:

- бўлажак педагог, энг аввало, психологик билимларга эга бўлиши лозим; психологик билимларга эга бўлиш психологик саводхонликни оширишга хизмат қилади ва бунинг натижасида талаба юқоридаги каби фрустрацион вазиятларда аввало ўз-ўзини бошқариш кўникмасига эга бўлади;

- психологик саводхон шахс нафақат ўзини, балки бошқаларни ҳам ҳурмат қилиш кўникмаларини эгаллайди; ўзини ва бошқаларни ҳурмат қила олган шахс эса ўзгалар билан муносабат жараёнида ва фрустрацион вазиятларга нисбатан толерант муносабатда бўла олади;

- бундан ташқари, олимлар томонидан ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, талабаларда бундай кўникма ва малакаларни ривожлантириш айнан психологик тренинглар орқали амалга оширилиши кўзда тутилади; бундай психологик тренинглар талабаларда фрустрацион толерантликни – сабрлилик, бағрикенглик, мулоҳаза билан иш кўриш, ҳар қандай воқеа-ҳодисага нисбатан тўғри муносабат билдириш, фавқулудда вазиятда тўғри қарор қабул қилиш ва уни амалга ошириш учун журъат, қатъият каби кўникма ва малакаларни қисқа муддатда шакллантиришга асослангандир;

бундан ташқари, талабанинг толерант муносабат билдира олиш кўникмаси ривожланиши учун устозларнинг назарий ва амалий маслаҳатлари ҳам катта аҳамиятга эга; агар ўқитувчилар бу борадаги назарий маълумотларни берибгина қолмасдан, ўз фаолиятлари ва хулқ-атворлари, хатти-ҳаркатларида ҳам толерант муносабатни кўпроқ намоён этсалар, бу ҳол албатта талабада ҳам толерант муносабатнинг шаклланишига туртки бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.«Фрустрация – бу шахснинг онги ва фаолиятининг тартибсиз психологик ҳолати бўлиб, шахснинг ўз мақсадига эришишини жуда ҳам исташи йўлидаги енгиб бўлмас ва асоссиз



- (ёки субъект томонидан шундай тушуниш ва кечинмалар) объектив тўсиқ ҳисобланади»..
Психологический словарь. // Под ред. А.В.Петровского и М.Г.Ярашевского. – М., 1993.
2.Ильин Е.П., Молчанова Н.М., Замкова М.А. и др. Изучение проявлений нервно-эмоционального напряжения у студентов во время сдачи экзаменов и зачетов. // «Современная высшая школа», Варшава, 1999, № 1. –С. 67.
3.Психологический словарь. // Под ред. А.В.Петровского и М.Г.Ярашевского. – М., 1993.
4.Розенцвейг С. Психодиагностика. – М., 2004.
5.Панкратов В.Н. Саморегуляция психического здоровья. – М.: Изд-во Института психотерапии, 2001.

BO'LAJAK OFITSER SHAXSIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANISHI

Z.Sh.Alimardonov -O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrasida boshlig'i, p.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak ofitser shaxsida kasbiy kompetentlikni shakllanishining pedagogik psixologik omillarini ochib berishga qaratilgan. Shuningdek, bo'lajak harbiy xizmatchi shaxsida kasbiy kompetentlikni tarkib topishida harbiy universitetlardagi o'qitish tizimi va bu bilan bog'liq xarakterli jihatlar ilmiy nazariy jihatda asoslab berilgan. Ayniqsa, bu borada jahonning olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarning tahlillari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy rivojlanish, harbiy xizmatchi, o'qitish tizimi, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, faoliyat usullari, mas'uliyat, qaror qabul qilish, ijodiy vazifalar.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО ВОЕННОГО

З.Ш.Алимардонов - заведующий кафедрой учебно-психологического обеспечения служебной деятельности Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, кандидат педагогических наук, доцент

Аннотация. Статья направлена на выявление педагогико-психологических факторов формирования профессиональной компетентности будущих военнослужащих. Он также обеспечивает научно-теоретическую основу системы обучения в военных вузах и связанных с ней особенностей в формировании профессиональной компетентности будущего военнослужащего. В частности, анализ исследований, проведенных учеными всего мира.

Ключевые слова: личность, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональное развитие, военный, система обучения, знания, умения, умения, методы работы, ответственность, принятие решений, творческие задачи.

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE PERSON OF A FUTURE MILITARY

Z.Sh.Alimardonov - Head of the Department of Educational and Psychological Support of Service Activities, University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Ph.D., Associate Professor

Annotation. The article aims to reveal the pedagogical and psychological factors of the formation of professional competence in future servicemen. The system of training in military universities and related features in the formation of professional competence in the future serviceman are also scientifically substantiated. In particular, the analysis of research conducted by scientists around the world is cited.

Key words: personality, competence, professional competence, professional development, military, training system, knowledge, skills, abilities, abilities, methods of work, responsibility, decision-making, creative tasks.

Rivojlanayotgan har bir davlat o'zining mudofaa salohiyatini saqlab qolish, chegaralar daxlsizligini ta'minlash, shuningdek, Vatan himoyasi kabi ulug'vor ishga o'zini bag'ishlagan harbiy xizmatchilarga alohida e'tibor qaratadi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Armiya va xalq – bir tanu bir jon!" degan olijanob g'oya va amaliy harakat barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniyalar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharafli burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi" [1] degan fikrlari bugungi kun jamiyat hayotida mazkur soha mutaxassislarini tayyorlash nechog'li dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, bo'lajak harbiy mutaxassislariga bo'lgan talablarning ortib borishi, harbiy universitetlarda o'quv jarayonini tashkil etishda ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishiga, bitiruvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga, uning salohiyatini ochib berish va kasbiy kompetentligini uzluksiz shakllanishiga shart-sharoit yaratishga qaratilmoqda.

Ta'kidlash joizki, kompetentli yondashuv asosida tashkil qilingan ta'lim jarayonining mazmunida kompetentlikni rivojlantirish hamda shu orqali kasbiy kompetentlikni egallashga asoslanadi. Kompetentlik tushunchasi o'quv dasturlarida akademik va kasbiy profillarni tavsiflash uchun qo'llaniladi. Kompetentlik tushunchasi kompetensiya atamasiga nisbatan mazmunan ancha kengdir. U kognitiv bilimlar bilan birga motivatsion, boshqaruvchi va tartibga soluvchi kabi tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi [4]. Shunday qilib, kompetentlik deganda shaxsning muayyan sohalaridagi faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan integrativ xususiyati tushuniladi. Mazmuniy jihatidan kompetentlik-bu ta'limning ma'lum darajasini tugatgan, uning ijtimoiy ahamiyati va u bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavflarni hisobga olgan holda rivojlangan faoliyat uchun erishilgan narsalar asosida tayyorgarlik bilan ifodalangan shaxs sifatidir [7].

Kompetentlik muayyan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidan tashqari, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatli yo'nalishlarni o'zlashtirish va egallash jarayoni hamda ularni o'z faoliyatida amalga oshirish qobiliyati, o'z kasbiga nisbatan ongli munosabat, shuningdek, o'zini-o'zi rivojlantirishning ijodiy salohiyatini birlashtiradi. Pedagogik adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" atamaları ko'p qo'llaniladi va allaqachon iste'molga kiritilgan. Ayniqsa, ta'lim mazmunini zamonaviylashtirish zarurati bilan bog'liq holda ulardan keng foydalanish yetarlicha asosli hisoblanadi.

Kompetentlik lotin tilidan tarjima qilingan "competentia" so'zidan olingan bo'lib, inson bilimdonligi, tanlagan sohasiga nisbatan yuksak bilim va tajribaga ega ekanligini anglatadi. Shuning uchun ma'lum bir sohada malakali shaxs o'z faoliyati bo'yicha oqilona qaror qabul qilishi va undan samarali natijani qo'lga kiritishga imkon beradigan tegishli bilim va

qobiliyatga ega ekanligidir. Shuning bilan birga kasbiy kompetentlik tajriba, bilim, psixologik tayyorgarlikni o'z ichiga olgan individual psixologik ta'lim deyiladi.

“Kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari sinonim so'zlar sifatida ishlatilsada ular o'rtasida farqli jihatlar ko'zga tashlanadi. Bu atamalar rus pedagogikasi uchun nisbatan yangi bo'lib, shuning uchun ularni boshqacha tushunish mavjud [2]:

kompetentlik-muayyan bir qator predmet va jarayonlarga nisbatan o'rnatilgan hamda ularga nisbatan yuqori sifatli unumli faoliyat uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq shaxs sifatleri (bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari) majmuini o'z ichiga oladi;

kompetentlik-shaxsga tegishli kompetentlikka ega bo'lish, unga va uning faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatini o'z ichiga oladi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda kompetentlikning an'anaviy xususiyatlari ajratilgan:

mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyati bilan bog'liq siyosiy va ijtimoiy kompetentlik;

murosasizlik muhitining tarqalishini oldini olish va boshqa madaniyatlar, tillar va din vakillari bilan yashashga tayyorlikni anglashga ko'maklashish uchun jamiyat hayotini larzaga soladigan qobiliyatlar;

kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yozma va og'zaki muloqot haqidagi bilimlarni aniqlaydigan kompetensiyalar;

axborotli jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq kompetensiyalar: yangi texnologiyalarga ega bo'lish, ularning kuchli va zaif tomonlarini tushunish;

hayot davomida nafaqat professional, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotda ham o'rganish qobiliyatini amalga oshiradigan kompetensiyalar.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi muayyan faoliyat bilan bog'liq va, S.I.Ojegovning lug'atiga ko'ra, “har qanday sohada xabardorlik mazmunida qo'llanilib, kompetentlik doirasi shaxsning tabiiy huquqlari, kimningdir boshqaruvidagi masalalar doirasi” sifatida keltiriladi [6].

Ular bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq tushunchalardir: kompetentlikka ega bo'lmagan shaxs uni to'liq va ijtimoiy ahamiyatga ega jihatlardan amalga oshira olmaydi.

Mazkur tushunchaga nisbatan A.S.Belkinning ta'rifi ham mavjud bo'lib, u kompetentlikka ega bo'lgan narsalarning jamiyati sifatida va kompetentga ega bo'lgan narsalarning jamlamasi sifatida tavsiflanadi [3].

Universitet sharoitida bo'lajak ofitserning kasbiy mahorati mazmuni ofitser faoliyatining maqsadlari, vazifalari, xarakteri bilan belgilanadi hamda kasbiy nazariy va amaliy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mazkur jarayon harbiy va ijodiy vazifalarni hal qilish, to'g'ridan -to'g'ri rasmiy maqsadlar uchun vazifalarni bajarish qobiliyati va boshqacha qilib aytganda - harbiy oliy o'quv yurtini muvaffaqiyatli bitirishi uchun zarur bo'lgan kasbiy muhim sifatlar tizimi, professional lavozimlar, akmeologik invariantlar va psixologik xususiyatlar tizimi. kasbiy funksiyalarni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlash joizki, bo'lajak ofitser shaxsida kasbiy kompetentlikni shakllanishiga kursantlar o'rtasidagi maxsus intizomni to'g'ri yo'lga qo'yish axborot bilan ta'minlashning didaktik majmuasidan foydalanishga asoslangan kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi yordam beradi.

Amaliy pedagogik dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazalari va tegishli mavzular doirasidagi bilimlar, shuningdek, professional bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga hissa qo'shadigan kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini har

tomonlama ta'minlaydigan hamda qo'llab-quvvatlaydigan didaktik vositalar, uslubiy materiallar majmuini birlashtiradi [5].

Bo'lajak ofitserlarni maxsus intizomga o'qitishning kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan texnologiyasi texnologik xarita ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv jarayoni loyihasining o'ziga xos pasporti bo'lib, uning asosiy parametrlari yaxlit va sig'imli tarzda taqdim etiladi. Jumladan, diagnostik maqsadni belgilash, o'qitishning mantiqiy tuzilishi, materiallar va nazorat vazifalarini to'plash, didaktik jarayonning o'qituvchi va o'quvchilar harakatlari ketma-ketligi, didaktik kompleksning tegishli elementlarini qo'llash tartibini ko'rsatuvchi shakl tavsifi, nazorat qilish, baholash, tuzatish tizimi va boshqalar kiradi.

Universitetda bo'lajak bo'lajak ofitserlar o'rtasida maxsus fanlarni o'qitishda kasbiy kompetentlikni muvaffaqiyatli shakllanishiga yordam beruvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar mavjud [5]:

harbiy mutaxassisning kasbiy faoliyatini modellashtirish asosida amalga oshiriladigan didaktik loyihalash, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini yaratish va qo'llash;

kursantlar o'rtasida kasbiy kompetentlikni shakllanish darajasini o'z vaqtida va sifatli diagnostika qilish va monitoringini yuritish;

kursantlarning bilish faoliyatini rejali o'quv mashg'ulotlari bosqichida ham, mustaqil ishlari davomida ham didaktik axborot ta'minoti majmuasidan foydalangan holda maqsadli boshqarish;

o'qituvchilar va kursantlarni kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini amalda qo'llashga tayyorlash, buning uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish;

universitetda ta'lim olish jarayonida axborot vositalari va o'quv maqsadlari uchun elektron mahsulotlarini qo'llashning texnologik infratuzilmasini yaratish.

Shunday qilib, harbiy universitet o'qituvchisi tomonidan harbiy mutaxassisning "kompetentlik", "kompetensiya", "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mohiyati va mazmunini tushunishdan iborat. Ayniqsa, ta'lim jarayonining xususiyatlari, o'qitish texnologiyalarini samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari bo'lajak harbiy mutaxassisning kasbiy kompetentligi va professionalligini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida tayyorlanayotgan bo'lajak harbiy xizmatchilarni o'z kasbini yetuk bilimdoni, tanlagan sohasiga doir nazariy va amaliy bilimlarni maqsadli o'zlashtirish hamda qo'llash malakalarini tarkib toptirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Янги Ўзбекистон стратегияси" китоби -Тошкент: Ўзбекистон, 2021. 464-бе
2. Баева, Г.И., Формирование теоретических основ профессиональной компетентности будущего педагога. Автореф. дис. канд. пед. наук. Пермь, 2007. – 20 с.
3. Белкин, А. С. Проблемы педагогического мастерства / А. С. Белкин. – М.: Педагогика, 1987. – 150 с.
4. Зимняя, И.А. Педагогическая психология. Учебник для вузов. 2-е издание /И.А. Зимняя. – М.: Логос, 2007. – 384 с.
5. Козачок, А. И. Профессионально-ориентированная технология обучения как средство формирования компетентности у будущих военных специалистов в вузе :На материале изучения специальных дисциплин. Автореф. дис. канд. пед. наук, Орел, 2004. – 19 с.
6. Ожегов, С.И. Словарь русского языка: Ок. 57000 слов/ Под ред. чл.-корр. АН СССР Н.Ю.Шведовой. –20-е изд., стереотип. М.: Рус. яз., 1989. –750 с.



7. Татур, Ю.Г. Высшее образование: методология и опыт проектирования / Ю.Г. Татур. – М.: Логос, 2006. – 256 с.

**ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ЛОЙИҲА АСОСИДА
ЎҚИТИШГА ТАЙЁРЛАШДА МИКРО ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ
ТИЗИМИ**

Каримова Нилуфар Умматқул қизи
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
II босқич таянч докторанти
Тел: 97 131-94-84 e-mail: nilufarkarimova@mail.ru

Аннотация: Мақолада олий таълим муассасалари инглиз тилини таълимида лойиҳа асосида ўқитишдан фойдаланишнинг аҳамияти, талабаларни мазкур ёндашув асосида фаолият олиб боришга тайёрлаш зарурати ҳақида сўз юритилади. Муаллиф бу ўринда дарс жараёнида уч босқичли микро технологиялар тизимидан фойдаланишни ечим сифатида таклиф қилади.

Калит сўзлар: лойиҳа асосида ўқитиш, мустақил таълим, педагогик технология, мазмунни ўрганишга йўналтирилган микро технологиялар, муаммони ечишга қаратилган микро технологиялар, фидбек бериш/олишни рағбатлантиришга қаратилган микро технологиялар.

**СИСТЕМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МИКРОТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ
СТУДЕНТОВ К ПРОЕКТНОМУ ОБУЧЕНИЮ НА КЛАССАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Каримова Нилуфар Умматқул қизи
Узбекский государственный университет мировых языков
PhD студент
Тел: 97 131-94-84 e-mail: nilufarkarimova@mail.ru

Аннотация: В статье обсуждается важность использования проектного обучения при обучении английскому языку в высших учебных заведениях и необходимость подготовки студентов к работе на основе этого подхода. В качестве решения автор предлагает реализовать трехступенчатую систему микротехнологий на уроках английского языка.

Ключевые слова: проектное обучение, самообучение, педагогические технологии, контентно-ориентированные микротехнологии, микротехнологии решения проблем, микротехнологии стимулирующие обратную связь.

**SYSTEM OF USING MICRO TECHNOLOGIES IN PREPARING STUDENTS FOR
PROJECT BASED LEARNING IN EL CLASSES**

Karimova Nilufar Ummatqul qizi
Uzbekistan State University of World Languages
2nd year PhD student
Phone number: 97 131-94-84 e-mail: nilufarkarimova@mail.ru

Annotation: The article discusses the importance of using project-based teaching in English language teaching in higher education institutions and need to prepare students to work on the basis of

this approach. As a solution the author suggests implementing a three-step micro-technology system in EL classes.

Keywords: *project-based learning, self-study, pedagogical technology, content-oriented micro-technologies, problem-solving micro-technologies, feedback-stimulating micro-technologies.*

Чет тили таълимида лойиҳа асосида ўқитишдан фойдаланиш талабаларни ҳаётий вазиятлар билан боғлаш, реал муаммо ва масалаларни ҳал қилиш орқали ўрганилаётган тилни амалда қўллаш учун табиий эҳтиёж яратиш ва бу орқали таълим жараёнининг мазмунли бўлишини таъминлайди. Шу сабабдан сўнги йилларда хорижий тадқиқотларда мазкур ёндашувдан фойдаланишнинг амалий жиҳатларини ўрганиш масаласи кенг тадқиқ қилинмоқда.

Талабаларни лойиҳа асосида ўқитиш фаолиятга олиб кириш осон жараён эмас. Айниқса бундай таълим ёндашувига муқаддам қамраб олинмаган талабалар билан ишлашда бу жамоавий мунозараларни мазмунли ташкил этиш, танқидий ва ижодий фикрлашга қаратилган самарали ёндашувлардан фойдаланиш, хилма-хил фикрлар билан бўлишиш, уларни баҳолаш, умумий ечим бўйича ягона келишувга келиш каби жамоавий ўзаро ҳамкорлик билан боғлиқ ўзига хос қийинчилик ва тушунмовчиликларни юзага келтиради. Мазкур таълим ёндашуви асосан талабаларнинг дарсдан ташқари, мустақил таълим жараёнининг бир қисми сифатида амалга оширилиши натижасида ўқитувчининг фаолиятни назорат қилиш имконияти ҳам чекланади. Шу нуқтаи назардан, талабаларни лойиҳа асосида ўқитиш жараёнига жалб қилишда уларни бунга тайёрлаш, фаоллик даражасини ошириш чора-тадбирларини кетма-кетликда амалга оширишни мақсадга мувофиқ. Бизнинг фикримизча, бу ўринда дарс жараёнида микро даражадаги педагогик технологиялар тизимини қўллаш самарали натижа беради. Педагогик технология тушунчаси илмий адабиётларда “муайян лойиҳа асосида ташкил этиладиган, аниқ мақсадга йўналтирилган ҳамда ушбу мақсаднинг натижаланишини кафолатловчи педагогик фаолият жараёнининг мазмуни” сифатида изоҳланади. Педагогик технология тушунчаси уч даражада қўлланилади:

1. Умумпедагогик (макро) даража. Мазкур даражадаги технологиялар яхлит педагогик жараёнга тегишли бўлиб, таълим тизимининг барча турларида қўлланилади.

2. Хусусий методик (мезо) даражадаги технологиялар маълум бир ўқув фани, алоҳида таълим олувчилар гуруҳи, маълум ихтисосликка мансуб педагогларга йўналганликни акс эттиради.

3. Локал (микро) даражага тегишли технологиялар ўқув-тарбия жараёнининг алоҳида таркибий қисми, алоҳида шахс сифатларини шакллантириш, махсус ўқув кўникма ва малакаларни таркиб топтиришга хизмат қилади.

Микро даражадаги технологиялар тизимини ишлаб чиқишда талабаларга лойиҳа ишини бажаришда энг кўп қийинчилик туғдирувчи босқичларни аниқлашга эътибор қаратдик ва талабаларнинг айнан мана шу босқичларнинг устида ишлашини таъминловчи технологиялар тизими ишлаб чиқилди.

1. *Мазмунни ўрганишга йўналтирилган микро технологиялар.* Лойиҳа ишида кўтаришган мавзу, масалани атрофлича таҳлил қилиш, мавзуга оид манбаларни ўрганиш ва хулосалар қилиш масаланинг мазмунини чуқур идрок этишни, унда илгари сурилган концепцияни англашни талаб қилади. Мазкур кўникмаларни дарс жараёнида ривожлантириб бориш мақсадида “Сўнги сўз технологияси”, “Муҳокама харитаси

технологияси”, “Сукрот семинари технологияси”, “Тўрт бурчаклар технологияси”, “Фрейер модели технологияси” каби технологиялардан фойдаланиш мумкин.

2. *Муаммони ечишга қаратилган микро технологиялар.* Лойиҳа ишини бажаришда талабалар бир ёки бир неча даражали муаммоларни, муаммоли вазиятларни тадқиқ этишга йўналтирилади. Бунинг учун талабалардан муаммони ҳал қилиш ечимларини ишлаб чиқиш, кенг ҳажмдаги ечим вариантларини бера олиш, ҳар бир ечимнинг афзал ва камчилиги томонларини баҳолай олиш кўникмаларига эга бўлиш талаб қилинади.

Бу мақсадда талабаларда мазкур кўникмаларни ривожлантиришга қаратилган “К-В-Л графиги технологияси” “Дунё кафеси технологияси”, “Номинал гуруҳ техникаси технологияси”, “Бўш жой технологияси” каби технологиялар қўл келади.

3. *Фидбек бериш/олишни рағбатлантиришга қаратилган микро технологиялар.* Талаба-талаба ва ўқитувчи-талаба ўртасида фидбек яъни қайта алоқанинг таъминланиши лойиҳа асосида ўқитишнинг асосий хусусиятларидан ҳисобланади. Бироқ ўз вақтида, аниқ мақсадга ва шахсга эмас балки жараёнга йўналтирилган, муайян келажак натижага қаратилган, баҳолаш ва ҳукмдан йироқ, аниқ маълумотларга асосланган мулоҳазаларни тақдим қилиш, уни қабул қилишда эса фаол тинглаш, тинглаган мулоҳазаларни умумлаштириш ва хулосалаш кўникмаларини намоён қилиш талабалардан муайян тайёргарлик даражасини талаб қилади. Мазкур мақсадни амалга оширишда “Тунинг баённомаси технологияси”, “ТАГ баённомаси технологияси”, “Қайд қилиш техникаси технологияси”, “Маслаҳат баённомаси технологияси” каби технологиялардан фойдаланиш мумкин. Қуйида ҳар бир гуруҳга тегишли микро технологиялардан намуналар келтириб ўтамыз.

Мазмунни ўрганишга йўналтирилган “Тўрт бурчаклар” микро технологияси

Технологиянинг мақсади талабаларнинг муайян масала ёки ҳукм юзасидан ўз муносабатларини турли даражаларда билдириши, бунинг негизида эса мазкур масала ёки ҳукмни тадқиқ қилиши, ўз нуқтаи-назар ва танловларини танқидий асослай олишига қаратилган.

Технологиядан фойдаланишга тайёргарлик “қатъий қўшилиш”, “қўшилиш”, “қўшилмаслик”, ва “қатъиян қўшилмаслик” деб номланган ёрлиқларни, баёнот шаклидаги мунозарали фикр, ҳукм ёки мулоҳазалар рўйхатини тайёрлаб олишни талаб қилади.

Мазкур технология мунозарага асосланган бўлиб талабалардан хонанинг маълум бир бурчагида туриб, муайян фикр бўйича ўз позитсияларини (қатъий қўшилиш, қўшилиш, қўшилмаслик, қатъиян қўшилмаслик) кўрсатишни талаб қилади. Мазкур технология янги билимларни эгаллашга тайёргарлик босқичида, шунингдек, эгалланган билимларнинг даражасини намоён этиш мақсадида қўлланилиши мумкин.

Технологияни ўтказиш жараёни:

1. Хонани тайёрлаш. Хонанинг ҳар бир бурчаги “қатъий қўшилиш”, “қўшилиш”, “қўшилмаслик”, ва “қатъиян қўшилмаслик” каби ёрлиқлар билан белгилаб олинади. Шундан сўнг ўқитувчи ўрганилаётган мавзу билан боғлиқ бўлган мунозарали фикр, ҳукм ёки мулоҳазалар рўйхатини баёнот шаклида тузиб чиқади. Улар қуйидаги шаклларда бўлиши мумкин:

- Жамиятдаги кўпчиликнинг эҳтиёжлари камчиликниқидан кўра муҳимроқдир.
- Мактаб таълимининг мақсади ёшларни яхши фуқаролар бўлишга тайёрлашдир.



- Шахслар ўз тақдирларини ўзи танлашлари мумкин; уларнинг танлови жамиятнинг чекловлари билан белгиланмайди ёки чекланмайди.
 - Одам адолатсиз қонунларга оқибатларидан қатъий назар, доимо қарши туриши керак.
2. Баёноتلарни тақдим этиш. Маълум фикр ва мулоҳазани ифодаловчи баёноتلар талабаларга тарқатилади ва уларга ёзма жавоб бериш учун имкон берилади. Бунда талабаларнинг юқоридаги танлов жавоблардан бирини танлаши ва қисқача изоҳ беришига эътибор қаратилади.
3. “Тўрт бурчак” муҳокамаси. Талабалар баёноتلарга ўзларининг шахсий муносабатларини кўриб чиққанларидан сўнг ўқитувчи баёноتلардан бирини ўқийди ва талабаларни хонанинг уларнинг позитивиясини энг яхши ифода этадиган бурчагига ўтишларини сўрайди. Талабалар ўз жойларини эгаллаганларидан сўнг танловларини изоҳлаш талаб қилинади. Бунда улар аввалроқ эгаллаган билимларига, ушбу бўлимда ўрганган материалларига, шунингдек, ўзларининг тажрибаларидан олинган бошқа тегишли маълумотларга мурожаат қилишлари мумкин. Ўқитувчи талабаларни ифода этилган муайян фикрлардан сўнг ёндашувларини ўзгартиришга ундаб туриши керак. Ҳар бир бурчакдаги иштирокчи ўз позитивиясини ҳимоя қилиб бўлгандан сўнг талабаларнинг бир бирларининг фикр ва қарашларини сўроқ қилишига имкон берилади. Муҳокамани бошлашдан олдин талабаларга ўзгаларнинг ғояларни ҳурмат билан очиқ муҳокама қилиш меъёрлари ҳақида эслатиб ўтилади.

Муаммони ечишга қаратилган “Дунё кафеси” микро технологияси

Технологиянинг мақсади қисқа вақт ичида қўп сонли талабаларни муаммоли вазият ёки масалалар юзасидан танқидий ва ижодий фикрлашга ва ўзаро фикр алмашиш жараёнига қамраб олишдан иборат. Бунинг натижасида муайян масала юзасидан индивидуал бўлган хилма-хил фикр ва ғоялардан ягона муфассал хулосани ясашга эришилади.

Технологиядан фойдаланишга тайёргарлик. Гуруҳдаги талабалар сонидан келиб чиқиб ҳар бири 4-5 талабага мўлжалланган кафе услубидаги столлар, рангли қоғоз ва ручкалар, шунингдек, ўқитувчи томонидан ягона муаммоли вазият/масалага қаратилган 4-5та саволли масалалар рўйхати тайёрлаб олинади.

“Дунё кафеси” микро технологияси етита яхлит лойиҳа тамойилига асосланган катта гуруҳларда мунозара олиб боришнинг содда, самарали ва айни дамда мослашувчан шаклидир. Технологиянинг ҳар бир элементи маълум бир мақсадга эга бўлиб, тамойилларнинг барчаси бир-бирини тўлдирди.

Технологияни ўтказиш жараёни:

Дунё кафеси технологияси таълим мақсадидан келиб чиқан ҳолда ўзгартирилиши мумкин. Вазият, рақамлар, ўқув мақсади, жойлашув ва бошқа ҳолатларнинг ўзига хос хусусиятлари технологияни қўллашнинг шакли, саволлар танловида ҳисобга олинади, аммо қуйидаги бешта компонент асосий моделни ўзида акс эттиради.

1. *Жойлашув.* Бунда расмийликдан ҳоли, дўстона ва самимий суҳбатлар учун мўлжалланган махсус кафе муҳитини яратишга эътибор берилади. Кафе хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда бир нечта кичик айлана ёки тўртбурчак шаклдаги столлар, ҳар бир стол атрофида оптимал равишда тўртта, кўпида бешта стуллар жойлаштирилиб, ҳар бир столда муҳим нуқталарни қайд қилиб бориш учун рангли қоғоз ва қалам/ручкалар тайёрлаб чиқилади.

2. *Танишиш.* Ҳар бир стол учун бир талаба мезбон сифатида тайинланиб у бошқа иштирокчиларни контекст билан, мунозара олиб бориш одоб-ахлоқ қоидалари билан таништириш, гуруҳда дўстона ва илиқ муҳитни яратиш билан шуғулланади. Ҳар бир стол атрофида енгил ва самимий муҳитнинг яратилиши талабаларга мунозара жараёнида масалага ижодий ёндашиш, ўз фикр ва қарашларини босимсиз ифодалаш, танқидий фикрларни объектив қабул қилиш ва бир-бирларини қизиқиш билан тинглашга имкон беради.


3. *Кичик гуруҳ раундлари.* Жараён стол атрофида ўтирган тўртта (максимал бешта) кишидан иборат кичик гуруҳлар учун 5дақиқадан 20дақиқагача бўлган муҳокамаларнинг биринчисидан бошланади. Бунда талабалар ўқитувчи томонидан берилган муаммоли масалага ечим топишга ҳаракат қилишади. Ҳар бир талаба учун тенг вақт ажратилади. Белгиланган 20 дақиқадан сўнг гуруҳнинг ҳар бир аъзоси бошқа столларга ўтади ва янги гуруҳлар шаклланади, ўқитувчи томонидан мазкур раунд мавзуси эълон қилинади. Ҳар бир раунд якунида мазкур гуруҳдан бир киши “стол эгаси” сифатида бошқаларни кутиб олиб мезбонлик қилиш яъни оддинги гуруҳ билан бўлиб ўтган муҳокамани қисқача гапириб бериш учун қолиши мумкин.

4. *Саволли масалалар.* Ҳар бир турда “Дунё кафеси”нинг асосий мавзуси, муаммо мазмуни ва муҳокама мақсадидан келиб чиқиб махсус тайёрланган саволли масалалар берилади. Вазият талабидан келиб чиқиб бир саволли масала бир неча марта ишлатилиши, мунозараларни йўналтириш ёки уларнинг йўналишини бошқариш учун бир-бирига асосланиши мумкин.

5. *Хулоса.* Барча кўзда тутилган турлар якунлангач талабаларга муҳокама қилинган саволли масалалар, фикрлар, хулосалар юзасидан жимликда мулоҳаза юритиш учун бир неча дақиқа вақт берилади. Шундан сўнг ўқитувчи томонидан талабалар кичик гуруҳларга қайтадан бўлинади ва асосий бош муаммо юзасидан қилинган якуний хулосалар билан бўлишишга таклиф қилинади. Ҳар бир гуруҳ қилинган хулоса, ечим ва натижаларни визуал равишда акс эттиради. Буни амалга оширишда график ёзувлардан фойдаланиш яхши натижа беради. Мазкур усулни қўллаш талабаларнинг фикрлаш тарзини кўргазмали шаклга солишга имкон беради, муаммоларни аниқ кўриш бу орқали эса самарали қарор қабул қилиш жараёнини тезлаштиради, бошқа талабалар томонидан таклиф қилинган фикр ва ғояларнинг ёдда сақлаб қолиниши осонлаштиради, ижодий ёндашувчанликни рағбатлантиради. Қуйидаги намуна график ёзувга мисол бўла олади (2.3.2-расм):

2.3.2-расм.

График ёзув намунаси



Фидбек бериш/олишни рағбатлантиришга қаратилган “Маслаҳат баённомаси” микро технологияси

Технологиянинг мақсади талабаларда муайян масаланинг муаммоли томонини кўриш ва уни тасвирлай олиш, шунингдек, масалани тушуниш ва уни ҳал этишда фидбек яъни самарали қайта алоқани таъминлаш орқали уни ҳал этиш чораларини таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиришни назарда тутати.

Технологиядан фойдаланишга тайёргарлик. Ҳар бир талаба ўзига бевосита алоқадор бўлган дилемма ва уни ҳал қилишга доир саволни олдиндан тайёрлаб келади. Дилемма уни бераётган талаба учун муҳим бўлиб унинг ечими чиндан ҳам талаба учун номаълум бўлиши зарур. Дилемма мавзусини тўғри шакллантиришда талаба ўзига қуйидаги саволларни бериши мумкин:

- Мазкур дилемма уни доимий равишда бевосита қиладими?
- Бу ҳали ҳал қилинмаган масалами?
- Бу бошқа одамларнинг ўзгаришига боғлиқ эмасми, яъни амалиётни ўзгартириш орқали дилеммага таъсир этиб бўладими?
- Бу у учун муҳим ва унинг устида ишлашга тайёр бўлган масалами?

Технологияни ўтказиш жараёни:

1. *Маслаҳатчи гуруҳни дилемма билан таништириши.* Гуруҳдаги талабалар 4-5 кишидан иборат кичик гуруҳларга бўлинади. Ҳар бир жамоа учун 1тадан тақдимотчи (ўз муаммоли вазияти билан бўлишувчи шахс) белгиланади. Тақдимотчи ўзи қийналаётган дилемма ҳақида умумий маълумот беради ва маслаҳат гуруҳи кўриб чиқиши керак бўлган саволни ўртага ташлайди. Саволнинг тўғри шакллантирилиши, тақдимотчининг муҳокама қилинаётган дилемманинг унга алоқадорлигини етказиш сифати мазкур технологиянинг асосий хусусиятларидан ҳисобланади. Агар тақдимотчи дилемма билан бевосита боғлиқ ҳужжатлар (мақола, иншо, жадвал каби)ни тақдим этса, маслаҳатчиларга уларни кўриб чиқиш учун вақт берилади (5-10 минут).
2. *Аниқлаштирувчи саволлар.* Маслаҳатчи гуруҳ тақдимотчига ким, нима, қачон, қаерда каби сўроқларни ўз ичига олган аниқ ва қисқа жавобга эга аниқлаштирувчи саволларни беришади.
3. *Текширув саволлар ва дилемма таҳлили.* Маслаҳатчи гуруҳ тақдимотчига текширувчи саволлар беради. Мазкур саволлар шундай тузилиши керакки, улар тақдимотчига

дилемма бўйича фикрларини янада аниқлаштириш ва кенгайтиришга ёрдам бериши зарур. Бунда тақдимотчининг ўз қўйган саволи бўйича кўпроқ нарса ўрганиши ва дилеммани таҳлил қилиши асосий мақсад ҳисобланади. Маслаҳатчилар гуруҳи аниқ ечим, маслаҳат беришдан қочилари керак. Тақдимотчи гуруҳ саволларига жавоб берар экан мазкур саволлар тақдимотчини муаммога янги бошқа бир томондан ёндашишга ундаши ва баъзан “мен бу ҳақида ҳеч ўйлаб кўрмаган эканман” каби жавобларни юзага келтириши мумкин. Бу жараёнда тақдимотчининг жавоблари муҳокама қилинмайди ва муҳокама охирида тақдимотчига маслаҳатчиларга қўйилаётган саволни қайта шакллантиришга рухсат берилади.

4. *Маслаҳатчи гуруҳ муҳокамаси.* Маслаҳатчи гуруҳ аъзолари тақдим этилган муаммо юзасидан ўзаро суҳбат олиб боришади. Мазкур босқичда гуруҳ масалани янада холис ва атрофлича кўриб чиқиш учун ишлайди. Бунда муаммони ҳал этиш учун тақдимотчи томонидан қилиниши лозим бўлган ҳаракатлар “очиқ маслаҳатлар” сифатида шакллантирилади ва дилемма тўлиқ таҳлил қилиб бўлингандан сўнг тақдим этилади. Бироқ маслаҳатчилардан муаммони ечиш ёки аниқ жавобни шакллантириш талаб қилинмайди. Бу жараёнда тақдимотчи фақат фақат тинглайди ва қайд қилиб боради. Гуруҳ тақдимотчи ҳақида учинчи шахсда гапирди.

Муҳокамани ўтказиш учун мумкин бўлган саволлар қуйидагича бўлиши мумкин:

- Биз нималарни эшитдик?
- Муҳим бўлиши мумкин бўлган нималарни эшитмай қолдик?
- Қандай тахминлар бўлиши мумкин?
- Дилемма биз учун қандай саволларни туғдиради?
- Дилемма ҳақида қандай фикрдамиз?
- Худди шундай муаммога дуч келганда нима қилишимиз мумкин?
- Шунга ўхшаш вазиятларда нима қилдик?

5. *Рефлексия.* Тақдимотчи эшитганлари ва ҳозирги фикрлари билан, маслаҳатнинг исталган қисмида унда акс-садо берган фикр, савол ва маслаҳатлар билан бўлишади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Beckett G., Teacher and student evaluations of project based instruction, TESL Canada Journal, 19(2), 2002.
2. Bolsunovskaya L., Chris Phillips , V. Korotchenkoa, Project-based Method in Teaching Foreign Language for Specific Purposes. International Conference for International Education and Cross-cultural Communication. Problems and Solutions (IECC-2015), 09-11 June 2015, Tomsk Polytechnic University, Tomsk, Russia
3. Бухтиярова И.Н. Метод проектов и индивидуальные программы в продуктивном обучении // Школьные технологии. 2001. - № 2.
4. Горлицкая С.И. Метод проектов в развивающем обучении информатике: Автореф. дис. . канд. пед. наук. СПб., 1995.- 14 с.
5. Гридасова О.И. Развитие проектной деятельности студентов (на материале изучения немецкого языка): Автореф. дис. . канд. пед. наук. -Курск, 2004.
6. Patton, A. (2012). Work that Matters: The Teacher’s Guide to Project-Based Learning. London: Paul Hamlyn Foundation.
7. Матяш Н.В. Проектный метод обучения в системе технологического образования // Педагогика. — 2000. № 4.- С. 38 - 43.



8. Thomas, J. W., Mergendoller, J. R., and Michaelson, A. (1999). Project-based learning: A handbook for middle and high school teachers. Novato, CA: The Buck Institute for Education

КИМЁДАН ЭКСПЕРИМЕНТЛАР ЎТКАЗИШ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШ

Нишонов Миркозимжон – Фарғона давлат университети кимё кафедраси мудири,
профессор

Иброхимов Азиз Алижон ўғли - Фарғона давлат университети кимё ўқитиш методикаси
йўналиши талабаси

Холмирзаева Зохидахон-Наманган вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш
ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказ ўқитувчиси

Аннотация: мақолада кимёдан экспериментлар ўтказиш тарихи илмийлик ва тарихийлик тамойиллари асосида ёритилган. Биринчи кимё лабораториясининг очилиши ва унда етишиб чиққан кимёгар олимлар, уларнинг фан ривожига изланишлари ёритилган. Илмий маълумотлар дидактик қайта ишланиб, ўқув маълумотларига айлантирилган.

Калит сўзлар: кимё, илмий лабораториялар, кимё тажрибалари, кимё операциялари, кимё тарихи, лаборатория техникаси, ҳайдаш эмульсия, коллоид эритмалар, тарози, порох, пиротехника.

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ХИМИЧЕСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ

Нишонов Миркозимжон – профессор, заведующий кафедрой химии Ферганского государственного университета

Иброхимов Азиз Алиджон сын - студент химического факультета Ферганского государственного университета.

Холмирзаева Зохидахон-преподаватель кафедры методики преподавания точных наук и естествознания регионального центра переподготовки и повышения квалификации работников народного образования Наманганской области

Аннотация: в статье изложена история проведения экспериментов по химии на основе научно-исторических принципов. Освещается открытие первой химической лаборатории, работавших в ней и ставших известными ученых- химиков, их исследования в развитии науки. Научные данные были дидактически обработаны и преобразованы в образовательные.

Ключевые слова: химия, научные лаборатории, химические опыты, химические операции, история химии, лабораторное оборудование, движущие эмульсии, коллоидные растворы, весы, порошок, пиротехника

STUDYING THE HISTORY OF CHEMICAL EXPERIMENTS

Nishonov Mirkozimjon- professor, Head of the Department of Chemistry of Ferghana State University

Ibragimov Aziz Alijon ugli is a student of the Faculty of Chemistry of Fergana State University.

Kholmirezayeva Zohidakhon- a teacher of the department of «Science and exact sciences» of of Namangan regional in-service and retraining centre of public education staff.

Annotation: The article describes the history of conducting experiments in chemistry based on scientific and historical principles. The opening of the first chemical laboratory, the chemists who worked in it and became famous, and their research in the development of science are highlighted. Scientific data were didactically processed and transformed into educational data.

Keywords: chemistry, scientific laboratories, chemical experiments, chemical operations, history of chemistry, laboratory equipment, moving emulsions, colloidal solutions, scales, powder, pyrotechnics

2018 йилда кимё фани кимёдан биринчи илмий лаборатория ташкил этилганлигига 270 йил тўлган юбилейи кунини ўтказди.

1748 йил 3 август кунини эрта билан Петербургда, Васильевский оролида, фанлар Академиясининг ботаника боғи жойлашган ерда, Россияда кимёдан биринчи илмий лаборатория учун кичикроқ бир бино қурилади бошлади. Орадан икки ой ўтгач бу бино қурилиб бўлди, ўша йили кеч куздан бошлаб у ерда мунтазам суратда илмий текшириш ишлари олиб борилди бошлади.

Дунёда кимёдан биринчи марта барпо этилган илмий лабораториянинг ташаббускори ва жони-дили улуғ рус олими ва ватанпарвари Михаил Васильевич Ломоносов эди.

Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатдики[1-3], аксари ҳолатларда илмий лабораториялар яратилиш тарихи маълумотлари XIX асрлардан бошлаб келтирилган. Бироқ ҳақиқий ҳолат эса бу соҳадаги уринишлар эрамининг биринчи минг йилларидаёқ араб врачлари Ар-Розий ва ўзбек олими Ибн Синоларнинг таъбиот соҳасидаги илмий-амалий фаолиятида бошланганлигини кўрсатди. [1-116 бет].

1869 йили Бухоро вилоятининг пойкент туманида кимёдан биринчи илмий лабораториянинг барпо қилиниши фанлар Академияси учун ҳам, бутун дунё учун ҳам катта аҳамиятга эга бўлган воқеалардан бири бўлди. Бу воқеа бутун дунёда экспериментал кимё билан назарий кимё босиб ўтган шонли икки юз етмиш йилнинг боши бўлди. Ломоносов лабораторияси кейинчалик ҳозирги вақтда барпо қилинган жуда кўпдан-кўп илмий текшириш муассасалари учун асос бўлиб хизмат қилди.

Ўтган 270 йилдан ортиқ вақт ичида дунё кимёгарлари кимё илмини жуда кўп янги кашфиётлар билан бойитдилар, уларнинг бу кашфиётлари назарий ва амалий жиҳатдан жуда катта аҳамиятга эга. Шу ўтган давр ичида, номлари бутун дунё фан ва маданият тарихида абадий ўрин олган, энг буюк олимларни етиштириб берди. Хусусан, ўтган 273 йил ичида жуда кўпдан-кўп олимлар орасида кимё фанининг вакиллари бўлган М.В.Ломоносов, К.К.Клаус, А.А.Воскресенский, Н.Н.Зинин, А.М.Бутлеров, Д.И.Менделеев, В.В.Марковников, Д.П.Коновалов, А.Е.Фаворский, Н.С.Курнаков, Н.Д.Зелинский, О.С.Содиқов, С.Ю.Юнусов, М.Н.Набиев, Ш.Т.Толипов ва бошқа шу каби фан фидойилари етишиб чиқдилар.

Ломоносов ташкил қилган лаборатория на фақат Россияда балки бутун дунёда кимёдан биринчи илмий лаборатория бўлди. Аммо бу лабораторияни умуман биринчи рус лабораторияси деб даъво қилиб бўлмайди. Ҳозирги вақтда узил-кесил исбот қилинганидек, энг қадимги Русдаёқ жуда кўпдан- кўп хунармандлик ишхоналари мавжуд бўлиб, буларда ҳар хил лаборатория ишлари қилинганлиги маълум бўлди. XVI асрдан бошлаб эса Русияда чинакам кимё лабораториялари бўлган. Бу лабораториялар, одатда, хунармандлик ишхоналарининг ёрдамчи муассасалари бўлиб хизмат қилган ва улар кўпроқ медицина муассасаларига, шунингдек, санъатнинг турли соҳаларига - нафис хунармандлик касбларига хизмат қилган. [4].

Қадимги Рус „саънати“ орасида безакли бутлар яшаш ва китоб ёзиш айниқса кўп тарқалган эди. Москва ва бошқа шаҳарларда князьлар ҳам митрополитлар саройи қошида бут ва китоб ёзадиган ишхоналар жуда кўп бўлган. Бундай ишхоналар катта монастырлар қошида ҳам кўп бўлган. Бундай ишхоналар ўсимлик ва минераллардан олинган ҳар хил бўёқлар, елимлар, олифа, замазкалар, металллар, тузлар, кислоталар ва бошқа кимёвий моддаларни кўплаб ишлатганлар. Бундай қадимги Рус устахоналарининг вазифаси юқорида санаб ўтилган материалларни маҳаллий кимёвий хомашёлардан тайёрлаш, безакли бут ясовчи ва китоб ёзувчи усталарга ҳар хил моддалар тайёрлаб беришдан иборат бўлган.

Қадимги Рус адабий ёдгорликлари орасида ҳозиргача сақланиб қолган жуда кўп кимёвий рецептлар тўпламлари бор бўлиб, бу тўпламлар ҳар хил „Бут безатиш асл қўлланмаси“, „Гиёҳнома“, „Табобатнома“ ва ҳоказоларга ўхшаш қўлланмалар кирар эди; рассомлар, бинокорлар, табиблар, дорихоначилар ва кимёвий моддалар ва дори-дармонлар билан савдо қилувчилар ҳамда бошқа касб эгалари ўз амалий ишларида бу қўлланмалардан фойдаланар эдилар. Жуда кўп рецептларда бирор-бир касб-хунар мақсадлари учун талаб қилинадиган „моддаларни“ тайёрлаш билан боғлиқ бўлган турли хил лаборатория ишлари баён қилинади. Масалан қадимги Русда моддаларни тозалаш учун қўлланилган ҳайдаш, қайта кристаллаш жараёнлари жуда машҳур эди, бундай жараёнларни у замонларда битта умумий ном билан „қайта ҳайдаш“ деб аташар эди, шунингдек, лаборатория ҳовончалари воситаси билан туйиш ва майдалаш жараёни ҳам, элаш, тиндириш, эзгилаш, эмульсия ва коллоид эритмалар ҳосил қилиш жараёни ҳам, қиздириш, сублимация қилиш ва бошқа бир қанча жараёнлар ҳам машҳур эди. Шу нарсани уқтириб ўтиш диққатга сазоворки, турли хил лаборатория ишларининг тасвири орасида ҳар хил кимёвий реакцияларни масалан: симоб ва олтингурутдан киноварь олиш, хилма-хил бўёқлар ҳосил қилиш, шу жумладан, мисдан ва сирка кислотадан, у бўлмаганда қатиқдан ва шу кабилардан ярьмедянка деб аталадиган бўёқ олиш усуллари батафсил баён қилинган.

Баъзи тўпламларда, моддаларнинг жуда кичик миқдорини „тарозида“ қандай ўлчаш батафсил баён қилинади, бундай ўлчовларда арпа доналари, куртаклар майда қадоктош ўрнида ишлатилган (25 куртак бир мисқол келади), суюқлик ҳажмини „қадақ“, яъни тухум пўчоғи, чиғоноқ ва ҳоказолар ёрдами билан анча аниқ ўлчаганлар. Агар қадимги Русдаги усталарнинг металлларга олтин ҳал бериш, кумуш суви юритиш, қалай суви бериш санъатини жуда яхши билганликларини („Игорь полки жангномаси“да қиличлар ва бошқаларга ишлов бериш тилга олинади), металл ва чинниларга ўйма гул солиш, металлларни кавшарлаш, сопол буюмларни сирлаш ва ҳоказо ишларга моҳир бўлганликларини назарга олсак, кимё фанида XI-XVI асрларда лаборатория техникасининг даражаси нақадар ўша даврга мос бўлганлигини кўз олдимизга келтириш мумкин. [4].

Ҳар хил кимёвий операциялар баён қилинган рецептлар тўплами ичида XV аср ўрталаридаги Троице-Сиргиевск Лавранинг собиқ кутубхонасидаги қўлёзма алоҳида эътиборга сазовордир.

Мана шу хилдаги хунармандлик лабораторияларидан ташқари, қадимги Русда XVI асрдан бошлаб, руда ва минералларни текшириш, порох ва пиротехника моддаларини тайёрлаш ва текшириш учун унча катта бўлмаган лабораториялар ҳам бўлган.



Бундай лабораториялар Пётр I даврига келиб янада кўпайган. Пётр I нинг ўзи ҳам, кимёга ва айниқса рудаларни текшириш усулларига жуда қизиққан эди. Шу XVI асрдан бошлаб Москвада ҳам, ўша вақтларга нисбатан жуда яхши жиҳозланган лабораториялар бор эди, бу лабораториялар дорихоналар маҳкамасига қарашли бўлиб, уларда ҳар хил суюқ дори-дармонлар, шарбатлар, ароқ, ичимликлар, настойкалар, ҳар хил гиёҳлардан турли дорилар, яъни ёғ дори, малҳам ва ҳоказо лар тайёрланар эди. Бу ишларнинг ҳаммаси махсус „алкимёгарлар“ ва уларнинг кўпдан-кўп ёрдамчилари ва шогирдлари қўл остида бажарилар эди.

Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, қадимги Русдаги кимё ҳунари ўзининг махсус ва жуда кўп атамаларига эга эди, бу атамаларнинг кўпчилиги чет эл атамаларидан мустақил ҳолда яратилган эди. Бу кимёвий атамаларнинг қарийб ҳаммасини кейинчалик рус кимёгарлари ўзлаштириб олдилар, бу атамалардан айримлари ханузгача сақланиб келмоқда.

Гарчи қадимги Русда кимёгарлик ҳунари жуда кенг ёйилган ва моддаларни кимёгар- уста(мастер) лар томонидан лабораторияда ишлаш ва текшириш техникаси жуда тараққий қилган бўлсада, лекин бундан, қадимги Русда кимё соҳасида бирор бир мунтазам илмий текшириш ишлари олиб борилган эди, деган; хулоса чиқариб бўлмайди. Аммо, ҳеч шубҳасизки, қадимги Русдаги ҳунармандлар кимёвий иш тажрибаси соҳасида бир неча асрлар давомида кўпгина тажриба ҳосил қилдилар ва шу тариқа жуда қадимги замонлардаёқ бир қанча муҳим кимёвий жараёнларни, масалан, аммиакли селитра, ундан эса „тўп ва милтиқ дори“ тайёрлашга кетадиган калийли селитра олиш; ёғоч кули ишқорини буғлатиш ва кристаллаш йўли билан поташ олиш, совун пишириш, ҳар хил пиротехник моддалар олиш, минерал ва ўсимликлардан ҳар хил бўёқлар, олифалар, елимлар тайёрлаш, китоб ёзиш учун сиёҳлар тайёрлаш, металллар ажратиш олиш ва уларни ишлаш, бинокорлик материаллари ва ҳоказолар тайёрлаш каби жараёнларни саноат миқёсида амалга ошира олдилар.

Ломоносовнинг кимё соҳасида қилган ишларини ўрганиб, қадимги Русдаги кимё ҳунари техникасининг асосий усулларини Ломоносовнинг жуда яхши билганлигига қаноат ҳосил қиламиз. Ломоносовнинг қадимги Русдаги кимё атамаларини жуда яхши билганлиги буни очиқ кўрсатиб туради, Ломоносов бу атамалардан ўз асарларида кенг фойдаланди, илмий тилдаги ҳар қандай бузғунчиликдан қочишга тиришди.

Аммо Ломоносов қадимги Русдаги кимё техникаси усулларини асло бир ҳунарманд устадек ўзлаштирган эмас. Ломоносов чинакам олим эди, у, ўз замонида маълум бўлган кимёвий операцияларнинг моҳиятини жуда яхши тушунар эди, Ломоносов хом ашёларни кимёвий қайта ишлаш соҳасидаги турли хил усулларга, тайёр кимёвий материалларни ишлаш ва қўлланиш усулларига жуда муҳим кўпгина янгиликлар киритди. Ломоносов сўзнинг кенг маъносидаги тадқиқотчи ва ижодчи эди ва ўз олдида турган соф илмий ҳамда илмий-амалий вазифаларни ҳал қилиш учун ҳамisha янги, кўп даража такомиллашган йўللар қидирар эди.

Фанлар Академияси ҳузурида кимё лабораторияси барпо қилиш фойдасига далил бўлиб хизмат қилган омилардан бири „санъатни ошириш“, яъни рус ҳунармандларининг техника ва ишлаб чиқариш имкониятларини кенгайтириш бўлганлигини биз қуйида кўрамиз. Аммо бундай вазифа тор бир доирада, фақат ҳунармандликнинг айрим тармоқларини такомиллаштириш нуқтаи назаридангина қўйилмаган эди. Ломоносов кимё соҳасида мунтазам илмий текшириш ишларини йўлга қўйишнинг мамлакат

иқтисоди ва маданияти учун нақадар катта аҳамиятга эга эканлигини, бундай илмий текшириш ишларининг катта натижалар бера олиши ва мамлакатда янги хил кимёвий ишлаб-чиқаришлар барпо бўлишига асос бўла олишини жуда яхши билар эди. Худди шу сабабдан Ломоносов кимёгарлар олдига энг аввало назарий кимёнинг муҳим масалаларини ишлаб чиқиш вазифасини қўйди. Шундай қилиб, Ломоносовнинг бундан 273 йил аввал барпо қилган кимё лабораторияси дунёда энг биринчи, чинакам илмий текшириш муассасаси бўлиб қолди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. В.Штрубе. Пути развития ХИМИИ. В двух томах. Том.1. Москва. "Мир". 1984. -239 с.
2. В.Штрубе. Пути развития ХИМИИ. В двух томах. Том.2. Москва. "Мир". 1984. -278 с.
3. С.И. Вольфович. Пути современной химии. Издательство Академии Наук СССР. "Ленинград" 1950. 56 с.
4. А.Ф. Капустинский. Первая русская научная лаборатория. "Природа". 1947, № 10.

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА МУТАХАССИСЛИКЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА МОДЕЛЛАШТИРИШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Коржавов Мустафа Жовлиевич, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти, Физика ва электроника кафедраси катта ўқитувчиси,
Тел: 97 560-06-24 e-mail: mkorj1965@gmail.com

Мақола физика, математика ва табиатшунослик мутахассисликлари талабаларини моделлаштириш усули асосида ўқитишнинг ўзига хос жиҳатларига ва ролига бағишланган. Талабаларга моделлаштириш усулини ўргатиш "Физика" фани ва ундаги "оламнинг физик манзараси", "замонавий табиий тушунчалар" мавзулари методологияси мисолида батафсил баён этилган.

Калит сўзлар: моделлаштириш усули, таълим тизими, оламнинг физик манзараси, замонавий табиатшунослик тушунчалари, хаёлий эксперимент, мослик тамойили, ўтаўтказувчанлик.

ФОРМИРОВАНИЕ МОДЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Коржавов Мустафа Жовлиевич, Каршинский инженерно-экономический институт, старший преподаватель кафедры физики и электроники, Тел: 97 560-06-24 e-mail: mkorj1965@gmail.com

Статья посвящена особенностям и роли обучения студентов физико-математических и естественнонаучных специальностей на основе метода моделирования. Обучение студентов методике моделирования подробно описано на примере науки «Физика» и методологии тем «Физическая картина мира», «Современные природные концепции».

Ключевые слова: метод моделирования, система образования, физическая картина Вселенной, современные естественнонаучные концепции, воображаемый эксперимент, принцип соответствия, сверхпроводимость.



FORMATION OF MODEL COMPETENTS IN STUDENTS OF PHYSICAL-MATHEMATICAL AND ESTABLISHED SPECIALISTS

Korjavov Mustafa Jovlievich, Karshinskiy Engineering and Economic Institute, Senior Lecturer of the Department of Physics and Electronics,
Tel: 97 560-06-24 e-mail: mkorj1965@gmail.com

The article is devoted to the peculiarities and role of teaching students of physical, mathematical and natural science specialties on the basis of the modeling method. Teaching students the modeling methodology is described in detail on the example of the science "Physics" and the methodology of the topics "Physical picture of the world", "Modern natural concepts".

Key words: modeling method, education system, physical picture of the Universe, modern natural science concepts, imaginary experiment, conformity principle, superconductivity.

Кириш. XXI асрга келиб атрофимиздаги дунё ҳақидаги фикрларимиз тубдан ўзгарди. Оламнинг замонавий табиатшунослик манзараси физика, астрономия, биология, кимё, геология ва бошқа фанлар асосида ривожланди. Ўтган 100-120 йил давомида табиий фанлардаги динамик назариялар (классик механика, классик электродинамика, термодинамика ва бошқалар) статистик назариялар билан алмаштирилди (квант механикаси, статистик физика, генетика ва бошқалар). Барча замонавий табиий фанларнинг умумий ўхшашлиги улардаги назарияларнинг мураккаблиги бўлсада, атрофимиздаги оламни аниқроқ ва тўғри тасвирлаб беради. Нафақат физик назарияларни, балки биологик, геологик ва бошқа ҳодисалар ҳамда жараёнларни тавсифлаш учун мураккаб математик тенгламалар, математик объектлар ва моделлардан тобора кўпроқ фойдаланиш керак [1].

Фаннинг бир соҳасида ишлаб чиқилган математик усуллар билимнинг бошқа соҳаларида янада қўлланиш ва ривожланишни топади. Мисол учун, классик механикада битта заррачанинг ҳаракатини тасвирлаш учун ишлаб чиқилган энг кичик таъсир принципи кейинчалик умумлаштирилди ва ҳар қандай механик, физик-кимёвий жараёнлар, узлуксиз ахборот воситаларини, қайтмас жараёнларни ҳамда биологик жараёнларни ўрганиш учун ишлатила бошланди. Илғор илмий ғоялар пайдо бўлаётган ҳозирги даврда илм-фан тараққиётининг бу хусусияти табиий фанлар умумлашуви-биофизика, физик кимё, геофизика ва бошқа бундай долзарб соҳаларнинг ривожланишига олиб келди. Бундан ташқари кундалик тажрибамизда кўплаб ғоялар, масалан, квант механикаси, нисбийлик назарияси элементлари билан тўқнаш келамиз. Бу замонавий тушунчаларни идрок қилишимизни мураккаблаштиради. Мактаб ўқувчилари ва талабаларга тушунарли бўлиши учун бу назарияларни ўқитиш усулларини пухта ишлаб чиқишни, қўлланиладиган асосий илмий усулларни тўғри тавсифлашни талаб қилади.

Моделлаштириш билиш усули сифатида. Илмий метод-керакли натижага эришиш йўлида яратилган қоидалар ва усуллар тизимидир. Эмпирик ва назарий жиҳатдан жуда кўп илмий усуллар мавжуд. Эмпирик усулларга кузатиш, тавсифлаш, ўлчаш ва эксперимент киради. Назарий даражадаги усулларга анализ, синтез, дедукция, индукция, аналогия, умумлаштириш ва бошқалар киради. Асосий умумий илмий усуллардан бири моделлаштириш усулидир. Моделлаштириш асл нусха яратиш ва унинг нусхасини (моделини) ўрганишда ушбу тадқиқот учун баъзи муҳим хусусиятларни

сақлаб қолиш орқали объект ҳақида янги маълумотлар олишни англади. Ҳар қандай илмий тадқиқот методи ҳам назарий, ҳам экспериментал бўлиб, моҳиятан моделлаштириш ғояларига асосланади. Сўнги пайтларда математик моделлаштириш алоҳида фанлараро билим соҳасига айланди. Айниқса, математик тушунчалар ва операциялар, дифференциал тенгламалар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, барча табиий фанларда қўлланилади. Моделлар турли объектларнинг тузилишини тушунишга, объектка таъсир этиш оқибатларини олдиндан айтиб бериш, бошқариш, атроф-муҳитнинг бирлигини ва бошқаларни ўрганишга имкон беради. Моделлаштириш усули табиий фанларда қўлланилганидан буён уларнинг ривожланиш жадаллиги сезиларли бўлди.

Классик физикада одатда табиатни кузатиш натижалари илмий билимлар сифатида тизимлаштирилади ва умумлаштирилади. Сўнгра маълум бир гипотеза илгари сурилиб, у ўрганилади ва синовдан ўтказилади. Гипотезалар асосида янги назариялар қурилади, назарий башоратларнинг кузатувлар ва тажрибалар натижаларига мувофиқлиги текширилади.

Ҳозирги кунда ҳам моделлаштириш методисиз янги назария қуриш, мураккаб эксперимент ўтказиш, мураккаб, ғайриоддий ҳодисаларни ўрганиш деярли мумкин эмас. Шу билан бирга, баъзи ҳолларда тажрибаларни ўтказиш мумкин, баъзиларида эса мумкин эмас бўлиб чиқади (масалан, катта портлашнинг космологик назарияси). Замонавий физик назарияларнинг мураккаблиги моделлаштириш усулини ҳар бир назариянинг зарурий атрибутига айлантиради. Мураккаб объект ёки ҳодисани ўрганишнинг биринчи босқичида унинг моделларини яратиш керак, бу эса объект (ҳодиса) нинг турли томонлари, унинг хусусиятлари, фаолият ва ривожланиш қонуниятлари кашф қилиш имконини беради. Бошқа томондан, кузатилаётган объектнинг ҳолатини тасвирлаш кўпинча шунчалик мураккаб бўлиб чиқадики, математик тенгламалар ёрдамида тахминий ҳисоблашимиз керак. Бу ҳолат кўпинча квант физикаси, статистик физика, қаттиқ жисмлар физикаси, элементар зарралар физикаси ва бошқаларда содир бўлади. Масалан, квант механикасида чексиз баланд деворли потенциал ўрадаги заррача, тўртбурчакли потенциал тўсиқ, квант гармоник осциллятор ва бошқалар ҳисобланади.

Моделлаштиришнинг турларидан бири хаёлий эксперимент бўлиб, у фанда ҳам кенг қўлланилади. Мисол учун, махсус ва умумий нисбийлик назарияси қонунилари ва хусусиятларини яхшироқ тушуниш учун нисбийлик назарияси ва квант механикасида кўплаб хаёлий тажрибалар мавжуд ("Эйнштейн лифти", "Эгизак парадокси", "Шрейдигер мушугининг парадокси" ва бошқалар).

Ҳар қандай илмий назарияни реал дунёнинг муайян объектлари, ҳодисалари ва жараёнларини тасвирлаш учун модел сифатида қараш мумкин. Билимимиз ошган сари эскича илмий назария ўрнини янги, янада кенгроқ тасаввур берадиган назариялар эгаллайди. Шу билан бирга, янги ва эски назариялар ўртасидаги муносабатлар сиртқи тамойил билан белгиланади, унга кўра янги назария эскисини инкор қилмайди, балки уни махсус ёки чекловчи хусусий ҳол сифатида ўз ичига олади. Бу Нильс Борнинг мослик тамойили дейилади. Натижада биз қўлга киритган оламнинг манзараси ҳақиқий олам билан аниқ мос бўлмаслиги мумкин. Бинобарин, дунёнинг замонавий табиий-илмий манзараси аслида бизни ўраб турган дунёнинг моделидир. Ушбу модел ривожлантирилиши, аниқлик киритилиши, қайта ишлаб чиқилиши мумкин, лекин, у

катта эҳтимолият билан ҳар доим модел бўлиб қолаверади, чунки бизнинг оламнинг физик манзараси ҳақидаги тасаввуримиз ҳеч қачон яқиний бўлмайди.

Физика-математика мутахассисликлари талабаларини ўқитишда моделлаштириш методи хусусиятлари. Замонавий шароитда, ўқитувчилар тайёрлаш олийгоҳларининг физика-математика ва табиатшунослик мутахассисликлари бўйича таҳсил олаётган талабалар, албатта, объектлар, ҳодисалар ва жараёнларнинг моделларини ажрата олиши ва қура олиши, моделларни ўрганиш ва уларни илмий-педагогик фаолиятида қўлай олишлари керак. Бу фан ва таълимни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини ҳисобга олган ҳолда, касбий фаолиятни амалга ошириш учун табиий билимлар соҳасидаги асосий ваколатлардан бири бўлиши керак. Шунинг учун талабаларга моделлаштириш усулини ўргатиш тизими ишлаб чиқиши керак. Шу билан бирга моделлаштириш усулини ўзлаштиришда ўқувчилар фаолиятини репродуктив, қисман-изланувчан ва ижодий даражаларга ажратиб кўрсатиш мумкин.

Келинг, бу масалани Қарши Давлат Университетининг Физика факультети "Физика" (бакалавр) йўналишида таҳсил олаётган талабалар билан физика фанини ўқитиш мисолида кўриб чиқайлик. Талабаларнинг илмий-тадқиқот фаолиятига ва уларнинг яқиний назорат ишларини ёзишига ҳам эътибор қаратамиз. Ушбу бакалавр дастурлари учун физика ва бошқа фанлар бўйича ўқув-услугий мажмуалар яратилган. Бу фанлар ичида моделлаштириш усули ва уни табиий фанларда қўллашга катта эътибор берилди. Аввало, "Физика" фанига ва ундаги "дунёнинг физик манзараси" мавзусига батафсилроқ эътибор қаратайлик. Ушбу фанлар бўйича маъруза ва семинарлар, масалалар ечиш бўйича амалий, лаборатория машғулоти ўтказилиб, талабаларнинг мустақил ишларини ҳам ўзлаштириши таъминланади. Маърузаларда ўқитувчилар доимо талабаларнинг эътиборини физикада қўлланиладиган турли моделларга қаратадилар.

Келинг, мисол сифатида, "моддий нуқта (tizim) ҳаракати" тушунчаси маърузаларда қандай шаклланган ва ривожланганини кўриб чиқайлик. Кинематикада ("Классик механика" бўлими) биринчи навбатда моддий нуқтанинг ҳаракати ўрганилади. Бу моддий объектнинг энг оддий моделидир. Моддий нуқта ҳаракатининг ҳар хил турларини (тўғри чизиқли, эгри чизиқли, айланма, текис ва текис тезланувчан) ҳисобга олган ҳолда, жисмларнинг ҳаракат қонунларини шу моделга асосланиб $r = r(t)$ кўринишда олиш мумкин. Динамикада жисм ҳаракати модели Нютон қонуниятлари, сақланиш қонунларига асосланади ва ҳаракат сабаблари асослаб берилди. Шу билан бирга жисм ҳаракатининг математик модели мураккаблашади. Шунини таъкидлаш керакки, классик механикада жисм координатлари (ёки радиус-вектор) вақтнинг функцияларидир. Классик физика қонунлари микроолам ҳодисаларини тушунтириб бера олмасда, у бугунги кунда ҳам макроолам ҳодисаларини муваффақиятли тушунтирмоқда [2].

Квант механикасида кинематик тушунчаларнинг моҳияти сезиларли даражада ўзгаради: радиус-вектор ва вақт бир-бирига боғлиқ бўлмаган мустақил ўзгарувчилардир. Микроразрарнинг ҳолати $\Psi(r, t)$ тўлқин функцияси билан таърифланади. Классик физикадаги детерминизм (сабаб-оқибат) принципи квант механикасида эҳтимолий моделларга йўл беради ва траектория тушунчасидан воз кечилади. Заррачанинг тўлқин

функцияси Шредингер тенгламасини ечиб топилади, уни квант механикасида жисм харакатининг математик модели деб қараш мумкин. Шу билан бирга, квант механикасида дастлаб битта микроразрарнинг, сўнгра зарралар тўпламининг харакати ҳар хил тасаввурларда ўрганилади [3].

Статистик физикада жуда кўп заррачалардан иборат системалар кўриб чиқилади. Бу ерда уларнинг ўз моделлари мавжуд: идеал газ модели, реал газ модели, классик ва квант газ моделлари ва бошқалар. Квант физикасида, статистик физикада, қаттиқ жисм физикасида нафақат системаларнинг харакат қонунлари мураккаблашади, балки янги заррачалари ҳам киритилади: фононлар, тешиқлар, Купер жуфтлар ва бошқалар. Материя хоссаларининг икки ёқламалиги моделлаштирилади. Масалан, бир томондан, микроразрарларнинг тўлқин хусусиятларини тасвирлаш учун де-Бройл тўлқини тушунчаси киритилган бўлса, иккинчи томондан, қаттиқ жисмларда товуш тўлқинининг тарқалишини тавсифлаш учун фонон-квазизаррача тушунчаси киритилади. Қаттиқ моддаларнинг электр хоссалари электрон-фонон ўзаро таъсир модели асосида ўрганилади. Бундай ҳолда, қаттиқ жисмлар қаршилигининг мавжудлиги ҳам, ўтаўтказувчанлик ҳодисаси ҳам ўз изоҳини топади. Маъруза ўқиётганда табиат қонунларининг тобора мураккаб моделларини кетма-кет ўрганиш жараёнида биринчи навбатда, математик ва кейин бошқа қарашларнинг мақсадга мувофиқ шаклланиши кузатилади. Маърузаларда ўқитувчи моделларни таърифлайди, талабалар эътиборини модел қурилишининг барча босқичлари, уларнинг хусусиятлари, репродуктив даражаси ва қўлланиш соҳаларига қаратади. Муаммоларни ҳал этиш бўйича семинарларда, ўқитувчи ва ўқувчиларнинг биргаликдаги қисман-изланувчанлик даражали фаолияти мавжуд. Бу ерда талабалар билимини кенгайтириш ва чуқурлаштириш, жумладан, моделлаштириш усулини ўзлаштириш жараёни амалга ошади. Масалан, семинарда талабалар квант механикасида водород атомининг асосий ҳолатини кўриб чиқадилар: улар Шредингер тенгламасини тузадилар, уни ечадилар, олинган ечимни таҳлил қиладилар ва график моделлар тузадилар. Олинган натижалар ҳам Резерфорд-Бор модели натижалари билан таққосланади. Унинг асосида тенгламалар тизими, бошланғич ва чегара шартлари ҳамда бошқаларни ўз ичига олган математик модел қурилади. Бундай ҳолда, кўпинча тенгламаларни аналитик ва график жиҳатдан ечиш мумкин. Лаборатория амалиётида талабалар маълум объектлар, жараёнлар ва ҳодисаларнинг физик моделлари билан ҳам, компьютер моделлари билан ҳам ишлайди. Талабалар лаборатория қурилмаларида жисмларнинг эластик ва ноэластик таъсири моделларини тадқиқ қиладилар, энергия, импульс, бурчак моменти ва бошқаларнинг сақланиш қонунларини ўрганадилар. Ўқувчилар марказий майдондаги жисмлар харакатининг компьютер моделлари, Комптон эффекти, Зееман эффекти ва бошқалар билан ҳам ишлайдилар. Айниқса, улар физик тажриба (физик моделни ўрганиш) натижаларини компьютер модели билан солиштиришлари муҳим. Масалан, бу спектрал қонуниятлар ва атом тузилишини ўрганишда содир бўлади. Лаборатория амалиётида моделлар билан ишлашда талабаларнинг мустақиллиги сезиларли даражада ошади: экспериментал шартларни танлаш, қайта ишлаш, тажриба натижаларини аналитик ва график тарзда тақдим этиш ва ҳ.к.

Табиатшунослик фанларида талабалар томонидан ўрганиладиган моделларни ҳам қисқача санаб ўтаемиз:

-тўлқин ва заррача моделлари (табиатни тасвирлашнинг узлуксиз ва корпускуляр тушунчалари);

-физикадаги ўзаро таъсир моделлари (қисқа ва узок масофали таъсир моделлари, майдон ва квант моделлари);

-макон ва замон моделлари;

-элементар зарралар физикасидаги моделлар;

-биологик эволюция моделлари;

-коинот ва юлдузлар эволюцияси моделлари;

-Ерда ҳаётнинг ва инсоннинг пайдо бўлиши моделлари ва бошқалар.

Талабалар бакалавр даражасидаги физика бўйича якуний малакавий ишларини бажарганда, моделлаштириш усулини ўзлаштириш давом этади. Талабаларга физик ходисаларга математик усулларни (математик моделлаштириш) қўллаш бўйича аниқ вазифалар қўйилади. Талаба мустақил равишда ўз ишининг мазмунли математик моделини тузади, олинган тенгламаларни ечади ва натижаларини илмий-ижодий таҳлил қилади.

Биз магистрлик диссертациясининг мавзуси сифатида кичик, аммо яхлит курсни ишлаб чиқишни танлашга интиламиз. Магистрлик диссертациялари устида ишлаш, бир томондан, талабаларнинг эгаллаган билим даражасини, касбий компетентлигини, шу жумладан моделлаштириш усулини ўзлаштирганлигини кўрсатиш имконини беради. Бошқа томондан, ўқитувчилар ўқувчиларни ўқитишнинг ишлаб чиқилган усулларининг натижалари ва самарадорлигини ҳамда уларнинг касбий фаолиятга тайёргарлигини баҳолашлари мумкин. Талабаларга моделлаштириш усулини ўргатиш малакали мутахассисларни тайёрлашнинг асосидир. Улар бу методни ўқув материални тақдим этиш, уни яхшироқ ва қулайроқ ташкил этиш жараёнида, замонавий табиий-илмий тушунча ва назарияларни кўриб чиқишда ҳамда ўзларининг касбий педагогик дарсдан ташқари фаолиятида қўллай оладилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Korjavov M.J., Tursunov Q.S.H. Olamning fizik manzarasi–umumlashtirish metodi sifatida. Muғallim ҳам uzlikсiz bilimlendiриў. №3 2021жыл. Илмий-методикалык журнал.
2. Коржавов М.Ж., Квант назариясининг пайдо бўлишида Планк ғояларининг тутган ўрни. “Иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳанинг энергия самарадорлигини оширишга қаратилган автоматлаштириш ва энергетика муаммоларин ечишда илғор инновацион технологиялар ва таълимнинг ўрни” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Наманган муҳандислик-технология институти. 2021 йил 24-25 июнь. 212-215 бетлар.
3. Бекжонов Р.Б., Ёқубова Ш.К., Чориев Б.Ч. Модда тузилиши. Тошкент, «Фан», 1998.



ЛИТЕРАТУРНЫЕ ИГРЫ НА УРОКАХ ВНЕКЛАССНОГО ЧТЕНИЯ В СРЕДНЕМ ЗВЕНЕ ШКОЛЫ

Буранова Нилуфар Шавкатовна

Андижанский государственный медицинский институт

Аннотация: в статье рассматриваются игровые технологии как фактор становления читательской компетентности школьников среднего звена. Формирование читательской компетенции учащихся проходит на уроках литературного чтения, на внеклассных занятиях через проведение творческих конкурсов, литературных игр, занятий с элементами театрализации, что стимулирует творческую активность ребят.

Ключевые слова: игровые технологии, внеклассное чтение, читательская компетентность, творчество, средняя школа, литературные игры, исследовательская деятельность.

LITERARY GAMES IN EXTRACURRICULAR READING LESSONS IN THE MIDDLE SCHOOL

Buranova Nilufar Shavkatovna

Andijan State Medical Institute

Abstract: the article discusses gaming technologies as a factor in the formation of the reading competence of middle school students. The formation of students' reading competence, of course, takes place in literary reading lessons, in extracurricular activities through creative contests, literary games, classes with elements of theatricalization, which stimulates the creative activity of children.

Keywords: gaming technologies, extracurricular reading, reading competence, creativity, secondary school, literary games, research activities.

O'RTA MAKTABDA DARSDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA ADABIY O'YINLAR

Buranova Nilufar Shavkatovna

Andijon davlat tibbiyot institute

Annotatsiya: maqolada o'rta maktab o'quvchilarining o'quvchilarning malakasini oshirish omili sifatida o'yin texnologiyalari ko'rib chiqiladi. O'quvchilarning o'quvchilar malakasini shakllantirish adabiy o'qish darslarida, darsdan tashqari darslarda ijodiy tanlovlar, adabiy o'yinlar, teatralizatsiya elementlari bilan mashg'ulotlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi, bu bolalarning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar: o'yin texnologiyasi, o'quvdan tashqari o'qish, o'qish qobiliyati, ijodkorlik, o'rta maktab, adabiy o'yinlar, tadqiqot faoliyati.

Современный курс литературы в средней школе подразумевает то, что уроки литературы должны помочь детям в развитии творческих способностей, эстетических и нравственных ориентиров, гуманистических принципов. А «одной из главных целей литературного образования должно явиться формирование квалифицированного

читателя, у которого к окончанию обучения должна быть сформулирована достаточно устойчивая шкала ценностей и определен круг читательских интересов» [4, 25].

Ученик в школе в процессе изучения литературы сталкивается с проблемами: недостаток времени для чтения в связи с большой загруженностью; необходимость анализа или интерпретации художественного текста и недостаток доступных для восприятия среднего ученика методик; жажда творческого самораскрытия и самореализации и трудности насыщения этой жажды в связи с причинами, перечисленными выше.

Литературные игры на уроках внеклассного чтения помогают строить процесс учения с увлечением, вырабатывать потребность юного человека читать умные, серьезные книги, вводить его в удивительный мир художественной литературы, формировать эстетический вкус читателей-подростков и развивать их творческую активность, обогащать словарный запас и совершенствовать грамматический строй речи.

Формирование читательской компетенции учащихся, безусловно, проходит на уроках литературного чтения, на внеклассных занятиях через проведение творческих конкурсов, литературных игр, занятий с элементами театрализации, что стимулирует творческую активность ребят [3, 11].

Литературные игры имеют большое значение для расширения общего кругозора учащихся, обогащения их знаниями в области биографии писателей, их произведений, теории литературы. Они важны для воспитания самостоятельности, сотрудничества, коллективизма, общительности, коммуникативности, воли, формирования нравственных, эстетических и мировоззренческих принципов. Литературные игры способствуют развитию внимания, памяти, речи, воображения, фантазии, творческих способностей, мышления-рефлексии, умения сравнивать, сопоставлять (на примере литературных произведений), находить аналогии, оптимальные решения. Они также позволяют приобщать учащихся к нормам и непреходящим ценностям жизни человека и общества.

Итак, литературные игры расширяют кругозор учащихся; активизируют познавательную деятельность школьников, поддерживают интерес к изучению литературы; делают учебный труд более разнообразным; помогают учителю систематизировать знания учащихся, выявить пробелы в них.

В подростковом возрасте наблюдается обострение потребности в создании своего собственного мира, в стремлении к взрослости, бурное развитие воображения, фантазии, появление стихийных групповых игр.

Особенностями игры в старшем школьном возрасте является нацеленность на самоутверждение перед обществом, юмористическая окраска, стремление к розыгрышу, ориентация на речевую деятельность. Это, в свою очередь, развивает навыки научно-исследовательской деятельности. Научно-исследовательская деятельность – это вид деятельности, направленный на получение новых объективных научных знаний [2, 123].

Исследовательская деятельность учащихся среднего звена школы как метод может и должна присутствовать на уроке литературы [3, 79-81].

Учебная деятельность далека от реальной жизни и профессиональной деятельности. Это обуславливает формализм знаний, трудность их применения. Необходимость преодоления этих трудностей привела к попыткам усиления связи техники, производства, образования, науки, широкому использованию коллективных форм организации учебной деятельности, к которым принадлежит и деловая игра. Такой

тип обучения реализует в себе следующие методологические принципы: принцип единства содержания и формы, принцип связи теории и практики, принцип моделирования, принцип системности.

При проведении литературных игр учитель выступает одновременно как организатор двух взаимосвязанных, но существенно различающихся видов деятельности учащихся – игровой и учебно-познавательной. Он должен стремиться не только достичь дидактической цели, но и сохранить и развить увлеченность, заинтересованность, самостоятельность учащихся.

Например, при проведении литературных игр соревновательного характера (КВН, аукцион), учитель должен обращать внимание на правильность и точность ответов учащихся, адекватность принимаемых ими решений. В то же время, не ограничиваясь узкоучебными результатами игры, учитель поощряет быструю реакцию, находчивость, сообразительность, ловкость, соблюдение правил, взаимопомощь. Помимо этих общих указаний по проведению литературных игр, имеются также частные рекомендации к организации отдельных игр.

Так, руководитель инсценирования должен знать сильные и слабые стороны этой игры. С одной стороны, она производит литературное произведение, но с другой стороны, как бы ни была интересна, эффективна игра, она предполагает творческий подход. Инсценировка требует четкого обоснования целей и места в учебном процессе [5, 67]. Прежде всего, это ценностный опыт формирования навыков общения и взаимодействия, опыт человеческих отношений, формирование познавательных мотивов.

Как один из видов деловой игры, операционная игра – инсценировка отличается от других литературных игр. Проиграв ситуацию, ученик чувствует свои силы и возможности, и необходимо обратить внимание на эффект последствия.

Инсценирование обостряет внимание к художественному тексту. Инсценирование большого эпического произведения в школе невыполнимо, так как требует огромного творческого труда. А вот инсценирование лишь эпизода из большого произведения или рассказа, когда в центре его одно событие – задача, посильная для учащихся средних классов (Чехов «Лошадиная фамилия», «Радость»).

Основная задача метода инсценировки – научить подростка, ученика среднего звена школы, ориентироваться в различных обстоятельствах, давать объективную оценку своему поведению, учитывать возможности других людей, устанавливать с ними контакты, влиять на их интересы, потребности и деятельность, не прибегая к формальным атрибутам власти, к приказу.

Работа с ребусами на уроках литературы целесообразна в 6-7 классах. В ребусы можно включать такое слово, отгадав которое дети назовут тему произведения, главного героя или его атрибут. Установку на это не обязательно давать заранее, можно спросить после отгадывания, как данное слово соотносится с произведением.

При работе с кроссвордом учителю нужно иметь в виду, что вопросы в школьном кроссворде могут быть заданы одним из следующих способов:

- в виде вопросительного предложения, например: «Кто был для Алеши «самым понятным и дорогим» человеком?» («Детство» Горького);
- в виде назывного предложения, например: «Город на Волге, куда приехали Пешковы» («Детство» Горького);

- В виде пропущенного слова в цитате, на месте которого стоит многоточие, например: «Вы, отроки - ..., возьмите коня» («Песнь о вещем Олеге» Пушкина).

Квест-технология – это интерактивная образовательная деятельность, включающая в себя три основных элемента, которые отличают её от простейшего поиска информации в Интернете: 1. наличие проблемы, которую необходимо решить; 2. поиск информации по конкретной проблеме в компьютерной сети осуществляется группой учащихся. Каждый член группы имеет определённую роль и вносит свой вклад в решение существующей проблемы; 3. решение проблемы достигается путем слаженной работы в группе [4, 204].

В учебном процессе применяются различные модификации деловых игр: имитационные, операционные, ролевые игры, деловой театр, психо- и социодрама.

Имитационные игры. На занятиях имитируется деятельность какой-либо организации, предприятия или его подразделения. Имитироваться могут события, конкретная деятельность людей (деловое совещание, обсуждение плана, проведение беседы и т.д.) и обстановка, условия, в которых происходит событие или осуществляется деятельность (зал заседаний, кабинет начальника и т.д.). Сценарий имитационной игры, кроме сюжета события, содержит описание структуры и назначения имитируемых процессов и объектов.

Операционные игры. Они помогают отрабатывать выполнение конкретных специфических операций, например, методики написания сочинения, решения задач, ведения пропаганды и агитации. В операционных играх моделируется соответствующий рабочий процесс. Игры этого типа проводятся в условиях, имитирующих реальные.

Исполнение ролей. В этих играх отрабатываются тактика поведения, действий, выполнение функций и обязанностей конкретного лица. Для проведения игр с исполнением роли разрабатывается модель-пьеса ситуации, между учащимися распределяются роли с «обязательным содержанием».

«Деловой театр». В нём разыгрывается какая-либо ситуация, поведение человека в этой обстановке. Здесь школьник должен мобилизовать весь свой опыт, знания, навыки, суметь вжиться в образ определенного лица, понять его действия, оценить обстановку и найти правильную линию поведения.

Психодрама и социодрама. Они весьма близки к «исполнению ролей» и «деловому театру». Это тоже «театр», но уже социально-психологический, в котором отрабатывается умение чувствовать ситуацию в коллективе, оценивать и изменять состояние другого человека, умение войти с ним в продуктивный контакт.

Таким образом, в литературных играх актуализируются функции личности. Если традиционно образовательный процесс связан с передачей – получением информации, обработкой некоторой системы репродуктивных умений, то в игре участник чётко ставит себе цель, отбирает целенаправленно материал, при этом он ответственен не только за свое поведение, но на нем лежит груз ответственности за успех всей группы. В игре происходит самореализация, рефлексирование, ученик принимает решение, за которое он в ответе, что значительно активизирует его учебный процесс.

Литература:

1. Буранова Н.Ш. «Новая педагогическая технология «тонкие и толстые вопросы» на уроках внеклассного чтения». Статья в журнале “Universum: психология и образование”. Выпуск 8 (86), 2021 <http://7universum.com/ru/psy/archive/category/886>



2. Буранова Н.Ш. «Методика организации научно-исследовательской деятельности учащихся средней школы». Статья в журнале «Актуальные научные исследования в современном мире», Украина, выпуск 4 (72), ч.7, 2021, стр.122-126, ISCIENCE.IN.UA
3. Буранова Н.Ш. Исследовательская активность учащихся на уроках литературы – М.: Internauka, 2020, No. 41 - 96 p. <https://www.internauka.org/journal/science/internauka/170>
4. Гончарова Е.Л. Ранние этапы читательского развития. К теории вопроса. – М.: Школа-Пресс, 2007. – 145 с.
5. Жесткова Е.А. Технология веб-квеста на уроках литературного чтения в начальной школе/ Е.А. Жесткова, В.В. Казакова // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2015. № 9 (часть 4). С.723-725.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ЭРГОНОМИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ

Абдуллаев Сафибулло Хабибуллаевич

Наманган вилояти Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази “Педагогика, психология ва таълим технологиялари” кафедраси мудири, педагогика фанлари номзоди, доцент. Тел.: + 99890 598 20 70.

safibulloa@gmail.com

***Аннотация:** Мактабларда янги эргономик таълим муҳитини ташкил этишнинг ва ҳозирги замон мактаб ўқитувчисининг эргономик маданиятини ривожлантиришида эргономик билим, кўникма ва малакаларнинг долзаблиги асосланган. Эргономик тизимда педагог ва ўқувчиларнинг меҳнатни тежаш, мактабда қулай ва самарали, хавфсиз таълим муҳитини яратишида ўқитувчининг иштирок этиши муаммолари кўриб чиқилган.*

***Калит сўзлар:** таълим эргономикаси, ўқитувчи эргономик маданияти, эргономик таълим муҳити.*

ПОДГОТОВКА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ К ЭРГОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Абдуллаев Сафибулло Хабибуллаевич

Наманганский областной центр переподготовки и повышения квалификации народного образования, заведующий кафедрой «Педагогика, психология и образовательные технологии», кандидат педагогических наук, доцент.

Тел .: + 99890 598 20 70. safibulloa@gmail.com

***Аннотация:** Организация новой эргономичной учебной среды в школах и развитие эргономической культуры современного школьного учителя основаны на актуальности эргономических знаний, навыков и компетенций. Эргономическая система решает вопросы участия учителей и учеников в экономике рабочей силы, создавая комфортную, эффективную, безопасную учебную среду в школе.*

***Ключевые слова:** эргономика обучения, эргономическая культура учителя, эргономическая среда обучения.*



TRAINING TEACHERS FOR ERGONOMIC ACTIVITIES

Abdullaev Safibullo Khabibullaevich

Namangan regional center for retraining and advanced training of public education, head of the department "Pedagogy, psychology and educational technologies", candidate of pedagogical sciences, associate professor.

Tel.: +99890 598 20 70. safibullo@gmail.com

Annotation: *The organization of a new ergonomic learning environment in schools and the development of the ergonomic culture of the modern school teacher are based on the urgency of ergonomic knowledge, skills and competencies. The ergonomic system addresses the issues of teacher and student participation in saving labor, creating a comfortable and effective, safe learning environment at school.*

Keywords: *educational ergonomics, teacher ergonomic culture, ergonomic learning environment.*

Кириш қисм. Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий ривожланишлар билан бир қаторда, таълимни модернизация қилиш йўналишида кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда. Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсати инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш билан узвий боғлиқ бўлган узлуксиз таълим тизими орқали ҳар томонлама баркамол шахсни шакллантиришни назарда тутган ҳолда малака ошириш таълим муассасаларида тингловчиларнинг ўқув модуллари ва блоклари бўйича мунтазам билим олишларини, уларда билим ўзлаштириш эҳтиёжини, асосий ўқув-илмий ва умуммаданий билимларни, миллий ва умумбашарий қадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий фазилатларни, касбий ривожланишларини, ижодий фикрлаш ва атроф-муҳитга онгли муносабатда бўлишни белгилаб берди.

Таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари, давлат таълим стандартлари, давлат таълим талаблари ва ўқув дастурлари асосида таълим-тарбия бериш, аниқ мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида ёш авлодни ҳар томонлама камол топтиришдир. Тарбияланувчиларнинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини ривожлантиришга йўналтирилган тизимли жараёнда муайян лойиҳа асосида ташкил этиладиган, аниқ мақсадга эришишга йўналтирилган, таълим натижасини кафолатлайдиган педагогик жараён ташкил этиш мактаб ўқитувчиларидан педагогик эргономика бўйича билим, кўникма ва малакаларга асосланган эргономик маданиятни талаб этади.

Асосий қисм. Дарс машғулотларининг интернет ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланилган ҳолда масофадан туриб амалга ошириш, муайян лойиҳа асосида ташкил этиш, аниқ мақсадга эришишга йўналтирилган, таълим натижасини кафолатлайдиган педагогик жараёнларда энг самарали методлардан фойдаланиш, таълим ва тарбия технологияларини танлаш ҳамда дарс жараёнларини ташкил этиш самарадорлигини таъминлашга эргономик маданият хизмат қилади. Таълим мазмунини белгилаш тамойиллари ҳамда мезонларига риоя этган ҳолда ўқув материалларини танлаш ва тизимлаштириш, таълим муассасаси ўқув моддий базаси ва таълим воситаларига қўйиладиган эргономик талабларни ҳисобга олиш ўқув материалларини самарали моделлаштириш имкониятини беради[1,б,54]. Натижада, яхлит педагогик жараённинг умумий қонун, қонуният ва тамойилларига амал қилган ҳолда таълим-тарбия жараёнида гносеологик, ташкилий, психологик, дидактик, социологик ва кибернетик қонуниятларининг уйғунлигига эришилади.



Таълим-тарбия жараёни таркибий қисмларининг узро алоқадорлиги ва умумийлигини ҳисобга олиб таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг асосий ва ёрдамчи шаклларида унумли фойдаланиш ўқувчиларни бўш вақтини самарали ташкил этиш ва ўтказиш ўқувчиларнинг креатив салоҳиятини ҳамда эргономик маданиятларини ривожлантиришни тақозо этади. Таълим муассасида фаолият юритувчи ўқитувчиларнинг касбий малакаси, тегишли функционал вазифалари бўйича иш тажрибалари, касб соҳасига мувофиқлиги, эгаллаб турган лавозими бўйича функционал вазифаларни билиши, ташаббускорлиги, ишга ижодий ёндашуви замонавий талаблар даражасида бўлиши, ҳамда унинг холислик, ошқоралиқ, шахсий ва касбий компетентлик, амалий тажриба, бошқарув маҳоратлари, масъулиятлилик, ташаббускорлик каби сифатлари уларнинг эргономик маданиятлари даражасига боғлиқ бўлади.

Таълим муассасалари ўқитувчилари таълим ва тарбия самарадорлигини ошириш борасида педагогик эргономика талабларига асосан оқилона фаолият юритишлари, таълим муассасининг ҳақиқий эгаси бўлиш, хавфсиз ва қулай ўқув жараёнини ташкил этишнинг барча жабхаларини мукамал эгаллаш, ўз лавозим вазифаларига нисбатан ўта масъулиятли бўлиш, таълим жараёни хавфсизлиги ва қулайлигини таъминлай олиш сифатларининг уларда мавжудлиги муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, таълим муассасаси ўқитувчиларидан эргономик компетентлик негизида ривожланувчи эргономик маданияти, ташаббускорлиги, шахсий сифатлари, тизимли таҳлил ва қарор қабул қилиш малакаси, лавозим вазифаларни, энг аввало, давлат сиёсати талабларидан келиб чиққан ҳолда бажаришнинг мақбул, самарали йулларини амалга ошириш талаб этилади.

Бугунги кун таълим тизимини модернизация қилиниши, уни таркибий жиҳатдан қайта қуриш, таълим, фан, техника ва технологиянинг, иқтисодиёт ва маданиятнинг жаҳон миқёсидаги замонавий ютуқларини ҳисобга олган ҳолда таълим дастурларини ўзгартириб, янгилаб боришни кўзда тутди.

Илғор технологияларни кенг ўзлаштирилиши, иқтисодиётдаги ижобий ўзгаришлар, чет эл инвестициялари кўламининг кенгайиши, тадбиркорлик, кичик ва хусусий бизнесни ривожланиши, шунингдек, узлуксиз таълимни фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашуви, таълим олувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимга интегратив ёндашувни жорий этилиши таълим беришнинг илғор педагогик технологияларини, замонавий ўқув-услугий мажмуаларни яратилишини, педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш тизимини педагогик эргономика талабларига мувофиқ равишда такомиллаштиришга асос бўлади.

Бу ўз навбатида, малака ошириш ва қайта тайёрлаш муассасалари ўқитувчилари зиммасига умумий ўрта таълим муассасалари ўқитувчиларининг эргономик маданиятини такомиллаштириш борасида таълим, фан, техника ва технологияларнинг жаҳон миқёсидаги ютуқларини, илмий асосланган инновацияларни татбиқ этган ҳолда педагогик жараёнларни педагогик эргономика талаблари асосида ташкил этиш ва бошқариш, шунингдек, педагогик жараёнларнинг самарадорлигини таъминлаш йўналишидаги мавжуд муаммоларни ижобий ҳал этиш масалалари юзасидан янги вазифаларни юклайди.

Малака ошириш ва қайта тайёрлаш муассасаларида ўқитувчиларни эргономик фаолиятга тайёрлаш йўналишида таълим мазмунига, тингловчиларнинг тайёргарлик даражаси ва ўзлаштирилиши зарур бўлган билимлар даражасига ҳамда олий таълим

муассасалари битирувчиларига қўйиладиган умумий малакавий талаблар эргономик фаолиятга тайёрлаш жараёни мазмуни яратиш, таълим мазмуни ва таълим бериш усуллари янада такомиллаштириш, илғор педагогик технология, инновацион таълимнинг энг самарали технологияларини қўллашни тақозо этмоқда.

Малака ошириш ва қайта тайёрлаш муассасаларида таҳсил олаётган ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражасига, фанлар бўйича ўқитувчи-тингловчиларда шаклланиши зарур бўлган малака ва кўникмаларга, ўзлаштириши зарур бўлган билимлар мазмунига ва таълим дастурларининг мазмуни ҳамда компонентларига қўйиладиган талабларда ўқитувчиларда педагогик эргономика йўналишида зарурий билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш зарурияти долзарб бўлиб қолмоқда.

"Эргономика" атамаси биринчи марта полшалик табиатшунос В.Ястшембовский томонидан 1857 йилда ишлатилган бўлиб, у табиат тўғрисидаги қонуниятларга асосланиб, меҳнат ҳақидаги фанни назарда тутган[4,б,343]. Эргономика таълимининг келиб чиқишига Б.Г.Ананиев [2,б,288], В.П.Зинченко[4,б,343], А.Н. Леонтиев[5,б,304], Б.Ф.Ломовлар асос солганлар[7,б,465]. Умуман олганда эргономика "инсонни замонавий ишлаб чиқаришдаги фаолиятининг ўзига хос шароитларида ҳар томонлама ўрганадиган илмий фан соҳасидир"[3,б,230].

1986 йилдан бошлаб "Ergonomics Abstracts" журналида таълимнинг эргономик муаммоларига бағишланган янги фан соҳаси пайдо бўлди-Education(Таълим) деб рус тадқиқотчиси А.А.Кулигина ўзининг "Таълим дунёсида эргодизайн" номли асарида дастлаб ёритиб берди[8,б,356].

Лекин, таълим муаммоларини ҳал этишга бўлган қизиқиш эргономистларда аввалроқ пайдо бўлган эди. 1980 йили инсон омиллари жамиятида эргономиканинг истиқболли йўналишларини аниқлаш учун махсус гуруҳ тузилади. Гуруҳ томонидан тавсия этилган 8 та йўналишнинг биттаси таълим ва машғулотлар тизимини яратиш бўлади. Шунини таъкидлаш лозимки ўтган давр ичида эргономиканинг бу йўналиши фақат операторлар касби билан боғлиқ,(инсоннинг техника билан боғлиқ) меҳнат фаолиятини ўрганишга қаратилган ҳолда ривожланди.

Бир қатор муаллифлар эргономиканинг тамойиллари ва тавсияларини ишлаб чиқариш жараёнидан педагогик жараёнга ўтказиш мумкин деб ҳисоблашади. Жумладан, Зинченко В.П. "педагогик эргономика яратишга эҳтиёж бор" деб жуда тўғри таъкидлайди[4,б,343]. "Эргономика" одам-машина "тизимини текширса ҳам, унинг кўплаб хулосалари ва тавсиялари мактабдаги ўқув жараёнини яхшилаш учун ишлатилиши мумкин", дейди А.А.Ченцов [10,б,273]. "Бир қатор меҳнат фаолияти тўғрисидаги фанлар ва техник фанларнинг ютуқларини синтез қилиш орқали эргономика тегишли фанлараро алоқаларни ўрнатишга ва ўқув жараёнининг ўзини яхши ташкил этишга ҳисса қўшиши мумкин"[4,б,343]. "Мураккаб замонавий технологиялар билан ишлаш муаммоларини ҳар томонлама ҳал қилиш усуллари билан бири бу эргономик ёндашувдан фойдаланишдир"[6,б,141]. "Асосан антропотехник тизимлар дизайни билан шуғулланадиган анъанавий ёндашувдан фарқли ўлароқ, касб-хунар таълими эргономикаси янги ўқитиш услубларини, тизимли ва комплекс ёндашувга асосланган техник ўқув воситаларини асослаш билан боғлиқ бўлиши керак"[6,б,141]. "Эргономик талабларни ҳисобга олган ҳолда, ушбу фаннинг тавсияларидан фойдаланган ҳолда мактаб жиҳозлари, кўргазмали қурооларни лойиҳалашда, синфда керакли қулайликни яратиш, шубҳасиз ўқувчилар томонидан билим, қобилият ва кўникмаларни

эгаллаш жараёнига ижобий таъсир кўрсатади, ўқув тизимини умуман яхшилайдиган"[10,б,273].

Таълим эргономикаси эса когнитив эргономика(билиш эргономикаси) ғояларига таянади ва уларни таълим соҳасида қўллашга ҳаракат қилади. Когнитив эргономика – бу ақлий меҳнатни қандай яхшилаш ва энгилаштириш ҳақидаги фан. Таълим эргономикаси – бу ўқув фаолиятини қандай яхшилаш ва энгилаштириш ҳақидаги фан[9,б,200].

Ташкилий эргономика таълим жараёнини ташкил этишда таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини ошириш, ўқув-тарбиявий жараённинг ташкилий тузилмалари ва бошқариш жараёнларини ўз ичига олган ҳолда оптималлаштириш билан боғлиқ масалаларни ҳал этиш ва индивидлараро алоқалар тизими, инсон ресурсларини бошқариш, лойиҳалар ишлаб чиқиш, кооперация, жамоа иши оқилона ташкил этиш ва бошқариш масалаларини ўрганади.

Олий таълимдаги ўқув-тарбиявий жараён ўз ичига қуйидаги жараёнларни олади. Тарбия, таълим, малакали кадрлар шахсини шакиллантириш ва ривожлантириш, ва шу қабилар. Буларнинг ҳаммаси юқори малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлашга қаратилган бўлиб талаба ва профессор-ўқитувчилар фаолияти, талабалар ва профессор-ўқитувчилар орасидаги ижтимоий муҳит ва унинг соғломлиги, ўқув юртининг моддий-техник таъминоти, ўрнатилган ҳамкорлик алоқалари ва бир қатор бошқа омиллар туфайли эришилади.

Шунингдек замонавий таълим жараёнини ташкил этишда қуйидаги омилларни эътиборга олиш зарур бўлади:

-билим олиш усуллариининг ўзгариб бораётганлиги;

-замонавий таълим технологияларининг жорий этилиши, ўқитиш усуллари ва мазмунинг ўзгариш имкониятларининг очилаётганлиги;

-ўқув жараёнида ўқитувчи ролининг ўзгариб бориши;

-масофавий таълим ва таълим олишга кенг имкониятларнинг очилиши.

Ҳозирги даврда юқори сифатли билим бериш ва таълим жараёнини ташкил этиш талаб этилади. Бу жараёнда қуйидаги иштирок этувчи субъектларни алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин: ҳар қандай ишлаб чиқариш жараёнининг ишлаб чиқарувчилари ва истемолчилари бўлганидек, биринчиси билим олиш жараёни учун манбаларни тайёрловчилар(профессор-ўқитувчилар, олимлар), иккинчиси тайёрланган манбаларни истемол қилувчилар(талабалар, малака оширувчилар, тадқиқотчилар), ҳамда таълим жараёни ташкил этувчи ва бошқарувчи субъектлардир(рахбар ходимлар).

Билим олиш манбалари кўпайиб бориши билан билим олишнинг янги концепцияси пайдо бўлди: бутун ҳаёт давомида таълим олиш, узлуксиз таълим олиш ва бошқалар. Шу муносабат билан замонавий талабларидан бири таълим олиш жараёни сифат ва самарадорлигини тубдан ошириш, таълим жараёнининг эргономик жиҳатларини ўрганиш, таълим жараёни субъектлари ва олий таълим муассасалари фаолияти сифат ва самарадорлигини ошириш масалаларига тизимли интегратив ёндашиш керак бўлади. Натижада, педагогика олий таълим муассасаларида ўрганиладиган “Педагогика” туркумидаги фанлар эргономика(хавфсиз ва қулай таълим муҳитини ташкил этиш), экономика(таълимни ривожлантиришни лойиҳалаш жараёнида иқтисодий эҳтиёжлар ва ресурсларни аниқлаш), психология(ўқувчиларнинг руҳий ҳолатларини ҳисобга олиш), социология(таълимда ижтимоий эҳтиёжларни



аниқлаш), медицина(ўқувчилар саломатлиги ҳолатини ўрганиш, жисмоний ривожланиши ва соғлиғида нуқсонли бўлган ўқувчиларга махсус шароитлар яратиш), физиология(ўқувчиларнинг физиологик ва ёш хусусиятларини ҳисобга олиш), философия(умумий ёндашув ва фалсафий концепциялардан фойдаланиш), математика(педагогик диагностика ва педагогик тадқиқотларда математик ҳисоблаш усуллари қўллаш), тарих(таълимнинг тарихий тажрибаларини ўрганиш ва қўллаш), антропология(тарбия предмети сифатида инсонга комплекс ёндашув) фанлари билан узвий боғлиқ ҳолда ўрганилиши мақсадга мувофиқлиги яққол номоён бўлмоқда.

Айрим педагогик фанлар дастурида мазкур фанлар қисман бўлсада инобатга олинган ҳамда фанларнинг мақсади ва вазифаларини ёритишда уларнинг ўзаро алоқалари келтирилган.

Бизнинг фикримизча, мазкур фанларни ўқитишда кўзда тутилган фанлараро алоқалар таъминланишида олий таълим педагогика таълим соҳаси талабалари учун “Педагогика назарияси ва тарихи” фанидан ишлаб чиқилган дастурда таълим эргономикаси бўйича талабаларга тушунчалар бериш учун алоҳида бўлим келтирилмаганлиги ва мазкур бўлимда бакалаврларга таълим тизими муаммоларини бартараф этишнинг психологик-педагогик асосларини ўргатиш белгиланмаганлигини, шунингдек, “Педагогик эргономика” фанидан машғулотлар ташкил этилиши назарда тутилмаганлигини инобатга олишимиз мумкин.

“Педагогик эргономика” ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятини ўқитишнинг техник воситалари, дидактик воситалари, педагогик технологиялари ҳамда мактабдаги таълим ва тарбия муҳити билан боғлиқ ҳолда ҳар томонлама ўрганадиган илмий фан соҳасидир[9,б,200].

Педагогик эргономика – хавфсиз ва қулай таълим муҳитини ташкил этиш мақсадида ўқитиш ва ўзлаштириш жараёнини инсон ва техника имкониятлари ҳамда уларнинг ўзаро таъсирини ҳисобга олган ҳолда яратиш, татбиқ этиш, аниқлаш, ўқитувчи ва ўқувчи меҳнатини енгиллаштириш, руҳий зуриқиш ҳолатларини камайтириш, таълим тизими муаммоларини бартараф этишдир[1,б,54].

Фикримизча, педагогик эргономика фанини ўқитилишида режалаштириладиган: таълим ва тарбиявий муҳит эргономикаси, таълим ва тарбия жараёнига оид меҳнатга алоқадор бўлган инсоннинг биомеханик, физиологик, антропометрик, анатомик тавсифлари билан боғлиқ масалалар муҳим аҳамият касб этади. Таълим жараёни долзарб муаммоларни ҳал этиш йўллари излаш ишлари олиб бориш: иш ўрни, материалларга ишлов бериш, инсон таянч-ҳаракат аъзоларининг ўзгариши, иш ўрни компоновкаси, ишончлилиқ ва саломатлик; ташкилий эргономика ижтимоий техник тизимлар ва уларнинг ташкилий тузилмалари ва бошқариш жараёнлари ўз ичига олган ҳолда оптималлаштириш билан боғлиқ масалаларни ҳал этиш ва бошқаларни назарда тутилади. Шунингдек индивидлараро алоқалар тизими, инсон ресурсларини бошқариш, лойиҳалар ишлаб чиқиш, кооперация, жамоа иши оқилона ташкил этиш ва бошқариш масалаларини ўрганилади; когнитив эргономика руҳий жараёнларро алоқаларни(идрок, хогира, қарор қабул қилиш ва бошқалар)топиш, тизимнинг бошқа элементлари билан инсоннинг алоқадорлик масалаларини ўрганилади. Ақлий меҳнат, қарор қабул қилиш, малакали бажариш, инсон ва компьютер ҳамкорлиги каби муаммоларни кўриб чиқилади, бу жараёнда, ижтимоий техник тизимларни лойиҳалашда инсонга узлуксиз таълим бериш ва уни касбий тайёрлаш масаласига эътибор қаратилади ва тушунчалар берилади.

Педагогик эргономика талабаларни таълим тизими муаммоларини оқилона бартараф этиш фаолиятга тайёрлашда ўзига хос аҳамият касб этади.

Шунингдек, педагогика назарияси ва тарихи фанининг ўқув дастурида келтирилган тарбия мақсади, тарбия вазифалари ва мазмуни, шахснинг интеллектуал, фуқаролик, маънавий-ахлоқий, жисмоний, меҳнат, иқтисодий, экологик, эстетик тарбияси ҳақида тушунчалар беришда эргономик тарбия ва унинг ўзига хос хусусиятлари бўйича тушунчалар бериш; таълим натижаларини текшириш ва баҳолашга қўйиладиган талаблар, таълим натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш самарадорлигининг психологик-педагогик шарт-шароитлари йўналишларида тушунчалар беришда, эргономик режалаштириш, ташкилий-ижрочилик, назорат-ташхис функцияларининг ўзига хос хусусиятлари, назоратнинг ўзига хослиги ҳақида тушунчалар берилиши; ўқитувчи ва унинг шахсига қўйиладиган талаблар, ўқитувчининг касбий ва эргономик сифатлари, ўқитувчининг эргономик маданияти тушунчаларини ўқитувчи шахси ва унинг касбий, маънавий ва шахсий сифатлари ҳамда фазилатлари билан боғлаб ўқитилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Юқорида келтирганимиздек, педагогика назарияси ва тарихи ҳамда педагогик эргономика фанларини ўқитиш жараёнида фанлараро алоқаларни таъминлаш, яъни мавзуларни таълим тизими муаммоларини оқилона бартараф этиш йўналишидаги тушунчалар билан боғлаб ўргатилиши талабаларни мазкур фаолиятга тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади.

Бу ўз навбатида, талабаларнинг эргономик маданиятини ривожлантириш мақсадида, педагогика назарияси ва тарихи ҳамда педагогик эргономика фанларини ўқитишда таълим тизими муаммоларини оқилона бартараф этиш йўналишида тушунчалар бериш, мавзуларнинг ўзаро алоқадорлиги ва боғлиқлигини таъминлаш, яъни мазкур фанлар бўйича таълим жараёнини интегратив ва андрогогик ёндашув асосида ташкил этиш заруриятини белгилайди.


Юқорида келтирилган фикрларга асосланиб айтиш мумкинки, талабалар эргономик маданиятини ривожлантириш йўналишлари, интегратив ва андрогогик ёндашув фанлар бўйича ишчи дастурлар тузишда, мавзуларнинг мазмун-моҳиятига кўра соатлар тақсимлашда, шунингдек, таълим жараёнини лойиҳалаштириш ва ташкил этишда мавзуларнинг ўзаро алоқадорлиги ва боғлиқлигини таъминланиши, фанларнинг мақсад ва вазифаларини ўзаро мувофиқлаштирилишини назарда тутати ва ўз навбатида ўқув режасида фанлар бўйича ажратилган соатлардан унумли фойдаланишга, мавзуларнинг аҳамиятини кенгроқ ёритиб беришга, талабаларнинг дунёқараши ва фанлар бўйича тушунчаларини кенгайтиришга, уларнинг ўзи танлаган касбга бўлган қизиқишларини ривожлантиришга, уларни амалий фаолиятга тайёрлашда таълим жараёни сифати ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Демак, таълим тизими муаммоларини оқилона бартараф этиш эргономик фаолиятга олий педагогик таълим муассасалари талабаларни маҳсус тайёрлаш жараёни ташкил этилмаганлигини инобатга олган ҳолда биз

малака ошириш ва қайта тайёрлаш муассасаларида ўқитувчиларни эргономик фаолиятга тайёрлаш жараёнини ташкиллаштириш ва уларнинг тайёргарлик даражасига, педагогик эргономика бўйича шаклланиши зарур

бўлган малака ва кўникмаларга, ўзлаштириши зарур бўлган билимлар мазмунига ва таълим дастурларининг мазмунига белгиланган талабаларнинг йўналишини ифодаловчи

ва таълим-тарбия жараёнида кўзланган натижаларга эришишни, ўқитувчиларда эргономик маданиятни ривожланишини таъминловчи ўзаро боғлиқ бўлган ва бир-бирини ўзаро тўлдирувчи компонентлардан иборат бўлган технология ва тизимни тавсия этамиз(1-расм).



1-расм. Ўқитувчилар эргономик маданиятини ривожлантириш тизими ва технологияси.

Технология ва тизимни ташкил этувчи компонентларнинг ўзаро алоқадорлиги ва боғлиқлиги каби қатор хусусиятлар инобатга олинади, сабаби мазкур хусусиятлар эргономик маданиятни шаклланиши ва ривожланишида ўзига хос аҳамият касб этади.

Муҳокамалар ва натижалар. Ўқитувчи-тингловчиларнинг эргономик маданиятини шаклланиши ва ривожланишига таъсир қилувчи объектив ва субъектив таъсир этувчи омиллар таъсирининг хусусиятларини ҳисобга олиб, биз тингловчиларнинг эргономик маданиятининг шаклланиш даражасини (юқори, ўрта, паст) баҳолаш мезонлари ва кўрсаткичларини аниқладик:

а) когнитив хусусият тингловчиларнинг эргономик маданият, унинг шаклланиш йўллари ҳақидаги билимларини тавсифлайди;

б) мотивацион тингловчиларнинг эргономик маданиятини шакллантириш муаммоларига муносабатни белгилайди;

б) интегратив фаолият замонавий мактабда қулай, самарали ва хавфсиз ўқув муҳитини яратиш бўйича эргономик қобилиятларни, кўникмаларни эгаллашни кўрсатади.

Шундай қилиб, Наманган вилояти ҳалқ таълими ҳодимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказида бир гуруҳ тингловчиларга эргономика ва унинг таълим тизимидаги ўрни ҳақидаги тест саволларига жавоб бериш сўралди. Тест синовларида маънавий ва маърифий ишлар бўйича директор ўринбосарлари, ўқув тарбиявий ишлар бўйича директор ўринбосарлари, бошланғич синф ўқитувчилари, физика, математика, география, технологик таълим, жисмоний тарбия йўналишлари тингловчилари қатнашди. Натижада, тингловчилар атиги 14% улар эргономика тушунчаси билан таниш эканликларини ва эргономикадан фойдаланиш ғояси борлигини айтишди, шундан атиги 9% улар таълим тизимида эргономикадан фойдаланиш тўғрисида эшитганликларини айтишди. Эргономикадан ва унинг таълим тизимидаги ўрни ва мавқеидан хабардорликнинг бундай паст даражаси бизни меҳнат функцияларини ўқитувчининг касбий стандартига мувофиқ бажаришга етарли даражада тайёр эмасликларини тахмин қилишимизга имкон беради. Тингловчилар “қулай ва хавфсиз ўқиш маданиятини қандай ривожлантириш керак?” деган очиқ саволга жавоб берар эканлар, 59% тингловчилар “Жисмоний маданият ва спорт” фанини, 41% - “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанидан фойдаланишни билдиришди. Шундай қилиб, фақат 18 кишида қулай ва хавфсиз таълим маданиятини шакллантириш эргономик таркибий қисмда акс эттирилган бўлиши мумкин, чунки эргономиканинг асосларини ўрганиш “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” ва “Ёш физиологияси ва гигиенаси” фанларини ўрганиш бўлимларидан бири ҳисобланади ва кўпинча ўқитувчилар мустақил равишда ўрганадилар деган фикрларни билдирдилар. Умуман олганда, тингловчиларнинг аксарияти эргономик маданиятнинг паст даражасига эга. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, малака ошириш ва қайта тайёрлаш тизимида тингловчиларни ўқитиш ўқитувчи учун таълим тизимидаги эргономик компонентнинг зарур даражасини таъминламайди.

Хулоса. Малака ошириш ва қайта тайёрлаш муассасаларида ўқитувчи-тингловчиларнинг эргономик маданиятини мунтазам такомиллаштириб бориш бир қанча вазифаларнинг бажарилишини, яъни педагогик жараён субъектларига зарурий шарт-шароитларни яратиш, уларнинг фаолиятини ташкил этиш, мувофиқлаштириш, назорат қилиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш, шунингдек, мазкур жараёни амалга ошириш учун моддий-техника базани яратиш ва мустаҳкамлаб бориш, янги педагогик ва ахборот технологиялари билан қуроллантириш, юқори малакали мутахассислар билан таъминлаш каби қатор вазифаларни ҳам амалга оширишни назарда тутди. Шундай экан, малака ошириш ва қайта тайёрлаш муассасасида педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришга ва унинг самарадорлигини таъминлашга масъул раҳбар ва педагог ходимлар нафақат педагогик тажрибага, балки эргономика ва менежмент, педагогик эргономика каби қатор йўналишлар бўйича етарли тушунчаларга эга бўлиши зарур. Шу сабабли, малака ошириш ва қайта тайёрлаш муассасасида ўқитувчи-тингловчилар учун касбий стандартга мувофиқ меҳнат функцияларини бажарилишини таъминлайдиган эргономик билимларни ўргатишга махсус тайёргарлик зарур бўлади. Хулоса қилиб айтиш мумкинки эргономик маданиятни ривожлантириш жараёнида унинг эргономик билим, кўникма, фикрлаш, йўналиш каби таркибий қисмларини ўқитувчи - тингловчиларда шакллантириш даражасини назорат қилиб бориши керак бўлади. Агар ўқув жараёнида турли хил назорат турлари, эргономик билимлар ва кўникмалар тақдимоги ўтказилса, ўқитувчи-тингловчиларнинг ўқув фаолиятини, билимлардаги бўшлиқларни ўз вақтида аниқлаб ва бартараф этиб борилса, бизнинг фикримизча, ўқитувчиларда эргономик маданият такомиллашиб ривожланиб боради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллаев С.Х. Эргономика, малака ошириш тизимининг эргономик муаммолари. МГУ. Филиал МГУ имени М.В.Ломоносова в городе Ташкенте. Наука, просвещение и культура в системе непрерывного образования: проблемы и решения по реализации государственной программы. «Год внимания и заботы о старшем поколении» Материалы научно-практической конференции. Часть 1. Стр. 48-54. Ташкент. 2015 г.
2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания//Избранные психол.труды: В 2-х т. –Т.2. – М.:Педагогика, 1980. -288с.
3. Большая Советская Энциклопедия. 3-е изд. –М.: 1978. –Т.30. – 230с.
4. Зинченко В.П.,Мунипов В.М. Основы эргономики. –М.: МГУ. 1979г. 343с.
5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. –М.: Политиздат, 1975г. - 304с.
6. Лернер И.Я. Внимание – технологии обучения// Советская педагогика. -1990г. - №3. –с 139-141.
7. Ломов Б.Ф.Человек и техника. – М.: Советское радио, 1966. – 465с.
8. Мунипов В.М. Эргономика: человекоориентированное проектирование техники, программных средств и среды: Учебник / В.М.Мунипов, В.П.Зинченко. М.2001.356с.
9. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. – Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.
10. Ченцов А.А. Теоретические основы научной организации учебного процесса. – Белград. 1972. 273с.



ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТАЪЛИМ СИФАТИ ДИАГНОСТИКАСИНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Уринов Бахром Жамолiddинович
Наманган давлат университети

Аннотация: *Замонавий таълим муассасаларида барча соҳаларда бўлгани каби сифат масаласи биринчи ўринга кўтарилмоқда. Абитуриентларни олий таълимга жалб этиш мақсадидаги кураш муассасалар ўртасида таълим сифатига катта эътибор талаб қилмоқда. Бу ўз навбатида олий таълим муассасасидаги таълим сифатини диагностика қилиш ва бунинг натижасида аниқланаётган заиф нуқталарни кучайтириш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқишга йўналтирилади. Ушбу мақолада айнан таълим сифатини диагностика қилиш мақсади, вазифалари, йўналишлари ва унинг натижалари тўғрисида сўз юритилади.*

Калит сўзлар: *таълим, сифат, диагностика, таълим диагностикаси, диагностика йўналишлари, омил, стандарт, мезон.*

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДИАГНОСТИКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Уринов Бахром Джамолиддинович
Наманганский государственный университет

Аннотация: *В современных образовательных учреждениях, как и во всех сферах, на первый план выходит вопрос качества. Борьба за привлечение абитуриентов в высшие учебные заведения требует большого внимания к качеству образования среди вузов. Это, в свою очередь, будет направлено на диагностику качества образования в высшей школе и разработку мер по усилению выявленных слабых сторон. В данной статье рассматриваются цель, задачи, направления и результаты диагностики качества образования.*

Ключевые слова: *образование, качество, диагностика, образовательная диагностика, направления диагностически, фактор, стандарт, критерии.*

THE MAIN DIAGNOSTICS OF THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION

Urinov Bakhrom Jamoliddinovich
Namangan State University

Annotation: *In modern educational institutions, as in all spheres, the issue of quality comes to the fore. The struggle to attract applicants to higher education institutions requires a lot of attention to the quality of education among universities. This, in turn, will be aimed at diagnosing the quality of education in higher education and developing measures to strengthen the identified weaknesses. This article discusses the goal, objectives, directions and results of diagnostics of the quality of education.*

Key words: *education, quality, diagnostics, educational diagnostics, directions for diagnostics, factor, standard, criteria.*

Бизга маълумки одатда диагностика сўзини кўпинча тиббиёт соҳасида инсон саломатлигидаги муаммоларни аниқлаш жараёнларида қўлланилади. Замонвий ривожланиш тенденцияларининг юқоридаб бориши эса диагностика атамасини барча



соҳаларга ўзига хос йўналишларда қўллашни талаб эта бошлади. Жумладан, таълим соҳасида ҳам.

Олий таълим тизимида таълимнинг сифат босқичига қўтарилишида ҳам айнан диагностика термини амалиётда қўллаш катта аҳамият касб этмоқда. Бу борада дунёдаги етакчи олимлар ўтган асрнинг 70-йилларидан бошлаб ўз изланишларини олиб боришган. Ушбу изланишлар асосан таълим жараёнининг ижтимоий эҳтиёжларини ўрганишга қаратилган бўлиб, рус олимларидан Ф.Р.Филиппов, М.Н.Руткевич, В.Л.Ливовский ва Г.Ф.Куцевлар томонидан тадқиқотлар олиб борилган [1]. 90-йиллардаги тадқиқотлар эса таълимни модернизация қилишнинг кенг қўламли муаммоларини, тарбия, шахсни ривожлантириш билан боғлиқ томонлари, замонавий жамиятдаги хусусиятлари ва истиқболларига йўналтирилди.

XXI асрнинг дастлабки декадасидаёқ таълимни тадқиқ этишнинг асосий йўналиши бўлиб сифат майдонга чиқди. Олий таълим муассасалари томонидан талабаларга замонавий таълим беришнинг янги педагогик технологияларини ҳамда ахборот коммуникация воситаларини кенг қўллашлари натижасида ўзаро сифат учун кураш бошладилар. Бу борада халқаро институтлар ва ташкилотлар томонидан олий таълим муассасаларининг рейтингларини белгилаб бориш асосий дастак вазифани бажариб бермоқда.

Хўш, сифатни таъминлашни қандай диагностика қилиш мумкин?

Олий таълим муассасалари фаолияти самарадорлиги мезонларини бажариш, уларда янги авлод стандартларини жорий этиш ва таълим тизимини модернизация қилиш зарурати шароитида олий таълим муассасаларида таълим сифатини диагностика қилиш муаммоси тобора долзарб бўлиб бормоқда. Таълим сифатини диагностика қилиш олий таълим муассасаси учун таълим хизматлари бозорида барқарор ўрин эгаллаш, қабул кўрсаткичларини оширишни ва кафолатланган капитал оқимини таъминлайдиган омил ролини бажаради.

Таълим диагностикаси – бу ўқув жараёнининг самарадорлигини аниқлаш, эришилган натижаларни белгиланган талаблар билан солиштириш учун ўқитишнинг ҳар қандай босқичида амалга ошириладиган баҳолаш жараёнидир.

Таълим сифати диагностикаси олий таълим муассасаларининг ривожланиш истиқболларини аниқлашда уларнинг фаолиятига сезиларли таъсир кўрсатадиган ҳамда эришилган натижалар ва фойдаланилган ресурсларни тавсифловчи муҳим омилларни аниқлаш имконини беради.

Динамик таҳлил ва башорат қилиш қийин бўлган шароитларда ҳар қандай олий таълим муассасасининг таълим, илмий, ахборот ва бошқа хизматлар сифатини ошириш бўйича фаолиятини доимий равишда такомиллаштирмасдан туриб муваффақиятли ишлаши мумкин эмас. Таълим соҳасидаги давлат сиёсати тўлиқ сифатли таълим олиш учун зарур шарт-шароитларни кафолатлаши, шахсининг манфаатлари ва қобилиятларини ҳисобга олиши ҳамда таълимда рақобатбардошликка эришишни таъминлаш керак.

Адабиётларда таълим сифатига тариф беришда турли илмий ёндашувлар мавжуд. Биринчи ёндашувга мувофиқ олий таълим сифати унга таъсир этувчи омилларга боғлиқ равишда тавсифланади. Жумладан,

1. Талаблар

- мақсад,
- стандартлар,



- таълим мезонлари;

2. Ресурслар билан таъминланиши:

- таълим дастурлари,
- кадрлар салоҳияти,
- абитуриентлар контингенти,
- инфратузилма,
- моддий-техника таъминоти,
- молия

3. Таълим жараёнлари:

- илмий ва ўқув фаолияти,
- бошқарув,
- таълим технологияси ва бошқа омиллар эътиборга олинади.

Иккинчи ёндашувда таълим тизимини ривожланишидан манфаатдор бўлган бенефициарлар билан боғлиқ ҳолда бозор иқтисодиёти қонунлари талабидан келиб чиққан ҳолда берилади. Таълим сифатига берилган барча тарифларда маълум база нормалари, стандартлари, талаблари, мақсадлари билан қиёсий таққосланади.

Жаҳон амалиётида олий таълим сифатини таъминлашнинг қуйидаги моделлари фарқланади:

Француз модели – олий ўқув юртини ички ўзини-ўзи баҳолашга номинал ўрин берилади, асосий урғу давлат ёки жамоат ташкилотлари томонидан олий ўқув юртини самарали ташқи баҳолашга қаратилади. Германия, Франция, Скандинавия мамлакатларида “Инглиз (англосаксон)” модели қўлланилади. Ушбу моделда олий ўқув юртини ички ўзини-ўзи баҳолаш ҳал қилувчи ўрин тутди ва ташқи касбий, ижтимоий таълим сифатини эксперт баҳолаш эътиборга олинади ва у Буюк Британия, Ирландия, АҚШ, Лотин Америкаси мамлакатлари, Филиппин, Тайванда кенг тарқалган.

Фикримизча, олий таълим сифати ва унинг элементларига нисбатан диагностикани қуйидагича изоҳлаш мумкин:

- диагностика жараёни мазмуни – сарфланган харажатларнинг таълим сифатига таъсирини аниқлаш ва қутилаётган самара билан таққослашга қаратилган тадқиқотлар олиб бориш;
- диагностика объекти – олий таълим муассасаси ёки унинг бўлимлари;
- диагностика мақсади – олий таълим муассасасининг жамиятдаги ёки олий таълим тизимидаги эгаллаб турган мавқеи ва ундаги ўзгаришларга баҳо бериш;
- диагностика вазифалари – тизимдаги элементлар ўзаро мувофиқлигини таъминлаш ва яхшилашга қаратилаган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, камчиликларни бартараф этишни муайян мезонларга таяниб назорат қилиш.

Бунда олий таълим сифатига нисбатан диагностикани қўллаш қуйидаги иқтисодий таҳлил методларини талаб этади:

- тизим ичига тўғридан-тўғри кирмаган ҳолда статистик ахборотдан ва иқтисодий таҳлилнинг мураккаб усулларида фойдаланиб олиб бориладиган тадқиқот;
- тизимдаги маълумотларни умумлаштирувчи экспертиза;
- математик-статистик методларни қўллаб тадқиқотлар олиб бориш;
- динамик дастурлаш ва математик моделлардан фойдаланиш;
- миқдорий ифодага эга мақсадларга эришиш учун оптималлаштиришни таъминловчи чизиқли дастурлашдан фойдаланиш [2].

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, ОТМ фаолиятининг мажмуали иқтисодий диагностикасига 5 босқичдан ташкил топган таҳлилий жараён сифатида қараш мумкин. Мазкур босқичлар ўзаро боғланган ва тартибли жойлашган, улар орқали мақбул натижага эришиш мумкин. Ҳар бир босқич ўзидан олдинги босқичга таянган ҳолда амалга оширилади.

Олий таълим муассасаларида таълим сифатини диагностика қилиш тизими бевосита муассасанинг ривожланиш стратегияси, олий таълим муассасаси асосий кўрсаткичлари ҳамда битирувчиларни тайёрлаш мазмуни сифати бўйича давлат стандартлари талабларига асосланган восита сифатида шакллантириш лозим. Шунингдек, олий таълим сифати диагностикаси тизими битирувчиларни тайёрлаш сифатига таъсир қилувчи олий таълим муассасасининг барча жараёнларини ўлчаш, баҳолаш ва доимий равишда доимий такомиллаштириш бўйича ўзаро боғлиқ чора-тадбирлар мажмуаси сифатида қараш керак.

Диагностика объекти сифатида танлаб олинган олий таълим муассасаси фаолиятини баҳолаш ва хулосалаш таркиби қуйидагиларни ўз ичига олиши мақсадга мувофиқдир [3]:

- талабалар фаолиятини баҳолаш – ушбу йўналишда талабаларнинг рейтинги таълим, илмий тадқиқот, ижтимоий, маданий ва ижодий, спорт соҳаларида эришган натижаларига асосан баҳоланади. Диагностиканинг ушбу йўналиши талабаларнинг илмий ва ижодий фаолияти тўғрисида хулосалар чиқаришга, улар учун устувор бўлган ижодкорлик шакллари ўрганишга, энг муваффақиятли талабаларни рағбатлантиришга ва ўқув жараёнини ташкил этиш амалиётидаги камчиликларни аниқлашга имкон беради.
- педагог-ҳодимлар рейтинги – иккинчи йўналишда ўқитувчиларнинг индивидуал рейтингини шакллантиришга хизмат қилувчи барча фаолияти қамраб олинади. Бу йўналиш ўқитувчи фаолиятини ўқув-услубий, илмий-инновацион, тижорат, тадқиқот натижалари бўйича амалга оширилади.
- Таълим инфратузилмасининг шаклланганлигини баҳолаш – олий таълим муассасасининг моддий-техник базаси ҳамда талабалар учун яратилган шароитлар, жумладан, ўқув жараёнлари учун аудиториялар сифими, замонавий компютер технологиялари билан таълим таъминланганлик даражаси, ахборот ресурс базаси ва унинг адабиётлар билан таъминланганлик даражаси, талабалар турар жойи ва бошқалар.

Таълим жараёни иштирокчилари ва манфаатдор томонларнинг қониқишларини мониторинг қилиш абитуриентлар, талабалар, ўқитувчилар, битирувчилар, ота-оналар ва иш берувчиларни қамраб олиши лозим. Ушбу диагностиканинг асосий мақсади таълим жараёни иштирокчиларининг эҳтиёжлари ва объектив ҳақиқат ўртасидаги мувофиқлик даражасини баҳолашдир.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, олий таълим муассасаларида сифат муаммоси тадқиқотчиларнинг изланишларида тобора кўпроқ учрамоқда. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини диагностика қилиш муаммоси алоҳида аҳамиятга эга. Чунки, диагностика таълимни такомиллаштириш соҳасида барча ташкилий ва бошқарув қарорларини қабул қилишнинг энг муҳим бошланғич нуқтаси ҳисобланади. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини диагностика қилиш даражаси ва чуқурлиги тўғри белгиланган ўрганиш объекти ва воситаларини танлашга бевосита боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Р. Р. Закиева. Диагностика качества профессионального образования. Вестник ВГУ. www.vestnik.vsu.ru
2. Н.Сотводдиев. Олий таълим сифати диагностикаси ва уни амалга ошириш механизмини такомиллаштириш. Давлат илмий-техник дастурлари доирасида 2018-2020 йилларда бажарилган амалий лойиҳа ҳисоботи.
3. Е. В. Мялкина. ДИАГНОСТИКА КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ Вестник Мининского университета. 2019. Том 7, №3. <https://cyberleninka.ru/>

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK
TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

Axlimirzayev Akhmadjon -ADU matematika kafedrası professorı;
Mamadjanova Ma'murahon Kadirjanovna-ADU matematika kafedrası katta o'qituvchisi;
Ikromova Nilufar Akhmadjonovna-ADU maktabgacha ta'lim magistri.

Annotasiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish usullari bayon qilingan

Kalit so'zlar: matematik tushunchalar, raqamlar, to'plamlar, qo'shish, ayirish, arifmetik harakatlar.

**ФОРМИРОВАНИЕ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ У ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Axlimirzaev Akhmadjan-Профессор кафедры математики АндГУ
Мамаджанова Маъмурахан Кадиржановна- старший преподаватель кафедры математики АндГУ

Икромова Нилуфар Ахмаджановна- Магистрант направления «Дошкольное образование» АндГУ

Аннотация: В статье рассматривается методика формирования и развития элементарных математических понятий у детей дошкольного возраста

Ключевые слова: математические понятия, числа, множества, сложение, вычитание, арифметические действия.

**FORMATION OF ELEMENTARY MATHEMATICAL CONCEPTS IN CHILDREN OF
PRESCHOOL AGE**

Axlimirzayev Akhmadjan- Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor,
Mamadjanova Ma'maraxhan Kadirjanovna- candidate of pedagogical sciences(PhD),
Ikromova Nilufar Akhmadjanovna- Master student of the "Preschool education".

Abstract: The article discusses methods of formation and development of elementary mathematical concepts in preschool children

Key words: mathematical concepts, numbers, sets, addition, subtraction, arithmetic operations.

Ma'lumki, so'nggi yillarda respublikamizda barcha sohalarda, ayniqsa, ta'lim sohasida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunga misol sifatida 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunni keltirish mumkin.

Yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonunda ta'lim quyidagi turlarga bo'lingan: Maktabgacha ta'lim va tarbiya; Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; Professional ta'lim; Oliy ta'lim; Oliy ta'limdan keyingi ta'lim; Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; Maktabdan tashqari ta'lim.

Ko'rish mumkinki, ta'limning yuqorida sanab o'tilgan turlari ichida eng dastlabkisi maktabgacha ta'lim bo'lib, bu turda bolalar bir qator fanlar, jumladan, matematika fani bo'yicha ham dastlabki eng sodda tushunchalar haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar.

Bu turda bolalarda hosil qilingan dastlabki matematik tasavvurlar ta'limning qolgan turlarida ularni matematikani puxta o'zlashtirishlarida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ta'limning bu turida tarbiyachi eng avvalo bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarni shakllantirishning yo'llari va usullarini puxta o'zlashtirishlari kerak bo'ladi. So'nggi yillarda bu borada ko'plab uslubchi matematiklar ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Bunday ishlarga na'muna sifatida Sh.Sodiqova va D.Azizovalarning ishini keltirish mumkin. Ular maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda sodda matematik tushunchalar haqida tasavvurlarni hosil qilish va rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ta'limiy faoliyatni quyidagi beshta yo'nalishga ajratadilar:

- I. Geometrik shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
- II. Fazoda mo'ljal olish ko'nikmalarini hosil qilish.
- III. Vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
- IV. Miqdor-kattalik haqida tasavvurlar hosil qilish.
- V. Son-sanoq haqida tushunchalar hosil qilish.

Albatta, bu yerda keltirilgan yo'nalishlar qat'iy emas. Tarbiyachi o'z faoliyati davrida bu yo'nalishlarga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Lekin bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy faoliyat barcha guruh (kichik, o'rta, katta, tayyorlov)larda matematika bo'yicha ko'zda tutilgan ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, maktabgacha bo'lgan yoshdagi barcha guruxlar uchun tuzilgan ta'limiy faoliyat ishlanmalari tarbiyachilarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimediyaga vositalaridan unumli foydalanish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Qo'yilgan bu vazifalarni ta'limning barcha turlarida bajarish, ayniqsa, maktabgacha ta'lim va tarbiya bosqichida bajarish, bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masalalaridan ekanligi hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator hujjatlarda o'z aksini topgan.

Bu hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz ushbu maqolada ta'lim turlarining dastlabki bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim va tarbiya bosqichida maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda matematikaning dastlabki muhim tushunchalari: to'plam, son va sanoq tushunchalari bo'yicha tasavvurlarni hosil qilish hamda birdan o'ngacha bo'lgan sonlar ustida qo'shish va ayirish hamda teng bo'laklarga bo'lish amallarini bajarishga o'rgatish bo'yicha tajribalarimizni bayon qilamiz.

- I. Bolalarda to'plam tushunchasi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

To'plam tushunchasi matematikaning boshlang'ich tushunchalaridan biri bo'lib hisoblanadi va u ta'riflanmaydi. To'plamlar nazariyasining asoschisi Kantor bo'lib hisoblanadi. To'plamlar ustida ularning birlashmasi(yig'indisi), kesishmasi (ko'paytmasi) va

ayirmasi kabi algebraik amallar aniqlanadi. Bu amallar kommutativlik, assotsiativlik va distributivlik kabi asosiy qonunlarga bo'ysunadi. Bularidan tashqari to'plamlar uchun Dekart ko'paytmasi amali ham kiritilgan. Umuman olganda hozirgi zamon matematikasining poydevorini to'plamlar nazariyasi tashkil etadi. Bu esa juda erta, ya'ni bog'cha yoshidan boshlab bolalarda to'plam haqidagi tushunchalar bo'yicha tasavvurlarni shakllantirishni taqozo etadi.

Kichik yoshdagi bolalarda to'plam tushunchasi haqidagi dastlabki tasavvurlar bir xil yoki har xil narsalardan tashkil topgan guruhlarni bir-biridan ajratishdan boshlanadi. Bunda ular qaysi guruhda narsalar ko'p, qaysi guruhda esa kam degan savollarga javob topadilar va buning natijasida ko'p, oz yoki bitta deb guruhlarni ajratadilar. Bu jarayonni amalga oshirishda tarbiyachi turli rangdagi kubiklar jamlamasidan, turli rangdagi sharlar jamlamasidan, uy hayvonlari jamlamasi aks etgan suratlardan, bir va ko'p qavatli uylar tasvirlangan suratlar va hokazolardan foydalanishi mumkin. Bog'chada kichik yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni yuqorida ta'kidlanganlar asosida tashkil qilish natijasida ularda to'plam haqidagi boshlang'ich tasavvurlar hosil qilinadi.

II. Bolalarda son va sanoq tushunchalari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining eng qadimgi davrlarida insonlar sanashni deyarli bilishmagan. Ular ikki va uchta buyumdan iborat to'plamni bir-biridan farq qila bilganlar, xolos; bundan ortiq buyumlardan tuzilgan har qanday to'plam "ko'p" tushunchasiga birlashtirilgan. Bu sanash emas, balki sanashning dastlabki kurtagi bo'lgan.

Keyinchalik uncha katta bo'lmagan to'plamlarni ham bir-biridan farq qila bilish qobiliyati rivojlana borgan; "to'rt", "besh", "olti", "yetti" tushunchalarini bildiruvchi so'zlar paydo bo'lgan; "yetti" so'zi uzoq vaqtgacha ma'lum bo'lmagan katta miqdorni ifodalash uchun ham ishlatilgan. Xalqda yetti soni bo'yicha turli maqollar ham mavjud ("yetti o'lchab, bir kes", "yetti kishidan biri xizr", "yetti iqlim", "sanamay yetti dema" va hokazo).

Insonlarning ish yuritish faoliyati murakkablasha borgan sari kengroq ko'lamda sanashga ehtiyoj tug'ilgan. Shu maqsadda inson o'zining tevarak-atrofidagi buyumlardan sanash vositalari sifatida foydalana boshlaganlar: ular tayoqlarga, daraxtlarga belgilar o'yib, arqonlarga tugunlar tugib, bir joyga kichik toshlar to'plab qo'yadigan bo'ldilar va hokazo.

Sanash ishida inson tanasining a'zolari; ayniqsa, barmoqlari muhim rol o'ynagan. Barmoqlar sanash natijasini uzoq vaqt saqlay olmasada, hamma vaqt ishlatish uchun tayyor va o'zining xarakatchanligi bilan boshqa sanash asboblari (sanoq cho'plar, kubiklar, tugmachalar va hokazo)dan afzalroqdir. Qadimgi zamondagi insonlarning tili juda kambag'al bo'lgan; bunda imo-ishora tildagi so'z kambag'alligini to'ldirishga yordam bergan, xali nomlari bo'lmagan sonlar barmoqlar bilan ko'rsatilgan (o'zimiz ham bizni tilimizni bilmagan insonlar bilan gaplashganimizda sonlarni barmoqlarimiz bilan ko'rsatamiz).

Yangidan hosil bo'lgan 10 soni – qo'llarimizdagi 10 ta barmoq soni asosida tuzilganligi ham taabiiydir; ba'zi xalqlarda sonlarning otlari 5 soni – bir qo'ldagi barmoqlar soni asosida, 20 soni – oyoq va qo'llardagi barmoqlar soni asosida tuzilgan. Dastlabki davrda sonlar zahirasi juda sekinlik bilan o'sgan. Keyinroq jamiyat tarqqiyoti sonlar zahirasini kengaytirishni taqozo etdi va boshqa sonlar paydo bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlanganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, kichik yoshdagi guruhlardan boshlab matematik jarayon, sanash jarayonida hosil bo'ladigan sonlar bo'yicha tasavvurlarni shakllantirishga erishiladi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi kichik yoshdagi guruhlardan boshlab bolalarga sanashni o'rgatishda turli sanoq cho'plari, kubiklar, ko'p qavatli

uyular tasvirlangan plakatlar bilan birga qo'l va oyoqlardagi barmoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

III. Bolalarning 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar bilan qo'shish va ayirish amallarini bajarish bo'yicha tasavvurlarini shakllantirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruxlari bolalarida to'plam, sanash va son haqidagi tasavvurlar paydo qilinganidan so'ng o'rta, katta va tayyorlov guruhlari bolalari bilan 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish, ayirish va bo'lish amallari haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga harakat qilinadi.

Buni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin:

1. Bolalarda hisoblash va o'lchash faoliyatini rivojlantirish, tez va aniq hisoblash, bir-biridan bittaga ortiq bo'lgan narsalarni farqlashg, o'lchash yoki sanash natijasida hosil bo'ladigan sonni bilish va hokazo hislatlarni bolalarda shakllantirish.

2. Sonlarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rgatish va buni natijasida ular orasidagi bog'liqlikni ochib ko'rsatish, ya'ni 4 va 5 ni taqqoslab 5 soni 4 sonidan kattaligini va 5 va 6 sonni taqqoslab 5 soni 6 sonidan kichik ekanligini tushunib yetishlarini ta'minlash kerak.

3. Bolalarning butun va qism haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.

4. 10 gacha bo'lgan sonlarni bittadan orttirish va bittadan kamaytirish yordamida bolalarni arifmetik amallardan hisoblangan qo'shish va ayirish amallarini bo'yicha tasavvurlarini shakllantirilishi kerak.

Quyida bu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan ishlardan na'munalar keltiramiz:

Bolalar bir xil narsalardan hosil qilingan guruhlarni o'z ko'zlari bilan kuzatib taqqoslaydilar va og'zaki ravishda ularning tengligi yoki biri ikkinchisidan kichik yoki katta ekanligini aytadilar. Tarbiyachi bunda tarelkalarga qo'yilgan bir xil mevalardan, turli rangdagi sanoq cho'plari va hokazolardan foydalanishi mumkin.

Tarbiyachi bitta olmasi bor tarelkaga ketma-ket bittadan olma qo'ya borib, har gal tarelkada nechta olma bo'ldi deb va tarelkadagi olma 6 ta bo'lishi uchun unga yana nechta olma qo'yish kerak degan savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Bu jarayonda bolalarda berilgan songa bir sonini ketma-ket qo'shish amali bo'yicha tasavvurlari hosil qilinadi. Huddi mana shu joyda yuqoridagi masalaga teskari masala, ya'ni tarelkadagi olmadan 1 ta olma olinsa unda nechta olma qoladi? Yana bitta olinsa-chi? va hokazo savollar yordamida bolalarda berilgan sondan 1 sonini ketma-ket ayirish bo'yicha tasavvurlari shakllantiriladi.

Bunda bolalarda 1 dan 10 gacha va 10 dan 1 gacha teskari sanash bo'yicha ilgari hosil qilingan bilimlar yanada mustaxkamlanadi. Bu yerda amalga oshirilgan ishlarni sanoq cho'pi (10 dona) yoki ikkala qo'l barmoqlari yordamida ham bajarish mumkin. Sanoq cho'pi yoki qo'l barmoqlari yordamida 5 sonini biri kichik, ikkinchisi katta bo'lgan ikkita qo'shiluvchi (1+4; 2+3; 3+2; 4+1) yig'indisi sifatida, huddi shunday 10 sonini ikkita o'zaro teng qo'shiluvchi (5+5) yig'indisi sifatida yoki (1+9; 2+8; 3+7; 4+6; 5+5; 6+4; 7+3; 8+2; 9+1) ko'rinishda yozish mumkinligini tushunib yetadilar.

Bolalarda qo'shiluvchilarning o'rinlari almashtirilsa yig'indi o'zgarmasligi haqidagi bilimlarni shakllantirish maqsadida ular bilan quyidagi mashqni bajarish mumkin:

Tarbiyachi bolaga ikki xil rangdagi (qizil va ko'k rangli) 3 ta sharni olishni buyuradi. Tarbiyachi boladan nechta qizil rangli va nechta ko'k rangli shar olding deb so'raydi. Bola ikkita qizil va bitta ko'k rangli shar oldim deb javob qiladi. Yana tarbiyachi bolalardan sharlar soni 3 ta bo'lishi uchun nechta ko'k rangli va nechta qizil rangli shar olishing kerak deb so'raydi. Bola olingan sharlar soni 3 ta bo'lishi uchun 1 ta ko'k va 2 ta qizil shar olishim kerak

deb javob beradi. Tarbiyachi bolaga barcha sharlar nechta degan savol bilan murojaat qiladi. Bola olingan barcha sharlar oltita deb javob beradi. So'ngra tarbiyachi va bolalar birgalikda 3 sonini 2 va 1 yoki 1 va 2 sonlaridan hosil qilish mumkinligini ya'ni $2+1=1+2$ ekanligini tushunib yetadilar.

Maktabgacha bo'lgan katta yoshdagi bolalarda asta-sekinlik bilan butun va uning qismi hamda sonni bir-biriga teng qismlarga ajratish tushunchalari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga o'tiladi. Buni quyidagi misollar yordamida amalga oshirish mumkin: Bolalar tarelkadagi 6 ta olmani 2 ta tarelkaga yoki 8 ta olmani ham 2 ta tarelkaga joylashtirish orqali arifmetik amallardan yana biri bo'lgan bo'lish amali bo'yicha dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladilar (birinchi holda 6 ni 2 ga, ikkinchi holda 8 ni 2 ga bo'lish).

Huddi shunday bolalarga 6 ta olma va 6 ta nok olishni va olmalarni 2 ta tarelkaga, nokni esa 3 ta tarelkaga joylashtirish buyuriladi. Natijada, bolalar birinchi holda 6 ni 2 ga, ikkinchi holda 6 ni 3 ga bo'lish amaliga duch kelgan bo'ladilar. Bunga o'xshash misollar yordamida asta-sekinlik bilan bolalarda arifmetik amallardan hisoblangan bo'lish amali bo'yicha tushunchalar shakllana boshlaydi va ularni kelgusida matematikani puxta o'zlashtirishlari uchun zamin yaratadi.

Shunday qilib, biz ushbu maqolada matematikaning dastlabki tushunchalaridan hisoblangan to'plam, son, sanash va 10 gacha bo'lgan sonlar ustida bajariladigan qo'shish, ayirish va teng qismlarga bo'lish amallari bo'yicha bog'cha yoshidagi bolalarning tasavvurlarini qanday qilib rivojlantirish mumkinligi haqida o'z fikrlarimizni bayon qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
2. Erxonova N, Ro'ziyeva Z. Tarbiyachi kitobi (matematika). T.: "Zamin nashr", 2020 y.- 255 bet.
3. Р.Л.Березина и др. Формирование элементарных математических представлений у дошкольников. М.: Просвещение, 1988-303с.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XISSIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING METODIK JIHATLARI

Dadaboev R.R.

NamDU doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xissiy va axloqiy tarbiyalashda olib borilgan tadqiqotlar asosida aynan jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni xissiy va axloqiy tarbiyalash mexanizmi yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagog, o'quvchi, jismoniy tarbiya, axloq, xis, tadqiqot, boshlang'ich sinf, dars.

Аннотация: В статье описан механизм эмоционально-нравственного воспитания школьников на уроках физического воспитания на основе исследования эмоционально-нравственного воспитания младших школьников.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагог, студент, физическое воспитание, этика, эмоция, исследование, начальный класс, урок.

RESUME: *This article describes the mechanism of emotional and moral education of students in physical education classes on the basis of research on the emotional and moral education of primary school students.*

Keywords: *education, upbringing, pedagogue, student, physical education, ethics, emotion, research, primary class, lesson.*

Jamiyatimizda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda oʻz irodasi, kuchi va imkoniyatlariga boʻlgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuygʻularini kamol toptirishga yoʻnaltirilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmogʻda[1]. Shu jihatdan olib qaraganda taʼlim jarayonida yosh avlodda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish hamda ularda qator tarbiyaviy sifatlarni, jumladan, ularda jismoniy sifatlarni bilan bir qatorda maʼnaviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab taʼlim-tarbiya oʻchogʻi sifatida tarbiyaviy vazifalar, asosan, odobnoma darslari yoki darsdan tashqari sharoitlarga moʻljallab amalga oshirilib kelinmogʻda. Bu jarayonni yanada takomillashtirish maqsadida “Tarbiya” integrativ oʻquv fani joriy etilib, bosqichma-bosqich taʼlim amaliyotiga tatbiq etilayotgan mazkur fan mazmunida axloqiy tarbiyaga ham alohida eʼtibor qaratilmogʻda. Bu jarayon muayyan pedagogik shart-sharoitlar, tarbiya vositalari muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiruvchi jarayonlardir. Vaholanki, tarbiyaning maqsad va vazifalarini hal etishda asosiy tashkiliy shakl – bu shubhasiz darsdir.

Oʻquvchilarni tarbiyalash vazifalarini faqat “Odobnoma” yoki “Tarbiya” darslarida emas, har qanday fanni oʻtish jarayonida amalga oshirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, taʼlim va tarbiya bu yaxlit, bir butun pedagogik jarayondir. Qolaversa, har bir fan ahloqiy tarbiya borasida oʻziga xos xususiyatiga ega. Jumladan jismoniy tarbiya darslari axloqiy tarbiyani boshqa fan mazmunida aks etmagan qarorlarini hal etmagan imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham boshlangʻich sinflarda barcha fanlarni oʻqitishda didaktik maqsadlar bilan bir qatorda oʻqituvchi tarbiyaviy maqsadini ham aniq belgilab olishi va ularni hal etishi lozim. Masalan, jismoniy tarbiya darslarida oʻquvchilarni faqat jismoniy sifatlarni emas, balki bir vaqtning oʻzida ularning ham maʼnaviy, ham axloqiy, ham estetik sifatlarni tarbiyalash vositasi sifatida amalga oshiriladi. Shuningdek, tarbiya jarayoni kompleks tarzda olib borilsada, samarali kechishi bois, turli fanlar bilan ham yaqin aloqador boʻlib, bir-birini toʻldirib borish natijasida tarbiya jarayonining samaradorligi taʼminlanadi.

Amaliyotlarda koʻplab olimlar boshlangʻich sinf jismoniy tarbiya oʻqituvchilari nafaqat tarbiyaviy, hattoki taʼlimiy maqsadlarni ham oldindan aniq belgilab olmasliklari qayd etiladi. Ularning dars-reja ishlanmalarida tarbiyaviy maqsadlar deyarli bir xillikda boʻladi. Ular belgilab olingan taqdirda ham umumiy xarakterga ega boʻladi. Masalan, darsning tarbiyaviy maqsadi «oʻquvchilarni axloqiy tarbiyalash», kabi umumiy tushunchalar bilan cheklanadi. Bir soatlik dars davomida butun bir axloqiy tarbiya maqsadiga erishish mumkin emasligini har qanday pedagog tushunadi. Demak, tarbiya maqsadi aniq qoʻyilishi, u darsning oʻquv materiali mazmunidan kelib chiqib oldindan aniq belgilanishi lozim. Yana shuni alohida qayd etish joizki axloqiy sifati barkamol shaxsning umumiy sifatlarning tarkibiy qismi tariqasida, oʻz navbitida,

o'ziga xos tarkibdan tashkil topadi. Shu ma'noda, jismoniy tarbiya darsliklarida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning o'ziga xosliklari mavjud.

V.V.Gorinevskiy jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan turli mashq va o'yinlar nazariyasi va metodikasi muammolarini tadqiq etib, muayyan konspisiyani ilgari surgan. Uning fikricha, mashq va o'yinlarda ishtirok etish o'qituvchining o'zidan ham ko'tarinki kayfiyat, harakatlarning axloqiy-estetik jihatdan nazokatli bo'lishiga erishish talab etiladi.

Demak, boshlang'ich maktab o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda mashqlantirishdan avval ularning gender rivojlanish xususiyatiga qarab, xissiy rivojlanishsiz axloqiy tarbiyani shakllantirib bo'lmasligini bilash hamda xissiy va axloqiy rivojlanish turlarini o'rgatuvchilar tomonidan anglanishi lozim.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining hissiy va axloqiy rivojlanishining birinchi turi, I.V Dubrovina natijalariga ko'ra, o'ziga xos va e'tiborli aqliy qattqlikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi[3]. Bu qattiq xatti-harakatlarga moyillikni - hislar, xotira xatolari, kutilmagan stimullarga yetarli darajada e'tibor bermaslik, boshlang'ich maktabda o'qitish jarayonida e'tibor va harakatlar doirasini toraytiradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar guruhi salbiy tajribani to'playdigan va turli vaziyatlarning sub'ektiv rasmidagi bolaga e'tiborni jalb qilishga olib keladigan moslashuvchan xatti-harakati namoyishi bilan ajralib turadi. Bunday holda, asotsial moslashishga va qiymat-semantik sohaning o'zgarishiga olib keladigan qattiq xatti-harakatlarning noto'g'ri shakllaridan foydalanish xavfi mavjud. O'z-o'zini hurmat qilishning yuqori ko'rsatkichlari o'quv vazifalarini amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarlikning past darajasini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining bu turi hayotning pozitsiyasi bilan tavsiflanadi: "bu yerda va hozir", ya'ni bugun yashamoqda. Bundan tashqari, ushbu turdagi o'ziga xos xususiyatlar, masalan, ota-onalar yoki tengdoshlarni boshqarish istagi; shaxsiy muvaffaqiyat va ustunlikka erishish, ba'zi bir voqelik qo'rquvi bilan istaklarini cheksiz qondirish istagi kabilar ham boshlang'ich sinf o'quvchilari ruhiyatida kuzatiladi[4; 46-48-b.].

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning hissiy va axloqiy rivojlanishining ikkinchi turi sezgir qattqlikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Bu xatti-harakatlar, o'z-o'zini hurmat qilish va qiymat tizimidagi o'zgarishlarni talab qiladigan ta'lim faoliyati jarayonida yuzaga keladigan yangi vaziyatlarga murakkab hissiy reaksiyalarni ko'rsatadi. Yangi qo'rquv bilan bog'liq xuddi shunday hissiy reaksiyalar kecha yashagan bolaning xususiyatlaridan dalolat beradi. Ushbu bolalar guruhi hozirgi kunda maktab hayotidan norozilikning barcha belgilarini namoyish etadi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun bu haqiqatdan qo'rqish va xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj xarakterlidir. Yutuqlar va ijodiy potensial uchun past motivatsiya bu tipologik guruhning boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning progressiv hissiy va psixologik rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardir[4; 52-b.].

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning hissiy va axloqiy rivojlanishining uchinchi turi aqliy qattqlikning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Bu esa buni talab qiladigan vaziyatlarda ma'lum darajada barqarorlik va moslashuvchanlikka psixologik tayyorligini ko'rsatadi. Bu bizning fikrimizcha hissiy va psixologik ishlab chiqarish kursini aniqlaydigan sifat xususiyatlarining zaruriy kombinatsiyasi hisoblanadi. Maktabda o'qish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishida bu xususiyatlar alohida e'tiborga molik[4; 58-b.].

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining hissiy va axloqiy rivojlanishining yuqori ko'rsatkichlari, mutaxassislarning fikriga ko'ra, kelajakda ularning hayotlari mazmunli, diqqat markazida va vaqtincha nuqtai nazarga ega bo'lgan bolalarning ushbu maqsadlar guruhida

bo'lishini anglatadi. Ular maktab hayotidagi eng qiziqarli jarayonni hissiyotlarga, mazmunga boy deb bilishadi. Sub'ektiv nazoratning yuqori darajasi ularga hayotidagi voqealar o'zlarining xatti-harakatlari natijasi ekanligiga, ularni boshqarish mumkinligiga ishonishlariga imkon beradi. Shu tariqa ular ushbu voqealar uchun javobgarlikni his qilishadi va umuman ularning hayoti qanday rivojlanayotgani uchun birinchi navbatda, o'zaro mas'ul ekanliklarini anglab boradilar[2; 17-b.].

Ular, shuningdek, hissiy jihatdan ijobiy voqealar va vaziyatlarni yuqori darajada boshqarishga qodir. Bunday bolalar o'zlari hayotlarida hamma narsaga erisha olishlariga va kelajakda o'z maqsadlariga erishishlari mumkinligiga ishonadilar. Shu bilan birga, ular salbiy voqealar va vaziyatlar uchun juda katta javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Ushbu guruhning yosh o'quvchilari o'zlarining o'quv faoliyatini tashkil etishda paydo bo'lgan munosabatlardagi yuqori mas'uliyat bilan ajralib turadi. Ushbu guruhning bolalari ro'y berayotgan voqealar, o'zini o'zi qadrlash, mustaqillik uchun javobgarlikni his qilishadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi sifatida xulq-atvorning axloqiy o'zini o'zi tartibga solish odatlarini rivojlanishini ta'minlash kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, bolaga taqdim etilgan axloqiy qoidalarni bajarish uchun zarur bo'lgan bunday xatti-harakatlar ko'nikmalarini saralash kerak: jumladan ushbu talabga qaysi ko'nikma va malakalar yordam berishini aniq belgilash, ularni bolani egallashi oson bo'lgan oddiy harakatlarga ajratish va mashq qildirish har bir harakatda, hatto unchalik katta bo'lmagan muvaffaqiyatni ijobiy baho bilan rag'batlantirish lozim. Jumladan, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan munosabatini, avvalambor uning axloqiy sa'y-harakatlari natijalariga asoslanib shakllantirish. Bolaning ongiga uning o'zini axloqiy model sifatida tasavvur qilishi va uning axloqiy xatti-harakati o'rtasidagi farqni nafaqat uni amalga oshirish, balki u boshdan kechirishi uchun unga ta'sir o'tkazish kerak. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida ularning xatti-harakatlarni oldindan belgilangan maqsadga muvofiq harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сон Қарори.

2. Азбука нравственного воспитания: Пособие для учителя. / Под ред. И.А. Каирова, О.С. Богдановой.– М.: Просвещение, 1997– 17 с.

3. Дубровина И.В., Прихожан А.М., Зацепин В.В. Возрастная и педагогическая психология: Хрестоматия: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений / Сост. – М.: Издательский центр «Академия», 1998. – 231 с.

4. Кузнецова Л.В. Гармоничное развитие личности младшего школьника/ Л.В. Кузнецова. – М., 2001.- 280 с.



УДК: 371. 312

СОДЕРЖАНИЕ УЧЕБНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ И ЕЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ

Рафикова Дилафруз Каххоралиевна – преподаватель кафедры педагогики Ферганского государственного университета, независимый исследователь (PhD)
dilafruzrafiqova1983@gmail.com Phone:+998902770435

Аннотация: В статье описаны профессионально-педагогический опыт, теоретическое и практическое образование, учебно-практическая педагогическая деятельность, виды практики, компоненты дидактической системы, педагогическая практика, педагогическая практика, организационно-педагогическая практика, производственная практика, преддипломная практика, данная

Ключевые слова: педагогический опыт, теоретическое, практическое образование, педагогическая практика, педагогическая практика.

UDC: 371. 312

CONTENT OF TEACHING AND PEDAGOGICAL PRACTICE AND ITS ORGANIZATIONAL AND DIDACTICAL CONDITIONS

Rafikova Dilafruz Kakhoralievna – teacher of the Department of Pedagogy, Fergana State University, Independent Researcher (PhD)
dilafruzrafiqova1983@gmail.com Phone:+998902770435

Abstract: The article describes professional and pedagogical experience, theoretical and practical education, educational and practical pedagogical activities, types of practice, components of the didactic system, pedagogical practice, pedagogical practice, organizational and pedagogical practice, industrial practice, pre-diploma practice, given

Key words: teaching experience, theoretical, practical education, teaching practice, teaching practice.

UDK: 371. 312

O'QUV-PEDAGOGIK AMALIYOT MAZMUNI VA UNING TASHKILY-DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Rafiqova Dilafruz Qaxxoralievna – Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi (PhD)
dilafruzrafiqova1983@gmail.com Phone:+998902770435

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy-pedagogik tajriba, nazariy va amaliy ta'lim, o'quv va amaliy pedagogik faoliyat, amaliyot turlari, didaktik tizimning komponentlari, o'quv amaliyoti, pedagogik amaliyot, tashkiliy-pedagogik amaliyot, ishlab chiqarish amaliyoti, diplom oldi amaliyoti bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik tajriba, nazariy, amaliy ta'lim, o'quv amaliyoti, pedagogik amaliyot.

Kasbiy-pedagogik tajriba nazariy va amaliy ta'limni integratsiyalovchi bo'g'in sifatida alohida ahamiyatga ega. Buni hisobga olgan holda, o'quv-pedagogik amaliyotning barcha turlariga katta e'tibor qaratilishi lozim. Amaliyot pedagogik ta'limning tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, talabalarni mustaqil kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning samarali

vositasidir. U bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik shakllanishida, amaliy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Chunki o'vuv-pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchining o'z kasbiy-pedagogik sifatlarini real anglashiga, o'zi va boshqalarda amaliy tayyorgarlik va kasbiy-pedagogik sifatlarning qanchalik darajada shakllanganligini aniqlash hamda kasbiy-shaxsiy rivojlanishining yo'nalishini belgilab olishiga imkon beradi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil etish natijalari ko'rsatadiki, o'quv-pedagogik amaliyotning tashkiliy-pedagogik muammolari o'z yechimini topsa-da, lekin uning didaktik aspektlari kasbiy pedagogikaning tadqiqot doirasidan chetda qolgan. Shu bois ham, talabalarning o'quv-pedagogik amaliyotini o'tkazish mazmuni, shakl va usullari bilan bog'liq va hali o'z yechimini topmagan ko'plab ziddiyatlar mavjud:

- o'quv va amaliy pedagogik faoliyat maqsadi, mazmuni va shakli o'rtasidagi;
- o'quv va amaliy pedagogik masalalarni bajarish shart-sharoitlari o'rtasidagi;
- amaliy pedagogik bilim va ko'nikmalarni predmet vositasida shakllantirish hamda ulardan kasbiy-pedagogik faoliyatda foydalanish o'rtasidagi;
- o'quv jarayonida shaxsda shakllanadigan kasbiy-pedagogik ahamiyatga ega sifatlar va ularni faqat real o'quv-pedagogik faoliyatda namoyon etish imkoniyati o'rtasidagi;
- o'quv-pedagogik faoliyat tarkibida amaliy bilimlarning ko'pligi va ularni faqat amaliy tajriba orqali egallash imkoniyati o'rtasidagi.

Amaliyot turlari (o'quv amaliyoti, pedagogik amaliyot, tashkiliy-pedagogik amaliyot, ishlab chiqarish amaliyoti, diplom oldi amaliyoti) ning maqsad va hajmi Davlat ta'lim standartlari orqali "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha belgilanadi.

Bizning nuqtayi nazarimizcha, maqsadning bunday tarzda ifodalanishi, birinchidan, yetarlicha amaliy xarakterga ega emas, ikkinchidan, amaliyotning har bir turi uchun maqsad alohida-alohida belgilanishi kerak.

Didaktik tizimning komponentlari, ya'ni o'quv-pedagogik amaliyotni o'tkazish mazmuni va shakli haqida shuni aytish mumkinki, ular ta'lim standartlari orqali umuman aniq belgilab berilmaydi. Bir tomondan, bunday holni maqbul deb hisoblash mumkin. Chunki, o'quv-pedagogik amaliyotni o'tkazish shart-sharoitlari bir-biridan keskin farq qiladi. Shu bois ham, oliy ta'lim muassasalarida o'quv-pedagogik amaliyotni o'tkazish mazmuni va shaklini mus-taqil belgilash huquqi berilgan. Boshqa tomondan esa, o'quv-pedagogik amaliyot dasturi uchun ma'lum me'yoriy talablarning mavjud emasligi, ularni bir-biriga qiyoslashda va demak, ularning didaktik samaradorligini baholashda bir oz qiyinchilik tug'diradi.

Bizning tadqiqot ishimizning maqsadi o'quv-pedagogik amaliyot dasturini didaktik jihatdan to'g'ri loyihalash, rejalashtirish va amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish hamda amalda tatbiq etishdan iborat. Bunday o'quv-pedagogik amaliyot dasturi yuqorida ko'rsatib o'tilgan ziddiyatlarni bartaraf etishga imkon beradi.

Ta'lim sohasidagi tadqiqotlar va loyihalash, pedagogik masalalarni yechish amaliyotini nazariy tahlil etish loyihalash faoliyatini va pedagogik masalalarni yechishni o'rganishda samarali ishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatdi. Bu esa pedagogika fanining rivojlanishida yangi yo'nalishni shakllantirish asoslarini oydinlashtirib beradi. V. P. Bepalkoning tadqiqotlarida «...muayyan pedagogik tizimning loyihasi hozirgi zamon ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish mohiyatini tashkil etishi» haqida so'z yuritiladi [5.112].

O'quv-pedagogik amaliyot dasturini ishlab chiqish metodikasi, eng avvalo, pedagogik loyihalashda tayaniladigan tamoyillarni ta'riflashni nazarda tutadi. Pedagogik loyihalash tamoyillari to'liq holda taniqli olim R. X. Jo'raevning tadqiqotida keltirib o'tilgan. Olimning

e'tirof etishicha, loyihalash jarayonida "...quyidagi masalalar hal etilishi lozim: ta'limning ijtimoiy maqsadlari va mazmunini belgilash, ta'siri aniq shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgan omillarni, ta'lim mazmunini shakllantirish usullarini, o'quv-rejalashtirish hujjatlari tizimini ishlab chiqish jarayonini aniqlash, huquqiy va iqtisodiy bazaning o'ziga xosligini qarab o'tish...; alternativ variantlarni taqqoslash va baholash imkoniyatini ta'minlash...; baholash, taqqoslash protseduralari va mezonlari tizimini shakllantirish" [6.47].

O'quv-pedagogik amaliyot dasturini loyihalashda quyidagi tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq: - asosiy kasbiy-pedagogik vazifalarni bajarishga talabalarning to'la tayyorgarligi; - nazariy ta'lim bilan amaliyot mazmunining bog'liqligi; - talabalarda shakllantiriladigan amaliy ko'nikma va malakalar, amaliy tayyorgarlik doirasining izchil kengayib borishi hamda amaliyotning bir turidan boshqa turiga o'tgani sari ularning murakkablashishi; - o'quv-pedagogik amaliyot jarayonida talabani o'z faoliyatini tashkil etishga pedagogik rahbarlik qilish; - o'quv-pedagogik vazifalarni bajarish sur'ati va muddatini individuallashtirish.

Pedagogik amaliyot maqsadini aniqlashda biz umumdidaktik maqsadlardan, shuningdek, o'quv-pedagogik faoliyat mazmunining o'ziga xosligidan kelib chiqdik. O'quv-pedagogik amaliyotning umumdidaktik maqsadini quyidagicha ta'riflash mumkin: pedagogik ta'limning hamma bosqichlarida amaliyotning barcha turini tashkil etish talabalarning amaliy kasbiy-pedagogik faoliyatni (oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining amaliy tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda) uzluksiz va izchil egallashlarini ta'minlashga yo'naltirilmog'i kerak.

Maqsadlarga muvofiq holda talabalarda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni, amaliy tayyorgarlikni talab etilgan darajada shakllantirish zaruratidan kelib chiqib, asosiy masalalar ifodalanaadi. Egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar o'quv-pedagogik faoliyatni mustaqil amalga oshirishga imkon berishi lozim. O'quv-pedagogik amaliyot mazmunini loyihalash (uning natijasi amaliyot dasturi hisoblanadi) muayyan tartibda amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval

O'quv-pedagogik amaliyot mazmunini loyihalash tartibi

Loyihalash bosqichlari	Dastlabki materiallar	Oxirgi natija
1. Amaliyot maqsadini aniqlash	Davlat ta'lim standartlari, maxsus fanlarning o'quv dasturlari	Amaliyotning ifodalangan maqsadi
2. Faoliyat turlarini aniqlash (kasbiy-pedagogik vazifalar)	Amaliyotning ifodalangan maqsadi	Amaliyotning perspektiv-tematik rejasi
3. Faoliyat turlari bo'yicha kasbiy-pedagogik masalalarni aniqlash	Amaliyotning perspektiv-tematik rejasi	Kasbiy-pedagogik masalalarning tasnifi

Shunga e'tibor qaratish lozimki, o'quv-pedagogik amaliyot dasturini loyihalash sifati talabalar amaliyot o'taydigan ish o'rinlarini chuqurroq tahlil etilishiga; ta'lim muassasasida qo'llaniladigan o'qitishning tashkiliy shakllari va pedagogik texnologiyalarga ko'p jihatdan bog'liq.

Yuqorida keltirib o'tilgan tartib asosida o'tkazilgan tadqiqot jarayonida o'quv-pedagogik dasturini ishlab chiqib, Andijon pedagogika universiteti, Farg'ona pedagogika instituti,

Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika institutida tajriba-sinov sharoitida aprotatsiyadan o'tkazildi hamda boshqa pedagogika oliy ta'lim muassasalarining ish amaliyotida tatbiq etildi.

O'quv-pedagogik amaliyotni har bir o'quv yili uchun kalendar-tematik rejalashtirish oliy ta'lim muassasalarida amaliy ta'limni tashkil etish va o'tkazish uchun asos hisoblanadi. Reja amaliyotning har bir turi uchun alohida-alohida ishlab chiqiladi. Bunda amaliy ta'lim turlarining uzluksiz va izchil ravishda o'tkazilishi hisobga olinadi. Amaliy ta'lim turlari fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar va amaliyot dasturlari talablari asosida o'tkaziladi.

O'quv-pedagogik amaliyotni rejalashtirish qator algoritmik protseduralarni nazarda tutadi. Rejalashtirishning asosiy maqsadi ish o'rinlari (organik resurslar)ni optimal taqsimlash hisoblanadi. Boshqa-cha aytganda, organik resurslardan samarali foydalanish o'quv-pedagogik amaliyotni tashkil etish darajasiga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Talabalar amaliyot o'tkazadigan ish o'rinlari organik resurslar hisoblanadi. O'quv-pedagogik amaliyotni rejalashtirish jarayonida ularni optimallashtirish zarur.

Tarmoqli rejalashtirishning umumiy nazariyasi asosida optimal rejalashtirishdan o'quv jadvalini tuzishda keng foydalaniladi. Tarmoqli rejalashtirishning mohiyati, "muayyan xossalarga ega resurslar yoki foydalaniladigan vositalar hamda ularga qo'yilgan cheklashlar sharoitida topshiriqlarni tartiblashtirishning samarali algoritmini topishdan iborat..." [9.67].

Bu yerda foydalaniladigan vositalar deyilganida, ta'lim jarayoni komponentlarini tushunmoq kerak. Ulardan ayni bir vaqtda va birgalikda foydalaniladi, binobarin, ular cheklangan hisoblanadi. O'quv-pedagogik amaliyotni tarmoqli rejalashtirish holida, ish o'rinlari cheklangan resurslar hisoblanadi. Ularning har birida ma'lum cheklangan sondagi o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarni bajarish mumkin.

Rasmiy holda, rejalashtirish uchun quyidagilar dastlabki ma'lumotlar hisoblanadi: - o'quv-pedagogik amaliyotni o'tkazish uchun rejalashtirilgan talabalar tarkibi; - ta'lim muassasalari (professional ta'lim muassasalar, maktablar yoki maktabgacha ta'lim muassasalari)da amaliyot o'tkaziladigan ish o'rinlari tarkibi; - bajarishlari uchun talabalar maxsus tayyorlangan o'quv-pedagogik amaliyot vazifalar tarkibi. Aslida, rejalashtirish uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash tartibi ancha murakkab vazifa hisoblanadi.

Birinchidan, talabalar bajaradigan o'quv-pedagogik vazifalarning ro'yxati tayyorlanadi. Ularni bajarishlari uchun talabalar o'quv-pedagogik amaliyot paytida tayyorgarlikdan o'tadilar, tegishli bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada egallaydilar.

Ikkinchidan, talabalar o'quv-pedagogik amaliyot o'taydigan ish o'rinlarining to'la ro'yxati tuziladi hamda ish o'rinlarining jihozlanishi, qurilma va asbob-uskunalari batafsil tavsiflanadi.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida o'quv-pedagogik vazifalarni bajarish uchun qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning tarkibi va mazmuni baholanadi.

Shunday qilib, dastlabki ma'lumotlar qatoriga o'quv-pedagogik amaliyot vazifalari (ularni bajarishlari uchun talabalar alohida tayyorgarlik ko'radilar) va ish o'rinlari (o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarish metodikasi va pedagogik texnologiyalarni ham bilish kerak) haqidagi ma'lumotlar kiradi.

Agar asosiy kirish ma'lumotlari, masalan, talabalar tomonidan ayni bir yoki turli ish o'rinlarida bajariladigan bir xil tipdagi o'quv-pedagogik amaliyot vazifalari soni detallashtirilsa, taqsimlash algoritmi qiyinlashadi. Bundan tashqari, garchand talabalarning ish o'rinlarida bo'lish muddati va butun amaliyotni o'tash muddati kalendar-tematik rejada bir xil belgilangan bo'lsa-da, taqsimlash algoritmidan vaqt parametri mavjud emas. Agar «ish vaqti» parametri,



ya'ni talabanning ish o'rnida bo'lish muddati kiritilsa, u holda amaliy pedagogik faoliyat modeliga mos holda, ish vaqtini asosiy faoliyat vaqti va asosiy faoliyatga tayyorlanish vaqtiga ajratish kerak. Asosiy faoliyatga tayyorlanish vaqti ish vaqtining 16-20% ni tashkil etishi lozim.

Shuning uchun, talabalar ish o'rinlarida bajaradigan o'quv-pedagogik amaliyot vazifalari sonini belgilashda kalendar-tematik rejada ko'rsatilgan normativ vaqtdan emas, balki asosiy faoliyat uchun ajratilgan vaqtdan kelib chiqqan holda ish tutmoq lozim. Shuni ham ta'kidlash joizki, ish o'rnida barcha o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarish uchun sarflangan vaqt yig'indisi, odatda, butun ish kun davomidagi asosiy faoliyat vaqtdan kichik bo'ladi. Rejalashtirishda ushbu holatni ham e'tiborga olish lozim.

Agar butun ish kuni maboynida talabalarni yangi ish o'riniga o'tkazishning imkoni bo'lmasa, u holda asosiy faoliyatdan tejalgan vaqt davomida talabalar individual topshiriqlarni bajarishlari kerak (bajarilgan ishlarni tahlil etish va tavsiflash, bo'limlar ishining tashkil etilishini o'rganish).

Taqsimlash asosida va ko'rsatib o'tilgan barcha omillarni hisobga olib, amaliy pedagogik ta'limning didaktik maqsadlariga mos ravishda pedagogik vazifalarni bajarishning tarmoqli reja-grafik modeli quriladi. Tarmoqli reja-grafik modeli asosida individual reja-grafiklar tuziladi. Bunda amaliyotni o'tkazishning kalendar muddatlari va talabalarning o'quv-pedagogik amaliyot dasturini to'la bajarishlari uchun turli ish joylari bo'ylab «ko'chishi» tartibi e'tiborga olinishi kerak. O'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarishda izchillikka amal qilish rejalashtirish sifatining mezoni hisoblanadi. Boshqarish nazariyasiga ko'ra, dastur va uni joriy etish rejasining mavjudligi faoliyat maqsadiga erishishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Biroq maqsadga erishish uchun dasturni joriy etish jarayonini tashkil etish zarur. Bu boshqarishning asosiy vazifalaridan biridir. Boshqarishning eng umumiy tashkiliy funktsiyalari quyidagilar hisoblanadi: tartiblashtirish, koordinatsiya va muvofiqlashtirish. Bosh-qarishning tashkiliy funktsiyalarini joriy etishning zamonaviy texnologiyalari (dasturiy-maqsadli va loyihalash) muvaqqat tashkiliy tuzilmalarni yaratishni nazarda tutadi.

O'quv-pedagogik amaliyot dasturi joriy etilgan holda, biz o'quv-pedagogik amaliyot tuzilmani qarab o'tamiz. O'quv-pedagogik amaliyot vaqtida yaratilgan muvaqqat tuzilma amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim muassasasining moddiy va kadrlar resurslarini birlashtiradi. Muvaqqat tuzilma ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning shart-nomaviy reglamentatsiyasi asosiy tashkiliy tamoyil hisoblanadi.

Boshqarishning tashkiliy vazifalari o'quv-pedagogik amaliyot rahbari, oliy ta'lim muassasasining mansabdor shaxsiga va ta'lim muassasasi tomonidan tayinlangan mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Ular talabalarning amaliyotini o'tkazish jarayonini tartiblashtirish, koordinatsiya qilish va muvofiqlashtirish ishlarini hamkorlikda amalga oshiradilar.

Tartiblashtirishning vazifasi talabalarning tarmoqli va individual reja-grafigi modelini tuzish texnologiyasi orqali joriy etiladi. Koordintsiya tuzilma ishtirokchilarining muvofiqlashgan o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Muvofiqlashtirish o'quv-pedagogik amaliyot jarayonining rejalashtirilgan tartiblardan chetga chiqishini bartaraf etish bo'yicha amalga oshiradigan ishlarini nazarda tutadi. Bu ishlarni loyiha rahbari amalga oshiradi.

Talabalarning o'quv-pedagogik amaliyotining turli bosqichlaridagi faoliyatining tashkiliy shakllarini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Biz bunda quyidagilardan kelib chiqdik. Agar o'quv-pedagogik amaliyotining birinchi bosqichida o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini amalga oshirish usullarini o'zlashtirishlari uchun talabalarning ta'lim muassasasi

o'qituvchilarining faoliyatini kuzatishlari yetarli bo'lsa, ikkinchi bosqichda esa, ancha faol faoliyat taqozo etiladi. Bunda o'quv-pedagogik amaliyotga oid bilimlarni faollashtirish, ayrim o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarish, pedagoglar va o'zining faoliyatini tahlil etish hamda boshqa ishlarni bajarish talab etiladi. Uchinchi bosqichda ta'lim muassasasi pedagogining rahbarligida o'quv-pedagogik amaliyot masalalarini talabalarning o'zlari mustaqil bajaradilar.

Talabalarning tashkiliy-pedagogik amaliyot faoliyatini ta'minlash uchun amaliyotni boshqarishning koordinatsion vazifasi tarkibida tashkiliy-metodik komponent bo'lishi zarur. U talabalar e'tiborini amaliyotning muhim tomonlariga yo'naltiradi, ish tartibini oydinlashtirib beradi, faoliyatni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalarni aks ettiradi. Xuddi ana shu komponent amaliyot davrida talabalarda unumli faoliyatga doimiy motivatsiyani ta'minlaydi.

O'quv-pedagogik amaliyotni boshqarishning koordinatsion vazifasini oliy ta'lim muassasasi pedagoglari amalga oshiradilar. Bu vazifaning tarkibiga quyidagilar kiradi: - talabalarga o'quv-pedagogik amaliyotni o'tkazish tartibi va muddatlari, mehnat intizomiga talablar, mehnat muhofazasi, texnika xafsizligi haqida ma'lumotlar berish; - talabalarning o'quv-pedagogik amaliyotga tayyorgarligini tekshirish: individual reja-grafiklari, o'quv-pedagogik amaliyoti masalalarini haol etish texnologiyasi va metodikalari, amaliyot kundaliklarini yuritish va amaliyot bo'yicha hisobot tuzish metodikalarining mavjudligi; - o'quv-pedagogik amaliyot jarayonida talabalar bajaradigan individual topshiriqlarni ishlab chiqish; - talabalarni ish o'rinlariga taqsimlash yoki bir ish o'rnidan ikkinchi ish o'rniga o'tkazishda ishtirok etish; - ta'lim muassasasidan tayinlangan amaliyot rahbari bilan aloqa o'rnatish va mustahkamlash; - o'quv-pedagogik amaliyotning reja-grafigi bajarilishini nazorat qilish; - o'quv-pedagogik amaliyot vazifalari va individual topshiriqlarni bajarishda talabalarga metodik yordam ko'rsatish; - talabalarning o'quv-pedagogik amaliyot das-turini bajarish natijalarini baholash.

O'quv-pedagogik amaliyot dasturiga muvofiq talabalar amaliyot kundaligini yuritadilar. U maxsus fanlar bo'yicha tutiladigan ish daftariga o'xshash bo'ladi. O'quv-pedagogik amaliyot kundaligida o'quv-pedagogik amaliyot faoliyatning barcha tashkil etuvchilari aks etadi. Bunda shuni ham e'tiborga olish lozimki, o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarishda talabalarning mustaqilligi darajasi turlichadir: u biror o'quv-pedagogik amaliyot vazifasini mustaqil bajarsa, boshqasini hamkorlikda bajaradi, boshqa hollarda o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarishda bevosita ishtirok etmaydi, balki o'rtoqlarining ishni qanday bajarishini kuzatadi, xolos. Talabalarning o'quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarishda ishtirok etish darajasi kundalikda aks etadi. Bu har bir o'quv-pedagogik amaliyot vazifasini bajarish darajasi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-pedagogik amaliyot mazmunini loyihalash va tashkil etish metodikasi o'quv-metodik majmuaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bizning nazarimizda, u oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv-pedagogik amaliyotini tashkil etish va o'tkazish tartibi haqidagi Nizomga kiritilishi lozim.

O'quv-pedagogik amaliyotni tashkil etish bo'yicha o'quv-metodik majmuani yaratishda pedagog-murabbiy ish faoliyati rejasi va uni amalga oshirish metodikasi ishlab chiqilishi lozim. Aks holda, o'quv-metodik majmua to'la yakunlangan hisoblanmaydi. Zero, unga asoslanib, o'qituvchining bevosita rahbarligida talabalar ish o'rinlarida o'quv-pedagogik amaliyotga oid



tkurli vazifalarni bajaradilar. Bu o'quv-pedagogik amaliyot jarayonini o'rganish esa, pedagogik tadqiqotning mustaqil ilmiy-amaliy masalasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" 07.02.2017 y., PF-4947, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son 448-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 5.06.2018 y., PQ-3775 Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktyabr, PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz

4. Avazov Sh. Va boshqalar. Amaliy kasbiy ta'lim metodikasi (chizmalar va jadvallarda). Toshkent, 2003. -128 b.

5. Беспалко О.В. Социальная педагогика: схемы, таблицы, комментарии (учеб. пособие). – М.: Центр учебной литературы, 2009. – 208 с. – ИСНБ 978-966-364-837-81.

6. Djuraev R.X. Organizatsionno-pedagogicheskie osnovy intensivatsii sistema professionalnoy podgotovki v uchebnykh zavedeniyaх professionalnogo obrazovaniya. Avtoref. dis. dok. ped. nauk. Sankt-Peterburg 1995. -47 s

7. Ежова Н. В., Ежов Г. И. Педиатрия. Практикум. Мн.: Выш. шк., 2004.

8. Загвязинский В.И. Теория обучения: Современная интерпретация: Учеб. пособие. - М.: «Академия», 2001.- 192 с

9. Исмадияров Я.У. Практика и организация перспективного менеджмента в педагогическом высшем образовательном учреждении. Методическое пособие. - Тошкент: ТДПУ, 2017. - 62 с.

10. Якуба Ю.А., Скакун В.А. Краткий словарь основных терминов практического (производственного) обучения, - М.: Издательство ИРПО, 1995.



ИЖТИМОЙ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЭМОЦИОНАЛ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Раҳимова Меҳрибон Абдухолисовна
Наманган давлат университети таянч докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада муаллиф бошлангич синф ўқувчиларида ижтимоий кўникмаларни шакллантиришда эмоционал интеллектнинг ўрни ва аҳамияти, ушбу муаммони ўрганганлик даражаси, ёш даври ривожланишда ўзига хос бой имкониятларга эгаллиги, боланинг мактабга бориши унинг психологик ривожланиши ва шахсининг шаклланишидаги ўрни, мактабга келиш арафасида ва ундан сўнг боланинг сўз бойлиги, ёзма нутқи, ўқувчиларда ижтимоий йўналганлик фаолияти шаклланиши натижада улар мустақил, эркин фикрлаш, объектив борлиқни идрок этиш ва зарур қарорлар қабул қилишга муваффақ бўлишлари ҳақида сўз юритилади.

Таянч сўз ва иборалар: интеллект, эмоционал интеллект, ўзаро кўникма, ўзини-ўзи бошқариш кўникмаси, ақл-заковат сўз бойлиги, ўзгани англаш, ёзма нутқ, мустақил фикрлаш, шахс қадриятлари, ижтимоий-эмоционал кўникмалар.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ

Рахимова Меҳрибон Абдухолисовна,
докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: в данной статье автор рассматривает роль и значение эмоционального интеллекта в формировании социальных навыков у младших школьников, степень изученности данной проблемы, богатый потенциал развития молодежи, роль посещения школы в психологическом развитии, формирование личности, развития письменной речи, формирование у учащихся социально-ориентированной деятельности, в результате которой они способны мыслить самостоятельно, свободно, воспринимать объективное и принимать необходимые решения.

Ключевые слова и опорные понятия: интеллект, эмоциональный интеллект, навыки самоуправления, способность к самоуправлению, интеллектуальный словарный запас, взаимопонимание, письменная речь, независимое мышление, личностные ценности, социально-эмоциональные навыки.

The very first stage of student centered lessons implementation must be effective to make sure that, teachers and students are able to make the best use of it. If the implementation process of student centralization and technology integration in teaching English as a foreign language in higher education takes place appropriately from not only higher education but the very beginning stage and the continuous maintenance are adequately provided, student centered lessons integration in schools will result in a huge success and benefits for both teachers and students. The use of student centered lessons especially in teaching and learning is more about practicality as compared to theories and that is why teachers must be given time to learn and explore it. In that case, students can obtain communicative competence being centered in the lessons. In student centered lessons student try to be close to each other, to listen each other's opinion, to be as a group and learn to work in command

In accordance with the tendency to develop not only the communicative but also the cultural competences in language teaching during student-centered lessons, there was a need to clarify the notion of authentic materials (realias) and communicative authenticity. It has been debated in Europe [Widdowson, Henry G., 1990] and The United States [Kramsch 2010, Nostrand 1989]. Therefore, we can realize the role of using videos as realias in order to teach English as a foreign language, we should not forget that finding out, and professionally using the method will show teacher's professional competence and giving this chance to students in order to make the lesson student centered. We understand this is also linguadidactic competence of teacher.

3. Conclusions

In conclusion, the results of the experience show that students' success is increased when lesson organized as student centered in teaching English as a foreign language. Moreover, practicing the skills through student centered tasks carry up student involvement and motivation mainly because these kinds of tasks are related to real life and thus leads to communication. This study suggests that students' success rises when student centered lessons is integrated in teaching and shows lingvodidactic competence of teacher.

Finally, the student centered lessons in classroom needs serious consideration in order to increase the competency of the students to be serious and able to think critically and creatively. This will help in increasing the world ranking of the national education and produce the better future work force. We should remember, that teachers' role is the key role in making implement learning languages efficiently and successfully by using effective methods and technics during teaching languages[21]. So that, we should find out the best way to motivate students to learn foreign languages in order to obtain world arenas in different spears. It can be being in the center and centered.

4. PRACTICAL RECOMMENDATIONS

Results shows that student centered lessons are more effective than traditional one. So each teacher should remember that the teacher may perform up to 6 roles in H.Morine's view [Jinga & Istrate,coord.,1998]: 1. *Information provider* Encourage intellectual rigor; engage pupils in discoveries and creative transformations; foster permanent dialogue; help pupils see the world not as a static reality, but as a reality undergoing transformation; point out the applicability of the information conveyed; be preoccupied with upgrading learning contents; assist pupils in the process of discovery, organization and systematization of knowledge, thus, preparing them to become self-taught etc. (Vaideanu, 1988; Delors, 2000]

2. *Behavior model*. Combines the behavioral science with the art of living, creating a congenial atmosphere, since students/pupils do not only get thrilled at scientific breakthroughs but they also learn to be nice people; perceives and explains multi-cultural and ethnic differences so as to provide pupils with cultural awareness and tolerance of diversity. Likewise, an efficient teacher ensures the existence of a congruency between his/her acts and words; becomes aware of the impact of his/her modeling role on the pupils' personality and hence, trying to maintain his/her integrity at all costs; is realistic about his/her own limits, trusts his/her instincts and assumes risks, treats students fairly, does not believe in the myth of the perfect teacher, is capable of admitting errors, demonstrates seriousness in dealing with students and tries to gain their trust little by little. Moreover, an efficient teacher is optimistic about students' resources and developing abilities; maintains good relationships with colleagues, collaborates with the representatives of the local community etc.. [Brookfield, 1990 & Haas, 1993]

3. *Creator of learning situations*. Enhance the pupils' ability to learn how to learn; determine the pupil to manifest his curiosity, interest by means of heuristic learning; develop the pupils' critical competence and lateral thinking, permit them to adapt to difficult situations; meet their expectations and instill a pro-active attitude to change, as a prerequisite for personal development, offering them a positive feedback; develop their capacity of active social insertion, attitudes and values that will allow pupils to take part in a social and democratic life. [Liliana-Luminita Todorescu, Maria-Monica Popescu-Mitroi, Anca Greculescu,2015]

4. *Advisor and Consultant*. Facilitates the pupil's self-knowledge (self-acceptance, positive relationships with the others, autonomy, control, goals in life, personal development); offers information on specific themes/domains; provides emotional support; develops the career planning capacity; offers assistance when pupils are in distress or face personal, family and school problems regarding adaptation and integration, relational problems with family members or classmates, financial problems etc.; is preoccupied with assurance of harmonious development of the personality: bad personality features, risky behavior, difficulties in learning, social alienation (Baban, Coord., 2001)

5. *Evaluator and therapist.* The efficient evaluator-teacher holds, harmonizes and uses assessment strategies, techniques and instruments, avoids “errors” that may appear in evaluation, takes into consideration the feedback obtained from the evaluation, focuses on the evaluation of his own activity and fosters pupils’ self-evaluation etc. From a therapist’s perspective, evaluation has no longer the role of diagnosis, but constitutes the basis of realization of some pertinent projects/plans whose main objective is to surpass difficulties and achieve formative-informative progress for all the agents involved in education. [Liliana-Luminita Todorescu, Maria-Monica Popescu-Mitroi, Anca Greculescu, 2015]

6. *Organizer and leader.* Manages the class, ensures consensus with other educational agents; carries out activities based on flexibility, adaptability and creativity; is a good organizer, takes good decisions, and builds sound relationships such as: capacity to organize pupils according to instruction duties and establish group responsibilities; capacity to establish collaborations, create an adequate studying climate and solve conflicts; capacity to take responsibility; to direct, “organize and coordinate, guide and motivate, take decisions if need be” [Jinga & Istrate, Coord., 1998, pp.81-82].

If teachers follow these recommendations students will active during lessons and lessons become student centered. Moreover, this student can be Future English teachers and such kind of lingudidactic competence is necessary for them.

References

1. Annie Y.N. Cheng, Elson Szeto (2016) Teacher leadership development and principle facilitation: Novice teacher’s perspectives. *Teaching and teacher education* Vol. 58, 140-148.
2. Baban, A. (coord), (2001). *Consiliere educationala*. Cluj-Napoca: Editura Ardealul.
3. Blanka Frydrychova Klimova / *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 158 (2014) 85 – 92
4. Brookfield, S. (1990). *The skillful teacher*. Oxford: Jossey Bass Publishers.
5. Chickering, A.W., & Ehrmann, S.G. (1996). *Implementing the seven principles: Technology as lever*. *AAHE Bulletin*, 49, 3-6
6. Corder, P. (1990). *Talking shop: Pit Corder on language teaching and applied linguistics*. In Rossner, R. And Bolitho, R. *Currents of change in English language teaching*. (pp 110-117). Oxford: Oxford University Press
7. Cullen, J.B., Long, M.C., & Reback, R. (2013). *Jockeying for position: Strategic high school choice under Texas’ top ten percent plan*. *Journal of public economics*, 97, 32-38
8. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan N PP-2909 dated 04/20/2017 “On measures for the further development of the higher education system”. “Народное слово”, April 21, 2017
9. Dumitru, I. Al. (2000). *Educatie si invatare*. Timisoara: Ed. Mirton.
10. Garrison, D.R., & Kanuka, H. (2004). *Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education*. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105
11. Ghavifekr, S., Abd Razak, A.Z., Ghani, M.F.A., Ran, N.Y., Meixi, Y. & Tengyue, Z. (2014). *ICT Integration In Education: Incorporation for Teaching & Learning Improvement*. *Malaysian Online Journal of Educational Technology (MOJET)*, 2 (2), 24-46.
12. Ghavifekr, S., Afshari, M., & Amla Salleh. (2012). *Management strategies for E-Learning system as the core component of systemic change: A qualitative analysis*. *Life Science Journal*, 9(3), 2190-2196.



13. Grabe, M., & Grabe, C. (2007). Integrating technology for meaningful learning (5th ed.). Boston, MA: Houghton Mifflin.
14. H. Douglas Brown, Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy, 2000
15. Jahjouh, Y.V.A. (2014). The effectiveness of blended e-learning forum in planning for science instruction. *Journal of Turkish Science Education*, 11(4), 3-16
16. Jeffrey, A. Craft, Teaching creatively and teaching for creativity: distinctions and relationships. *Educational Studies*, 30 (1), (2004) 77 -8
17. Jinga, I, Istrate, E.,(coord.)(1998). Manual de pedagogie. Bucuresti: Editura All.
18. Johnson, K.E.Golombek, Paula R. (2016). Mindful L2 Teacher Education: A Sociocultural Perspective on Cultivating Teachers'
19. Krathwohl DR. (2002). A Revision of Bloom's Taxonomy: An Overview. *Theory Into Practice* 41(4): 212-218
20. Komila, M. (2019) Perspective of integrated listening and speaking skills in teaching English as a foreign language. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: Special issue 7 (12) pp 98-101.*
21. Kramsch, Claire. (2010). Context and Culture in Language Teaching, OUP.M.,
22. Liliana-Luminita Todorescu, Maria-Monica Popescu-Mitroi, Anca Greculescu, 2015. Changes in students' expectations from teachers' roles in secondary education. *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 197, 190 – 196
23. Matukhin D. L., Gorkaltseva E. N. Teaching Foreign Language for Specific Purposes in Terms of Professional Competency Development. *Mediterranean Journal of Social Sciences*. – Rome-Italy: MCSER Publishing. 2015. – Vol. 6. – No 1. DOI:10.5901/mjss.2015.v6n1p525.
24. Makhkamova K.T. (2020). English teachers' professional competence by using realias in teaching. *Journal of critical review*, 206-208
25. M. Michalko, Thinkertoys Second edition, Berkeley: Ten Speed Press, (2006) p. 14.
26. Nostrand, H.L..(1989) Authentic Text-Cultural authenticity: An Editorial, *Modern Language Journal* 73/1
27. Richards, J. C. (2008). Second language teaching education today. *RELC Journal*, 39, 158-168
28. Saad, A. (2011). A case-based System for lesson plan construction (doctoral dissertation. Loughborough University.
29. Shen, Poppink, Cui, Y., & Fan, G. (2007). Lesson planning: A practice of professional responsibility and development. *Educational Horizons*, 85(4), 248-258
30. Vaideanu, G. (1988). *Educatia la frontiera dintre milenii*. Bucuresti: Editura Politica.
31. Widdowson, Henry G. (1990). *Aspects of Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press
32. William Arthur Ward Quotes <https://www.brainyquote.com> > quotes > william_arthur_award_1034063
33. <https://www.helenaldicott.com> Helen Caldicot quotes

ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР

З.Джуманазарова, НамДУ ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада ёшларни миллий гоё ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканини чуқур сингдириш, қадимий тарихимиз ва маданиятимиз, жонажон Ватанимизнинг мустақиллиги ва равнақи йўлида фидокорона курашган миллий қаҳрамонларимиз билан фахрланиш, уларга муносиб бўлиш туйғусини шакллантириш кабилар асосий вазифалар ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар : Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, ватанимизнинг бўлғуси ҳимоячиларини ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, давр талаби, ватанпарварлик инсоннинг ўз оиласига, авлод-аждодларининг ор-номусига чуқур эҳтироми, виждонига, бурчига ва ўз сўзига содиқлиги, инсонни болалик чоғидан ўз халқига, унинг анъаналарига, тили ва маданиятига муҳаббат ҳамда ҳурмат руҳида тарбия қилиш, ватан ҳисси.

К ВОПРОСУ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА

З.Джуманазарова, преподаватель НамГУ

Аннотация. Данная статья рассматривает вопросы, посвященные воспитанию молодежи в духе национальной идеологии и преданности Родине, пробуждению в их сердцах и умах того, что защита Родины - это почетный и священный долг на благо независимости и процветанию нашей Родины.

Ключевые слова : Воспитание в духе преданности Родине, воспитание будущих защитников Отечества в духе патриотизма, требований времени, патриотизма, глубокого уважения к своей семье, чести своих предков и воспитание в духе уважения, чувство родины

ON THE ISSUE OF EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM

Z.Djumanazarova, teacher at NamSU

Annotation. This article examines issues related to educating young people in the spirit of national ideology and devotion to the Motherland, awakening in their hearts and minds that the defense of the Motherland is an honorable and sacred duty for the benefit of the independence and prosperity of our Motherland.

Key words: Education in the spirit of devotion to the Motherland, education of future defenders of the Fatherland in the spirit of patriotism, the requirements of the times, patriotism, deep respect for your family, the honor of your ancestors and education in the spirit of respect, a sense of the homeland

Ватанпарвар инсонларни тарбиялашда халқимизнинг тарихий мероси катта аҳамиятга эга. Шу сабабли тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва келажак авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. 2018 йил 23 февралда эълон қилинган “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси” да ёшларни миллий гоё ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканини чуқур сингдириш, қадимий тарихимиз ва маданиятимиз, жонажон Ватанимизнинг

мустақиллиги ва равнақи йўлида фидокорона курашган миллий қаҳрамонларимиз билан фахрланиш, уларга муносиб бўлиш туйғусини шакллантириш кабилар асосий вазифалар этиб белгиланган.[1]

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида: Ватан — кишининг туғилиб ўсган ўлкаси, шаҳри, она юрти, диёри, ҳар бир фуқаро учун мамлакат, турар жой, бошпана, маскан, уй маъноларини ифодалаши кўрсатилган.

Инсон улғайган сари унинг Ватан ҳақидаги тушунчалари ҳам кенгая боради. Юртимизда туғилиб-ўсган ҳар бир инсон “Ватаним” деганида ўз уйини, қишлоғини ёки шаҳрини эмас, балки Ўзбекистон Республикасини назарда тутди. Бу эса Ватан туйғусининг, ватанпарварликнинг халқимиз қалбидаги ифодасидир. Ватан туйғуси — бу азиз ва гўзал юртимизга ҳурмат ва садоқатли бўлиш. Ватан туйғуси — бу Турон, Мовароуннаҳр, Туркистон ва ҳозирда Ўзбекистон дея аталган заминда яшаб келаётган халқимизнинг олтин меросини, унинг тарихини ўрганишга интилишдир. Ватан озодлиги учун жонини фидо қилган Тўмарис, Широқ, Спитамен, Нажмиддин Кубро, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик сингари халқимизнинг мард ва жасур фарзандлари биз учун, ўсиб келаётган ёш авлод учун ўрнак-намуна тимсолидир. Масалан, бобомиз Нажмиддин Кубронинг ўчмас жасоратини эслайлик. Бу жасорат замирида она Ватанга чексиз муҳаббат ва садоқат туйғуси ётади. Ўз даврида “Юртим, Туроним, сендан айрилмоқ — менинг ўлимим, сенинг учун ўлмоқ — менинг тириклигимдур”, деб ёзган эди Фитрат.[2]

Бу сўзларда ватанпарвар инсоннинг қалб ноалари ифодасини топган. Ўсиб келаётган ёшларни, яъни Ватанимизнинг бўлғуси ҳимоячиларини ватанпарварлик руҳида тарбиялаш — давр талаби. Ватанпарварлик инсоннинг ўз оиласига, авлод-аждодларининг ор-номусига чуқур эҳтироми, виждонига, бурчига ва ўз сўзига содиқлигидир. Агар инсонни болалик чоғидан ўз халқига, унинг анъаналарига, тили ва маданиятига муҳаббат ҳамда ҳурмат руҳида тарбия қилмасак, унда ватанпарварлик ҳисси бўлмайди. Ватан ҳисси инсонга Ватанидан олисда бўлганида яққол сезилади. Турли сабаблар билан ўзга юртларда яшаган кўплаб ватандошларимизнинг ҳаёти аянчли ва қайғули кечгани бизга тарихдан маълум. Бунинг ифодасини буюк салтанат эгаси Заҳриддин Муҳаммад Бобур ижодида ҳам кўрамиз. Бобур барча имкониятларга эга бўлишига қарамай, туғилиб ўсган Ватанидан олисда бўлгани учун ўзини бахтиёр инсон деб ҳисобламайди. Ватан равнақи — миллий ғоямизнинг юксак тушунчаларидан бири бўлиб, у фуқароларимизнинг билими ва камолига боғлиқ. Ҳар бир юртдошимиз, қайси соҳада хизмат қилишидан қатъи назар, бу ҳақиқатни тўлиқ англаган ҳолда, ўзининг маънавий камолоти учун масъулиятни ҳис этиши, шахсий манфаатларини шу юрт, шу халқ манфаатлари билан уйғунлаштириб яшаши ва ўсиб келаётган ёш авлодни комил инсон этиб тарбиялаши лозим. Шунинг учун ҳам Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаётининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятни ҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи куч сифатида намоён бўлади”, дея бу жараёнга юксак баҳо берган эди.[3]

Бугунги ёшларнинг дунёқараши, фикрлаши замон билан ҳамнафас. Ахборот асри уларни тез улғайтирмоқда. Энг ёмони, уларнинг опшоқ қоғоздек қалбига ахборотнинг бари ёзилапти. Оқи ҳам, қораси ҳам. Мурғак қалб уларни бир-биридан ажрата олмайди. Замоннинг ғоят мураккаб ва таҳликали жиҳати ҳам шунда. Шу сабабли давлат раҳбари ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, турли зарарли таъсирлардан асраш тобора муҳим аҳамият касб этаётганини доимо таъкидлаб келади. Хўш, «Ғалаба боғи» ёдгорлик

мажмуасига бунинг нима алоқаси бор, дейишга шошилманг. Интернет, замонавий ахборот технологиялари асрида яшаётган фарзанд учун аждодлар жасорати, матонатги ҳақидаги маъруза ёки учрашувлар зерикарли. Нафақат бизда, жаҳонда шундай муаммо мавжуд. Болалар тобора глобал тармоқ «фуқаролари»га айланиб боряпти. Фарзанд виртуал оламдан реал ҳаётга қайтиши, соғлом фикрлашни ўрганиши учун унга воқеликни қизиқарли қилиб тақдим этиш керак. Масалан, «Ғалаба боғи»да уруш давридаги манзара – блендажлар, пулемётлар, фашистларнинг танклари, уруш вайронгарчиликлари, халқимизнинг қаҳрамонлиги тўлиқ ифода этилган. Кўзи билан кўради, ушлайди, борингки селфи қилади. Урушнинг даҳшатини, аждодлар жасоратини бундай воситаларда кўриб, ҳис қилиб, хулоса чиқаради. Тарбияда мана шундай воситалар муҳим. Акс ҳолда Абдулла Авлоний бобомиз айтган муаммо билан юзма-юз келамиз: «Болаларини писанд қилмаган миллатлар инқирози уларни ёт қўлларга ва ёт маданиятлар ихтиёрига бериб қўйганлари сабаблики, улардан айрилишга маҳкумдирлар».[4] Айтилганига бир аср бўлибдики, моҳиятини йўқотмаган. Миллатни огоҳ бўлишга даъват этадиган кескир гап.Ёт маданият, ёт қўллар Абдулла бобомиз яшаган даврдан кўра кўпроқ исканжасига олмоқ истагида. Бизда бу исканжани қайириб ташлаш, маърифий йўл билан жавоб бериш имкони борми? Бор. Бақувват илдизларимиз, бой қадриятларимиз. «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуаси тимсолида бундай ишларни жадал ривожлантириш керак. Шундай бўляпти ҳам.Қарорга тўхталадиган бўлсақ, бундан кўзланган мақсад:

- «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуасининг фаолиятини самарали ташкил этиш;
- боғ таркибидаги «Шон-шараф» давлат музейи фондини доимий равишда бойитиб бориш;
- мазкур йўналишда илмий тадқиқот ишларини олиб бориш;
- ёшларни юксак инсонпарварлик ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини янада такомиллаштириш.

Этибор берсангиз, санаб ўтилган омилларни муштарак бир мақсад бирлаштириб туради. Бу фарзандларимизда инсонпарварлик, Ватанни севиш туйғуларини шакллантириш, ёт ва зарарли ғояларга қарши кучли иммунитетдир.

Қарорда Мудофаа вазирлиги ҳузурида юридик шахс мақомига эга бўлган давлат муассасаси шаклидаги «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуаси ташкил этилиши, мажмуа ҳудудида вазирликка қарашли Маънавият ва маърифат маркази, Ахборот ва оммавий коммуникациялар департаменти, Ҳарбий оркестрлар хизмати, Қуроли Кучлар марказий ашула ва рақс ансамблини бепул фойдаланиш ҳуқуқи асосида жойлаштирилиши, қолаверса, мажмуа ҳузурида юридик шахс мақомига эга бўлмаган «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуасини ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш белгиланган. Этиборлиси шундаки, мажмуа ҳудудида Мудофаа вазирлигига қарашли, маънавият ва маърифат масалалари билан бевосита, билвосита шуғулланувчи ташкилот ҳамда муассасалар жойлашиши ватанпарварлик тарбияси борасидаги ишларнинг уйғунлашуви ва битта негизда шаклланишига хизмат қилади. Яъни ватанпарварликни тараннум этувчи том маънодаги мажмуа пайдо бўлади. Буни мажмуанинг қарорда белгиланган асосий вазифалари ҳам кўрсатиб турибди:

- халқимизнинг ғалабани таъминлашга қўшган муносиб ҳиссасини илмий асосда ўрганиш, халқимиз ва жаҳон жамоатчилиги ўртасида кенг тарғиб этиш;



– уруш қатнашчилари ва фронт ортида фидокорона меҳнат қилганлар номини абадийлаштириш;

– юртимизга эвакуация ва депортация қилинган турли миллат вакиллари, хусусан, болаларнинг бағрикенглик билан кутиб олиниши сингари тарихий воқеаларни акс эттириш орқали ёш авлоднинг маънавий оламини юксалтириш, уларни Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялаш;

– маънавий-маърифий тадбирлар ҳамда республика ва халқаро миқёсда илмий-амалий конференциялар, семинарлар, маҳорат дарслари, ижодий кечалар, кўргазмалар ва бошқа тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш;

– Иккинчи жаҳон уруши даврига оид хорижий музей экспозициялари ва архивлари фондларини ўрганиш, Ўзбекистон халқининг ғалабага қўшган улкан хиссасини илмий асослаш учун мақсадли, фундаментал ва амалий тадқиқотлар олиб бориш ҳамда уларни кенг жамоатчиликка тақдим этиш;

– «Шон-шараф» давлат музейи фондлари ва экспозицияларини экспонатлар билан бойитиб бориш;

– Иккинчи жаҳон урушига оид музей ашёлари ва коллекцияларини сақлаш, аниқлаш, улар ҳақидаги маълумотларни чоп этиш;

– мажмуада очиқ дарс, маъруза ва семинар, талабаларнинг малакавий амалиёт ўташини ташкил этиш;

– сайёҳлар, тадқиқотчилар ва зиёратчиларга қулай шарт-шароит яратиш;

– «Шон-шараф» давлат музейи экспозициясини такомиллаштиришда замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш, илмий-тадқиқотлар ҳамда ноанъанавий кўргазмалар бўйича халқаро ҳамкорликни йўлга қўйиш.

Шунингдек, қарорга мувофиқ йўл харитаси тасдиқлангани, мудофаа вазирининг маданий ишлар бўйича маслаҳатчиси – «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуаси бошлиғи лавозими жорий этилгани, «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуаси ҳамда Ахборот ва оммавий коммуникациялар департаменти Мудофаа вазирлиги марказий аппаратининг бош бошқармасига тенглаштирилгани кўзда тутилган устувор вазифалар ижросини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Қарорга мувофиқ, Мудофаа вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий гвардия, Давлат божхона қўмитаси қўйидаги ишларни амалга оширади:

– Иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари ва фронт орти фахрийларининг қаҳрамонлигига оид материалларни тўплайди ҳамда Мажмуа таркибидаги «Шон-шараф» давлат музейи фондида сақланаётган экспонатлар ва маълумотлар асосида илмий тадқиқотлар олиб боради;

– Республика олий ва олий ҳарбий таълим муассасалари талабалари, магистрантлари ва докторантлари томонидан уруш йилларига оид илмий тадқиқот ишлари олиб боришларини ташкил этишдади;

– Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси, Фанлар академияси ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги билан ҳамкорликда мавзуга оид бадиий, илмий-оммабоп китобларни нашр этади;

– ғалабада ўзбек халқининг муносиб ҳиссасини келгуси авлодлар хотирасида сақлаб қолиш учун тадбирларни доимий равишда ўтказишдади;

– Мажмуа таркибидаги «Шон-шараф» давлат музейида Қуроли Кучлар таркибига кирувчи вазирликлар ва идораларнинг бурчаклари ташкил этилади.

Демак, аждодлар хотираси, халқимиз қахрамонлиги ва жасорати, ватанпарварлик тарбияси билан боғлиқ ишга барча бирдек масъул. Шунда маънавий асосимиз ва жамиятни ривожлантиришдаги сафарбар куч – ватанпарварлик шаклланади. Томирларимизда қон бўлиб оқади. Бир сўз билан айтганда, мазкур қарор ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш йўлидаги навбатдаги муҳим қадамдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати :

1“Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси”.2018 йил 23 феврал.

2.«Хуррият» газетасининг 1917-йил 31-октябр 47-сонида илк бор э’лон қилинган. Қайта нашри: «Фан ва турмуш» ж., 1990, 9-сон

3.Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуроли Кучлар Олий Бош Қўмондони Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Қуроли Кучлари ташкил этилганининг 25 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги.2017 й.13январ

TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK SHAKLDAGI CHEGARALANGAN PLASTINKA EGILISHLARINI KOLLOKATSIYA METODI YORDAMIDA HISOBLASH

Turdaliyev Zafarjon Saddin o‘g‘li

Jizzax politexnika instituti

“Umumtexnika fanlari” kafedrasida assistenti

turdaliyev199399@gmail.com

Аннотация: Мақолада ташқи таъсир натижасида ҳосил бўлган ҳар хил турдаги, айниқса тўртбурчаклар шаклидаги плиталарнинг эгилишларини коллокация усулида ҳисоблаш, шунингдек, ташқи таъсирлар натижасида пластинка деформацияси ҳолатларини ўрганиш кўриб чиқилади. Бунинг учун эгилишни тавсифловчи пластинканинг ён томонлари деформацияси ва ташқи кучларнинг узатилиши таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Букилиш, коллокация усули, пластинка деформацияси, ўзаро таъсирлар.

РАСЧЁТ ИЗГИБОВ ПРАВИЛЬНОЙ КВАДРАТНОЙ ГРАНИЧНОЙ ПЛИТЫ МЕТОДОМ КОЛЛЕКЦИИ

Турдалиев Зафаржон Саддин угли

Джизакский политехнический институт

ассистент кафедры «Общие технические науки»

turdaliyev199399@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается расчёт изгибов пластин различных типов, особенно прямоугольных, образованных внешним воздействием методом коллокаций, а также исследование случаев деформации пластин в результате внешних воздействий. Для этого анализируются деформация сторон пластины, характеризующая изгиб, и передача внешних сил.

Ключевые слова: Изгиб, метод коллокаций, деформации пластин, взаимодействия.

CALCULATION OF THE BENDING OF THE RIGHT SQUARE BOUNDARY PLATE BY THE COLLOCATION METHOD

Turdaliev Zafarjon Saddin oglu

Jizzakh Polytechnic Institute

Assistant of the department "General technical sciences"

turdaliyev199399@gmail.com

Annotation: *The article deals with the calculation of bends of plates of various types, especially rectangular ones, formed by external action by the collocation method, as well as the study of cases of plate deformation as a result of external influences. will be considered. For this, the deformation of the sides of the plate, which characterizes bending, and the transfer of external forces are analyzed.*

Key words: *Bending, collocation method, plate deformation, interactions.*

Keyingi vaqtlarda fan va texnikaning rivojlanishi ko'pgina injinerlik konstruksiyalari mustahkamligini hisoblash metodlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Qurilish konstruksiyalari va ishlab chiqarishning birqancha sohalarida ko'p uchraydigan to'g'ri to'rtburchak shakldagi plastinkaning chiziqli elastik deformatsiyalanish jaroyoniga duch kelamiz. Bu turdagi masalalar bilan ishlash jarayonlarida qatnashayotgan muhandislik elementlarining, deformatsiyalanganlik holatlarini yetarli darajada aniqlikda o'rganish muhim ahamiyatga ega.


Turli ko'rinishdagi plastinkalarni tashqi ta'sirlar natijasida kuchlangan, deformatsiyalangan holatlarni o'rganish, tekshirish ishlarini tahlil qilish, plastinka tomonlarining hamda tashqi kuchning berilishi bilan bog'liq deformatsiyalanishini atroflicha bosqichma - bosqich o'rganib chiqish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat muxandislik ishlarida muhim hisoblanadi. Plastinkalar va qobiqlar nazariyasining qator masalalari, berilgan chegaraviy shartli va xususiy hosilali differensial tenglamalarga keltiriladi. Bu tenglamalarni yechish va olingan yechimlar asosida plastinkaning egilishlari, zo'riqish holatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tenglamalarning ko'p hollarda aniq yechimini topish qiyin bo'ladi. Shuning uchun sonli usullarga murojaat qilinadi.

Kollokatsiya usuli - plastinkalarni egilishga hisoblashda juda samarali usul hisoblanadi. Yarim taqribiy usul - differentsial tenglamalarni berilgan chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi analitik yechimini topishga ko'maklashadi. Ushbu ishda bajarilgan hisob metodikasidan qurilmalar hisobining turdosh masalalarini yechishda, qurilmalar elementlarini loyihalashtirishda foydalanish mumkin.

Masalaning qo'yilishi. To'g'ri to'rtburchak shakldagi plastinkani qaraymiz (1-rasm). Plastinka egilish tenglamasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi [1]:

$$\nabla^4 w(x_i, y_i) = \frac{q(x_i, y_i)}{D} \quad (1)$$

Plastinka egilish funksiyasini quyidagicha tanlaymiz:



1-rasm

$$w(x, y) = \sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} X_m(x) Y_n(y), \quad (2)$$

bu yerda $X_m(x)$, $Y_n(y)$ - funksiyada

$x = 0, x = a$ va $y = 0, y = b$ tomonlardagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi; A_{mn} - noma'lum koeffitsientlar.

Berilgan kollokatsiya nuqtalari $x_i, y_i, i = 1, 2, \dots, K$; $K = M \times N$ - kollokatsiya nuqtalari soni qatorning hadlari soniga teng bo'ladi.

Kollokatsiya nuqtasi plastinka muvozanat tenglamasini qanoatlantiradi:

Masalaning yechilishi:

(1) ga (2) yechimni qo'yib quyidagini hosil qilamiz:

$$\sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} \left(\frac{\partial^4 w_{mn}(x_i, y_i)}{\partial x^4} + 2 \frac{\partial^4 w_{mn}(x_i, y_i)}{\partial x^2 \partial y^2} + \frac{\partial^4 w_{mn}(x_i, y_i)}{\partial y^4} \right) = \sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} [X_m^{IV}(x_i) Y_n(y_j) + 2 X_m''(x_i) Y_n''(y_j) + X_m(x_i) Y_n^{IV}(y_j)] = \frac{q(x_i, y_i)}{D}. \quad (3)$$

Tomonlari sharnirli mahkamlangan to'g'ri to'rtburchak shakldagi o'lchamlari $0 \leq x \leq a, 0 \leq y \leq b$ ga teng plastinkani qaraymiz.

Plastinka uchun chegaraviy shartlar quyidagicha ifodalanadi [2]:

$$\begin{aligned} w(0, y) = w(a, y) = 0; \quad M_x(0, y) = M_x(a, y) = 0; \\ w(x, 0) = w(x, b) = 0; \quad M_y(x, 0) = M_y(x, b) = 0 \end{aligned} \quad (4)$$

Eguvchi momentlarni egilish funksiyasi orqali ifodasidan quyidagi ifodalarni olamiz:

$$\frac{\partial^2 w(0, y)}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 w(a, y)}{\partial x^2} = 0; \quad \frac{\partial^2 w(x, 0)}{\partial y^2} = \frac{\partial^2 w(x, b)}{\partial y^2} = 0. \quad (4, a)$$

Chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda yechimni quyidagi ko'rinishda $X_m = \sin m\pi \frac{x}{a}, Y_n = \sin n\pi \frac{y}{b}$,

ikki karrali qator ko'rinishida tanlaymiz:

$$w(x, y) = \sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} \sin m\pi \frac{x}{a} \sin n\pi \frac{y}{b}. \quad (5)$$

(2) yechim (4) chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi.

Eguvchi momentlar quyidagi formulalar yordamida topiladi:

$$\begin{aligned} M_x &= -D \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \nu \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) = D \frac{\pi^2}{a^2} \sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} (m^2 + \nu \lambda^2 n^2) \sin m\pi \frac{x}{a} \sin n\pi \frac{y}{b} \\ M_y &= -D \left(\nu \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) = D \frac{\pi^2}{a^2} \sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} (\nu m^2 + \lambda^2 n^2) \sin m\pi \frac{x}{a} \sin n\pi \frac{y}{b}, \quad \lambda = \frac{a}{b}. \end{aligned} \quad (6)$$

(1) tenglamalar sistemasiga kollokatsiya metodini qo'llab quyidagiga kelamiz:

$$\frac{\pi^4}{a^4} \sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} [m^4 + 2\lambda^2 m^2 n^2 + \lambda^4 n^4] \sin m\pi \frac{x_i}{a} \sin n\pi \frac{y_i}{b} = \frac{q(x_i, y_i)}{D}, \quad i=1,2,3\dots K; \quad \lambda = \frac{a}{b}, \text{ yoki}$$

$$\sum_{m=1}^M \sum_{n=1}^N A_{mn} C_{mn} \sin m\pi \frac{x_i}{a} \sin n\pi \frac{y_i}{b} = \frac{q(x_i, y_i)}{D} \frac{a^4}{\pi^4}, \quad (7)$$

Bu erda $C_{mn} = m^4 + 2\lambda^2 m^2 n^2 + \lambda^4 n^4$.

Qatorning bitta hadi uchun hisoblashlarni tekshiramiz. Kollokatsiya nuqtalari sifatida plastinka markaziy nuqtasini tanlaymiz ($x_1 = a/2, y_1 = b/2$). U holda quyidagilar o'rinli bo'ladi:

$$C_{11} = 1 + 2\lambda^2 + \lambda^4; \quad \sin \pi \frac{x_1}{a} = \sin \pi \frac{y_1}{b} = \sin \frac{\pi}{2} = 1; \quad A_{1,1} = \frac{q(a/2, b/2)}{D(1 + 2\lambda^2 + \lambda^4)} \frac{a^4}{\pi^4}.$$

Tekis taqsimlangan yuklanishlar ta'sirida kvadratik plastinka markaziy nuqtasi ko'chish va eguvchi momentlarini hisoblaymiz:

$$a = b, \quad \lambda = 1, \quad \nu = 0,3; \quad w\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = \frac{1}{4\pi^4} \frac{qa^4}{D} = 0,00257 \frac{qa^4}{D};$$

$$M_x\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = M_y\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = qa^2 \frac{1,3}{4\pi^2} = 0,0329 qa^2.$$

Birinchi yaqinlashishda natijalarni ko'chish va eguvchi momentlarning aniq yechimlari bilan solishtiramiz

$$[2]: w_c^{aniq} = 0,00406 \frac{qa^4}{D}; \quad M_c^{aniq} = 0,0479 qa^2.$$

$$\delta w_c = \frac{0,00406 - 0,00257}{0,00406} 100 = 32,4\%; \quad \delta M_c = \frac{0,0479 - 0,0329}{0,0479} 100 = 31,3\%.$$

To'g'ri to'rtburchakli plastinka uchun $\lambda=1,5$ holda hisoblashlarni bajaramiz:

$$C_{11} = 1 + 1,5^2 + 1,5^4 = 10,5625; \quad w\left(\frac{a}{2}, \frac{b}{2}\right) = \frac{1}{10,5625\pi^4} \frac{qa^4}{D} = 0,972 \cdot 10^{-3} \frac{qa^4}{D};$$

$$M_x\left(\frac{a}{2}, \frac{b}{2}\right) = \frac{1 + 0,3 \cdot 1,5^2}{10,625\pi^2} qa^2 = 0,0160 qa^2; \quad M_y\left(\frac{a}{2}, \frac{b}{2}\right) = \frac{0,3 + 1,5^2}{10,625\pi^2} qa^2 = 0,0243 qa^2;$$

$\lambda = 1,5$ bu hol uchun aniq yechim quyidagiga teng [2]:

$$w_c^{aniq}|_{\lambda=1,5} = 1,525 \cdot 10^{-3} \frac{qa^4}{D}; \quad M_{x_c}^{aniq}|_{\lambda=1,5} = 0,0360 qa^2; \quad M_{y_c}^{aniq}|_{\lambda=1,5} = 0,0546 qa^2.$$

Qatorning bitta hadi uchun yechim aniqligini tog'ri to'rtburchak plastinka $\lambda=1,5$ uchun baholaymiz:

$$\delta w_c|_{\lambda=1,5} = \frac{1,525 - 0,972}{1,525} 100 = 36\%;$$

$$\delta M_{x_c}|_{\lambda=1,5} = \frac{0,360 - 0,160}{0,360} 100 = 55\%; \quad \delta M_{y_c}|_{\lambda=1,5} = \frac{0,546 - 0,243}{0,546} 100 = 55\%.$$

Yechim aniqligi qatorning bitta hadi uchun yetarli emas. Hisoblashlarni qatorning dastlabki uchta hadi uchun plastinka markaziy kesimiga nisbatan simmetrik yuklanishlarda qaraymiz:

$$w(x, y) = A_{11} X_1(x) Y_1(y) + A_{13} X_1(x) Y_3(y) + A_{31} X_3(x) Y_1(y);$$

$$X_1(x) = \sin \pi \frac{x}{a}; \quad Y_1(y) = \sin \pi \frac{y}{b}; \quad X_3(x) = \sin 3\pi \frac{x}{a}; \quad Y_3(y) = \sin 3\pi \frac{y}{b}.$$

Toq nomerli hadlar yechimni plastinka markaziga nisbatan simmetrikligini ta'minlaydi. Kollokatsiya nuqtalarini quyidagicha tanlaymiz:

$$1) x_1 = \frac{a}{2}, \quad y_1 = \frac{b}{2}; \quad 2) x_2 = \frac{a}{2}, \quad y_2 = \frac{b}{4}; \quad 3) x_3 = \frac{a}{4}, \quad y_3 = \frac{b}{2}.$$

U holda: $C_{11} = 1 + \lambda^2 + \lambda^4; \quad C_{13} = 1 + 18\lambda^2 + 81\lambda^4; \quad C_{31} = 81 + 18\lambda^2 + \lambda^4;$

$$X_1(x_1) = X_1(x_2) = Y_1(y_1) = Y_1(y_3) = \sin \frac{\pi}{2} = 1; \quad X_3(x_1) = X_3(x_2) = Y_3(y_1) = Y_3(y_3) = \sin \frac{3}{2} \pi = -1;$$

$$X_1(x_3) = Y_1(y_3) = \sin \frac{\pi}{4} = 0,7071; \quad X_3(x_3) = Y_3(y_2) = \sin \frac{3}{4} \pi = 0,7071.$$

$\lambda = 1$ kvadratlik plastinka uchun ($C_{11} = 4, \quad C_{13} = C_{31} = 100$) tekis taqsimlangan yuklanishlarda $q(x_1, y_1) = q(x_2, y_2) = q(x_3, y_3) = q$ tenglamalar sistemasining ikkinchi va uchinchilarini $\sin \frac{\pi}{4} = \sin \frac{3\pi}{4} = 0,7071$ ga bo'lib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{pmatrix} 4 & -100 & -100 \\ 4 & 100 & -100 \\ 4 & -100 & 100 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} A_{1,1} \\ A_{1,3} \\ A_{3,1} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ 1,4142 \\ 1,4142 \end{pmatrix} \cdot \frac{q_2 a^4}{\pi^4 D}$$

Tenglamalar sistemasini yechib, koeffitsientlarni aniqlaymiz:

$$A_{1,1} = 3,63 \cdot 10^{-3} \frac{qa^4}{D}; \quad A_{1,3} = 0,0213 \cdot 10^{-3} \frac{qa^4}{D}; \quad A_{3,1} = 0,0212 \cdot 10^{-3} \frac{qa^4}{D}.$$

Plastinka markaziy nuqtalari ko'chishlarini hisoblaymiz:

$$w\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = (A_{1,1} - A_{1,3} - A_{3,1}) \frac{qa^4}{D} = (3,63 - 2 \cdot 0,0212) \cdot 10^{-3} \frac{qa^4}{D} = 0,00359 \frac{qa^4}{D}.$$

$$\text{yechim aniqligini baholaymiz: } \delta w_c = \frac{0,00406 - 0,00359}{0,00406} 100 = 11,6 \%$$

Plastinka markazida eguvchi momentlar $\nu = 0,3$ bo'lgan holda quyidagicha topiladi:

$$M_x\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = M_y\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = qa^2 \pi^2 [(1 + 0,3) \cdot 3,63 - (1 + 0,3 \cdot 9) \cdot 0,0212 - (9 + 0,3) \cdot 0,0212] \cdot 10^{-3} = 0,0438 qa^2;$$

$$\text{yechim aniqligini baholaymiz: } \delta M_c = \frac{0,0479 - 0,0438}{0,0479} 100 = 8,6 \%$$

To'g'ri to'rtburchak plastinka uchun $\lambda = 1,5$, kollokatsiya nuqtalarini quyidagicha tanlaymiz: $x_1 = \frac{a}{2}, \quad y_1 = \frac{b}{2}$

; $x_2 = \frac{a}{2}, \quad y_2 = \frac{b}{4}; \quad x_3 = \frac{a}{4}, \quad y_3 = \frac{b}{2}$, u holda quyidagi natijalarga ega bo'lamiz:

$$C_{11} = 1 + 1,5^2 + 1,5^4 = 10,56; \quad C_{13} = 1 + 18 \cdot 1,5^2 + 81 \cdot 1,5^4 = 451,56;$$

$$C_{31} = 81 + 18 \cdot 1,5^2 + 1,5^4 = 126,56;$$

$$X_1(x_1) = X_1(x_2) = Y_1(y_1) = Y_1(y_3) = \sin \frac{\pi}{2} = 1; \quad X_3(x_1) = X_3(x_2) = Y_3(y_1) = Y_3(y_3) = \sin \frac{3}{2} \pi = -1;$$

$$X_1(x_3) = Y_1(y_3) = \sin \frac{\pi}{4} = 0,7071; \quad X_3(x_3) = Y_3(y_2) = \sin \frac{3}{4} \pi = 0,7071.$$

$$\begin{pmatrix} 10,56 & -451,56 & -125,56 \\ 10,56 & 451,56 & -125,56 \\ 10,56 & -451,56 & 125,56 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} A_{1,1} \\ A_{1,3} \\ A_{3,1} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ 1,4142 \\ 1,4142 \end{pmatrix} \cdot \frac{q_2 a^4}{\pi^4 D}.$$

Tenglamalar sistemasini yechib, quyidagilarni topamiz:

$$A_{1,1} = 1,374 \cdot 10^{-3} \frac{q_2 a^4}{D}; \quad A_{1,3} = -0,00471 \cdot 10^{-3} \frac{q_2 a^4}{D}; \quad A_{3,1} = 0,0169 \cdot 10^{-3} \frac{q_2 a^4}{D};$$

Plastinka markazida ko'chish va eguvchi momentlarni hisoblaymiz:

$$w\left(\frac{a}{2}, \frac{b}{2}\right) = (A_{1,1} - A_{1,3} - A_{3,1}) \frac{qa^4}{D} = (1,374 - 0,00471 - 0,0169) \cdot 10^{-3} \frac{qa^4}{D} = 1,352 \frac{qa^4}{D}.$$

$$\text{yechim aniqligi: } \delta w_c = \frac{1,525 - 1,374}{1,525} 100 = 11,3 \%$$

Eguvchi momentlar plastinka markazida $\nu = 0,3$ uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$M_x\left(\frac{a}{2}, \frac{b}{2}\right) = qa^2\pi^2\left[\left(1 + 0,3 \cdot 1,5^2\right) \cdot 1,374 - \left(1 + 0,3 \cdot 1,5^2 \cdot 9\right) \cdot 0,00471 - \left(9 + 0,3 \cdot 1,5^2\right) \cdot 0,0169\right] \cdot 10^{-3} = 0,02105qa^2;$$

$$M_y\left(\frac{a}{2}, \frac{b}{2}\right) = qa^2\pi^2\left[\left(0,3 + 1,5^2\right) \cdot 1,374 - \left(0,3 + 1,5^2 \cdot 9\right) \cdot 0,00471 - \left(0,3 \cdot 9 + 1,5^2\right) \cdot 0,0169\right] \cdot 10^{-3} = 0,0328qa^2;$$

$$\text{yechim aniqligi: } \delta M_{xc} = \frac{0,036 - 0,02105}{0,036} 100 = 41,5 \%; \quad \delta M_{yc} = \frac{0,0546 - 0,0328}{0,0546} 100 = 40 \%.$$

Qaralgan misollardan ko'rinadiki yechimni aniqligi faqat qatorning hadlari soniga bog'liq emas, balki plastinka tomonlari orasidagi munosabatga ham bog'liqekan.

Kvadratik plastinka uchun aniqlik qatorning dastlabki uchta hadi olingan hol bilan bitta had olingandagi natijalar solishtirilganda aniqlik egilishlarda va eguvchi moment son qiymatlarida uch marta oshadi. To'g'ri to'rtburchak shakldagi $\lambda = 1,5$ plastinkalarda esa bu aniqlik oshishi faqat egilishlarda kuzatiladi, eguvchi moment uchun esa o'zgarmaydi.

Natijalar aniqligi kollokatsiya nuqtalarining tanlanishiga bog'liqligini ko'rsatamiz. Qatorning uchta hadi uchun kollokatsiya nuqtalarini almashtiramiz:

$$x_1 = \frac{a}{2}, \quad y_1 = \frac{b}{2}; \quad x_2 = \frac{a}{2}, \quad y_2 = 0,15b; \quad x_3 = 0,15a, \quad y_3 = \frac{b}{2}.$$

Bu holda kvadratik plastinka uchun kollokatsiya metodini qo'llaymiz $\lambda = 1$:

$$w\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = 0,00443 \frac{qa^4}{D}; \quad M_x\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = M_y\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = 0,0529 qa^2;$$

yechim aniqligi:

$$\delta w_c = \left| \frac{0,00406 - 0,00443}{0,00406} \right| 100 = 9,2 \%; \quad \delta M_c = \left| \frac{0,0479 - 0,0529}{0,0479} \right| 100 = 10,4 \%;$$

To'g'ri to'rtburchak plastinka uchun $\lambda = 1,5$:

$$w\left(\frac{a}{2}, \frac{b}{2}\right) = 0,00167 \frac{qa^4}{D}; \quad M_x\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = 0,0247 qa^2; \quad M_y\left(\frac{a}{2}, \frac{a}{2}\right) = 0,0397 qa^2;$$

$$\text{yechim aniqligi: } \delta w_c = \frac{1,525 - 1,67}{1,525} 100 = 9,4 \%;$$

$$\delta M_{xc} = \frac{0,036 - 0,0247}{0,036} 100 = 31,4 \%; \quad \delta M_{yc} = \frac{0,0546 - 0,0397}{0,0546} 100 = 27,2 \%.$$

Olingan natijalardan ko'rinadiki, kvadratik plastinka uchun kollokatsiya nuqtalarini to'g'ri tanlash egilishlar qiymatlari aniqligini oshiradi, eguvchi momentlar aniqligini kamaytiradi. Bunda ham egilish ham momentlarning qiymatlari aniq bo'lishi hamda mos aniq hisob qiymatlaridan kichikroq bo'lishi lozim.

To'g'ri to'rtburchak plastinka uchun kollokatsiya nuqtalarini to'g'ri tanlash egilishlar qiymatlari aniqligini oshiradi, eguvchi momentlar aniqligini esa yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Филиппов И.Г., Чебан В.Г. Математическая теория колебаний упругих и вязкоупругих пластин и стержней. Кишинев: Штиинца, 1988. – 188 с.

2. Мирзакобилов Н.Х. Колебания трехслойных пластин частного вида: Дис. канд. техн. наук. М., 1992. – 139 с.

3. Коган Е. А., Юрченко А. А. Нелинейные колебания защемленных по контуру трехслойных пластин // Проблемы машиностроения и надежности машин. 2010. № 5. С. 25–34.

4. В. Дьяконов. MAPLE 7: Учебный курс СПб.: Питер, 2002. — 672 с.

5. Самуль В.И. Основы теории упругости и пластичности: Учеб. пособие для вузов/В.И. Самуль.- 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Высшая школа», 1982.-264с.



6. Александров А.В., Потапов В.Д. Основы теории упругости и пластичности. – М.: «Высшая школа», 2004. – 380 с.

7. Варвак П.М., Варвак Л.П. Метод сеток в задачах расчета строительных конструкций. – М.: Стройиздат, 1977. – 160 с.

8. Иванов В.Н. Вариационные принципы и методы решения задач теории упругости. – М.: Изд-во РУДН, 2001. – 176 с.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEK XALQINING FRONT ORTIDAGI JASORATI

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi,
tarix fanlari nomzodi U.A.Saliyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushi, uning oqibatlari, ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining front ortidagi jasorati, front ortidagi vaziyat va olib borilgan ishlar haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, ikkinchi jahon, arxiv, hujjat, qo‘mondon, xodim, olim, jahon urushi, adolatli urush, safarbarlik, harbiy iz, fidokorona mehnat, gumanizm. baynalmillik.

COURAGE OF THE UZBEK PEOPLE BEHIND THE FRONT DURING THE SECOND WORLD WAR

Fergana Public Health Medical Institute
Senior Lecturer, Department of Social Sciences,
Candidate of Historical Sciences U.A.Saliyev

Annotation: This article provides information about the Second World War, its consequences, the courage of the Uzbek people behind the front during the Second World War, the situation behind the front and the work done.

Keywords: history, second world, archive, document, commander, employee, scientist, world war, just war, mobilization, military footprint, selfless labor, humanism. internationalism.

МУЖЕСТВО УЗБЕКСКОГО НАРОДА ЗА ФРОНТОМ ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Ферганский медицинский институт здравоохранения
Старший преподаватель кафедры социальных наук,
Кандидат исторических наук Салиев У.А.

Аннотации: В статье представлена информация о Второй мировой войне, ее последствиях, мужестве узбекского народа в тылу во время Второй мировой войны, обстановке в тылу и проделанной работе.

Ключевые слова: история, второй мир, архив, документ, командир, служащий, ученый, мировая война, справедливая война, мобилизация, военный след, самоотверженный труд, гуманизм. интернационализм.

Insoniyat tarixida ikkinchi jahon urushi yeng katta fojialardan biri sifatida o'rin yegallagan. Bu urushga jahonning 72 mamlakati qo'shilib, ulardagi armiyalar safiga 110 mln kishi safarbar qilingan yedi. Urush davomida qariyb 55 mln kishi o'ldirilib, minglab shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, madaniyat obidalari, kommunikasiya va irrigasiya inshootlari vayronaga aylantirilgan yedi. Ko'rilgan zarar va sarflangan mablag'larning umumiy miqdori 4 trln. dollarni tashkil qildi. Shu o'rinda savol tug'iladi: ikkinchi jahon urushi boshlanishining sabablari nimada? Uning oldini olish mumkin yedimi, yoki u muqarrar ravishda boshlanishi kerak yedimi? XX asrning 30 yillarida jahonda vujudga kelgan ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish asosida bu savolga javob berish mumkin.

Ikkinchi jahon urushining ildizlari 20-30 yillarda butun dunyoni qamrab olgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy tanglikka borib taqaladi. Tanglik natijasida jahonning yetakchi mamlakatlari o'rtasida ziddiyatlar g'oyat kuchayib ketadi va oxir oqibatda ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib keladi.

30-yillar oxirlarida xalqaro keskinlikning va ikkinchi jahon urushining boshlanishida Stalin boshliq sovet rahbarlari kapitalistlarni o'zaro urushtirib, ularning kuchi kamayishi bilan qizil armiya kuchlarining qaqshatqich zarbasini berishga intilishlari va aynan shu maqsadda 1939-yil 23-avgustda Germaniya bilan 10 yil muddatga o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomasi ularning javobgarliklarini tashkil qiladi.

1939-yil oxiri – 1940-yil boshlarida bo'lgan sovet-fin urushi natijasida Finlandiya Leningrad va Murmansk oralig'idagi o'z yerlarini SSSRga berishga majbur bo'ldi. 1940 yil iyunda Estoniya, Latviya va Litva davlatlarini bosib olib, avgust oyida o'z tarkibiga kiritdi. O'z hududlarini bunday kengaytirish siyosati Germaniya va SSSRni 1939-1940 yillarda yanada yaqinlashtirdi. G'arbiy Yevropada fashistlar Germaniyasi Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Lyuksemburg kabi davlatlar poytaxtlarini bosib olganda, sovetlar hukumati nemis qo'mondonligini tabriklab borgan.

1941-yil 22-iyul yakshanba kuni tongotarida avgust shartnomasini buzib, fashistlar Germaniyasi SSSR ga hujum boshladi. Germaniya bilan uning ittifoqchilari-Italiya, Finlandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar. Bu urushga majburan tortilgan Sovet Ittifoqi xalqlari mustamlaka asoratida bo'lgan barcha respublikalar shu jumladan, O'zbekiston xalqlari uchun og'ir sinovlar vaqti va ularning nemis fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq, butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham partiya tashkilotlari tomonidan mitinglar va yig'ilishlar tashkil qilindi. 1941-yil 22-iyundayoq Toshkent to'qimachilik kombinatining ishchilari ana shu daqiqadan boshlab o'zlarini Vatan himoyasiga safarbar qilingan deb hisoblashlarini bildirdilar. 23-24 iyunda Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Nukus va boshqa shaharlardagi yig'ilishlarda Vatan himoyasi uchun har qanday vazifani bajarishga shay ekanliklarini bildirgan o'zbekistonliklar harbiy komissarliklarga frontga ko'ngilli sifatida jo'natishlarini so'rab arizalar bera boshladilar.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza tushgan. Bu o'zbekistonliklarning o'z vatanparvarlik burchlarini, har bir urush insoniyat boshiga kelgan ofat ekanligini yuksak darajada anglab, urush olovini yoquvchilarga qattiq nafrat bilan qarashliklarini ko'rsatadi. Chunki boshlangan urush yuqori hokimiyat rahbarlari orasida sarosimalikni keltirib chiqargan bo'lib, faqat 29 iyundagina Xalq Komissarlari Kengashi nomidan joylarga ko'rsatmalar jo'natib, unda urush ahvolni keskin o'zgartirib yuborganligi,



Vatan jiddiy xavf ostida qolganligi, barcha ishlarni harbiy izga solish uchun tez va qat'iy ravishda qayta qurishni amalga oshirish zarurligi ko'rsatilib, "hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" chaqirig'i talab darajasiga ko'tarilgan edi. 1941-yil 30-iyunda I.V.Stalin boshchiligida Davlat Mudofaa Qo'mitasi tashkil etilib, davlat, harbiy va partiyaviy hokimiyat uning qo'liga o'tdi. Stalin hukumat nomidan 3 iyulda radio orqali xalqqa murojaat qilib, haqiqiy ahvolni bayon qildi. Qurolli kuchlarga strategik rahbarlikni amalga oshirish uchun Oliy Bosh Qo'mondon Qarorgohi tashkil etilib, 8 avgustda Stalin Oliy Bosh Qo'mondon lavozimini qabul qildi. Barcha muhim harbiy-siyosiy qarorlarni qabul qilish haqiqatdan uning qo'lida to'plangan bo'lib, bu qarorlar DMQ yoki VKP (b) MQ Siyosiy byurosining qarorlari sifatida rasmiylashtirilgan.

Urushning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning barcha moddiy va ma'naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlandi. Umumiy harbiy safarbarlik e'lon qilindi.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941-yil iyundan 1942-yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo'mondonlik qarorgohi rezerviga 86 diviziya va brigada jo'natdi.

O'zbekiston hukumati milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo'shilma, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo'natildi. Umuman, urush boshlarida 6,5 million kishidan iborat bo'lgan O'zbekiston aholisining 1.433.230 tasi urushga safarbar etilgan. Ularning ko'pchiligi mardlik namunalari ko'rsatib, jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Chunki ota va onalar, O'zbekiston xalqi o'z o'g'lonlarini frontga jo'natar ekanlar, ularga bosqinchilarga qarshi sharaf bilan kurashish, o'tmishda bosqinchilarga qarshi kurashlarda g'olib chiqqan qahramonlarning jangovar jasoratlaridan namuna olishni, mard, botir askar bo'lib, dushmanlar ustidan g'alaba qozonishlarini tilab qolgandilar.

Respublika hukumati 1941-yil sentyabr-dekabrda O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishni harbiy izga moslab qayta qurishning umumiy rejalarini belgilab berdi. Qabul qilingan qarorlarda xalq xo'jaligini qayta qurishga doir aniq vazifalar belgilangan bo'lib, sanoat korxonalarining mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarishga o'tish muddatlari belgilanib, ichki imkoniyatlardan foydalanish tavsiya etilgan.

Kadrlar, xom-ashyo, ishlab chiqarish vositalari tanqisligiga qaramasdan 1941-yil dekabrdayoq respublikadagi 30 ga yaqin korxonalar mudofaa uchun mahsulot bera boshladi. Korxonalarda front brigadalari nomini olgan brigadalar tuzila boshladi, dastlab oktyabrda "Tashselmash" zavodida tashkil etilgan bo'lsa, 1942-yil boshlarida ularning soni 1,5 mingga yetgan. 1942-yil o'rtalariga kelib xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga o'tkazish O'zbekistonda asosan oxiriga yetkazildi.

Aholi tomonidan issiq kiyimlar to'plash va tayyorlash keng avj oldi. Respublika aholisi urushning dastlabki olti oyi mobaynida 421,5 mingta turli issiq kiyimlar frontga yubordi. Jangchilar uchun to'plangan buyumlar, oziq-ovqatlarni O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining rayisi Y. Oxunboboyev (1885-1943) rahbarligidagi delegatsiya frontning oldingi marralariga yetkazib berdi.

Mustabid tuzum tazyiqi, qatag'onlarga qaramasdan o'zbekistonliklarning ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan yuksak vatanparvarlik namunalari bu xalqning ko'p ming yillik tarixga, boy ma'naviy merosga ega ekanligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini bir xilda his qilishini ko'rsatadi.



Urushning og'ir yillarida o'zbek xalqining asosiy ma'naviy-ahloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo'ldi, ya'ni yurtboshimiz aytganlaridek: "tarixning o'yini ham, omomsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushira olmadi".

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab butun mamlakatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham oziq-ovqat va sanoat mollari kamayib ketdi. Aholining ahvoli keskin yomonlashdi. Shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash "chiptalar" bo'yicha amalga oshirila boshlandi. Ishchilar va xizmatchilar kuniga faqat 400-500 gr. past navli non olardi, qaramog'dagilar esa, yuqoridagi miqdordan 1,5 barobar kamroq olishardi. Aholiga go'sht, baliq, yog', yorma, makaron sotishda ham me'yorlangan taqsimot joriy qilindi. Me'yorlangan taqsimot qishloq aholisiga umuman tadbiiq etilmagan. Qishloq mehnatkashlari mehnat kunlariga oladigan natura (mahsulot bilan) to'lovi va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlanishlari lozim edi. Lekin bu mahsulotlar juda cheklangan miqdorda edi. 4 yil urush mobaynida kolxozlar dehqonlarga amalda pul to'lamaganlar va mehnat kunlariga nihoyatda kam miqdorda mahsulot berganlar. Urush tufayli qiyin va og'ir sharoitda qolganiga qaramasdan ko'chirib keltirilganlarga, yarador va nogironlarga, frontga ketganlarning xotinlari va bolalariga ko'rsatgan g'amxo'rliqi o'zbek xalqining birlik va qardoshlarcha do'stlikka insonparvarlik bilan intilishining yorqin timsoli, ulkan ahloqiy kuch-qudrati va haqiqiy samimiy olijanobligining chin ma'nodagi isboti bo'ldi.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941 yil oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt, tashkil etilib, joylashtirish bo'yicha respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tuzildi. Faqat 1941 yil 25 noyabrda 1942 yil oktyabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o'tdi. Ko'pgina oilalar ikki va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik Shomahmudovlar turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. F. Qosimova 10, M. Jo'rayeva va Ashurxo'jayevalar 8 bolani o'z oilalariga oldilar. 1943 yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo'lsa, 1945 yilga kelib, ularning soni O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga yetdi. 1943 yilda bolalar bog'chalarida tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi. Yuqoridagi aniq dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo'lgan mehr-muhabbatining, bag'rikenglik fazilatlarini aks ettiradi.

Urush yillarida O'zbekistonga frontda yarador bo'lgan jangchilar ko'plab keltirildi. Urush boshlangandayoq respublika hukumati gospital bazasini tashkil qilishga kirishgan edi. 1941 yil 1 oktyabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega bo'lgan 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Faqat Moskva, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o'rin-karovatga ega bo'lgan 48 gospital respublikamizga ko'chirib keltirildi va ishga tushirildi. Evakuatsiya qilingan gospitallarga Toshkentdagi va O'zbekistonning boshqa yirik shaharlardagi eng yaxshi binolar ajratib berildi. 1942 yilning oxirida O'zbekiston hududida 39140 o'ringa ega bo'lgan 113 ta evakuatsiya gospitallari joylashtirildi. Urush yillarida bu gospitallarga 164382 yarador keltirilgan bo'lib, ulardan 87 foizi davolanib chiqdi. Davolanayotgan jangchilar uchun to'laqonli ovqatlanishni tashkil qilish

uchun 750 dan ortiq korxonalar, tashkilot, kolxoz va savxozlar gospihallarni otaliqqa oldi va butun o'zbek xalqi yaradorlarga g'amxo'rlik qildi.

1945-yil Gitler Germaniyasiga qarshi olib borilgan urush g'alaba bilan yakunlandi. Urush maydonlarida o'zbekistonliklar to'kkan qon, yuz minglab berilgan qurbon bejiz ketmadi. Jahon fashizm vabosidan asrab qolindi.

3. Urush yillarida o'zbek ziyolilarining minglab namoyondalari frontga safarbar qilindi, mamlakat ichkarisida qolganlari o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan fashistlar ustidan g'alaba qozonishga munosib hissa qo'shdilar.

Urushning birinchi kunlaridanoq O'zbekiston olimlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari professor o'qituvchilari xo'jalikni harbiy izga ko'chirib uni front yehtiyolariga bo'ysuntirish bilan bog'lik muammolarni hal qilishga kirishdilar. Bu boradagi ilmiy va tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish sobiq SSSR FA ning O'zbekiston filiali va keyinroq, 1943 yil 4 noyabrda uning asosida tashkil yetilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi zimmasiga tushdi. Bu akademiyaning birinchi prezidenti yetib T.N. Qori-Niyoziy saylandi. Respublika olimlari faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri mudofaa ahamiyatiga yega bo'lgan mahalliy hom-ashyoni o'rganish va o'zlashtirish, yangi resurslarni izlab topish va ulardan foydalanish, korxonalar va dehqonchilik xo'jaliklariga amaliy ilmiy-texnikaviy yordam ko'rsatishdan iborat yedi. Masalan, O'rta Osiyo Industrial instituti va SAGU xodimlari Angren ko'miridan, kauchukli o'simlik va alinutlardan faollik bilan foydalanish yuzasidan tadqiqot ishlari olib bordilar. Agrar iqtisodidagi institutlarning olimlari hosildorlikni oshirish va yangi qishloq xo'jalik yekinlarini joriy qilish, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish usullarini ishlab chiqdilar. Kimyogar olimlar kam uchraydigan materiallarning o'rnini bosuvchi va turli chiqindilardan qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarish usullarini topdilar. Ishlab chiqarishni kengaytirish va hom ashyo manbalarini qidirib topish maqsadida geolog olimlar faqat 1943 yilning o'zida 35 yekspedisiya tashkil qildilar. Matematika, fizika, mexanika, yenergetika olimlarning ilmiy izlanishlari metallni qayta ishlash, mashinasozlik va mudofaa sanoati boshqa tarmoqlarining rivojlanishini ta'minladi. O'zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari kommunistik mafkura doirasida bo'lsada fashizm mafkurasiga qarshi kurashga, gitlerchilarning bosqinchilik faoliyatini fosh qilishga, xalqimizning yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan qator ilmiy-ommaviy asarlar yaratdilar.

Urush davrida SSSR ning g'arbiy xududlaridan ko'chirilib keltirilgan olimlar O'zbekiston olimlari bilan mustahkam aloqada ish olib bordilar. O'zbek olimlarining urush davridagi ilmiy izlanishlari front, aholi, xalq-xo'jaligi va g'alaba uchun beqiyos ahamiyatga yega bo'ldi. Urush davridagi katta qiyinchiliklarga qaramay respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari malakali kadrlar tayyorlash yuzasidagi o'z faoliyatlarini davom yettirdilar. Hammasi bo'lib 20 mingdan ortiq oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlandi. Qiyinchiliklarga qaramay oliy maktab rivojlanib bordi. 1945 yilga kelib oliy o'quv yurtlarning soni urushdan oldingi davrga nisbatan 3 taga ko'paydi. Urush umum ta'lim maktablarining faoliyatini g'oyat murakkablashtirib yubordi. O'qituvchilarning ancha qismi harbiy xizmatga chaqirilib, yuqori sinf o'quvchilarining ko'plari ishlab chiqarishga ketib qolishi oqibatida maktablar, o'qituvchi va o'quvchilarning soni birmuncha kamaydi. Bundan tashqari maktab binolarining bir qismi gospihallarga va harbiy mashq punktlarga aylantirilgan yedi. Natijada faqat 1942-43 o'quv yilida 210 ta maktab faoliyati to'xtatildi. Maktablarni yoqilg'i, darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash juda ham qiyinlashdi. Lekin sharoit og'irligiga qaramay

boshlang'ich va o'rta maktablarining asosiy qismi o'z faoliyatini to'xtatmadi, ularning tarmog'i, ta'lim tizimi saqlab qolindi.

Og'ir sinov yillarida fashizmga qarshi umumxalq kurashiga o'zbek adabiyoti va san'ati ham o'z hissasini qo'shdi. Shoir va yozuvchilar, dramaturg va publisistlar xalqni fashistlarga qarshi chuqur nafrat va g'alabaga so'zsiz ishonch ruhida tarbiyalaydigan yangi-yangi asarlar ustida ish olib bordilar. Oybekning "Yovga o'lim" she'ri, "Navoiy" romani, H.Olimjonning "O'lim bosqinchilarga", G.G'ulomning "Sen yetim yemassan", "Men yahudiy" kabi asarlari jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovar bo'ldi. Uyg'un, Islom shoir, M.Shayxzoda, S.Abdulla singari shoirlar ham harbiy lirikaning maydonga kelishida faol ishtirok yetdilar.

Yozuvchilar va shoirlar o'z asarlari qahramonlarning obrazlarini bevosita frontlarda bo'lib, jangchilar bilan uchrashib, birga yashab ularning qahramonliklarini ba'zan hayotlarini xavf ostida qoldirib bo'lsada, o'z ko'zlari bilan ko'rib, undan g'oyaviy ta'sirlanib yaratdilar. O'zbekistonga urush yillari ko'plab yozuvchilar, shoirlar, san'atkorlar ko'chirib keltirildi. Ular orasida nafaqat mamlakat miqyosida, balki butun dunyoga tanilgan A.Axmatova, Ya.Kolas, N.Pogodin, A.Tolstoy, V.Yan kabi yozuvchilar, shoirlar bor yedi. O'zbek adiblari ular bilan hamkorlikda ko'plab kapital asarlar yaratdilar. "Biz yengamiz" almanaxi, "O'zbekistonlik shoirlar frontga" antalogiyasi shular jumlasidandir. Urush yillarida o'zbek teatr san'ati ham katta hajmdagi vazifalarni bajardi. Bu davrda O'zbekistonda 35 ta mahalliy, 56 ta yevakuasiya qilingan teatrlar ishladi. 1941 yilning iyulidan 1944 yilgacha ular 203 ta yangi postanovka qo'yib 13568 ta spektakl va konsert ko'rsatdilar. Urush yillarida respublika san'at xodimlari 30 dan ortiq konsert brigadalari tarkibida harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq konsert berdilar. Brigadalar tarkibida Tamaraxonim, H.Nosirova, S.Yeshonho'jayeva, M.Turg'unboyeva, A.Hidoyatov, O.Yoqubov, K.Zokirov, Sh.Burhonov va boshqa san'at arboblari bor yedi. Urushdagi g'alabaga o'zbek kino, sirk san'atlari ustalari, rassomlar, kompozitorlar, haykaltaroshlar, matbuot xodimlari xalq qahramonligini tarannum yetuvchi, xalqimizni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga hizmat qiluvchi asarlar bilan beqiyos hissa qo'shdilar.

Urush xalqlar o'rtasidagi do'stlikni, baynalminal birlikni mustahkamladi. Lekin Stalin boshchiligidagi rahbariyat urush yillarida milliy siyosatda kechirib bo'lmas zo'ravonlikni amalga oshirdi. 1941-1945 yillarda Volga bo'yi nemislari, qalmiqlar, chechenlar, ingushlar, qrim tatarlari, qorachoylar, balqarlar, mesxeti turklariga mansub bo'lganlar to'lasincha, qisman litov, latish, yeston, polyak, yunonlar majburiy ravishda o'z ona yurtlaridan badarg'a qilindilar. Ularning umumiy soni 3 mln 226 ming kishidan ortiq yedi. Ko'chirish ular uchun chinakam fojiga aylandi. Ko'chirish vaqtida, maxsus posyolka va lagerlarda deyarli 200 ming chechen va ingush, 120 ming qalmiq (xalqning yarmi), 40 ming qorachoylik (millatning uchdan bir qismi), 20 ming balqar (millatning yarmi) halok bo'lgan yedi. Stalin va uning atrofida gilar o'zlarining harakatlarini fashistlar okkupatsiyasi davrida ayrim maxs va guruhlarining xoinligi uchun berilgan jazo, sovet mamlakati xavfsizligini qo'riqlash deb bahona qildilar. Aslida bu zo'ravonlikdan ko'zlangan maqsad barcha milliy respublikalar aholisi ruhini tushirish, ularda qo'rquv hissini kuchaytirish yo'li bilan tuzumni mustahkamlashdan iborat yedi. O'zbekistonga 150 mingdan ortiq qrim tatarlar, 175 ming chechen, 157 ming ingush, 4,5 ming balkar, armani va greklar ko'chirib keltirildi. Keyinchalik mesxeti turklar ham ko'chirib kelindi. Stalin ma'muriyati tomonidan ular "dushman sheriklari" deb ye'lon qilinganligiga, majburiy-taqiqlovchi to'siqlar borligiga qaramay o'zbek xalqi ularga mehr-shafqat ko'rsatdi. Kelganlarga

sharoitlar yaratib, uy, yer sotib olish va imorat qurish uchun qarz ajratildi, oziq-ovqat bilan yordam berildi.

Shunday qilib, o'zbek xalqining urush frontlaridagi jasorati, mamlakat ichkarisidagi fidokorona mehnati ikkinchi jahon urushi g'olibona tugallanishining bevosita tarkibiy qismi bo'ldi.

Urushdan keyingi yillarda halok bo'lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida «Xotira» kitoblari tuzildi. Bu xayrli ishga ayniqsa mustaqillik yillarida katta etibor berilmoqda. Poytaxtimiz Toshkenda Xotira maydoni va motamsaro ona yodgorlik majmuasi tiklandi. Viloyat markazlarida ham yodgorlik majmualari barpo etildi. Bu ishlarga boshchilik qilgan yurtboshimiz farmoni bilan 9 may «Xotira va qadrlash» kuni deb e'lon qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007.
5. O'zbekiston tarixi (1917-1993 yillar). –T. O'qituvchi, 1994.
6. Karimov Sh. G'alabaga qo'shilgan hissa. –T., O'zbekiston, 1990.
7. O'zbekiston tarixi va madaniyati. –T., O'zbekiston, 1992.
8. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). –T. Sharq, 2000.
9. O'zbekistonning yangi tarixi. 2 kitob. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. –T. Sharq, 2000.
10. O'zbekiston tarixi. T. Yangi asr avlodi. 2003.

“ФИЗИКА” ФАНИДА ИНТЕРАКТИВ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ АМАЛИЙ МАШГУЛОТЛАР САМАРАСИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Ахмедов Эркин Рахмонович

п.ф.б.ф.д (PhD) Жиззах политехника институти
ahmedov@bk.ru

Хамидов Одил Абдурасулович

п.ф.б.ф.д (PhD) Жиззах политехника институти
odil@bk.ru

Аннотация. Мақолада техника йўналиши олий таълим муассасалари талабаларига “Физика” фанини ўқитишда интерактив методларни жорий этиш, “Физика” фанини ўрганишда талабаларнинг ижодий фикрлашни ривожлантириш, интерактивлик асосида машгулотни ташкил этиш, амалий машгулотларни ўқитишда ўқитувчига қўйиладиган вазифалар, интерактив таълим ҳақидаги маълумотлар баён қилинган.

Калит сўзлар: интерактив метод, интерактив таълим, “Физика” фанини ўқитиш, амалий машгулот, ўқув жараёни, педагогик технология

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗА СЧЕТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ФИЗИКЕ

Ахмедов Эркин Рахмонович



p.f.b.f.d (PhD) Джизакский политехнический институт
axmedov@bk.ru
Хамидов Одил Абдурасулович
p.f.b.f.d (PhD) Джизакский политехнический институт
odil@bk.ru

Аннотация. В статье рассматривается о внедрении интерактивных методов в преподавании «Физики» студентов технических вузов, развитии творческого мышления студентов при освоении «Физики», организации интерактивных уроков, задачи преподавателя при преподавании практических занятий, уроки, информация об интерактивном обучении.

Ключевые слова: интерактивный метод, интерактивное обучение, обучение «Физика», практические занятия, учебный процесс, педагогическая технология.

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE PRACTICAL ACTIVITY OF SCIENCE USING INTERACTIVE METHODS IN PHYSICS

Akhmedov Erkin Rakhmonovich
p.ph.b.f.d (PhD) Jizzakh Polytechnic Institute
axmedov@bk.ru
Khamidov Odil Abdurasulovich
p.ph.b.f.d (PhD) Jizzakh Polytechnic Institute
odil@bk.ru

Annotation. The article describes the introduction of interactive methods in teaching "Physics" to students of technical higher education institutions, the development of students' creative thinking in the study of "Physics", the organization of interactive lessons, the tasks of the teacher in teaching practical lessons, information about interactive education.

Keywords: interactive method, interactive education, teaching "Physics", practical training, educational process, pedagogical technology

Бутунги кунга келиб, техника йўналиши олий таълим муассасаларида интерактив усуллардан фойдаланиб ўқитишга эришилмоқда. Бу эса, интерактив таълим асосида ташкил этилаётган ўқув жараёнларини самарали, қизиқарли, сифатли бўлишини таъминламоқда. Интерактив усуллардаги машғулотлар талабаларни ижодий фикрлашга, фикрини эркин баён этишга, ташаббускорликка, гуруҳларда масалалар ечимини топишга, ҳамкорликда ишлашга чорлайди. Ҳозирда янгича методларни, ёки инновацияларни таълим жараёнига татбиқ этиш ҳақида фикр юритилганда интерактив усулларнинг ўқув жараёнида қўлланиши тушунилади. Интерактив усулнинг асосий мақсади ўқув жараёни учун энг қулай вазият яратиш орқали талабанинг фаол, эркин фикр юритишига муҳит яратишидир. Бу эса таълим сифати ва самарадорлигини оширишни таъминлайди. Интерактивлик асосида машғулот ташкил этилганда бирорта ҳам талаба четда қолмайди ва улар ўйлаган фикрларини очиқ-ойдин билдира олиш имкониятига эга бўладилар. Талабалар ҳамкорликда ишлашда мавзу мазмунини билиш, ўзлаштиришда ўзларининг шахсий ҳиссасини қўшиш имкониятига эга бўладилар. Ўзаро билимлар, ғоялар, фикрларни алмашиш жараёни содир бўлади. Бундай ҳолатлар ўзаро самимийликни таъминлайди, янги билимлар олиш, ўзлаштириши ортади, шу жараёнда

бир-бирларини қўллаб-қувватлаш, ўзаро дўстона муносабатлар вужудга келади. Бунинг эса тарбиявий аҳамияти катта. Демак, интерактив машғулотларни ташкиллаштиришда ўқув жараёни давомида якка ва жуфт бўлиб ишлаш, гуруҳларда ишлаш ҳамда ахборот манбалардан фойдаланиш мумкин. Интерактив методларда ўқитувчи талабанинг фикрини ҳеч қачон кескин рад этмайди, фақатгина вақти билан тўғри хулосани айтиб ўтиб кетади, натижада талаба хатосини тушуниб олади. Бу эса уларни тушқунликка тушиш, фикрлашда тормозланиш каби ҳолатларнинг олдини олади. Ўқитувчи қандай бўлмасин талабанинг фикрини тинглайди ва ҳурмат билан қарашини билдиради, шу билан бирга талабаларни ўзаро бир-бирларини тинглашга ўргатади. Интерактив методлар талабаларда доимий фаолликни таъминлайди. Машғулот давомида талабалар бўш қолмайдилар, улар мавзуга оид бирор бир муаммо билан банд бўладилар. Ёш авлоднинг дунёқарашини шакллантириш, ҳаёт кечириш тарзини танлашнинг тарбиявий аҳамиятини ошириши лозим. Илмийлиги жиҳатдан назария асосларини амалиёт билан, масаланинг қўйилишини илмийлик билан назарий далилларнинг мантиқийлик билан узвий бирлиги таъминланиши керак.

Техника йўналиши олий таълим муассасалари талабаларига “Физика” фанини ўқитишда замонавий педагогик технологияларни татбиқ этиш ва таълим самарадорлигини ошириш мақсадида таълимнинг турли усул ва воситалари қўлланилади. Бунда таълимнинг дидактик тамойиллари, таълим шакллари ва ўқитиш воситаларини эътиборга олиш муҳим ҳисобланади. Амалий машғулотларнинг самарасини оширишда кўرғазмали қурооллар (диаграмма, схема, жадвал, график, тарқатма материаллар ва шу кабилар) нинг аҳамияти каттадир. Кўрғазмали қурооллар ахборотни қабул қилишга, мавзунини чуқурроқ тушунишга, ўқув материалини хотирада узоқ сақланишга ёрдам беради. Лекин, кўрғазмали қуроолларга ҳаддан ташқари берилиб кетиш ҳам керак эмас, чунки аудитория билан мулоқот йўқолади ва натижада машғулотнинг самараси пасаяди. Аммо, танлаб олинган, тайёрланган кўрғазмали қурооллар сўзсиз амалий машғулотнинг самарасини анчагина оширади. Амалий машғулотда талабаларнинг пухта билим олишлари ва олган билимларини келгусида ҳаётда қўллаш олишларида муҳим ўрин тутаяди. Шунинг учун ҳам, амалий машғулотни қизиқарли, талабаларни фаол қатнашишларини таъминлайдиган методлардан фойдаланиб ўтиш муҳим аҳамиятга эга. Амалий машғулот ўқув жараёнининг талабалар билимларини мустаҳкамлашини таъминловчи, ижодий қобилиятларини намоён қилувчи шаклдир. Амалий машғулотларнинг мақсади талабаларнинг чуқур билим олишини таъминлаш, олган билиминини реал ҳаётда қўллашга ўргатишдир.

Шундай қилиб, техника йўналиши олий таълим муассасаларида ўқитувчилар машғулот ўтишда, албатта, таълим муассасасининг, ундаги талабаларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олишлари, шу билан бирга, уларни машғулотга фаол қатнашишларини таъминловчи, тафаккурни ўстиришга, ривожлантиришга қаратилган ўқув методларини қўллашга эътибор беришлари лозим. “Физика” фанини ўқитишнинг интерактив усулларини танлашда таълим мақсади, талабаларнинг сони ва имкониятлари, фаннинг ўқув-моддий шароити, таълимнинг давомийлиги, ўқитувчининг педагогик маҳорати ва бошқалар эътиборга олинади. Ўқитувчи бу жараёнда шахсни ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратаяди ва шу билан бир қаторда бошқарувчилик функциясини бажараяди. Шунинг учун техника йўналиши олий таълим муассасаларида замонавий ўқитиш методлари, интерактив

методлар, инновацион технологияларнинг ўрни ва роли бениҳоя каттадир. Интерактив метод бирор фаолият ёки муаммони ўзаро мулоқот, баҳс-мунозарада фикрлашга ўргатиб, мустақил ҳаётга тайёрлайди. Талабаларни интерактив методлар асосида ўқитишда қўлланиладиган методлардан бири куйида кўрсатилган.

“Тушунчалар таҳлили” методи-ушбу интерфаол методни ўқув жараёнига татбиқ этишда гуруҳ талабаларини жуфтликларга бўлиш талаб этилади. Ҳар бир жуфтлик учун мавзуга оид тушунчалар келтирилган жадвал шаклидаги тарқатмалар берилади ва белгиланган вақт ичида тушунчалар мазмунини ёритишлари сўралади (1-жадвал). Вазифа бажарилгач, тушунчалар мазмуни тўғри таҳлил қилинган жадвал кўрсатилади ва жуфтликлар бажарган вазифа натижалари билан солиштирилади.

Баҳолаш меъёри асосида ўз-ўзини баҳолаш принципи қўлланилади.

Талабалар:

1. Талабаларда тушунчаларни таҳлил қилиш малакаси ошади.
2. Тушунчаларнинг асл мазмун-моҳиятини тушуниб этади.
3. Хато ва камчиликларини билиб олади.
4. Фаолиқ ошади ва мавзунини ўзлаштиришга оид мотивация уйғонади.

Ўқитувчи:

5. Гуруҳни фаоллаштиради.
6. Талабаларда тушунчаларни билиш даражасини аниқлайди.
7. Мавзуга оид дастлабки тасавурларини билиб олади ва машғулотни ўтишда мазмунни эҳтиёжга қараб мослаштириб олади.

1- жадвал

Ўзгармас ток қонунларига оид тушунчалар таҳлили

№	Тушунчалар	Таҳлиллар
1	Ўтказгичда электр зарядининг ҳаракати қандай тартибда бўлади	Ўтказгичда мусбат зарядлар майдон бўйича, манфий зарядлар эса майдонга қарама-қарши ҳаракатланади
2	Электр токи қачон ўзгармас бўлади	Ток ташувчиларнинг ҳаракати стационар бўлса, яъни ток ташувчиларнинг тартибли ҳаракати ўзгармас бўлса
3	Жоул-Ленс қонуни	Ўзгармас ток занжирининг соҳасидан ток ўтганда узлуксиз равишга иссиқлик ажралиб чиқиб. $Q = I^2 R t$
4	Крихгофнинг биринчи қондаси	Тугунга кирувчи тоқлар йиғиндиси тугундан чиқувчи тоқлар йиғиндисига тенг.

“Венн диаграммаси” методи (1-расм) талабаларда мавзуга нисбатан таҳлилий ёндашув, айрим қисмлар негизда мавзунинг умумий моҳиятини ўзлаштириш (синтезлаш) кўникмаларини ҳосил қилишга йўналтирилади.

Ўзгармас ток қонунларини Крихгоф қондалари асосида таҳлил қилиш:



1-расм. Ўзгармас ток қонунларини “Венн диаграммаси” ёрдамида таҳлил қилиш

“Кластер” методи педагогик, дидактик стратегиянинг муайян шакли бўлиб, у талабаларга ихтиёрий муаммолар хусусида эркин, очиқ ўйлаш ва шахсий фикрларни бемалол баён этиш учун шароит яратишга ёрдам беради. Мазкур метод турли хил ғоялар ўртасидаги алоқалар тўғрисида фикрлаш имконини берувчи тузилма аниқланишини талаб этади. “Кластер” методи аниқ объектга йўналтирилмаган фикрлаш шакли саналади. Ушбу метод муайян мавзунинг талабалар томонидан чуқур ҳамда ўзлаштирилгунга қадар фикрлаш фаолиятининг бир маромда бўлишини таъминлашга хизмат қилади. “Кластер” методидан талабалар билан яқка тартибда ёки гуруҳ асосида ташкил этиладиган амалий машғулотларда фойдаланилади.

Шуни айтиш жоизки, интерактив методларни таълим жараёнида қўлай олган ҳар бир ўқитувчи қуйидаги имкониятларга эга бўлади: талабаларнинг фикрлаш қобилияти ривожланади; ўқитувчининг таълим мақсадига эришиши кафолатланади; онгли ва ижодий фаолият таъминланади; вақтдан унумли фойдаланилади. Ўқитувчининг фаол, самарали фаолият кўрсатишига йўналтирилган таълим жараёнининг методик ишланмасидан фарқли равишда, таълимнинг педагогик технологияси таълим олувчиларга қаратилади, шунингдек, уларнинг шахсий ва ўқитувчи билан биргаликдаги фаолиятини ҳисобга олган ҳолда ўқув материалларини ўзлаштиришга шароит яратади. Педагогик технологиянинг етакчи муаммоси талаба шахсини ривожлантириш орқали таълим мақсадига эришишни таъминлашдан иборатдир.

Таълим-тарбия жараёни бутун машғулот давомида талабаларнинг фаоллиги ва қизиқувчанлигини мунтазам равишда ривожлантириб бориш мақсадини кўзда тутаяди, ўқув омиллари яратишга асосланган педагогик технология талабаларни ўқув жараёнига тезкор жалб қилиш имконини беради. Акс ҳолда, заиф, етарли даражада тушунарли бўлмаган, ёки аниқ натижани кўзламаган топшириқлар машғулотнинг самарасиз яқунланишига олиб келади.

Адабиётлар:

1. Hamidov J.A. Main Components of information Culture in Professional Teacher education in Informatization of Society// Eastern European Scientific Journal.-Germany, 2016. №1. –P.102-105.
2. Akhmedov E.R. Use Of Interactive Electronic Educational Resources In Professional Training Of Students Of Vocational Education // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019 №12.-P.115-1203.
3. Axmadjonova Y. T., Axmadjonova U. T. (2021). O'quv dars mashg'ulotlarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish. *Scienceand Education*, 2 (11), 977-984.
4. Najmiddinova Yo. R. Conditions of Forming Professional Abilities and Skills on Competence Approach among Colleges Students // Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. - №4. - P.196-199.
5. Qulboyev Z., Urinov S., Abduraxmonov A. (2021). Texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida fizikani o'qitishda ta'lim klasteri metodidan foydalanishga doir ba'zi tavsiyalar. *Scienceand Education*, 2 (11), 939-945.

АЛОХИДА ЁРДАМГА МУХТОЖ ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ОИЛАНИНГ ТАЪСИРИ

Холмирзаев Шавкатжон Абдулазизович

НамДУ Мактабгача таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси.

Жўраева Зилола Сайфиддин қизи.

НамДУ Мактабгача таълим 2-босқич магистранти

E-mail: Xolmirzayev84@bk.ru Тел: 99897-210-26-50

Аннотация: Мақолада алоҳида ёрдамга мухтож бўлган ўқувчиларнинг меҳнат таълимини такомиллаштириш, узвийлиги ва узлуксизлигини амалга оширишнинг долзарб муаммолари ёритилган. Махсус мактаб-интернатларда меҳнат таълимини ташкил этиш, унинг мазмунини такомиллаштириш ва касбга йўналтиришда оиланинг таъсирига доир ёндашувлар акс эттирилган.

Калит сўзлар: Таълим гайўналиш, ногиронлик, ногирон ўқувчиларнинг махсус таълим эҳтиёжлари, инклюзив таълим.

ВЛИЯНИЕ СЕМЬИ НА ПРОФЕССИЮ СТУДЕНТОВ, НУЖДАЮЩИХСЯ К СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ

Холмирзаев Шавкатжон Абдулазизович

Преподаватель кафедры методики дошкольного образования НамГУ

Джураева Зилола Сайфиддиновна

НамГУ дошкольное образование 2 курс магистратуры

Электронная почта: Xolmirzayev84@bk.ru Тел: 99897-210-26-50

Аннотация: В статье освещены актуальные проблемы усовершенствования трудового образования, осуществления его гармоничности и непрерывности у детей с дефектами развития. Отражаются подходы по организации трудового образования, усовершенствованию его содержания в специализированных школах-интернатах.



Ключевые слова: профориентация, инвалидность, потребности детей-инвалидов на специальное образование.

THE EFFECT OF THE FAMILY ON GIVING A PROFESSION TO STUDENTS WHO NEED SPECIAL HELP

Kholmiraev Shavkatjon Abdulazizovich

Teacher of the Department of Preschool Education Methods NamSU

Juraeva Zilola Sayfiddinovna.

NamSU Preschool education 2 nd year master

E-mail: Xolmirzayev84@bk.ru Tel: 99897-210-26-50

Annotation: The article highlights the actual problems of improving labor education, the implementation of its harmony and continuity in children with developmental disabilities. The approaches are reflected for organization of labor education, improvement of its content in specialized boarding schools.

Keywords: vocational guidance, disability, needs of disabled children for special education

Ўзбекистон Республикасининг «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида»ги Қонунининг 41-моддасида «Ногиронлиги бўлган шахсларни касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш» 42-моддасида «Меҳнат қилишга бўлган ҳуқуқнинг амалга оширилишини таъминлаш» 43-моддасида «Ногиронлиги бўлган шахсларни ишга жойлаштириш ва уларнинг бандлигини таъминлаш» «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги қонунининг 29-моддасида «Жисмоний ва (ёки) руҳий ривожланишида нуқсонлари бўлган болалар ва ногирон болалар улар учун махсус ишлаб чиқилган таълим дастурлари бўйича таълим муассасаларида ўқиш ва тарбияланиш ҳамда ўз жисмоний, ақлий қобилиятлари ва хоҳишларига мос бўлган таълим олиш ҳуқуқига эга»¹⁰¹ деб кўрсатилганлиги фикримизнинг исботидир.

Республикамиз ривожланишида муаммолари бўлган, алоҳида ёрдамга мухтож болаларнинг барча соғлом тенгқурлари катори тарбияланишлари, ақлий, ахлокий, жисмоний жihatдан камол топишлари. ижтимоий ҳаётга мустақил етук фуқаролик даражасида тайёр бўлиб етишишлари ва ўзлари қизикган касб-хунарга эришиш масалаларига жиддий эътибор қаратмоқда.

Буларни амалга оширишда оиланинг маъсулияти жуда катта. Боланинг тулақонли ва баркамол ривожланган шахс бўлиб шаклланиши учун у оилада бахтёрлик, севги, тушунтириш муҳитида ўсиши муҳим. Бу айниқса алоҳида ёрдамга мухтож ривожланишида нуқсонли бўлган бола учун зарурдир. Чунки бундай болаўзининг яқинлари томонидан алоҳида эътибор, ёрдамга мухтож бўлади. Соғлом психологик муҳит ҳукм сурган оилагагина бола баркамол шахс бўлиб етишда ва унинг потенциал, яъни ички имкониятлари тўлақонли очилишига имкон ярагилади.

¹⁰¹ «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида»ги Қонун «ЎРҚ-641-сон 15.10.2020»

Оиланинг мақбул психологик мухити биркатор омиларга боғлиқ. Бу кўп жихатдан ота-оналарнинг оилада алохида ёрдамга мухтож боланинг дунёга келишига бўлган муносабатига, уни тарбиялашнинг қайси йул ва усулида танлашларига, боладаги ривожланишининг ўзига хос хусусиятларини тушунишларига ҳамда оила аъзолари ўртасида ўзаро ҳурмат муносабатларини сақлаб қолинишига боғлиқ бўлади. Фарзандлари бошқаларникидай эмаслигини билган ота-оналарда бу ҳолатга нисбатан хиссий муносабат бир неча босқичларда ривожланади.

Генетик нуқсонлар (масалан, Даун синдроми) бола туғилганидаёқ маълум бўлса, бошқа нуқсонлар (акли заифлик, эшитиш нуқсонлари, нутқ нуқсонларива х.к.) кўпинча бола каттароқ бўлганида яққол сезила бошлайди. Оилада алохида ёрдамга мухтож, алохида ёрдамга мухтож боланинг дунёга келиши дастлаб ота-онанива бошқа оила аъзоларини эсанкиратиб қўяди. Ота-онада, қўрқув алам ўкинч хисслари туғилади.

Бу ҳолатнинг давомийлиги ҳар бир оилада турлича кечади: айрим оилалар қисқа вақт ичида (хатто бир ҳафтада) ўзига келиб, алохида ёрдамга мухтож фарзандини борича қабул қилиб, унга эрта ёрдам кўрсатиш йулларини қидира бошласалар, айрим оилалар узок вақт ўзини унглай олмайди. Хуллас ҳамма нарса ота-оналарнинг психологик жароҳатдан чикиб кетиш қобилиятига боғлиқ. Бир ёш онанинг ҳиқоя қилишича, алохида ёрдамга мухтож фарзанди дунёга келганида, мутахассислар билан суҳбатдан сўнг уйига кайта туриб, йулда унда ўзини машина тагига ташлаш истаги туғилган. Яхши ҳамки, унинг олдида яқин одами- онаси бўлган ва у ғамга тўлган ёш аёлни бундай қадамдан сақлаб қолган. Алохида ёрдамга мухтож фарзанд дунёга келган оила кайфияти ва хатти-ҳаракатидаги иккинчи даврда ота-она боланинг ривожланиш хусусиятларини кузатиб боради, уни боланинг соғлом тенгдошлари билан қиёслайди. Боладаги нуқсоннинг турива даражаси оиладаги муносабатларга катта таъсир кўрсатади. Оила учунташ-вишларнинг учинчи даври боланинг мактаб ёшига етиши, таълим тури ва усулларининг танлаши билан боғлиқ.

Бу оиладаги инкирознинг баъзан янада чуқурлашувига олиб келади. Ота-оналар фарзандларининг умум таълим мактабларида таълим олиш имкониятига эга эмасликлари, махсус таълимга мухтож эканликларини психологик жихатдан ҳар хил идрок этадилар: баъзилар кўникиб, фарзандларига ёрдам беришга киришсалар, айримлар учун бу ҳолатоғир рухий кечинмаларга сабаб бўлади. Бу давр оиладаги бошқа фарзандлар учун ҳам оғир бўлиб, улар синфдошларига алохида ёрдамга мухтож уқаси, синглиси мавжудлиги аён бўлишидан уяладилар. Бу даврда оила, бош қачаро кайтганда “сахнага” чиқади. Бола ўсмирлик даврига етганида тўртинчи босқич бошланади, яъни оиладагилар боланинг касаллигига кўникишга мажбур бўладилар.

Боланинг келажакдаги ҳаёти ҳақидаги муаммоларга дуч келадилар. Оиладаги муаммоларнинг бешинчи даври ривожланишида нуқсонли бўлган фарзандларининг балогатга етиши билан бошланади. Иш билан таъминланмаганлик ёки меҳнат қилиш имконияти, қобилиятининг йуқлиги оилада яна бир катор муаммоларни келтириб чиқаради. Оиладаги муносабатларнинг олтинчи даври алохида ёрдамга мухтож фарзанднинг улғайиш даври ва бу билан боғлиқ ўзига хос муаммоларнинг юзага келиши билан боғлиқ.

Ушбу муаммоларнинг оилавий муносабатларга таъсирини юмшатиш учун оиладаги алохида ёрдамга мухтож боланинг ривожланиш хусусиятларини ҳамда бу даврларда оиладаги муносабатларнинг ривожланишини эътиборга олиш зарур. Оилада



алохида ёрдамга мухтож боланинг дунёга келиши оиладаги хаёт тарзининг ўзгаришига сабаб бўлади. Бундай оилада иқтисодий, тиббий, ижтимоий муаммолар юзага келади. Одатда алохида ёрдамга мухтож бола парвариши онанинг зиммасига тушади, у ишини ташлашга, уйда қолиб фарзандига қарашга мажбур бўлади. Онанинг алохида ёрдамга мухтож фарзанд билан узок вақт банд бўлиши эр-хотинмуносабатларига ҳам таъсир кўрсатади, оиладаги психологик мухиттанглашади. Оиланинг иқтисодий ахволи ёмонлашади.

Алохида ёрдамга мухтож болаларга хизмат кўрсатиш кўпинча маблағ сарфлашни талаб этади (даволаш, массаж, зарур асбоб-ускуналар, зарур бўлганда хирургик муолажалар, кузойнақлар, эшитиш аппаратлари, таълим, алохида ёрдамга мухтожликка раважалари ва х.к.). Буларнинг барчаси харажатларни талаб қилади, оиланинг даромади эса отанинг маоши ва болага бериладиган алохида ёрдамга мухтожлик нафақасидан иборат бўлади.

Ота-оналарнинг ижтимоий, касбий мақомида ҳам муаммолар юзага келади, оиладаги ички муносабатлар ўзгаради, алохида ёрдамга мухтож боланинг ижтимоий-таълимий муаммоларига ота-оналар тайёр бўлмайдилар. Оила имконияти чекланган, алохида ёрдамга мухтож бўлган боланинг энгяқин мухитидир. Боланинг тарбияси, ижтимоийлашуви, эҳтиёжларининг қоидадирилиши, ўқиши, касб-хунарга йуналтирилишида оила асосий вазифаларидир.

Тадқиқотларнинг ўрганишича, алохида ёрдамга мухтож фарзандга эга оилаларнинг ўртасида энг кўп фоизни тўлиқ бўлмаган оилалар ташкил қилади. Бундай оилаларда кўпинча эркак оилани ташлаб кетади. 15-20% оилаларда эрхотиннинг ажрашишлари алохида ёрдамга мухтож боланинг туғилиши билан боғлиқ бўлиб. Онаиккинчи марта турмушга чиқиш имкониятига эга бўлмайди. Атрофдагилар кўпинча алохида ёрдамга мухтож фарзанди бўлган оилалар билан алоқа қилишдан ўзларини тортадилар ва алохида ёрдамга мухтож болалар меъёрида ривожланаётган тенгдошлари билан муносабатда бўла олмайдилар. Бу ҳолат алохида ёрдамга мухтож болада шахс бузилишларига (айниқса, хиссий иродавий доирада), интеллектининг пасайишига, ижтимоийлашувнинг бузилишига олиб келади. Бундай ҳолатлар айнақса интернатларда, болалар "Мурувват" уйларида тарбияланаётган алохида ёрдамга мухтож болаларга кўпроқ хос бўлади.

Жамиятдоимо ҳам бундай оилаларнинг муаммоларини туғри тушунмайди, шу сабабли ота-оналар алохида ёрдамга мухтож фарзандларини жамоат жойларига, сайргоҳларга, туй томошаларга олиб бормайдилар ва натижада уларни ёлғизликка маҳкум қиладилар. Сунгги йилларда бу муаммони ҳал қилишдаги йулбу алохида ёрдамга мухтож фарзандлари булга ота-оналар марказларини ташкил этишдир. Ота-оналар алохида ёрдамга мухтож фарзандларини туғри тарбиялашлари, ривожлантиришлари учун, педагогик, психологик, тиббий билимларга эга бўлишлари керак. Бу болани атроф мухитга мослашишига ёрдам беради. Кўп ота-оналар алохида ёрдамга мухтож болаларини тарбиялашда махсус адабиётларнинг етишмаслигини, айниқса ўзбек тилидаги адабиётларнинг деярли мавжуд эмаслигини таъкидлайдилар.

Алохида ёрдамга мухтож болалар умумтаълим мактабларида, махсус мактабларда, мактабгача таълим муассасарида таълим оладилар, аммо уларнинг барчаси учун индивидуал ёндошув зарур. Алохида ёрдамга мухтож болаларнинг тиббий-ижтимоий



реабилитацияси ҳар бир болага яқка ёндошган ҳолда эрта, босқичма-босқич, комплекс, яъни тиббий, психологик-педагогик, касбий, ижтимоий, маиший, ҳуқуқий дастурларни ўз ичига олиши лозим. Ҳозирги вақтга алоҳида ёрдамга муҳтож оилаларнинг тиббий-ижтимоий таъминоти билан боғлиқ масалалар билан шуғулланадиган турли ташкилотлар фаолияти ўртасида ўзаро боғлиқлик яхши эмас.

Олиб борилаётган барча ижтимоий ишлар боланинг ўзига қаратилган бўлиб, унинг оиласининг хусусиятлари, ота-оналарнинг алоҳида ёрдамга муҳтож фарзанд билан боғлиқ муаммолари эътиборга олинмайди. Алоҳида ёрдамга муҳтож фарзандлари бўлган ота-оналарни ўзларнинг машаққатли вазифаларини туғри тушунишга ўргатиш, уларни педагогик, психологик, тиббий билимлар билан ақалли бошлангич даражада қуролаштириш лозим. Кўрсатиладиган ёрдам мувофиқлаштирилган бўлиши, яъни бола ва унинг оиласига қаратилган бўлиши, унинг оилада тарбияланишига ёрдам бериши ваҳамма оила аъзоларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиши лозим. Ёрдам махсус муассасада эмас, балки боланинг табиий муҳитида, оиласида, яшаш жойида кўрсатилиши айниқса муҳимдир.

Алоҳида ёрдамга муҳтож фарзандни тарбиялаш ва ривожлантириш ота-оналарга касаллик, унинг сабаблари, оқибатлари ва боланинг потенциал имкониятларини ҳақида қўп маълумотларга эга бўлишларини талаб этади. Оиллага ижтимоий-психологик ёрдам бир неча йўналишларда кўрсатилиши лозим. Аввало алоҳида ёрдамга муҳтож фарзандлари бўлган ота-оналар клубларини ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Бу ерда ота-оналар мулоқот доирасини кенгайтиришлари, ўзларига ўхшаш оилаларнинг муаммолари билан танишишлари, тажриба алмашишлари, ачиниш)мас, балки тушуниш, қўллаб-қувватлаш хиссини сезишлари мумкин.

Иккинчидан, алоҳида ёрдамга муҳтож фарзанди бўлган оилаларни махсус методик ахборот билан таъминлаш, яъни махсус журналлар нашр этиш, мавжуд тиббий ёки таълимий журналларда мақолалар чоп этиш, ота-оналарга болаларни парваришлаш бўйича амалий кўрсатмалар, қўндалик муаммоларни ҳал этиш юзасидан мутахассислар тавсияларини бериб бериш лозим.

Учинчидан, бундай оилаларни қўллаб-қувватлаш (моддий, ижтимоий, тиббий, таълимий, маънавий), уларга ёрдам кўрсатиш манбаларини кенгайтириш керак.

Тўртинчидан, оиллага ўзининг “кураш” йулини топишга, яъни ички имкониятларини юзага чиқаришга ёрдам бериш муҳим аҳамият касб этади. Бунда қўпинча мутахассисларнинг (шифокорларнинг, ижтимоий соҳа ходимларининг, дефектологларнинг, юристларнинг, психологларнинг) ёрдами керак бўлади. Ва, ниҳоят, алоҳида ёрдамга муҳтож фарзанди бўлган оилалар билан дефектолог мутахассисларнинг ўзаро ҳамкорлигини кучайтириш лозим.

Фойдаланилган адабитлар.

Нурмухамедова Л.Ш. Шарк мутафаккирларининг оилада фарзанд тарбиясига оид қарашлари.

Аюпова М.Ю., Тулабаева Н.Д. Оғир нутқ камчилигини бартараф этишда логопед ва ота-оналар ҳамкорлиги.

Назарова Д. Мактабга ёшдаги заиф эшгувчи болалар таълим-тарбияси тизимидаги ҳамкорлик масалалари.

Нуркелдиена Д.А., Арсланова М.М., Азимова Н.М. Алоҳида ёрдамга



мухтож болалар оиласидаги муаммолар.

Шомахмудова Р.Ш. Пулатова У. Ш. Инклюзив таълим - самарадорлик омили сифатида.

Муминова Л.Р., Кобулова Р.В. Оилада болалар нутқини ўстиришда топишмоқдарнинг аҳамияти

Кобулова Р.В. Мақолларнинг ибратли оламига йул оиладан бошланади (халқ педагогикаси бисотидан).

BADMINTONCHILARNING TEZKORLIK SIFATINI TARBIYALASHDA VOSITA VA METODLAR

Mullabayeva Mashxura Samijanovna,
NamDU katta o'qituvchisi
Mavlonova Obida Dedaxanovna
NamDU o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada badmintonchilarni oddiy va murakkab reaksiya tezkorligini tarbiyalash uslubiyoti va namoyon bo'luvchi asosiy shakillar hamda latent vaqti tarkibiy qismlari keng yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Reaksiya, latent, tezkorlik, retseptor, sensor, yuqori tezlik, volan.*

СРЕДСТВА И МЕТОДЫ КАЧЕСТВА СКОРОСТИ БАДМИНТОНИСТОВ

Муллабаева Машхура Самижановна
Старший преподаватель НамГУ
Mavlonova Obida Dedaxanovna
преподаватель НамГУ

***Аннотация:** В статье подробно рассмотрена методика воспитания простой и сложной реакции бадминтонистов, основные возникающие формы, составляющие латентное время.*

***Ключевые слова:** реакция, скрытая, скорость, рецептор, датчик, высокая, скорость, маховик.*

IN EDUCATING THE QUALITY OF SPEED OF BADMINTERS MEANS AND METHODS

Mullabayeva Mshhura Samijanovna,
teacher of NamSU
Mavlonova Obida Dedaxanovna
teacher NamSU

***Annotation:** teacher of NamSU Annotation: This article covers in detail the methodology of training badminton players in simple and complex reaction speed and the main shapes that appear and the components of latent time.*

***Keywords:** Reaction, latent, speed, receptor, sensor, high speed, flywheel.*

Tezkorlik deb, muayyan faoliyatni qisqa muddat ichida ijro etilishiga aytiladi. Tezkorlik namoyon bo'lishining uchta asosiy shakllari mavjuddir:

1. Harakat reaksiyaning latent (yashirin) vaqti.
2. Ayrim harakatlar tezligi (tashqi qarshilik kichik bo'lganda).
3. Harakatlar chastotasi.

Tezkorlik namoyon bo'lishining shakllari bir-biriga nisbatan bog'liq emas.

Ko'rsatib o'tilgan uchta shaklning birgalikda kelishi tezkorlik namoyon bo'lishining barcha hollarini belgilaydi. Biroq murakkab-koordinatsion yaxlit harakatlardagi tezlik faqat tezkorlik darajasiga emas, balki boshqa sabablarga ham bog'liq. Shuning uchun yaxlit harakat tezligi kishining tezkorligini faqat bilvosita ifodalaydi.

Kishining tezlik qobiliyatlari umuman o'ziga xos bo'ladi. Faqat bir-biriga o'xshash harakatlardagina tezkorlik to'g'ridan to'g'ri yoki bevosita bir-biriga ko'chishi mumkin.

Tezkorlikning fiziologik va bioximik asoslari. Tezkorlikning latent vaqti beshta tarkibiy qismdan iborat:

- 1) retseptorda qo'zg'alishning paydo bo'lishi;
- 2) qo'zg'alishni markaziy nerv sistemasiga uzatish;
- 3) qo'zg'alishning nerv yo'llari bo'ylab o'tib borishi va effektor signal hosil bo'lishi;
- 4) signalning markaziy nerv sistemasidan mushakka o'tkazilishi;
- 5) mushakning qo'zg'alishi va unda mexanik faollikning paydo bo'lishi.

Maksimal tezlikda bajariladigan harakatlar fizilogik xususiyatlarga ko'ra sustroq harakatlardan farq qiladi. Bular orasidagi eng muhim farq shundan iboratki, harakatlarni maksimal tezlikda bajarish davomida sensor bog'lanishlar hosil bo'lishi qiyinlashadi: reflektor yoy impulslarni tashib ulgur olmaydi. Tezlik juda katta bo'lganida harakatlarni yetarlicha aniqlik bilan bajarishning qiyinligi mana shu bilan bog'liqdir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Harakatlantiruvchi reaksiya tezligi ta'sirga javob berishning latent vaqti bilan belgilanadi. Reaksiyalar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy reaksiya oldindan ma'lum bo'lgan signal ga ilgaridan ma'lum bo'lgan harakat bilan javob berishdir.

Tezkorlikning juda ko'p o'tishi (boshqa biror harakatga o'tishi) oddiy reaksiyalar uchun xarakterlidir: ayrim vaziyatlarda tezda biror qarorga keluvchi kishilar boshqa sharoitlarda ham tezroq biror fikrga keladilar. Tez bajariladigan xilma-xil mashqlar bilan shug'ullanish oddiy reaksiya tezkorligini yaxshilaydi.

Harakatlantiruvchi reaksiya tezkorligini anchagina yaxshilash g'oyat murakkab vazifadir. Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalashda bir necha usullardan foydalaniladi. Bulardan eng ko'p tarqalgani to'satdan paydo bo'ladigan signalga yoki tevarak-atrofdagi vaziyatning o'zgarishiga javoban mumkin qadar tezroq reaksiya ko'rsatish usulidir.

Bu usul yangi shug'ullanuvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda tez orada ijobiy natijalar ko'rsatadi. Afsuski, shundan keyin reaksiya tezkorligi stabillashib qoladi va uning yaxshilanishi ancha qiyin bo'ladi.

Reaksiya tezkorligi katta ahamiyatga ega bo'lgan hollarda uni takomillashtirish uchun maxsus usullardan foydalaniladi. Bu usullardan biri - reaksiya tezkorligini yengillashtirilgan sharoitlarda va uni keyingi harakat tezligini ayrim-ayrim takomillashtirishdan iboratdir.

Reaksiyaning latent vaqti reaksiya ko'rsatishdan oldingi ratsional xatti-harakat hisobiga birmuncha yaxshilanishi mumkin.

Jumladan, diqqatning yo'nalishi kata ahamiyatga ega bo'ladi: agar diqqat bajariladigan harakatga qaratilgan bo'lsa (reaksiyaning motortipi), u holda reaksiya ko'rsatish vaqti diqqat signalni idrok qilishga (reaksiyaning sensor tipi) qaratilganligidan ko'ra kamroq bo'ladi.

Mushaklar bir oz kuchlanganda ham reaksiya tezkorligi ortadi. Reaksiya tezkorligi, shuningdek, signalni kutish vaqtiga ham bog'liq: dastlabki va ijro jamoalari orasidagi qulay vaqt 1,5 soniyaga yaqindir.

Murakkab reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Murakkab reaksiyaning ikki xili, ya'ni harakatdagi obyektga bo'ladigan reaksiya va tanlash reaksiyasi ustida to'xtalib o'tamiz.

Harakatdagi obyektga bo'ladigan reaksiyada volan qabul qiluvchi o'yinchining harakatlarini ko'rib chiqaylik. Bu holda o'yinchi quyidagilarni bajarishi kerak:

- 1) volanni ko'rish;
- 2) volanning yo'nalishini va uning uchish tezligini baholash;
- 3) bajariladigan amal rejasini tanlash;
- 4) bu rejani ro'yobga chiqara boshlash.

Mazkur holda reaksiyaning yashirin davri shu to'rt elementdan tashkil topadi. Harakatdagi obyekt to'satdan paydo bo'lganda, bu obyektga reaksiya ko'rsatish 0,25 soniyadan 1 soniyagacha vaqtni oladi. Bu vaqtning asosiy qismi birinchi elementga, ya'ni volanni tez ko'rib olishga sarf bo'lishi tajribalarda kuzatilgan.

Sensor fazaning o'ziga juda kam - 0,05 soniya vaqt ketadi.

Shunday qilib, harakat qilayotgan volanni ko'ra bilish asosiy ahamiyatga ega. Aynan mana shu qobiliyatni o'stirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun harakatdagi buyumga reaksiya ko'rsatishga doir mashqlardan foydalaniladi; trenirovka talablari harakatdagi buyumning tezligini oshirish, obyektning to'satdan paydo bo'lishi, sportchi bilan buyum o'rtasidagi masofani qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi. Kichik volan (badminton volani) bilan bajariladigan harakatli o'yinlar juda foydalidir.

Obyekt (jumladan, o'yindagi volan) siljiy boshlaguncha ko'rib qolingan bo'lsa, reaksiya vaqti ancha kamayadi. Bunda volanga zarb berayotgan o'yinchining harakatlariga binoan volanning yo'nalishini va uchish tezligini aniqlay bilish katta ahamiyatga ega.

Harakatdagi obyektga reaksiya ko'rsatishning aniqligi shu reaksiya tezligini o'stirish bilan parallel ravishda takomillashtirib boriladi. Faqat dastlabki bir necha mashg'ulotnigina reaksiya aniqligini rivojlantirishga maxsus ajratish kerak. Bunda shug'ullanuvchilarga harakatdagi obyektidan ildamroq harakat qilish zarurligini tushuntirish lozim.

Tanlash tezligi raqib xatti-harakatlarining yoki tevarakatrofdagi sharoitning o'zgarishiga muvofiq ravishda, mumkin bo'lgan harakatlantiruvchi javoblardan keragini tanlab olish bilan bog'liq.

Tanlash tezlikning murakkabligi sharoitning o'zgarish imkoniyatlari rang-barangligiga, chunonchi, raqibning xilma-xil harakat qilishiga bog'liq.

Badmintonchilarning murakkab tezligiga bo'lgan talab nihoyatda katta.

"Murakkab tezlikni tarbiyalashda" oddiydan murakkabga degan pedagogik tamoyilga rioya qilinib, sharoitning mumkin bo'lgan o'zgarishlar soni asta-sekin oshirib boriladi. Masalan, dastlab oldindan kelishib olingan zarbga javoban qanday himoyalani kerakligi o'rgatiladi; keyinchalik shug'ullanuvchiga ehtimol tutilgan ikki xil usuldan biriga, so'ng uch xildan biriga, to'rt xildan biriga va hokazo javob berish tavsiya qilinadi. Astasekin bu mashq haqiqiy sharoitga yaqinlashtirib boriladi.

Harakat tezkorligini tarbiyalash uslubiyati. Harakat tezkorligini tarbiyalash jarayonida organizmning harakat faoliyati xilma-xil turlaridagi (bevosita amaliy va sport faoliyatidagi) tezlik xarakteristikasini belgilovchi funksional imkoniyatlarni har tomonlama oshirib borish zarur. Shug'ullanuvchi biror-bir faoliyatda namoyon qilishi mumkin bo'lgan maksimal tezlik shu kishida faqat tezkorlik qanchalik rivojlanganligiga emas, balki bir qator boshqa omillarga - dinamik kuch, chaqqonlik, texnikaning egallanganligi darajasi va boshqalarga bog'liq. Shuning uchun harakat tezligini tarbiyalash boshqa jismoniy sifatlarni tarbiyalash hamda texnikani takomillashtirish bilan mustahkam bog'liq holda olib borilishi kerak.

Maksimal tezlikda bajarish mumkin bo'lgan mashqlardan (bularni, odatda, tezkor mashqlar deb ataydilar) tezkorlikni tarbiyalash vositasi sifatida foydalaniladi. Ular quyidagi talablarni qondirishi kerak:

- 1) texnika mashqni juda tez bajarishga imkon beradigan darajada bo'lishi kerak;
- 2) mashqlarni bajarish vaqtida asosiy irodaviy zo'riqish mashqni bajarish usuliga emas, balki ularni bajarish tezligiga qaratilishi uchun mumkin darajada yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi kerak;
- 3) mashqlarning davomiyligi ularni bajarish oxirida charchash tufayli tezlikning kamayib ketishiga olib kelmasligi kerak.

Tezkorlikni tarbiyalash usullari ichida takroriy mashq usuli keng qo'llaniladi. Bunday asosiy tendensiya - mashg'ulotda o'z maksimal tezligini oshirib borishga intilishdir. Usulning barcha xususiyatlari (masofaning uzunligi, bajarish shiddati, dam olish oraliqlari, takrorlash soni va boshqalar) shunga bo'ysundirilgan.

Masofaning uzunligi (yoki mashqning qancha davom etishi) har galgi mashq bajarish oxirida siljish tezligi (ishning shiddati) kamaymaydigan qilib tanlanadi. Harakatlar maksimal tezlikda bajariladi; shug'ullanuvchilar har safar o'zlari uchun eng yaxshi natija ko'rsatishga intiladilar. Mashq bajarish gallari o'rtasidagi dam olish oraliqlari kuchning nisbatan to'la tiklanishini ta'minlaydigan darajada katta bo'lishi lozim. Harakatlar tezligi takrorlashlar o'rtasida sezilarli darajada kamayib borishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Tez bajariladigan mashqlar takrorlanganda, to'la tiklanish uchun dam olish oraliqlari yetarli bo'lmaganligi sababli, charchash nisbatan tez boshlanadi, tashqi tomondan bu tezlikning pasayganligida ifodalanadi. Tezlikning pasayishi mazkur mashg'ulotda tezkorlikni tarbiyalashni to'xtatish uchun birinchi signal bo'lib xizmat qiladi: bundan keyin mashqni takrorlash faqat chidamlilikning o'sishiga yordam beradi, xolos. Tezkorlikning namoyon bo'lishi uchun mashg'ulotlarda o'yin va ayniqsa, musobaqa usulidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Musobaqalar, odatda, ko'tarinki ruh paydo qiladi, kishini anchagina zo'r berishga majbur etadi - bu esa ko'p hollarda sport natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

Yangi shug'ullanuvchilar bilan ishlashning asosiy vazifasi sportchini biror-bir alohida mashqni bajarishga ixtisoslashtirmay, balki boshqa vositalarni qo'llab va ularni ko'p jihatdan o'zgartira borib, nisbatan yuqori natijalarga erishishdan iboratdir. Bunda tezkorlik mashqlaridan standart holda emas, balki o'zgaruvchan sharoit va shakllarda foydalanish kerak. Jumladan, harakatli o'yinlar va sport o'yinlari, ochiq joyda bajariladigan mashq va hokazolar ayniqsa foydalidir.

Biror-bir harakatda asosan ikki yo'l bilan tezlikni oshirish mumkin:



- 1) Yuqori tezlikni oshirish hisobiga;
- 2) Yuquri kuchni oshirish hisobiga.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, maksimal tezlikni sezilarli oshirish juda ham qiyin, kuch imkoniyatlarini oshirish esa birnuncha yengii hal qilinadi. Shuning uchun amalda tezlik darajasini oshirish uchun kuch oshiradigan mashqlardan keng foydalaniladi.

Harakat vaqtida yengish lozim bo'lgan qarshilik qancha ko'p bo'lsa, bu mashqlarning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan kuchni oshirish tayyorgarligi jarayonida ikki asosiy vazifa hal qilinadi:

- 1) maksimal mushak kuchi darajasini (kuch qobiliyatlarini o'zini) oshirish;
- 2) tezkor harakatlar sharoitida eng ko'p kuch namoyon qilish qobiliyatini (tezkorlik-kuch qobiliyatlarini) tarbiyalash.

Tezkorlik-kuch mashqlarini, kuch mashqlarining o'ziga asoslanib, ular bilan birgalikda qo'lash kerak.

Tezkorlik sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan nantunaviy mashqlar:

1. Ko'rish signaliga ko'ra, turli dastlabki holatlardan (turib, o'tirib, yotib) tezlanib yugurishlar.
2. Harakat yo'nalishini tez o'zgartirib yugurishlar.
3. Ayrim harakat usullarini tez o'zgartirib taqlid qilish.
4. Bir turdagi harakatdan boshqa turdagi harakatiarga tez o'tish.
5. Tezkorlikni talab etuvchi estafetalar.
6. Tezkorlikni talab etuvchi harakatli o'yinlar.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Salamov R.S Sport mashg'ulotlarini nazariy asoslari. - T.: O'zDJTI, 2005
2. John Edwards - Badminton. Technique, tactics, training. TheCrowoodPressLtd 2014.
3. Pulatov A.A, Samatyugin O.M, Isroilov Sh.SH Badminton nazariyasi va uslubiyoti o'quv qo'llanma -2017

ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МИЛЛИЙ ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ МОҲИЯТИ.

Мамадалиев Кудратбек Марибович
Андижон давлат университети таянч докторанти.

Аннотация: Мақолада ёшларга ёш авлод тарбиясида ривожланиш йўналишлари, ёшларни жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари орқали соғломлаштириш жараёнлари ва маънавий ахлоқий тарбиялаш ҳамда ёшлар саломатлиги бўйича фикр мулохазалар келтирилган.

Калит сўзлар: Жисмоний тарбия, спорт тадбирлари, ҳалқ ўйинлари, соғлом турмуш тарзи, оммавий спорт.

СУЩНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ НАРОДНЫХ ИГР В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ.

Мамадалиев Кудратбек Марибович
Базовый докторант Андижанского государственного университета

Аннотация: В статье представлены размышления о направлениях развития молодежи в воспитании подрастающего поколения, процессах оздоровления молодежи посредством занятий физической культурой и спортом, духовно-нравственном воспитании и здоровье молодежи.

Ключевые слова: физкультура, спортивные мероприятия, народные игры, здоровый образ жизни, массовый спорт.

THE ESSENCE OF NATIONAL FOLK GAMES IN THE EDUCATION OF THE YOUNGER GENERATION.

Mamadaliyev Qudratbek Maribovich

Base doctoral student of Andijan State University.

Annotation: The article presents the directions of development of youth in the education of the younger generation, the processes of healthy development of youth through physical education and sports activities, moral education and views on the health of youth.

Keywords: Physical education, sporting events, public games, healthy lifestyle, mass sports.

¹⁰² Ўзбекистон республикасида таълим соҳасида улкан ислохотлар олиб борилмоқда. Шунингдек, таълим соҳасининг барча жабҳаларига жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари оммавий равишда тадбиқ этилмоқда.

Жумладан 2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИда келтириб ўтилганидек Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбиянинг юқори даражасига ва аҳолининг ҳаёти сифатига эришиш стратегик вазифани - мамлакатни барқарор ривожлантиришни амалда рўёбга чиқариш доирасида муҳим шарт ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича [Харакатлар стратегиясини](#) амалга ошириш доирасида мамлакат аҳолисининг барча қатламлари бутун ҳаёти давомида жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланиши учун зарур шарт-шароитларни таъминлаш ушбу вазифани ҳал этишнинг асосий омилларидан бири бўлади [1;1].

Жамият олдида турган ўртача ва узоқ муддатли стратегик вазифаларни самарали амалга ошириш учун инсоннинг бутун ҳаёти давомида соғлом турмуш тарзини ҳамда жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан узлуксиз шуғулланишнинг фойдасини тартиб қилишга барча саъй-ҳаракатлар ва ресурсларни биргаликда йўналтириш, ушбу жараёнга барча давлат муассасалари, нодавлат муассасалар ва хўжалик юритувчи субъектларни жалб этишни таъминлаш талаб этилади.

Мамлакатимиз раҳбарияти ҳалқни соғломлаштириш ва жисмоний ривожлантириш учун беқиёс саъй ҳаракатлар олиб бормоқдалар.

– ¹⁰³Биз халқаро спорт майдонларида Ўзбекистоннинг нуфузи ва обрў-эътиборини оширишга катта ҳисса қўшган спортчиларимиз билан фахрланамиз. Шу билан бирга,

¹⁰² 2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси **Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги 118-сон қарори**.

¹⁰³ Халқ сўзи. Шавкат Мирзиёев: Олий спортда эришилган ютуқлар билан чегараланмасдан, оммавий спортга ҳам катта эътибор беришимиз керак. 20 Сентябр 2018 йил.

олий спортда эришилган ютуқлар билан чегараланмасдан, оммавий спортга ҳам катта эътибор беришимиз керак, – деди Шавкат Мирзиёев [2;1].

Президентимиз ташаббуси билан Мамлакатимиз келажаги бўлган ёш авлодни ҳар томонлама жисмонан баркамол инсон қилиб тарбиялашда Жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини тўғри ташкил этиш йўлга қўйилди. Мактаб ўқувчилари ўртасида ўтказилаётган “Умид ниҳоллари”, Касб-хунар коллежлари ва Академик лицей талабаларининг “Баркамол авлод” мусобақалари, шунингдек Олий ўқув юртлари ва Университет талабаларининг “Универсиада” мусобақалари фикримизнинг яққол далилидир.

Шунга қарамай ҳозирги кунда ёш авлодга мамлакатимиз тарихида ўзбек халқи ва элатлари маданий ва маънавий ҳаётида жисмоний маданиятнинг тутган ўрни, аҳамияти беқиёс бўлганлигини ўргатиш ҳамда миллий спорт турлари ва ўйинларини қайта тиклаш, тарғибот этиш долзарб муаммо бўлиб қолмоқда.

Миллий халқ ўйинлари ўзининг хилма-хиллиги, ҳар қандай шароитда фойдаланиш мумкинлиги, жиҳозларсиз ва мустақил амалга ошириш имкониятлари кенглиги, кураш машғулотларини янада қизиқарли ва самарали ўтказишни таъминлайди.

Фарғона водийси Ўзбекистон Республикасининг муҳим ижтимоий-иқтисодий ҳудудларидан бири ҳисобланиб, қадимдан водий вилоятлари Осиё давлатлари ўртасида ўзининг ишлаб чиқариши маҳсулотлари, тарихий обидалари, маданий мерослари ва миллий кадриятлари билан алоҳида ўрин тутган.

Андижон вилояти ўзининг географик жойлашиши, иқлим шароитига кўра ишлаб чиқариш, саноат қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, чорвачиликни ривожлантириш учун қулай бўлган ҳудудлардан, аҳолисини кўплиги ва зичлиги, яқка тартибдаги меҳнат фаолиятлари, деҳқончилик, хунармандчилик, тўқимачилик, чеварчилик, каштачилик ва бошқа қўл меҳнати соҳалари билан машғул бўлишга катта имкон яратади.

Қадимдан Андижон вилояти ҳудудларида аҳолининг касбий фаолияти билан боғлиқ кўплаб миллий халқ ўйинлари ва урф одатлари мавжудлиги тарихий манбаъларда баён этилган.

Шундай қадимий ўйинлардан бири «Игна санчиш» халқ ўйини бўлиб, бу ўйин чеварлар, тикувчи ва тўқувчиларнинг касбий-миллий ўйинларидан ҳисобланган. «Игна санчиш» ўйини мазмунига кўра 50-60 см атрофидаги доира шаклида тайёрланган ёғочга сурп ёки бўз матоси таранг тортиб боғланиб доира шаклидаги нишон қилинган. Нишон деворга 150-160 см ёки ўйин иштирокчиларининг бўйларига мосланган баландликда деворга жойлаштирилиб, 2 метр масофадан унга чевар, тикувчи ва тўқувчи қизлар томонидан ип ўтказилган катта игнани отиб санчиш машқлари навбат билан бажарилган. Игнани санчимаган қатнашчи ўйиндан четлаштирилган. Биринчи карра бўйича игнаси санчилган қатнашчилар учун нишон 3 метр масофага жойлаштирилган. Ўйин ғолиби аниқлангунга қадар нишон 4-5 метр узоқликка ва бир қатнашчи қолгунга қадар давом эттирилган.

«Игна санчиш» ўйинида асосан қўл меҳнати, чеварчилик, тикувчи ва тўқувчилик билан машҳур бўлган барча ёшдаги қизлар ва аёллар қатнашган бўлиб, ўйиннинг асосий мақсади улардаги жисмоний чарчаш, ақлий толиқиш ҳамда руҳий тушқунлик хиссиётларини бартараф этиш, иш қобилиятларини тиклаш сифатида фойдаланилган. Ҳозирги кунда «Игна санчиш» ўйини соҳа ходимлари ҳамда халқ оммаси томонидан



унутилган хисобланиб Андижон вилоятининг Олтинкўл, Балиқчи ҳамда Избоскан туманларининг чекка қишлоқларида тўй ва бошқа маросимлар учун ташкил этиладиган «Кўрпа қавиш» маросимларида ўйнаб келинади.

Халқимизнинг келин ва кўёвни унаштириш маросимлари ва никоҳ тўйларида келиннинг дугоналари томонидан ўйнаб келинган «Узук олиш» ўйини бўлиб, ўйин мазмунига кўра келиннинг дугоналари доира шаклида қарсак чалиб туришган. Доира ўртасидаги узукни қизлар навбат билан рақс тушиб олдинга эгилиб, тиши билан узукни тишлаб яна тик ҳолатга туриб кетишган. Машқларни маромига етказганлар кўп бўлса, узукни кўзлари билан қисиб олиш шартлари бажарилган. Ҳамма шартлар 2 ёки ундан ортиқ қатнашчи томонидан бажарилган тақдирда ғолиблик уларнинг рақсларининг жозибасига ёки сочларини узунлигига қараб аниқланган.

Халқимизнинг миллий урф-одатлари, анъаналари ва уларда ташкил этиладиган миллий халқ ўйинлари ёшларни ҳар томонлама ҳаётга тайёрлашда шунингдек баркамол инсон қилиб тарбиялашда муҳим восита бўлиб хисобланади. Миллий халқ ўйинлари соғлиқни мустаҳкамлаш, аҳоли ва ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш каби асосий вазифаларни ҳал этади.

¹⁰⁴Ҳар йили баҳор келиши билан бутун олам янгиланади, инсон вужудида шижоат ва ғайрат жўш уради. Шу боис ҳар баҳорда, айниқса, Наврўз байрами кунлари миллий ўйинлар ўтказилади. Улардан бири ёшларни жисмонан соғлом, бақувват, эпчил этиб тарбиялашга хизмат қилса, бошқаси топқирликка ўргатади.

Ўғил болалар “Чиллак”, “Тортишмачоқ”, “Хўроз жанги”ни яхши кўришса, қизлар “Супур-супур”, “Оқ теракми, кўк терак”, “Ҳапшак тош” каби ўйинларга қизиқишади.

Таъкидлаш жоизки, Президентимизнинг миллий кадриятларимизни тиклаш борасидаги саъй-ҳаракатлари туфайли Наврўз умумхалқ байрами сифатида қадимий анъаналар асосида кенг нишонладиган бўлди. Эндиликда ўзининг теран моҳияти ҳамда чуқур фалсафаси, яшариш ва янгилашни палласи, шарқона янги йилнинг дебочаси сифатида ҳаётимизда алоҳида ўрин эгаллади. Наврўз билан боғлиқ тадбирлар, кураш, кўпқари, пойга каби кўплаб халқ миллий ўйинлари, фольклор намуналари, расм-русмлар, урф-одатлар, кадриятлар тикланди ва улар ёшларни миллий ҳамда умумбашарий ғоялар руҳида тарбиялашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Қадимий тарихга эга бўлган халқ миллий ўйинлари ўзининг жозибаси, ранго-ранглиги, ақлий, ахлоқий, жисмоний, эстетик ва руҳий тарбиядаги ўрни билан бекиёс аҳамиятга эга.

Улар ҳеч қачон шунчаки эрмак бўлмаган, балки кишининг гўдакликдан ўсиб-улғайгунича энг муҳим тарбия вазифасини ўтаган. Мурғак бола қатнашган ўйинлар орқали ҳаёт воқеа-лари, табиат ҳодисалари, сўз қудрати, инсоний муносабатлар ўргатилган.

Хусусан, “Беш тош”, “Пичоқ”, “Жамбул”, “Ёнғоқ мерганлик”, “Варрак”, “Овчи”, “Миңди”, “Арқон тортиш”, “Чиллак” каби ўйинлар курашишни ўргатади, ақлни чархлайди. Ўз-ўзини англашни, хатоларни тuzатиш туйғусини шакллантиради. Жамоавийлик туйғусини ҳеч нарса ўйинларчалик сингдира олмайди.

Халқ анъанавий миллий ўйинлари номоддий маданий меросга киради. Шундай бўлгач, узоқ аждодларимиз яратган ва бизгача “суяк суриб” етиб келган халқ миллий

¹⁰⁴ Халқ сўзи. Халқона ўйинларимизнинг халқаро довуғи. 06 Март 2014 й <http://old.xs.uz/>



ўйинларини изламоқ, топмоқ, қайта тиклаб, ёш авлод камолоти учун жорий этмоқ ҳар бир ватанпарвар ёшу кексанинг, зиёлию ишчининг бурчига айланса, маънавий, маданий, руҳий қудратимиз янада кучли, бақувват бўлади. [3;2]

Фойдаланилган адабиётлар.

1. ¹ 2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги 118-сон қарори.
2. ² Халқ сўзи. Шавкат Мирзиёев: Олий спортда эришилган ютуқлар билан чегараланмасдан, оммавий спортга ҳам катта эътибор беришимиз керак. 20 Сентябр 2018 йил.
3. Халқ сўзи. Халқона ўйинларимизнинг халқаро довуғи. 06 Март 2014 й <http://old.xs.uz/>.
4. 500 Харакатли ўйинлар. Т.С.Усмонхўжаев, И.И.Бурнашев, Х.А.Мелиев, Б.Б.Қипчақов. Бекинмачоқ - плус 2010 йил.

ОРГАНИЗУЙТЕ ДВИЖУЩИЕСЯ ИГРЫ ДЕЛАТЬ И ПРОВОДИТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ

Аскарлов Фахритдин Алишерович
Заведующий межфакультетской кафедры физической культуры НамГУ
Аскарлов Ахлиддин Алишер угли
1 курс магистратура факультета физической культуры НамГУ
Аскарлов Мухсиддин Алишер угли
1 курс магистратура факультета физической культуры НамГУ

Аннотация. В статье описаны требования к учителю, методы, используемые при организации и проведении игры экшн.

Ключевые слова: **Переносные игры, счет, сигнализация, игроки, оборудование.**

ORGANIZE MOVING GAMES TO DO AND CONDUCT PEDAGOGICAL REQUIREMENTS

Askarov Fahritdin Alisherovich
head of the department of interfaculty physical culture NamSU.
Askarov Ahliddin Alisher's
son 1-year Masters degree student at the Faculty of Physical culture NamSU.
Askarov Muhsiddin Alisher's
son 1-year Masters degree student at the Faculty of Physical culture NamSU.

Annotation. This article describes the requirements for the teacher, the methods used in the organization and conduct of action games.

Keywords: **Moving games, counting, alarms, piayers, equipment.**

ЎАРАКАТЛИ О'ЙИНАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА О'ТКАЗИШГА ҚО'ЙИЛАДИГАН ПЕДАГОГИК ТАЛАБЛАР

Asqarov Fahritdin Alisherovich
NamDU Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri

Asqarov Ahliddin Alisher o'g'li
NamDU Jismoniy madaniyat fakulteti 1-bosqich magistranti
Asqarov Muhsiddin Alisher o'g'li
NamDU Jismoniy madaniyat fakulteti 1-bosqich magistranti

*Annotasiya. Ushbu maqolada xarakatli o'yinlarni tashkil etish va uni o'tkazishda o'qituvchi pedagogga qo'yiladigan talablar, qo'llaniladigan usullar yoritilgan
Kalit so'zlari. Harakatli o'yinlar, sanash, signal, o'yinchilar, jixozlar.*

Dastur materiallarini muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish va o'yin davomida o'yinchilarning aktivligini oshirish uchun o'rgatishning didaktik printsiplarini xisobga olgan xolda darsning xar xil formalarida xarakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishga bo'lgan pedagogik talablarni bilish va ularni to'g'ri qo'llay olish lozim. Bunda o'yinni tanlash, tayyorgarlik ko'rish, o'yinga xabarlik qilish va uni yakunlash o'qituvchidan katta pedagogik maxorat talab qiladi. O'yinni tanlashda quyidagilar xisobga olinadi:

1. Darsning qayerda va qanday formada (jismoniy tarbiya darsida, tanaffusda, sport sektsiyasida, bayram kechasi va boshqalarda) o'tkazilishi.
2. Dars oldiga jismoniy tarbiya bo'yicha qo'yilgan vazifalar. Masalan 1-sinfda jismoniy tarbiya darsida quyidagi vazifalar qo'yilishi mumkin: to'satdan o'zgaruvchan sharoitda yugurish yo'nalishini tez o'zgartirishga o'rgatish. Bunda darsda "Quvnoq bolalar" singari o'yinlar qo'llanilishi mumkin.
3. O'yin tanlashda yana muxim bir elementni, ya'ni darsning qismini xisobga olish lozim. Ma'lumki, dars 4 qismdan: kirish, tayyorlov, asosiy va yakunlovchi qismlardan iborat. Birinchi "kirish" qismida o'yinchilarni uyushtirishga yordam beradigan, murakkab bo'lmagan, kam xarakat talab qiladigan o'yinlar qo'llaniladi. Ikkinchi - "tayyorlov" qismida o'yinchilarning organizmlarini darsning asosiy qismiga tayyorlash zarur. Bu maqsadda umumiy jismoniy tayyorlov mashqlari, ya'ni yugurish xamda sakrashlar bilan bajariladigan, o'rtacha xarakat talab qiladigan o'yinlar qo'llaniladi. Uchinchi "asosiy" qismida xarakat malakalarini takomillashtiradigan, jismoniy va psixologik sifatlarni chiniqtiradigan va organizmning funksional tayyorgarligini yaxshilaydigan xamda katta xarakat talab qiladigan o'yinlar qo'llaniladi. To'rtinchi "yakunlov" qismida jadal harakatlardan so'ng aktiv dam olishga, shug'ullanuvchilar organizmining nisbiy tinch xolatga o'tishiga va ularning diqqatini bir yerga to'plashga yordam beradigan o'rtacha xamda kam xarakat talab qiladigan o'yinlar qo'llaniladi.
4. Biror pedagogik vazifani xal qilish uchun o'yin o'tkaziladigan joyning sharoiti va jihozlarning mavjudligi.
5. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni jismoniy tarbiyaning boshqa vositalari bilan birga qo'llash, bunda ularni boshqa mashqlar orasidagi o'rnini to'g'ri belgilash.

O'yinga tayyorgarlik ko'rish metodik jixatdan to'g'ri o'tkazish, o'yinchilarning ijodiy fikr yuritishi, ularda tashkilotchilik qobiliyatini o'stirish mashg'ulot vazifalarini to'la hal qilishda, va nixoyat, mashg'ulotning samarasini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. O'yinni o'tkazish uchun eng avval joy va kerakli jixozlarni tayyorlab olish lozim. Agar o'yinni biron xona yoki sport zalida o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, u xolda bu yerda qatnashuvchilarning erkin harakatlariga xalal beradigan narsalar bo'lmasligi kerak. Oynalarning hammasi panjaralar bilan to'silgan, hona yaxshi shamollatilgan, pol nam latta bilan artilgan, o'quvchilarni o'yindan so'ng dam olishlari uchun bir nechta gimnastika skameykalarini qo'yilgan bo'lishi shart. Bu



skameykalar ba'zi bir harakatli o'yinlarda foydalanilishi mumkin. O'quvchilarni tozalikka, ozodalikka va mexnatga o'rgatish maqsadida hamma o'yinga tayyorgarlik ishlarini ular bilan birgalikda bajarish lozim. Ko'pgina harakatli o'yinlarni o'tkazish uchun turli jixozlar bayroqchalar, rangli bog'lagichlar, tayoqchalar, to'plar, raketkalar va boshqalar ishlatiladi. Jixozlar rangli va yetarli miqdorda, kattaligi xamda og'irligi o'yinchilarning kuchlariga mos qilib, did bilan tayyorlangan bo'lishi lozim. Dars samarali bo'lishi uchun jixozlar maxsus ajratilgan joylarda tayyor holda saqlanishi kerak. Jixozlarni ozoda saqlash, qatnashuvchilarga tarqatish va yig'ib olishda o'yinchilarning aktiv qatnashishlari maqsadga muvofiqdir. Jixozlar o'yinchilarga o'yinning maqsadi va vazifasi tushuntirib berilganidan so'ng tarqatiladi. O'yinchilarni maydonda saflash va to'g'ri joylashtirish ham mashg'ulot natijasiga katta ta'sir ko'rsatadigan omillardandir. Shuning uchun o'yinni tushuntirish paytida o'yinchilarni maydonda pedagogni yaxshi eshitib va ko'rib turadigan qilib joylashtirish lozim. Bunda o'yinning mazmunini xisobga olish ham ehtibordan chetda qolmaslik kerak, albatta.

O'yinchilarni quyoshga yoki boshqa yorug'lik manbalari qarshisiga saflantirish mumkin emas. Chunki bunday paytlarda o'yinchilar raxbarni ko'rmaydilar, natijada uning ko'rsatmalarini tushunmay qolishlari mumkin. O'z navbatida tushuntirish chog'ida pedagog ham barcha o'yinchilarni ko'rib turishi lozim. Buning uchun u yorug'lik manbayiga yon tomoni bilan turishi darkor. O'yinchilar maydonda o'yinga kirishish oldidan dastlabki holatni egallab olganlaridan so'ng kapitanlar tanlanadi. Bularning barchasi o'quvchilarga raxbarning ko'rsatmalarini to'g'ri, aniq va tez tushunib olishlariga yordam beradi.

Kapitan vazifasini bajaruvchini tanlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bunga jismoniy tayyorgarligi zo'r bo'lgan o'yinchilar tanlanadi. Bu esa o'yin davomida o'yinchilarning aktivligini oshirishga yordam beradi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, kapitan vazifasini iloji boricha ko'prok o'yinchilar bajargani ma'qul. Ana shunday qilinganda o'quvchilarda tashkilotchilik, boshqaruvchilik sifatleri tarkib topadi.

A. Kapitanni raxbarning o'zi ham tayinlashi mumkin. Bu usulning ijobiy tomoni shundaki, raxbar tayyorgarligi muayyan o'yin kapitanining talablariga javob beradigan o'yinchini tanlaydi. Bundan tashqari, vaqtni tejash imkoni bo'ladi. Ammo bu usulning salbiy tomoni ham bor. Bu ham bo'lsa, o'yinchilarning kapitanni tanlashda aktiv qatnashmasliklaridir. Ushbu usul o'yin qatnashchilari bir-birlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan paytlarda qo'l keladi. Chunki kapitan tayinlagan paytda raxbar qatnashuvchilarga nima uchun shu o'yinchini tanlaganligini qisqacha asoslab beradi.

B. Kapitanni qur'a tashlash, "Sanash" va boshqa yo'llar bilan tayinlash mumkin. Buning uchun o'yinchilar doira shaklida saflanadilar. Bunda "Sanash" oxiri kimga borib to'xtasa, shu o'yinchi kapitan qilib tayinlanadi. Kapitanni yana matematikadan yoki adabiyotdan berilgan savollarga o'yinchilarning qaytargan javoblari asosida ham tayinlash mumkin. Masalan, "O'zbek yozuvchilaridan kimlarni bilasiz?" savoliga qaysi o'yinchi birinchi bo'lib javob qaytarsa, shu kapitan bo'ladi.

V. Kapitanni o'yinchilarning o'zlari tanlashlari eng maqbul usul xisoblanadi. Bolalar odatda, tayyorgarligi va fazilatleri jixatdan o'zlaridan ancha ustun bo'lgan o'yinchilarini tanlaydilar.

Mashg'ulot davomida sharoitga, o'yinning xarakteri va o'yinchilarning kayfiyatlariga qarab kapitan tanlashning har hil usullaridan navbatma-navbat qo'llangan maqsadga muvofiqdir.

G. Darsda yoki oldingi o'yinlarda muvaffaqiyatli qatnashgan o'yinchilarni rag'batlantirish maqsadida ularni kapitan qilib tayinlash ham ancha ma'qul usullardan hisoblanadi.

O'yinning muvaffaqiyatli o'tishi uni O'yinchilarga tez va ravshan tushuntirib berishga bog'liq. Bu esa qatnashuvchilarning o'yinda ongli ravishda aktiv qatnashishini tahminlaydi. O'yining tushuntirilishidagi reja asosida olib borish tavsiya etiladi:

a) o'yinning nomi, b) o'yinchilarning joylashishi, v) kapitanlarning vazifalari, g) o'yinning borishi, d) o'yin qoidasi, e) o'yin natijasi.

O'yinning mazmunini hammaga tushunarli qilib qisqacha gapirib berish, uning asosiy qoidalarini tushuntirish katta ahamiyatga ega.

O'yinchilar o'yinning mazmunini puxta tushunib olishlari uchun qatnashuvchilarning ba'zi bir harakat yo'llarini raxbar o'zi bajarib ko'rsatib beradi. Bunga o'yinchilarning o'zlari ham jalb qilinsa, yana yaxshi bo'ladi. Tushuntirishdan so'ng savollar tug'ilib qolsa, raxbar bu savollarga hammaga eshitarli qilib javob qaytaradi.

O'yinga raxbarlik. O'yinning samarali o'tishi unga qanday raxbarlik qilinishiga bog'liq. O'yin shartli signal bilan boshlanadi. Raxbar hamma qatnashuvchilar o'z o'rinlarini egallab o'yinga tayyor ekanliklariga ishonch hosil qilgandan keyin o'yinni boshlash uchun signal beradi. O'yinning boshidan oxirigacha qatnashuvchilarning harakatlarini kuzatib borib, uning to'g'ri rivojlanishini ta'minlaydi. Buning uchun esa o'yinchilarning xatolarini iloji boricha o'yinni to'xtatmasdan turib bartaraf qilishga erishishi lozim. Shu bilan birga kelishilgan signal bilan o'yinchilarni o'yindan to'xtatishga odatlantirishi kerak.

O'qituvchi bolalarda o'yin qoidalarini tushunib, aniq bajarishni tarbiyalashi lozim. Lekin o'yinchilar o'yin qoidalarini hali uncha yaxshi tushunib yetmaganliklari tufayli, o'yin qoidasining ba'zi bir elementlariga rioya qilmasliklari mumkin. Buning uchun o'qituvchi o'yinni hadeb to'xtatavermasligi lozim, chunki o'yinchilarning qiziqishi pasayib ketadi. Shu jihatdan raxbar pedagogik nazokatli bo'lishi ayniqsa qo'pollikning oldini olishi va unga yo'l qo'ymasligi lozim.

Pedagog o'yin davomida o'yinchilar orasida o'rtoqlik, do'stlik, o'zaro xurmat kabi fazilatlarning tarkib topishi va mustaxkamlanishiga jiddiy e'tibor berishi, ular g'alabadan mag'rurlanib, mag'lubiyatdan tushkunlikka tushib, o'yindan sovib ketmasliklarini kuzatib borishi muhimdir. Ayniqsa, O'quvchilarni komanda man - faatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yishga o'rgatish katta ahamiyatga molik. Har bir o'yin xolisona sudyalikni talab qiladi. Agar o'yinning qoidalariga qanday rioya qilnayotganini diqqat bilan kuzatib turilmasa, o'yin o'z pedagogik jixatini yo'qotadi. Sudyalik vazifasini o'yinchilardan birontasi bajarsa yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'yinchilarda tashkilotchilik qobiliyatlarini tarbiyalaydi. O'yinga o'yinchilar sudyalik qilgan paytlarda pedagogning o'zi xam chetda turmasligi lozim.

Raxbar - sudya butun guruxning va ayni chog'da har bir o'yinchining harakatlarini kuzatib turishi lozim. Noto'g'ri sudyalik qilingan yoki komandalarning birontasiga yon bosgan sudya o'z obro'sini yo'qotadi, pirovardida o'yinchilar uning ko'rsatmalariga ahamiyat bermay qo'yadilar, intizom buziladi. Holisona sudyalik qilinganda esa o'quvchilarni harakat malakalari, jismoniy sifatlari, psixologik qobiliyatlari o'sadi va takomillashadi. O'yin bir necha marta qaytarilganidan yoki belgilangan vaqt tugaganidan so'ng o'yin to'xtatiladi.

O'yinchilar charchab qolmasidan, o'yinni to'xtatish pedagogdan katta maxorat talab qiladi.

O'yinni yakunlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'yin tugagandan so'ng o'qituvchi butun guruxning va ayni chog'da har bir o'yinchining haarakatlariga baho berib, uni yakunlaydi. O'yinda aktiv qatnashgan va qoidani buzmagani o'yinchilarni alohida qayd qilib o'tadi. O'yinni to'g'ri yakunlash uni yanada chuqur egallanishiga, o'yinchilarning unga

qiziqishlarini yana ham oshirishga yordam beradi. Yakunlash vaqtida o'yinning ayrim noaniq bo'lgan detallari aniqlanadi, ziddiyatli vaziyatlar esa xal qilinadi. O'yinni katta pedagogik nazokat va mahorat bilan yakunlash o'quvchilarning intizomlarini darsdan - darsga yaxshilashda, ularda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga qiziqishning ortishida ijobiy ro'l o'ynaydi. Jismoniy tarbiyaning boshqa vositalari orasida o'yinlarning o'rni aniq belgilanishi va ular metodik jihatdan o'zaro tog'ri bog'lanishi lozim. Darslarda o'yinlar o'quvchilarga sog'lomlashtiruvchi ta'sir ko'rsatishi darkor. Shuning uchun ular ko'proq ochiq maydonlarda o'tkazilgani ma'qul. O'yinlar honalarda o'tkazilgan vaqtda qulay gigienik sharoitlar yaratilgan bo'lishi zarur.

Uzoq vaqt davomida, statik holatda sinfda shug'ullangan o'quvchilar aktiv dam olishlari lozim. Shu tufayli harakatli o'yinlarni tanaffus vaqtida o'tkazgan ma'qul. Harakatli o'yinlar ijobiy tuyg'ular uyg'otadi, harakat aktivligini oshiradi va uni rag'batlantiradi. O'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish uchun ko'p deganda 8-10 minut vaqt ketadi. Shu bois ular asosan katta tanaffusda o'tkaziladi. O'quvchilar o'yinlarni mustaqil xamda sinf raxbari, jismoniy tarbiya o'qituvchisi boshchiligida o'tkazishlari mumkin. O'yinlarni maktab xovlisida, qish faslida esa yaxshi shamollatilgan xonalarda yoki yo'lakda o'tkazish lozim. O'yin ishtirokchilari bir necha sinflardan yig'iladi. Shuning uchun o'yin mazmuni jixatidan sodda bo'lishi va uzoq davom etmasligi kerak.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib hulosa qilishimiz mumkinki: agarda pedagog o'qituvchi harakatli o'yinlar tashkil etish davomida o'quvchilarning individual xususiyatlari (Yoshi, jinsi, organizmning fiziologik hususiyatlari) ka'bilarni inobatga olgan holda mos va qulay o'yin tanlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda jismoniy tarbiyaning "oddiydan murakkab" tamoyiliga qat'iy amal qilish lozim. To'g'ri va puxta tashkil etilgan harakatli o'yin natijasi o'laroq o'quvchilarning jismoniy sifatlari bilan birgalikda ularning onglik, faollilik kabi hususiyatlari ham takomillasha boradi, Ularning kelajakda kata sportga qadam qo'yishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Xo'jayev, K.D.Raximqulov, B.B.Nigmanov. Xarakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Cho'lpon nashryoti
2. T.U.Ismoilov Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining pedagogic hususiyatlari.
Diss..ped. fan.nom. Toshkent 2010.-155 bet



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA FIZIK NAMOIYISH TAJRIBALARI, UNING VAZIFALARI VA TIZIMI

Rahmanov Valijon Turdaliyevich,
Guliston davlat universiteti "Fizika" kafedrasida doktoranti,
Guliston shahri
valijonrahmanov4@gmail.com

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga fizikani namoyish etish, tajriba qurilmalari asosida ma'ruza darslarini tushuntirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish orqali fizik qonuniyatlarni o'rganishda ko'nikmalar hosil qiladi. Namoyish tajribalarini fizika darslarida tizimli joriy qilish o'quvchilarga fanning boy mazmunini ochib berishda juda katta yordam beradi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, mantiqiy fikrlash, fundamental, milliy g'urur, iftixor, emotsional, tajriba, pedagogik, psixologik, didaktik, tamoyil, ergonomika, texnologiya, innovatsiya.

ОПЫТ ФИЗИЧЕСКОЙ ДЕМОНСТРАЦИИ В ОБЩЕЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ, ЕЕ ФУНКЦИИ И СИСТЕМА

Рахманов Валижон Турдалиевич,
Докторант кафедры «Физики» Гулистанского государственного университета, город
Гулистан
valijonrahmanov4@gmail.com

Аннотация. Объяснение уроков физики учащимся общеобразовательных школ на основе экспериментальных устройств физики развивает у учащихся навыки изучения законов физики, улучшая их способность мыслить самостоятельно, обучая их мыслить логически. Систематическое введение демонстрационных экспериментов на уроках физики является большим подспорьем для учащихся в раскрытии богатого содержания науки.

Ключевые слова: независимое мышление, логическое мышление, фундаментальное, национальная гордость, гордость, эмоциональный, опыт, педагогический, психологический, дидактический, принцип, эргономика, технология, новаторство.

EXPERIENCE OF PHYSICAL DEMONSTRATION IN GENERAL SECONDARY SCHOOL, ITS FUNCTIONS AND SYSTEM

Rakhmanov Valijon Turdalievich,
Doctoral student of the Department of Physics, Gulistan State University, Gulistan city
valijonrahmanov4@gmail.com

Annotation. Explaining physics lessons to students of general education schools on the basis of experimental physics devices develops students' skills in studying the laws of physics, improving their ability to think independently, teaching them to think logically. The systematic introduction of demonstration experiments in physics lessons is of great help for students in uncovering the rich content of science.

Key words: independent thinking, logical thinking, fundamental, national pride, pride, emotional, experience, pedagogical, psychological, didactic, principle, ergonomics, technology, innovation.

Fizikada bilim, ko'nikma manbaya va tadqiqot usuli tajribadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanni o'zlashtirish o'quv jarayonlari tajribada aks etadi, fizik hodisalarni o'rganishning ilmiy usuli, fanga oid ko'rgazmali qurollar, ya'ni jihozlar yoki namoyish tajriba vositalari bo'lishi kerak[4]. Fizika fanini o'qitishda o'qituvchi o'z fikrini qanchalik mohirona bayon etmasin, baribir maktab o'quvchisi tabiatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarni darhol anglab olishi qiyin. Shu sababli tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, mantiqan fikrlab hamda u bo'ysunadigan qonun-qoidalarni o'zlashtirsa, o'qitishning samarasi yanada oshadi. Shu munosabat bilan ilmiy-metodik izlanishlar tabiiy hodisalarning mohiyatini ochib berishda va o'qitishning samaradorligini oshirishda imkon yaratadi[8].

Namoyish-bu tabiiy fanlardagi hodisalar, jarayonlar va qonuniyatlarni o'qituvchi tomonidan, o'quvchilarga bir vaqtning o'zida hamma narsani anglash uchun mo'ljallangan qurilma yoki vositadir. Namoyish tajribalari fizika fanini anglashga yordam beradi, tabiatdagi hodisa va jarayonlarni, turmushimizdagi texnik vositalarni ishlashi va qo'llanilishi mohiyatini o'rgatish bilan bir qatorda, o'quvchilarni mustaqil tarzda ijodiy fikrlashga, loyihalash, g'oya hosil bo'lishi, tushunchalarni taqdim etish va intellektual kamolotini shakllantirish kabi bir qator salohiyatlarni ochishga yordam beradi[9].

Namoyish tajribasini misollar yoki masalalar yechish bilan almashtirilishi mumkin emas, o'quvchilar hayotiy kuzatuvchilardir. Birinchidan, bu kuzatishlar o'quvchilarning fikirlashlari bir xil emas, turli. Shuning uchun ularning yangi bilimini shakllantirish uchun asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, o'quvchilar namoyish tajriba sinf xonasida ko'pligi bois ular o'z fikrini to'liqligicha bayon qila olishmaydi. Uchinchidan, ayrim fizik hodisalarning fizik qonunlarga zidligi.

O'quvchilarning namoyish-tajribani qabul qilishi va tushunishlari uchun o'sha o'tilayotgan namoyish-tajriba ishining nazariy tushunchalariga ega bo'lishi kerak. O'quv jarayonini yoki o'tilgan mavzularni takrorlashda namoyish-tajribalarining roli katta materiallardir[23]. Qayta o'tkaziladigan tajribalar o'quvchilarga yorqinroq yordam beradi, oldindan o'rganilgan materialni xotirada takrorlash, mohiyatga chuqurroq kirib borishi, tabiat hodisalar va qonunlarini va xususiyatlariga e'tiborliroq bo'ladi[1]. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining 6 va 7 sinflarida tajriba alohida ahamiyatga ega. Birinchi marta fizika fanini muntazam o'rganishga kirishadilar. Bu yerda fizika darslarining o'tilish sifati qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq[3].


Fizika o'qituvchisining eksperimental-uslubiy faoliyati ko'p qirrali bo'lishi kerak: hodisani tahlil qilishi va tajriba sxemasini yig'ishga tanlangan namoyish-tajriba o'rnatishi va darsda uning asosli qo'llanishini ta'minlashi zarur. O'qituvchining ushbu faoliyatining murakkabligi va xilma-xilligi namoyish tajribasi mazmunida aks etadi, shuning uchun o'qituvchi maktab namoyish tajribasining metodikasi va texnikasi tushunchalariga ega bo'lishi kerak[15]. Har qanday namoyish-tajribasi muvaffaqiyatining garovi birinchi navbatda maktabdagi tajriba qurilmalarining sifatiga bog'liq. Ularga birinchi navbatda quyidagi talablar qo'yiladi: yuqori texnik fazilatlar, sodda va yetarlicha kichik hajmdagi qurilmalar estetik dizayn.

Namoyish-tajribasi faqat pedagogik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin agar erishilgan namoyish effekti aniq ko'rinadigan bo'lsa. Namoyish tajribasining yaxshi ko'rinishi va natija berishi uchun quyidagilarni amalga oshirish shart:

1) namoyish tajriba asboblarning maxsus dizayni; 2) jihozlarni maxsus stol ustiga o'rnatish yoki joylashtirish kerak(xususan, vertikal tekislikda); 3) namoyish-tajriba o'rnatish

yo'riqnomasi; 4) aynan o'sha sinf kesimida universal (ko'p funksiyali) laboratoriya ishlanmasi va namoyish tajriba qurilmalari bo'lishini taminlash (1-rasm).

Namoyish tajriba stolida qurilmalar to'g'ri joylashtirish kerak. Namoyish stolida keraksiz qurilmalar bo'lmasligi kerak; o'rnatish tafsilotlari va yo'riqnomasini sinchkovlik bilan o'qish kerak; namoyish-tajriba asboblarni joylashtirish sxematik sxemaga rioya qilgan ketma-ketliklar chapdan o'ngga maqsadga muvofiqdir. Qurilmalar o'qituvchi tomonidan tekshirilishi, to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qilinishi, kerakli manipulyatsiyani bajarishi va stoldan chiqmasdan har qanday elementlarning qo'llarini (yoki tanasini) yopish kerak.



1-rasm

Biz tavsiya qilmoqchi bo'lgan ko'p tarmoqli namoyish tajriba stoli.

Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarida shunday yirik islohotlar amalga oshirilishi lozimki, o'qitish jarayonini takomillashtirish yo'lidagi izlanishlar fizika fanini o'qitishni yuqori darajaga olib chiqishi va dunyo standartlariga mos keladigan yosh mutaxassislar tayyorlash davr talabi ekanini muttasil nazarda tutishi lozim[14]. Shu boisdan o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish, maktab o'quvchilarining olgan nazariy bilimlarini amaliyotga uzviylik bilan bog'lab, mustahkam poydevorga ega bo'lgan ilimli va intellektual salohiyatga ega o'quvchilarni tayyorlash va kelajakda o'z qiziqishini e'tiborga olgan holda oliy o'quv yurtlariga kirish uchun zamin yaratish va shuning uchun maktabdanoq ularni fizika faniga oid nazariy va amaliy bilimlarni berib borish alohida e'tibor beradigan kechiktirib bo'lmaydigan muammolardan biridir[20].

Fizika o'qitish jarayonida nazariy va amaliy ko'nikmalarning uyg'unligini yuzaga keltirish o'qituvchidan katta bilim va mahoratni talab qiladiki, uning mahsulini o'quv ma'lumotlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirgan maktab o'quvchilarida ko'rish mumkin[6]. Laboratoriya namoyish tajribalari nazariy berilgan ma'lumotlardan foydalanib, fizikaviy qonun, hodisa va jarayonlarning to'g'riligini ishonarli tarzda o'quvchilarga yetkazadi[2].

Natijada o'quvchilar o'rganilayotgan fizik hodisa yoki qonuniyatlarni kuzatuvchi, qo'llovchi va tahlil qiluvchi hamda ularga ilmiy asosda yondashuvchi shaxs sifatida shakllanadilar[18]. Laboratoriya namoyish tajribasi fizikani o'qitishda bir tomondan chuqur ma'lumot manbai, boshqa tomondan haqiqatning mezonini bo'lib xizmat qiladi. Fizik tajribalar inson ongi rivojida eng samarali qurol ekanini ta'kidlashimiz lozim[17]. Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablariga, ayniqsa, tabiiy fanlarga, xususan, fizika laboratoriya namoyish tajribalariga, ularning yuqorida sanab o'tilgan o'quv-uslubiy

bazasiga va uning mohiyatidan kelib chiqqan holda, katta ahamiyat berilmoqda. Fizika fanidan laboratoriya namoyish tajribalarining mazmuni, hajmi va o'quv rejasidagi o'rni aniqlashda quyidagilar e'tborga olinishi lozim:

1. Laboratoriya namoyish-tajribalarda o'quvchilar fizikaning dolzarb yo'nalishlari, uning muammolari, zamonaviy, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullari hamda metodologiyasi bilan tanishtiriladi.

2. Fizika fanining laboratoriya namoyish tajribalarining noan'anaviy metodlar mazmuni va bayon etilish uslubi jihatidan muayyan darajada turg'un va konservativ xususiyatga ega bo'lgan adabiyot va o'quv qo'lanmalar ishlab chiqish. Shunga mos tarzda darsliklarda ham ilmiy mazmun faqat tugal qonunlar, nazariya va tushunchalar tarzida bayon qilinib, fan muammolarini ochib berishga, tadqiqot va nazariyaning muqobil variantlariga kam o'rin berilgan. Ular tabiat sirlari cheksiz, qonunlar taqribiy, izlanishlar bepoyon ekanligi haqida o'quvchi ongida yaqqol tasavvur yaratish imkonini hosil qilish. Laboratoriya namoyish tajribalari ta'limdagi ana shunday muammoni bartaraf qilishda katta imkoniyatga ega.

3. Laboratoriya namoyish tajribalari o'quvchilarni muayyan darajada ta'limning oliy maktabga xos usullari bilan tanishtiradi. Ularga qobiliyati, ilmiy va kasbiy mayllarini aniqlab olish imkonini beradi. Bundan tashqari, laboratoriya namoyish tajribalari ilmiy-uslubiy mazmuni, turlari, ularning umumiy fizika va astronomiya fanlari bilan o'zaro mantiqiy - tuzilmaviy bog'lanishlari, shuningdek, laboratoriya namoyish tajribalari orasidagi munosabat hamda bog'lanishlarni aniqlash bilan bog'liq qator masalalar ham yechilishi lozim.

Ushbu laboratoriya namoyish-tajribalari mazmunining tahlili asosida sanab o'tilgan muammolardan ba'zilarining yechilishini ko'rsatib o'tamiz.

"Lazerlarning xalq xo'jaligida qo'llanilishi", "Yarimo'tkazgich qurilmalar va ularning qo'llanilishi", "O'ta o'tkazuvchanlik hodisasi va uning amaliy ahamiyati" va "Elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar tarqatuvchi qurilmalarning insonga, balki tirik organizmga ta'sirlarini o'rganish" kabi laboratoriya namoyish-tajribalari xalq xo'jaligining turli sohalarini fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo'lgan va ulardan foydalana oladigan mutaxassislar bilan ta'minlashda katta ahamiyatga egadir.

Bu laboratoriya namoyish tajribalari fizika fanining "Elektr va magnetizm", "Kvant fizikasi" bo'limlarini o'tish jarayonida joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu laboratoriya namoyish tajribalari orqali fan va texnika yutuqlarini nazarga olgan holda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, tadqiqotchilik qobiliyatlarini yuzaga keltirish va rivojlantirish mumkin.

Bu sohada yana ham samarali ish olib borish uchun mamlakatimiz yetarlicha ilmiy xodim va muhandislardan iborat mutaxassislarga ega bo'lishi kerak. Shu maqsadda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni laboratoriya namoyish tajriba darslariga qiziqtirish, maktabning o'zida fizika fan to'garaklarini tashkil etish va o'quvchilarni robototexnika sohasiga qiziqtirilsa va ularni ilmiy-innovatsion startap loyiha va g'oyalarni shakllantirib borilsa, ishlab chiqarishga tatbiq qilinsa, O'zbekiston Respublikasi rivojiga katta hissa qo'shgan bo'ladi. Bunday mutaxassislarni tayyorlashda, albatta maktab davridanoq o'quvchilarni tabiiy va aniq fanlarga qiziqtirish ularni hozirgi dunyo miqyosida qilinayotgan ilmiy kashfiyotlar bilan tanishtirib borish va o'zlariga vazifa sifatida ilmiy-innovatsion startap loyiha va g'oyalarni topish yoki fikrlarini so'rash orqali ularni intellektual salohiyatini oshiriladi yoki shakllantiriladi va kelajakda ular biron kasb tanlashda, oliy o'quv yurtiga kirishda ikkilanishlar yoki qiyinchiliklarga duch kelishmaydi. Bu borada oliy o'quv yurtining ham beriladigan ta'lim muhim ahamiyatga ega. Shu sababli talabalarini bo'lajak o'qituvchilarimizning o'zini ham

talabalik davridanoq ilmiy-innovatsion startap loyiha va g'oyalariga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va talabalarga faqat fan asoslarini o'rgatish bilangina cheklanmasdan, ularni fan va texnikada qo'llash saviyasini kengaytirish, olgan bilimlarini turmushga tatbiq qila bilishi va ulardan kelajakda amaliy faoliyatlari uchun keng yo'l ochib berish yo'llari bilan ham shug'ullanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyoqulov A.K. Umumta'lim maktablarida fizika o'qitishda fikriy eksperimentdan foydalanish metodikasi.: Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 1997. – 137 b.
2. Agafonov S.V. i dr. Sredstva distansionnogo obucheniya–Metodika, texnologiya, instrumentariy – SPB.: BXV Peterburg, 2003. – 336 s.
3. Aynbinder A.B. Formi sovershenstvovaniya demonstratsionnogo eksperimenta po fizike.: Avtoref. dis... kand.ped.nauk. –M.: 1977. – 25 s.
4. Qurbonov M., Yo'ldoshev B.D. Yarimo'tkazgichlar fizikasiga doir demonstratsion eksperimentlar metodikasi bo'yicha metodik ko'rsatmalar. T.: Universitet, 1992. -38 b.
5. Qurbonov M. Tojiboyeva X.X. Namoyish eksperimentlarini yaratishda ergonomik tamoyillarga rioya qilish // Ta'lim muammolari. 2002.– №3 – B.43–45.
6. Azimov G.A., Islombekov A., Yu. Po'latov. Elektromagnetizm haqidagi ta'limotning yangi sahifalari. –T.: O'qituvchi, 1996. – 198 b.
7. Aleshkevich V.A., Kiselev D.F., Korchajkin V.A. Lazeri v leksionnom eksperimente. –M.: Izd-vo MGU, 1985. – 134 s.
8. Andreev A. A. Didakticheskie osnovi DO. –M.: RAO, 1999. – 121 s.
9. Ansiferov L.I., Pishikov I.M. Praktikum po metodike i texnike shkoloynogo fizicheskogo eksperimenta. –M.: Prosveshenie,1984. – 255 s.
10. Ansupov I.A. Kompyuternoe modelirovanie kak metod issledovaniya. // J.Fizika v shkole. – 2008. – № 2, – 29–34 s.
11. Axmadjonov O.I. Oliy texnika o'quv yurtlarida fizika o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari.: Ped. fan dokt diss avtoref.–T.: 1995. – 47b.
12. Baxodirova Z. Professionalnaya napravlenost obeshobrazovatelnoy podgotovki studentov.: Avtoref. dis.. kand. ped. nauk. –T.: 1990. – 15 s.
13. Begmatova D.A. Fizika praktikumi ishlarini miqdoriy baholashning didaktik asoslari.: Ped. fan. nomzodi diss. avtoref. –T.: 2004. – 20 b.
14. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiya-larini joriy etishining ilmiy–nazariy asoslari. –T.: Fan, 2007. – 105 b.
15. Bepalko V.L., Tatur Yu.G. Sistemno – metodicheskoe obespechenie uchebno – vospitatelnogo protsessa podgotovki spetsialistov. –M.: 1989. – 92 s.
16. Bejanova Z.M. Metodika problemnogo obucheniya uchashixsya fiziki.–Maxachkala.: Daguchpedgiz, 1983. – 80 s.
17. Bejensev M.V. Texnika i metodika leksionnogo eksperimenta po kursu fiziki. –M.:–L., ONTI, Glavtexizdat, 1938. – 282 s.
18. Boltaboeva M.L. Fizika ta'limi jarayonida talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini



rivojlantirish.: Ped. fan nomzodi diss avtoref.–T.:2004. – 20 b.

19. Bublikov S.V., Regel A.A., Chernishov R.V. Obuchenie resheniyu eksperimentalnix zadach po fizike kak sredstvo intellektualnogo razvitiya uchashixsya. –Sankt–Peterburg.: Izd–vo RGPU, 2007. – 84 s.

20. Bugaev A.I. Metodika prepodavaniya fiziki v sredney shkole. –M.: Prosveshenie, 1981. – 288 s.

21. Gayfullin V.G. Organizatsiya i metodika problemnykh urokov fiziki.–Kazan.: KGPI, 1980. – 100 s.

22. Glazunov A.T. Texnika v kurse fiziki sredney shkoli. –M.:Prosveshenie, 1977. – 160 s.

23. Grabar M.I. Primenenie komponentnogo analiza dlya obrabotki rezultatov kontrolnix i anketirovaniy. –M.:Pedagogika, 1984. – 102 s.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV FAOLIYATI VA MOTIVATSIYASINING RIVOJLANISHI

Abdug'opirova Feruza Akramjon qizi

Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

[Tel:+99894-156-10-82](tel:+99894-156-10-82) e.mail: Odilbek82@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kognitiv faoliyat orqali motivatsiyasining rivojlanishi hamda bilimni kuchli egallashga va unga bo'lgan xoxish, extiyojidan kelib chiqib, shaxsning intellektual muammo va vaziyatlarni hal qilish uchun mustaqil fikriga tayangan holda qarorlar qabul qilishi, faoliyat turlariga ruhiy tayyorgarligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, kognitiv faoliyat, ehtiyoj, idrok, motivatsiya, shaxs, intellektual, psixologik ehtiyoj, faollik, qat'iyatlilik, emotsional, tarbiyachi.

РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И МОТИВАЦИИ ДОШКОЛЬНИКОВ

Абдугопирова Феруза Акрамжоновна

Базовый докторант 1-го курса Наманганского государственного университета

[Tel:+99893-925-82-90](tel:+99893-925-82-90) e.mail: Odilbek82@umail.uz

Аннотация: В статье рассматривается развитие мотивации детей дошкольного возраста через познавательную деятельность, а также стремление приобретать и приобретать знания, принимать решения на основе самостоятельного мышления личности для решения интеллектуальных задач и ситуаций, умственную готовность к деятельности и ». .

Ключевые слова: образование, воспитание, познавательная деятельность, потребность, познание, мотивация, личность, интеллектуальная, психологическая потребность, активность, настойчивость, эмоциональность, воспитатель.

DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY AND MOTIVATION OF PRESCHOOLERS

Abdugapirova Feruza Akramzhonovna

Basic doctoral student of the 1st year of Namangan State University

[Tel:+99893-925-82-90](tel:+99893-925-82-90) e.mail: Odilbek82@umail.uz

Annotation: *The article examines the development of motivation of preschool children through cognitive activity, as well as the desire to acquire and acquire knowledge, make decisions based on independent thinking of the individual to solve intellectual problems and situations, mental readiness for activity. " ...*

Keywords: *education, upbringing, cognitive activity, need, cognition, motivation, personality, intellectual, psychological need, activity, persistence, emotionality, educator.*

Hozirgi dunyodagi globallashtirish jarayonlarining shiddatli kechayotgani, axborotlar oqimining kattaligi ta'lim tizimi oldiga nafaqat sog'lom, aqlan rivojlangan, ijodiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash, balki o'zgarib borayotgan olam manzarasida voqelikka moslashuvchanlik, yangi yo'nalish va faoliyat turlarini o'zlashtirishga tayyor bo'lish vazifasini yuklaydi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligi yangi tajribalarga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojlari asosida kelib chiqadi. Buning natijasida ular yangi bilimlarni egallab, ularni kombinatsiyalashtirgan holda xulosalangan bilimlar vujudga keladi.

Ilmiy adabiyotlarda kognitiv faoliyat atamasini bir-biridan inkor qilmagan holda, turli jihatlarini yoritilgan va umumlashtirgan holda quyidagi jihatlarini keltirib o'tish mumkin. Kognitiv faoliyat "bilimni kuchli egallashga va unga bo'lgan xohish" [1,68], "shaxsning intellektual muammo va vaziyatlarni hal qilish uchun namoyon bo'ladigan aqliy holat" [2, 205], "kognitiv natijaga erishishga qaratilgan aqliy faoliyat" va "kognitiv ehtiyoj asosida o'rganilayotgan obyektga intellektual yo'naltirilgan individual munosabatning kuchayishi" va "o'zgaruvchan, ijodiy munosabatning ko'rinishi, aqliy-emotsional reaksiyani ifodalovchi shaxsiy bilim" [3,140] mazmunida tavsiflab o'tilgan. Berilgan tavsiflarni umumlashtirgan holda kognitiv faoliyat eng avvalambor "ehtiyoj" sifatida namoyon bo'lmoqda. Ehtiyoj – bu predmetni faoliyatga chorlaydigan boshlang'ich manba hisoblanadi va faollik, faoliyat yo'nalishini belgilab beradi. Kognitiv faoliyat o'zgarib, rivojlanib boradi hamda bilimga bo'lgan ehtiyoj, ijodiy qobiliyatga bo'lgan ishonchni anglatadi. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilganlarni umumlashtirgan holda kognitiv faoliyatning quyidagi ta'riflarini ajratib ko'rsatish mumkin: bilim faoliyati aqliy muammolarni hal qilish uchun kayfiyatda ifodalangan ruhiy holat sifatida; bilimlarni puxta egallashga tayyorlik va xohish; ma'lum bir kognitiv natijaga erishishga qaratilgan aqliy faoliyat; shaxsning bilim obyektiga transformatsion, ijodiy munosabatning namoyon bo'lishi; bilish jarayoniga intellektual munosabatni bildiradigan shaxsiy ta'lim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kognitiv faoliyat darajasini baholash uchun quyidagi uchta mezonlardan foydalanildi:

- 1) motivatsion (bolalarda kognitiv ehtiyojlarning shakllanishi, motivlarning kuchliligi va jiddiyligi);
- 2) intellektual (intellektual bilim va ko'nikmalarni shakllanish darajasi);
- 3) amaliy (shaxsning barcha faoliyati va munosabatlarida kognitiv faoliyatning namoyon bo'lishi).

Bolalar atrof-olam, dunyo obyektlari, voqea va hodisalari haqida ma'lumotga ega bo'lishga intiladi. Bolalarning kognitiv faolligini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: yangi ijtimoiy tajribaga intilish, aloqa, muloqot, almashinuv. Bolaning bilimli, axloqiy, ijodiy, ijtimoiy faol, o'zini o'zi rivojlantiradigan shaxs sifatida kognitiv faolligini oshirishning ikkita usuli mavjud bo'lib, ulardan keng tarqalgan turi intensiv usuldir. Bu usul maktabgacha yoshdagi bolalarga yetkazilgan bilimlar hajmini

oshirish orqali amalga oshiriladi. Bunda ularning shaxsiy qiziqishlari asosida pozitsiyasini shakllantirishga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlari tarkibi va mazmuniga o'zgartirish kiritishga yo'naltiriladi. Bu esa aynan maktabgacha bo'lgan yoshda o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi. Fanda esa bu usul "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" ning asosiy mezonlari sifatida belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyati yetakchi psixologlar tomonidan "aqliy rivojlanish – turli kognitiv, indikativ harakatlarning assimilyatsiyasi" deb, idrok va aqliy faoliyatga katta ahamiyat berishadi. Maktabgacha yoshda bolalarda kognitiv faollikni rivojlantirishda idrok yetakchi rol o'ynaydi. Idrok – bu aqliy qabul qilish tushunchasi bo'lib, mazkur tushuncha bilan borliqdagi ma'lumotlarni qabul etish va ularni qayta ishlash qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Bilim har doim, hamma joyda mavjud va bilim orqali borliq, atrof-muhit inson hayotining bir qismiga aylantiradi. Xeyes tomonidan idrok quyidagi sohalarga bo'linadi:

- atrof-muhitni idrok etish: sezgi organlari orqali;
- muayyan hodisalarga e'tibor: qiziqish obyektlari;
- fikrlash: miyada axborotni qayta ishlash;
- axborotni saqlash: ma'lum muddatdan so'ng axborotni "faollashtirish" uchun xotirada saqlash;
- ma'no, mazmun va mohiyatni anglashi [4,95].

Psixologlar va pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanganligini uchta mezon asosida aks etishini aniqlaganlar: nutqni rivojlantirish darajasi, kognitiv harakatlarning (idrok) rivojlanish darajasi va vizual-majoziy, mantiqiy fikrlashning shakllanish darajasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyatini faollashtirish ma'lum bir rag'batlantirishni boshqa tomondan esa kognitiv jarayonni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Kognitiv jarayonlar bilimlarni idrok etish, yodlash, saqlash, tushunish, takrorlash va izohlashdan iborat ketma-ketlikda namoyon bo'ladi. Kognitiv faollashtirish jarayonning har bir bosqichida sodir bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi esa bilimlarni faollashtirishni rag'batlantirish va kognitiv jarayonlarni kuchaytirish usullari, texnika va mashqlarini bilishi lozim bo'ladi.

Kognitiv faoliyatning samarali amalga oshishi va natijadorligi motivatsiyaga bog'liq. Kuchli istak faol harakat qilish, qiyinchiliklarni va noqulay sharoit va vaziyatlarni yengish uchun sabab bo'ladi. Motivatsiya bolalarni faol kognitiv faoliyatga undash uchun jarayonlar, usullar, vositalarning umumiy nomi bo'lsa, motivlarni pedagoglar va bolalar birgalikda boshqaradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv motivatsiyani rivojlantirish – maktabgacha ta'lim tashkilotining imkoniyatlari va shart-sharoitlari, pedagoglarning kasbiy mahorati, didaktik materiallarning bolalar qiziqishiga moslanganligi, tashkil etiladigan mashg'ulotlar va loyihalarning bolalar ehtiyojlari va motivatsiyalari asosida tashkil etilganligiga bog'liq. Shuningdek, hamkorlikda o'rganish, ijodiy topshiriqlar, o'yinlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bajariladigan mustaqil ishlar va uyda bajariladigan topshiriqlar bolalarning kognitiv motivatsiyasini oshiradi. Bolalarning motivatsiyasi va ehtiyojlariga mos keluvchi faoliyat ularda "Men"ining rivojlanishiga ta'sir qilsa, boshqa tomondan o'zini anglash, shaxsiyatini rivojlanish va kognitiv mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kognitiv motivatsiya tashqi va ichki ko'rinishga ega. Tashqi motivatsiya ota-onalardan, pedagoglar, shuningdek jamiyat, ijtimoiy muhitdan kelib chiqadi. Tashqi motivatsiya maslahatlar, ko'rsatmalar, talablar shaklida bo'ladi. Bular bolalarga ko'p hollarda qoida yoki

“bosim” tariqasida tushunishiga sabab bo‘ladi. Ichki motivatsiya esa bolaning ichki qiziqishi, ehtiyoji, xohish-istagi, intilishidan kelib chiqadi. Boladagi kuchli motivatsiyaning rivojlanish manbai o‘zi hisoblanadi. Bolalardagi kognitiv motivatsiya atrof-olamni tushunishga asoslangan rag‘batlantiruvchi motivlar, bilim olishdan qoniqishga asoslangan intellektual rag‘batlantiruvchi motivlarni o‘z ichiga oladi. Intellektual rag‘batlantiruvchi motivlar orasida kognitiv qiziqish alohida o‘rin tutadi. Kognitiv faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qiziqish maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv qiziqish insonning o‘ziga xos bilimga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi va uning tabiiy mulki hisoblanadi.

Bolaning kognitiv faoliyati boshlanishi – bu atrof-dagi voqelikka yo‘naltirgan e‘tibori, kuzatishi, fikrlashi, taqqoslashidir. Bu esa boladan kognitiv qiziqishni talab etadi. Bu orqali yangi ma‘lumotlar paydo bo‘lishiga va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Qiziquvchanlik kognitiv qiziqishning yuqori shakli hisoblanadi. Bolalarda qiziquvchanlikning rivojlanishi uning shaxsiy, ma‘naviy ehtiyojiga va shaxsiy prinsipiga aylanadi.

Bilimga bo‘lgan ehtiyoj murakkab, serqirra xususiyatga ega va quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Ijtimoiy ehtiyoj. Shaxsning bilimga bo‘lgan ehtiyojini o‘zida aks ettiradi.
2. Psixologik ehtiyoj. Shaxs ma‘naviy faoliyatini o‘zida aks etishi.
3. Psixofiziologik ehtiyoj. Shaxsda bilimlar ma‘lum bir neyrodinamik jarayonlar tufayli sodir bo‘lganligini nazarda tutadi.
4. Pedagogik ehtiyoj. Shaxs ta‘lim va tarbiya jarayonida shakllanadi, bilimlarni o‘zlashtirish va rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi.

Bolalarda kognitiv qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish uchun maqsadli, tizimli pedagogik faoliyat talab etiladi. So‘nggi pedagogik tadqiqotlarda “kognitiv mustaqillik” atamasi keng qo‘llanilmoqda. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘quv mashg‘ulotlarida bolalarning turli topshiriqlarni mustaqil tanlashi, bajarishi, hamkorlikda ishlashi uchun sherik qidirishi, topshiriqni bajarish uchun joyni o‘zi belgilashi “kognitiv mustaqillik”ni asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Didaktik jihatdan topshiriqlar ham “kognitiv mustaqillik”ni ta‘minlashi uchun, topshiriqlar ham ochiq, bir nechta yechimlarga va yechish variantlarga ega bo‘lishi lozim.

Kognitiv faoliyat turli omillar ta‘siri ostida rivojlanadigan murakkab shaxsiy ta‘limdir va bu omillar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Subyektiv omillar: qiziquvchanlik, qat‘iyatlilik, iroda, motivatsiya va boshqalar.
2. Obyektiv omillar: atrof-muhit sharoitlari, o‘qituvchining shaxsiyati, o‘qitish usullari va uslublari.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatining tarkibiy elementlari: intellektual – bolalarning aqliy faolligi darajasi; motivatsion komponent – bolalarning darsda, o‘yinda qatnashish istagini belgilaydigan ehtiyojlar, sabablar, qiziqishlar; amaliy tarkibiy qism – haqiqiy amaliy faoliyatda kognitiv faoliyatning namoyon bo‘lishini o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda didaktik prinsiplarni mohirona qo‘llaganda bolalarning kognitiv faoliyati faollashuviga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirish asosiy pedagogik-psixologik sharoitlarni hisobga olgan holda o‘qitish usullari va shakllarini tanlash,



uni uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ularning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tanlangan didaktik materiallar samaradorligini ta'minlaydi.

Bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish o'quv mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida ularga kognitiv mustaqillik berish, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, kognitiv rivojlanishning keyingi bosqichlariga erishishni rag'batlantirish va yo'naltirib turish, topshiriqlarning asta-sekin murakkablashtirib borish, intellektual faoliyatning yangi turlarini mashg'ulotlarga tadbiq etish, har bir bolaning kognitiv faoliyatini doimiy ravishda o'rganish va bunga individual yondashish orqali amalga oshadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kognitiv faoliyatning ta'riflaridan kelib chiqqan holda uni "bilimlarni puxta egallashga tayyorlik va xohish", "ma'lum bir kognitiv natijaga erishishga qaratilgan aqliy faoliyat", "bolalarning bilim obyektiga transformatsion, ijodiy munosabatining namoyon bo'lishi" yoki "bilish jarayoniga intellektual munosabatni bildiradigan shaxsiy ta'lim" sifatida qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бережнева А.Н., Голиков А.И. Повышение уровня учебной мотивации детей среднего школьного возраста в условиях реализации ФГОС // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. – 2016. – № 2. – С.67-71.
2. Пустовойтов В.Н. Развитие познавательной самостоятельности учащихся старших классов (на материале математики и информатики): дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 – Брянск, 2002. – 205 с.
3. Каменский А.А. К вопросу о развитии познавательной самостоятельности школьников // Человек и образование. – 2012. – № 4. – С.139-141.
4. Hayes, S. C. (1995). Knowing selves. *The Behavior Therapist*, 18, 94-96.



МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1	Ratsional funksiyalarni integrallashning noan'anaviy usullari. Begaliyev O., Qurbonnazarov A., Artikov M.....	3
2	Arduino platasida uzilishlar va ularni boshqarish. Ergashev H.N	13
3	Avtomobil raqamlarini tanish uchun haar detektordan foydalanish. Holmirzayev H., Nastinov S.....	20
4	About one property of the exponential matrix. Qushaqov Kh., Muhammadjonov A., Jurayev Sh.	26
5	Statik noaniq sistemalarni hisoblashda ko'chishlarni aniqlash formulalari Jo'lanov I., Parmanov N.	31
6	Nilradikali maksimal uzunlikdagi Kvazi-Filiform algebra bo'lgan yechiluvchan Leybnits algebrasining to'liqligi. Mamadaliev O', Satiboldiev I.....	35
7	Amorf yarimo'tkazgichlarda valent zona dumidagi hamda nuqsonlardagi elektron holatlari taqsimot funksiyalarini hisoblash. Jalalov R., Madumarova S.	39
8	Algorithm of grinding sound signals. Abdukodirov E.	44
9	Pre-processing of audio signals Bazarova Sh.	48
10	To'g'riburchakli membrananing erkin tebranishini boshlang'ich shartlar bo'yicha aniqlashda maple tizimidan foydalanish. Mirzakarimov E.....	53
11	Matchad исполнитель укрупнённых алгоритмов Имомов А.....	62
12	Limit theorem for a discrete branching process Ibragimov R., Mashrabboyev A., Mamatboyev D.	66
13	Нопараболик дисперцияли икки ўлчамли электрон газ химиявий потенциалининг табиати Тоҳиржонов М., Махмудов А., Юнусов О., Халматов А., Махмудова Д.....	70
14	P-N ўтиш дифференциал ўтказувчанлиги ва диффузия сифимига кучли электромагнит майдон ва деформациянинг таъсири Гулямов Г., Дадамирзаев М., Косимова М., Ёқубжонова М.....	76
15	Электронлар қизишининг туннел диоди характеристикаларига таъсири Гулямов Г., Дадамирзаев М.Г., Ўктамova К.М., Абдувахобова Х.А.....	84



02.00.00

КИМЁ ФАНЛАРИ
ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ
CHEMICAL SCIENCES

16	Past va o`rtacha molekulyar og`irlikka ega bo`lgan Xitozan moddasini qog`oz sifatiga ta`sirini o`rganish. Egamberdiyev E.A., Ergashev Y.T., Xaydullayev X.H., Normatov G.A., Rahmonberdiyev G.R.	90
17	Synthesis of biodegradable superabsorbing hydrogel based on wood sawdust cellulose, urea and acrylic acid. Kholnazarov B., Turaev K., Rashidova G., Jalilov A., Shirinov Sh.....	94
18	Paxtani qayta ishlash mashina va mexanizmlarining ishchi organlarida kompozit polimer materiallardan foydalanish Eminov Sh., Xokimov A.	100
19	Органическое производство пищевых продуктов Садикова М., Касымова Н.	103
20	Mikrog`ovakli adsorbentga suv bug`i adsorbsiyasi differensial entropiyasi va termokinetikasi Xudayberganov M.	109
21	Концентрированные фосфорсодержащие удобрения на основе фосфорнокислотной переработки химически обогащенного фосфоконцентрата фосфоритов Центральных Кызылкумов Расулов А.А., Хакимов М.О., Тошматов Й.Р., Намазов Ш.С., Турсунова С.Д., Киргизова М.М.	113
22	Изучение и разработка способов получения антипиреновых средств на основе продуктов переработки низкосортных фосфоритов Центрального Кызылкума. Муратова М., Турсунова И.Н.	121
23	Оловли ўт (<i>phlomoïdes nuda</i>) ўсимлигининг кимёвий таркиби ва ундан халқ табобатида фойдаланиш Ҳайдарова Д.Р.	125
24	Глутаминнинг Na⁺, Mg⁺² ва Zn⁺² ионлари билан бирикмалари биологик фаоллигини ўрганиш (pass таҳлили) Сайфуллаев М., Ганиев Б., Мардонов Ў., Музафаров Ф.....	128
25	Физико-химические свойства гидроксилсодержащих сложных полиэфирполиолов Тоширов М., Жуманов Л., Сайтов Б., Алимухамедов М., Жураев А.....	135



03.00.00
БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES

26	In Vitro plant regeneration of Paulownia Shan Tong Ubaydullaeva H.A., <u>Bolkiev A.A.</u> , Sultonova SH.A., Abdullaev A.N., Eshmurzaev J.B., Abdullaev S.A.	140
27	Comparison analysis of fiber quality traits in parental genotypes of the nested association mapping population under natural saline land and optimal conditions Normamatov I.S., Makamov A.KH., Kholmuradova M.M., Boykobilov U.A., Khusenov N.N., Norbekov J.K., Kushakov SH.O., Buriev Z.T.	147
28	Фаунистический анализ гельминтов амфибий ферганской долины Икромов Эл., Икромов Эр., Амиров О.....	154
28	Neuropeptidlar va ularning biologik vazifalari Qodirova Z.....	160
30	Shotara(<i>fumaria vaillantii loisel.</i>)ning gullash biologiyasi Qarshiboyeva N., Mamirova X.	164
31	Фарғона водийси шимолий адирларида тарқалган <i>Amaranthaceae</i> оиласининг таксономик таҳлили Хошимов Х., Батошов А., Шарипов И.	167
32	Агрофизические свойства почвенного покрова ивановской области и его оценка Гончаров В.М., Фаустова Е.В., Юлдашев Г.Ю.....	172
33	Митохондрия липидларининг перекисли оксидланишида Ф осфолипидлар таркибини ўзгариши ва уни Фловасан билан коррекциялаш Мамажанов М. М., Ниёзов Қ. А.	178
34	Морфогенетические реакции и стратегии жизни мягкой пшеницы при воздействии гербицидов Пардабаев Ш.Т.	185

09.00.00
ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES

35	Жамият барқарорлигини таъминлашнинг объектив ва субъектив омиллари Аббосова	194
36	Жамият муҳитини ахлоқий меъёрлаштириш асослари. Нурматова И.....	198
37	Ибн Ал-Арабийнинг имом ғаззолий тўғрисидаги фикрларининг фалсафий-тарихий аҳамияти Музаффаров Ф.Д.....	203



38	Диний ва фалсафий таълимотларда ижтимоий-деструктив ҳолатлар талқини Бекмуродова Г.	209
39	Жамият тараққиётининг имманент қонунлари (ижтимоий – фалсафий ёндошув) Саданова Д.А.	213
40	Жисмоний маданиятнинг айрим фалсафий-валеологик масалалари Саидназаров У.А.	217
41	Эркин шахсдан эркин жамият сари! Мирзаев М.	221
42	“Зиёлилик маданияти” тушунчасининг назарий-методологик жиҳатлари Раджапов О.Б.	226

10.00.00

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

43	Typological features of the genre elegy Karamatova Z.F.	232
44	Son komponentli iboralarning semantik tahliliga doir (italyan va o'zbek tillari misolida) Xudoyqulov B.	238
45	The system of introduction of pedagogical technologies in didactic processes of higher education on the example of youth pedagogy Alimdjanova D.N.	244
46	Адабиётшуносликда бадиий психологизм тараққиёти Авезов Э.Т.	251
47	Maqol va matallar paremiologiyaning asosiy birligi sifatida Komolova Sh.A.	255
48	Muhammad Yusuf she'rlarida “vatan”, “ona”, “opa – singil”, “sevgi– muhabbat”, “sadoqat” kabi insoniy tuyg'ularni bildiruvchi lingvokonsept Tojimatov R.G', Tojimatova M.U., Holmurodova N.G'	260
49	Қодирий ҳажвияларида айрим ёрдамчи сўзларнинг ифода имкониятлари Пардаева М.Х.	267
50	Hozirgi zamon nemis yoshlari sotsiolektida anglitsizmlar. Anglicisms in the sociology of modern German youth. Narmatova A.P.	271
51	“Ўгай она/stepmother” лексик бирлигининг структур-семантик таҳлили Жалолова Ф.Н.	276
52	Ўзбек тилидаги антономазияларнинг айрим хусусиятлари Ачилова Р.А.	282
53	Ingliz tilida semasiologiya va polisemiyaning ifodalanishi Norova M.B.	287



54	Улучшение поэтического содержания юмористической детской поэзии Джураева Г.А.....	292
55	Jahoning buyuk yozuvchilari V.Shekspir va A.Navoining asarlarini qiyosiy o'rganishning ahamiyati hususida("Layli va Majnun" hamda "Romeo va Juliyetta" asarlari misolida) Soliev Y.	299
56	Ingliz nutq etiketining o'ziga xos xususiyatlari. Qosimova N.F., Amonova M.O.	303
57	Le role de l'enseignant pour valoriser l'apprentissage du français To'yboyeva Sh.R.	310
58	Iqtisodiyot sohasi terminlarining nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima variantlari To'rayeva F.Sh.	314
59	Functional specificity of philosophical concepts and terms Sadullaev D.B.	318
60	Nemis tilidagi yoshlar leksikasida o'zlashtirma so'zlar va ularning xususiyatlari Saidova D.A.	323
61	Nutq odob-axloq qoidalari lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida Soliyeva M.A.	328
62	Sossyur ta'limoti va zamonaviy o'zbek tilshunosligi Bobokalonov R.R.	333
63	Қўшма сўзларнинг концептуал таҳлил масаласи Юлдашев А.Г.....	338
64	Ҳикояда тарихий образ талқини Амиркулова З.М.	346
65	Badiiy tasvirda alliteratsiya va assonans – stilistik figura sifatida Haydarov A.A.	351
66	Сравнительный анализ средств выражения речевой цепочки на французском и узбекском языках Анарбоева И.О.	356
67	Аргументация в рекламном тексте в рамках теории речевых актов Ахтямов А.Э.	363
68	Романда аёл кўнглининг бадий тасвири Ашурова Н.Х.	368
69	Нутқ маданияти масалаларининг синчи тадқиқотчиси Аҳмедова Ҳ.	375
70	Ўзбек ва рус тилларида маданий-истироҳат объектларини ифодаловчи индикаторлар ва уларнинг функционал-семантик хусусиятлари Исломова Д.А.	380
71	Замонавий тилшуносликда иқтисодий дискурсининг тадқиқи Мамадаюпова Ш.	386
72	Инглиз ва ўзбек тилларида "head/bosh" концептини ифода этувчи фразеологик бирликларнинг изоморфик хусусиятлари Эштўхтарова Б.Б.	395
73	Баҳолаш категориясини тадқиқ қилишда янгича ёндашувлар. Мансурова Г.М.	400



74	Ingliz – o‘zbek – rus tillaridagi “Tarjimonning soxta do‘stlari” va tarjima muammolari	
	Mansurova N.	404
75	Раҳимбобо Машраб ижоди тадқиқининг бугунги ҳолати борасида	
	Қўзиёв У.	412
76	Инглиз тилидан ўзлашган ахборот коммуникация технологиялари терминларини ўзбек тили лексик тизимига мослашиш жараёнлари	
	Мавлонова М.Д.	417
77	Ingliz va o‘zbek tillarida noaniqlik ma’nosining modal vositalar orqali ifodalanishi	
	Gadoyeva M.I.	422
78	Tohir Malik asarlarida bola etaloni bilan bog‘liq o‘xshatishlarning ifodalanishi (“Shaytanat” qissasi misolida)	
	Iskandarova Sh., Turaqulova U.A.	426
79	Терминлар тизимига оид тадқиқотлар хусусида	
	Наширова Ш.Б.	430
80	Нутқ маданияти ва миллатлараро маданият принципларига риоя қилиш чет тилларни ўрганишдаги асосий меъёрдир	
	Кариёва М.А.	435
81	Речевое поведение в качестве способа актуализации личности	
	Рахматова О. К.	440
82	Особенности поэзии о. мандельштама	
	Атамирзаева К.	445
83	Об одной из древнеевропейско-скифских изоглосс	
	Тян Н.В.	449
84	Хайём майи талқини	
	Қурбонов С., Худайбердиев А.	454
85	Jurnalistika funksiyalariga doir masalalar xususida	
	Madolimov H.	460
86	Ta’lim sohasida yoshlarga qaratilgan davlat siyosati	
	Qurbonova M.A.	466



13.00.00

**ПЕДАГОГИКА ФАHLAPИ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES**

87	The importance of teaching reading skills to the students of higher educations Kadirova F. R.	471
88	O'quvchilarga robototexnik qurilmalarni yasash va dasturlashni o'rgatish yo'llari Abdullaev A.X., Rivojiddinov Sh.F., Zaxidov I.O.	474
89	Boshlang'ich sinf "ona tili" va "o'qish" darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida. Akbarova O.	481
90	Литературный перевод и чтение Турабоева К. Э.	487
91	Challenges in teaching communication in english for professionally-oriented students Kodirova D.	491
92	Communicative competence in learning german language Ishonqulova N.T.	494
93	Bolalarning o'sish va rivojlanishiga statik mashqlarning ta'siri Boyboboyev B., Mamajonov D.	498
94	Mediasavodxonlik Rahimova D.	503
95	Ijtimoiy kompetentlik ijtimoiy hayotga moslashishning sharti sifatida Soliyeva ..	509
96	Использование информационных и коммуникационных технологий в развитии навыков логического мышления у детей дошкольного возраста. Отаханов Н.	512
97	XI Asrdagi turkiy xalq taomlari Qo'chqarov B.	515
98	Преимущества изучения иностранных языков с помощью современных инновационных технологий Азимова М., Жураева Л.	519
99	What language learning strategies do adolescents use while learning english? Kuchkarova Y.	523
100	Loyihalash texnologiyasi asosida o'smirlarni ijodiy fikrlashga o'rgatish metodikasi Qurbonova D.	528
101	Geografiya darslarida rolli o'yinlardan foydalanib o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi ("Inson faoliyati muhim ekologik omil sifatida" mavzusi misolida) Xalilov X.	531
102	Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси фанини ўқитишда бутунги кундаги муаммолар ва уларни ҳал қилишдаги истиқболли тавсиялар Абдуллаев Ш.	535



103	Халқ ўйинларининг таълим – тарбия жараёнидаги педагогик омиллари Эгамбердиева Т. А.	541
104	Communicative-cognitive method as a modern means of enhancing english learners' motivation Isroilova B.	546
105	O'quvchilarni tinglashga o'rgatish Nishanov M., Abdurahmanov B..	533
106	Malaka oshirish orqali boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy kompetetnsiyasi rivojlantirish yo'llari Nuraliyeva N.	557
107	Обучение стратегиям чтения esp (английский для неспециалиста) студентов Гофурова С.	562
108	Sinf rahbarining sinf jamoasini tashkil etish metodikasi Asqarova S.	566
109	Professional ta'limni takomillashtirishda elektron ta'lim manbalaridan foydalanish usullari Xudayberdiyev Sh.	571
110	Грамматика немис тилини ўргатишда муҳим восита сифатида Бўрибаева Ш.	576
111	Бўлажак ўқитувчиларда антифрустрацион кўникмаларни шакллантириш зарурати Жарқинова Д.	581
112	Во'лажак ofitser shaxsida kasbiy kompetentlikni shakllanishi Alimardonov Z.	588
113	Инглиз тили дарсларида талабаларни лойиҳа асосида ўқитишга тайёрлашда микро технологиялардан фойдаланиш тизими Каримова Н.	592
114	Кимдан экспериментлар ўтказиш тарихини ўрганиш Нишонов М., Иброхимов А., Мирзаева З.	599
115	Физика-математика мутахассисликлари талабаларида моделлаштириш компетенциясини шакллантириш Коржавов М.	603
116	Литературные игры на уроках внеклассного чтения в среднем звене школы Буранова Н.	609
117	Ўқитувчиларни эргономик фаолиятга тайёрлаш Абдуллаев С.	613
118	Олий таълимда таълим сифати диагностикасининг асосий йўналишлари Уринов Б.	623
119	Мактабгача yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish Axlimirzayev A., Mamadjanova M., Ikromova N.	627
120	Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xissiy-axloqiy tarbiyalashning metodik jihatlari Dadaboev R.	631



121	Содержание учебно-педагогической практики и ее организационно-дидактические условия Рафикова Д.	635
122	Ижтимоий кўникмаларни шакллантиришда эмоционал интеллектнинг ўрни ва аҳамияти Раҳимова М.	642
123	Significance of student- centered lessons in developing linguadidactic competence of future english teachers Makhkamova K.	648
124	Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масалаларига доир Джуманазарова З.	660
125	To'g'ri to'rtburchak shakldagi chegaralangan plastinka egilishlarini kollokatsiya metodi yordamida hisoblash Turdaliyev Z.	664
126	Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining front ortidagi jasorati Saliyev A.	670
127	“Физика” фанида интерактив методларни қўллаш орқали амалий машғулотлар самарасини ошириш йўллари Ахмедов Э., Хамидов О.	676
128	Алоҳида ёрдамга мухтож ўқувчиларни касбга йўналтиришда оиланинг таъсир Холмирзаев Ш., Жўраева З.	681
130	Badmintonchilarning tezkorlik sifatini tarbiyalashda vosita va metodlar Mullabayeva M., Mavlonova O.	686
131	Ёш авлод тарбиясида миллий халқ ўйинларининг моҳияти. Мамадалиев К.	690
132	Организуите движущиеся игры делать и проводить педагогические требования Аскарлов Ф., Аскарлов А., Аскарлов М.	694
133	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizik namoyish tajribalari, uning vazifalari va tizimi Rahmanov V.T.	699
134	Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyati va motivatsiyasining rivojlanishi Abdug'opirova F.A.	704